O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Al-Xorazmiy nomidagi Urganch Davlat Universiteti

«O`zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va falsafa» kafedrasi

«SIYOSATSHUNOSLIK» FANIDAN

MA’RUZA MATNI

Bakalavriat: Barcha ta’lim yo’nalishlari uchun

Tuzuchi: Abdullaev.M

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqqillikka erishgandan so’ng o’n olti yillik qisqa davr mobaynida davlatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotida katta o’zgarishlar yuz berdi. Yangilanish, mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish, modernizatsiyalashtirish jarayonibarcha sohalar kabi ijtimoiy fanlarni o’qitish, ularning mazmun mohiyatini davr talablari asosida qaytadan o’zgartirish vazifasini qo’ydi. Shu jumladan oliy o’quv yurtlarida o’qitilayotgan «Siyosatshunoslik» fanining eng dolzarb vazifasi yoshlarning zamonaviy siyosiy dunyoqarashini shakllantirish, ularning intellektual kamolotga erishuvini ta’minlashdir. Shu bilan birga siyosiy muammolarga qiziqadigan talabalarni hozirgi siyosiy fan va demokratik madaniyat asoslari bilan tanishtirishdan iborat.

Prezidentimiz I.A.Karimovning: *«Ko’p asrlik tariximiz shuni ko’rsatadiki, inson dunyoqarashining shakllanishida ma’rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o’rni beqiyos. Bu jamiyatshunoslik bo’ladimi, tarix, falsafa, siyosatshunoslik bo’ladimi, psixologiya yoki iqtisod bo’ladimi - ularning barchasi odamning intellektual kamolatga erishuvida katta ta’sir kuchiga ega»* - deb ta’kidlashlari bejiz emas.

Mazkur ma’ruzalar matnida O’zbekistonda va butun dunyoda siyosiy qarashlarning vujudga kelishi, rivojlanishi, mamlakatimizning siyosiy va davlat qurilishining o’ziga xos xususiyatlari, siyosiy jarayonlar, xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat, dunyo xavfsizligini ta’minlash, xalqaro tashkilotlar faoliyatlari chuqur tahlil qilingan.

Siyosatshunoslik fani milliy istiqlol mafkurasi tamoyillariga tayangan holda ana shu siyosiy jarayonlarni, siyosiy hayot, siyosiy munosabatlar sohasida mavjud bir qator muammolarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qiladi, o’rganadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Milliy istiqlol g’oyasi konsepsiyasida asosiy maqsad va ustuvor g’oyalarga alohida to’xtalib, *«chunki jamiyatimiz, mamlakatimiz o’z oldiga qo’ygan ezgu muddao va vazifalarni aniq – ravshan belgilab olmasdan turib, millatimizning asriy an’ana va urf – odatlarini, o’zligimizning asosiy xususiyatlarini mujassam etadigan milliy mafkurani shakllantirish mumkin emas»* ekanligini alohida ta’kidlaydi. Shunday ekan, bizning asosiy maqsadimiz – huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishdir. Bu esa milliy istiqlol g’oyasining ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iborat bo’lgan bosh g’oyasida o’z ifodasini topgan.Ushbu qo’llanma hozirgi zamon G’arb va Sharq siyosatshunosligining nazariy va amaliy tajribalaridan foydalanish hamda jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlarida, jahon siyosatida ro’y berayotgan voqea-hodisalar, o’zgarishlarni mamlakatimiz misolida o’rganish asosida yozilgan.Ana shu vazifalardan kelib chiqqan holda ushbu ma’ruzalar matnida zamonaviy siyosiy fanning eng muhim, ustuvor mavzulari asosiy o’rinni egallagan.Q’o’llanma mamlakatimiz oliy o’quv yurtlarining talabalari, magistrant va aspirantlariga mo’ljallangan bo’lib, undan siyosiy fan masalalari bilan qiziquvchi barcha kishilar ham foydalanishlari mumkin.

1 – Mavzu: Siyosatshunoslik fani predmeti, maqsadi va vazifalari

Reja:

1. Siyosatshunoslik fani, predmeti, maqsadi va vazifasi.

2. Siyosatshunoslik fanining qonunlari, tushunchalari va uslublari.

3. Siyosatshunoslik fanining boshqa ijtimoiy – gumanitar fanlar tizimida tutgan o'rni va roli.

4. Mustaqillik va O'zbekistonda siyosatshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishi.

Nomidan ham ko'rinib turganiday, siyosatshunoslik – siyosat to'g'risidagi fandir. Shuning uchun ham siyosat to'g'risidagi to'g'ri va aniq tasavvurlarning mavjudligi siyosatshunoslik predmeti, uning xususiyatlari va mazmunini chuqur anglashning eng birinchi shartidir.

1. Siyosatshunoslik fani, predmeti, maqsadi va vazifasi.

Uzoq tarixiy davr mobaynida siyosat fani kundalik tasavvurlar, diniy va falsafiy-ahloqiy qarashlar bilan chambarchas bog'liq holda mavjud bo'lgan. Tarixan siyosatni anglashning dastlabki shakli uning diniy-afsonaviy talqinlari bo'lgan. Siyosatshunoslik-siyosiy tafakkurning ilk ko'rinishi sifatida bundan deyarli 3000 yil avval paydo bo'ldi. Uning mustaqil fan sifatida shakllanishi esa XIX asr oxiriga to'g'ri keladi. *Siyosatshunoslik*- so'zi yunoncha, ikkita so'z birikmasidan iborat: *polis* va *logos*. Polis - davlat, hokimiyat, ijtimoiy hayot; Logos - uni o'rganish, ta'limot, ilm ma'nosida.

Bu fan jamiyatning siyosiy tizimi, siyosat, siyosiy jarayon, siyosiy hokimiyat, uning asosiy tarkibiy qismlari, davlat hokimiyati, siyosiy partiya va tashkilotlar, harakatlar, siyosiy madaniyat va mafkura, xalqaro tizim va munosabatlarni o'rganadigan fandir. Siyosatshunoslik fan sifatida XX asr o`rtalarida tashkillashgan bo`lsada, siyosiy g'oyalar tarixi bir necha ming yilliklarni o`z ichiga oladi. Siyosatshunoslik mustaqil ilmiy fan sifatida rasmiy jihatdan 1948 yilda YUNESKO ekspertlari tomonidan siyosiy fanlarning ob'ekti, predmeti, tuzilishi va vazifalarini belgilab bergan maxsus xujjatni qabul qilinishi bilan e'tirof etildi.

Frantsuz filosofi **M.Fuko**ning siyosatshunoslik kontseptsiyasi yaxshi ma'lum bo`lib, uning aytishicha siyosat hozirgi zamon kishisini har taraflama qo`rshab olgan, yashirin va oshkora ravishda ijtimoiy hayotning barcha sohalariga so`ralmagan holda kirib kelmoqda. Shuning uchun siyosatshunoslik predmetini turlicha izohlash mumkin:

G.Bekker qarashlariga binoan siyosiy hokimiyat sohasi tor doirasida taqsimlashga asoslangan – faqat davlat munosabatlari doirasida chegaralangan bo`lib, boshqa sohalarga – iqtisodiyotga, madaniyat va fuqarolik jamiyatiga aralashmasligi kerak. Shuning uchun bu fan siyosiy hokimiyatining aynan o`ziga tegishli tor sohasini o`rganishi kerak.

Yunesko ekspertlari hozirgi zamon siyosatshunoslikining to`rt asosiy yo`nalishinini tasniflaydilar:

1. Siyosiy nazariya:

a) siyosiy nazariya;

b) g’oyalar tarixi.
2. Siyosiy institutlar:
a) konstitutsiya;
b) markaziy hokimiyat;
v) Mintaqaviy va mahalliy boshqaruv;
g) Davlat muassasalari;
d) Hokimiyatning iqtisodiy va ijtimoiy funktsiyalari.
3. Partiyalar, guruxlar va ijtimoiy fikr:
a) Siyosiy partiyalar;
b) Guruxlar va birlashmalar;
v) Fuqarolarning xukumatda va ma’muriyatda qatnashishi;
g) Jamoatchilik fikri.
4. Xalqaro munosabatlar:
a) Xalqaro siyosat;
b) Xalqaro tashkilotlar;
v) Xalqaro huquq.

Siyosatshunoslik fanining o`ziga xosligi shundan iboratki, u hamma jarayonlarni siyosiy hokimiyatga munosabat nuqtai nazaridan ko`rib chiqadi. Aynan *“siyosiy hokimiyat”* kategoriyasi *“siyosat”* haqidagi so`zning mohiyat va mazmunini o`zida to`liq aks ettiradi. Siyosat hokimiyat bor joyda yuzaga keladi, u (ya’ni siyosat) davlat tashkilotlariga suyangan holda mavjud jamiyatning qoida va qadriyatlarini qaror toptirishga xizmat qiladi. Hokimiyatsiz siyosatning bo`lishi mumkin emas, sababi, aynan hokimiyat uni amalga oshirishning vositasi hisoblanadi. *“Siyosat sohasidagi fan haqida gapiradigan bo`lsak, - deb aytadi* ***G.Lassuel****, - biz hokimiyat haqidagi fanni nazarda tutamiz”*.[1]

Siyosatshunoslik ijtimoiy-siyosiy fan sifatida biz yashab turgan jamiyatga har taraflama va ob’ektiv ta’rif berish uchun keng imkoniyatlarga ega. Shundan kelib chiqib siyosatshunoslik fani zimmasiga ijtimoiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil etish, uni harakatga keltiruvchi kuchlarini aniqlash va dunyo qarashni shakllantirish vazifasi yuklangan.

Siyosatshunoslik ijtimoiy hayot siyosiy sohasining nazariy ifodasi sifatida shu sohani tushuntirishga xizmat qiladi, hamda uning qonuniyatlarini ochib beradi. yuqoridagilarga suyanib siyosiy faoliyatning aniq tarixiy sharoitlarini va mavjud siyosiy kuchlarning joylashuvini hisobga olgan holda eng maqbul bo`lgan qoidalarni ishlab chiqadi.

Hokimiyat , siyosat va davlat ifodasini aks ettirib, o`ziga xos mezonni ifodalaganligi tufayli siyosatshunoslik mustaqil ijtimoiy fan hisoblanadi.

Siyosatshunoslik boshqa siyosiy fanlardan farqli ravishda siyosiy hayotning xilma-xil masalalarini siyosiy hokimiyat, siyosiy partiyalar, tashkilotlar va harakatlarning faoliyati bilan bog’liq holda tadqiq etadi. Negaki bu tashkilotlar va harakatlar siyosiy ahamiyatni kasb etadi. Ular har qanday ijtimoiy tuzumda ham jamiyatning rivojlanishiga, ularda vujudga keladigan muammolarni hal etishga ta’sir ko`rsatadi.

[1] Lassudi. Sovremennaya zapadnaya sotsiologiya. Slovar. Politizdat. 1990, 152-153 str.

Siyosatshunoslikning o`rganish markazida quyidagilar turadi:

1. Siyosiy hokimyatni tashkil etish, unga amal qilish shakli va uslublari.
2. Mavjud siyosiy tizimlar, siyosiy hayot, siyosiy ong, siyosiy sub'ektlarning manfaatlari va xatta-harakatlarini, shuningdek, g'oyaviy-siyosiy ta'limotlar va nazariyalarni o`rganish.

Siyosatshunoslik fan sifatida amaliy va nazariy jihatdan o`zaro bog'liqlikda bo`ladi. U ijtimoiy-siyosiy, tarixiy, huquqiy va ijtimoiy yondashuvlarni tahlil etib o`z predmeti doirasida ish tutadi.

Siyosatshunoslik ilmiy va o`quv fani sifatida quyidagilarni tadqiq etadi va o`rganadi:

Birinchidan, u siyosiy tafakkur tarixi; siyosiy tizim, jarayonlar, siyosiy ong va madaniyat, xalqaro keng qamrovli siyosiy muammolarni tadqiq etadi.

Ikiinchidan, muhim amaliy tadqiqot ishlarini olib boradi.

Uchinchidan, jamiyatning siyosiy sohasi, uning rivojlanish qonuniyatlari haqida tushuncha beradi.

*To`rtinchidan*, hozirgi davr siyosiy institutlari, ularning o`rnatilishi va amal qilinishi, demokratik jamiyatdagi fuqarolarning huquq va erkinliklari, burchlari, ularda siyosiy jarayonlarning o`zgarish sur'atlari, turlari, shakllari, uning sub'ekti haqida bilimlar tizimini beradi.

Beshinchidan, talabalarda siyosiy madaniyatni, ijtimoiy-siyosiy voqelikni tahlil etishda hozirgi zamon siyosiy tafakkur tamoyillarini qo`llash mahoratini shakllantirishga yordam beradi.

"Siyosat"– yunoncha "polis", "politicos" so`zlarining tarjimasi bo`lib, u davlatni boshqarish san'ati, "davlat ishlari" degan ma'nolarni anglatadi.

"Siyosat" iborasi amaliyotda *Arastu*ning ***"Siyosat"*** risolasi chop etilgandan keyin keng foydalanishga kiritilgan. Arastu aytadiki: *"Siyosat har bir fuqaroga eng yaxshi hayot tarzini ta'minlab beradigan boshqaruv uslubi"*. U paytida bo`lganidek hozirgi kunga qadar "siyosat" tushunchasi haqidagi tasavvurlar ancha kengaydi.

Siyosat - davlat ishida ishtirok etish, davlat faoliyati shakllari, vazifalari, mazmunini belgilash, sinflar, millatlar va boshqa ijtimoiy guruxlarning xokimiyatga doir munosabatlari sohasidir. Har qanday ijtimoiy muammo biror sinf, guruh, qatlam, millat manfaatlari bilan to'qnash kelib qolsa siyosiy ma'no kasb etadi. Shuning uchun ham siyosiy g'oyalar, qarashlar, ta'limotlarning vujudga kelish jarayoni jamiyatdagi tabaqalanish va davlat rivojlanishi bilan o'zaro uzviy bog'liqdir. Siyosat jamiyat siyosiy hayoti haqidagi izchil, mantiqan asoslangan bilimlar tizimidir.

Demak, siyosat deganda biz davlat hokimiyati ishlarida qatnashib, uning faoliyatini yo`naltirib turishga, u yoki bu darajada ta'sir o`tkaza olish, davlat hokimiyati faoliyatining shakllari, burch-vazifalari va tub mazmunini belgilab berishda u yoki bu tarzda ishtirok etishni anglaymiz. Shu jihatdan olganda "Siyosiy fikrlar tarixi"[2]ni o`rganish doimo muhim bo`lib kelgan.

Siyosatning ijtimoiy tabiati va paydo bo`lishini tushuntirishga doir turli

[2] B.Aliev, T.Xoshimov. siyosiy fikrlar tarixi. T., 2009. 4 b.

nazariy yondashuvlar. Qadimgi yunon faylasufi ***Demokrit***ning fikricha, *"siyosat davlatni idora etish, boshqarish maxoratidir"*[3]. ***Aflotun*** siyosatni xukmdorlarning san'ati sifatida, ya'ni shoxning odamlarni (jamiyatni) boshqarish sohasidagi bilimi va qobiliyati sifatida ta'riflaydi. *"Siyosat san'atining mohiyati, - deydi u, - davlatning umumiy hayotini oqilona tashkil etish va olib borish qobiliyatida, siyosiy "matoni" to`qish qobiliyatida namoyon bo`ladi"*[4].

Qadimgi grek mutafakkiri ***Aristotel*** ta'kidlaganidek, *"Siyosat inson faoliyatining ajralmas qismiga aylangan holda u tirikjon sifatida inson tabiatida"* joy olgan bo`lib jamoada, davlatda yashashi va boshqa odamlar, davlat institutlari bilan o`zaro harakat qilmoqlikka mahkum etilgan.[5]

Siyosatning jamiyat hayotida tutgan o`ziga xos o`rni. Uning tuzilishi, vositalari va usullari. Siyosat jamiyat hayotiga bevosita ta'sir ko`rsatadi va jamiyat rivojining muhim omili hisoblanadi hamda jamiyatning siyosiylashuvi, undagi mavjud siyosiy hokimiyatning tuzulishi, demokratik jarayonlarning xarekteriga ta'sir ko`rsatadi.

Siyosatning tarkibiy qismlari: Siyosiy qarashlar, g'oyalar, nazariyalar, dasturlar, qadriyatli yo`nalishlar, ko`rsatmalar, andozalar va boshqalar, odatlar va qadriyatlar, xulq-atvor namunalari, jamoatchilik fikri, o`ziga xos siyosiy til, odamlar psixologiyasi, davlat, partiya, guruhlar manfaatlari va harakatlar, qonunlar, inson huquqlari va boshqa huquqiy normalar, siyosiy etakchilik munosabatlari, elita, guruhlar va hokazolar hisoblanadi.

Siyosatda asosiy tarkibiy qismlarni ajratib ko`rsatish mumkin.

1. Siyosiy ong, mentalitet, qadriyatli yo`nalish va individlar ko`rsatmasi shuningdek siyosiy qarashlar va nazariyalar;
2. Normativ g'oyalar: dasturlar, siyosiy partiyalarning saylov oldi platformasi, guruh manfaatlarini ifodolovchi maqsadli ko`rsatmalar, siyosiy-huquqiy normalar;
3. Hokimiyat institutlari va uning uchun kurash;
4. Hukmronlik munosabatlari – hukmronlik va bo`ysunish, shuningdek siyosiy kurash va hamkorlik.

Siyosatning xususiyati quyidagilardan iborat:

1. U o`zida jo`shqin faollikni saqlaydi. Birinchi navbatda u yoki bu ijtimoiy sub'ektlarning siyosiy e'tiyojlari va manfaatlarini qondirishga yo`naltirilgan siyosiy faoliyatni olib borish sifatida chiqadi.
2. Siyosat qoidaga ko`ra ikki ko`rinishda namoyon bo`ladi. Ob'ektiv va sub'ektiv. Siyosatning ob'ektiv tomoni – bu odamlarning ongi irodasiga bog'liq bo`lmagan siyosiy faoliyat. Siyosatning sub'ektiv tomoni (siyosiy ong) – siyosiy xarakterni kasb etgan nazariyalar yig'indisi, g'oyalar, qarashlar, kontseptsiyalar, nuqtai nazarlar va h.k.
3. Siyosat – bu katta va kichik ijtimoiy guruhlar va siyosiy partiyalar o`rtasidagi munosabatlarni nazarda tutgan faoliyat sohasi. O`z manfaatlarini qondirish maqsadida ular siyosiy hokimiyat, siyosiy huquq va erkinliklar

[3] Faylasuf lug'ati. T., "O`zbekiston", 1976, 135 b.
[4] O`sha joyda, 378 b.
[5] Istoriya politicheskix i pravovix ucheniy. Izdatelstva Mixaylova V.A. Sankt-Peterburg, 2000, st.16

masalasida o`zaro munosabatga kirishadilar. Ushbu munosabatlar doirasida sinflar, millatlar, ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar va alohida shaxslarning siyosiy manfaatlari yuzaga keladi. Siyosiy munosabatlarni tartibga solish talab etiladi, busiz siyosiy jarayonlarni, bir butun holda jamiyatni barqaror va izchil rivojlantirish mumkin emas.

4. Siyosatning muhim hususiyatlaridan biri – bu siyosiy hokimiyatni saqlab turish va mustahkamlash, yoki hokimiyatni qo`lga kiritish, hokimiyatli vakolatga ega bo`lish yo`lida siyosat sub'ektlarining faoliyati.

Demak, siyosat deganimizda biz davlat hokimiyati, ishlarida qatnashib, uning faoliyatini yo`naltirib turishga, u yoki bu darajaga ta'sir o`tkaza olish, davlat hokimiyati faoliyatining shakllari, burch-vazifalari va tub mazmunini belgilab berishda u yoki bu tarzda ishtirok etishni anglaymiz.

Siyosat – davlatni boshqarish san'ati. Siyosat turli ijtimoiy-siyosiy institutlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqa va guruhlar o`rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq. Uning mohiyatini davlat hokimiyati shakllari, uni amalga oshirish va boshqarish tashkil etadi.

Siyosat keng ma'noda jamiyatlarning siyosiy tizimi, siyosiy hayoti, davlat hokimiyati, uning ichki va tashqi faoliyati, siyosiy tashkilotlar va harakatlarning hokimiyatga munosabati, uni boshqarishda siyosiy manfaatlarni amalga oshirishning ustivor yo`nalishlarini o`zida ifoda etadi.

Shunga ko`ra adolatli va adolatsiz, xolis va noxolis, insonparvar yoki inson manfaatlariga zid, demokratik va avtoritar siyosat ko`rinishlarini boshqaruvda kuzatish mumkin.

Qadimda siyosatga jamiyat va shahar-davlat (polis)ni boshqarish to`g'risidagi fan (Platon va Aristotel) sifatida qaralgan bo`lsa, hozirgi vaqtda siyosat deganda davlatni boshqarishning vazifa va maqsadlari hamda u maqsadlarni amalga oshirish uchun mavjud yoki zarur bo`ladigan ijtimoiy-siyosiy institutlar, jamoat boshqaruvidagi ishtiroki tushiniladi.

Siyosatning vazifalari:

1. Murakkab sotsial tuzilma bo`lgan jamiyat yaxlitligini ta'minlash va mustaxkamlash, ijtimoiy tartib va uyushqoqlikni ta'minlash.
2. Jamiyat va uning sub'ektlarining maqsadlarini belgilash, ommani va resurslarni maqsadga erishishga safarbar etish;
3. Kamyob qadriyatlar va boyliklarni hamma uchun taqsimlashning majburiy ekanligi;
4. Guruhiy ixtiloflarni bartaraf etish va tartibga solish.

Ijtimoiy hayot ziddiyatlarini bartaraf etish va ijtimoiy barqarorlik, yaxlitlik, tinchlik-totuvlikni ta'minlashdir. Siyosiy jarayonlarda ixtiloflar ijtimoiy hayotning ichki ziddiyatlari, siyosatni amalga oshirishga qaratilgan xatti-harakatlar, ko`rsatma va tavsiyalar bilan turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlari o`rtasidagi, shuningdek, siyosatning sub'ekti davlat, siyosiy partiyalar, siyosiy uyushma va jamiyatlar o`rtasidagi manfaatlarning nomuvofiqliklaridan kelib chiqadi. Siyosat bunday ziddiyatning kelib chiqishi sababining oldini olishi, mamlakat aholisining

turli ijtimoiy guruhlari, tabaqalari va qatlamlarining manfaatlarini uyg'unlashtirishi zarur.

Siyosatning shakllari va darajalari: Ilmiy adabiyotlarda siyosatning turli jihatlari va uning tarkibiy qismlari ajratiladi. Siyosiy taqsimotining keng bo`lingan ko`rinishlari – bu undagi shaklning mazmun va jarayonning chegaralanganligidir.

Siyosat shakli – bu turg'unlik, barqarorlikni ta'minlovchi va odamlarning siyosiy xulq-atvorini tartibga solishga imkoniyat beradigan, uning tashkiliy tuzilma, institutlaridir.

Siyosat shakli davlatda, partiya va guruhlar manfaatlari shuningdek qonunlarda, siyosiy va huquqiy normalarda mujassamlashadi.

Iqtisodiy siyosat- bu jamiyatning siyosiy tizimining bosh bo`g'ini sanalmish davlat tomonidan mamlakat iqtisodiy negizini, moddiy asosini zamon talablari, jamiyat azolari, huquq va erkinliklariga muvofiq olib boradigan tashkiliy boshqaruv va taqsimot yo`nalishida bo`ladigan munosabatlardir. *Ijtimoiy siyosat*- jamiyatda mavjud turli ijtimoiy guruhlar, aholini moddiy va ma'naviy turmush darajasini, uning kam daromadli qatlamlarining ijtimoiy holatini hisobga olib yuritiluvchi siyosatdir. *Madaniy siyosat*- mamlakatni umuminsoniy va milliy qadriyatlari asosida taraqqiy ettirishga qaratilgan davlat siyosatidir. Bundan tashqari *xalq talimi, kadrlar, huquqiy, demografik, ekologik, harbiy, agrar* va hakoza siyosat sohalari mavjud.

Siyosatning asosiy qismlari va bo`laklaridan tashqari siyosatga amal qilishning darajalari ko`rsatib o`tiladi.

Misol tariqasida ***Yu.Gulanov***ning siyosatining to`rt darajasiga ega qarashlarini ko`rsatib o`tish mumkin.

1. Quyi daraja mahalliy muammolarni hal etish (uy-joy sharoiti, maktab, jamoatchilik transporti va h.k.). Bu darajadagi siyosiy faoliyat asosan individlar tomonidan amalga oshiriladi, shuningdek bir qism masalalar mahalliy assotsiatsiyalar tomonidan hal etilishi mumkin.
2. Mahalliy daraja davlatning aralashuvi talab etiladi. Aktiv siyosiy faoliyat, guruhlar, assotsiatsiyalar mintaqani iqtisodiy rivojlantirishdan manfaatdor bo`lganlar tomonidan amalga oshiriladi.
3. Milliy daraja siyosat nazariyasida markaziy o`rinlardan birini tashkil etadi va resurslarni taqsimlovchi asosiy institut bo`lgan davlatning mavqei bilan belgilanadi.

Xalqaro daraja, unda siyosiy faoliyatning asosiy sub'ekti milliy davlat hisoblanadi.

Tashqi siyosat- muayyan bir davlatning xududidan tashqaridagi davlatlar bilan yoki davlatlardagi faoliyati nazarda tutiladi. Davlatning tashqi siyosati uning *ichki siyosati,* ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish darajasi, xalqaro munosabatlarda amal qilayotgan tamoyillarga bo`lgan munosabati, maqsadi va vazifalari bilan belgilanadi.

Xalqaro siyosat- davlatlar va xalqlar o`rtasidagi munosabatni tartibga solib turishga qaratilgan siyosat sifatida har bir davlatning tashqi siyosati, davlat hokimiyatining shakli, siyosiy yo`li tizimining xarakteri bilan uzviy bog'liq bo`ladi.

Siyosatshunoslikning ijtimoiy bilimlar tizimida tutgan o`rni.

Siyosatshunoslik siyosatni, siyosiy hayot munosabatlari va jarayonlarni o'rganishga o'ziga xos xususiyati, maqsad va vazifalari borligi bilan farq qiladi. Siyosat – insoniyatni va ilm-fanni qiziqtirib kelgan an'anaviy soha hisoblanadi. Uni nafaqat Siyosatshunoslik, balki boshqa fan sohalari, xususan, falsafa, sotsiologiya, iqtisod, psixologiya, huquqshunoslik, tarix kabi fanlarni ham qiziqtirib kelgan va kelmoqda. Bu siyosatning murakkab va turli xil hodisalar bilan bog'liq boy iqtisodiy hodisa ekanligini ko'rsatadi. Siyosatga, jamiyatning boshqa ijtimoiy hodisalar singari, umumiy va o'ziga xos xususiyatlar, jihatlar xosdir. Bu siyosatni turli fanlar nuqtai nazaridan o'rganish imkoniyatini beradi. Ayni paytda yana shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida qayd etilgan fanlar siyosat to'g'risida yaxlit, tugal tasavvurni bermaydi. Siyosatshunoslik esa jamiyatning siyosat sohasi bilan bevosita bog'liqdir. Shunday qilib, siyosatshunoslik siyosiy tadqiqotlarga urg'u va yo`nalish beradi, siyosatshunoslikning xulosalari esa o`z navbatida boshqa siyosiy fanlarning rivojlanishi uchun muhim metodologik asos bo`ladi.

Siyosatshunoslik fani odamlarning huquq va erkinliklari, odobliligi va adolatliligi, ijtimoiy hayotning qadriyatlari va normalari, demokratik istiqboli haqidagi masalani qay darajada hal qilinganligiga qarab siyosiy sotsiologiya va siyosiy antropologiya, siyosiy psixologiya va siyosiy geografiya rivojlanishining asosiy yo`nalishini belgilaydi.

Ammo muammoning boshqa tomonini ham ta'kidlash lozim. Shubhasiz, barcha siyosiy fanlar bir-birini to`ldiradi va boyitadi. Siyosiy rivojlanish muammolarini sotsiologik va psixologik doiradan tashqarida, siyosiy antropologiya tadqiqotlaridan tashqarida, statistik ma'lumotlarga hozirgi zamon siyosiy geografiya yutuqlargiga murojaat etib qarash mumkin emas. Hozirda uyg'un birlikda rivojlanayotgan siyosiy fanlar tizimida siyosatshunoslik markaziy o`rinni egallaydi.

***Siyosatshunoslik fanining tarkibi. Siyosat to`g'risidagi fanlar:*** siyosat nazariyasi, siyosiy ta'limotlar tarixi, siyosiy falsafa, siyosiy institutlar to`g'risidagi ta'limotlar, siyosiy iqtisod, geosiyosat, siyosiy tarix, ixtilofshunoslik, elitologiya, tadbiqiy siyosatshunoslik, xalqaro munosabatlar nazariyasi, qiyosiy siyosatshunoslik, halkaro munosabatlarning siyosiy nazariyasi, siyosiy etika va siyosiy antropologiya va h.

Siyosatshunoslik fanining tadqiqot ob'ekti va predmeti. Siyosatshunoslik – bu mustaqil fan. U o`zining ob'ekti va o`ziga xos o`rganish predmetiga ega. Siyosatshunoslikning ob'ekti bo`lib, jamiyat siyosiy sohasi, unda sodir bo`ladigan hamma hodisa va jarayonlar hisoblanadi. Siyosatshunoslikdan bo`lak ijtimoiy hayotning bu sohasini falsafa, sotsiologiya, huquq, tarix va boshqa fanlar o`rganadi, ammo ularning har biri o`zlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, uni tadqiq etadilar.

Siyosatshunoslik fanining predmeti bu siyosiy hokimiyatning shakllanishi va rivojlanishi, uning amal qilish shakllari hamda usullarini va jamiyatning tuzilmasidan foydalanish hisoblanadi. Bizningcha, Siyosatshunoslik fani predmetiga berilgan quyidagi tarif keng qamrovligi bilan ahamiyatga loyiq.

Siyosatshunoslik – jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy jarayonlar va siyosiy

hokimiyat, uning asosiy tarkibiy qismlari, davlat hokimiyati, siyosiy partiyalar, siyosiy tashkilotlar va siyosiy harakatlar bilan o`zaro munosabatda bo`lgan turli ijtimoiy guruhlar, fuqarolarning o`rni va roli, hokimiyatga munosabat, uni saqlab turish mehanizmi va vositalari, jarayonlari hamda amaliyotini o`rganadigan fan.[6]

Siyosatshunoslik fanining boshqa ijtimoiy fanlardan farqi shundaki, u jamiyatning siyosiy jarayonlari to'g'risida fikr yuritadi. Jamiyat hayotida siyosiy hokimiyat muhim o'rin tutadi. Jamiyatning siyosiy hokimiyati, davlat hokimiyatining mohiyati va tuzilishini aniqlash, uning jamiyatda taqsimlanishi hamda mexanizmlarini bilish Siyosatshunoslik fanining muhim ob'ekti hisoblanadi. Siyosiy hokimiyatni kim, qaysi siyosiy yoki ijtimoiy guruhlar tomonidan qanday maqsadlar, manfaatlar va tamoyillar tizimida amalga oshirilishi qiziqtiradi. Siyosatshunoslik fani siyosiy hokimiyat, uni amalga oshirishda o'rnatilgan siyosiy rejim faoliyati doirasi, shuningdek muayyan guruhlar mavqei va munosabati, hokimiyat qamrovi, uni boshqarish usullarini aniqlab beradi.

Siyosatshunoslik fanida etakchi o'rinni jamiyat siyosiy hayoti, uni harakatga keltiruvchi siyosiy tuzilmalar va mexanizmlar faoliyatini o'rganish egallaydi. ya'ni, u asosiy e'tiborni siyosiy institutlarning asl mohiyatini tashkil etgan davlat, parlament, hukumat, siyosiy muassasalar va partiyalar rolini o'rganishga qaratadi.

Siyosatshunoslikning asosiy vazifalari. Siyosatshunoslik fani muayyan funksiyalarni amalga oshiradi. Siyosatshunoslik metodologik, nazariy bilish, dunyoqarash, tarbiyalovchi, bashorat qilish, va aksiologik funksiyalarni bajaradi.

2. Siyosatshunoslik fanining qonunlari, tushunchalari va uslublari.

Siyosatshunoslik fani o`zining qonuniyatlar majmuiga ega. Bu qonuniyatlar ularning namoyon bo`lish xususiyatlariga qarab uchta asosiy guruhga bo`linadi.

Birinchi guruh qonuniyatlar – bu siyosiy-iqtisodiy qonuniyatlar bo`lib, u jamiyat iqtisodiy bazasi va siyosiy hokimiyat o`rtasidagi nisbatni aks ettiradi.

Siyosat tegishli ravishda siyosiy va davlat hokimiyati sistemasi hamda iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishi bilan bog'langan. Iqtisodiy manfaatlar siyosiy faoliyatning ijtimoiy sababchisi hisoblanadi. Siyosiy hokimiyat iqtisodiy hokimiyatni yuzaga keltirish uchun xizmat qiladi. Shuning bilan birga siyosiy hokimiyat iqtisodiyotga nisbatan xosila bo`lib iqtisodiy jarayonlarga siyosiy ta'sir ko`rsatish uchun keng imkoniyat yaratadi. Siyosiy hokimiyatga sig'inish, ma'muriy ta'sir ko`rsatish yo`li bilan iqtisodiy qonunlarni "cheklab" o`tish, qo`yilgan maqsaddan chetga chiqishga olib keladi.

Ikkinchi guruh qonuniyatlar – siyosiy-ijtimoiy qonuniyatlar bo`lib, siyosiy hokimiyatni rivojlantirishni xarakterlaydi.

Siyosiy hokimiyat tizimning asosiy qonuniyati bo`lib barqarorlikni mustahkamlash hisoblanadi. Bu qonuniyat siyosiy hokimiyatning turli tizimlarida turlicha amalga oshiriladi. Masalan, avtoritar sistemada barqarorlikni mustahkamlash uchun hokimiyatni yuqori darajada markazlashtirish hamda keng qo`lamdagi zo`ravonlikni talab etadi. Unga qarama-qarshi o`laroq demokratik tizim hokimiyatni taqsimlashni sud, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hokimiyatlarni ko`zda tutadi, manfaatlar va kelishuvchilik printsiplariga suyanadi.

[6] X.T.Odilqoriev, D.X.Razzaqov. Siyosatshunoslik. "O`qituvchi", Nashriyot-Matbaa ijodiy uyi. T.2008 18-b.

Uchinchi guruh qonuniyatlar – ularni shartli ravishda siyosiy-psixologik deb atash mumkin. U shaxs bilan hokimiyat o`rtasidagi munosabatni aks ettiradi. Siyosiy-psixologik qonuniyatlar ichida eng xarakterlisi siyosiy rahbarning hokimiyatni qo`lga kiritishi hisoblanib, bu ko`zlangan maqsadga erishishda eng qadrlisi va qimmatlisi hisoblanadi. Bu qonuniyat birinchi marotaba N.Makiavelli tomonidan ta'riflab berilgan.

Ba'zi adabiyotlarda[7] *siyosatshunoslik qonuniyatlari ikki guruhga ajratib ko`rsatilgan.*

Birinchi guruhga Davlat hokimiyati va mamlakat ichki siyosiy hayotida amal qiladigan qonunlar bo`lib, u o`z ichiga:

1) Jamiyat siyosiy jarayonlarida siyosiy hokimiyat mehanizmlaridan samarali foydalanish;
2) Jamiyat siyosiy hayotining demokratiyalashishi;
3) Siyosiy boshqaruv jarayonlari;
4) Siyosat va ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy hayot munosabatlari;
5) Shaxs, jamiyat va davlat tizimida inson manfaatining ustivorligi va boshqalar.

Ikkinchi guruh qonunlari xalqaro munosabatlarda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy aloqalar bilan bog'liq bo`lib, ular:

1) Xalqaro xavfsizlik va o`zaro ishonchni rivojlantirish;
2) Xalqaro va davlatlararo ixtiloflarni bartaraf etishning siyosiy vositalari;
3) Umumbashariy muammolarni bartaraf etishning siyosiy yo`llari;
4) Turli siyosiy institutlar, siyosiy partiyalar, tashkilotlar va harakatlar bilan siyosiy hamkorlikni yo`lga qo`yish;
5) Jamiyat siyosiy hayotida siyosiy etakchining o`rni va rolini tahlil etish va h.k.

Siyosatshunoslikning mohiyati va mazmunini ifodalashda uning kategoriyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

"Kategoriya" tushunchasi siyosiy fanlarda, jumladan Siyosatshunoslikda narsa va hodisalarning eng umumiy belgi va bog'lanishlarini ifodalaydi.



[7] Mualliflar hamkorligida: Politologiya. T. TDYuI. 2006, 10-11 b.



Bu kategoriyalar siyosatshunoslik fanini boshqa siyosiy fanlardan farqlashga hamda uning mohiyatini tushunishga xizmat qiladi.

Siyosatshunoslikda muhim o`rinni ilmiy tushunchalar tizimi egallaydi, unda *“siyosiy hokimiyat”* markaziy hisoblanadi. Siyosatshunoslik kategoriyasi va o`ziga xos tushunchasi shunda ifodalanadiki, ular siyosiy hokimiyatning turli tomonlari va munosabatlarini ochib beradi. Masalan, *“siyosiy tizim”* kategoriyasi siyosiy hokimiyat turli tashklotlari faoliyati jarayonidagi o`zaro munosabatlarini xarakterlaydi; *“siyosiy jarayon”* ijtimoiy sub’ektining faoliyat majmuini aks ettirib, uning yordamida siyosiy hokimiyatning shakllanishi, rivojlanishi va ifodalanishi yuz beradi: *“siyosiy sotsializatsiya”* deganda jamiyatdagi mavjud hokimiyat tizimi tomonidan qo`llab-quvvatlanadigan qoida va qadriyatlarni shaxs tomonidan o`zlashtirib olish jarayoni tushuniladi: *“davlat”* siyosiy hokimiyatning asosiy tashkiloti sifatida qaraladi; *“armiya”* – uning bir butunligini qurolli yo`l bilan himoya etishda, siyosiy hokimiyatning o`ziga xos qurolidir.

Siyosatshunoslik fanida keng foydalaniladigan uslub (metod)lar tubandagilardan iborat:

1. Dialektik uslub.
2. Q’iyosiy taqqoslash uslubi.
3. Empirik-Sotsiologik uslub.
4. Siyosiy taxlil uslub.
5. Umummantiqiy uslub.
6. Nazariy uslub.
7. Ahloqiy uslub.
8. Izohlash uslubidan foydalaniladi.

Siyosatshunoslikda uch guruhdagi usul qo`llaniladi: bular *nazariy, empirik va umumnazariy.*

Nazariy usulda siyosiy voqelik va siyosiy xulq-atvor murakkab mavxumiya tuzilma hisoblanadi. Bevosita kuzatilishi qiyin bo`lgan siyosat haqidagi bilimlarni olishga qaratilgan.

Nazariy usullar dunyoni anglashga yordam beribgina qolmay shuningdek u fanining kategorial muassasasini shakllantiradi ham.

Hozirgi kunda asosiy yondashish usuli sinergetik (birlikda, hamkorlikda, hamoxang harakatda) usul bo`lib, mazkur usul fanlararo ilmiy tadqiqot olib borish yo`llarini anglatib, uning mohiyatini o`z-o`zidan uyushish, vujudga kelish, amal qilish tashkil etadi.

Ularning asoslashlaricha, hozirgi dunyoning ilmiy manzarasi ko`p tomonlamalik, tez sur’atli xaqiqat va murakkablik tomon keskin o`zgarmoqda. O`zining xususiyatiga ko`ra bizning koinot uyg’un birlikka ega.

Hozirda ko`pchilik olimlar sinergetik yondashuv tabiiy-ilmiy va gumanitar yondashuvni yaqinlashtirishga yordam beradi deb hisoblaydilar.

Sotsiologik usul ichki va tashqi siyosat yuritishning jamiyat taraqqiyoti mushtarak qonuniyatlari bilan uzviy bog’liq ekanligini, shuningdek, iqtisodiy munosabatlar, sinfiy tuzilma, mafkura va madaniyatning siyosiy tizimga ta’sirini aniqlaydi. Sotsiologik usul siyosiy fanda etakchi mavqeni egallab, siyosiy sotsiologiyaning o`ziga xosligini belgilaydi.

Empirik usulga quyidagilar kiradi: statistikadan foydalanish, birinchi navbatda elektronik; xujjatlarni tahlil etish, anketali so`rov, labarotoriya tadqiqotlari; kuzatishlar, aniq siyosiy voqelikni bevosita ishtirokchisi tomonidan amalga oshirilayotgan kuzatuvchilar yoki odamlarning ekspremintal sharoitda bo`lgan hatti-harakatini kuzatish va hokazolar..

Politologlar aholi fikrini aniqlash, siyosiy etakchining haqiqiy maqsadini, ijtimoiy guruhlarning qadriyatli yo`nalishi va siyosiy ko`rsatmalarini, ommaning, davlat boshqaruv qarorlariga bo`lgan munosabatini aniqlash maqsadida kuzatish va so`rov usullaridan keng foydalanadilar.

Kulturalogik usul siyosiy jarayonlarning siyosiy madaniyatga bog’liqligini aniqlashni talab qiladi.

Me’yoriy-qadriyat usuli – siyosiy voqelikni jamiyat va shaxs uchun ahamiyatini ularning umummanfaat yo`lida, adolat, erkinlik, inson xaq-huquqlarini hurmat qilishni aniqlashni talab etadi.

Institutlashtirilgan usul – siyosiy faoliyatni ya’ni davlat, partiya, boshqa tashkilot va birlashmalar, huquq, xukumat dasturlari va siyosiy tashkilotning

boshqa muassasalari bo`lgan institutlarni o`rganishni talab qiladi.

Antropologik usul – siyosatni sotsial omillar bilan bog'liqligida emas balki ibtidoni jamiyat sifatidagi tabiatiga asos bo`lgan ehtiyojlarni yig'indisini (ovqatga, kiyimga, uy-joyga, xavfsizligi, erkin faoliyat ko`rsatishi, ma'naviyat rivojlanishi va xokazolar) tadqiq etishni talab etadi.

Psixologik usul – siyosiy xulq-atvor, individual xis-tuyg'u va xislatlarning sotsial jihatlarini tadqiq etadi.

Umummilliy (mantiqiy) usul – umummilliy nazariyalarni rivojlanishi jarayonida, avvalo falsafiy an'analar chegarasida hamma fanlar uchun ob'ektiv reallikni anglash va aniqlash usulidir.

Mantiqiy usul – ommabop qoidani o`zida ifodalab maqsadga muvofiq xulosalarni qaror toptirishni nazarda tutadi. Bunga quyidagi usullar kiradi.

1. Aniqlash va tasniflash, fanning asosiy kategoriyalari bo`yicha kelishuvga erishish va ularni ma'lum bir tartibga solish.

2. Taqqoslash bir tartibdagi jarayonlar, voqea va xodisalarni solishtirish, xususan turli mamlakatlar va mintaqalarda amal qilayotgan va rivojlanayotgan siyosiy hodisalar o`zaro nisbatida ixtisoslashayotgan solishtiruvchi siyosatshunoslik asosida amalga oshirishadi.

3. Tahlil va sintez, xodisalarni o`zaro bog'langan, bir butun holda tekshirish usuli murakkab siyosiy tuzilmalarini va ichki tuzilishini ko`rishga imkon beradi.

4. Tarixiy tahlil orqali siyosiy voqea-xodisalarni, siyosiy jarayonlar oqimi bilan o`lchab, o`tmish saboqlari, hozirgi hayot muammolari, istiqbol rejalari kabi masalalarni mujassamlashtirib, mantiqiy va uzviy bir-biriga aloqadorlikda mushoxada qilish hamda inikos etish imkonini vujudga keltiradi.

5. Tizimiy yondoshish – siyosatshunoslik barcha qismlarini o`zaro mantiqiy bog'lash, ular o`rtasidagi aloqadorlik va mazmunli bog'liqlik munosabatlarini ochib berish, siyosiy voqea-xodisalarni qiyosiy tahlil qilish, har bir siyosatshunoslik muammosini yahlit birlik tizimi tarzida mushoxada etib, uning ichki o`zaro mutanosibliklarini aniqlab olish muqarrardir.

*Siyosiy institutlar haqidagi nazariya*ga birinchi o`rinda jamiyat siyosiy tashkilotlari, davlat va huquq, siyosiy partiyalar va boshqa institutlar nazariyalari kiradi va uning chegarasida ko`plab mustaqil fanlar mavjud. Masalan, davlat va huquq nazariyasi, davlat haqidagi umumiy nazariya bilan birga yana bir qator yuridik fanlarni o`z ichiga olgan.

Siyosiy institutlar an'anaviy holda siyosiy tashkilotlarning markazida turadi va hozirgi kunda markaziy o`rinlardan birini egallaydi.

Xalqaro siyosat nazariyasi – siyosiy tashkilotlar sohasi bo`lib – uning predmeti xalqaro tashkilotlar, birlashmalari (BMT, NATO, Xalqaro Xavfsizlik va xamkorlik tashkiloti, Xalqaro amnistiya va h.k.), davlatlarning, partiyalarning, ijtimoiy tashkilotlarning tashqi siyosiy faoliyati hisoblanadi. Shuningdek, u urush va tinchlik muammosi, xalqaro ixtiloflarni oldini olish va bartaraf etish, yangi xalqaro tartibni shakllantirish masalalarini ham tadqiq etadi.

*Siyosiy tarix siyosat haqidagi nazariya*ni, qarashlarni, institutlarni va voqealarni xronologik tartib asosida o`rganadi. Tarixni bilmay turib kelajakni anglash va tushunish qiyin. Shuning uchun siyosiy tadqiqotlarning darajasi siyosiy

tarix xulosalariga bog’liq.

Oraliq siyosiy fanlar ichida siyosat sotsiologiyasi – jamiyat va siyosat o`rtasidagi munosabatlarni, sotsial tuzilma va siyosiy institutlar hamda jarayonlarni tadqiq etadi. Aniq empirik siyosiy-sotsiologik tadqiqotlar amaliy siyosatshunoslikning asosi bo`lib xizmat qiladi.

Amaliy siyosatshunoslik amaliy yo`nalishiga ega bo`lib davlat, partiyalar, sotsial guruh va individlar faoliyatidagi aniq voqea va xodisalarni o`rganadi.

Amaliy siyosatshunoslik siyosiy faoliyatda qatnashayotganlar uchun amaliy maslaxatlar va tavsiyalar ishlab chiqadi va ularga u yoki bu siyosiy qarorlarni qabul qilishda xizmat qiladi.

3. Siyosatshunoslik fanining boshqa ijtimoiy – gumanitar fanlar tizimida tutgan o’rni va roli.

Uning tarix, falsafa, sotsiologiya, iqtisodiyot nazariyasi, huquqshunoslik va boshqa ijtimoiy fanlar bilan o`zaro bog’liqligi. Siyosatshunoslik ijtimoiy fanlar bilan uzviy aloqada bo’ladi. Siyosatshunoslik ijtimoiy fanlarning ilmiy xulosalarini qanday bo’lsa, shundayligicha foydalanmasdan, balki, jamiyat, davlat va fuqarolar hayotida bo’ladigan siyosiy o’zgarishlar va ularning hokimiyatga munosabatlarini hamda bu o’zgarishlarni amalga oshirish usullari, mexanizmlarini o’rganadi, siyosiy xulosa, amaliy takliflar beradi.

Masalan, *Sotsiologiya* muayyan gurux ongi va madaniyatini, *huquqshunoslik* huquqiy ongi va madaniyatini, *Siyosatshunoslik* esa siyosiy ongi va madaniyatini tahlil qiladi. O’z navbatida yuqoridagi ijtimoiy – siyosiy fanlar ham siyosatshunoslikning nazariy va amaliy xulosalaridan keng foydalanadi.

Jumladan, *«Falsafa»*da siyosat ijtimoiy hodisa sifatida tafakkur qilinadi, jamiyat hayotida ro’y beradigan voqea – hodisalarda siyosatning ta’sir kuchi umumiy qonuniyat sifatida ifodalab beriladi.

Siyosiy muammolar, voqea – hodisalarning falsafiy jihatdan umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan nazariy qoida va xulosalar, falsafaga xos bo’lgan umumiy qonuniyatlar «Siyosatshunoslik» fani uchun metodologik asos bo’lib xizmat qiladi. Chunki «Siyosatshunoslik» fanida o’rganiladigan masalalar, hal qilinishi zarur bo’lgan vazifalar, avvalo, «Falsafa» fanida ishlab chiqilgan ilmiy – nazariy xulosalarga tayangan holda amalga oshiriladi. Bu kabi holatlar «Siyosatshunoslik»ning «Falsafa» bilan qanchalik bog’liq ekanligini ko’rsatadi.

«Siyosatshunoslik» *«Iqtisodiyot nazariyasi»* fani bilan ham o’zaro aloqada bo’ladi. Bunday aloqadorlik, avvalo, iqtisodiyotning siyosat bilan birligida yaqqol namoyon bo’ladi. Iktisodiy qonunlarni ochish, ularning harakatidan foydalanish va shular asosida iqtisodiy sohadagi muammolarni hal etishda siyosatning roli va ahamiyati juda kattadir. Har qanday iqtisodiy o’zgarishda siyosat sub’ektlarining nazariy va amaliy faoliyati muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat hayotida amalga oshiriladigan har bir iqtisodiy islohot dastlab siyosiy jihatdan asoslanadi va uni amalga oshirishning yo’nalishlari, shart – sharoitlari belgilab olinadi.

«Siyosatshunoslik» *tarix* fani bilan ham yaqin aloqada bo’ladi. Ularning har ikkalasiga xos bo’lgan umumiylik jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlarida ro’y beradigan voqea – hodisalarni ularning kelib chiqish davri

bilan bog’liq holda o’rganishdan iborat. Masalan, «Siyosatshunoslik» fanining u yoki bu masalasini o’rganishda o’tmishning tajribalaridan foydalanmaslik mumkin emas.

«Siyosatshunoslik» *sotsiologiya* fani bilan ham chambarchas bog’liq. Bu bog’liqlikning asosi ularning siyosatni ijtimoiy muhitga qiladigan ta’sirini o’rganishi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, ko’ramizki, «Siyosatshunoslik» ijtimoiy fanlar bilan yaqin aloqada bo’ladi va jamiyat hayotining xilma – xil masalalarini o’rganishda ularda ishlab chiqilgan nazariy xulosalarga, amaliy tajribalarga asoslangan holda ish olib boradi. Ijtimoiy fanlarning har biri jamiyat hayotiga doir masalalarni turli tomondan o’rganganligi uchun ham, biz jamiyat haqida, uning rivojlanishi to’g’risida aniq tushunchaga va ilmiy bilimga ega bo’lamiz. O`z ahamiyatiga ko`ra bir butun yaxlit hisoblangan siyosatshunoslik ichki nuqtai nazardan tabaqalashtirilgan bo`lib siyosatning alohida jihatlarini, tomonlarini va jamiyat bilan o`zaro aloqasini ifodalovchi bir qator boshqa xususiy fanlarni ham o`z ichiga oladi.

Siyosatshunoslik – ijtimoiy fanlarning tarkibiy qismi. Siyosat ilmiy tahlil ob’ekti sifatida o`zining xususiy bilimlaridan tashqari, chegara doirasida kam deganda yana sakkiz turdagi jumladan, falsafa, huquqshunoslik, tarix, madaniyatshunoslik va iqtisodiy fanlar tomonidan ham o`rganiladi.

Siyosiy falsafa – siyosatni bir butun holda, uning tabiati, inson uchun uning ahamiyati, shaxs, jamiyat va davlat hokimiyati o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni, davlat qurilishi, shuningdek, siyosatni baholashning umumiy mezonlarini o`rganuvchi bilimlar sohasidir.

Siyosiy falsafa siyosiy tadqiqotlarning umumiy metodologik asosi bo`lib xizmat qiladi, turli kontseptsiyalarning mazmun-mohiyatini belgilaydi, inson, jamiyat va hokimiyat munosabatlarining universal (turli) tamoyillari va qonuniyatlari, uning ahloqiy mezonlari va daliliy asoslarini aniqlaydi, davlat hokimiyatining chegara va printsiplarini belgilaydi.

Siyosiy nazariya individ va jamiyat hayotiy faoliyatiga tegishli bo`lgan siyosiy sohani tadqiq etadi. Siyosat nazariyasi davlatshunoslik va huquqshunoslikdan ajralgan. U Davlat va huquq nazariyasi, konstitutsion huquq, xalqaro huquq va h.k. va boshqa yuridik fanlar bilan tutash.

Ushbu masalalar doirasida siyosat nazariyasi davlatning kelib chiqishi va uning roli, uni tashkil etishning huquqiy asoslari va printsiplari, huquqiy ong va boshqalarni tadqiq etadi.

Siyosiy nazariyasining markaziy muammolaridan biri – bu siyosiy hokimiyat, uning mohiyati, o`ziga xosligi, manbalari, asoslari, rasmiylashganligi hisoblanadi. Shuningdek, siyosat nazariyasi siyosiy tizimni, davlat institutlari, siyosiy tartibotlar, siyosat sub’ekti kabilarni ham tahlil etadi.

Siyosat nazariyasini ishlab chiqishda, siyosatshunoslik doirasida turli mamlakatlar va mintaqalarning siyosiy madaniyati, siyosiy tizimlar, tashkilotlar, siyosiy antropologiya va psixologiya ustida tadqiqotlar o`tkaziladi.

Siyosiy psixologiya siyosiy fe’l-atvor mehanizmining sub’ektiv jihatlarini, odamning ongi va tafakkuri, extiroslari ifodasiga, ishonchlari, qadriyatli

yo`nalishlari va ko`rsatmalarni tadqiq etadi.

Bu fan insoniy fe'l-atvorni individ bilan muhit o`rtasida o`zaro ta'sir etishning jarayoni va natijasi sifatida qaraydi.

Siyosiy-psixologik tadqiqotlar siyosiy fe'l-atvor, siyosiy etakchi, siyosiy umumlashuv (sotsializatsiya), siyosiy ixtiloflar va hamkorlik sohalarida keng qo`llaniladi.

Siyosiy antropologiya insonning oddiy sifatlariga siyosatning qarashliligini, biologik,intellektual, ijtimoiy, madaniy, diniy, shuningdek, siyosiy tartibotning shaxsga aks ta'sirini o`rganadi.

Siyosiy geografiya siyosiy jarayonlarning, ularning masofaviy holati o`rtasidagi aloqani, (masalan, okeanga yaqinligi bilan bog'liq ravishda qudratli davlatlar va h.k.) territorial, iqtisodiy-geografik, iqlim va boshqa tabiiy omillarni tadqiq etadi.

Siyosiy astrologiya kosmosning, yulduzlarning joylashuvi, quyoshning faollashuvi, siyosiy voqealar va siyosiy fe'l-atvorga ta'sirini o`rganish bilan shug'ullanadi. Biz siyosatshunoslikning fanlararo xususiyatini ochish orqali siyosiy fanlar va unga yaqin gumanitar va ijtimoiy fanlar: falsafa, tarix, sotsiologiya, psixologiya fanlarining o`zaro ta'sir va aloqalarning harakterini ko`rsatib berdik.

4.Mustakillik va O'zbekistonda siyosatshunoslik fanining shallanishi va rivojlanishi.

Mustaqil O'zbekistonda demokratik huquqiy davlatni qaror topishi insonlardan siyosiy onglilikni, siyosat va siyosiy hayotni chuqurroq idrok etishni, siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida Siyosatshunoslik fanini, siyosiy ta'limotlarni o'rganish hamda rivojlantirishga real imkoniyatni vujudga keltiradi. Shuning o'zi hozirgi vaqtda Siyosatshunoslik fani rolini oshib borishini talab etadi.

Siyosatshunoslik fani oldida qanday vazifalar qo'yilgan. Bu vazifalar tubandagilardan iborat:

1 Respublikamiz Prizidenti I.Karimov ta'kidlaganidek sobiq Ittifoqning tarqalishi bilan *"Sovuq urush"* munosabatlari birmuncha pasaydi. Ammo davlatlar o'rtasidagi mojarolar va turli g'oyalar kurashi batamom barham topgani yo'q. Dunyoda yuz berayotgan siyosiy voqealarni Siyosatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish taqozo etiladi.

2. Jahon davlatlari va halqaro tashkilotlar e'tiborini umumbashariy muammolarni hal qilishga safarbar etishda ham bu fanning alohida xizmati bor.

3. Hozirgi vaqtda jahonda siyosiy jarayonlar tez o'zgarib borayapti. Bunday sharoitda ma'rifatli davlatlardan ongli faoliyat, oqilona siyosat yuritishni talab etadi. Bunday siyosatni ishlab chiqishda Siyosatshunoslikning xizmati beqiyosdir.

4. Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning siyosiy madaniyatini yuqori darajada bo'lishiga bog'liq. Siyosiy onglilik, ma'naviy etuklik fuqarolarning jamiyat hayotida ijtimoiy faolligini rivojlantirishga yordam beradi. Siyosiy madaniyatni va siyosiy ongni shakllantirishda Siyosatshunoslik fanining ham mas'uliyati juda katta.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki,

Siyosatshunoslik jamiyat taraqqiyotining, xususan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning nazariy va amaliy vazifalarini, tamoyillarini ishlab chiqarishda ma'lum rol o'ynaydi. Bu fanlarning nazariy xulosalari jamiyat, davlat, shaxs hamda fuqarolar faoliyatini umummanfaatlarga safarbar etishga yordam beradi.

O'zbekistonda Siyosatshunoslik fani mustaqillikka erishgandan keyin o'qitila boshlandi. Xozir barcha Oliy o'quv yurtlarida aloxida fan sifatida Siyosatshunoslik o'qitiladi. Ayrim oliygoxlarda Siyosatshunoslik kafedrasi mavjud. O'zbekiston milliy Universitetida, jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida Siyosatshunoslik mutaxassistlari tayyorlanadi. Ixtisoslashgan kengashlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda siyosiy fanlar nomzodi va doktori ilmiy darajalari uchun dissertatsiyalar ximoya qilinmoqda. Xozir O'zbekistonda 20 dan ortiq siyosiy fanlar doktori, 50 dan ziyod fan nomzodlari ishlab turibdi

Mustaqillik va o`zlikni anglashning kuchayishi jarayonida ijtimoiy hayotning turli sohalarida siyosiy faoliyat, davlat, siyosiy partiyalar, nodavlat, nohukumat tashkilotlarining ish usullarini, siyosat va inson, davlat va jamiyatning o`zaro munosabatlarini, siyosatshunoslikning asosiy tushunchalarini anglashga bo`lgan ehtiyoj kuchaymoqda. Shu bois siyosatshunoslikni o`rganish inson kamolotining, mamlakatda demokratik islohatlarni chuqurlashtirishning zarur shartiga aylanmoqda. Shu munosabat bilan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti ***I.A.Karimov*** ta'kidlaganidek: *"Bugungi kunda – siyosatchi, iqtisodiyot haqida-iqtisodchi bo`lib fikr yuritishni, ma'naviyat va ma'rifat haqida ma'rifatchi, hayotiy-falsafiy muammolar xususida filosof bo`lib baxsga kirishish – mana shunday yuksak qobiliyat va mahoratga ega bo`lishni hayotning o`zi..."*[8] kun tartibiga qo`ymoqda.

Mamlakatimizda ushbu fanning joriy etilishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tavsiya etgan jahon amaliy standartlari talab va tajribasiga javob beradigan uyg'un malakali mutahassislar tayyorlashni yaxshilashga olib kelmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalaridan uning oliy tizimda o`qitilishi qonun ustivorligiga asoslangan adolatli demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Mustaqillik sharofati bilan 1991 yil kuzida oldingi O`zbekistonning Kompartiyasi Markaziy Komitetiga tegishli oliy partiya maktabi Siyosatshunoslik va boshqaruv instituti etib tashkillashtirildi. 1992 yil 23 sentabrda O`zbekiston Prezidenti farmoni bilan Siyosatshunoslik va boshqaruv instituti tugatilib, uning bazasida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tashkil etildi.

Prezident xuzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutining tashkil etilishi, I.Mo`minov nomidagi falsafa va huquq instituti qoshida siyosatshunoslik bo`limining, oliy o`quv yurtlarida o`nlab siyosatshunoslik kafedralarining faoliyat yuritayotganligi fikrimizga asos bo`la oladi.

***Siyosatshunoslik fanining bugungi kundagi ahamiyati va rolining o`sib borishi quyidagilar bilan izohlanadi:*** Ushbu fanni o`rgatish va o`rganish hozirda

[8] I.A.Karimov. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T., "O`zbekiston", 2009, 23-b.

jadal kechayotgan islohotchilik va yangilanish harakati davrida ijtimoiy zaruriyatgina emas, balki hayotiy ehtiyojga aylangan. Bu ehtiyoj milliy, ma’naviy, mafkuraviy, siyosiy uyg’onish, madaniy va iqtisodiy yuksalishlarga bo`lgan ehtiyojlarning bosh mezoni hisoblanadi.

Ikkinchidan, hozirgi davrda har bir fuqarolarning siyosat bilan shug’ullanishga bo`lgan ehtiyoj, siyosatni anglash, unda ongli faoliyat ko`rsatishga bo`lgan ehtiyojlarning ortishi, jadal ravishda yuz berayotgan demokratik jarayonlar bilan belgilanadi.

Uchinchidan, jamiyat siyosiy hayotida, siyosiy munosabatlarida, siyosiy tizimida bo`layotgan tub o`zgarishlarni anglab etish, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi faolligini orttishiga bo`lgan ehtiyoj;

To`rtinchidan, Demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini qurish bilan bog’liq jarayonlarning mazmun mohiyatini chuqur ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o`rganishiga bo`lgan qiziqishining ortishidir. Bu ushbu jarayonni atroflicha siyosiy tahlil etib borishni taqazo etadi.

Beshinchidan, O`zbekiston jahon hamjamiyati safidan munosib o`rin olishi, xalqaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlarning qaror topishi, terrorizmning o`ta xavfli xalqaro siyosiy hodisaga aylangani ushbu hodisani atroflicha o`rganishini taqozo etadi.

Oltinchidan, fuqarolarning siyosiy madaniyati va faolligini oshirish, jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy sohalarida bo`layotgan voqea va hodisalarning mohiyatini siyosiy jihatdan anglab etish, demokratik jamiyatga xos bo`lmagan holatlarning oldini olish uchun asosiy kafolatlaridan biri mamlakatimizda fuqarolarning huquq va siyosiy faoliyatini rivojlantirish ehtiyojlarining ortishi.

Hozirda Oliy ta’lim tizimida umumkasbiy va ihtisoslik fanlarini o`qitish, ayniqsa Siyosatshunoslik ta’lim yo`nalishi bo`yicha o`quv-uslubiy, moddiy-texnika ta’minoti masalalari bo`yicha katta ishlar qilinishiga kirishildi.

Shunday qilib, siyosatshunoslik bilim sohasi sifatida tobora mustaqil fan va o`quv darsi darajasida shakllanib, mustaqil O`zbekiston fuqarolari siyosiy tafakkurining vujudga kelishiga ular ko`rayotgan jamiyatning ilg’or, rivojlangan va jahon hamdo`stligi doirasidan o`ziga munosib o`rin egallab olishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Demak, kiskacha shunday xulosaga kelish mumkin:

Siyosat haqidagi fan bo’lgan Siyosatshunoslik siyosiy xayot, siyosiy munosabatlar, siyosat jarayonlarni jahon mamlakatlari misolida atroflicha tadqiq etadi. Siyosatshunoslik fani o’z tadqiqot ob’ekti, qonuniyatlari va kategoriyalarining o’ziga xosligi bilan ajralib turadi. Siyosatshunoslik fani jamiyat xayotida ro’y berayottan voqea-xodisalar, o’zgarishlarni ilmiy-nazariy jihatdan hal etish yo’llarini ko’rsatib berishda, jamiyat a’zolarining siyosiy ongliligini oshirishda muxim rol o’ynaydi.

Umuman Siyosatshunoslik fanining o’qitilish sabablari qo’yidagilardan iborat:

XX asr 80-yillarining 2-yarmida boshlangan qayta qurish tufayli jamiyat

xayoti siyosatlashib bordi; Ana shu siyosatlashuvda siyosiy nazariya, siyosiy madaniyat darajasining etarli emasligi ayon bo'ldi; Umummadaniy, umuminsoniy, umummilliy qadriyatlarning o'sganligi; Markscha-lenincha ijtimoiy fanlarning inkirozi;

Mustakillik tufayli O'zbekistonda Siyosatshunoslik fanini o'rganish va uni rivojlantirishga real imkoniyat paydo bo'ldi. Jamiyat xayotining erkinlashuvi insonlar oldida siyosatni chuqurroq idrok etishga, siyosiy jarayonlarga faol ishtirok etishni taqozo eta boshladi. Bugun Siyosatshunoslik fani rolining oshib borishini ko'proq davr taqozo etmokda.

Tayanch tushunchalar:

Siyosatshunoslik fani, predmeti, maqsadi, vazifasi, qonun, tushuncha (kategoriya), uslub (metod), dialektik, empirik - sotsiologik, qiyosiy taqqoslash, siyosiy tahlil, siyosiy falsafa, siyosiy iqtisod, halkaro munosabatlarning siyosiy nazariyasi, geosiyosat, siyosiy tarix, siyosiy etika, siyosiy antropologiya, siyosiy jarayon, siyosiy hokimiyat, siyosiy madaniyat, nazariy va amaliy vazifalar.

Adabiyotlar.

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T. «O'zbekiston» 1997 y.
2. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. —T. «O'zbekiston», 1998.
3. Karimov I.A.Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. – T. «O'zbekiston», 2003 y.
4. Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Toshkent, «O'zbekiston» 2005 y.
5. Karimov I.A. o'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. Toshkent, «O'zbekiston» 2005 y.
6. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch". T., "Ma'naviyat", 2008y.
7. Karimov I.A. "Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish" T.: "O'zbekiston" 2009.
8. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. T., - "O`zbekiston", 2010.
9. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., - "O`zbekiston", 2011.
10. Kratkiy ensiklopedicheskiy slovar politologii. Moskva. 1997 g.
11. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T: «O'zbekiston» 2001 y.
12. Makarenkov E.V., Sushkov V.I. Siyosatshunoslik albom sxem. Moskva. 1998y.
13. Otamuratov S.Ergashev I. va boshqalar. Siyosatshunoslik. Toshkent «O'zbekiston» 1999y.
14. Siyosatshunoslik (o'quv qo'llanmasi) T. 2002 y.

15. Sotliqov A., CHo’ponov O., Abdullaev O. Siyosatshunoslik. Urganch. 2003y.
16. O’zbekistonda Siyosatshunoslik. (respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi materiallari) Toshkent. «Sharq» 2002 y.
17. Pugachev V.P., Solovev A.I. Siyosatshunoslikga kirish. T.: «Yangi asr avlodi», 2004.
18. Jo’raev S. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. T.: ToshDShI, 2003.
19. Odilqoriev X.T, Razzoqov X.D. Siyosatshunoslik. T- 2008.

2 – Mavzu: Siyosiy qarashlarning paydo bo`lishi va rivojlanishi

Reja:
1. Qadimgi davrda siyosiy qarashlar va ta’limotlarning shakllanishi.
2. O`rta asrlardagi siyosiy fikr va g’oyalar.
3. Yangi davrda Sharq va G’arbdagi siyosiy qarashlar.
4. XX asrda siyosiy ta’limotlarning taraqqiy etishi.

Dastlabki siyosiy-huquqiy fikrlar barcha xalqlarda, qadimgi Sharqda ham, antik G’arbda ham: afsona, rivoyatlar negizida shakllangan. Ularga ko’ra, erdagi tartiblar umumbashariy, koinot tartiblarining uzviy qismi va kelib chiqishi jihatidan - iloxiydir. Ana shunday tushunish uzoq davr mobaynida Sharqda, keyinchalik g’arbda ham insonlar, ular o’rtasidagi munosabatlar, azaldan belgilanganligiga asoslanib barqaror dunyoqarashni shakllantirdi.

1. Qadimgi davrda siyosiy qarashlar va ta’limotlarning shakllanishi.

Siyosat haqida dastlabki qarashlarning paydo bo`lishi va rivojlanishi: Siyosiy ta’limotlar – davlat tuzilishi, siyosiy hokimiyat va ijtimoiy (sinfiy, millatlararo, xalqaro va boshqalar) munosabatlarga oid nazariyalardir. Siyosiy nazariyalar ular vujudga kelgan u yoki bu jamiyat hayotining ijtimoiy-sinfiy sharoitlari bilan bog’liqdir. Siyosiy nazariyani siyosatning asosiy bo`laklari (hokimiyat, siyosiy munosabatlar va muassasalar, siyosiy faoliyat, siyosiy hayot normalari, siyosiy ong va h.k.) to`g’risidagi bir-biri bilan bog’langan tasavvurlar tashkil qiladi. Siyosiy nazariya rivojlanishi silliq va tekis amalga oshmaydi. Har qanday siyosiy nazariyani o`rganishning asosiy talablaridan biri uning davr sharoitlari bilan aloqasini aniqlashdir. Mutafakkirlar davr muammolarini qay darajada yoritilganini ham aniqlash zarurdir. Siyosiy g’oyalar siyosiy kurash vositasidir. Uning davomida kurashayotgan sinflar o`z oldilariga ma’lum maqsadlarni qo`yadilar. Davlat faoliyatining shakllari, vazifasi va mazmunini belgilash siyosatning muhim elementlaridan biridir. Jamiyat va davlatning siyosiy tuzilishi, siyosati, hamda hokimiyatning harakteri to`g’risidagi tasavvurlar har qanday siyosiy nazariyaning siyosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Siyosiy ta’limotlar ijtimoiy munosabatlarning ifodasi sifatida jamiyatning sinflarga ajralishi natijasida ularning manfaat va maqsadlari o`rtasida ziddiyatlar

kelib chiqqan. Ularni hal etish uchun esa, qandaydir tashkilot zarur bo`lgan. Bunday tashkilotning siyosiy namoyondasi sifatida davlat vujudga kelgan va u siyosat tushunchasini anglatgan.

Demak, siyosiy qarashlar avval boshda afsona, keyin esa filosofik bilimlarning bir qismi sifatida amal qilib kelingan bo`lsa, uyg'onish davriga kelib siyosiy tadqiqotga nisbatan mustaqil fan sifatida amal qila boshladi. Yangi tarixiy davrda fanning mazmuni davlatning maqsadlari va unga erishish vositalari, shuningdek, davlatga amal qilayotgan ijtimoiy kuchlarni o`rganishga qaratilgan. Hozirgi siyosiy tadqiqot adolatlilik, hokimiyat,qonun, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy va siyosiy tashkilotlar rivojlanish strategiyasi, siyosiy targ'ibot, siyosiy tizim, siyosiy madaniyat kabilarni o`rganishga qaratilgan.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib shuni aytish mumkin: siyosiy ta'limotning vujudga kelishi uzoq tarixiy o`tmishga ega bo`lib, u jamiyatning rivojlanishi bilan birga takomillashib, tadqiqot doirasi kengayib boradi. Demak, siyosat, siyosiy nazariyaning rivojlanish g'oyalari tarixi, g'oyalarning o`rin almashuvi va g'oyalar kurashi tarixidir.

Har bir tarixiy davrning, har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning tub tabiatini asl maqsad-manfaatlarini, unda sodir bo`layotgan turli yo`nalishdagi ijtimoiy siyosiy va ma'naviy-ahloqiy harakatlarni aynan va unga yaqin tarzda ifoda eta oladigan siyosiy g'oyalarning mazmuni shakllanadi va amaliyotiga tadbiq etiladi. Ko`pincha biror ob'ektiv xususiyatli siyosiy g'oyalar va uning zaminida yotgan ijtimoiy-siyosiy tuzumning o`ziga xos va o`ziga mos keladigan, uning mohiyatini anglatadigan siyosiy g'oyalarga amal qilinishini kuzatamiz. Ana shu xususiyatlarni e'tiborga olgan holda, qadimgi sharq va g'arb mutafakkirlarning jamiyat va inson, siyosat va davlat to`g'rsidagi nazariy qarashlariga e'tibor qaratiladi. Dastlabki siyosiy qarashlar diniy an'ana, huquqiy, siyosiy-falsafiy qarashlar shaklida namoyon bo'ldi.

Qadimgi Sharqdagi siyosiy g'oyalar: Dastlabki siyosiy-huquqiy fikrlar barcha xalqlarda, qadimgi Sharqda ham, antik G'arbda ham: afsona, rivoyatlar negizida shakllangan. Ularga ko`ra, erdagi tartiblar umumbashariy, koinot tartiblarining uzviy qismi va kelib chiqishi jihatidan-ilohiydir. Ana shunday tushunish uzoq davr mobaynida Sharqda, keyinchalik G'arbda ham insonlar, ular o`rtasidagi munosabatlar, azaldan belgilanganligiga asoslanib barqaror dunyoqarshni shakllantirdi. Bu qadimgi davrdagi tuzum, davlat, siyosatga doir ifoda etilgan g'oyalarni 3 turga ajratish mumkin:

1. Diniy qarash.
2. Yuridik qarash.
3. Siyosiy sotsiologik qarash tarzida yuzaga keldi.

Bularda siyosiy hodisalar har xil talqin etilgan. ***Qadimgi Xitoyda*** imperator er yuzidagi tartiblarni iloxiy tartiblar bilan bog'lab turuvchi yagona shaxs deb qaralgan. Xitoy imperatori osmonning o`g'ligina emas, o`z xalkining otasi ham hisoblangan.***Qadimqi Misrda*** esa alloh - xukmdor hokimiyatning ilk manbai sifatida qaralgan. Erda ham uning ta'siri xuddi shunday saqlanib qolgan. Bu o`ziga xos piramidaga qiyos etilgan ., uning uchi xudo va uning saylab qo`ygan fir'avnlari, asosi esa

oddiy xalq deb qaralgan. Ular o`rtasida ruhoniylar va zadagonlar turgan. Jamiyat va davlatning xulq-atvori insonning ko`proq qaysi toifaga tegishligi bilan belgilangan.

Qadimgi Hindistonda ham jamiyat va davlatningkelib chiqishi ilohiy, mavjud tartib va qoidalar ham shu asosda o`rnatilgan, degan g'oyalar mavjud bo`lgan.

Jumladan diniy an'anaga binoan hokimiyat, boshqarish, jamiyatdagi mavjud tartib-qoidalar Ollohning irodasi, inoyati sifatida qaralgan. Hukumdor esa Ollohning erdagi vakili, deb xisoblangan. Binobarin davlatning kelib chiqishi, mavjud tartib, qoidalar Xudo irodasiga bog'liq, degan tushuncha mavjud edi. Bunday diniy tushunchalar Markaziy Osiyoda zardushtiylik dinida («Avesto»), Sharqda Islom davlatlarida ham dastlab ana shunday tushunchalar mavjud bo'lib, «Xalif», «amir», «Imom» kabi tushunchalarda hokimiyatning diniy va dunyoviy asoslari ifodalangan. yuqoridagi tushunchalar asosan «dinning himoyachisi» ma'nosini anglatgan.

Dastlabki diniy - siyosiy qarashlar bundan deyarli uch ming yil avval hozirgi O'zbekiston hududida, Xorazmda yaratilgan yozma manba «Avesto»da bayon qilingan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da o'rta Osiyo, Xuroson Eron va shimoliy Hindistonda vujudga kelgan 26 ta davlat, ularning boshqarilish tartibi, xo'jalik va madaniy hayoti haqida so'z Yuritiladi.

«Avesto» dagi «Daxyu sastar» atamasi - davlat darajasiga o'sib chiqqan ma'muriy-siyosiy birlik bo'lib, uni boshqargan podshoh - «Kaviy» nomi bilan Yuritilgan. Kaviylar ayni vaqtda bosh ruhoniy - kohinlik vazifasini bajargan. Hukmdor davlatni oqsoqollar kengashi yordamida boshqargan. Jamiyat a'zolari 4 guruhga: kohinlar, harbiylar, chorvadorlar, dehqon va hunarmandlarga ajralgan. Kohinlar va harbiylar davlatni boshqarish huquqiga ega bo'lgan Yuqori martabali guruh sanalgan.

«Avesto»da bayon qilingan zardushtiylik ta'limotiga ko'ra butun olam bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikkita asos - yaxshilik va yomonlik, bunyodkorlik va buzg'unchilik, yovuzlik o'rtasidagi kurash zaminiga qurilgan bo'lib, oqibat natijada bu kurash yomonlik ustidan ezgulikning g'alabasi bilan yakunlanadi.

Yana ezgulik yo'liga qadam qo'ygan odamlar hamisha uchta tamoyilga, ya'ni, ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalga asoslanmog'i kerak, deb uqtiriladi.

«Avesto»da olov, er, suv va havo jamiki mavjudotning bosh intihosi, deb qaralgan. Ularni iflos qilish eng og'ir gunoh hisoblangan. Bu qoidani buzgan kishi 400 qamchi jazosiga mahkum etilgan.

Demak, yurtning tinch-osoyishtaligini saqlash, halqning farovonligini ta'minlash, hayot manbai bo'lgan ekologik muhit musaffoligi davlat hokimiyatining muqaddas burchidir, deb qaralgan.

«Avesto» kitobida bayon qilingan yuqoridagi siyosiy-falsafiy g'oyalar hozirgi kunimizda ham dolzarb vazifalardan sanaladi.

Konfutsiyning davlat haqidagi nazariyasi: Konfutsiy (er.av. 551-479) - ta'limoti falsafiy va siyosiy - huquqiy fikr tarixida Suqrotdan keyin muhim rol o`ynagan. Konfutsiy davlatning patriarxal - ***paternalistik kontseptsiyasi***ni rivojlantirgan. Uning ta'kidlashicha, davlat-katta oiladir. Imperator hokimiyati go`yo oila boshlig'i-otaning hokimiyatidek adolati va qo`l ostidagilariga mehr-shafqatga asoslangan. Hukmdor va fuqarolar munosabati - oila a'zolarining munosabatini eslatadi: kichiklar kattalar

qaramog'ida va ularga itoat qiladi. Konfutsiy odamlarni ijtimoiy kelib chiqishga ko`ra 4 qatlamga ajratadi:

1) aslzodalar (har qanday bilimga tug'ilishdan ega);
2) bilimlarga o`qish-o`rganish jarayonida ega bo`lganlar;
3) bilimlarni qiyinchilik bilan o`zlashtiruvchilar;
4) bilim olishga intilmaydiganlar.

Shu tariqa odamlar o`rtasida tengsizlik mavjudligi va omi odamlar, qo`yi tabaqalar, kichik oliy nasab aslzoda, kattalarga bo`sunishlari zarurligi belgilab beriladi. Hokimiyat oqsuyaklar qo`lida to`planishi lozimligiga asoslanadi. Konfutsiy hokimiyatning adolat va mehr-shafqatga asoslanadi, fuqarolar esa isyonlardan o`zlarini tiyishlarini uqtiradi. Boshqarish-hammani joy-joyiga qo`yish demakdir.[9] Davlat xokimiyati xalq ishonchisiz mavjud bo`la olmaydi, ammo hukmdorlar hammaga o`rnak bo`lishlari lozim. Konfutsiy ta'limotiga ko`ra *«Hukmdor xalqni o`z farzandidek sevishi, fuqarolar esa xukmdorni o`z otasidek hurmat qilib, e'zozlashi lozim»* deyiladi. Odamlarning «najib» va past kishilarga bo`linishini o`zgartirib bo`lmaydi deyilgan. Bu ta'limot Xitoyda ko`p asrlar xukmron ideologiya bo`lib xizmat qilib keldi.

Konfutsiyning asosiy ta'limoti – jamiyatni ilg'or ahloqiy normalar asosida boshqarilishi ta'limotidir. U jamiyat taraqqiyotida odamlar, shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, deb talim beradi.

Konfutsiy ta'limotida insonparvarlik, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy adolat g'oyalari ustivor bo'lganligi bois Sharqda hozir ham alohida ahamyatga egadir.

Qadimgi Yunoniston va Rimdagi siyosiy fikrlar: Qadimgi grek faylasuflarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari, ularning ma'naviy qadriyatlari, ilmiy haqiqat mantiqini, kuchini ulug'lash, inson aql-zakovati qudratini ko`rsata olish san'ati, yuz yillar davomida kishilar e'tiborini o`ziga tortib kelgan. Chunki insoniyat tarixida ilk bor buyuk allomalar matematikani, siyosat va falsafani, tarix va tabiatni, o`rganish ilmini kashf etdilar. Ularning dunyoviy, siyosiy va madaniy bilimlari ahloqiy va ma'naviy hayot haqiqati bilan uzviy bog'liq edi.

Qadimgi yunon siyosiy falsafasi adolat, aql-zakovat, yaxshilik, hayotiy haqiqat bo`lib, u doim hamma razil narsadan ustun turishini ko`rsata olgan.

Suqrot, Aflotun, Arastu, Tsitseronning siyosat va davlat haqidagi ta'limotlari: Suqrotning (Miloddan avvalgi 469-399 yillar). siyosiy qarashlarida ham insoniy ezgulik, donishmandlik, ma'naviy-ahloqiy poklik, ijtimoiy adolat g'oyalari targ'ib qilinadi. U davlatni *«eng yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan kishilar boshqarmog'i»* kerak, deb ta'lim beradi. Sukrot odil qonunlar xukm suruvchi shahar-davlatning e'tiqodli tarafdoridir.

U siyosiy erkinlikni aqlga tayanib ishlab chiqilgan va adolatli qonunlarning hukmronligi bilan bog'lagan. Insonning jamiyat oldidagi majburiyatlari to`g'risida gapirar ekan Sukrot, aqlga asoslangan va adolatli ravishda tartibga solingan davlat sharoitidagi ozod va teng fuqarolarning qonuniy majburiyatlarini nazarda tutgan. Uning fikricha, faqatgina shu yo`l bilangina *"Inson uchun ham, davlat uchun ham go`zal va buyuk boylik bo`lgan"* erkinlikka erishish lozim. Sukrot qonunsizlik va

[9] Yusupova G.X.,Bugaeva G.A. Siyosiy fikrlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi. Politologiya kursi bo'yicha ma'ruzalar matni. 1-qism Toshkent: UzMU, 2000, 7-14 betlar.

zo`rlik tuzumi bo`lgan istibdodni keskin inkor etadi. Demokratiyaning kamchiligini ko`rsatish bilan bir qatorda uni mukammalroq hokimiyat shakli tomon rivojlantirish to`g'risida fikr yuritadi. Xulosa qilib aytganda, Sukrotning nazariy qoidalari o`z davrida mavjud bo`lgan u yoki bu tuzumni ma'qullash yoki inkor etish bilan tavsiflanmagan, shuningdek uning qarashlarini reaktsion davlat tuzumini oqlashga yo`naltirilgan deb ham bo`lmaydi.

Qadimgi Yunonistonda siyosiy falsafaning vujudga kelishi ***Aflotun*** (Platon miloddan oldingi 427-347 yillar) nomi bilan bog'liq. Uning siyosiy falsafasi, siyosat, davlat va huquq to`g'risidagi ta'limoti uning falsafasini ajralmas qismidir. Aflotunning siyosiy dasturi ***"Davlat", "Qonunlarga", "Politik"*** asarida bayon etilgan. Aflotun o`z siyosiy sistemasida quldorlik tuzumini eng buyuk jamiyatning asosiy sharti sifatida aks ettiradi. Shuning uchun ham u faqatgina quldorlar sinfi doirasidagi munosabatlarinigina tahlil qiladi. Aflotun o`zining *"Ideal davlat"* utopiyasi hayolotida jamiyatda uch tabaqa: hokimlar va faylasuflar, harbiylar, dehqonlar va hunarmandlar bo`lishini taxminlaydi. Davlat hokimiyati oqsuyaklar - faylasuflar qo`lida bo`lishi shart. Harbiylar – yollanma qo`riqchilar davlat boshqaruvi xodimlarini – quldorlar hokimiyatini himoya qilishlari darkor.

Dehqonlar va hunarmandlar davlatga zarur hamma narsa, mahsulotlarni tayyorlashi shart. Har bir tabaqa o`z vazifasini bajarish bilan cheklanishi va boshqa ishlarga aralashmasliklari zarurdir. Aflotun qullarni hatto odamlar qatoriga qo`shmaydi, ularni ma'naviy hayotdan mahrum mahluqlar deb haqorat qiladi. Umuman, demokratiyaga, ayniqsa Afina demokratiyasiga butunlay dushman bo`lgan Aflotun quldor Aristokratlar hokimiyati haqida hayol surgan. Mutafakkir quldorlar aristokratlari respublikasini eng oliy davlat shakli deb hisoblab, uni ilohiylashtirgan. Aflotun davlat tuzilishining besh turini ajratgan: Aristokratiya, demokratiya, oligarxiya va istibdod. Aristokratiya Aflotun fikricha, eng ideal davlatdir. Demokratiyani u yoqimli va rang-barang, lekin etarli boshqarishga ega bo`lmagan tuzum sifatida baholaydi. Erkinlik demokratiyani gangitib qo`yadi va undan qonunsizlik, zo`rlik va zulm hukmron bo`lgan eng yomon davlat tuzilishi istibdod o`sib chiqadi. Shu o`rinda talabalar bizning jamiyatimizda borayotgan demokratiyalashtirish jarayonini Aflotun qarashlari bilan aloqadorlikda fikrlashga harakat qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Arastu (Aristotel miloddan oldingi 384-322 yillar) qadimgi grek faylasufi va ensiklopedik olimi bo`lib, mustaqil siyosat ilmiga asos solgan. Uning siyosiy qarashlari ***"siyosat"***, ***"Afina politiyasi", "Etika"*** asarlarida bayon etilgan. Arastu siyosat to`g'risidagi fanni har taraflama ishlab chiqishga harakat qildi. Uning ta'limotida siyosat fan sifatida etika bilan bog'langan. Siyosiy fanning ob'ektlari go`zallik va adolatdir, chunki siyosat inson va davlatning oliy farovonligi to`g'risidagi fandir. Davlat Arastu fikricha, hayotiy ehtiyojlarni qondirish uchun tabiiy yo`l bilan vujudga keladi, biroq uning mavjudligining maqsadi - kishilar farovonligiga erishishdir[10]. Arastu davlat hokimiyatining eng oliy formalari deb shunday formalarni hisoblaydi, undan hokimiyatdan ta'magirlik maqsadida foydalanish istisno qilinadi va bunda hokimiyat uyushmasining oliy shaklidir va

[10] Gutov V.A. Istoriya politicheskix i pravovix ucheniy. Iz-va. Mixaylova V.A. Sankt-Peterburg. 2000, 19-b.

unda boshqa uyushmalar o`z maqsadlariga erishadilar.

Arastu davlatning to`g'ri va noto`g'ri shakllarini farqlaydi: to`g'ri shakllarda hokimlar umum foydasini, noto`g'ri shakllarda esa faqat o`z foydasini nazarda tutadilar. Monarxiya, Aristokratiya, Politiya – davlatning to`g'ri shakllaridir. Politiya davlatning eng to`g'ri shaklidir (*"politiya"* – umumiy davlat tuzumini bildiruvchi atamadir), chunki unda ko`pchilik umumiy manfaatini ko`zlagan holda jamiyatni boshqaradi. Qonunchilik Arastu fikricha, siyosatning bir qismidir. Shuning uchun qonunchi san'ati davlat tuzumining xususiyatlarini qonunlarda to`g'ri aks ettirishdan va shu orqali mavjud munosabatlar tizimini turg'unlashtirishdan iborat. Siyosiy hukmronlik – insonlarning emas, qonunlarning hukmronligidir. Insonlarning hukmronligi hokimiyatni suiste'mol qilishga va istibdod olib kelishi mumkin. Qonun oqilonadir, chunki unda huquq g'oyasi to`g'ri aks etgan. Qonunlarning normal amal qilishi kishilarning rivojlanganligi, ezgulikka tayyor ekanligini, oqilona, turmush va xulq atvorga ega ekanligini nazarda tutadi. Arastu siyosiy ta'limotiga baho berganda shuni ta'kidlash zarurki, aynan inson va uning siyosiy hodisalarning ob'ektiv asoslarini va ildizlarini ko`radi.

Arastu qarashlari siyosiy muammoga o`zidan avvalgi yondoshuvlarning o`ziga xos sintezi bo`ldi. Xulosa qilib aytganda siyosiy fikrlarning vujudga kelishi ijtimoiy ishlab chiqarish usuli rivojining, jamiyatning sinflarga bo`lishini va davlatning vujudga kelishi bosqichi bilan bog'liq bo`ldi. Qadimgi mutafakkirlar siyosiy qarashlar rivojiga, davlat va huquq muammolarini nazariy asoslashga katta xissa qo`shdilar. Bu esa o`z navbatida keyingi bosqichlarda ijod qilgan faylasuflar, jamiyatshunoslarga va ularning siyosiy fikr tarixidagi roliga ta'sir etdi.

Qadimgi Yunoniston mutafakkirlarining siyosiy qarashlaridan foydalangan holda Qadimgi Rim siyosiy tafakkuri ham vujudga keldi va rivojlandi.

Tsitseron Mark Tulliy (eramizdan oldingi 106-43) – Qadimgi Rim notig'i, filosofi va siyosiy arbobi, u o`zining ***"Davlat haqida", "Qonunlar haqida"***gi asarlarida davlat tuzumining eng yaxshi formalari masalasini qarab chiqadi.

Uning fikricha, davlat hokimiyati tabiiy holda vujudga kelgan bo`lib, u qadimgi oiladan o`sib chiqqan, uning asosiy maqsadi esa fuqarolarning mulkiy manfaatlarini mulohaza qilishdan iboratdir. Davlat hokimiyatiga bo`lgan aristokratik tasavvurlar bilan birga Tsitseron siyosiy qarashlarida yangicha siyosiy aqidalar mavjudligini ko`ramiz. Uning fikricha, davlat hokimiyati nafaqat tabiiy xosila, ayni vaqtda u suniy tizim "xalq irodasining ifodasi" hamdir, shuning uchun Tsitseron davlat "xalq ishi" atamasini belgilaydi.

Tsitseronning siyosiy orzusi – aristokratik senat respublikasidir. Mazkur siyosiy g'oya yunon mutafakkirlarining siyosiy hokimiyatining aralashma shakllari ma'qulligi haqidagi ta'minotlardan kelib chiqqan bo`lib, Tsitseron bunday davlat boshqarishini uning quyidagi uch shaklida: 1) podsho hokimiyati – monarxiya; 2) optimatlar hokimiyati – aristokratiya; 3) xalq hokimiyati - demokratiya shakllarida amal qilishi maqsadga muvofiq kelishini uqtiradi[11]. Bunday aralash davlat turi uning fikriga Rim respublikasida mujassamlashgan bo`lib, unda monarxiya ko`rinishlari – konsullar hokimiyatida, aristokratiya belgilari – senat boshqarishda,

[11] Gutov V.A. Istoriya politicheskix i pravovqx ucheniy. Iz-va. Mixaylova V.A. Sankt-Peterburg. 2000, 21-b.

demokratiya – xalq majlisi va tribunlar hokimiyatida ifoda topgandir.

2. O`rta asrlardagi siyosiy fikr va g'oyalar.

O`rta asrlarda Markaziy Osiyodagi siyosiy fikrlar: O'rta Osiyoda uyg'onish davrida (IX – XII asrlar) davlat qurilishi, yirik markazlashgan davlatni vujudga keltirish va boshqarish masalasida yanada ilg'or ijtimoiy-siyosiy fikrlar yaratiladi. Bunday fikrlar Firdavsiyning *«Shohnoma»*, Abu Nasr Forobiy (873-950y) ning *«Fozil odamlar shahri»*, Ibn Sino (980-1037y) ning *«Al qonun», «Donishnoma»*, Beruniyning (973-1048y) *«O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Q'onuni Ma'sudiy»* va boshqa asarlarida bayon etilgan.

Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Nizomul-mulk, Yusuf Xos Xojibning siyosiy qarashlari: Farobiy (873-950 milodiy yillar) o'zining siyosiy ta'limotida o`z davrining dolzarb masalalarini, xususan davlatning jamiyatga bo`lgan munosabati masalasini qo`ygan va hal qilgan. U davlatga insoniy ehtiyojlarni hamjihatlik bilan ijtimoiy asosda hal qilishga mo`ljallangan tashkilot sifatida qaraydi.

Farobiy adolatli va adolatsiz davlatlarni farqlaydi. Uning fikricha davlat yaratuvchilikka yo`naltirilgan bo`lsa, u adolatli. Bunday davlatda insonning hatti-harakati islom qoidalari bilan cheklanmaydi. Adolatli jamiyatning vujudga kelishi uning boshlig'iga bog'liq. Davlat boshlig'i qobiliyatli, aqlli, irodali va fanni sevuvchi bo`lishi lozim.

U o`zining asarlarida jamiyatning kelib chiqishi, davlatning paydo bo`lishi, uning shakli davlat arboblari va ularning vazifasi, ular oldiga qo`yilgan asosiy talablar, davlatni idora etish usullari haqida o`zining chuqur falsafiy-siyosiy qarashlarini bayon qiladi. Farobiy inson tomonidan jamiyatda yashash uchun sodir qilinadigan harakatlarni ikkiga bo`ladi:

1. Adolatli, aqlga muvofiq harakatlar. Bu harakatlar, ularga baxtlik keltiradi.
2. Adolatsiz, maqsadga muvofiq bo`lmagan harakatlar, ularga baxtsizlik keltiradi.

Farobiy urush va tinchlik masalasida urush ikki xil bo`lishi, ya'ni adolatli va adolatsiz urushlar haqida fikr yuritadi. Farobiy o`rta asr Sharq ilg'or ijtimoiy-falsafiy fikrlarining rivojiga katta ta'sir ko`rsatdi.Jumladan Forobiy o'zining «***Shaharlar ustidan siyosat yurgizish»*** va ***«Fozil odamlar shahri»*** asarida siyosatga alohida ilm sifatida qaralgan, davlat hokimiyati, uning shakli, boshqarilish tartibi, vazifalari davlat boshliqlarining 12 ta xislat-fazilatlari haqida fikr yuritiladi. Forobiy avvalgi hukmdor o'rniga kelgan keyingi hukmdorda yuqoridagi fazilatlardan tashqari yana 6 ta fazilat bo'lishligini alohida qayd etadi.

Davlatning vujudga kelishi haqida gapirib, Forobiy – davlat insonlarni bir-biriga dushmanligidan emas, yashash uchun ularning o'zaro ittifoqda, aloqa va munosabatda bo'lish zaruriyatidan vujudga keladi. Davlatning asosiy vazifasi fuqarolar turmushini yaxshilash, tinchlik va asoyishtalikni barqarorlashtirishdan iborat deb ta'kidlanadi. Forobiy shahar – davlatlarni ikki guruhga – fozillar va johillar shahri davlatlarga ajratadi.

Fozil kishilar davlatida farovonlik, tinchlik, asoyishtalik, adolat hukmron bo'ladi. Johil kishilar davlatida esa aksincha nopoklik, razolat, amalparastlik, shuhratparastlik, molparastlik va beqarorlik xukmronlik qiladi. (1 – Sxemaga

qarang).

Ibn Sino (1980-1037) – jahon madaniyatiga katta hissa qo`shgan qomusiy olim. Avitsenna tufayli Frantsiya – g'arb Aristotel asarlarini o`rgandi. 200 dan ziyod asar qoldirgan. ***«Tib qonunlari»*** o`sha davrdayoq tezda lotin tiliga tarjima qilinib, Evropa, qator Sharq mamlakatlarida darslik bo`lib xizmat qilib kelgan, kelmoqda. Shuningdek, uning ***«Najot kitobi», «Donishmandlik kitobi», «Ishorat va tanbeh»*** asarlari muhim ahamiyatga ega. Siyosiy qarashlarida Ibn Sino ideal jamiyat aholisida kishilarni bajaradigan vazifasiga ko`ra uch tabaqaga bo`ladi:

1) boshqaruvchilar – ma'muriy ishlar bilan shug'ullanuvchilar;
2) mehnatkashlar – ishlab chiqaruvchilar;
3) harbiylar – jangchilar.

Davlatsiz qonun-qoidalar bo`lmaydi. Agar odamlar faqat shohu-sultonlardan yoki oddiy mehnatkashlardan iborat bo`lsa, barchalari halok bo`ladi. U moddiy tenglikni e'tirof etadi, lekin odamlarning boyib ketishlari tarafdori, hamma a'zolari uchun bir xil bo`lgan qonun o`rnatilgan jamiyatda adolatsizlik bo`lmaydi. Adolatsiz kishilar jazoga loyiqdirlar. Agar hukmdorning o`zi adolatsiz bo`lsa, unga qarshi qo`zg'alishni oqlamoq kerak, - deydi u.

O`rta Osiyo ilg'or kuchlari namoyondasi sifatida Ibn Sino ideal ijtimoiy tartib mavjud bo`lgan, bekorchilik qoralanadigan va sudxo`rlik ta'qiqlangan davlat tuzumini targ'ib etgan. Bunday davlat aholisi xukmdorlar, ishlab chiqaruvchilar va xarbiylardan iborat bo`lishi kerak. Davlatda birorta ham o`z ish o`rniga ega bo`lmagan kishi qolmasligi kerak.

Ibn Sino fikricha, inson jamiyatdan ajralgan holda yashashi mumkin emas. Kishilar yashash uchun bir-birlari bilan hamkorlik qilishlari zarur. Lekin bu munosabatlari dono, fanni e'zozlovchi, odil shox tomonidan amalga oshiruvchi adolat normalariga mos kelishi shart. Agar qonun chiqaruvchi adolatsiz bo`lsa, unga qarshi qo`zg'olon jamiyat tomonidan qo`llab-quvvatlanadi.[12]

Hamadon amri Shamsuddavla Ibn Sinoning aql-zakovatini ma'qul ko`rib uni vazirlik lavozimiga loyiq ko`radi. Ibn Sino qattiqqo`l, har bir muomalada aql-idrok bilan ish qiladigan, o`z shaxsiy manfaatiga yonbosmaydigan odam bo`lgan. Odatdagi amaldorlar kabi mol-dunyoga ko`zi o`ynamas edi, pora olish, xazinaga xiyonat qilish kabi kayfiyatlardan holi edi, u qo`l ostidagilarga har kishi o`z burchini halol, to`g'ri bajo keltirishni uqtirar edi. Bu borada xarbiy kishilardan talab qilar edi.

Ibn Sino uy va oila tadbirlariga oid masalalarga ham to`xtalgan. Chunonchi, er-xotinning bir-biriga bo`lgan munosabati, bir-birini hurmat qilishning bola tarbiyasidagi muhim roli, ayollarning oila va jamiyatdagi roli to`g'risida bahs yuritadi.

U ahloq haqida qimmatli fikrlarini ilgari suradi. *"Insonparvar bir-birlari bilan do`st bo`lib yashashlari uchun ularda insonparvarlik ruhini rivojlantirish kerak. Ularda muhabbat, halollik kabi ahloqiy hislatlar mujassamlashgan bo`lmog'i lozim"*[13] – deydi. U aytgan ajoyib fikr-mulohazalar, uning ahloqiy qarashlari hozirgi davrda ahamiyat kasb etmoqda.

[12] X.T.Odilqoriev, D.X.Razzaqov. Siyosatshunoslik. "O`qituvchi" , T., 2008, 74-b.
[13]T.Xoshimov. Siyosatshunoslik . O`quv qo`llanma. "Fan", T., 1999, 19-b.

Beruniy (973-1048-milodiy) tug'ilgan va ijod etgan davr keskin sotsial to`qnashuvlar, qonli feodal janglar borgan davr edi. Shuning uchun ham u katta tarixiy ahamiyatga ega bo`lgan hodisalarni o`z ko`zi bilan ko`rgan va ularda bevosita ishtirok etgan edi. Beruniy Somoniylar hukmronligi kuchaygan davrining oxirgi yillarida tug'ilib, ikki boshlang'ich feodal imperiya – qoraxoniylar va g'aznaviylarning kuchayishi va yiqilishi davrini boshidan kechirdi. Shu vaqtlarda Sirdaryoga yaqin dashtlarda yashovchi varvarlar – og'uz saljuqiylarning yangi kuchli imperiyasining tashkil etilishiga shohid bo`ldi. O`z vatani Xorazmda Afrig' xonadonining halokati va qisqa vaqt ichida tiklanib gullagan, lekin Mahmud G'aznaviyning daxshatli hujumi bilan tor-mor keltirilgan. Mavshuniylar davrini ko`rgan. U yana 3 Xorazm Sulolasi – Oltintosh va Xorun Sulolasining halokatini boshdan kechirdi.

Beruniy yashagan va ijod etgan davr voqealarga eng boy davrlardan biri bo`libgina qolmay, O`rta Osiyo xalqlari tarixidagi burilish davrlaridan biri ham edi. Bu davrda jamiyatning progressiv va reaktsion kuchlari orasida keskin kurash davom etardi. Bu kurash ijtimoiy hayotning hamma sohalarini o`z ichiga qamrab olgan bo`lib, ruhiy hayotda, fan, adabiyot va ilmning boshqa sohalarida ham o`z ifodasini topgan edi. Shavqatsiz suratda ekspluatatsiya qilish va qashshoqlik, huquqsizlik, shuningdek, hokimiyatlarning zulmi, feodal va ruhoniylarning o`zboshimchaligi, ularning bema'ni fitnalari va o`zaro olib borgan talonchilik urushlari bularning hammasi xalq ommasini rahmsiz suratda ezar, qiynar va bug'ar edi.

O`rta Osiyodagi siyosiy fikrni o`rganishda o`rta asr saljuqiylar davlati arbobi ***Nizom-ul-Mulkning*** (Abu Ali at-Tusiy 1017-1092 yy.) ***"Siyosatnoma"*** asari alohida o`rin tutadi. Alp-Arslon va Malik-Shox dargoxida vazirlik qilgan Nizom ul-Mulk haqiqatda davlatga xokimlik qilgan. Davlat homiyatini markazlashtirish siyosatini yurgizgan. Bog'dodda musulmon dini ulamolarini, qozilar va davlat xizmatchilarini tayyorlash uchun mo`ljallangan "Nizomiy" ilmiy-diniy maktabini tashkil qilgan. "Siyosatnoma" asari nasixat shaklida yozilgan bo`lib, tarixiy va kundalik hayotni aks ettiruvchi misollar bilan mustahkamlangan iqta sistemasi va feodal tarqoqlikka qaratilgan. Uning «Siyosatnoma» asarida ham davlat boshqaruviga aloqador hamma masalalar – podsho va amaldorlar, boshqarish tartibi, usuli, qonun-qoidalari, qozixona ishlari, harbiylar, soliq siyosati, elchilik aloqalari, taqdirlash va jazolash choralari o'z ifodasini topgan, amaldorlarni tayinlashda ularning insofli aql-farosatli, dono, bilimdon, tajribali va boshqa fazilatlariga alohida e'tibor qilish ko'rsatildi. «Siyosatnoma» asari sharqda hukmdorlar qo'lida dastur amal bo'lib keldi, undagi ko'pgina g'oyalar hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Asarning o'zbek tilidagi qisqartirilgan nashri 1997 yilda ko'p nusxada chop etildi.

Yana bir O`rta Osiyolik mutaffakkirlardan biri ***Yusuf Xos Xojib*** bo`lib, uning bizgacha etib kelgan birdan-bir kitobi ***"Qutadg'u bilig"*** asaridir. U XI asrning eng muhim yozma adabiy yodkorliklaridan bo`lgan bu yirik asarni 1069 yilda yozgan. Asarda davlat obro`sini ko`tarish sohasidagi tadbirlar, davlat obro`siga halaqit beruvchi holatlardan tiyish haqida ko`rsatmalar, tiklash haqida ko`rsatmalar va turmushga doir boshqa qator masalalarni muallif alohida boblarda keng izohlab

berdi. Natijada, 73 bobdan iborat siyosiy, ilmiy, adabiy asar maydonga keldi.

Yusuf Xos Hojib o`z asarida ayniqsa davlat qurilishi masalalariga katta o`rin ajratdi. U o`z asarida qoraxoniylar davlati boshqaruluvida vazirlar, hojib, xos hojib, su boshi (lashkarboshi), yalavochlar (elchilar), garig (qo`shin) boshchilar, adolat qiluvchilar (arbitraj hakamlar), adib-shoirlar, sagitchilar (savdogarlar), tarigchilar (dehqonlar), bitikchilar, talluqchilar (xizmatkorlar), chorvadorlar bilan qanday munosabatda bo`lish kerakligi kabi masalalar qonunda aks etmog'i haqida ta'kidlab o`tgan. U mamlakat iqtisodiyotini ko`tarish uchun merkantilizm siyosatini targ'ib qildi, mamlakatda ishlab chiqarilgan ortiqcha mahsulotlarni chetga chiqarishni tavsiya qildi. Shuningdek, mamlakatda ishlab chiqarish mumkin bo`lmagan mollarni chetdan keltirishni taklif etdi. Dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlarning imkoniyatlariga qarab ish, muomala qilish usullarini mahsus bayon etgan. "Qutadg'u bilig" yozma obidasining kirish qismida Tantag (Xitoy), Rim, Eron, Arab mamlakatlarida bu asar nomi turlicha ifodalanganligi haqida so`z boradi. Bu ma'lumotlar qoraxoniylar davlati boya aytilgan mamlakatlar bilan diplomatik, iqtisodiy, madaniy aloqada bo`lganligidan dalolat beradi.

Amir Temurning davlatni idora qilish haqidagi tamoyillari: Sharq xalqlari ijtimoiy-siyosiy hayotida, siyosiy tarixida juda katta o`rinni olgan buyuk asarlardan biri bu Amir Temurning (1336-1045***) "Temur tuzuklari"***dir. Bu asar 1967 yilga qadar, ya'ni hozirgi o`zbek tilida ilk bor nashr etilguncha, necha yuz yillar davomida turk, fors, arab, ingliz, frantsuz, nemis va boshqa o`nlab tillarda nashr etilib kelingan. Ko`plab yirik davlat arboblari uchun maxsus nusxa ko`chirtirganlari ma'lum.

Kitob ikki qismdan iborat bo`lib, I qismida Amir Temurning 1342 yil, ya'ni 7 yoshdan to vafotigacha qadar bo`lgan hayoti, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, markazlashgan davlat tuzish uchun qilgan harakati va xarbiy yurishlari bayon etilgan. II-qism esa Amir Tumurning o`z vorislari, farzandlariga atalgan vasiyatlari, ahloq-odob qoidalaridan iborat. "Temur tuzuklari"ning ham ilmiy, ham tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligini aytishga hozirga qadar bizda andisha qilingan. Hattoki bu asarni tilga olgan olimlar gunohkor hisoblanganlar. Balki, bu Amir Temurning buyuk davlat arbobi ekanligini sobiq Ittifoq tomonidan tan olishlikni o`ziga ep ko`rilmaganligi bo`lsa kerak.

"Temur tuzuklari"ning ahamiyati haqida fikrimiz quyidagicha:

1. Asarda XIV asr o`rtalarida XV asr boshlariga qadar O`rta Osiyoda bo`lgan ijtimoiy-siyosiy hayot o`z aksini topgan.
2. Odamlar va davlatlararo bo`lgan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar ko`rsatilgan.
3. Asar siyosat nazariyasigagina emas, shuningdek, amaliy nazariyaga ham bag'ishlangan. Davlatni idora etishning o`z davriga xos qoidalari tahlil etilganki, uni hozirgi zamon uchun ham ahamiyati katta.
4. "Temur tuzuklari" faqat shoxning tarjimai xoli emas, balki xalqning tarixi, XIV asrdagi feodal munosabatlar, ijtimoiy-siyosiy hayot tarixidir.

"Temur tuzuklari"da davlatni idora qilishning o`z davriga xos bo`lgan 12 qoidasi izchillik bilan bayon etilgan. Asosiy qonun vazifasini bajargan Temur tuzuklari (qonunlari) Temuriylar davlatining barcha siyosiy va iqtisodiy, ijtimoiy

huquqlarini ifodalab beradi va unga ko`ra ish yuritadi.

Shaxsan Amir Temur tashabbusi bilan davlat intizomi va xarbiy intizom mustahkamlandi. Hozirgacha o`z ahamiyatini yo`qotmagan xarbiy taktika, strategiya nazariyasi saqlanib qoldi. Xarbiy ish fan darajasida rivojlandi, siyosiy va xarbiy razvedka, muntazam qo`shin tashkil qilindi. Iqtisodiy, siyosiy imtiyoz-tarxonlik an'anasi davom etdi. Madaniy muassasalarga homiylik kuchaydi, shunga ko`ra mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot darajasi o`z zamonasiga nisbatan yuksaldi va hozirgi kunga qadar ahamiyatini saqlab qoldi.

Sohibqiron har bir ishda siyosatni adolat bilan amalga oshirishga va bunda turli vositalar asosida uning izchilligini ta'minlashga erishdi. Masalan, u nafaqat davlat hizmatchilarining qanday sifatga ega bo`lishini, balki shunday sifatlarni qanday qilib davlat boshqaruviga kelishini ta'minlashning yo`nalishi tomonlarini ishlab chiqdi. Bu borada u shunday deydi: *"Agar har narsani va har kimni o`z martabasida saqlay olmasang saltanatingga bunda ko`p halol va ziyon etgay. Demak, har kimning qadr-qimmatini, tutgan maxsimi va har bir narsaning o`lchovini belgilab olishning va shunga muvofiq ish yuritishing kerak"*[14], deb, u davlat hizmatida salohiyatli shaxslarning ishtirokini amaliy tartibga aylantirdi. Jumladan, *"Kimning aqli va shijoatini sinov tarozisida tortib ko`rib, boshqalarnikidan ortiqroqligini bilsam, tarbiyamga olib, amirlik darajasiga ko`tarar edim, so`ngra ko`rsatgan hizmatlariga yarasha martabasini oshirib borardim"*[15], - deydi.

Amir Temur tomonidan ishlab chiqilgan davlat boshqaruvining muhim qoidalari hozir ham o'z ahamiyatini saqlamoqda. «Temur tuzuklari» asari 1991 yilda o'zbek tiliga o'girilib ko'p nusxada nashr qilindi.

A. Navoiyning ideal jamiyat kontseptsiyasi: Alisher Navoiy (1441-1501 yy.) o`zbek adabiyotining asoschisidir. Uning ijtimoiy, chuqur ziddiyatli va o`sha davr ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga qaram bo`lgan davlat arbobi o`rtasidagi kurash ko`zga tashlanadi. Bu kurashda insonparvarlik engib chiqadi va Navoiy o`z davrining ilg'or kishisi sifatida namoyon bo`ladi.

Mamlakatdagi zulm, reaksiya hukmronligi Navoiyni ko`p marotaba davlat, boshqarish sistemasi to`g'risidagi masalalarga qaytishga majbur qiladi. Bu masalalarni hal etishda u tarixiy tajriba va o`z davridagi hayotga asoslanadi. Navoiy fikricha, *"davlat, xukmdorlar, aholi va mamlakat osoyishtaligi uchun zarur bo`lgan tartibni o`rnatish va nazorat qilish uchun yaratilganlar va mavjuddirlar: ular xalqni va mamlakatni xonavayron qiluvchilarni jilovlashlari; fuqarolarni oliyjanoblik ruhida tarbiyalashlari lozim; insonparvarlik g'oyalariga zid keluvchi narsalarga o`rin qoldirmasliklari kerak. Fuqarolar to`g'risida, mamlakat farovonligi to`g'risida g'amxo`rlik qilishlari, jamiyat aezolarining adolatli tinchlik va kelishuvda yashashlari uchun barcha sharoitlarini yaratishlari lozim"*[16].

Navoiy odil shox to`g'risida, adolatli qonunoar hukmronlik qiluvchi davlat to`g'risida orzu qilgan edi. U o`z orzusini "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar

[14] Temur tuzuklari. B.Aliev, T.Xoshimov. Amir Temurning davlatchilik tamoyillari. T. 2006, 20-37-b.
[15] O`sha joyda.
[16] T.Xoshimov. Siyosatshunoslik (Siyosiy tafakkur tarixi). O`quv qo`llanma. T. 1999, 27-b.

timsolida bayon etgan. Navoiy fikricha, shox Iskandar odillar orasida eng odil, adolatlisi, olimlar sifatida eng dono va allomasidir. A.Navoiy o`z faoliyatida monarxiya (yakka podshox hukmronligi) tarafdori edi. Uning fikricha monarxiya anarxiyaga, o`zaro nizolar hamda urushlarga chek qo`yadi. U Iskandar obraziga ko`p murojaat qiladi. Biroq Navoiyning Iskandar, uning saltanati to`g'risidagi fikri ilmiy asosga ega emas edi.

Navoiy siyosiy ta'limotida o`sha davr ziddiyatlari o`z aksini topgan. Ular mutafakkir ijodida chuqur iz qoldiradi. Lekin shunga qaramay, Navoiy feodal-klerikal zulmat davrida insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqsevarlik, haqiqat va tinchlik bayrog'ini baland ko`tardi. U shunday siyosiy qadriyatlar yaratdiki, ular dunyo siyosiy me'rosi durdonalari safidan o`rin oldi.

Ular o`zlaridan oldin o`tgan mutafakkirlar g'oyalariga tayangan holda jahon fanini yangi qoidalar bilan boyitdilar va materialistik va ratsionalistik nazariyalarni rivojlantirdilar.

Prezident I.A.Karimov ***"Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch"*** kitoblarida ta'kidlaganlaridek, *"Buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo xalol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka chaqiradi"*[17].

3. Yangi va eng yangi davrda Sharq va G'arbdagi siyosiy qarashlar.

XV-XIX asarlarda G'arbdagi siyosiy fikrlar: Siyosiy qarashlar G'arbiy Evropada uyg'onish davri va feodalizmga o`tish davrida o`z taraqqiyotining yangi yanada yuksak bosqini boshidan kechirdi. Ushbu davrda mutafakkirlarning butun bir pleyadasi tenglik, adolat, davlat tuzilishi, siyosat ilmi sohasida ko`p qirrali faoliyat ko`rsatdilar.

Uyg'onish – qadimiy tsivilizatsiyaning o`z davrida yo`qotib yuborilgan yutuqlarning tiklanishi, yangilanishi demakdir. Uyg'onish davri mutafakkirlari qadimgi tsivilizatsiya ma'naviy madaniyatiga murojaat qilibgina qolmay, balki mavjud hukmron siyosiy-huquqiy tartiblarni feodal jamiyat qoidalariga norozilik bildirdilar, ularni tanqid qildilar. Xuddi ana shu uchta ijtimoiy mavqe – uyg'onish davri allomalari oldida turgan tarixiy vazifalarni hal qilish uchun zarur bo`lgan davlatshunoslik g'oyalarini tadqiq etilishining asosiy yo`nalishini belgilab berdi. Bu esa o`z navbatida o`sha davrdagi siyosiy ta'limotlarning mazmunini belgilaydi.

N.Makiavellining siyosat nazariyasi: Uyg'onish davrining buyuk mutafakkirlaridan Nikolo Makiavellidir (1469-1527 yy). Makiavvelli yuqori tabaqalarning manfaatlarini aks ettiruvchi burjua siyosiy faniga asos soldi. U yuqori davlat lavozimlarida ishlagan va shu boy siyosiy tajriba unga o`z mazmuniga ko`ra chuqur imperik nazariyani yaratishga ko`maklashdi.

Makiavellining siyosiy qarashlarini yoritishda uning siyosiy merosida ***"Hukmron", "Tit Liviyaning birinchi o`n kunligi haqida mulohazalar", "Florensiya tarixi"*** asarlari alohida ahamiyatga ega.

Uning fikricha, siyosiy xatti-harakat asosida xristian ahloqi emas, balki ahloqning foydaliligi va kuchi yotadi. Shuning uchun ham siyosiy san'at qoidalarini diniy aqidalardan emas, real insoniy sifatlardan, insonning tabiatidan,

[17] I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008, 21-b.

jamiyatdagi kurashayotgan kuchlarning joylashuvi va harakatidan, qiziqishlaridan kelib chiqarishga intiladi. Boshqacha qilib aytganda mavjud borliqni bilish asosida amaliy kuchga ega bo`lgan siyosiy qoidalarni ishlab chiqadi va unga bog'liq holda siyosiy tarixni yaratadi. Makiavelli metodologiyasining ilg'orligi, novatorligi shu bilan belgilanadi.

XVI asrda maelum bo`lgan siyosiy atamalar – "*Jumhurriyat", "Knyazlik", "Qirollik", "Hokimiyat", "Monarxiya"* kabilar bilan bir qatorda *"Davlat"* atamasini qo`lladi. Davlat uning fikricha, jamiyatning siyosiy holatini, yoki bo`lmasa hukmronlik va tobelik munosabatlarini, siyosiy hokimiyatning (davlat boshlig'i, senat, konsullar va boshqalar), shuningdek, huquq va qonunlarning mavjudligini anglatadi.[18]

U davlatni kelib chiqishini o`ziga xos, yangichasiga ko`rsatib beradi: avval boshida kishilar ozchilik bo`lganlar va tarqoq yashaganlar. So`ngra ular kurashdilar, birlashdilar va himoya uchun eng dovyurak kishini saylab *"boshliq"* qildilar, unga bo`ysuna boshladilar. O`zaro xafagarchilik bo`lmasligi uchun qonunlarni va ularni buzuvchilar uchun jazo choralarini ishlab chiqdilar. Bundan esa adliyaning zururligini anglash vujudga keldi. Shuning uchun ham, xukmdorni saylashda kishilar kuchga emas, balki aql va aodalatga ahamiyat bera boshladilar. Uning qarashlaridan davlatning tarkibiy qismi sifatida boshqaruvchilarni tobelarga majbur qiluvchi kuch sifatida siyosiy hokimiyat ko`rsatiladi.

Uning davlat shakllari to`g'risidagi mulohazalari e'tiborga loyiq. Bu ***davlatning to`g'ri*** *(monarxiya, aristokratiya, demokratiya)* va ***noto`g'ri*** *(tiraniya, oligarxiya, anarxiya)* shakllarini ko`rsatadi. Bu davlat shakllarining har biri hokimiyat uchun kurashayotgan kuchlar nisbati bilan bog'liq holda o`rnatiladi.

Davlatni inqilobiy yangilanish vositasi sifatidagi diktatura to`g'risidagi nazariya Makiavelli siyosiy merosida muhim o`rin tutadi: favqulodda holatlarda ham, shunchalik zarurlidir. Mutloq hokimiyat hukmron tabaqalarni ham, boshqariluvchi tabaqalarni ham juda tez yo`ldan chiqaradi. Shuning uchun ham yangilangan davlatning muvafaqqiyatli rivojlanishi, uning fikricha, davlatchilikning respublika shakli bilan bog'liqdir. Makiavelli o`z siyosiy qarashlarida hokimiyat va etakchilik, inqilob va turg'unlik, ozodlik va mazlumlik, taraqqiyot va reaktsion kabi muammolarini ko`targan.

T.Gobbs ijtimoiy shartnoma haqida: Tomas Gobbs (1598-1679), monarxiyani— hokimiyatning eng qulay shakli deb hisoblaydi. Buni o`zining ***"Leviafan"*** asarida insonlarning davlat paydo bo`lgungacha bo`lgan davridagi hayotini tasvirlab, unda "xaos" va "ixtilof"lar hukmron bo`lganligini ta'kidlaydi, yoki bu hukmronlikni *"hammaning hammaga qarshi urush"* holati sifatida qayd etadi. *"Ijtimoiy kelishuvga"*ga "xaos"dan chiqishdagi muhim yo`l sifatida qaraladi. Monarxning asosiy vazifasi qonunni saqlay bilishda deb tushunadi.

J.Lokk – mumtoz liberalizmning asoschisi: ingliz faylasufi J. Lokk (1632-1704) qarashlarida ham siyosatda fuqarolik kontseptsiyasi ilgari suriladi. Lokk tali'moti, nisbatan real hayotga asoslanganligi bilan ajralib turadi va cheklangan monarxiyani o`rnatishni yoqlaydi.

[18] N.Makiavelli. Tanlangan asarlar. M. 1982. 18-b.

U siyosiy fikr tarixida birinchilardan bo`lib ***"shaxs", "jamiyat" va "davlat"*** tushunchalarining tahlilini beradi hamda shaxsni jamiyat va davlatdan yuqori qo`yadi. Lokk, inson tug'ulgandan boshlab tabiiy huquqlarga ega bo`ladi deb ko`rsatib, *"hayot", "yashash", "erkinlik" va "mulkka ega bo`lish"* huquqlarini anashunday huquqlar jumlasiga kiritadi. Lokk, davlat jamiyatga, jamiyat o`z navbatida, shaxsga bo`ysunishi zarurligini ta'kidlaydi. Davlat va jamiyat bir narsa emas, davlat hokimiyatning qulashi, jamiyat rivojining oxiridan dalolat bermaydi. Jamiyat yangi davlat hokimiyatini o`rnatishi mumkin. Davlat faqat shaxs huquqlarini himoya qilish maqsadida faoliyat ko`rsatadi. U shaxsdan kuchliroq bo`lishi mumkin emas, qunki shaxs jamiyatni, jamiyat esa davlatni tashkil etadi. Lokk qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati bo`lishini yoqlaydi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatga ustuvorlik beradi,chunki u davlatning siyosatini belgilaydi deb ko`rsatadi.

E.Berkning siyosiy qarashlari: E. Berk (1729-1797)ga, konservatori sifatida tabiiy huquqlarni tan olmaslik g'oyasi xosdir. Uningcha, davlat va jamiyat insonning ixtirosi emas, balki tabiiy rivojlanishning natijasidir. Davlatning asosiy vazifasi tartib va qonunni saqlashdan iborat. Hokimiyatning vakillik shaklini qo`llab chiqadi. Berk Parlamentga — Angliyadagi hokimiyatning haqiqiy shakli sifatida qaraydi va uning faoliyati xalq tomonidan nazorat etilishi mumkin emas deb hisoblaydi.

Sh.Monteske demokratiyaning asosiy qonunlari, hokimiyatning bo`linishi nazariyasi haqida: Kapitalizm shakllanishi davrida siyosiy ta'limotlarning keyingi rivojlanish jarayonining farang ma'rifatparvarlaridan biri Sharl Lui Monteskedir (1699-1775 yy.). Uning ***"Qonunlar ruhi"*** asari mashhurdir. Uning siyosiy ta'limoti yuqorida amalga oshiriladigan islohat vositasida jamiyatni yangilashga qaratilgan. Uning ***siyosiy ozodlik, hokimiyatning taqsimlanishi*** (*qonun chiqaruvchi, ijroiya hokimiyati va sud)* to`g'risidagi g'oyalari tahsinga loyiqdir.

Monteskening hokimiyatni bo`linishi to`g'risidagi g'oyasi butun bir nazariyagacha rivojlanib borgan va bu nazariyaning maqsadi qonuniylik printsipini asoslashdan, siyosiy erkinlikni ta'minlashdan, hamda huquqni davlat va fuqarolar o`rtasidagi munosabatlarini amalda tartibga soluvchi vositaga aylantirishdan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, hokimiyatning bo`lishini – fuqarolarni qonunsizlik va hokimiyatni suiste'mol qilishdek illatlardan himoya etuvchi omildir.[19]

***J.J.Russo fuqarolik jamiyatining davlatga nisbatan birlamchiligi to`g'risida:*** J.J. Russo (1712-1778) esa siyosatning fuqarolik kontseptsiyasining qat'iy ifodachisi va tadqiqotchisidir. Individlar davlatni yaratadi yoki ayni paytda individlarning o`zi davlatning mahsulidir deb hisoblaydi. Russo, ayni paytda 3 ta tashqi omilni qayd etadi: 1. Ijtimoiy tenglikni qo`llab quvvatlaydi; mulkni jamiyat a'zolariga nisbatan tengsiz taqsimlanishiga qarshi chiqadi. 2. Siyosiy yaxlitlikni himoya qiladi; davlatda xususiy hamkorlik bo`lishi mumkin emas degan g'oyaga tayanadi. 3. U vakillik hokimiyatini— qullik deb hisoblaydi. Bir so`z bilan aytganda, Russo demokratiyaning bevosita shaklini qo`llab chiqadi.

[19] V.A.Gutorov. Istoriya politicheskix i pravovix ucheniy. Iz-vo Mixaylova V.A. Sankt-Peterburg.2000, 8-39-b.

T.Jefferson, A. Gamilton, T. Medison – Amerika demokratiyasining namoyondalari: Tomas Djefferson (1743-1826 yy) nomi Amerika xalqining demokratiya uchun kurashi bilan bog'liq. U o`sha davrning buyuk inqilobiy xujjati bo`lgan AQShning ***Mustaqillik Deklaratsiyasi***ning muallifidir. Djefferson davlatning monarxiya shaklini tanqid qiladi. U podshox hokimiyatini xalq hokimiyatining hosilasi deb hisoblaydi. Xalq mustaqilligi g'oyasini himoya qiladi. Hech bir kimsa, uning fikricha davlat hokimiyatini barpo qilish va uni nazorat etishda ishtirok etish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas. Agar hokimiyat xalq huquqlarini toptasa, hukumatni o`zgartirish va o`rniga o`z manfaatlariga sodiqlik bilan xizmat qiladiganini saylash huquqiga ega.[20] Bu g'oya bilan Djefferson zolim podshoxlarga qarshi xalqning qo`zg'olon qilish huquqini asoslaydi.

Djefferson AQShning 1787 yilgi Konstitutsiyasini bir qator g'ayri demokratik xolatlari uchun uni jiddiy tanqidga oladi. So`z, matbuot erkinliklari to`g'risidagi moddalarning yo`qligi, uning fikricha Konstitutsiyaning asosiy kamchiligidir. Djefferson va boshqa siyosiy arboblar tashabbusi bilan Konstitutsiya matniga qo`shimcha qabul qilingan. Ular 1791 yilda kuchga kirdi va ayni demokratik huquq va erkinliklarini e'lon qildilar.

I.Kant inson erkinligi, davlat haqida: I.Kant (1724-1784) ўзининг ***"Ҳуқуқ фанининг метафизик асослари", "Соф ақлни танқид", "Келажакда пойдо бўлиши мумкин бўлган ҳар қандай метафизикага пролегоменлар"*** ва бошқа асарларида келтирилган ижтимоий-сиёсий идеалида эркинлик муҳим мавқега эга. Сиёсий эркинликнинг асосий шарти- бу жамият азоларининг қонун олдидаги тенглиги. Лекин, унинг таъкидлашича, тенглик насл-насабга алоқадор барча имтиёзларни рад этади. Айрим кишиларнинг мулкдаги, жисмоний, маънавий- интелектуал тенгсизлигини бартараф эта олмади, қолаверса, бартараф этиши шарт ҳам эмас. Кишиларни мутлақ тенгликда сақлашга уриниш ижтимоий адолатсизликдан бошқа нарса эмас. "Буюк тенгсизлик"ка амал қилган тақдирдагина адолат салтанати тантана қилади. Эркинликнинг асосий шарти фуқаронинг мустақиллиги, яъни унинг мулкка эга бўлишидир.

Кант орзу қилган идеал жамият холати- бу жамият аъзолари ўртасидаги тинч-тотувлик, давлатлараро ҳамкорлик ва ҳамжиҳатлилик. Лекин бу ҳолат аслида келажакда юзага келиши мумкин бўлган ижтимоий имконият. Реал жамиятда эса тинч-тотувлик, ҳамжиҳатлик эмас, аксинча, кураш, беқарорлик, бетоқатлик ҳукм суради.

G.V.Gegelning davlat va fuqarolik jamiyati haqidagi ta'limoti: Ulardan Vilgelm Fridrix Gatlat Gegel (1770-1831 yy) qarashlari diqqatga sazovordir. Davlat va huquq muammolari Gegel qarashlari ijodiy rivojining barcha bosqichlarida uning diqqat markazida bo`lgan. Gegelning davlat to`g'risidagi ta'limoti siyosiy ta'limotlar tarixidan muhum o`rin olgan ***"Huquq falsafasi"*** asarida dadil hamda izchil ravishda bayon etilgan.

Gegel fuqarolar jamiyati va siyosiy davlatlarni farqlaydi. Fuqaro jamiyati

[20] T.Xoshimov. Siyosatshunoslik (Siyosiy tafakkur tarixi). O`quv qo`llanma. T. 1999, 37-38-b.

deganda burjua jamiyati nazarda tutiladi. Fuqaro jamiyati xususiy mulk hukmronligi va odamlarning umumiy, rasmiy tengligiga asoslangan ehtiyojlar tizimidir. Qadimgi dunyoda va o`rta asrlarda mavjud bo`lmagan bunday jamiyatni shakllanishi burjua jamiyatining qaror topishi bilan bog'liq.

Siyosiy davlat – shaxsiy davlatdir. O`zining takomillashgan ko`rinishida bunday davlat hokimiyatining bo`linishiga asoslangan konstitutsion monarxiyadan iboratdir.

Gegel ta'limotida siyosiy davlat qonun chiqaruvchi hokimiyat, hukumat hokimiyatda podshox hokimiyatlarga bo`linadi. Gegel ta'limotida xalqning mustaqilligi to`g'risidagi demokratik g'oya tanqid qilinadi va konstitutsion podshox (monarx) mustaqilligi asoslanadi. Hukumat hokimiyatining vazifasi podshox qarorlarini bajarish, mavjud qonun va idoralarni himoya qilishdan iborat. Qonun chiqaruvchi hokimiyat hammasi va hamma narsa uchun amal qiluvchi qonunlarni aniqlovchi va o`rganuvchi hokimiyatdir. Gegel tabaqa jamoalari palatalardagi munozaralarning oshkoraligi printsipining tarafdori bo`ladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshidagi siyosiy – huquqiy g'oyalar: XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib Evropada kapitalizm tez taraqqiy qiladi, burjua demokratiyasi keng quloch yozadi. Shu bilan jamiyat oldida turgan ko'pgina muommalarni hal qilishda Siyosatshunoslikga e'tibor oshadi, yangicha siyosiy qarashlar vujudga keladi. Natijada AQ'Sh va Fransiyada Siyosatshunoslik mustaqil fan sifatida shakllanadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib AQ'Sh va Fransiya universitetlari qoshida maxsus siyosiy, ilmiy tadqiqot markazlari (maktablari) vujudga keladi. Masalan AQ'Sh ning *Kolumbiya, Kornell, Garvard, Grinston universitetlari* qoshida shunday markazlar shakillanadi. 1914 yilda AQ'Sh da federal darajada yirik ilmiy markaz tashkil etilgan. *A. Bentli, V. Vilg'son, F. Gudnau, G. Ford, A. Xartli* shu maktabning yirik vakillari bo'lib, Siyosatshunoslikga doir qator asarlar yaratiladi. A. Bentlining ***«Boshqarish jarayonlari»*** (1908 y), U. Lipmanning ***«Jamoatchilik fikri»*** (1922 y), CH. Merriamning ***«Ovoz bermaslik sabablari va nazorat usullari»*** (1924 y) shular jumlasidandir.

Urushdan keyingi yillarda AQ'Sh da Siyosatshunoslikga e'tibor yanada kuchaydi. ***CH. Merriam (1874 – 1953 y), G. Lassuel (1902 – 1973 y), G. Morgentou (1904 – 1980 y), Kissenjer va Bzejinskiy*** kabi politologlarning asarlari e'tiborga loyiq. 70 yillarda Bzejinskiyning ***«XX asrda komunizmning qaror topishi va inqirozi»*** asari ko'p shov-shuvlarga sabab bo'lgan edi.

M.Veber, V.Pareto, G.Moskaning elita haqidagi ta'limoti: Buyuk nemis mutafakkiri M. Veber (1864-1920) siyosiy-sotsiologiya rivojiga katta hissa qo`shgan. M. Veber ijtimoiy harakat nazariyasiga tayangan holda, hukmronlikning 3 turini: dohiyning affektiv harakatiga ko'r-ko'rona ishonchiga asoslangan *xarizmatik, an'anaviy* hamda maqsadga yo`naltirilgan *ratsional* turlarini tadqiq etadi. U Yevropa kapitalizmi sharoitida hukmron bo'lgan *ratsional* – byurokratik (rasmiy - huquqiy) davlat modelining jamiyatga kuchsiz ta'sirini haqqoniy tarzda ko'rsatgan. Veber bu holatdan chiqib ketish yo'lini byurokratik davlat apparatini xalq ommasi ehtiyojlariga yo`naltira oladigan, umumxalq saylovi orqali saylanadigan siyosiy lider (prezident) ni joriy etish imkoniyatlarini beruvchi

demokratiyaning rivojida ko’rgan.

XX asr boshlaridagi Italiyaning eng ko`zga ko’ringan nazariyotchisi Vilgpfredo Poreto (1848-1923) edi. Uning asosiy ishi hisoblanmish ***«Umumiy sotsiologiya tartibi»*** keyinchalik G’arb sotsiologiyasining klassik ijodi namunasi, deb tan olingan. Poretoning sotsiologik tizimida elitalar nazariyasi muhim o`rin tutadi. Jamiyatning sotsiologik tuzilishini u ikkita katta guruhga bo’ladi: o`qimishli odamlardan iborat elita hamda hissiyotlar va ikkilanishlar bilan yashovchi boshqariladigan omma-quyi qatlam.

Poreto fikri bo’yicha, siyosiy jarayon elitaniig hokimiyat tepasiga kelishi bilan shartlangan bo’lib, ulardan bittasi jamiyatni boshqariluvchilik imkoniyatlarini yo`qotsa, uning o`rnini boshqasi egallaydi. Poretoning aytishicha, elitaning o`rin almashish tartiboti istalgan jamiyatning universal qonuniyatlaridan hisoblanadi. Siyosiy elitalarning yashash imkoniyatlariga, ijtimoiy boshqarish huquqini beruvchi siyosiy tuzumga, jamiyatning nechog’li ochiqligiga bog’liqdir. Boshqaruvchi sinf jamiyatning vertikal moyilligiga tayanib, o`zini jamiyatdagi buzilishlar-degradatsiyadan saqlagan holda, inqiloblarning oldini oladi va doimiy ravishda yangilanib boradi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Markaziy Osiyodagi siyosiy fikrlar: Turkiston o`lkasida bu davrda ***«jadidchilik»*** xarakati paydo bo`ldi. Bu xarakat xalqimizning milliy, ijtimoiy va madaniy jixatdan o`tmishida o`ziga xos o`rini mavjud. Jadidchilik aslida marifatparvarlik xarakatining ko`rinishi bo`lib, uning namoyondalari mamlakatni qoloqlikdan chiqarish va milliy taraqqiyotga erishishning ma’rifiy yo`lini ko`rsatdilar. ***Jadid*** – arabchadan olingan bo`lib, *“yangi usul”* deb nomlanadi. Ular jamiyatni ruslashtirishga qaratilgan rus-tuzem maktablariga qarshi chiqib, unga qarama-qarshi holda turk tili va dinshunoslikni o`rganuvchi, *“Yangi usuldagi maktab”*larni tashkil etish dasturi bilan chiqdilar. Jadidchilik maktabdan, maorifdan boshlangan, so`ng matbuot, teatr va siyosatga o`tgan.

Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida bir xillik bo`lmagan: idora mashrutachilik (konstitutsion monarxiya) dan respublikachilik namoyandalari qarashlarida ham xilma-xillik bo`lgan, ba’zi masalalarda jiddiy farq borligini inkor qilmagan holda, jadidizm muayyan qarashlar tizimi sifatida shu davr ehtiyojlarini ifodalar edi.

Jadidchilik ijtimoiy-siyosiy qarashlarida chor Rossiyasining Turkistondagi mustamlaqachilik rejimiga qaratilgan g’oyalar bilan birga ikkilanishlar, mo`’tadillik g’oyalari uyg’unlashgan edi.

Jadidchilikning siyosiy g’oyalari: Bu harakat namoyondalari Turkistonni chor imperiyasi asoratidan qutqazish, mustaqil davlatchilikni qayta tiklash, iqtisodiy va madaniy qaloqlikdan mamlakatni chiqarish, bunga ma’rifiy yo’l bilan erishish g’oyalari bilan maydonga chiqdilar. Shu maqsadda ular shahar va qishloqlarda yangi usul maktablari ochib, kitob, jurnal va gazetalar nashr qilib, milliy teatrlar yaratib o’zlarining ilg’or g’oyalarini halq orasida targ’ib qildilar. O`lkada ma’rifatparvarlik harakatini keng yoyilishida matbuotning xizmati katta bo’ldi. 1906 yildan boshlab nashr qilingan ***«Taraqqiy», «Xurshid»,*** 1907 – 1917 yillarda nashr qilingan ***«Shuhrat», «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Hurriyat», «Turon», «Ulug’ Turkiston»*** gazetalari aholining siyosiy ongini o’sishida muhim rol o’ynadi.

Bu ijtimoiy – siyosiy harakat keyinchalik Buxoro va Xiva xonliklarida keng tarqalib, ***«yosh xivaliklar»*** va ***«yosh buxoroliklar»*** nomi bilan mashhur bo'ldi. *Mahmudxuja Bexbudiy* (1879 – 1919 y), *Munavvar kori Abdurashidxon* (1878 - 1931 y), *Abdulla Avloniy* (1875 – 1934 y), *Mustafo Cho'qaev* (1890 – 1941 y), *A. Q'odiriy* (1894 – 1938 y), *Abdurauf Fitrat* (1886 – 1938 y), *A. CHo'lpon* (1897 – 1938 y), *Boboohun Salimov* (1874 – 1929 y), *Polvon Niyoz Yusupov* (1863 – 1936 y), *Fayzulla Xo'jaev* (1896 – 1938 y), *Ahmad zaki Validiy To'g'on* (1890 – 1970 y) jadidchilik harakatining yirik namoyondalari edi.

***Mahmudxo`ja Behbudiy*** (1879-1919) - Samarkand shahrida ruhoniy oilasida dunyoga keldi. U haj qilib makka va madinaga bordi, misr va Turkiya shaharlarida bo`ldi. Peterburg, Moskva, Qozon, Ufa va Orenburg kabi Rossiya shaharlarida bo`ldi. Behbudiy jadid qo`shilib Turkistonning Rossiyadan ajralib chiqishini va uning mustaqil davlat sifatida ichki va tashki siyosat olib borilishi lozimligini himoya qildi. Jadidlar 1917 yil fevral inqilobidan so`ng o`z siyosiy tashkilotlarini tuzishga kirishdi. 1917 yil martida ***«Sho`roi islom»*** tashkilotiga asos soldi. Musulmonlarni bu tashkilot atrofiga birlashtirishga chaqirdi. Behbudiy ozodlikka olib borishda ma'rifatning roliga yuqori baho berdi. U "*maorif bo`limida turgan musulmonlarning boshini silangiz. Mafkuraga yordam etingiz. Turkiston bolalarini ilmsiz ko`rmang, ozodlik yo`lini ko`rsating*" degan edi.

Munavvarqori Abdurashidov (1878-1931) - Turkistonda jadidizm xarakati raxbarlaridan biri, pedagog, ziyoli oilasida tug'ilgan. Toshkentda Yunusxon madrasasida ta'lim olagn. 1908 yili jadid maktablari ochib dars bergan. Shu maktablar uchun qo`llanma, darslik yozgan. U maxalliy boylar kayfiyatini ifoda qilgan. U eski maktablarni islox qilib, unda dunyoviy ilmlar o`qitilishi tarafdori edi. U xalqni ma'rifatga chaqirdi. «Sho`roiya Islomiya» tashkiloti tuzuvchilaridan biri edi. Bu tashkilotga mahalliy boylar, ruhoniylar kirgan. Tashkilotning talabi Turkistonda burjua Rossiyasi tarkibida milliy-diniy avtonomiya tuzim, madaniyat va maorif sohasida kapitalizm rivoji uchun zarur bo`lgan ba'zi isloxotlar o`tkazishdan iborat edi. U 1931 yil 26 aprelda sobiq Sho`ro tuzumi tarafdorlari tomonidan qatl etildi.

Fitrat (1886-1938) - o`zbek yozuvchisi va olimi edi. U din va eski dunyo sarqitlariga qarshi kurashgan. Samarqand Pedakademiyada ishlagan. ***«Ro`zilar»*** kabi dramatik asarlari bilan feodal tuzimiga va dinga qarshi chiqdi. 1938 yil 4 oktabrda Toshkentda otib o`ldirilgan.

***Cho`lpon*** (1893-1987) - o`zbek shoiri, tarjimon, san'atshunos. U dastlab madrasada, so`ng rus-tuzim maktabida o`qigan. 1919-20 yillarda «Turk GOSTA» gazetasida muxarrir, *«Qizil bayroq», «Turkiston»* kabi gazetalarda adabiy xodim, 1924 yildan Moskva o`zbek drama studiyasida, keyin O`zbekistonda maorif va teatr sohalarida ishlagan. 1938 yil 4 oktabrda otib o`ldirilgan.

Rossiyada 1917 yil fevral demokratik revolyutsiyasi arafasida Turkistonda jadidchilik etuk siyosiy harakat shaklini oldi. Ular konstitutsion monarxiya talabini qo'ydilar. Fevral revolyutsiyasidan keyin esa keng qamrovli siyosiy talablar bilan chiqdilar. Jumladan ular o'lkani boshqarishni isloh qilishni, Turkistonga muxtoriyat berishni, Davlat Dumasida o'lka vakillari sonini oshirishni, mahalliy aholi huquqlarini kengaytirishni, milliy matbuot erkinligini talab qildilar. Bu

vaqtga kelib o'lkada tub aholining siyosiy ongida va kurashida jiddiy o'zgarishlar yuzaga keldiki, natijada shu o'zgarishlar bois ***«Sho'roi islomiya»*** va ***«Sho'roi uloma», «Turon»*** kabi siyosiy partiya va tashkilotlari vujudga keldi. «Sho'roi islomiya» ning rahbari Munavvar qori Abdurashidov, Mustafo Cho'qaev va Bexbudiylar edi.

Biroq Turkistonda oktabr davlat to'ntarishidan keyin sobiq Sovet tizimi davrida jadidlarga o'z maqsadlariga erishish imkoni berilmadi. Ularning 1919 yilda tuzgan Q'o'qon muhtoriyati hukumati tarqatildi, o'zlari ta'qib ostiga olindi, ularga *«Panturkist», «Panislamist»* tamg'asi bosildi. Jadidlarning ko'pchiligi 1929, 1937 – 1938 yillarda sovetlar tomonidan ommaviy qatog'on qilindi, ayrim qismi istiqlolchilik harakatiga qo'shilib, g'oyaviy rahnamolik qildi yoki horijga o'tib ketishga majbur bo'ldilar. Umuman aytganda XX asr boshlarida Turkistonda keng yoyilgan jadidchilik harakati faqat ma'rifatchilik harakati bo'lmay, ayni paytda u chor rossiyasi va so'ngra sobiq sovetlar mustamlakachiligiga qarshi halqning ozodlik va mustaqillik kurashining o'ziga hos ko'rinishi ham edi. Mustaqillik tufayli Turkiston ozodligi yo'lida jonini fido qilgan vatanparvarlar nomlari qayta tiklandi.

Umuman, jadidlik xarakatining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Jadidchilik xarakatining Turkistonda siyosiy jarayonlar rivojlanishiga katta xissa qo`shdi. Ma'rifatchilik xarakati sifatida boshlagan xarakatlari xalqning umumiy savodini va ma'rifatini ko`tarish g'oyasini ilgari surdi.

Jadidlar dinga qarshi kurashgan emaslar, balki shariatga qattiq rioya qilish orqali maktab va madrasalarda ta'lim berish tizimini dunyoviy ilmlar berish asosida isloh qilish zarurligi masalasini ko`tardilar.

Jadidchilar xarakati Rossiyada vujudga kelgan bolsheviklar partiyasi bilan bir vaqtda shakllandi. Istibdod xukumati jadidlarni din peshvolariga qarshi qo`yib xarakat qilsa, jadidlar xalqni ma'rifat yo`li bilan ongini rivojlantirishga xarakat qildilar.

Xullas,Jadidchilar xarakati XX asr boshlarida Turkistonda keng yoyilishi tasodifiy xodisaemas, balki o`lkada etilib kelgan siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining qonuniy ifodasi bo`ldi.

4. XX asrda siyosiy ta'limotlarning taraqqiy etishi.

Siyosatni tadqiq etishga bo`lgan turli yondashuvlar, yo`nalishlar, mavzular, nazariyalar hozirgi davr siyosiy bilimlarining manzarasini aks ettirayotgan holatlardan biridir.

Bir qator politologlarning fikriga qaraganda hozirgi davrdagi siyosiy kontseptsiyalar marksizmning bevosita ta'sirida yoki unga qarshi kurashda shakllanadi.

Sotsiologik yo`nalishlar ichida o`ziga xos o`rinni nemis sotsiologi ***Marks Veber*** egallaydi. Boshqa klassiklar kabi Veber siyosatni hokimiyat haqidagi ijtimoiy munosabatlar sohasi yoki u davlatlar o`rtasida, hokimiyat ichida, guruh odamlar o`rtasida bo`lmasin hokimiyatni taqsimlishga ta'sir ko`rsatish vositasi deb hisoblaydi.

Lipset o`zining ***"Siyosiy arbob", "Siyosatning ijtimoiy asoslari"*** nomli asarlarida siyosatning sinfiy tabiatini qatiyan rad etib, rivojlangan mamlakatlarda amal qilayotgan qadriyatlar va an'analar o`z rivojida shu qadar yuksak cho`qqiga ko`tarilganki, unda "siyosatdan keyingi" davrga o`sib o`tilgan bo`lib, sinfiy-guruhiy farqlar nihoyat darajada silliqlashgan va birinchi o`ringa odamlarning ijtimoiy maqomiga yarasha amal qiladigan qirralar chiqib qolgan, deb uqtiradi.

Moris Dyuverje (05.06.1917 yil) frantsuz sotsiologi, siyosiy hokimiyat, huquq, demokratiya tushunchalari mohiyatini AQSh siyosiy sotsiologiyasi darajasida turib tahlil etadi. Uning siyosiy qarashlariga ko`ra hozirgi rivojlangan mamlakatlarda davlat hokimiyati uchun turli siyosiy partiyalar, ijtimoiy jamoat tashkilotlari, jumladan, kasaba uyushmalari faol kurash olib borish imkoniyatlariga ega bo`lib, siyosiy xilma-xillik demokratiyasida o`z ifodasini topgandir.

Hozirgi davrda AQ'Sh politologlari tubandagi yo'nalishlarda tadqiqot olib boryapti:

Amerika boshqaruvi va siyosati.

Q'iyosiy siyosat.

Halqaro munosabatlar va jahon siyosati.

Siyosat nazariyasi va falsafasi.

Ijtimoiy boshqaruv va siyosat.

Amerika politologlari asarlarida Amerikacha boshqaruv usuli va Amerika demokratiyasi eng ilg'or usul sifatida talqin etiladi. ***Kissenjer va Bzejinskiylar*** uzoq vaqt AQ'Sh Prezidenti Reygon, Bush va boshqalarning siyosiy va halqaro masalalarda yaqin maslahatchisi bo'ldi.

Fransiyadagi Siyosatshunoslik fanining yirik vakillari ***A. Zigfrid, M. Sheval, M. Prelo, R. Aron, M. Dyuverje*** va boshqalardir.

Reymon Aron (1905 – 1983 y) asarlari – ***«Inson tiranlarga qarshi», «Buyuk parchalanish», «Tinchlik va millatlar o'rtasida urish», «Demokratiya va totalitarizm».*** M. Dyuverje asarlari – ***«Siyosiy fanlar metodlari», «Siyosiy rejimlar», «Diktatura to'g'risida», «Siyosatga kirish»*** va boshqa. yuqoridagi asarlarda siyosiy fanning nazariy va amaliy masalalari – demokratiya, siyosiy hokimiyat, siyosiy partiyalar, tashqi siyosat muammolari tahlil etilgan.

Hozirgi davr politologiyasida davlat hokimiyatining turlari va ko`rinishlari muammolarini atroflicha va teran ishlab chiqishga intilish kuchaygan bo`lib, ayniqsa uning bir-biriga qarama-qarshi bo`lgan turlari hamda ko`rinishlarini tahlil qilish katta metodologik ahamiyatga molikdir. Mana shunday bir-biriga zid bo`lgan yalpi (totalitar) turlari tadqiqotiga, ularning qiyosiy tahliliga diqqat-e'tibor kuchaydi.

Demokratiya bilan yalpi (totalitar) tuzum o`rtasidagi nisbat va munosabat darajalarini aniqlab berish va ta'riflash frantsuz politologi Raymon Aron (1905-1983 yillar) siyosiy qarashlarida asosiy yo`nalishlardan birini tashkil etadi. *"Industrial jamiyat"* haqidagi g'oyalarning asoschilaridan biri Aron hisoblanadi.

Siyosiy hokimiyatning tuzilishi – amal qilishi jarayonlarini siyosatshunoslikda birinchi tahlil qilganlardan amerikalik ***Talkot Persyans Lidir***. U M.Veber siyosiy qarashlariga tayangan holda insonning siyosiy munosabatlarga kirishish sabablarini, birinchidan til va boshqa qadriyatlar ramziy belgilari orqali sodir

bo`ladigan, ikkinchidan, ko`pchilik inikos etib maqullagan qonun-qoidalarga qarab yakka hakarat qilishdan, uchinchidan, bu harakatlarning faqat shaxs ifodasiga bog'liq ekanligidan keltirib chiqaradi. Siyosiy hokimiyatning tuzilishi – amal qilishi Persons ta'limotining bosh yo`nalishini amaliy muammolarning o`zgarmas yig'indisi tashkil etadi.

Garlz Rayt Milles (1912-1962 yillar) siyosiy g'oya va qarashlarini siyosiy hokimiyat taqsimoti muammolariga qarab ishlab chiqqan ta'limotida *"Hukmron sinf"* tushunchasiga *"hukmronlik qiluvchi zodagonlar (elita) yoki zodagonlar boshqarishi"* tushunchasini qarama-qarshi qo`yadi va bu bilan siyosiy hokimiyatning sinfiy tabiatini inkor etadi. U *"zodagonlar boshqarishi"*ni sanoat, siyosiy, xarbiy boshliqlardan tarkib topgan ijtimoiy guruhdan iborat siyosiy hokimiyat sifatida ta'riflab, hukmron sinf tushunchasini ijtimoiy guruh tushunchasi bilan almashtiradi.

Saymur Martin Lipest (18.03.1922 yil)ning asosiy tadqiqot ishlari, hozirgi dunyoda demokratiya muammolariga bag'ishlangan. U saylovlar va jamoatchilik so`rovlari xulosalaridan kelib chiqib demokratik va antidemokratik harakatlarining sharoitlari, sabablari va harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlashga harakat qiladi.

U ijtiomoiy taraqqiyotning quyidan yuqoriga rivojlanib borishi va jamiyat iqtisodiy faoliyatining tobora yuksakroq texnologik darajada amal qila borishini o`ziga xos qonuniyat tarzida baholaydi, insoniyatning taraqqiyot istiqboli ilmiy-texnik taraqqiyoti bilan tobora mustahkam bog'lanib ketayotganligini uqtiradi.

Mishel Krozs, Xanna Yarend, Rolf Dorendorf, Gabriel Almond va boshqa hozirgi zamon politologlari siyosiy hokimiyat va uning faoliyat yo`nalishlari, hokimiyatning tarkibiy qismlari o`rtasidagi nisbat va mustahkam bog'langanlik. Siyosiy sistema tarkibiy qismlari, - davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari, shirkatlar, turli-tuman uyushmalar va ular o`rtasidagi o`zaro bog'lanish masalalari atroflicha tadqiq etilgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda siyosiy ta'minotlar ayrim mamlakatlar siyosiy muammolari bilan bog'liq holda vazifali yo`nalishlarda takomillashdi. Amerikada biheviorizm siyosiy fanlar usuli sifatida qaror topdi.

Amerika politologlari ijtiomiy boshqaruv va siyosat, qiyosiy siyosat, xalqaro siyosiy munosabatlar, siyosat nazariyasi va falsafasi yo`nalishlarida tadqiqot ishlari olib borib, politologiyaning xalqaro fan sifatida qaror topishiga muhim xissa qo`shdilar. Frantsiya politologlari siyosiy institutlar va munosabatlar, saylov tizimi, ijtimioy boshqaruv, demokratiya masalalari kabi ko`pgina muammolarni atroflicha tahlil qilib, fanni naziriy va amaliy ahamiyatga ega xulosalar bilan boyitdilar.

So`ngi o`n yillikda texnokratik nazariyalar xalqaro maydonga yoyildi. *Texnokratik naziriyalar* tarixida ko`zga ko`rinarli o`rinni ***Djozfa Barixama***ning (1905-1987 yy) Kontseptsiyasi egallaydi. Uning nuqtai nazaricha, jadal texnologik jarayonlar natijasida siyosiy hokimiyat va davlat boshqaruvida menedjerlar sinfini vujudga keltirgan "inqilob" yuzaga keldi.

Davlatsizlashtirilgan iqtisodiyot ularning siyosiy hukmronligining asosi hisoblanadi. Berixama ta'kidlaganidek, davlat tobora menedjerlarning mulkiga aylanib bormoqda. O`zining nazoratchilik mavqeidan kelib chiqib ular jamiyatning

imtiyozli, o`zini qayta ishlab chiqaruvchi bo`lib bormoqdalar. Kelajakda, deb hisoblaydi Barixama texnokrat direktorlar komiteti rahbarligida yagona texnokratik davlat o`rnatiladi.

Texnokratik g'oyalar tobora sotsial nazariyalar chegarasidan chiqib boshqa etakchi g'oyalar bilan qirishib (konvergentsiya, elitizim, va h.k) ketmoqda.

Xalqaro munosabatlar nazariyasi Amerika politologlari ***Margentau, Nikolas Spaykien, Zbignev Bjesjinskiy,*** Frantsuz filosofi ***Raylgan Aron*** tomonidan tadqiq etilgan.

XX asr 80 yillariga kelib fuqarolik jamiyati muammosi sotsiolog va politolog olimlar tomonidan o`rganilayotgan masalalardan biriga aylanadi. Bu davrda avj olgan demokratiyalashtirish jarayonlari natijasida alohida mazmun kasb eta boshladi va u totalitar davlatlarga qarama-qarshi bo`lgan ijtimoiy andoza sifatida talqin qilina boshlandi. Olimlar diqqat markazida endilikda fuqarolik jamiyatining belgilari, mezonlari institutlari, huquqiy davlatning unsurlari masalalari bo`yicha keng qo`lamli tadqiqotlar olib borilmoqda.

***O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlarida siyosiy g'oyalar:*** XX-asr insoniyat tarixida juda katta xodisalarni keltirib chikargani bilan aloxida o`rin egallamokda. XXI-asr jahon siyosatida yangi davrni-yuksak ma'naviyatga tayangan, aql-idrokka suyangan, eng chigal muammolarni xal etishda xam tafakkur kuch kudratni kursatish davrini boshlab bermokda.

Tarixiy nuqtai-nazaran qaraganda, kuni kecha mustaqillikka erishgan O'zbekiston ikki asr oralig'ida sertashvish va muammolar qurshovida qolgan eski dunyoga yangicha tafakur, voqea-xodisalarga yangicha yondoshish, aniqroq qilib aytganda, sharqona donishmandlik va sharqona munosabatlar ustunligini ko`rsatib, o`zligini namoyon etmoqda.

Darxaqiqat, tarixan qisqa davrda – mustaqillik yillarida O'zbekiston jaxon xamjamiyatida o'z o'rni va o'z nufuziga ega bo'ldi. Dunyo muammalarni xal etishda ***«o`zbek modeli »*** vujudga keldi.*(Bu xaқda batafsil қarang Narzullaev J. ,"Tarix falsafasi". 156 bet T 1999 y)*

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 23-fevralda bo'lib o'tgan birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida ***Prezident Islom Karimov*** mamlakatda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, inson xuquqlarini kafolatlash, eng insonparvar, adolatli fuqorolik jamiyatini shakllantirish xususida gapirar ekan ***«O'zbekiston XXI asr ostonasida»*** dasturini ishlab chiqish zaruriyati xaqida aloxida to'xtalgan edi. Oradan ko'p vaqt o`tmay, anna shu keng tarmoqli dastur Prezdentning o'z tashabbusi bilan yaratildi. ***"O`zbekiston XXI asr busagasida"*** deb nomlangan yirik ilmiy, nazariy, tahliliy asar O`zbekiston davlat siyosatining bosh dasturi sifatida dunyoga keldi.

Prezident Islom Karimov taraqqiyotning O`zbekiston uchun maqbul tamoyillarini ishlab chiqar ekan, avvalo, mamlakatda yaratilajak jamiyat qanday bo'lishiga e'tibor beradi va uning fikricha, O'zbekistonda barpo etilajak jamiyat barcha «izm» lardan holi va u qanday nomlanishidan qat'i-nazar, adolatli, xalqchil, insonparvar jamiyat bo'lmogi lozim.

Shuning uchun ham mamlaat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari pirovard natijada chinakam mustaqil O'zbekistonda yangi, adolatli jamiyat barpo

etilishiga qaratiladi. *«Respudlikada sobitqadamlik bilan xalqchil, adolatli jamiyatni bunyod etish-bosh vazifadir,*-deb uqtiradi prezident. *Bu boradagi fikrini davom ettirib u,O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Bu mustaqil demokratik, xuquqiy davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalarga asoslangan , millati, dini, ijtimoiy axvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i-nazar, fuqorolarning xuquq va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir. Xalq davlat xokimiyatining manbaidir»*,-degan qoidani ilgari suradi.

Ijtimoiy hayot , mamlakatda sodir bo'layotgan jiddiy o'zgarishlar va inson xayotining daxlsizligi bevosita yangidan-yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Odamlar esa anna shu muammolarni hal etish jarayonida o'z erki va xuquqlarni ximoya qilib boradi. Jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda aholini «tarbiyalanib» shakllanib, barkamollashib boradi.

Tayanch tushunchalar:

«Avesto», zardushtiylik, buddaviylik, Konfutsiy, Platon, Sokrat, Aristotel, al – Forobiy, «Siyosatnoma», al – Beruniy, Ibn Sino, «Temur tuziklari», A. Navoiy va Bobur g'oyalari, M. Gandi g'oyasi, Jadidchilik, Istiqlolchilik harakati, AQ'Sh, Fransiyadagi siyosiy g'oyalar. I. A. Karimov asarlari, demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy siyosat, bozor iqtisodiyoti, tamoyil.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». T., «O'zbekiston», 1998.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. 6 – jild.T., "O'zbekiston", 1998.
3. Karimov I.A. O'zbekitson XXI asrga intilmoqda. 7-jild, T., «O'zbekiston», 1999.
4. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" 2008.
5. Karimov I.A. "Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish" T., "O'zbekiston", 2009.
6. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. T., "O`zbekiston", 2010.
7. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., "O`zbekiston", 2011.
8. Abu Nasr Farobiy, Fozil odamlar sharhi. T., «Meros», 1993.
9. Aristotel. Politika. Soch. T.4. M., «Mo'sl», 1983.
10. Bexbudiy Mahmudho'ja. Tanlangan asarlar. T., «Ma'naviyat», 1996.
11. Bobur Z. Boburnoma. T., 1989.
12. Gutov V.A. Istoriya politicheskix i pravovix ucheniy. Iz-va. Mixaylova V.A. Sankt-Peterburg. 2000.
13. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., "O'zbekiston", 2000.
14. N.Makiavelli. Tanlangan asarlar. M., 1982.
15. Nizomulmulk. Siyosatnoma. T., «Adolat» 1997.
16. Polvonniyoz Xoji Yusupov. Yosh Xivaliklar tarixi. Urganch 2000.
17. Siyosatshunoslik (o'quv qo'llanmasi). T. 2002 y.

18. Sadullaev A, Sotliqov A. Xorazm Ma’mun akademiyasining tarixiy ildizlari. Urganch-Nukus. 2003.
19. Sadullaev A, Sotliqov A, Abdullaev O. Sayid Islomxo’ja. T., 2005.
20. Temur tuzuklari. B.Aliev, T.Xoshimov. Amir Temurning davlatchilik tamoyillari. T., 2006.
21. Odilqoriev X.T., D.X.Razzaqov. Siyosatshunoslik. “O`qituvchi”, 2008
22. O’zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi bosqichi. T., 2004.
23. Pugachev V.P., Solovev A.I. Siyosatshunoslikga kirish. T., «Yangi asr avlodi», 2004.
24. Jo’raev S. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. T., ToshDShI, 2003.
25. Xoshimov T. Siyosatshunoslik (Siyosiy tafakkur tarixi). O`quv qo`llanma. “Fan”, T., 1999.
26. Yusupova G.X.,Bugaeva G.A. Siyosiy fikrlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi. Politologiya kursi bo’yicha ma’ruzalar matni. 1-qism. T., UzMU, 2000.

3 – Mavzu: Siyosiy hokimiyat va siyosiy tizim.

Reja:

1. Siyosiy hokimiyat tushunchasi.

2. Siyosiy hokimiyatning tuzilishi va ko’rinishlari.

3. Siyosiy tizim tushunchasi va mohiyati

4. Hozirgi O`zbekiston siyosiy tizimining modernizatsiya qilinishi va uning o`ziga xos xususiyatlari.

1. Siyosiy hokimiyat tushunchasi.

Hokimiyat va siyosatning o`zaro bog’liqligi. Hokimiyat – hozirgi zamon siyosiy fanida markaziy tushunchalardan biridir. Hokimiyat xodisasi faqat siyosiy sahifagina emas u ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ham uchraydi. U iqtisodiyotda, madaniyatda, fanda, ta’limda, oilaviy munosabatlar sohasida, shungdek ijtimoiy hayotdan tashqarida hayvonot dunyosida ham to`qnash keladilar. *«Xokimiyat - bu kishilar, ijtimoiy guruxlar hamda sinflarning faoliyatiga, xalq-atvoriga, xarakatlariga iqtisodiy, siyosiy, g’oyaviy, ijtimoiy mexanizmlar, shuningdek, kuch ishlatish, zo`rlik qilish, ishontirish qobiliyatlari bilan ta’sir etuvchi faoliyatning alohida shaklidir».*

Xokimiyat tushunchasi oddiy tilda va ilmiy adabiyotlarda juda ko`p qo`llaniladi. Masalan, *«oila xokimiyati», «ota-ona xokimiyati», «davlat xokimiyati»,* va x.k. Ilmiy manbaalarda politologlar - siyosiy xokimiyat to`g’risida, iqtisodchilar xo`jalik xokimiyati xaqida, sotsiologlar - sotsial xokimiyat, yuristlar - davlat xokimiyati, dindorlar - ilohiy xokimiyat to`g’risida so`z yuritib, ular ijtimoiy xayotning xilma-xil sohalarini o`rganishda xokimiyat tushunchasidan foydalaniladilar. Demak, xokimiyat tushunchasi keng va xilma-xildir.

Hokimiyat tushunchasi, u bilan bog’liq boshqa tushunchalar: Ҳокимият - бу кишилар, ижтимоий гуруҳлар ҳамда синфларнинг фаолиятига, хулқ-атворига, ҳаракатларига, иқтисодий-сиёсий, ғоявий, ижтимоий механизмлар,

шунингдек куч ишлатиш, зўрлик қилиш, ишонтириш, қобилиятлари билан таъсир этувчи фаолиятнинг алоҳида шаклидир. Ҳокимият – бу жамиятга хос бўлган кишилар ўртасидаги иродага асосланган муносабатлардир. Ҳокимият – бу кишилар ўртасидаги сиёсий ҳукмронликдир. Ҳокимият – бу давлат ташкилоти тизимидир. Ҳокимият – бу маъмурий ваколатларга эга бўлган муассаса ва идорадир. Ҳокимиятнинг моҳиятини раҳбарлик, ҳукмронлик ва бўйсундириш муносабатлари ташкил этади. Ҳокимиятнинг умумий моҳиятга эга бўлган таърифига асосланган ҳолда унинг алоҳида тури бўлган сиёсий ҳокимиятни қуйидагича таърифлаш мумкин: “Сиёсий ҳокимият – бу сиёсий субъектларнинг сиёсатда ифодаланган иродасини турли йўллар, усуллар ва воситалар ёрдамида амалга ошириш фаолиятининг ўзига хос алоҳида шаклидир”.

Hokimiyatni eng asosiy ko’rinishi bu ***siyosiy hokimiyatdir***. Usiz jamiyatda tartibsizlik boshlanadi. U jamiyat hayotini bir butunligini ta’minlaydi, uni tartibga soladi, hokimiyatni boshqa ko’rinishlari ya’ni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy axborot va majburlovchi hokimiyat ko’rinishlarini birlashtiriladi, halq manfaatiga bo’ysundiriladi.

Siyosiy hokimiyat Siyosatshunoslikning o`rganish predmeti hisoblanida. Shuning uchun asosiy e’tiborni siyosiy hokimyatning o`ziga xos tomonlarini ochib berishga qaratamiz.

Hokimiyat jamiyatning hamma sohalarini qamrab oladigan murakkab tushunchadir. Uning manbai kishilar holatining har xilligidir. Odamlar mutloq teng bo`lgan joyda hokimiyat ham yo`q. Jamiyatda bo`ysunish va hukmronlik, boshqarish va nazorat, o`zaro bog’liqlik munosabatlari muqarrar ravishda hokimiyatni vujudga keltiradi. *Siyosiy hokimiyat* – bu alohida sinf, katta ijtimoiy guruh yoki mavjud jamiyatning ko`pchiligining o`z ifodasini boshqa shaxslar yoki ijtimoiy guruhlarga o`tkazish qobiliyati va imkoniyati bo`lib, odamlarning faoliyatlariga, xulq-atvoriga o`z obro`si, xulqi, zo`ravonligi vositalarida ta’sir o`tkazishni anglatadi.

Siyosiy hokimiyatning asosiy belgilari:

Uning tarkibida sub’ekt, ob’ekt va resurslar mavjudligi.

Hokimiyatni amalga oshiruvchining faoliyati.

Bo’ysundirish mexanizmini mavjudligi.

Hokimiyat sub’ektlari mavqeini mustahkamlab qo’yadigan Me’yorlar (normalar) mavjudligi.

Siyosiy hokimiyatning asosiy vazifalari:

Qonunlar qabul qilish;

Boshqarishni tashkil qilish;

Nazorat o’rnatish;

Mojarolarni bartaraf etish;Shunday qilib, siyosiy hokimiyat uni egallab turgan, butun jamiyat (davlat)ga raxbarlik qilib boshqarayotganlarning davlat ihtiyoridagi vositalar yordamida xalq ommasining xatti-harakatiga belgilovchi ta’sir o`tkazish, odamlarning ko`pchiligini qo`yilgan maqsad va dasturlarni amalga oshirishga safarbar etish, barqarorlik va ijtimoiy kelishuv maqsadiga alohida guruhlar munosabatlarini tartibga solish qobiliyati va imkoniyatini ifodalaydi.

Siyosiy hokimiyatning xususiyatlari. Boshqa hokimiyat shakllaridan farqli ravishda u o`ziga xos xususiyatga ega. Uning farq qiluvchi alomatlari quyidagicha:

1) Uning qarorlarini jamiyat barcha a'zolari va barcha turdagi hokimiyatlar uchun ustivorligi va majburiyligidir. U boshqa hokimiyat shakllarining ta'sirini cheklashi, ularni oqilona yo`lga solishi, yoxud ularni yo`q qilishi mumkin;

2) Ommaviyligi, ya'ni oshkoraligi. Bu degan so`z, siyosiy hokimiyat huquq asosida, butun jamiyat nomidan ish ko`radi;

3) Mamlakat doirasida kuch ishlatish va hukmronlik qilishning boshqa vositalaridan foydanishining legitimlashganligi (qonuniyatligi);

4) Markazlashganlik, ya'ni qarorlarni qabul qilishning umumdavlat markazining (hokimiyat organlari tizimining) amal qilishi;

Hokimiyatni egallash, ushlab turish va amalga oshirish uchun keng qamrovli vositalarni ishga solish imkoniyatining mavjudligi.

Siyosiy hokimiyatning ko`yidagi xususiyatlari mavjud:

a) legitimligi, ya'ni davlat miqyosida kuch ishlatishdan foydalanishning legalligi.

b) qarorlarning majburiyligi (boshqa tashkilotlar uchun).

v) ommaviyligi, umumiyligi va shaxssizligi.

g) bir markazligi, yagona markazning mavjudligi.

d) resurslarning xilma-xilligi.

Hokimiyat sub'ekti, ob'ekti, resurslari tushunchasi. *Hokimiyatning sub'ekti* hokimiyatni faol yo'naltiruvchi kuchi. Bu alohida shaxs, ijtimoiy guruh, kishilar birligi, davlat institutlari, siyosiy partiyalar.

Eng yuqori darajadagi sub'ektlari *siyosiy elitalar va etakchilar*. Jamiyat uchun hokimiyat sub'ektining uyushgan birligi bo'lishligi muhim ahamiyatga ega. *Hokimiyat ob'ekti* hokimiyat qarorlarini bevosita bajaruvchilardir. Bular alohida individlar, ijtimoiy guruh, sinf, jamiyat bo'lib, bularsiz hokimiyatni tasavvur etib bo'lmaydi.

Hokimiyatni asosini *resurslar* tashkil etadi. Ular birnecha turlarga-*utilitar, majburlovchi va Me'yorli resurslar*dan iborat bo'ladi.

1. *Utilitar resurslar* - kishilar ehtiyojini qondirish bilan bog'liq moddiy vositalar. Rag'batlash yoki jazolash.

2. *Majburlov resurslari* - bu ma'muriy jazolash bilan bog'liq vositalar. Bundan utilitar vositalar ish bermay qo'yganida foydalaniladi.

3. *Me'yoriy resurslar*- bu insonning ichki dunyosiga, hulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish vositasi. Bu hokimiyat talablarini qubul qilinishini tahmin etadi.

Hokimiyat resurslari siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-axborot va kuch ishlatish ko'rinishida bo'ladi. Kuch ishlatuvchi resurslar armiya, politsiya, havfsizlik xizmatidan iborat bo'ladi. Siyosiy hokimiyatning asosiy tarkibiy qismlari – bular uning ob'ekti, sub'ekti, asosi hokimiyat manbalari va jarayon, harakatga keltiruvchi uning barcha bo`laklari hisoblanadi.

Sub'ekt va ob'ekt – hokimiyatning bevosita sohibi va gumashtasidir.

Hokimiyat – hokimiyat sub'ektlarining (individ, guruh, ijtimoiy qatlam va shu

kabi) kishilar faoliyati, xulqi, harakatiga ta’sir qilish layoqati bo`lgan xolati. Bunda sub’ekt o`z irodasini ob’ektga singdiradi, zo`rlik yoki ixtiyoriylik vositalari orqali faoliyatga, harakatga undaydi.



Sub’ekt hokimiyatning faol, yo`naltiruvchi omili, ibtidosidir. Sub’ekt bo`lib alohida shaxs, tashkilot, odamlar birlashmalari, masalan xalq, xattoki BMTga birlashgan hamjamiyat hisoblanadi.

Hokimiyatli munosabatlarning paydo bo`lishi uchun sub’ekt bir qator sifatlarga ega bo`lishi kerak. Avvalo u farmoyish yoki buyruqlari ifodalangan hukmronlik qilish, hokimiyatga intilish istaklardir.

Hokimiyatning asosi – bu uning tayanchi, boshqaruv manbalari bo`lib uning yordamida qo`yilgan maqsadga erishish yo`lida ob’ektga ta’sir ko`rsatadi.

Hokimiyat manbalari – bu xaqiqiy va yashirin imkoniyatlar bo`lib ular hokimiyatni mustahkamlash yo`lida foydalaniladi yoki foydalanishi mumkin.

Boshqacha gapirganda *hokimiyatning asosi* – bu uning poydevori, hokimiyat manbalari esa uning imkoniyatlari va texnologiyasidir.

Siyosiy hokimiyat va hokimiyatning boshqa turlari (iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy v.h). Siyosiy hokimiyat shakllari jamiyatda hokimiyatning boshqa ko`rinishlari bilan birga harakat qiladi.

Iqtisodiy xokimiyat - xokimiyatning mustaqil ko`rinishlaridan biri hisoblanadi. U siyosiy xokimiyatdan farq qiladi. Iqtisodiy xokimiyat resurslar ustidan nazorat qilish, moddiy boyliklarga egalik qilishni anglatadi.

Sotsial xokimiyat - xokimiyatning mustail ko`rinishlaridan biri, u iqtisodiy xokimiyat bilan uzviy bog’liq. Agar iqtisodiy xokimiyat moddiy boyliklarni taqsimlash qobiliyatini anglatsa, sotsial xokimiyat esa sotsial zinapoyadagi o`rinlarni: maqomlar, lavozimlar, imtiyozlarni taqsimlash qobiliyatini bildiradi.

Madaniy - axborot xokimiyati - bu ilmiy bilimlar, axborotlar va ularni tarqatuvchi vositalar orqali kishilar ma’naviy dunyosi ustidan nazoratidir. Ba’zi manbaalrda uni OAV sifatida «To`rtinchi xokimiyat» sifatida qarashadi.

Majburlovchi xokimiyat - majburlovchi resurslarga tayanadigan va jismoniy kuch ishlatishni qo`llash yoki kuch ishlatishdan foydalanib nazorat qilishdir. Masalan, jinoiy guruxlarni tugatish, tashqaridan bo`ladigan bosqinchilik xarakatlarini bartaraf etishda ishlatiladi.

Hokimiyat nazariyalari evolutsiyasi: hokimiyatning sharqona talqini; hokimiyatning islomiy talqini; hokimiyat talqinining ўangi davrda G’arbiy Evropa mutaffakkirlari qarashlarida o`zgarishi.

1. Ҳокимиятнинг кенг тарқалган таърифларидан бири – **позитив-социологик талқиндир** (немис социологи М.Вебер). Бу талқинда ҳокимият бирор индивиднинг муайян ижтимоий шароитда бошқа индивидга ўз

иродасини ўтказиш қобилияти сифатида тушунилади. Ҳокимият муносабатларининг асосини ўзаро таъсир доирасига киритиш муносабатлари ташкил этади. Бундай муносабатлар ҳокимият субъекти ва объекти ўртасида қарор топади.

2. **Ҳокимиятнинг телеологик талқини** (В. Рассел). Бунда ҳокимият кўзланган мақсадларни рўёбга чиқаришдан иборат. Бу атроф-муҳит, табиат билан қамраб олинади.

3. **Бихевиористик** (инглз. инсон онгини эмас, балки хулқини ўрганиш) талқин (XX асрда Америкалик олим психолог D. Лассуэл таклиф этган). Ҳокимиятни тушунишни реал шахсларнинг ўзаро ҳаракатидан иборатлиги ётади. Инсоннинг ҳокимият орқали бойлик, обрў орттиришидир, ҳокимият – бу уни эгаллаш билан ҳузурланишга имкон берадиган мақсад ҳамдир, дейилади.

4. **Ҳокимиятнинг психологик талқини** (З. Фрейд, К. Густав Юнг, К. Хорни). Бунда ҳокимиятни реал индивидларнинг хулқ-атвори сифатида бихевиористик тушунишдан келиб чиқади. Ҳокимият идораларининг «Ихтиёрий қўшилишга» тайёргарлиги сифатида вужудга келади.

5. **Ҳокимиятнинг тизимли талқини**. Бу талқин ҳокимиятнинг бихевиористик ва психологик таърифларидан фарқ килади. Бунда ҳокимиятнинг индивидуал муносабатлардан эмас, балки социал тизимдан ҳосил бўлишини баён этади.

6. **Ҳокимиятнинг тузилмавий-функционал талқини** (америкалик социолог Т. ПарсонС.. Бу талқин ҳокимиятни тенг бўлмаган субъектларнинг муносабати, социал ташкилотнинг хусусияти сифатида, инсонлар бирлигининг ўзини-ўзи ташкил этиш, уюштириш, сафарбар қилиш услублари сифатида олиб қарайди. Ҳокимият - бу ресурсларни, таъсир кўрсатиш воситаларини сафарбар қилишга имкон берувчи социал макондир, ролларнинг хусусиятидан иборатдир. Бошкача айтганда, ҳокимият – раҳбарлик лавозимларини эгаллаш ва муайян функцияларни бажариш билан боғлиқ фаолиятдир.

7. **Реляцион (фран. муносабат) таърифи**. Бу таъриф ҳокимиятни икки шерик ўртасидаги муносабат сифатида олиб қарайди. Бунда улардан бири иккинчисига белгиловчи таъсир кўрсатади. Бу ҳолда ҳокимият унинг субъекти ва объектининг ўзаро ҳаракати сифатида намоён бўлади, субъект муайян воситалар ёрдамида объектни назорат қилади.

XX asrning 50-60- yillarida hokimiyat haqida olib borilgan munozara.

Керман француз сиёсатчиси. Бир мамлакат сиёсий ҳокимиятининг шу мамлакат қадриятларига мувофиқ келиши.

Дювержи - Халқ бирдам бўлган ҳар қандай тартиб легитим.

Вебер 3 га бўлади.

1. ***Консерватив*** - Анъанавий урф-одатларга риоя қилиш.
2. ***Харизматик*** - илоҳий шахсий қобилият.
3. ***Легитим*** - қонуний белгиланган қоидаларга итоат билан бажаришга қаратилган ҳукмронлик.

Легаллик ва легитимлик. Ҳокимиятни ҳуқуқий асосини, унинг

ҳуқуқий меъёрларга мувофиқлиги **легаллик,** ҳокимиятга ишонч ва унинг халқ томонидан қабул қилинишини тушуниш легитимлик деб изоҳланади.

Ҳокимиятнинг ҳозирги замондаги хусусиятлари.

1. Ҳокимиятнинг номарказувлашув тенденцияси – ўз-ўзини бошқариш.
2. Ҳокимиятнинг байналминаллашуви – НАТО, БМТ
3. Ҳокимиятнинг чуқурлашуви - Ҳокимиятнинг бўлиниши
4. Ҳокимиятнинг ихчамлашуви - Аппаратни қисқариши.

Hokimiyat «qiyofalari» to`g'risidagi baxs. Ҳокимиятнинг 4 қиёфаси.

1. Қиёфа. Ўлчовли мақсадлар борасидаги очиқ ихтилоф. Биринчиси иккинчисига иродасини ўтказа олиши. **Р.Даль.**

2. Қиёфа. Қарорларни қабул қилишга йўл қўймаслик. А манфаатига зид қарорларни Б томонидан илгари суришга йўл қўймаслик. **Бахрах, Баратулар**.

3. Қиёфа. Биринчисини иккинчисига таъсир этиши. **Стивен Люкс.**

4. Қиёфа. Ҳокимият фаолиятни бошқа фаолият билан ўзгартириш. **Мишел Фуко.**

2. Siyosiy hokimiyatning tuzilishi va ko'rinishlari.

«Hokimiyat shakli» tushunchasi. Ушбу савол ҳокимиятнинг бир кўринишда бўлмаслиги ҳамда ўзига ҳос хусусиятларга эга эканлигини англаб олишга ёрдам берувчи саволдир. Сиёсий ҳокимият ўзининг тузилишига кўра турли шаклларда бўлади. Унинг ҳар хил шаклларда намоён бўлишининг асосий сабаби жамият ҳаётида кўплаб ҳокимиятларнинг ҳаракатда бўлиши билан белгиланади. Бундай ҳокимиятлар ўзларининг жамият ҳаётида тутган ўрни ва ролига, мақсад ва вазифаларига кўра бир-бирларидан фарқ қилади. Хурматли талаба, Сиз сиёсий ҳокимият асосий шаклларини аниқлашингиз ва ўзлаштириб олишингиз керак. Бунинг учун тавсия этилган адабиёт рўйхатида келтилган дарслик ва ўқув қўлланмаларининг кўрсатилган мавзулари ёки боблари билан батафсил танишиб чиқишингиз ва диққат эътиборингизни сиёсий ҳокимиятнинг асосий шаклларини ўзига хослигига қаратишингиз лозим.

Hokimiyat shakllarining turli asoslar negizida turlicha turkumlashuvi. Hokimiyatning mavjud hamma asosi va manbalarining yig'indisi birgalikda uning potentsial imkoniyatlarini ochib beradi. Hokimiyat sub'ekti ixtiyorida bo`lgan hokimiyat zamini va hokimiyat irodasiga ob'ekt tomonidan qarshilik ko`rsatuvchi manbalarni bir-biriga solishtirish hokimiyat kuch-qudratini aniqlashga yordam beradi.

Siyosiy fanda asos va manbalar turlicha turkumlanadi. Jamiyat hayotiy faoliyatining sohalarida zamin va manbalar qanday turkumlanishini ko`rib chiqaylik:

Iqtisodiy asos mulkchilik shakllarining hukmronligi, yalpi milliy mahsulotning aholi jon boshiga taqsimlanish, tuzilmaviy ishlab chiqarish (sanoat va davlat sektorlarining nisbati), strategik muhim tabiiy boyliklar. Oltin zaxirasi, ishlab chiqishning texnologik darajasi bilan izoxlanadi.

Shuningdek, iqtisodiy manbalarga (resurslarga): investitsiya, ilmiy texnika, soliq, bojxona siyosati, shuningdek kapital, tovar va boshqa moddiy boyliklar

kiradi.

Sotsial (ijtimoiy) asos – hokimiyatning sotsial bazasi, hokimiyat suyanadigan ijtimoiy guruhlar va qatlamlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning darajasi va boshqalar kiradi.

Sotsial asos – bu sotsial bazani kengaytirish usullari, hokimiyatning ijtimoiy guruh va qatlamlarning ijtimioy sohadagi o`rnini o`zgartirishi, sotsial maqomning ortishi yoki pasayishi, shuningdek davlatning sotsial, ijtimoiy siyosat sohalarida amalga oshirilayotgan bir butun yaxlit tadbirlari demakdir.

Huquqiy asos – bu qonunchilik, shuningdek uni tadbiq etishini ta'minlab beruvchi institut va tashkilotlar. Huquqiy manbalar va turli xildagi qo`llanmalar va boshqa mahkamaviy xujjatlar kiradi.

Ma'muriy kuch ishlatuvchi asos – davlat hokimiyati va uning boshqarmasi hayotiy faoliyatini ta'minlab beruvchi hokimiyatli muassasalarining majmui. Bunga qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning muhim tuzilmalari, shuningdek xavfsizlik organlari, razvedka va ichki ishlar vazirligi kiradi.

Mos ravishda ma'muriy kuch ishlatish manbalariga maxsus kasbkorlik sifatlariga ega bo`lgan hokimiyatli muassasalarni qurol bilan, maxsus texnika bilan ta'minlash, kadrlar tanlash tizimi kiradi.

Madaniy-muassasaviy (axborotlashgan) asosga – mamlakat madaniy saloxiyatini saqlash va jamlashga oid tashkilotlar tizimi: ommaviy axborot vositalari, razvetka ma'lumotlarini qabul qilish, to`plash va qayta ishlash, milliy va xalqaro kompyuter tarmog'i. Shuningdek madaniy axborotli manbalari – ma'naviy qadriyatlar, bilim, axborot kiradi.

Turli ijtimoiy tizimlarda, tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida hokimiyatning u yoki bu asoslari va manbalari hokimiyat tizimida o`zining ahamiyatini o`zgartirishi mumkin.

Hozirgi davr postindustrial mamlakatlarida politoglarning ta'kidlashlaricha madaniy axborotli asosning roli keskin ko`tarilgan.

Hokimiyat manbalari asosning xosilasi xisoblansada, u nisbiy mustaqildir. Odatda manbalar hokimiyatni amal qilishi va uni mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Odamlar ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirishning turli vositalari bo`lgani kabi hokimiyat manbalari ham turlichadir.

Manbalar politologlar tomonidan turlicha tasniflanadi. ***A.Ettsion*** qarashlariga ko`ra ular ya'ni manfatli manbalar:

Majburlash manbalari;

Normativ (belgilangan) manbalar.

Manfaatli manbalar – bu odamlarning kundalik manfaatlari bilan bog'liq moddiy va boshqa sotsial boyliklardir. Ular yordamida hokimiyat, ayniqsa davlat alohida siyosatchilarni, xattoki aholining turli qatlamlarini sotib olishi mumkin. Bu manbalar rag'batlantirish uchungina emas, shuningdek, jazolashda (Masalan: noinsof xodimlarni ish xaqini kamaytirishda) foydalaniladi.

Majburlash manbalari manfaatli manbalar ish bermay qolgan taqdirda ma'muriy jazolash choralari sifatida chiqadi. (Masalan: iqtisodiy jarimadan qo`rqmay ish tashlagan xodimlarni sud tomonidan ta'qib etilishi va boshqalar).

Normativ (belgilangan) manbalar – odamlarning ichki dunyosi, qadriyatli mo`ljallari va xatti-harakat qoidalariga ta’sir etuvchi vositalardir. Ular qo`l ostidagilarni raxbar va ijrochi manfaatlari umumiyligiga ishontirish, hokimiyat sub’ekti tomonidan qabul qilingan qarorlarni qo`llab-quvvatlashni ta’minlashga qaratilgan.

Jahon siyosiy adabiyotlarida hokimiyatning “amalga oshish usuli” mezoni bo`yicha boshqaruv ikki asosiy ko`rinishi bilan farqlanadi.



Avtokratik boshqaruv tarzi *totalitar va avtoritar* ko`rinishda bo`ladi.

Totalitar siyosiy boshqaruv tarzi hukmron elita va uning doxiysi hokimiyatning jamiyatni to`la o`ziga bo`ysundirishi, zo`rlikka asoslangan siyosiy hukmronligi tizimidir. Bu jamiyat va har bir kishining butun faoliyati mutloq belgilab qo`yiladi, ochiq va yashirin nazorat qilinadi. Demokratik tashkilotlar taqiqlanadi, progressiv kuchlarga qarshi qatag’on uyushtiriladi, hokimiyat barcha darajasida bir kishi yoki guruh tomonidan yopiq holda shakllantiriladi, fuqarolik jamiyati bo`lmaydi.

Avtoritarizm – totalitarizmga yaqin bo`lib, oliy hokimiyatni egallagan bir kishi yoki guruh faoliyati ma’lum darajada chegaralanadi. Totalitarizmdan farqi shundaki, mamlakatdagi o`tmish ijtimoiy tartiblarni yo`q qilinishi, jahon inqilobini amalga oshirishni maqsad qilib qo`ymaydi. Siyosiy hayotdan boshqa sohalarda kishilarning erkin faoliyatiga ma’lum darajada yo`l qo`yadi.

Demokratik boshqaruv tarzi – xalq hokimiyatining manbai bo`lgan keng fuqaro huquqlarini ta’minlagan jamiyatning siyosiy davlat tuzilishidir. Bunda barcha fuqarolarning teng huquqliligi, umumiy saylov huquqi, vazifali siyosiy partiya va harakatlarning erkin faoliyati, fikr, so`z, e’tiqod erkinligi ta’minlanadi davlat organlari yuqori va quyidan nazorat qilinadi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati shakllanadi.

Biz yuqorida qisqacha tanishib chiqqan *davlat hokimiyatining uchta asosiy shakllari avtoritor, totalitar, demokratik siyosiy tuzum*lar turli tarixiy davrlarda va turli mamlakatlar shart-sharoitlarida, turli ko`rinishlarda va shakllarda namoyon bo`lishi mumkin.

Xokimiyatning legitimligi (qonuniyligi) va turlari. Xokimiyat legitimligi (fran. qonuniyligi) odatda uning qonuniyligi va adolatlini, fuqarolar tomonidan ijobiy baholanishni va ixtiyoriy tan olinishini anglatadi.

Legitimlik va legallik bir xil tushunchalar emas. Agar legallik xokimiyatining xuquqiy asoslanishini, uning xuquqiy me’yorlarga mos kelishini anglatsa, legitimlik - bu ishonch, xokimiyatni oqlash va qo`llab-quvvatlashdir. qonun chiqaradigan har qanday xokimiyat, ularning bajarilishini ta’minlaganda

ham legaldir. Bu bilan birga nolegitim bo`lishi xalq tomonidan qabul qilinmasligi ham mumkin.

Xokimiyatning legitimligi bir xil emas, uning mazmun-mohiyatiga ko`ra xilma-xil turlari bor. ***M. Veber*** *xokimiyat legitimligining* 3 turini ajratib ko`rsatgan. Bular:

1. *An'anaviy legitimlik.* U avaldan o`rnatilgan tartiblarning buzilmasligi, muqaddasligiga bo`lgan ishonchga, urf-odatlarga binoan qaror topadi. Uning negizini siyosiy an'analar, urf-odatlarga ishonch tashkil etadi. An'anaviy legitimlik monarxiyaga xos xususiyatdir.

2. *Xarizmatik legitimlik* (yunon, «xarizma» - xudo tomonidan in'om etilgan ilohiy qobiliyat). Bu legitimlik rahbarning xaddan tashqari ilohiy qobiliyatiga, favqulotda istedodiga, ya'ni xarizmaga ishonishga asoslanadi. Uning negizida tarixiy an'analar emas, balki shaxsga xalqning cheksiz ishonchi tashkil etadi.

3. *Oqilona - xuquqiy legitimlik* - legitimlikning mustaqil turidir. U legitimlikning an'anaviy, xarizmatik turlaridan farq qiladi. Bu legitimlik fuqarolarning alohida shaxslarga emas, balki davlat tuzilishiga bo`lgan ishonchiga asoslanadi. Uning manbaini oqilona anglangan manfaat tashkil etadi. Oqilona-xuquqiy legitimlik ilg'or, demokratik davlatlarga xos xususiyatdir.

Davlat, siyosiy partiyalar, manfaat guruxlari – hokimiyat shakllari ekanligi. Сиёсий ҳокимиятнинг асосий шаклларидан бири-давлат ҳокимиятидир. Давлат сиёсий ташкилот бўлганлиги учун ҳам унинг фаолияти сиёсий моҳият касб этади. У жамиятнинг фақат иқтисодий, маданий, социал ва ҳарбий соҳаларида фаолият кўрсатиб қолмай, шу билан бирга жамиятнинг сиёсий ҳаётида ҳам фаол иштирок этувчи асосий сиёсий кучлардан бири ҳисобланади. Давлат ҳокимиятининг сиёсий моҳияти, аввало, унинг сиёсий жараёнлар ва сиёсий муносабатларда фаол иштирок этиши билан белгиланади. Чунки давлат мамлакатнинг сиёсий ҳаётида рўй берадиган муаммоларни ҳал қилишда сиёсий кучлардан бири сифатида фаолият кўрсатади. Давлат ҳокимияти томонидан мамлакатнинг ички ва ташқи сиёсати ишлаб чиқилади, дунёнинг турли мамлакатлари билан сиёсий алоқалар ва ўзаро ҳамкорлик муносабатлари ташкил қилинади ва амалга оширилади, давлат билан сиёсатнинг бошқа субъектлари ўртасида ўзаро муносабатлар олиб борилади.

Сиёсий ҳокимиятнинг бирон бир шакли давлат ҳокимияти сингари имкониятларга эга эмас. Давлат ҳокимияти аҳолининг барча қатламлари учун мажбурий ҳисобланган қонунларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш ишида етакчи роль ўйнайди. Сиёсий ҳокимиятнинг бошқа шакллари эса ўз иродасини дастурлар, низомлар, қарорлар сингари мажбурий характерга эга бўлмаган ҳужжатлар асосида амалга оширади. Давлат ҳокимияти ихтиёрида армия, милиция, прокуратура, суд сингари куч ишлатиш аппаратлари тўпланган бўлиб, улар давлатнинг кучи билан ўзининг ҳокимиятини амалга оширади.

Давлат ҳокимияти қуйидаги ўзига хос хусусиятларга эга:

- давлат ҳокимияти тушунчаси сиёсий ҳокимият тушунчасига кўра тор маънога эга;

- давлат ҳокимияти сиёсий ҳокимиятдан ўзининг иш услубига кўра фарқ қилади (масалан, давлат ҳокимиятида мажбур қилиш усуллари мавжуд, сиёсий ҳокимиятда бундай имконият йўқ);

- давлат ҳокимияти қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятига эга;

- сиёсий ҳокимият ҳам давлат ҳокимияти ҳам сиёсий ҳодисадир;

- ҳар иккаласида ҳам сиёсий ҳукмронлик акс этади;

- ҳар иккисининг ҳам асосини халқ ташкил этади;

- ҳар иккиси ҳам жамият ҳаётидаги ўзгаришларга у ёки бу даражада таъсир этади;

Сиёсий ҳокимиятнинг асосий шаклларидан бири сиёсий партияларнинг ҳокимиятидир. Бу ҳокимият ўзининг тузилиши, мақсад ва вазифалари, жамият ҳаётида тутган мавқеи жиҳатидан давлат ҳокимияти ёки сиёсий ҳокимиятнинг бошқа шаклларидан фарқ қилади. Сиёсий партиялар ҳокимиятининг жамият ҳаётидаги имкониятлари давлат ҳокимиятиники сингари эмас. Лекин шунга қарамай сиёсий ҳокимиятнинг бу шакли жамият ҳаётида ўз ўрни ва мавқеига эгадир.

Сиёсий ҳокимият илоҳий ёки диний ҳокимият шаклида ҳам намоён бўлади. Ҳокимиятнинг бу шакли унинг бошқа шаклларига қараганда анча илгари шаклланган. Ибтидоий муносабатлардан қулчилик муносабатларига ўтиш даврида ҳокимиятнинг бу шакли пайдо бўла бошлаган.

Бу ҳокимият сиёсий масалалар билан бевосита шуғулланмасада давлатлар ёки сиёсий партиялар ҳокимиятлари томонидан амалга оширилаётган сиёсий йўлга ўзининг муносабатини билдириб туради.

Ижтимоий ва оммавий жамоат ташкилотларининг ҳокимиятлари ҳам сиёсий ҳокимиятнинг ўзига хос шаклидир. Сиёсий ҳокимиятнинг бу шакли унинг бошқа шаклларидан ўзининг тузилиши, мақсад ва вазифалари, жамият ҳаётида тутган ўрни ва ролига кўра фарқ қилади. Бу ҳокимиятнинг сиёсий моҳиятга эга эканлиги, бир томондан, уларнинг ташкилот сифатидаги тузилиши билан белгиланса, иккинчи томондан, уларнинг сиёсий масалаларни ҳал этишда иштирок этишлари билан белгиланади.

Сиёсий ҳокимиятнинг бу шакли қуйидаги турларга бўлинади: касаба уюшмаларининг ҳокимияти, ёшлар ҳокимияти, хотин-қизлар ҳокимияти, фахрийлар ҳокимияти, маҳалла ҳокимияти ва бошқалар. Бу ҳокимиятларнинг фаолият доираси ва таъсир кучи давлат ҳокимияти сингари имкониятларга эга эмас.

Individ va tashkilot hokimiyati. Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, сиёсий ҳокимиятнинг намоён бўлиши бир қанча шаклларда бўлади. Сиёсий ҳокимиятнинг амалга оширилишида авторитар, тоталитар ҳамда демократик шакллар кенг тарқалган шакллардан ҳисобланади. Авторитар якка шахс, обрўталаб шахснинг, подшо ёки императорнинг алоҳида ҳокимияти ҳисобланади. Бунга мисол тариқасида Япония, Буюк Британия, Испания, Нидерландия, Швеция ва бошқа шу каби мамлакатларни кўриш мумкин. Тоталитар ҳокимият шакли эса кўпроқ маъмурий буйруқбозликка, зўравонликка асосланган ҳокимият ҳисобланади. Собиқ Иттифоқ давридаги

сиёсий тузум ҳокимиятининг ана шу шаклига асосланган эди. Ҳокимиятнинг демократик шакли эса кўпроқ халқнинг ўз-ўзини бошқаришига, қонунчиликнинг жамиятдаги ҳамма соҳаларида баравар амал қилишига асосланади. Ҳокимиятни амалга оширишнинг демократик шакли Республика кўринишида ҳам мавжуд бўлиб, бунда парламент Республикаси, Президентлик бошқарувига асосланган Республика каби шакллари ҳам мавжуд бўлади. Парламент Республикасида кўпроқ парламентнинг устунлиги намоён бўлади. Сиёсий ҳокимиятнинг намоён бўлишида мамлакатдаги умумий бошқарув шакли ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлади. Бунда федератив, конфедератив ва унитар давлат тузилмалари ҳақида айтиб ўтиш лозимдир. Федератив давлат шакли тенг ҳуқуқли республикалар, вилоятлар, губерниялар уюшмасидан ташкил топади. (Олмония, Америка, Россия ва бошқалар). Унитар ҳокимият шакли бошқаришнинг оддий кўринишдаги шакли бўлиб, унда турли туманлар, вилоятлар шу ҳокимият шаклида вужудга келади.

Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy v.b. hokimiyatlar. Siyosiy hokimiyat shakllari jamiyatda hokimiyatning boshqa ko`rinishlari bilan birga harakat qiladi.

Iqtisodiy xokimiyat - xokimiyatning mustaqil ko`rinishlaridan biri hisoblanadi. U siyosiy xokimiyatdan farq qiladi. Iqtisodiy xokimiyat resurslar ustidan nazorat qilish, moddiy boyliklarga egalik qilishni anglatadi.

Sotsial xokimiyat - xokimiyatning mustail ko`rinishlaridan biri, u iqtisodiy xokimiyat bilan uzviy bog'liq. Agar iqtisodiy xokimiyat moddiy boyliklarni taqsimlash qobiliyatini anglatsa, sotsial xokimiyat esa sotsial zinapoyadagi o`rinlarni: maqomlar, lavozimlar, imtiyozlarni taqsimlash qobiliyatini bildiradi.

Madaniy - axborot xokimiyati - bu ilmiy bilimlar, axborotlar va ularni tarqatuvchi vositalar orqali kishilar ma'naviy dunyosi ustidan nazoratidir. Ba'zi manbaalrda uni OAV sifatida «To`rtinchi xokimiyat» sifatida qarashadi.

Majburlovchi xokimiyat - majburlovchi resurslarga tayanadigan va jismoniy kuch ishlatishni qo`llash yoki kuch ishlatishdan foydalanib nazorat qilishdir. Masalan, jinoiy guruxlarni tugatish, tashqaridan bo`ladigan bosqinchilik xarakatlarini bartaraf etishda ishlatiladi.

Hokimiyatning yangi shakllari. An'anaviy shakli – hukmronlikning oila darajasidagi ko'rinishi bo'lib jamiyat miqyosida amal qiladi. U urf odatlar, qadriyatlar, qoidalarning muqaddasligiga ishonishga, asrlar davomida hayotni, odamlarning xatti-harakatini tartibga solib turgan, hokimiyatning amal qilishi patriarhal asoslar va diniy odatlar orqali muqaddaslashtirilganligiga asoslanadi. Misol sifatida an'anaviy hokimiyatga Qadimgi Sharq jamiyatlarini (Misr, Eron, Xitoy) o'rta asr Yevropasi, hozirga davrda Saudiya Arabistoni, Baxreyn, Quvayt, Omon va boshqalarni keltirish mumkin.

Hozirgi Yaponiyada, Angliyada an'anaviy tarzda mamlakat, davlat, millat birligi, yakdilligi ramzi hisoblangan imperatorsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ochiq hokimiyat shakli huquq va qonunning ustunligiga, hukmronlik va tobelik munosabatlarini tartibga soluvchi umum qabul qilingan qoidalarni tan olishga asoslangan. Bunday hokimiyat turining xarakterli xususiyati konstitutsiyaviy davlat bo'lib, uning amal qilishning qoidalarini belgilasa, ikkinchi

tomondan uning o’zi ko’rsatilgan tadbirlar asosida o’zgarishining ob’ektiga aylanadi. Bu erda hokimiyatning legitimligi qonuniga asoslangan.

Xorizmatik (ilohiy talat) hokimiyat



Alohida xususiyatlarga ega deb hisoblangan yetakching shaxsiga asoslanadi. Omma yetakchi doxiy deb biladi. Omma va yetakchi o’rtasidagi intensiv xis-tuyg’uga asoslangan aloqa o’rnatiladi. Xarizmatik yetakchi hokimiyati kundalik xolatdagi urf-odatlar bilan aloqani uzadi. Yetakchi o’zining “Tarixiy vazifasi” borligini, shuning uchun unga shartsiz bo’ysunishi lozimligini uqtiradi. Xarizmatik yetakchi mo’’jizaviy jasoratlar ko’rsatib, o’zining buyukligini doimo isbotlab borishi kerak. Muvaffaqiyatsizlik, uning takrorlanishi xarizmatik yetakchiga ishonchni yo’qotadi. Shuning uchun xarazmatik hokimiyat nisbatan beqarordir.

Siyosiy hokimiyatning bunday turi an’anaviylikdan aql-idrokka asoslangan turga o’tish sifatida qaraladi. Ushbu turdagi hokimiyat ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar bilan bog’liq bo’lmagan holda turli tirixiy davrlarda amal qilib, bunga Rim imperiyasidagi Yuliy Sezor, Frantsiyadagi Napoleon, Germaniyadagi Gitler, SSSRdagi Stalin siyosiy tartibotlarini misol keltirish mumkin. Hozirgi kunda legitimlikning xarizmatik turi an’anaviy turdan aql-idrok va oshkoralikka (industrial va postinbustrial jamiyatga) asoslangan jamiyatlarga o’tayotgan mamlakatlarga xos. Bunga Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasining ba’zilari kiradi.

Kuch, zo`rlik, manipulyatsiya, ishontirish va avtoritet – hokimiyat shakllari sifatida. Автократик бошқарув тарзи тоталитар ва авторитар кўринишда бўлади.

Тоталитар сиёсий бошқарув тарзи ҳукмрон элита ва унинг дохийси ҳокимиятнинг жамиятни тўла ўзига бўйсундириши, зўрликка асосланган сиёсий ҳукмронлиги тизимидир. Бу жамият ва ҳар бир кишининг бутун фаолияти мутлоқ белгилаб қўйилади, очиқ ва яширин назорат қилинади. Демократик ташкилотлар тақиқланади, прогрессив кучларга қарши қатағон уюштирилади, ҳокимият барча даражасида бир киши ёки гуруҳ томонидан ёпиқ ҳолда шакллантирилади, фуқаролик жамияти бўлмайди.

Авторитаризм – тоталитаризмга яқин бўлиб, олий ҳокимиятни эгаллаган бир киши ёки гуруҳ фаолияти маълум даражада чегараланади.

Тоталитаризмдан фарқи шундаки, мамлакатдаги ўтмиш ижтимоий тартибларни йўқ қилиниши, жаҳон инқилобини амалга оширишни мақсад қилиб қўймайди. Сиёсий ҳаётдан бошқа соҳаларда кишиларнинг эркин фаолиятига маълум даражада йўл қўяди.

Демократик бошқарув тарзи – халқ ҳокимиятининг манбаи бўлган кенг фуқаро ҳуқуқларини таъминлаган жамиятнинг сиёсий давлат тузилишидир. Бунда барча фуқароларнинг тенг ҳуқуқлилиги, умумий сайлов ҳуқуқи, вазифали сиёсий партия ва ҳаракатларнинг эркин фаолияти, фикр, сўз, эътиқод эркинлиги таъминланади давлат органлари юқори ва қуйидан назорат қилинади. Ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамияти шаклланади.

3. Siyosiy tizim tushunchasi va mohiyati.

“Siyosiy tizim” tushunchasi va mohiyati. Jamiyatning siyosiy tizimi – siyosiy hokimiyatni shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi, birinchi navbatda davlat hokimiyati, siyosiy va ijtimoiy tashkilotlar hamda munosabatlar yig’indisidir.

Milliy demokratik davlatchilikni qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatlariga bo’linish borasidagi konstitutsiyaviy tamoyil asosida barpo etish nazarda tutilgan

Siyosiy tizim bu jamiyatni muayyan maqsad va vazifalarga safarbar etuvchi mexanizmdir. Shuningdek siyosiy tizim orqali jamiyatdagi siyosiy hayot ishtirokchilarining turli manfaatlari yaxlitlashtiriladi va siyosiy barqarorlik vujudga keltiriladi. Binobarin, siyosiy tizim boshqa kichik tizimlarga nisbatan ustuvor bo’lishi bilan, uning qarorlari butun jamiyat uchun majburiydir.

Ҳозирги сиёсатшунослик фанида сиёсий тизим тушунчаси икки ўзаро боғлиқ маънога эга. Улардан биринчисида сиёсий тизим турли сиёсий ҳодисаларнинг системали ҳусусиятларини аниқлаш ва баён этишга имкон берувчи, сунъий яратилган назарий, фикрий қурилма-қурол каби тасаввур қилинади. Бу категория сиёсий воқеликнинг ўзини акс эттирмайди, балки сиёсатнинг тизимли таҳлил этиш воситаси ҳисобланади. У ҳар қандай нисбий бир бутун сиёсий тузилма: партия, давлат, касаба уюшмаси, сиёсий маданият ва бошқа шу кабиларга нисбатан ҳам қўлланилиши мумкин. Ушбу тузилмаларнинг ҳар бири ўзига хос сиёсий тизимдир.

«Сиёсий тизим» атамаси ўзининг биринчи методологик маъносида қўлланилганда бутун сиёсий соҳага нисбат берилиб, унга атроф-муҳит билан мураккаб ўзаро таъсирда бўлувчи – барча бошқа жамиятларга «кириш» орқали–муҳитнинг сиёсий тизимига таъсир йўллари ва «чиқиш» тизимининг муҳитга акс таъсир этишидан иборат бир бутун организм сифатида қараш кўзда тутилади.

Siyosiy tizimning tarkibi: institutsional, me’yoriy, funktsional, kommunikativ, madaniy kichik tizimlar. Siyosiy tizimning asosiy elementlari tubandagilar:

1. Tashkiliy tizim – bu davlat, siyosiy partiya, ijtimoiy tashkilotlar va harakatlarni o’z ichiga oladi.

2. Madaniy - mafkuraviy tizim – bunga siyosiy madaniyat, siyosiy ong, mafkura, jamoatchilik fikri kiradi.

3. Me’yoriy (norma) tizim, bu siyosiy – huquqiy, tashkiliy, ahloqiy va boshqa me’yorlarni o’z ichiga oladi.

4. Axborot kommunikatsiya tizimi – bu o’z ichiga OAV ni kommunikatsiyalarni oladi.

5. Funktsional- kirish va chiqish, nazorat va tartibga solish, jamiyatni birlashtirish, moslashuv va to`ldirish, resurslarni taqsimlash.

Shuni ta’kidlash lozimki, siyosiy tizim tarkibiga kiruvchi yuqoridagi kichik tizimlar ma’lum siyosiy me’yorga (normaga) tayanib faoliyat ko’rsatadilar. Siyosiy me’yorsiz ularning faoliyati uyg’un va barqaror bo’lmaydi. Siyosiy me’yor asosiy qonun - Konstitutsiyada belgilab beriladi. Siyosiy partiya va tashkilotlar ana shu normalarga rioya qilmasalar, ularning faoliyati taqiqlanadi. OAV – matbuot, radio va televidiniyalar siyosiy jarayonni xolisona aks ettiradi va xalqni uning ijrosini ta’minlashga safarbar etadi. Siyosiy tizimning yuqoridagi kichik tizilmalari mustaqil faoliyat ko’rsatadilar, ayni paytda ular bir-biriga bog’liq. Ularning o’zaro uyg’un faoliyati siyosiy tizim mexanizmlarini normal ishlashini ta’minlaydi, jamiyatda siyosiy barqarorlikni qaror topdiradi.

D.Iston, G.Almond, K.Doychning siyosiy tizim haqidagi kontseptsiyalari. Ушбу саволга жавоб тайёрлаш жараёнида асосий эътиборни XX асрнинг 50-60 йилларида сиёсатшунослик назариясига “сиёсий тизим” тушунчаси киритилган ва сиёсат муайян тизим сифатида ифодаланган. Америкалик сиёсатшунослар D.Истон в D.Алмонд сиёсий тизим назариясига асос солганлар. Кейинчалик у У.Митчел, К.Доич ва кўплаб бошқа олимларнинг асарларида ривожлантирилди.

Баъзи муаллифлар сиёси тизим вазифалари рўйхатини янада аниқлаштирадилар. Масалан, D.Алмонд унинг тўртта кириш вазифасини ёзади: сиёсий ижтимоийлашув, фуқароларни иштирокчиликка жалб этиш; улар манфаатларининг айланиб туриши (артикуляцияси), манфаатларнинг ўзаро қўшилиши ва учта «чиқиш» вазифаси-меъёрлар (қонунлар) ишлаб чиқилиши; уларнинг қўлланилиши; уларнинг амалиётини назорат қилиш.

Сиёсий тизимларни беш турга бўлиб кўрсатган сиёсатшунос Ж.Блондель қарашлари ҳам анча муҳим. У сиёсий тизимларни либерал-демократик, кескин обрўталаб (авторитар ёки коммунистик), оммабоп, анъанавий, обрўталаб консерватив шакллар асосида тушунтиришга ҳаракат қилади.

Сиёсий тизимларни жамият ижтимоий тузилишига нисбатан турларга ажратиш тамойили ҳам мавжуд бўлиб, унда: 1) харбий ва фуқаролик бошқариш; 2) миллий-демократик; 3) буржуа-демократик табиатли сиёсий тизимлар амал қилиши уқтирилади.

Ўзига хос сиёсий тизим турлари мажмуини сиёсатшунос D.Альмонд қуйидагича ишлаб чиқган. Унингча сиёсий маданиятлар ва уларнинг ҳокимиятни ташкил этишда сиёсий тизимларнинг тўрт тури мавжуд бўлиб, улар: 1) англо-америкача; 2) континентал-оврупоча (Буюк Британиядан ташқари); 3) индустриал даражагача ва қисман индустриал; 4) ялпи (тоталитар) турларга бўлинади. Уларни чегаралаб турувчи мезон бўлиб сиёсий тартиб (режим) хизмат қилади.

Siyosiy tizimning vazifalari: kirish va chiqish, nazorat va tartibga solish, jamiyatni birlashtirish, moslashuv va to`ldirish, resurslarni taqsimlash. Сиёсий тизим муҳитга муносабати бўйича бир қатор вазифаларни бажаради. Булар: жамият фаолияти дастурининг мақсадлари, вазифаларини аниқлаш; қўйилган мақсадларга эришишда имкониятларни сафарбар этиш; умумий мақсад ва қадриятларни тарғиб қилиш, ҳокимиятдан фойдаланиш ва бошқалар ёрдамида жамият барча элементларининг бирлашуви; барча фуқаролар учун ноёб қадриятлар тақсимотининг шарт эканлиги.



Bular qatoriga quyidagilar kiradi:

D.Алмонд унинг тўртта кириш вазифасини ёзади: сиёсий ижтимоийлашув, фуқароларни иштирокчиликка жалб этиш; улар манфаатларининг айланиб туриши (артикуляцияси), манфаатларнинг ўзаро қўшилиши ва учта «чиқиш» вазифаси-меъёрлар (қонунлар) ишлаб чиқилиши; уларнинг қўлланилиши; уларнинг амалиётини назорат қилиш.

- Jamiyatni integratsiyalash, uning tuzilmalarini tashkil etgan turli tarkibiy qismlari o`zaro aloqa va birlikni ta'minlash.
- Siyosiy jarayonlarni tartibga solish.

Adabiyotlarda yana shunday funktsiyalar ko`rsatiladi: ijtimoiy zaxiralarni ishga solish, hokimiyatni legitimlashtirish, siyosiy rahbar bilan ifodalash, odamlarning siyosatdagi faoliyatini shakllantirishga qaratilgan ishorlar, qoidalar, ramzlar va h.k. Сиёсий тизимнинг моҳияти юқорида баён этилган вазифаларда

ўз ифодасини топади. Сиёсий тизимнинг бош мақсади муҳитнинг ўзгарувчан талабларига мослашиш ва унга фаол таъсир этиш йўли билан ўзини ўзи сақлаб қолишдир.

Siyosiy tizimning turlari: ochiq va yopiq, demokratik va g'ayridemokratik, instrumental va g'oyaviy, an'anaviy va zamonaviy tizimlar, demokratiya, avtoritarizm, totalitarizm. Энди бу саволга жавоб тайёрлашда шу нарсани назардан қочирмаслик керакки, сиёсий тизим тузилиши- типологияси ҳар хил асосларга кўра аниқланади.

1. Атроф муҳит билан муносабатнинг характери асосида- А. очиқ сиёсий тизим (ташқи жаҳон билан фаол муносабатлар асосидА.; В. ёпиқ сиёсий тизим (ташқи муҳит билан муносабатлар чегараланган).

2. Ўрнатилган сиёсий тартиб асосида, яъни ҳокимият шахс ва жамият муносабатлари характери асосида-А. тоталитар сиёсий тизим; В. авторитар сиёсий тизим; в) демократик сиёсий тизим.

3. Сиёсий маданият тури асосида ва сиёсий жараён қатнашчиларининг бажараётган сиёсий роли асосида (типология муаллифи D. Альмонд).

Сиёсий тизимларни кўплаб бошқача, жумладан, янада мураккаброқ таснифлари ҳам мавжуд. Улардан кенг тарқалгани сиёсий тизимларни тоталитар, авторитар, либерал ва демократик типларга бўлишдир. Энг умумий ва тоталитар сиёсий тизимлар учун жамиятнинг ва шахснинг ҳокимиятга тўлиқ бўйсундирилиши, давлат томонидан фуқаролар устидан умумий назорат характерлидир. Авторитаризм бир шахс ёки шахслар гуруҳининг сиёсатдан ташқари соҳаларда шахс ва жамият мухторияти сақланган ҳолда фуқаролар устидан чекланмаган ҳокимиятга эгалиги билан фарқланади. Ва ниҳоят, демократик жамиятнинг ҳокимият устидан назорати билан ҳарактерланади.

Siyosiy tizimning xilma-xil turlari haqida gapirish mumkin. Albatta siyosiy hayotni tashkil etish usullari o`rtasida farq bo`lganidek siyosiy tizimni turlari ham xilma-xil bo`ladi. Boshqaruv usulidagi xokimlikka va siyosiy qarama-qarshiliklarni hal etishga qarab ularni quyidagilarga bo`lish mumkin.

- hukmronlik, majburlash, kuch ishlitishga yo`naltirilgan boshqaruv.
- musobaqali, turli siyosiy va ijtimoiy kuchlarning qarama-qarshi turishi va qarshilik ko`rsatish uchun asos bo`lgan etakchilikning mavjudligi.
- sotsial murasasozlik, sotsial kelishuv va ihtiloflarni bartaraf etishga yo`naltirilgan.
- ibtidoiy (rollarning va patriarhal madaniyatning eng kam darajalash).
- an'anaviy (yuqori bo`lmagan xukumatli tabaqalash va feodal davlatlariga xos sust fuqarolik madaniyati).

zamonaviy (davlat infra tuzilmasi va nodavlat institutlarning hamda siyosatda qatnashuvning tabaqalashtirilganligi).

Siyosiy tizimning barcha bo`laklari o`rtasidagi munosabat tufayli jamiyatda ma'lum siyosiy tartib shakllanadi. Idora etish shakllari *demokratik, monarxiya, avtoritar va totalitar* bo`lishi mumkin. **Demokratik tartibot –** bu eng progressiv siyosiy tartib, chunki u shaxsning o`z faoliyatini hamma sohalarda to`la erkinligi ta'minlangan. Hozir demokratik tartibot dunyoning ko`pchilik mamlakatlarida

amal qiladi. Biz bu haqda keyingi ma’ruzalarimizda suhbatlashamiz. Shu tufayli uning xarakterli alomatlarini aytib o`tamiz xolos. Davlat hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi sud hokimiyatlariga bo`linishi; fuqarolarning keng miqyosli huquq va erkinliklarga ega bo`lishi, ularni himoya etilganligi va kafolatlanganligi; davlatlashtirilmagan ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar faoliyatining davlat bilan teng huquqli raqobatchi ekanligi; siyosiy fikrlar xilma-xilligi, oshkoralik, siyosiy qarorlarni qabul qilishda shaxsga keng imkoniyatlar yaratilganligi va h.k.

Avtoritar tartibot – u yoki bu shaxsning yakka hokimligiga asoslangan. Bunday tartibot sharoitida ijro etuvchi hokimiyat cheklanmagan hukmronlikka ega. Parlament mavjud bo`lsa ham uning asosiy ko`pchiligi saylanmaydi balki tayinlanadi. Davlat hokimiyatining xalqali sohalarini o`z qo`lida jamlagan davlat boshlig’i sharoitida u maslahat ovoziga ega bo`lgan muassasaga aylanadi. Davlat faoliyatining asosiy metodi ma’muriy va buyruqbozlikka asoslanadi. Shaxs mustaqil fikrlash va faoliyat ko`rsatishdan yiroqlashtiriladi.

Totalitarizm – o`ta reaktsion tartibot turlaridan biridir. U zo`rlikka asoslangan hukmron siyosiy saylangan guruhning, shaxsning (fyurer va h.k.) hokimiyati hisoblanadi. Bu tartibotning asosiy alomatlari: demokratik tashkilotlarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari poymol etilgan bo`ladi; ta’qib etish va jazo, ijtimoiy hayotni xarbiylashtirish; umumbashariy mafkuraning yagonaligi.

Totalitarizm sharoitida shaxs hukmron guruhga tamomila bo`ysundirilgan bo`ladi.

Jamiyat siyosiy tizimini to`liq tasavvur etish boshqa jihatlarni hisobga olishni ham nazarda tutadi.

Dunyoda hali birorta siyosiy tizim ijtimoiy bo`shliqda, sinflar va boshqa ijtimoiy guruhlar manfaatlaridan ajralgan holda yashagan emas. Axir, siyosiy tizimning yuzaga kelishi chuqur ijtimoiy sabablar bilan izohlanadi va avvalo sinflar manfaatlarini himoya etish zururatidan kelib chiqadi.

Har qanday siyosiy tizim va uning tarkibiga kirgan bo`lak ijtimoiy mazmunni kasb etib, ma’lum ijtimoiy manfaatlarini aks ettiradi. Uning mohiyati ana shunda.

Siyosiy tizimning mohiyati uning printsiplarida namoyon bo`ladi. Umumlashgan holda u quyidagilardan iborat: siyosiy tizim, uning yashashining iqtisodiy shart-sharoitlari, sotsial va milliy tuzilishi, demografik va ekologik jarayonlar, aholining ma’lumotlilik darajasi, ijtimoiy ongning holati, jamiyat ma’naviy-mafkuraviy hayoti, xalqaro ahvol kabilarni o`z ichiga olib jamiyatning holatini aks ettiradi.

Siyosiy tizim orqali ijtimoiy manfaatlarning asosiy guruhi aniqlanadi va jamlanadi, ijtimoiy ustivor tomonlari sarflanadi, ular keyin siyosatda mustahkamlanadi. Masalan: hozirgi sharoitda bizning jamiyatimizda siyosiy hokimiyat tuzilmasi uchun eng murakkab vazifalardan biri bozor munosabatlariga o`tish sharoitida turli ijtimoiy manfaatlar muvozanatini topishdan iborat.

Shunday qilib, biz siyosiy sistemaning bo`laklarini ko`rib chiqdik, ularning o`zaro aloqasi tufayli siyosiy tartibot qaror topadi va siyosiy hokimiyatning to`la qonli mehanizmi yuzaga keladi.

Demokratiyaning xalqaro miqyosida e’tirof etilgan tamoyillari. Demokratiya

xususiyatlari har bir mamlakatda o`ziga xos tarzda o`zgarib turadi. Biroq demokratiyaning quyidagi asosiy xususiyatlari barcha demokratik davlatlar uchun bir xildir.

1. Erkin saylovlar. Xalqqa o`z liderlarini tanlash huquqini hamda liderlar va xalqqa o`z fikrlarini bahsli masalalarda erkin bildirish huquqini beradi. Saylovlar saylangan shaxslar chindan ham xalqning vakillari ekanligiga ishontirish uchun vaqti-vaqti bilan o`tkazib turadi. Saylanish imkoniyati bunday vakillarni xalq fikr-irodasiga e'tibor berishlarini kafolatlash uchun ko`mak bo`ladi. Ko`plab demokratik davlatlarda, ovoz berish uchun yoki saylanish uchun qo`yiladigan qonuniy talabnomalar fuqarolarning yoshi, yashash joyi va fuqarolarga e'tiborni qaratdi. Demokratik jarayon fuqarolarga hech qanday tayziqsiz yoki porasiz, erkin tarzda yashirin ovoz berish yo`li orqali ovoz berishga imkon yaratadi. Bu ham saylov natijalarini adolatsizlikka qarshi himoya qilishini talab qiladi.

2. Siyosiy partiyalar. Demokratik hokimiyatning eng muhim qismi hisoblanadi. Raqobatchi partiyalar saylovlarni ta'sirli va g'oyatda qiziqarli qilib o`tkazadilar. Ular bunga saylovchilarga turli xil g'oya va dunyoqarashlarga ega nomzodlar orasidan keraklisini tanlab olishlariga imkon yaratish orqali erishadilar. AQSh va Buyuk Britaniya asosan ikki partiyali tizimga ega. Ko`plab demokratik davlatlar ikkita asosiy partiyadan ko`proq partiyaga ega bo`lgan multi-partiyali tizimga egadirlar. Odatda, bunday davlatlarda biror-bir partiya qonun chiqaruvchi kengashda ko`pchilikni tashkil etmaydi. Natijada, ikki yoki undan ortiq partiyalar shunday ko`pchilikni tashkil etish uchun birlashishga majbur bo`ladilar. Koolitsion xukumat bunday partiyalar shakliga asoslanadi. Demokratik mamlakatlarda, xukumatga bo`ysunmaydigan, ya'ni uning doirasidan tashqarida bo`lgan partiya yoki partiyalar "Sobit muxolifat" sifatida harakatlanadi. Sobit muxolifat xukumatdagi partiya siyosati va harakatlarini tanqid qiladi. Turli xil diktaturalarda, xukumatdagi partiyani tanqid qilish xoinlik deb baholanadi va faqatgina xukumat partiyasiga faoliyat ko`rsatishga ruxsat etiladi. Bunda, kishilar nomzodlarni haqiqiy tanlab olish va davlat siyosatiga qarshi fikr yuritish huquqiga ega bo`la olmaydilar.

3. Davlatning nazorat etilishi. Demokratik davlatlar biror-bir shaxs yoki xukumatning biror-bir tarmog'ini juda kuchli bo`lib ketishini oldini oladigan turli xil tartibga solish ishlarini amalga oshiradi. Masalan, AQSh Konstitutsiyasi siyosiy xukumatni shtatlar va federal xukumat o`rtasida taqsimlagan. Hokimiyatning ma'lum qismi faqat shtatlarga, ma'lum qismi faqat federal xukumatga va ma'lum qismi ikkalasiga ham tegishlidir. Shuningdek, Konstitutsiya AQSh hukumatni Prezident, Kongress va federal sudlar har birini hokimiyati bir-birlarining hokimiyatini tekshirish va muvozanatlash uchun mo`ljallangandir.

Barcha demokratik davlatlarda, xukumat amaldorlari qonunga bo`ysunadilar va xalq oldida mas'ul shaxs hisoblanadilar. Amaldorlar noqonuniy xatti-harakatlari yoki boshqa bir qator sabablar tufayli ishdan bo`shatiladilar.

4. Konstitutsion xukumat. Demokratik xukumat qonunga va ayniqsa yozma xujjat-konstitutsiyaga asoslanadi. Konstitutsiyalar xukumatning vakolati va majburiyatlarini ta'kidlaydi. Shuningdek, ular qonunlar qanday tayyorlanish va hayotga tadbiq etilishini ham o`zida aks ettiradi. Aksariyat konstitutsiyalar

xalqning ozodligini o`zida aks ettirgan va xukumatni fuqarolar huquqlarini buzishga yo`l qo`ymaslikni o`zida aks ettirgan batafsil yozilgan huquqlardan iboratdir.

Konstitutsiyalar o`zida yozilmagan rasmiy marosimlarni ham aks ettiraverishi kerak. Chunki, bunday rasmiy marosimlar yozilgan qonunlarga qaraganda mavjud favqulodda holatlarga tezda moslasha oladi. Britaniyada biror-bir "konstitutsiya" deb atalishi yozilgan xujjat mavjud emas. Bu mamlakatda, aniq konventsiyalar, asosiy xujjatlar va ko`plab qonunlar "tizimning asosiy qoidalari"ga kiritiladi va foydalaniladi xolos.

Demokratik xukumatning eng muhim xususiyati – bu mustaqil sud tizimidir. Bu xaqqoniyat tizimi bo`lib, u xukumat tomonidan ishlab chiqilgan qonunlarni fuqarolar huquqlari bilan yaxlitligini tekshirish bilan shug'ullanadi.

Ba'zi holllarda, diktaturalar juda puxta ishlab chiqilgan konstitutsiyalarni va fuqarolarning asosiy huquqlari ko`rsatilgan xujjatlarni tayyorlaydilar. Masalan, 1977 yillarda tuzilgan Sovet Ittifoqning konstitutsiyasida fuqarolarning huquqlari aniq va qat'iy belgilab qo`yilgan.

5. Xususiy tashkilotlar. Demokratik davlatlarda, individual va xususiy tashkilotlar mustaqil ish yuritishga harakat qiladilar. Masalan, ro`znoma va oynomalar xususiy tarzda boshqariladi. Davlat maktablari bilan xususiy maktablar ham faoliyat ko`rsatadi. Ko`plab korxonalar xususiy tarzda boshqariladi. Britaniya, Shvetsiya va boshqa ko`plab davlatlarda (ya'ni demokratik davlatlarda) sanoat va xizmat ko`rsatishni, ayrim tarmoqlariga davlatning o`zi egalik qiladi. Diktatorial davlatlarda esa xukumatini o`zi aksariyat uyushmalar va tashkilotlarni shakllantiradi va nazorat qiladi. Bu davlatlarda odamlar davlatning ruxsatisiz biror-bir tashkilotni bunyod ham eta olmaydilar, biror-bir guruhlarga birlasha ham olmaydilar.

Demokratiyaning zamonaviy kontseptsiyalari (liberal, jamoaviy, plebistsitar, elitar, partitsipatsion). Илмий адабиётларда демократиянинг 3 асосий замонавий модели мавжуд: либерал, идентитар, плюралистик.

1. Мумтоз либерал демократия модели: икки муҳим соҳани: давлат ва фуқаролик жамиятини бир-биридан ажратади (XIX–XX аср бошларида). Белгилари: 1) ҳокимият манбаи бўлган халқ қаторига мулкдор эркакларгина (қуйи табақа, аёлларсиз) киритилган. 2) Индивидуаллик, шахсни ҳокимиятнинг бирламчи ва бош манбаи, деб билиши кўзга ташланади.

2. Идентитар демократия модели: уни коллективчилик демократияси ҳам дейишади. Белгиси: халқ, миллат, синф яхлитлигидан келиб чиқади. Умумий белгилари: 1) халқни коллективистик талқин этиш; 2) халқ ичида қарама-қарши кучларнинг йўқлиги; 3) эркинликнинг коллективистик, давлат ва жамият ичида фаоллиги; 4) тоталитар табиатга эгалиги; 5) даврнинг таркибий қисмлари тенглиги; 6) умумий сиёсий сафарбарлик; 7) сиёсий ҳуқуқларни юридик жиҳатдан эътироф этиш ва ҳ.к. Идентитар демократия модели **(**уни коллективчилик демократияси ҳам дейишади) халқ, миллат, синф яхлитлигидан келиб чиқади. Умумий белгилари: 1) халқни бирлик сифатида талқин этилиши; 2) халқ орасида қарама-қарши кучларнинг йўқлиги; 3) эркинликнинг давлат ва жамият ҳаётида фаоллиги; 4) тоталитар

табиатга эгалиги; 5) давр таркибий қисмларининг тенглиги; 6) умумий сиёсий сафарбарлик; 7) сиёсий ҳуқуқларни юридик жиҳатдан эътироф этилиши ва ҳ.к.

Идентитар демократия назариясининг энг йирик намоёндалари Руссо, Маркс, Карл Шмитт, Ленин бўлганлар. Бу демократиянинг энг муҳим хусусиятлари ва принцпларини биринчи бўлиб Жан-Жак Руссо (1712-1778) асослаб берган.[1]

Турли хил жамоавий демократия назариялари орасида муҳим тафовутлар бўлишига қарамасдан, уларнинг қуйидаги умумий жиҳатлари ҳам мавжуд: уларни В.П. Пугачев, А.И. Соловьевларнинг "Сиёсатшуносликка кириш" қўлланмасининг 222-227-бетларидан аниқлаб дафтарингизга ёзиб олинг.

3. Плюралистик демократия модели. ғарб демократияси либерал сиёсий тизимидан ўсиб чиққан. Уларга конституционализм, ҳокимиятлар бўлиниши ва ҳоказолар киради. Буни замонавий демократия модели ҳам дейилади.

Замонавий демократия – хилма-хил ижтимоий гуруҳларга ўз манфаатларини баён этиш ва рақобатли курашда уларнинг мувозанатини акс эттирувчи, муроса-мадорага асосланган бошқарув шаклидир. Бу таълимотнинг энг йирик номояндалари – D. Ласки, D. Труман, Е. Фраэнкель, Р. Даль ҳисобланади.

Агар плюралистик демократиянинг таълимотларини умумлаштирадиган бўлсақ, уларнинг барчасига хос бўлган энг муҳим умумий ғояларни Э. Ғойибназаровнинг «Демократия нима?» ўқув қўлланмасининг 32-34-бетларидан ажратиб олинг ва семинар машғулотида муҳокама қилинг, ҳамда Политология ТДЮИ нашриёти 2006. Ўқув қўлланманинг 62-64 бетларида кўрсатилган плюралистик демократия назарияси ва амалиётида ҳам салбий жиҳатлар бўлишини аниқлаб олинD.

Юқорида асосан плюралистик демократиянинг ижобий жиҳатларини кўриб чиқдингиз. Ҳеч нарса мукаммал бўлмаганидек, плюралистик демократиянинг назарияси ва амалиётида ҳам қусурли жиҳатлар бўлиши табиий.

4. Репрезентатив демократия – ҳалқ олдида масъул, малакали ваколатли бошқарув ғоясига асосланган.

5. Партиципаторлик демократияси – бошқарувда интеллектуал потенциалга асосланади.

6. Демократия ва шарқ. Шарқ демократиясининг ўзига хослиги. Жамоа.

7. Марксистик конценция (қулдорлик, буржуа, социалистик демократия).

8. Плебисцитар концепция (умумхалқ фикри, референдум йўли билан).

9. Элитар демократик концепцияси.

O`zbekistonda demokratlashuv va uning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy negizlari. Ўзбекистон демократиянинг қайси йўналишларидан бормоқда?

[1] Ғойибназаров Э. Демократия нима? Тошкент.: 2005, 26-бет.

1. Биринчидан, шарқона демократик йўлдан. Демократик жамиятни барпо этишнинг халқаро тамойиллари, дунё ҳамжамияти эътироф этган қоидалари бор. Булар: 1) фуқаронинг ўз хоҳиш-иродасини эркин ифодалаш ҳуқуқига эгалиги; 2) озчиликнинг кўпчиликка бўйсуниши; 3) барча фуқароларнинг миллати, элати, ижтимоий келиб чиқиши ва диний эътиқодидан қатъий назар, тенг ҳуқуқлилиги; 4) давлат ва жамият бошқарувида қонун устуворлиги; 5) сайлов ва сайланиш ҳуқуқи ва бошқалардир. Булар қарийб барча мамлакатлар Конституцияларида белгилаб қўйилган тартиб-қоидалардир. Бироқ, демократияни жорий этишда буларнинг ўзи кифоя қилмайди. Фақат шунинг ўзи аҳоли барча эҳтиёжларини, маънавий-руҳий оламини қамраб ололмайди. Чунки ҳар бир халқнинг ўз турмуш ва тафаккур тарзи, тарихий анъаналари, ҳаётга муносабати ва бошқа жиҳатлари мавжуд. Демак, демократияга ёндашиш усули бор. Президентимиз: «Шарқда демократик жараёнларнинг қадимдан шаклланган ўзига хос ва ўзига мос хусусиятлари бор. Буни асло назардан қочириб бўлмайди. Яъни, Шарқда демократик жараёнлар узвий равишда ва аста-секин тараққий топади. Бу соҳада инқилобий ўзгаришлар ясашга уринишлар ғоят нохуш, ҳатто фожиали натижаларга олиб келади. Инқилобни ғарб олимлари ҳам «ижтимоий тараққиётнинг ибтидоий ва ёввойи шакли» деб атаганлар. Табиийки, бундай йўл бизга асло тўғри келмайди», деганида демократияни жорий этишнинг юртимизда ўзбекона тамойиллари шаклланаётганини кўрсатади.

2. Иккинчидан, демократик жараёнларни четдан нусха олиб кўр-кўрона кўчириш эмас, балки табиий, тадрижий ўсишини таъминлаш. Бу дегани Ўзбекистон мустақилликка чиққанидан кейин бир қатор мамлакатлар, жумладан, Туркия, Германия, Англия, Франция ва бошқа мамлакатларнинг демократик тараққиёт йўллари билан танишди, уларда биз учун ибратли ва ўрганишга арзийдиган жиҳатлари бор. Бироқ Ўзбекистон Президенти бу масалага ўз муносабатини билдирди. «Ҳар бир миллат ўз миллий руҳиятидан келиб чиқиб бу масалага ёндашиши зарур... Одамларнинг тафаккури ва ижтимоий савияси билан демократик ўзгаришлар даражаси ва суръатлари бир-бирига қанчалик мутаносиб бўлишига боғлиқ. Тарихий тажрибанинг кўрсатишича, демократик жараёнларни четдан нусха олиб кўр-кўрона нусха кўчириш асло самара бермайди. Аксинча, бундай йўл чалкаш ва хатарли оқибатларга олиб келиши мумкин», таъкидлайди Юртбошимиз Ислом Каримов.

3. Учинчидан, мамлакат туб аҳолисининг (жамоатчилик) руҳиятини ҳисобга олиш лозим бўлади. Ёки ҳурриятга муносабати ҳам бошқалардан андоза олиш, мамлакат туб аҳолиси руҳиятини ҳисобга олмаслик раҳбарни ҳам, аҳолини ҳам, бутун мамлакатни ҳам боши берк кўчага киритиб қўяди. Ғарб демократиясини Шарқ мамлакатларида кўр-кўрона жорий этиш мумкин эмас. Бунинг аччиқ натижалари 1991-1996 йилларда Тожикистон мисолида яққол намоён бўлди.

4. Тўртинчидан, жамиятнинг маънавий қиёфасига боғлиқ, умумий маданий савияси, сиёсий ва ижтимоий фаоллиги, бебаҳо мулк бўлган

олий қадриятларига боғлиқ.[27] Одатда якка-якка шахсларнинг руҳий кечинмалари, хатти-ҳаракатлари ва феъл-атворларидан умумжамият кайфияти, унинг маънавий қиёфаси шаклланади. Умумхалқ манфаатларини ҳисобга олиш, унга таянсагина қадриятга айланади, қадриятлар эса – бебаҳо мулк, уларни халқ яратади, халқ баҳолайди, ўзи асраб авайлайди. Демократия худди ана шундай буюк неъмат.

4. Hozirgi O`zbekiston siyosiy tizimining modernizatsiya qilinishi va uning o`ziga xos xususiyatlari.

Mustaqil O`zbekiston Respublikasining Prezidenti I.Karimov o`zining "O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li" asarida uqtirib o`tganidek 1991 yil 31 avgustda yurtimiz mustaqil davlat deb e'lon qilindi.

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining yangi konstitutsiyasi yangi mustaqil davlat hokimiyatining amaliyoti huquqiy-qonuniy asoslarini o`zida mujassamlashtirdi.

Milliy davlat mustaqilligi e'lon qilingandan o`tgan vaqt ichida o`zbek milliy davlatchiligining shakllanib qaror topish jarayonlari tez samarali sodir bo`lib bormoqda.

Davlat hokimiyati tizimlarini yangilab ishga solish, bosqichma-bosqich eski ma'muriy buyruqbozlik davlat hokimiyati tizimlarini xalq hokimiyatchiligi, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o`tish jarayonlari bilan xamoxang tarzda qayta qurib, zamonaviy, davr talablariga, mustaqil siyosiy faoliyat olib borish va mustaqil siyosat yuritish aqidalariga javob bera oladigan, yangi davlat hokimiyati tizimlari – siyosiy boshqaruv muassasalari va idoralari yaratila boshlandi.

Konstitutsiyada aks ettirilganidek, O`zbekiston Prezidentlik Respublikasi ko`rinishidagi davlat hokimiyati tizimiga ega bo`ldi. Unda Prezident davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi shaxobchasi – Oliy Majlis tomonidan tayinlanmay, balki umumiy teng, yashirin ovoz berish yo`li bilan saylab qo`yilishi belgilandi. Shuning uchun ham O`zbekiston davlat hokimiyati tizimini kuchli prezidentlik respublikasi turiga mansub deb ta'riflanadi. Zero unda Prezident Oliy Majlisdan mustaqil maqomga ega bo`lib, ham davlat boshlig'i, ham ijro etuvchi xukumat rahbari lavozimlari faoliyatini birlashtirib turadi.

Yangi qonun chiqaruvchi davlat hokimiyati Oliy Majlis tarkibiga yangi Konstitutsiya asosida o`tkazilgan demokratik saylovlar birinchi bor ko`ppartiyaviylik asosida o`tkazildi. Bu O`zbekistonda demokratik huquqiy davlat hokimiyatini vujudga keltirish yo`lida siyosiy faoliyatning eng salmoqli, eng ahamiyatli natijasi bo`ldi, chunki parlament faoliyati vositasida tubdan yangilangan davlat hokimiyati tarmoqlarini siyosiy boshqarish tamoyillari va yo`nalishlarini qonuniy-huquqiy asarlarda belgilab berish mumkin bo`ldi.

Demokratik davlatlarda qaror topgan va muvaffaqiyatli amal qilib kelayotgan demokratik huquqiy davlat tizimlari ikki asosiy jihati bilan belgilanadi: **1)** Jamiyat hayotining barcha jabxalarida qonun ustivorligi, qonun oldida barcha fuqarolarning istesnosiz tarzda teng barobar mas'ulligidir; **2)** Davlat hokimiyatining uch asosiy

[27] Жўраев Н. Тарих фалсафаси. Т.: «Маонавият», 1999, 133–174-бетлар.

shaxobchalari qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlari bir-biriga qaram bo`lib qolmagan, mustaqil amal qilishidir.

Hozir O`zbekiston jamiyatida mavjud bo`lib, hayotda amal qilayotgan siyosiy tizim tarkibiga shunday yangi mohiyatli va yuksak sifatli qism-bo`laklar kirib borayotganligi, endi ularning omilkor va samarador faoliyat olib borishlari uchun zarur bo`lgan ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarning yaratilishini taqazo etmoqda. Bundan asosiy maqsad, butunlay, tubdan yangilangan, mustaqil O`zbekiston Respublikasining muvaffaqiyatli taraqqiyotini, to`la mustahkamligini, yuksak darajada ravnaq topib, gullab-yashnashini ta'minlay oladigan siyosiy tizimni vujudga keltirib, samarali amal qilishiga erishishdir.

O`zbekiston Respublikasi siyosiy tizimining mohiyati – xalq hokimiyatchiligining amalga oshirilish, hokimiyatning xalq manfaatlariga bo`ysundirilganligi bilan bevosita bog'liqdir. Zero, uning ijtimoiy bazasini xalq tashkil etadi. Mamlakatimiz siyosiy tizimining maqsadi O`zbekistonda adolatli fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish; demokratik huquqiy davlatchilikni barpo etish; ijtimoiy siyosiy barqarorlikni, millatlar o`rtasidagi totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashdan iborat. O`zbekiston Respublikasining siyosiy tizimi quyidagi vazifalarni bajaradi: O`zbekistonda davlat mustaqilligini mustahkamlash; mamlakatdagi siyosiy kuchlarni yuqoridagi maqsadlar yo`lida birlashtirish; jamiyatga siyosiy rahbarlikni amalga oshirish; unda demokratik printsiplarni qaror toptirish; bozor iqtisodiyoti munosabatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish; milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish va shu asosda yangi avlodni – komil insonni tarbiyalash.

O`zbekiston Respublikasi siyosiy tizimiga, birinchidan, siyosiy, iqtisodiy va g'oyaviy manfaatlarning birligi; xalqni huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga safarbar qilish; ikkinchidan, o`zbek xalqining milliy, ma'naviy va madaniy qadriyatlari, tarixiy merosi bilan zamonaviy demokratik qadriyatlar va printsiplarni hamoxang birlashtirish va shu yo`l bilan rivojlanishining ma'rifiy darajasiga erishish kabi xususiyatlar xosdir.

Mamlakatimizdagi siyosiy tizim o`z faoliyatida davlat suvereniteti, inson huquqlarining ta'minlanishi, konstitutsiya va qonunlarning ustunligi, xalq manfaatlarining birinchi o`ringa qo`yilish, ijtimoiy adolat va demokratiya talablariga qat'iy rioya etish, hokimiyatlar taqsimlanish printsipiga rioya etish, xurfikrlilik va ko`ppartiyaviylik, oshkoralik va boshqa asosiy konstitutsiyaviy printsiplarga tayanadi.

4-Mavzu: Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari.

Reja :

1. Siyosiy institutlar tushunchasi va turlari.
2. Davlat – bosh siyosiy institut.
3. Fuqarolik jamiyati va uning institutlari.
4. Siyosiy partiyalar va harakatlar

1. Siyosiy institutlar tushunchasi va turlari.

“Siyosiy institutlar” tushunchasi.

Jamiyatimiz siyosiy xayotidagi jamiyat manfaatlari va turli guruh qatlamlar o’rtasidagi muvozanatini siyosiy partiyalar ta’minlaydi.

Siyosiy partiyalar avvalo jamiyat a’zolarining siyosiy qarashlarini ifoda etuvchi tashkilot bo’lib, jamiyat siyosiy xayotidagi o’zgarishlarni va uning asosida sodir bo’ladigan ijtimoiy xarakatlarni madaniy va ma’rifiy yo’nalishlarda olib borish uchun uYushgan siyosiy institut hisoblanadi. Partiyalar faoliyati darajasi jamiyat a’zolarining ma’rifiy-madaniy salohiyati va intilishlari bilan ham belgilanadi.

Demokratik jamiyatda siyosiy partiyalar mamlakat Konstitutsiyasi, jamoat tashkilotlari to’g’risidagi qonunlar ruhi va talablari asosida shakllanadigan qarashlar va fikrlar xilma-xilligini amalda ro’yobga chiqaradigan nodavlat tashkilotdir.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56, 57, 60 moddalari siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari faoliyatiga bag’ishlangan.

Jumladan, 56-moddada «O’zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro’yxatdan o’tkazilgan kasaba uYushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar, yoshlar tashkilotlari, ijodiy uYushmalar, ommaviy xarakatlar va fuqarolarning boshqa uYushmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi» deyilgan. Faqatgina istiqlol tufayligina siyosiy partiyalar erkin faoliyat ko’rsatish imkoniyatiga ega bo’ldi.

Demokratik jarayonlarning chuqurlashuvida siyosiy partiyalar muhim o’rin tutadi. Shuning uchun siyosiy partiyalarning jamiyat hayotida yanada faolroq ishtirokini ta’minlash tadbirlari kengayib boraveradi. Siyosiy partiyalar jamiyatning eng faol qismi hisoblanib, siyosiy hayotga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Siyosiy partiya jamiyatni demokratiyalashish jarayonlarida xalqning ishtirokini ta’minlaydi.siyosiy harakatga keltiradi. Turli siyosiy partiyalar, harakatlar bilan siyosiy guruhlar faoliyatini umumdavlat manfaatlari darajasida jipslashtirish ularning manfaatlarini ifodalash orqali xavfsizlik, barqarorlik va tanlangan siyosiy yo’ldan og’ishmaslikda ma’sul hisoblanadilar Bundan taqari, siyosiy partiyalar dunyo taraqqiyotidagi demokratik jarayonlar, huquq va erkinliklarni himoya qilishadi, ularga teng imkoniyatlar yaratadi va uni qo’llab-quvvatlaydi. Siyosiy partiyalar, demokratik jamiyat qupishning muhim instityti sifatida siyosiy xayotga muvofiq o’z faoliyatlarini takomillashtirmasdan ma’rifiy – demokratik jamiyat qurishga erisha olmaydi. Buni demokratik rivojlangan davlatlar tajribasidan ko’rish mumkin.

Mamlakatimizda siyosiy partiyalar faoliyatini takomillashtirish demokratiyaning yangi boskichiga o’tish davrida mamlakat siyosiy hayotini erkinlashtirishda yangi strategik va taktik vazifalar bilan bog’liq. Fuqarolar siyosiy. partiyalar orqali saylov tizimida bevosita. va bilvosita siyosiy xayotda ishtirok etish imkoniyatlariga ega. Albatta, ko’p qirrali ijtimoiy jarayonlarda jamiyatning ma’lum guruhlari manfaatlarini ifoda qilish uchun, xar qanday yo’l bilan bo’lsa-da, hokimiyatga ega bo’lish ilinjida partiyalar paydo bo’lishi ham mumkin. Siyosiy hayot tajribasi shuni ko’rsatayaptiki, barqaror demokratik jarayonlarda bunday partiyalar oqibat natijada xalq ishonchini oqlay olmay siyosiy sahnadan chiqib

ketadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, bygun har bir partiya avvalo, ko’ppartiyaviylik sharoitida faoliyat ko’rsatayotganligi, bu ular o’rtasida mamlakat siyosiy-ijtimoiy hayotiga daxldor bo’lgan munosabatlarda, maksad va takgik vazifalarni belgilashda hamda hayotga tadbiq etishda o’zaro sog’lom raqobat muhiti bo’lishini hisobga olish zarur. Siyosiy jarayonlarda k,aysi siyosiy partiya o’zining aniq dasturlariga ega bo’lsa, ularni xalq orasida targ’ib-tashviq etish fuqarolarning erkinliklarini, haq - huquqlarini, manfaatlarini ximoya qilish orqali ularning ishonchini qozonib, o’z atrofida ko’prok jipslashtirish, ularni mamlakat oldida turgan ulyg’ maqsadlarni amalga oshirishga safarbar eta olishi mumkin. Tanlanayotgan taktik usullarning xilma-xiligi insonlarda tanlash imkoniyatini beradi va o’z hohish-irodalarini erkin ifodalydi. Siyosiy partiyalar o’rtasida o’zaro raqobat qanchalik sog’lom va ma’rifiy bo’lsa, u shunchalik jamiyat taraqqiyotiga o’zining ijobiy samarasini beradi. SHunda siyosiy partiyalar to’g’pisidagi mavjud qarashlar o’zgaradi va fuqarolarda ko’ppartiyaviylikni jamiyatdagi beqarorlik, siyosiy ixtiloflar hamda o’zaro kelishmovchiliklarning manbai sifatida emas, balki demokratik, adolatli, fuqarolik jamiyati qurilishining muxim sharti sifatida qarash qaror topib boradi.

Siyosiy institutlarning turlari. Siyosiy hokimiyatda tashkilotlar 3 xil bo`ladi:

1) Asosiy siyosiy tashkilotlar (parlament, davlat va uning organlari, siyosiy partiyalar) siyosiy hokimiyatni bevosita amalga oshiradi, hokimiyat uchun kurash bosh maqsad bo`ladi.

2) Asosiy bo`lmagan siyosiy tashkilotlarga: kasaba uyushmalari, kooperatsiya, yoshlar tashkilotlari, ijtimoiy hayotning o`zaro ta’sirida odamlar munosabati, xarakatini ko`rsatish mumkin.

3) Siyosiy bo`lmagan tashkilotlar (teatr, sport, DOSAF va h.k.) siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda qatnashmaydi. Biroq keyingi vaqtlarda jamoatchilik birlashmalari ham ma’lum darajada siyosatlashib bormoqda. Ayniqsa sport va h.k.

2. Davlat – bosh siyosiy institut.

Davlat - ijtimoiy hodisa bo`lib, jamiyatning harakatlanishida muhim rol o`ynovchi alohida bir tashkilotdir. U har qandayo jamiyat siyosiy tizimining bir qismi (elementi), hokimiyatni amalga oshiruvchi vositadir. Uning faoliyati jamiyatning hamma sohasiga ta’sir qiladi. U vakolatni xalqdan olami va o`ziga tegishli vakolatni o`zining maxsus tuzilmalari - davlat organlari orqali amalga oshiradi. Davlat xalq manfaatini ko`zlasa, unga ijtimoiy hayotda, davlat ishlarida, xo`jalik yuritishda erkinlik bersa, tinchlik siyosati yurgizsa, davlat demokratik hisoblanadi va taraqqiyotga sabab bo`ladi. Aksincha, xalqning erkinligini cheklasa, taraqqiyotga to`sqinlik qilsa, zo`rovonlik bilan ish olib borsa - reaktsion davlat hisoblanadi. «Davlat» so`zi ko`pincha «mamlakat» so`zi o`rnida ham ishlatiladi. Masalan, ayrim hollarda «mamlakatimiz» degan so`z o`rnida «davlatimiz» degan so`zlarni uchratishimiz mumkin. Davlatning ko`rsatmasi jamiyatning hamma a’zolari - fuqarolar. Fuqaroligi bo`lmagan shaxslar, chet fuqarolari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlari, jamoat birlashmalari uchun majburiydir. Davlat

qonun yaratadi va o`zi ham qonunlarga bo`ysunadi.[21]

Davlatning mohiyatini tushunishda 3 asosiy nazariy yondashuv mavjud: ijtimoiy, sinfiy va siyosiy-huquqiy.

Davlat mohiyatini tushunishdagi 1-yondashuvga ko`ra, davlat - umumiy muammolar va ishlarni hal etish vositasi, u hukmdorlar va xalqning o`zaro munosabatini tartibga soladi. 2-yondashuvning mohiyati shundaki, davlat sinflarning paydo bo`lishi bilan yuzaga kelgan va sinfiy kurash bir sinfning boshqasini bostirish quroli bo`lib xizmat qiladi. 3-yondashuvning asosi: ko`yidagicha: davlat jamiyatning va davlatning o`zining hayotini tashkil etuvchi huquq manbaidir.[22] Albatta uchala yondashuvda ham muayyan asos bor. Yangilishuv bir nazariy qarash boshqalaridan ustun qo`yilib, mutlaqlashtirganda boshlanadi. Demak.

Davlat - suverenitetga, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning mahsus apparatiga ega bo`lgan, shuningdek, huquq normalari ( qoidalari)ni yaratishga qodir bo`lgan ommaviy hokimiyatning siyosiy-xududiy tashkilotidir.

Davlat - butun mamlakat mikyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo`lgan, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo`lgan yagona siyosiy tashkilotdir.

Davlat - jamiyat siyosiy tizimning odamlar, guruhlar, sinf, tashkilot, shamkorlikdagi faoliyatini va o`zaro munosabatini tashkil etuvchi, yo`naltiruvchi va nazorat qiluvchi asosiy institutdir.

Davlat - hokimiyatning bosh instituti. Hokimiyat davlat orqali o`z siyosatini amalga oshiradi. «Hokimiyat», «davlat» va «siyosat» tushunchalari bir-biriga juda yaqin bo`lib, bir-birlarini belgilab beradi.

***Jamiyat siyosiy tizimida davlatning o`rni.*** Davlat jamiyat siyosiy tizimida markaziy o`rinni egallaydi. Negaki, u hokimiyatni o`ziga eng ko`p mujassamlashtirgan siyosiy tashkilot bo`lib, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni echishning eng ko`p imkoniyatlariga ham egadir. Shu tufayli jamiyat siyosiy tizimini tashkil etuvchi boshqa institut va tashkilotlar ham aynan davlat atrofida birlashadilar.Davlat siyosiy tizim o’zagini tashkil etadi, qolgan boshqa tashkilotlar uning faoliyati bilan aloqador. Davlat ishontirish, majbur qilish va soliq yig’ish kabi mexanizmlarga ega. U bu sohada tanho huquqqa ega. Uning yana bir belgisi suverenlikdir.

Davlatning jamiyatni boshqarish faoliyati uning hokimiyatni amalga oshirishi orqali ifoda topadi. Shuning uchun ham davlat bilan davlat hokimiyat tushunchalari o`rtasida nazariya bilan amaliyot o`rtasidagiga o`xshagan farq bor deb aytish mumkin. Davlat hokimiyatining amaliy faoliyati dastur-rejalarda oldindan belgilangan, navbatma-navbat ishga solinadigan siyosiy mehanizmlar tizimini anglatadi. Mazkur ma’noda “davlat hokimiyati mehanizmi”, “davlat apparati”, “davlat mashinasi” va shu kabi atamalar, tushunchalar qo`llaniladi. Demak, davlat hokimiyati – bu davlatning amal qilish jarayonini yo`naltirib, uyg’unlashtirib turish faoliyatida namoyon bo`ladi va ifoda topadi.

[21] Qarang: Konstitutsiyaviy huquq. Izohli lug’at. T.: «Akademiya» 2001, 27-bet.
[22] Saidov A., Tadjixanov U. Davlat va huquq asoslari. T.: O’zR IIV Akademiyasi, 1999, 9-10-betlar.

Davlat jamiyatda amal qilayotgan hokimiyatning markaziy muassasasi sifatida mazkur hokimiyat tomonidan mujassamlashtirilgan, mushtaraklashtirilgan siyosatni amalga oshirish vositasi – quroli bo`lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham davlat, hokimiyat, siyosat ham naziriy, ham amaliy jihatlardan o`ziga xos mutanosiblik, birlik sifatida in'ikos etiladi. Aslida ular har birining aniq belgilangan amaliyot sohalari mavjud bo`lib, yagona ijtimoiy-siyosiy jarayonning turli tomonlarini turlicha ifoda topishi mazkur mutanosiblik doirasida amal qilishni ko`rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, davlat o`zining ichki va tashqi siyosat yuritish faoliyatini hokimiyat vositasida amalga oshiradi.

Davlat hokimiyatining tub mohiyatini anglab olish jarayonida unda mavjud bo`lgan mushtarak qonuniyatlarni ham, ijtimoy-guruhiy jihatlarini ham bazis-ustkurma mutanosibligini ham bo`rttirib yuborishdan saqlangan ma'qul, aks holda uning asl mohiyati mazmuniga etib bo`lmaydi.

Umuman davlat, xususan davlat hokimiyati haqidagi tushunchalar turli davlat-siyosiy sistemasi – jamiyat o`zaro mutanosiblik dinamikasining, amal qilish muammolarining ob'ektiv echishiga imkoniyat tug'diradi.

Davlat hokimiyatining amal qilish jarayonlari turli tarixiy davrlarda, turli shart-sharoitlarda, turli ijtimoiy-siyosiy makon doirasida, turli vositalik darajasida sodir bo`lishi o`z navbatida uning o`ziga xos turlari, ko`rinishlari, shakllarini ham keltirib chiqaradiki, Siyosatshunoslik uchun ular teran tahlil etilishi ham nazariy-ilmiy, ham dolzarb amaliy kasb etadi.

Davlat jamiyatining siyosiy tizimiga kiruvchi boshqa tashkilotlaridan bir qator o`ziga xos belgilari bilan farq qiladi. Davlatning belgilari haqida turli fikrlar mavjud. Bir qator politologlar, jumladan ***G.F.Shershenevich*** asarida davlatning asosiy belgilari sifatida aholining hududiy bo`linishi, ommaviy hokimiyat hamda soliqlar tizimining tashkil etilishini ko`rsatib o`tgan.

A) odamlarning birlashuvi;

B) ular ustidan hukmronlik qiluvchi hokimiyat;

V) shu hokimiyat ta'siri doirasidagi "hudud"ni sanab o`tgan.

Hozirgi kunda davlatning umumiy e'tirof etilgan quyidagi asosiy belgilarini ko`rsatish mumkin:

1. Davlat o`z davlat chegaralari doirasida fuqarolik belgisi bo`yicha birlashgan butun jamiyatning, butun aholining yagona vakili sifatida maydonga chiqadi;
2. O`ziga xos ommaviy hokimiyat – davlat hokimiyatining mavjudligi, ya'ni hokimiyat va boshqaruv apparatining, majburlash apparatining borligi;
3. Aholining hududlar bo`yicha uyushganligi (fuqarolarning davlat chegaralari doirasida, muayyan ma'muriy-hududiy birliklarda yashashi);
4. Davlat-suveren hokimiyatining yagona sohibidir;
5. Davlat yuridik kuchga ega bo`lgan va huquq normalarini aks ettiruvchi qonunlar va ularga asoslanib chiqariladigan xujjatlarni qabul qiladi;
6. Davlat-qonuniylik va huquq tartibot posboni bo`lishga maxsus da'vat etilgan huquqni muxofaza qilish (jazolash) organlari (sud, prokuratura, ichki ishlar organi va boshqalar)ga bo`lgan yagona tashkilot;

7. Faqat davlatgina o`z mudofaasi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va xavfsizligini ta’minlovchi qurolli kuchlar hamda xavfsizlik organlariga ega bo`la oladi.

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan birgalikda olingan davlat belgilarining jami jamiyat siyosiy tizimida davlatning alohida o`rni va etakchi rolini to`la izoxlaydi. Bunda albatta har bir tarixiy davrda, turlicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda davlatning bu belgilari ham ichki mazmuni, ham tashqi ko`rinishi bilan farq qilishini xisobga olish zarur.

Davlat shakli deganda, davlatdagi siyosiy hokimiyatni uyushtirishning uch asosiy belgilari tushiniladi. Bular:

Boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy idora usuli

Boshqaruv shakli – muayyan davlatda hokimiyatni uyushtirish usulining majmuidir. Bu ta’rifni yanada aniqlashtirsak, u oliy davlat hokimiyatini tashkil etish, ayni paytda davlatning oliy va markaziy idoralari, mazkur Qadimgi Yunon faylasufi Arastuning fikricha, “oliy hokimiyat yakka shaxs tomonidan amalga oshirilganda respublika, barcha xalq tomonidan amalga oshirilganda demokratiya bo`ladi”.[23]

Davlat boshqaruv jilovini o’z qo’liga olgandagina jamiyatda barqarorlik saqlanadi. Ayniqsa bu o’tish davrida juda muhimdir. Aks holda jamiyatda ichki kurash, mansab talashuv va siyosiy ixtilof kuchaydi.

Tarixdan ma’lumki, o’zbek xalqi davlat va saltanatni boshqarishda boy tajribaga ega bo’lgan, namuna bo’lgan. Xorazmshohlar, G’aznaviylar, Temuriylarning boshqarish usullari bunga misol bo’la oladi. Mustaqillikka erishgan O’zbekistonda ham boshqarish tizimi ana shu boy tajriba va an’analarga tayandi.

Davlatning mohiyati va vujudga kelishi haqida turli xil yondashuvlar: shartnomaviy-huquqiy, milliy va sinfiy. Davlatning kelib chiqishiga doir nazariyalar qo`yidagilardan iborat:

1. Teologik nazariya («butun hokimiyat xudoniki» degan qoidaga asos.)
2. Patriarxat nazariya (davlat kattalashib ketgan oiladan kelib chiqan.
3. Shartnoma nazariyasi (XVII-XVIII asrlarda yoyilgan, davlat -ongli ijod mahsuli, odamlar kelishgan ahd natijasi).
4. Zo`rlik nazariyasi (davlat zo`rlikdagi g’olibning hokimiyati).
5. Irrigatsiya nazariyasi (Sharqda ulkan irrigatsiya inshootlarini qurish va ulardan foydalanish bilan kelib chiqqan).
6. Sinfiy nazariya *K.Marks, F.Engels, V.I.Lenin* -fikricha davlat iqtisodiy sabablar, ijtimoiy mehnat taqsimoti, qo`shimcha mahsulot va xususiy mulkning paydo bo`lishi, jamiyat qarama-qarshi sinflarga ajralish tufayli kelib chiqqan).

Davlat to`g’risidagi qarashlarni eng qadimgi davrlardan uchratsak-da, uning hozirgi ma’noda tushunish, ya’ni jamiyatning siyosiy tashkiloti tarzida o`rganish *N.Makiavelli*dan boshlangan.

Davlat hokimiyati - (davlat apparati) - bir-biri bilan o`zaro bog’liq bo`lgan muayyan tuzilmaga birlashgan davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi davlat

[23] Istoriya politicheskix i pravovo’x ucheniy. Izd-vo Mixaylova. 2000, 17-b.

organlarining tizimidir. Davlat hokimiyati - xalq hokimiyatining maxsus tuzilma - davlat orqali amalga oshirilishi. Davlat o`zining organlari orqali siyosiy hokimiyatni amalga oshiradi. Hokimiyat davlat qo`lida to`plagandagina u malakali va samarali amalga oshirilishi mumkin. Davlat o`ziga tegishli hokimiyat yordamida va ta'sir choralarini qo`llaydi. Davlat hokimiyati qonuniydir, ya'ni davlatning, uning organlarining vakolatlari qonun bilan belgilab qo`yiladi. Davlat hokimiyati hayotning hamma sohalariga ta'sir qilib turuvchi, ijtimoiy jarayonlarnitartibga soluvchi etakchi siyosiy kuch hisoblanadi. Siyosiy hokimiyatning boshqa biron-bir shakli davlat hokimiyati singari keng imkoniyatga ega emas.

"Temur tuzuklari"da davlatni boshqarish tamoyillari. Amir Temur (1336-1405) - X1V asrda buyuk temuriylar davlatiga asos soldi. U davlat boshqaruvida o`zidan avval o`tgan xukmdorlardan farq qilib, davlat va mamlakatni boshqarishda bir yo ikki tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyandi. Ular: 1) sayyidlar, fozil kishilar, 2) ishning ko`zini biladigan donishmand kishilar, 3) xudojo`y, darvesh, qalandarlar, 4) quyonlar, 5) sipoh va ramyat, 6) ishonchli kishilar, 7) vazirlar, sarkotiblar, 8) xokimlar, tabiblar, 9) tafsir va xadis olimlari, 10) ahli sanoat, 11) so`fiylar, 12) tujmor (savdogar).

A. Temur el-yurtni o`z tasarrufida va itoatda tutish uchun 12 tuzuk tutdi. Davlat ishlarini 4 omilga bog'lab ish olib bordi:

1. Saltanat.
2. Xazina.
3. qo`shin (sipoh masalalariga).
4. Ramyat (qora xalq) ga bog'liq.

Amir Temur o`z ulkan imperiyasini ulus-ulus qilib idora qilgan. Movaraunnaxrdan boshqa barcha o`lka va mamlakatlarni u 4 ulusga bo`ldi:

1) qobul, Razna va qandahorni, to Sing daryosigacha bo`lgan erlar bilan qo`shib va 12 ming kishilik qo`shin bilan to`ng'ich o`g'li amirzoda Jahongirga berdi. Uning vafotidan keyin esa (1376) u viloyatlarga Balx mamlakatini ham qo`shib Jahongirning o`g'li Pirmuhammadga in'om qildi.

2) Ikkinchi o`g'li Umarshayx mirzoga Farg'ona o`lkasi, so`ng 1393 yili fors viloyatini berdi. Farg'onaga ketimda 10 ming kishilik qo`shin bilan jo`natdi.

3) Uchinchi o`g'li amirzoda Mironshoh 1380 yili esa unga 10 ming kishilik qo`shin bilan Xuroson mamlakatiga tayinladi. 1383 yili esa unga /arbiy Iroq va Ozarbayjonni (markazi Tibriz) ulus qilib berdi.

4) Xurosonga esa o`sha yili (1383) kenja o`g'li amirzoda Shohruxni tayin qildi. Va 8 ming kishilik qo`shin bilan Xirotga jo`natdi.

Amir Temur saltanatni boshqarishda kengash, mashvarat (maaslahatlashish) va maslahatga alohida e'tibor bergan.

Kengash - bu yaqin ishonchli odamlar bilan muhim davlat ishlari yuzasidan qilinadigan maslaxat, yig'ilish. Mashvarat - esa maloyki, ulamo, fuzalo, vuzaro va boshqa arkoni davlatni to`plab qilinadigan yig'ilish. «Garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo`lsada, deydi u, - aqli raso va xushyor kishilardan kengashu tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozim». «Davlat ishlarining 9 udumini, - deydi u, - kengash, tadbir va mashvarat bilan. qolgan bir udumini qilich

bilan hal qildim». «Tajribamdan bildimki, kengash 2 turli bo`ladi: Biri til uchida aytilgani, ikkinchisi yurakdan chiqqani. Til uchida aytilgani (shunchaki) eshitardim. Yurakdan aytilgan maslahatni esa qalbim qulog'iga quyardim va dilimga jo etardim».

Hozirgi zamon siyosatshunosligida davlatning jamiyatda tutgan o`rni to`g'risida yangicha qarashlar. Давлат сиёсат бор жойда мавжуд бўлади, бироқ сиёсат давлатдан ташқарида ҳам бўлиши мумкин. Маълумки, кишилар доимо ўз манфаатларига эришишга қаратилган ҳаракат олиб борадилар. Айнан шу жараён сиёсат деб тушунилади. Кишиларнинг яшаб қолиши манфаатнинг бир бўлаги ҳисобланади. Шу боис, улар ўз хавфсизликларини таъминлашлари мақсадида ўз ваколатларининг бир қисмини ижтимоий инструментга – давлатга берадилар.

Хорижий олим К.Шмитт ўзининг мақоласида «давлат атамаси сиёсий аҳамият касб этишини» таъкидлайди. Ўз фикрини давом эттирар экан, у «давлат – муайян ҳудудда шаклланувчи халқнинг сиёсий мақоми, халқнинг ўзига хос ҳолати» деб айтади[24].

Бироқ, россиялик сиёсатшунос К.С. Гаджиев «давлат» ва «ҳокимият» тушунчалари синоним сифатида ишлатилиши «илмий жиҳатдан нотўғри» деган фикрни илгари суради. Шу билан бирга, унинг фикрича, сиёсат марказида давлат, сиёсий тизим ва ҳокимият доимо марказий ўринни эгаллаб келадилар[25].

Фуқаролик жамияти ва давлатни жиддий назарий фарқлашни давлатга муқаррар устунлик берган ҳолда биринчи бўлиб Гегель амалга оширди. Жамиятни давлат билан айнан бир нарса деб қараш ҳозирги кунда ҳам кишилар онгида сақланиб келмоқда.

Давлат ҳақида дастлабки қарашлардан бирини немис олими М.Вебер берган. У «давлат – восита сифатида қонуний кучга асосланган инсонларнинг инсонлар устидан ҳукмронлик муносабатлари» деган фикрни илгари сурган[26].

Машҳур француз олими М.Дюверже «давлат» тушунчасининг икки маънода қўлланилишини таъкидлайди. Биринчиси, бошқарув мажмуини ташкил этувчи сиёсий институтлар ва мансабдор шахслар; иккинчиси эса, ўзига хос равишда уюшган, суверенитетга эга инсонлар муносабатларини назарда тутади. Ушбу иккала тушунча: биринчисида – давлат бошқаруви назарда тутилса, иккинчи ҳолатда сиёсий оламнинг шаклланиши тушунилади[27].

Давлат ҳокимият учун кураш аренаси сифатида ҳам қаралади. Шу билан бирга давлат кишилар сиёсий муносабатларининг институционаллашган жиҳати сифатида қаралиб, ўз ичига бошқарув механизмини, яъни давлат номидан ҳокимиятни амалга оширувчи ҳамда

[24] Шмитт К. Понятие политического // Вопросы социологии. 1992. № 1. С. 37

[25] Гаджиев К.С. Введение в политическую науку: Учебник для высших учебных заведений. Издание 2-е, переработанное и дополненное. М.: Издательская корпорация «Логос», 1999. С. 48

[26] Тавадов Г.Т. Политология: учебное пособие. М.: "ФАИР-ПРЕСС", 2000. С. 404

[27] Duverger M. Institutions politiques et droit constitutionel. Paris: Themis, 1970. С. 28

расмий лавозимларни эгалловчи шахслар ва органлардан иборат ҳукуматни қамраб олади. Шунингдек, давлатни шахсий манфаатлар ва хоҳишларни жамоавий тарзда чеклашга қаратилган институт сифатида қараш мумкин.

Давлат борасида фикр юритар экан машҳур немис мутафаккири Гегель «… халқнинг давлатда намоён бўлиши ўзининг ягона субстанцияси, дини, санъати, фалсафаси, тасаввур ва ўй-хаёллари билан ягона руҳини ташкил этади. Давлат индивидуал жиҳатдан бир бутун, ундан бирор муҳим қисмини ажратиб бўлмайди», деб айтади[28].

Умумлаштирган ҳолда давлат – инсонларнинг этномиллий, ижтимоий-маданий, мулкчилик ва фуқаролик манфаатлари туташган тузилма деб айтиш мумкин. Талабалар бу борада, уруғ-аймоқчилик ёки этномаданий асосда ташкил топган давлат тузилмаларида инсонлараро муносабатлар урф-одат, қадрият, анъаналар асосида, миллий давлатларда эса ҳуқуқий норма ва қонунлар асосида амалга оширилишини эътиборга олишлари лозим. Давлат ўз навбатида фуқароларнинг ҳатти-ҳаракатларини уларнинг ижтимоий, диний, касбий ёки бошқа тегишлилигига қарамай баҳолайди. Шу боис давлат миллатнинг институционаллашиши асосида миллий бирликни таъминлаши зарур бўлади.

Россиялик сиёсатшунос Л.А.Тихомировнинг фикрига кўра, миллат давлатнинг асосини ташкил этади. Агар миллат заиф бўлса, у ҳолда давлат ҳам шундай бўлади. Агар давлат миллатни заифлаштирса, бундай давлат ўзини ҳалок этади[29].

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov davlatning bosh islohotchiligi haqida. Президент Ислом Каримов миллий давлатчилик асослари ҳақида фикир юрита туриб, қуйидагиларни таъкидлайди: «Давлат қурилиши борасида танқидий нуқтаи назарсиз қабул қилинадиган тайёр қолип ва андозалар йўқ. Дунёда бирон-бирига айнан ўхшаган иккита инсон бўлмагандек, бир-бирига айнан ўхшаган иккита давлат ҳам йўқ. Бундай бўлиши мумкин ҳам эмас.

Ҳар бир давлат – бетакрор ижтимоий ҳодисалар. У ҳар қайси халқ тарихий ва маънавий тараққиётнинг ҳосилидир, унинг ўзига хос, ўзига мос маданияти ривожининг натижасидир»[30]. Шу боис Ўзбекистон халқининг асрлар давомида шаклланган миллий давлатчилик ва тарихий-маданий анъаналарига таяниши лозим. И. Каримовнинг айтганидек, «Биз барпо этаётган давлат энг аввало. умумжаҳон цивилизациясига, давлат қурилиши соҳасида бошқа халқлар эришган тажрибаларга, ижтимоий қадриятларга асосланиш лозим»[31].

---

[28] Гегель Г.В.Ф. Философия права. М.: “Мысль”, 1990. – С. 44

[29] Тихомиров Л.А. Монархическая государственность. М.: Российский имперский союз-орден, 1992. С. 33

[30] Каримов И.А. Ызбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва и=тисодий исти=болининг асосий тамойиллари. Т.: «Ызбекистон», 1995, 8-бет.

[31] Каримов И.А. Ызбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва и=тисодий исти=болининг асосий тамойиллари. Т.: «Ызбекистон», 1995, 9-бет.

Демак, Ўзбекистонда демократик жамият қуриш Шарқона миллий анъаналарга ҳамда умуминсоний, жаҳон цивилизацияси миллий анъаналарга ва умуминсоний, жаҳон цивилизацияси эришган демократик тажрибага таянишни тақазо этади, деган хулосасига талабалар аҳамият беришлари лозим. Бугун нафақат Шарқ халқлари ҳаётида, балки бутун жаҳонда даров тушиниб олиши ва тўғри идрок этиши қийин бўлган ижтимоий, сиёсий ва маданий ўзгаришлар содир бўлмоқдаки, улардан миллий демократик тараққиётимиз манфаатларига мос тажриба ва йўналишларни танлаб олиш осон эмас. Бу ўринда «Ўзбек модели»нинг белгилари нимадан иборат деб савол қўйиш мумкин ва талабалар бу саволни кўриб чиқишни демократик жамиятнинг моддий негизи – бозор иқтисодиёти эканлиги ва бозор иқтисодиёти товар – пул муносабатларига асосланиб иқтисодий қонунлар асосида ишлайдиган иқтисод эканлигидан бошлашлари керак.

Бозор иқтисодиёти ишлаб чиқаришни кун сайин такомиллашуви, маҳсулот сифатининг яхшиланиши, миқдорнинг кўпайиши – бозор иқтисодиётининг асосий шарт-шароити эканлигини талабалар билиб олишлари зарур.

Мамлакатнинг дастлабки йилларидаги ривожланиш жараёнларини чуқур таҳлил қилиб Ислом Каримов Ўзбекистон давлат ва жамият қурилиши, иқтисодиётни ислоҳ қилиш дастурининг ўзаги сифатида бешта асосий қоидани ишлаб чиқди.

Талабалар ана шу бешта тамойилларни дарсда бирма-бир айтиб уларнинг моҳиятини кўрсатиб беришлари лозим.

«Мафкурадан ҳоли бўлиш-иқтисодиётни мафкурадан ҳоли қилиб фуқароларни ижтимоий-иқтисодий ҳолатининг том маънодаги субъектларига айлантириш ва хусусий мулкчиликни шакллантириш дегани. Айнан фуқароларнинг ташабускорлигига ва хусусий мулкка асосланадиган бозор иқтисодиётигина жаҳон халқлари билан кенг савдо-сотиқ алоқалари ўрнатишга, замонавий техника ютуқларидан баҳраманд бўлишига, чет элларда кенг тарқалган тажрибани ўзлаштиришга – фирмалар, фермер хўжаликлари, кичик корхоналар очиш имкон яратади.

Иқтисодий эркинлик, шарқона жамиятга хос воқелик эканлигига қарамай, эски тузум даврида халқимиз ҳаётидан сиқиб чиқарилганини ҳам талабалар билишлари лозим.

Ўзбек моделининг иккинчи тамойили – давлат бош ислоҳотчи Мамлакатда ўтказиладиган ўзгаришлар учун давлатнинг асосий сиёсий институт сифатида маъсулиятни ўз зиммасига олганини тушуниш керак. Чунки шундай ижтимоий-сиёсий институт бўлмаган жойда энг эзгу ғоялар ҳам орзу бўлиб қолаверади. Шунинг учун Ислом Каримов мустақилликнинг дастлабки кунларидан жамиятни янгилаш, эркин ишбилармонлик изига кўчириш вазифаларини ҳал этиш учун кучли мустақил давлат, унинг идровий таркиби, ҳуқуқий асослари, мудофаа ва миллий хавфсизлик тизимининг қарор топиши алоҳида аҳамиятга эгалигини таъкидлаганини талабалар тушиниб олишлари керак. Чунки бу босқичда давлат манфаатлари устун бўлса ишбилармонларнинг манфаатларини ҳам аҳоли манфаатларини ҳимоя

қилиш мумкин. Бундан талабалар кучли давлат қуриш дастлабки босқичларида ислоҳатларни муваффақиятли амалга ошириш ва аҳоли манфаатларини ҳимоя қилишнинг гарови ва кафолати деб хулоса қилишлари мумкин.

«Ўзбек модели»нинг учинчи тамойили-қонун устуворлиги. Юртбошимиз кўп бор таъкидлагандек «Ўтиш даврида давлат жиловини қўлдан бермаслиги керак. Шундагина у давлат бўла олади ... давлат ҳар бир фуқаросини ҳимоя этиши, унга ҳуқуқий ёрдам бериши шарт».

Қонунлар жамиятни модернизациялаш воситаси эканлигини талабалар биладилар. Чунки улар иновацияларни ҳаётга жорий этишни тезлаштиради, янги қадриятларни, сиёсий-ҳуқуқий тамойилларни барча учун баб-баробар ҳаёт тарзи ва фаолият дастурига айлантиради.

Қонун устуворлигини таъминлаш, провард, халқ ва демократик манфаатларга мос келадиган қонунлар ишлаб чиқиш ва қабул қилиш билан боғлиқ. Шу ерда талабалар Ўзбекистонда мустақиллик йиллари қандай қонунлар ишлаб чиқилган, деган саволга жавоб беришлар ўринли бўлади.

Ўз навбатида қонун устуворлигини таъминлаш, инсонда қонунга ҳурмат ҳиссини тарбиялаш билан боғлиқ ва бу узоқ давом этадиган жараёндир. Бу жараён ҳар бир ижтимоий-тарихий босқичда аҳолининг асосий қисмини вайронкор хатти-харакатлардан, жиноий уюшмаларга қўшилишдан ушлаб туриб тарихий-маданий анъаналарни, ижтимоий ахлоқ меъёрларини, урф-одатларни асрашга ва уларга риоя этишга мойил ўзбек халқида қонунлар устуворлиги асосан ана шу қоидалар орқали таъминланишини талабалар билиб олишлари лозим.

Ўзбек моделининг тўртинчи тамойили – кучли ижтимоий сиёсат юритишдир.

Бозор иқтисодиётнинг кучли тўлқинлари, ишлаб чиқариш соҳасидаги қийинчиликлар фуқароларни танг аҳволга солиб қўйишини олдиндан кўраолган Ислом Каримов аҳолини ижтимоий ҳимоялашни зарур дея таъкидлар экан, бунда биринчи навбатда демократик, ҳуқуқий давлатнинг халқпарварлик табиати ва моҳиятидан келиб чиқишни талабалар билишлари зарур. Ҳокимият бюрократлашган жамиятда аҳолини ижтимоий ҳимоялашга катта эътибор берилмайди. Ўтган йиллар ичида ижтимоий ҳимоя соҳасида амалга оширилган чора-тадбирлар Президент ички сиёсатининг халқпарварлик йўналишини исботлайди.

Бешинчи тамойил – бозор иқтисодиётига босқичма-босқич ўтиш.

Бозор иқтисодиётига қайси йўл билан ўтиш масаласини инсон иродаси ва хоҳишига боғлиқ бўлмаган объектив ҳодиса эканини талабалар тушуниб унинг сабабларини изоҳлаб беришга ҳаракат қилишлари керак. Бозорга ўтишнинг йўллари кўп. Ҳар бир мамлакат ўзига мос йўлларини танлайди. Бунда ижтимоий-иқтисодий потенцал, тадбиркорлик соҳасидаги одамлар, тажриба, малака, халқнинг миллий турмуш тарзи ва тарихий анъаналари муҳим аҳамиятига эга. Ислам Каримовнинг бозорга босқичма-босқич ўтиш йўлини танлади. Бугунги кунда бу йўлнинг қанчалик тўғрилигини ҳаётнинг ўзи тасдиқлаб турди. «Бу йўлни изчилик билан ўтказишга ўтиш, - деб ёзади

Президент, - даврнинг ҳар бир босқичида унинг етилган вазифалардан келиб чиққан ҳолда, айни шу паллада қайси манфаатлар устун келишини белгилаб олишни талаб қилади»[32].

Саволга хулоса ясаб талабалар бозор иқтисодиётига аста-секин, босқичма-босқич ўтиш шахс ўз халқининг тарихий-маданий ва ижтимоий-ахлоқий қадриятларидан, жамиятдан бегоналашувининг, хусусий мулкчиликнинг юзага келиши билан боғлиқ зиддиятлар антагонистик курашларга айланиб кетишининг олдини олишни билишлари зарур.

Davlatning tuzilishi: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud organlari. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda davlat hokimiyatining 4 ta bo`linish printsipi mavjud. O`zbekiston Konstitutsiyasining xalq hokimiyatchiligiga bag'ishlangan 11-moddasida esa davlat hokimiyati 3 ta bo`linish printsipiga asoslanishi bayon etilgan. Ular 1) qonun chiqaruvchi (parlament), 2) ijro etuvchi (Vazirlar Mahkamasi) va 3) sud hokimiyati. 4) Ommaviy axborot vositalari to`rtinchi hokimiyatdir (Bu dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda). 2002 yil 4 aprelda Oliy Majlis 8-sessiyasida «Referendum, yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to`g'risida»gi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni qabul qilindi.

1. Konun chiqaruvchi hokimiyat jamiyat hayotining xilma-xil sohalaridagi o`zgarishlarni, o`zaro munosabatlarni tartibga solish, ularni huquqiy jihatdan kafolatlashga doir qonunlarni ishlab chiqadi. Davlat hokimiyati tomonidan ishlab chiqilgan qonunlarni bajarish va ularga amal qilish majburiy hisoblanadi. qonun chiqaruvchi hokimiyat g'arbda: Parlament, Seym Kongress va h.k. deb yuritilsa Sharqda: Oliy majlis, Kengash, Halq qurali va h.k. deb ataladi.

Parlament (fran. Parle - gapirmoq so`zidan kelib chiqqan bo`lib, rasmiy so`zlashish joyi ma'nosini anglatadi) - davlatning oliy vakillik organi hisoblanadi va qonun chiqaruvchi hokimiyatini amalga oshiradi. Parlament qonun bo`yicha belgilangan sondagi deputatlardan iborat bo`lib, xududiy saylov okruglari bo`yicha ko`ppartiyaviylik asosida belgilangan yoshga to`lgan fuqarolardan saylanadi. Parlament birinchi marta X111 asrda Angliyada tashkil qilingan. Oliy vakillik organlari bir necha mamlakatlarda, jumladan Angliya, Frantsiya, Italiya, Kanada, Belgiyada to`g'ridan to`g'ri parlament deb ataladi. AqSh va ba'zi Lotin Amerikasi mamlakatlarida Kongress, Rossiyada Federal Majlis, Litvada, Latviya, Polshada Seyi deb ataladi. Parlamentni tashkil qilish tartibi, vakolat muddati, vakolat doirasi turli mamlakatlarda turlicha bo`lib, ular Konstitutsiya hamda qonunlarda belgilab qo`yiladi. Dunyoda 130 davlatda parlament boshqaruvi mavjud.

Oliy Majlis - O`zbekiston Respublikasida yagona qonun qabul qiluvchi, unga o`zgartirish kirituvchi Oliy Davlat organidir.[33] Xalq vakillari deputatlaridan iborat bo`lgan uning tarkibida 1990-1994 yillarda 150 deputat, 1995-2004 yillarda esa 250 deputat bo`lib, ular saylovchilar tomonidan 1) umumiy, 2) teng, 3) to`g'ri saylov huquqi asosida, 4) yashirin ovoz berish yo`li bilan saylanadi. Oliy Majlisga 25 yoshga etgan O`zbekiston fuqarolari 5 yil muddatga saylanadi. Oliy Majlis o`z

[32] Каримов И.А. Ызбекистоннинг ыз исти=лол ва тара==иёт йыли. 1-жилд, Т.: «Ызбекистон», 1996, 66-бет
[33] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2001, 16-20-betlar

faoliyatini tegishli muddatlarda o`tkaziladigan sessiyalarda amalga oshiradi, sessiyalar bir yilda kamida 2 marta chaqirilishi belgilangan. Zarur hollarda navbatdan tashqari sessiyalar ham chaqirilishi mumkin.

Oliy Majlis o`z faoliyatiga yordam berish uchun turli organlarni tuzaldi. Oliy Majlisning vakolatlari Konstitutsiya va Oliy Majlis to`g'risidagi qonunlarda belgilab qo`yilgan. 1993 yil 28 dekabrda «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g'risida»gi qonun qabul qilinadi. 1994 yil 22 sentabrda «O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to`g'risida» gi qonun qabul qilindi.

Dunyo mamlakatlarining ba'zilaridagi parlamentlarida deputatlar soni qo`yidagicha:

1) AqSh Kongressiga 535 deputat saylanadi.
2) Rossiya Federal Majlisiga 626 deputat saylanadi.
3) Misrda Xalq Assambleyasiga 454 deputat saylanadi.
4) Isroil Knessetiga 120 deputat saylanadi.
5) Finlyandiya, Eduskuktiga 200 deputat saylanadi.
6) Islandiya Altinggiga 63 deputat saylanadi va h.k.

Parlamentarizm tajribasi ko`rsatadiki, parlament 1 palatali yoki 2 palatali bo`lishi mumkin. Ma'lumki, demokratik mamlakatlarning aksariyatida 2 palatalidir. XX asr so`nggi o`n yilliklarining o`zida 2 palatali parlamentlar soni 45 tadan 70 taga ko`paydi. Hozirgi zamonda 2 palatali tizim parlamentarizm taraqqiyotining asosiy tendentsiyasiga aylandi. 2000 yilning 14 martida Parij shahrida bo`lib o`tgan jahon senatlarining maxsus anjumanida parlamentning 2 palatali bo`lishi mamlakat hayotida ijobiy rol o`ynaydi, degan hulosaga kelindi. Mustaqil O`zbekistonda parlament qachon tuzildi? O`zbekiston mustaqilligi e'lon qilingan paytda mamlakatda 1990 yil fevralda saylangan qonun chiqaruvchi hokimiyat organi - Oliy Kengash faoliyat ko`rsatmoqda edi. Oliy Kengash 1994 yil dekabrigacha 200 ga yaqin qonun va 500 dan ortiq qarorlar tayyorladi va qabul qildi. 1992 yil dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyaga binoan yangi parlament - Oliy majlis vujudga keldi. 1994 yil dekabr oyida 1-chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga deputatlar saylandi. Respublika parlamenti - Oliy Majlis 1995-1999 yillarda 10 kodeks, 2 milliy dastur, 145 qonun, 452 qaror qabul qildi. Hozirgi kunda 1999 yilda saylangan 2-chaqiriq O`zbekiston respublikasi Oliy Majlisi faoliyat yuritmoqda. 1994 yili O`zbekistonda Oliy Majlis ! palatali parlament ko`ppartiyaviylik asosida 5 yil muddatga saylanib 250 nafar deputat qilib belgilangan edi. 2004 yilda parlamentda 2 palatali, ya'ni yuqori palata senat va quyi qonun ishlab chiqaruvchi palata deputatlari, soni oshishi mumkin. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2000 yil 25 may kuni 2 chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2-sessiyasida 2 palatali parlamentni tuzish g'oyasini ilgari surdi.[34] 2-chaqiriq Oliy majlis 2000-2004 yillarda faoliyat ko`rsatmoqda. Oliy Majlisning 2001 yil 6 dekabrda qabul qilgan O`zbekiston respublikasi referendumini o`tqazish to`g'risidagi qaroriga ko`ra 2002 yil 27 yanvarda referendum o`tqazilib ovoz berish byulletiniga qo`yidagi mazmundagi savollar kiritildi:

[34] «Xalq so'zi». 2006 yil . 16 may.

1. Siz kelgusi chaqiriq O`zbekiston respublikasi parlamenti ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz? (93,65 foiz saylovchilar «ha» deb javob berdilar). Yoki ovoz berishda qatnashgan fuqarolarning 11.344.242 nafari, qarshi ovoz 6,35 foiz.

2. Siz O`zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatiga 5 yildan 7 yillik qilib o`zgartirishga rozimisi? (umumiy saylarnilarning 91,78 foizi «ha» deb javob berdilar). Yoki ovoz berishda qatnashgan 11.117.841 nafardan 91,78 foizi, qarshi 8,22 foiz.

2. Ijro qiluvchi hokimiyat davlatning turli xildagi idaralari va muassasalaridan tashkil topgan bo`lib, ular qonunlarda ifodalangan tadbirlarni hayotga joriy etadi. Ijro etuvchi hokimiyat - hokimiyatning alohida turi, u qonunchilik (vakillik), sud hokimiyatidan xoli, mustaqil ravishda ish olib boradi. Respublika ijro etuvchi hokimiyatga Prezident boshchilik qiladi, joylardagi ijro etuvchi hokimiyatga hokim boshchilik qiladi. Ijro etuvchi hokimiyat ijro organlari tomonidan amalga oshiradi. Ijro organlari - ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi davlat organlaridir. O`zbekiston respublikasida Oliy ijro organi - Vazirlar Mahkamasidir, u hukumat ham hisoblanadi va kollegial, umumiy vakolatli organdir. Ijro organlari turli tarmoq va sohalarni idora etadi. Respublikaning markaziy idoralari: vazirliklar, davlat qo`mitalari va boshqalar, ular yakkaboshchilik asosida ish olib boradi. Joylarda ijro etuvchi hokimiyatni hokimlar yakkaboshchilik asosida amalga oshiradi. Joylarni idora etishda u o`zining tarmoq idora organlaridagi bo`lim va bohkarmalariga tayanadi. Masalan, ichki ishlar, sog'liqni saqlash, maorif bo`limi yoki boshqarmalari. Ijro organlari tayinlash va tasdiqlash yo`li bilan tashkil qilinadi va ular o`zini tayinlagan shaxs oldida, shuningdek vakillik organi oldida xisob beradi.[35] Hozirgi zamon konstitutsiyalari ijroiya hokimiyat vakolatlarini davlat boshliqlariga (parlamentar monarxiyalar va respublikalarda, prezidentlik respublikalarida) yoki hukumatga (aralash tipdagi respublikalarda beradi. Biroq parlamentar monarxiyalar va respublikalar ishida butun ijroiya hokimiyat hukumatga, dualistik monarxiyalarda - monarx va hukumatga tegishlidir, aralash tipdagi respublikalarda xukumat tomonidan ijroiya hokimiyatni amalga oshirish qoida tariqasida davlat boshlig'i (Prezident)-ning bevosita rahbarligi yoki ostida yuz beradi. Mintaqaviy va mahalliy darajada ijroiya hokimiyat mahalliy boshqaruv va mahalliy o`z-o`zini boshqaruvning turli organlari (gubernatorlar, merlar, prefentlar, oqsoqollar va ularga bo`ysunuvchi apparati) tomonidan amalga oshiriladi.

3. Sud xokimiyati qabul qilingan va hayotga joriy etilgan qonunlarning bajarilishini nazorat qiluvchi davlat idoralari muassasalaridan tashkil topadi.[36]

Davlatning ichki va tashqi vazifalari. Umuman aytganda davlat, shu jumladan O'zbekiston davlati ham o'z hududi doirasida ichki va tashqi siyosatni yuritadi, qonunlar chiqaradi, ularni ijrosini ta'minlaydi, odil sudni amalga oshiradi.

Siyosiy tizimda davlat yuqoridagidan tashqari yana tubandagi ichki, tashqi va xalqaro funksiyalarni bajaradi.

1. Ichki funksiya – xo'jalik, tashkilotchilik, madaniy-tarbiyaviy sohalardan iborat. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda Prezident Islom Karimov boshchiligida

[35] Azizxo'jaev A. va bosh. Konstitutsiyaviy huquq. T.: «Akademiya», 2001, 44-45-betlar.
[36] Ramazanov I., Mo'minov E. Politologiya. T.: «Adolat», 1997, 104-bet.

yangi siyosiy tizim, demokratik huquqiy davlat tuzilmalari yaratildi. Bu davlat respublikada amalga oshirilayotgan tub islohotlarning tashkilotchisi va tashabbuskori bo'lyapti.

Milliy istiqlol g'oyamiz xam Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq faravonligiga qaratilgandir.

2. Tashqi funksiya – davlatlararo munosabatlarni turli sohalarda yaxshilashga qaratilgan.

3. Xalqaro funksiya esa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar faoliyatini xalqaro umumbashariy muammolarni hal qilishga qaratilgandir.

Davlatlarning ma'muriy-hududiy tuzilishi: unitarizm, federalizm, konfederatsiya. *Tuzilish shakli:* Davlat tuzilishi davlat shaklining muhim bir turidir. Davlat tuzilishi shu davlat oldida turgan vazifalar va maqsadlar bilan belgilanadi. Unga uch narsa ta'sir etadi:

1) muayyan davrda jamiyat va davlat oldida turgan iqtisodiy vazifalar va siyosiy maqsadalar;
2) davlatdagi millatlarning soni va o`zaro munosabatlari;
3) Davlat hududining katta kichikligi.

Davlat tuzilishi – davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi, uning bo`laklari, markaziy organlari, bu organlarning joylardagi mahalliy organlari bilan o`zaro aloqalarining xususiyatlaridan iborat.

Milliy davlat tuzilishi – davlatning tuzilishi, uning ma'muriy-hududiy bo`linishi, davlat bilan uning tirkibiy qismlari o`rtasidagi o`zaro munosabatlari, davlat va uning tarkibiy qismlarining huquqiy holati, ularning vakolatlaridan iborat.

a) oddiy – unitar; (frantsuzcha – unitaire – yagona, degani) davlat oddiy va yaxlit davlatdir. Markaziy hokimiyat mahalliy idoralari ustidan nazoratning qay turini amalga oshirishiga qarab unitar davlatlar markazlashgan va markazlashmagan turlarga bo`linadi.

b) murakkab – federativ (lotincha – feodus – ittifoq degani) davlat bo`lib, uning sub'ektlari davlat mustaqilligiga ega bo`ladi. Federatsiyalarning ikki turi ittifoq va avtonomiya mavjud.

Konfederetiv – davlatning muayyan ittifoq bo`lib, iqtisodiy, siyosiy, xarbiy maqsadlar uchun shartnoma va bitim asosida tuziladi.

Milliy davlat tuzilishi ma'lum printsiplar asosida amalga oshiriladi:

- millatning suverenligi va teng huquqligi;
- millat va elatlarning erkin, ozod rivojlanishi;
- baynalminallik, millatlarning hamkorligi, do`stligini ta'minlash.

Bu printsiplar har bir milliy davlat tuzilishiga asos bo`lishi kerak. Idoralar tarkibi, vakolatlari, paydo bo`lish tartibi, shuningdek, ularda xalqning ishtirok etish darajasi, mazkur idoralar vakolatlarining muddatini nazarda tutadi.

***Boshqaruv shakllari: monarxiya, respublika, ularning asosiy ko`rinishlari va belgilari.*** *Monarxiya* – boshqarishning qadimgi shakllaridan bo`lib, odatda avloddan-avlodga o`tadigan yakka hokimiyatchilikdir. Monarxiyaning tarixda siyosiy sharoitga ko`ra ko`rinishlari mavjud.

Mutlaq monarxiya. Bunda monarx – hokimiyatning manbai, qonunlar

chiqaradi, xukumatni tuzadi, xalqdan soliq oladi va daromadni o`z xohishiga sarflaydi. Xalq huquqsiz, siyosiy hayotda ochiq ishtirok etmaydi. Hozirda Saudiya Arabiston, Qatar, Birlashgan Arab Amirliklarida saqlanib qolgan.

Dualistik monarxiya. Bir vaqtda monarxik tashkilotlar va parlament mavjud bo`ladi. Monarx katta ijro hokimiyatini egallaydi, o`z oldida mas'ul xukumatni shakllantiradi, parlamentga ta'sir qiladi, veto huquqiga, parlamentni tarqatib yuborish huquqiga ega. Hozirgi vaqtda Iordaniya, Quvayt, Marokkoda saqlanib qolgan.

Konstitutsion (parlamentar) monarxiya. Bunda monarx rasman xukumat boshlig'i, biroq asosan vakillik, qisman ijro vazifalarini bajaradi. Xukumat parlament tomonidan shakllantiriladi va unga hisobot beradi. Monarxning veto huquqi bo`lsada, undan deyarli foydalanilmaydi. Buyuk Britaniya, Daniya, Ispaniya, Norvegiya, Shvetsiya shuningdek, boshqa davlatlarda ham bor. Konstitutsion monarxiya an'analariga hurmatning oqibati bo`lib, monarx demokratik shaxs sifatida maydonga chiqadi. Amalda konstitutsion monarxiya parlamentar respublikaga juda yaqin.

Respublika – lotincha so`zdan olingan bo`lib, (jamoa ishi) shaklida davlat hokimiyatini aholi muayyan muddatga saylab qo`yadigan idoralar amalga oshiradi. Yangi davrda respublikaning parlamentar va prezidentlik turlari paydo bo`lgan.

Boshqaruvning respublika shaklida uch xil ko`rinishi ajralib turadi



Prezident bevosita xalq yoki saylovchilar kengashi tomonidan saylanadi. Prezident bir vaqtning o`zida ham davlat, ham xukumat boshlig'i hisoblanadi. Xukumat a'zolarini prezident tasviya qiladi. Xukumat Parlamenti oldida emac, Prezident oldida mas'uldir. Vazirlar Prezident o`rnatgan siyosatni amalga oshiradilar. Parlament xukumatga ishonchsizlik bildira olmaydi, xukumat parlamentni tarqatib yuborish huquqiga ega emas. Hozirda *Prezidentlik respublikasi* keng tarqalib bormoqda.

*Parlament respublika*ning ham o`ziga xos belgilari bor. Davlat siyosiy tizimda parlamentning ustivorlik printsipiga amal qiladi. Prezident davlat boshlig'i sifatida ko`p vakolatlarga ega bo`lsada, xukumat tasdig'isiz mustaqil faoliyat ko`rsata olmaydi. Prezidentning faoliyati xukumatning roziligi bilan amalga oshadi. Konstitutsiyada parlamentning ustivorligi ta'kidlanadi va uning oldida xukumatning ma'sulligi o`rnatiladi, amalda ma'lum sharoitda parlament xukumatni tarqatib yuborishi mumkin. Prezident parlament yoki u tuzgan kengash tomonidan saylanadi. Parlamentar respublikada vazirlar kengashi raisi mansabi (kantsler) bo`lib, uning rahbarligida xukumatning ichki va tashqi siyosati amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda Parlamentar respublikalar Germaniyada, Italiyada,

Xindistonda, Turkiya, Isroil kabi mamlakatlarda mavjud.

Aralash shakli Prezidentlik va parlamentar respublikalarning ayrim belgilarini o`zida mujassamlashtiradi. Frantsiya bunga eng xarakterli misoldir.

"Huquqiy davlat" va "ijtimoiy davlat" tushunchalari, ularning asosiy belgilari.

Huquqiy davlat – huquqning hukmroniligi va qonunning ustivorligi, hokimiyat vakolatlarining bo`linishi, sudning mustaqilligi, inson huquqlari va erkinliklari ta'minlanadigan, huquqni muxofaza etuvchi idoralar ishi samarali bo`lgan xaqiqiy xalq hokimiyati, yuqori darajadagi siyosiy-huquqiy madaniyatga erishgan demokratik davlatdir. Huquqiy davlatning quyidagi bir qator asosiy belgilari mavjud:

1. Huquqning hukmronligi.
2. Konstitutsiya va qonun ustunligi.
3. Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish, ularni ximoya qilish va ta'minlash.
4. Davlat va fuqarolarning o`zaro ma'suliyati.
5. Hokimiyat vakolatlarining bo`linishi.
6. Sudning mustaqilligi.
7. Huquqni muxofaza qiluvchi organlarning samarali ishlashi.
8. Huquqiy madaniyatning yuksak darajasi.
9. Demokratiyaning rivojlanishi va takomillashuvi.

Jamiyatda huquqiy davlatning roli quyidagilarda ifodalanadi:

1. Jamiyatda faoliyat ko`rsatuvchi demokratik institutlarning rivojlanishi va barqarorligini rag'batlantira oladigan huquqiy xujjat chiqarish va joriy etish.
2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini muxofaza qilish, ularning ijtimoiy ximoyalanganligiga doir amaliy choralar qabul qilish.
3. Fuqarolarning huquq va erikinliklariga tajovuz qiluvchi mansabdor shaxslarni tegishli shaklda huquqiy javobgarlikka tortishning huquqiy mehanizmlarini ishlab chiqish va joriy eitash.

Jamiyat hayotida huquqiy davlat quyidagilarni ta'minlaydi:

- davlat mehanizmining burcha bo`g'inlari aniq va bir maqomda ishlashini;
- huquqiy davlat organlari faoliyatida huquqiy ijodkorlik va huquqni qo`llashning samaradorligi;
- hokimiyat vakolatlarini taqsimlash printsiplarini turmushga joriy etishni;
- davlat-huquqiy va siyosiy institutlarni barqarorligini;
- erkin bozor iqtisodiyotini.

Huquqiy davlat barqarorligining huquqiy asosi – jamiyatda fuqarolarning irodasiga, ularning huquq va erkinliklarining ximoyalanganligiga asoslangan qonuniylik va huquqiy tartibotning mustahkamligidir.

Huquqiy davlat burqarorligining siyosiy asosi – siyosiy plyuralizmga asoslangan demokratik siyosiy tizimning mavjudligi va barqaror faoliyat ko`rsatishidir.

Huquqiy davlat barqarorligining ijtimoiy asosi – aholining davlat tomonidan teng ximoyalanishida ko`rinadi.

Huquqiy davlat barqarorligining iqtisodiy asosi – erkin tadbirkorlikka va

xilma-xil mulk shakllarini rivojlantirishga qaratilgan bozor munosabatlarining mavjudligidir.

Insonparvar huquqiy davlatning belgilari:

1. Konstitutsiya va qonunning ustivorligi.
2. Davlat hokimiyati tizimining taqsimlanish printsipi.
3. Insonning huquq va erkinliklariga rioya etish va ularni ximoyalanish.
4. Oliy qadriyat sifatida inson huquq va erkinliklarini joriy etish shart-sharoitlarning yaratilishi.
5. Demokratlilik.
6. Siyosiy va huquqiy madaniyat darajasini yuksalishi.
7. Adolatli fuqarolik jamiyatini yaratilish.
8. Sud – huquqiy islohatlarning o`tkazilishi.
9. Sudning mustaqilligi.
10. Hokimiyat vakolatlarini taqsimlash va huquqiy davlat tizimini yaratish maqsadida qonunlarni chiqarish va takomillashtirish.

Yurtborishiz I.A.Karimov ta’biri bilan aytganda huquqiy davlatning asosiy belgisi barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta’minlashidir.

Xuquqiy davlat



Mustaqillik yillarida O`zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvining demokratlashtirilishi. Бугунги кунда миллий давлатчилигимизни ислоҳ қилиш масаласи долзарблик аҳамиятига эга бўлмоқда. Президент И.Каримов мазкур масала юзасидан қуйидаги фикрларни келтиради: «Ҳозирги вақтда демократик сиёсий тизимнинг энг муҳим субъекти - давлатчиликни ислоҳ қилишда янги вазифалар кўндаланг бўлиб турибди. Бу аввалambор, ҳозирги босқичда сиёсий институтларнинг ва нодавлат ижтимоий уюшмаларнинг хилма хиллиги ҳамда улар ролининг мустаҳкамланиши, шунингдек, аҳоли сиёсий фаоллигининг ошиши асосида жамият ҳаётини янада демократиялаш вазифалари муҳим ва долзарб бўлиб қолганлиги билан изоҳланади»[37].

«Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари

[37] Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Тошкент.: “Ўзбекистон”, 1997. 158–159 бет

тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунининг 2-моддасида «Ўзбекистон Республикасининг халқи суверендир ва у республикада давлат ҳокимиятининг бирдан бир соҳибидир. У ўз ҳокимиятини ҳам бевосита, ҳам вакиллик идоралари тизими орқали амалга оширади», деб қайд этилади[38]. Мазкур қонуннинг 3-моддасида «Ўзбекистон Республикаси тўла давлат ҳокимиятига эга, ўзининг миллий-давлат ва маъмурий-ҳудудий тузилишини, ҳокимият ва бошқарув идоралари тизимини мустақил белгилайди» [39], дея таъкидланади.

Ўзбекистон ўз мустақиллигига эришиб бутун жаҳонга юз тутган бир шароитда унинг халқаро ҳуқуқнинг субъекти сифатидаги глобал ва минтақавий муаммолар ечимидаги ўрнини баҳолаш бугунги куннинг долзарб муаммоларидандир.

Миллий давлатчилигимизнинг шаклланишида Ўзбекистон Президенти тарафидан илгари сурилган 3 тамойил муҳим аҳамиятга эга. Булар, аввало, Ўзбекистон Республикаси мустақиллиги ва суверенитетини янада ривожлантириб бориш, иккинчидан, барқарорликка эришиш, учинчидан, ижтимоий кафолатланган бозор иқтисодиёти муносабатларига ўтиш.

Талабалар «Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги тўғрисида Олий Кенгаш баёноти»[40] ҳамда «Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси қонуни[41] билан «Ўзбекистон Республикаси: мустақил давлатнинг бунёд бўлиши» (Т.: Ўзбекистон, 1992) рисоласида танишишлари мумкин.

Ўзбекистон Республикаси истиқлолга эришган даврдан бошлаб халқаро майдонда ўз манфаатларидан келиб чиққан ҳолда фаолият юритмоқда. Ўзбекистон Республикаси ўз миллий давлатчилигини барпо этишнинг янги босқичига чиқиб, унинг фаолияти аксар мамлакатлар ва ҳукуматлар тарафидан ижобий баҳоланмоқда.

Давлат ташқи сиёсатини ҳаракатга келтирувчи энг муҳим омил – миллий манфаатлардир. Ўзининг миллий манфаатларини англаши натижасида давлат мақсадларни белгилаб олади, ташқи сиёсатнинг асосий тамойиллари ва йўналишларини белгилаб олади. Ўзбекистон Республикаси қуйидаги тамойиллар асосида ўз ташқи сиёсатини олиб боради:

1. Ўзга давлатлар манфаатларини эътиборга олган ҳолда давлат манфаатларини амалга ошириш.

2. Умуминсоний қадриятлар ва манфаатлар устиворлиги.

---

[38] «Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг ќонуни // Ўзбекистон Республикаси: мустақил давлатнинг бунёд бўлиши. Т.: “Ўзбекистон”, 1992. 10 бет

[39] «Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг ќонуни // Ўзбекистон Республикаси: мустақил давлатнинг бунёд бўлиши. Т.: Ўзбекистон, 1992. 10 бет

[40] Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги тўғрисида Олий Кенгаш баёноти // Ўзбекистон Республикаси: мустақил давлатнинг бунёд бўлиши. Т.: Ўзбекистон, 1992. 7-9 бет

[41] «Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг ќонуни // Ўзбекистон Республикаси: мустақил давлатнинг бунёд бўлиши. – Т.: Ўзбекистон, 1992. 10-12 бет

3. Ўзаро тенгҳуқуқлилик ва ўзаро манфаатдорлик, ўзга давлатларнинг ички ишларига аралашмаслик.

4. Ташқи сиёсатда очиқлик, мафкуралардан ҳоли этиш.

5. Халқаро ҳуқуқ нормаларининг ички нормалардан устунлиги.

6. Ташқи сиёсатда ҳам икки томонлама, ҳам кўп томонлама муносабатларга таяниш.

Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва дипломатиясининг шаклланиши биполяр халқаро муносабатлар тизимидан янги жаҳон тизимининг шаклланиши даврига тўғри келмоқда. Кишилик жамияти тараққий этиб борар экан, доимо ўзига хос табиий, ижтимоий–иқтисодий, илмий–техникавий хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда ўз миллий манфаатларини шакллантиради, уларни халқаро майдонда ифодалаш мақсадида давлат бошқаруви механизмларини такомиллаштириб боради.

Миллий мустақиллик ва давлат суверенитети миллатимизнинг жаҳон саҳнида ўз муносиб ўрни ва овозига эга бўлиш, миллий давлатчиликни шакллантириш каби халқимизнинг асрий орзусини амалга оширишга қаратилган.

Мазкур омилларни эътиборга олган ҳолда қуйидаги асосий тамойиллар Ўзбекистоннинг ташқи сиёсатига, уни амалга ошириш йўлларини белгилашга негиз қилиб олинган.

Биринчиси, ўзининг миллий-давлат манфаатлари устун бўлгани ҳолда ўзаро манфаатларни ҳар томонлама ҳисобга олиш. Бизнинг мустақил давлатимиз бирон-бир буюк давлат таъсир доирасига тушиб қолиш ниятида эмас. Ўзбекистон яна кимгадир бўйсуниш учун мустақил бўлгани йўқ.

Иккинчиси, Республика одамлар ва давлатлар ўртасидаги ўзаро муносабатларда умумбашарий қадриятларни устун қўйиб, халқаро майдонда тинчлик ва хавфсизликни мустаҳкамлаш учун, можароларни тинч йўл билан ҳал этиш учун курашади. Ўзбекистон ядросиз минтақа бўлиб қолади, тажовузкор ҳарбий блоклар ва уюшмаларга кириш нияти йўқ.

Учинчиси, Республиканинг ташқи сиёсати тенг ҳуқуқлилик ва ўзаро манфаатдорлик, бошқа мамлакатларнинг ички ишларига аралашмаслик қоидалари асосида қурилади. Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлигида, бутун ташқи сиёсатда ҳам бизнинг шиоримиз - тенглар орасида тенг бўлиш, «катта оға»нинг қош-қовоғига қараб иш тутишдан узил-кесил ва абадул-абад халос бўлишдир.

Тўртинчиси, мафкуравий курашлардан қатъий назар ташқи сиёсатда очиқ-ойдинлик принципини рўёбга чиқаришга ва барча тинчликсевар давлатлар билан кенг ташқи алоқаларни ўрнатишга интилади.

Бешинчиси, Ўзининг миллий-ҳуқуқий тизимини вужудга келтираётган ёш мустақил Ўзбекистон ички миллий қонунлардан халқаро ҳуқуқ нормаларининг устиворлигини тан олади. Бизнинг мустақил давлатимиз ўз қиёфасини йўқотмай, жаҳон ҳамжамиятига кирар экан, халқаро талабларга риоя қилишга тайёрдир.

Олтинчиси, Ўзбекистон тўла ишонч принциплари асосида ҳам икки томонлама, ҳам кўп томонлама ташқи алоқаларни ўрнатиш ва

ривожлантириш учун, халқаро ташкилотлар доирасида ҳамкорликни чуқурлаштириш учун ҳаракат қилади[42].

Ўзбекистон Республикасининг Давлат мустақиллигига эришиши ўзининг ташқи сиёсатини миллий манфаатлардан келиб чиққан ҳолда юритишига асос бўлгани билан бирга, жаҳон ҳамжамиятига киришнинг ўз йўлларини ишлаб чиқиш, икки томонлама муносабатларнинг йўналишлари ва устиворлигини белгилаш имконини берди.

3. Fuqarolik jamiyati va uning institutlari.

"Fuqarolik jamiyati" tushunchasi. XX asrning ikkinchi yarmida fuqarolik jamiyati tushunchasi er yuzi bo`ylab keng tarqaldi. Bugungi kunda xam bu tushuncha ko`plab munozalarga mavzu bo`lmoqda. Evropada XVI asrda nashr etilgan Aristotelning «Siyosat» asari uchun nashr etilgan sharxlarda bu tushuncha ilk marotaba, eolon qilinganidan keyin uning dastlab frantsuz tilida qo`llanilishi odatdagi xol bo`lib qoldi.

Fuqarolik jamiyati jamiyatning eng yuqori shakli bo`lib, u o`z ichiga turli «Uyushmalar»ning tarkibiy qismlarini (oila, korporatsiya va boshqalarni) qamrab oladi. Ular o`z moxiyatiga ko`ra jamiyatdagi adolatlilik tamoyiliga asoslangan xamjamiyat bo`lishi ifoda etiladi. Bu jamiyatda xar bir kishi o`zi uchun oliy farovonlik topishi mumkin. Fuqarolik jamiyati g'oyasi oliy maqsad sifatida bir necha asrlardan beri yashab kelmoqda. Fuqarolik jamiyati shunday jamiyatki, unda axolining biron-bir guruxni o`ziga bo`ysundirolmaydi, shuningdek erkaklar bilan ayollarni bir-biri bilan bog'lab turuvchi ko`plab ijtimoiy, fuqaroviy, diniy, iqtisodiy, madaniy aloqa va munosabatlar yanada rivojlanadi. Bu g'oya 80-yillarda avj olgan demokratiyalashtirish jarayoni natijasida aloxida mazmun kasb eta boshlaydi va u totalitar davlatlarga qarama-qarshi bo`lgan ijtimoiy andoza sifatida talqin qilina boshlandi. Fuqarolik jamiyati shaxs uchun keng imkoniyatlar yaratib, unda xar bir shaxs boshqalar bilan birlashishi yoki boshqalar bilan xamkorlikda faoliyat ko`rsata olish mumkin. Fuqarolik jamiyati shu tarzda inson ustuvorligini yuksaklikka ko`taradi.

Shu bilan bir qatorda, xozirgi davrda fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari shakllandi. Bular asosan quyidagilardan iborat:

Iqtisodiy soxada: nodavlat tashkilotlar, kooperativ-shirkatlar, ijara jamoalari, aksiyadorlik jamiyatlari, uyushmalar, koorporatsiyalarning mavjudligi.

Ijtimoiy soxada: oila, partiyalar, jamoat tashkilotlari va xarakatlar, ish va yashash joylaridagi o`z-o`zini boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik fikrini aniqlash, shakllantirish va ifoda etishning madaniylashgan tartibotlari, ijtimoiy ixtiloflarni kuch ishlatmasdan, tazyiqsiz, qonunlar doirasida xal qilish amaliyotining mavjudligidir.

Ma'naviy soxada: so`z, fikrlar va vijdon erkinligi; o`z fikrini ochiq bildira olishning real imkoniyatlari; ijodiy ilmiy va boshqa uyushmalari mustaqilligining xam qonuniy, xam amaliy jixatdan ta'minlanganligi.

[42] Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т «Ўзбекистон». Т. 1. 51-52 бет

Shuningdek, fuqarolik jamiyatining barqarorligini ta’minlovchi shart-sharoitlar xam borki ularsiz bu jamiyatning institutlari rivojlanmaydi. Bular jumlasiga jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning turlicha manfaatlarini ifoda etuvchi rivojlangan ijtimoiy stukturalar mavjud bo`lishi lozimligi kiradi. Qolaversa, jamiyat aozolarining to`la mustaqillik bilan faoliyat ko`rsata olish qobiliyati, ularning eng rivojlangan darajadagi ijtimoiy, intellektual, ruxiy jixatlardan yuksalish sodir bo`lish xam taqoza qilinadi. So`ngi shart-sharoit esa xar bir fuqaroning o`z mulkiga ega bo`lishi, bu mulkni o`zi istagan tarzda tasarruf qila olish uchun shaxsiy yoki jamoaviy xuquqi ta’minlangan bo`lishi lozimligidir.

Fuqarolik jamiyatining belgilari mezonlari va institutlarini tasavvur qila olgan xar bir kishiga ko`rinib turibdiki, bunday demokratik jamiyatning asosini o`z-o`zini boshqarish va jamoat tashkilotlari o`zaro munosabatlarning majmuasi tashkil qilar ekan.

Fuqorolik jamiyatida davlat va xukumatning aloxida o`z funktsiyalari nodavlat va jamoat tashkilotlarining esa aloxida o`z funktsiyalari bo`ladiki, ular bir-birini to`ldirib, yuksak rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligini ta’minlaydi. Davlatning xam, nodavlat tashkilotlarning xam o`z xarakat doirasini o`zlari uchun belgilangan faoliyati u yoki bu tomonga ozgina o`zgarganda xam bunday ijtimoiy-siyosiy muvozanatlar buzilib demokratik meoyordan chekinish yaxud chetga chiqib ketish ro`y berishi mumkinligini asrimizning so`nggi davrdagi rivojlanish amaliyoti ko`rsatdi.

Fuqarolik jamiyat insonlardagi o`z-o`zini anglash ularning ob’ektiv ravishdagi maosuliyat xissini sezish qobiliyatini yuksalishiga xamoxang ravishda shakllangan mamlakatlar fuqarolari siyosiy, axloqiy va xuquqiy madaniyatlari darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Ma’lumki, fuqarolik jamiyatining asosi –jamoat tashkilotlari. Va shu bilan bir qatorda, fuqarolik jamiyatining o`ziga xos xususiyatlaridan biri –bu nodavlat tuzimdagi barcha jamoat tashkilotlariga aozolikning ixtiyoriy shaklda bo`lishidir.

Bu qoida:

Birinchidan, shu jamiyatda demokratiyaning yuqori darajasini namoyon qilsa,

Ikkinchidan, jamiyat aozolarining ijtimoiy ongi va faolliklari yuksakligini bildiradi.

Qolaversa xar bir fuqaro o`zi kirmoqchi bo`lgan tashkilot faoliyatida o`zining manfaatlari va extiyojlariga mos maqsadlarga erishishiga ishonch xosil qilganidan so`nggina shu tashkilotga ixtiyoriy ravishda aozo bo`lishlari, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Oliy Majlis tomonidan barcha qabul qilingan qonunlar majmuasi ruxi va g’oyasi mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini qurishga qaratilgandir. Ayniqsa, ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning VIII sessiyasidagi Prezident I.A. Karimovning ma’ruzasida fuqarolik jamiyati qurishning xozirgi bosqichlari va tamoyillari ko`rsatib berildi. Bizning oldimizda turgan yana bir muxim va dolzarb vazifa-u xam bo`lsa «Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o`tish» degan shiorni amalda ro`yobga chiqarishdir. Bu maqsadga erishish uchun, birinchidan, davlatimizning markaziy va yuqori boshqaruv organlari vakolatlarini bosqichma-bosqich quyi tuzimga, shu jumladan o`zini-o`zi boshqarish tuzilmalariga o`tkazish talab qilinadi. Bular qatorida biz, birinchi navbatda o`zini

xar tomonlama oqlagan maxalla tuzilmasini ko`zda tutamiz. Ikkinchidan, jamiyatimizda nodavlat tashkilotlarning, avvalo fuqarolik institutlarining rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berish va ularni faolligini oshirishga ko`mak va yordam ko`rsatish darkor.

Mazkur sessiyada qabul qilingan «Referendum yakunlari xamda davlat xokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to`g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun Prezident I.A. Karimovning ta'kidlashicha «o`z moxiyatiga ko`ra, kelgusida qabul qilinishi zarur bo`lgan, o`zgarishlar jarayonini o`zida mujassam etadigan yangi qonunlar oldiga printsipial talablar qo`yadi». Mazkur Konstitutsiyaviy qonunning 2-moddasiga binoan demokratik isloxotlarni chuqurlashtirish xamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishga doir qonun xujjatlarini takomillashtirishning asosiy printsiplarini quyidagicha ifodalaydi:

«Qonun ustuvorligini, xokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud tarmoqlari o`rtasida muvozanatni, ulardan xar birining xaqiqiy mustaqilligini ta'minlash; xalqaro xuquqning umum e'tirof etilgan printsiplari va normalari asosida inson xuquqlari va erkinliklari kafolatlarini ta'minlash;

Siyosiy xayotning, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabxalarini izchil erkinlashtirish;

Nodavlat, notijorat, jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa demokratik institutlari yanada mustaxkamlanishi xamda rivojlantirilishi uchun kafolat va shartlarni ta'minlash;

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarini xar tomonlama mustaxkamlash va davlat xokimiyati markaziy organlarining vakolatlarini joylardagi boshqaruv organlariga bosqichma-bosqich o`tkazish, ijro etuvchi xokimiyat organlari, shu jumladan, mudofa va xavfsizlikni ta'minlash tuzilmalar faoliyati ustidan jamoat nazorati mexanizmini shakllantirish va kuchaytirish.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va evolutsiyasi. Fuqarolik jamiyati g'oyasida, kapitalizm va demokratlashtirish jarayoni o`rtasidagi o`ziga xos aloqadorlikning mavjudligi seziladi. Bu aloqadorlik milliy boylikni yaratish va uni taqsimlashda o`z ifodasini topadi. Boshqacha aytganda iqtisodning rivojlanishi demokratiyaning yashashi uchun ijtimoiy kengliklarni yaratadi. Xozirgi davrda Shimoliy Amerika, Evropa, Osiyoning Yaponiya, Janubiy Koreya, Xindiston mamlakatlari, shuningdek, Avstraliyada barpo etilgan fuqarolik jamiyati to`g'risidagi tasavvurlardan kelib chiqadigan bo`lsak, u xolda fuqarolik jamiyati bu:

- Avvalo, jamiyat xayoti faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy soxalarida ixtiyoriy ravishda shakllangan, boshlang'ich nodavlat tuzilmalarini o`z ichiga qamrab olgan insoniy birlikdir.

Ikkinchidan jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma'naviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasidir;

Uchinchidan, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli organlar tazyiqlari, aralishishlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida ximoyalangan jamiyat bo`lib, unda ular o`zligini namoyon qila olishlari uchun doimiy imkoniyatlariga ega bo`ladilar.

Fuqarolik jamiyatiga doir asosiy nazariy yondashuvlar. Mashxur

jamiyatshunos olim Filipp Shmitter fuqarolik jamiyatining quyidagi muxim sifatlarini ajratib ko`rsatgan edi:

-shaxsning axolining aloxida guruxlari va davlatdan mustaqilligi;

- tashkiliy yaxlitlik, bir butunlik;

-davlat tomonidan ximoya qilinadigan xuquqlarga asoslangan «korporativlik»,

-liberallashish bilan bog'liq jarayon yoki xodisa;

-avtokratiyaning despotik kuch sifatida (demokratik natijalari asosida) zaiflashuvi.

Fuqarolik jamiyatining tarkibi. Yurtborishiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda huquqiy davlatning asosiy belgisi barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlashidir.

Fuqarolik jamiyati fuqarolarning boshqaruv jarayonida real ishtirokini, davlat faoliyati ustidan ularning nazoratini ta'minlashga layoqatli nodavlat ijtimoiy tashkilotlarning yig'indisidir. Hozirgi davr fuqarolik jamiyati qator xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy vazifalari. Fuqorolik jamiyatida davlat va xukumatning aloxida o`z funktsiyalari nodavlat va jamoat tashkilotlarining esa aloxida o`z funktsiyalari bo`ladiki, ular bir-birini to`ldirib, yuksak rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligini ta'minlaydi. Davlatning xam, nodavlat tashkilotlarning xam o`z xarakat doirasini o`zlari uchun belgilangan faoliyati u yoki bu tomonga ozgina o`zgarganda xam bunday ijtimoiy-siyosiy muvozanatlar buzilib demokratik meoyordan chekinish yaxud chetga chiqib ketish ro`y berishi mumkinligini asrimizning so`nggi davrdagi rivojlanish amaliyoti ko`rsatdi.

Fuqarolik jamiyat insonlardagi o`z-o`zini anglash ularning ob'ektiv ravishdagi maosuliyat xissini sezish qobiliyatini yuksalishiga xamoxang ravishda

shakllangan mamlakatlar fuqarolari siyosiy, axloqiy va xuquqiy madaniyatlari darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Jamoat birlashmalari. Jamiyat hayotida ko`p sonli ijtimoiy va ommaviy jamoat tashkilotlari faoliyat ko`rsatadi, ular bevosita siyosatning sub'ektlaridir. Ijtimoiy jixatdan zarur bo`lgan maqsadlarni amalga oshirish uchun o`uqarolar tomonidan ixtiyoriy tarzda tuzilgan uyushmalar *ijtimoiy va ommaviy jamoat tashkilotlari* deb ataladi. Ijtimoiy va ommaviy jamoat tashkilotlari O`zbekiston maqsad va vazifalariga ko`ra har bir mamlakatda ishlab chiqiladigan va amalga oshiriladigan siyosatda bevosita qatnashadi. Bu tashkilotlarning shakllanishi uzoq tarixiy taraqqiyot natijasidir. Masalan, qadimgi quldorlik davlatlarida quldorlar sinfining yuqori qatlamlariga mansub bo`lmagan ozod fuqarolar, ozod ishlab chiqaruvchilar o`z manfaatlarini ifoda etuvchi, ularni himoya qiluvchi ijtimoiy jamoat tashkilotlarini tuzib, jamiyat siyosiy tizimining amal qilishi jarayonida u yoki bu darajada ishtirok etganlar.

Ijtimoiy tashkilotlar bilan ommaviy jamoat tashkilotlari aynan bir xildagi tashkilotlar emas. Ijtimoiy tashkilotlar ommaviy tashkilotlardan o`zining jamiyat siyosiy tizimida tutgan mavqei, olib oradigan ishlarining ko`lami, maqsadi-vazifalari, jamiyat siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlaridagi ishtiroki bilan ommaviy jamoat tashkilotlaridan farq qiladi. Ommaviy jamoat tashkilotlari ijtimoiy tashkilotlarga nisbatan juda ko`p sonli bo`lib,ular jamiyatning barcha sohalarida ish olib borayotgan fuqarolarning nisbatankichikroq uyushmalarini o`z ichiga oladi. *Ijtimoiy tashkilotlar va ularning turlari* quyidagilardan iborat: Avvalo bu tashkilotlar jamiyat siyosiy tizimida davlat va siyosiy partiyalardan keyin muhim o`rinni egallaydi. Ular:

1. Kasaba uyushmasi tashkilotlari. Bu ijtimoiy tashkilot bo`lib, o`z saflarida 7,5 mln dan ortiq aholini birlashtirgan (1997). 53 mingdan ko`p boshlang'ishlab chiqarish tashkiloti mavjud bo`lib, uning tarkibida 21ta tarmoq uyushmalari bor. Mustaqillik yillarida 1-marta «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlanganligi» to`g'risida qonun qabul qilindi. O`zKUTlari tizimida 450dan ko`proqmadaniyat saroyi va uyi, klublar, 338 ta kinoqurilma mavjud, 2 mln dan oshiq kitob jamg'armasiga ega bo`lgan 400 dan ziyod klubxona faoliyat ko`rsatmoqda. Mingdan oshiq to`garak va badiiy havaskorlik jamoalarida 30 dan ziyod havaskor ishtirok etmoqda. O`zKUTlari:

1) Hukumat tarmoqlarining rahbarlari, mulkchilikning barcha shakllari bilan rahbarlari va tadbirkorlar bilan yirik bitim va jamoat shartnomalari tuzadi.

2) Ijtimoiy sug'urta mablag'larining bir qismini tasarruf etadi.

Kasaba uyushmalari tashkiliy-siyosiy kurashga uyushqoqlik asosida etakchilik qiladi va ko`p hollarda o`z oldiga qo`ygan maqsadlariga erishadi. Jamiyat taraqqiyotida shunday voqealar ham sodir bo`lganki, kasaba uyushmalari mustabid tuzumga qarshi demokratik siyosiy tuzumni o`rganganlar va davlat boshqaruvini qo`lga kiritganlar. Masalan, 1974 yilda Germaniyadagi «qora polkovniklar» diktaturasining qulashiga va demokratik siyosiy tuzum o`rnatilishiga kasaba uyushmalari uyushtirgan va boshqargan ish tashlashlar sabab bo`lgan. Polsha Xalq Respublikasida «Birdamlik» kasaba uyushmasi uzoq yillar davomida olib organ kurashishi natijasida siyosiy hokimiyatni o`z qo`llariga olgan edi.

2. Yoshlar tashkilotlari harakati. «Kamolot» ijtimoiy harakati. 2000 yilgacha O`zR yoshlarining «Kamolot» jamg'armasi nomi bilan faoliyat ko`rsatishi mustaqillik yillarida ko`p ishlarni amalga oshirsada u o`zini oqlamadi. (1996y. O`zR prezidentining «O`zR yoshlarning «Kamolot» jamg'armasi to`g'risida»gi farmoni ham bor edi). Natijada 200 y. 24 yanvarda yoshlar masalasiga bag'ishlangan yig'ilishida prezidentimiz I.Karimov ««Kamolot» yoshlarning chinakkam suyanchi va tayanchi bo`lsin» nutqida «Kamolot» nomini saqlab qolishni, shu nom bilan ataladigan yangi tashkilotni… (Asarlar, 9-tom, 197-bet) tuzishni taklif etdi. Natijada 2000 yil aprelda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati ta'sis etildi. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotining 2001 y. 1oktabrgacha 14 ta viloyat, 211 ta tuman, shahar bo`limlari va 13 minglan ortiq boshlang'ich tashkiloti tashkil etildi. A'zolari soni 2.6 mln nafardan oshdi (Turkmston. 2001y. 22 sentabr).

3. Xotin-qizlar tashkilotlari. Mamlakatimi aholisining 52% dan ortig'ini xotin-qizlar tashkil qiladi. Mustaqillik yillarida Respublikamiz xotin-qizlarining 1)tungi smenalarda ishlashdan xalos etish; 2) ertaroq pensiyaga chiqarish; 3) sog'ligini mustahkamlash bo`yicha ancha ishlarni olib bordi.

Umuman, xotin-qizlar tashkilotlarining asosiy maqsadi xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish bilan birga, ularni jamoat ishlariga safarbar qilish va shu asosda xotin-qizlarning ijtimoiy faolliklarini oshirib borishdan ham iboratdir. 1945 yilda «Xalqaro xotin-qizlar demokratik federatsiyasi» tashkilotiga asos solindi…

4. Diniy tashkilotlar – diniy jamoalarning eng yuqori rasmiy uyushmasi. Jamiyat siyosiy hayotida boshqa jamoat tashkilotlari bilan bir qatorda diniy tashkilotlar ham muhim rol o`ynaydi. Dunyodagi musulmon mamlakatlarini 3 guruhga bo`lish mumkin: 1) islom mamlakatlari; 2)islom davlat dini mamlakatlari; 3) huquqiy demokratik musulmon davlatlari (din davlatdan ajratilgan, O`zbekiston ana shu davlat turiga kiradi). 2002 y.ga kelib respublikamizda 15 ta diniy konfessiyaga mansub 1900 tadan ziyod diniy tashkilotlar faoliyat ko`rsatmoqda. Buxorodagi Mirarab madrasasi, Islom universitet, Toshkentda oliy ma'xad, 14 ta madrasa, 400ga yaqin diniy musulmon o`quv muassasalari va boshqa dinlarga tegishli 19 o`quv yurtlari muassasalarida 4200 dan ortiq yoshlar din asoslarini, dunyoviy bilimlarni o`rganmoqda[1].

Ommaviy jamoat tashkilotlari. Jamiyat siyosiy tizimida ijtimoiy tashkilotlar bilan bir qatorda ommaviy jamoat tashkilotlari ham muhim rol o`ynaydi. Ommaviy jamoat tashkilotlari ijtimoiy siyosiy tuzumi qanday bo`lishidan qat'iy nazar barcha mamlakatlarda amal qiladi. Avvala demokratik jamiyatni barpo etishda BMT hujjati (memorandumi)da ko`rsatilganidek 3 ta (soha) sektorning o`zaro hamkorligi muhim ahmiyat kasb etadi. Bular: 1) davlat; 2) bozor (iqtisodiyoti); 3) jamoat tashkilotlari. Uchinchi sektor haqida gap ketganda ular tarkibiga: kasaba uyushmalari (avvalo buni ijtimoiy tashkilotlarning asosi sifatida ham qaraladi), jamg'armalar, yoshlar va xotin-qizlar harakatlari, kasbiy assotsiatsiyalar, klublar, akademik institutlar va boshqalar kiradi.

Uchinchi sektor sub'ektlari turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi. Masalan, Buyuk Britaniyada xayriya muassasalari, AqShda nohukumat yoki notijorat tashkilotlari, ayrim mamlakatlarda esa ular ko`ngilli jamiyatlar deb yuritiladi.

Lekin ko`pincha mutaxassisilar, olimlar o`rtasida ham nohukumat, nodavlat atamalariga shubha bilan qarash mumkin. Bu haqda BMT tizimining ma'lumotnomasida shunlay deyiladi: «Nohukumat tashkilotlari atamasi unga qarama-qarshi bo`lgan davlat tashkilotlari atamasining ayni teskari ma'nosiga ega. BMT tizimida hukumat tashkilotlari davlatlararo bitimlar asosida yuzaga kelib, unga a'zo bo`lgan hukumatlardan tashkil topadi. Nodavlat tashkilotlari esa davlatlararo bitimlar asosida tuzilmaydi va unga kiruvchi hukumatlardan iborat emas. Nodavlat tashkilotlari milliy va xalqaro, umumiy va yuqori ixtisoslashgan bo`lib, unga BMT tarkibiga kmruvchi tuzilmalar bilan maslahat hamda operativ vakolatlar asosida o`zaro hamkorlik qilish mumkin». ***Jamoat tashkilotlari tuzish va faoliyat printsiplari:***

1) ixtiyoriylik; 2) teng huquqlilik; 3) o`zini-o`zi boshqarish; 4) oshkoralik; 5) qonuniylikka asoslanadi. ***Jamoat tashkilotlarining o`ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:***

1. *Ko`ngillilik* – ularning mutlaqo ixtiyoriy asosda tuzilganligi. Unda a'zolikning va faoliyat ko`rsatishning har bir fuqaroning xoxishi hamda roziligi bilan amalga oshiriladi.

2. Mustaqillik – mavjud qonunlar va o`z nizom qoidalariga ko`ra faoliyat ko`rsatish. Biror bir o`zga tashkilotning qonunsiz aralashuvidan xoli bo`lish.

3. O`zini-o`zi mablag' bilan ta'minlash. Nizom maqsadlarini amalga oshirish uchun qonunchilik talablariga muvofiq tadbirkorlik, ishlab chiqarish – xo`jalik va boshqa man qilinmagan faoliyat bilan shug'ullanish.

***4. O`z nomidan kelib chiqib, jamoatchilik***, ya'ni ko`pchilik uchun xizmat qilish. O`ziga tegishli ma'lum qatlam yoki guruh manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy yordamko`rsatish va hokazo.

2002 y.ga kelib mamlakatimizda respublika va xalqaro ahamiyatga molik 220 dan oshiq jamoa tashkilotlari faoliyat ko`rsatmoqda. Jumladan 4 ta siyosiy partiya, 2 ta harakat, 46 ta jamiyat, 5 ta qo`mita, 24 ta assotsiatsiya, 18 ta tarmoq kasaba uyushmalari, 25 ta jamg'arma, 15 ta uyushma, 32 ta federatsiya, 31 ta boshqa tashkilotlar mavjud. Shuningdek, resaublikamizda hisob ro`yxatiga olingan 1500 ta viloyat, 20 dan ortiq xorijiy davlatlarning jamoat tashkilotlari ham bor (Ma'rifat. 1998y. 14 noyabr). O`zbekistonda 1286 ta jamoat birlashmalaridan 292 tasi ro`yxatga olingan.

O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining XIII bobida, «fuqarolik kodeksining» 73-75 moddalarida «Jamoat birlashmalari to`g'risida», «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatinng asoslari haqida», «Siyosiy partiyalar to`g'risida» (1996)gi qonunlarda nohukumat tashkilotlarining faoliyatini ta'minlashga qaratilgan qoida va me'yorlar o`z aksini topgan bo`lsa, prezident farmonlarida va VMning qarorlarida ularni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash, imtiyozli soliq to`lovlarini belgilash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash shart-sharoitlari yaratib berilmoqda. 1992 y. Oliy Kengash XI sessiyasida prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, «davlat siyosiy partiyalarning, jamoat birlashmalarining huquqiy manfaatlarini muhofaza etadi, ularga ijtimoiy turmushda ishtirok etish uchun teng huquqiy erkinlik yaratib beradi» (Asarlar, 1-

tom, 126-bet).

Prezidentimiz I.Karimov «O`zbekiston XX1 asrga intilmoqda» asarida «Jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tizimlarining mavqei o`sib bormoqda,-degan edi. So`nggi 5 yil ichida jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlari soni 1500taga ko`payib, bugun (1999) ularning soni 2300 taga etdi. Ular faqat aholi fikrining turli ko`rinishlarini ifoda etib qolmasdan, odamlarnign ijtimoiy fikrini shakllantirishga ham faol ta'sir ko`rsatmoqda» (Asarlar, 7-tom, 384-bet).

Mamlakatimizda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning tashabbusi bilan tuzilgan va ko`ngilli, o`zini-o`zi boshqaruvchi tashkilotlar xilma-xilligi bilan farqlanadi. O`zbekistondagi barcha nodavlat va jamoat birlashmalarini 8 guruhga bo`lish mumkin:

1. Aholi muayyan yirik toifalarning ijtimoiy manfaatlarini ko`zlab ishlashga ixtisoslashgan hukumatga qarashli bo`lmagan umummilliy tashkilotlar. Bu tashkilotlar jumlasiga:

1) «Mahalla» jamg'armasi.
2) O`zR xotin-qizlar qo`mitasi.
3) Nogironlar uyushmasi.
4) «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati.
5) «Nuroniylar» faxziylar jamg'armasi

kiradi.

2. Ixtisoslashgan milliy va xalqaro jamg'armalar:

1) «Ekosan»
2) «Sog'lom avlod uchun» jamg'armasi.
3) «Umid» jamg'armasi.
4) Amir Temur madaniy-tarixiy jamg'arma.
5) Matbuotni demokratlashtirish va jurnallarni qo`llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi.
6) Orolni qutqarish jamg'armasi.
7) Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniyat va fan arboblari anjumani.

3. Hukumatga qarashli bo`lmagan huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar:

1) Inson huquqlarini himoya qilish qo`mitasi.
2) Inson huquqlari va gumanitar huquqni o`rganish markazi.
3) Huquqiy yordam ko`rsatish jamiyati.

4. Ijodkor ziyolilarning milliy jamoat tashkilotlari, bunda:

1) Yozuvchilar
2) Artistlar
3) Rassomlar
4) Bastakorlar
5) Arxitektorlar

6) Kinomatografchilar

7) Sudlar

8) Advokatlar

jamoat tashkilotlari kiradi.

5. Milliy madaniyat markazlari (100dan ziyod): O`zbekistonda yashovchi milliy (ozodlikni tashkil etuvchi) jamoal vakillarining madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlarini saqlab qolish maqsadida birlashtirgan.

6. Umumiy xayriya jamiyatlari, jamg'armalari:

1) Bolalar jamg'armalari.

2) Bolalar uyi tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy himoya qilish jamg'armalari.

3) Respublika talabalar jamg'armasi.

7. Ijtimoiy ahamiyatli va ijodiy izlanishlar bilan bog'liq, asosan ekologik masalalari bo`yicha mahalliy birlashmalar:

1) Sayyohlik va badiiy havaskorlik klublari.

2) Nogiron bolalar ota-onalarining birlashmalari.

8. Jamoat muassasalari:

1) «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi.

2) Jurnalistlarni tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazi.

3) «Sabr» ishonch markazi – Samarqanddagi mushkul vaziyatlarda ayollar va o`smirlarga yordam ko`rsatish bilan shug'ullanuvchi kabi hukumatga qarashli bo`lmagan ijtimoiy muassasalar.

Shuningdek, jamoat tashkilotlariga dunyodagi bir qator:

1) «Xalqaro qizil salb va qizil yarim oy tashkiloti.

2) «Chet mamlakatlar bilan madaniy aloqa bog'lash O`zbekiston jamiyati».

3) Yozuvchilar, teatr xodimlari, rassomlar, jurnalistlar uyushmalari.

4) Maxalla kengashlari ham kiradi.

Ijtimoiy harakatlarning mohiyati va manbai. Ijtimoy harakatlar insonlar turli guruhlarining manfaatlarini o`zida ifodalovchi kishilarning o`ziga xos uyushmasidir.

Ijtimoiy harakatlarni ajratib turadigan belgilar ommaviylik, ixtiyoriylikda aniq ko`rinadi. O`z yo`nalishlari ma'nosida ayrim harakatlar mustahkam emas.

Harakatlarning asosiy maqsadlari ko`pincha eng umumiy qoidalar yordamida shakllantiriladi: ozodlik, adolat, milliy uyg'onish, mustaqillik, tabiatni muhofaza etish va boshqalar. Bu esa kishilarning katta ommasini o`z tomonlariga birlashtirish imkonini vujudga keltiradi. Harakatlarning ayrim qismi, masalan,

kasaba uyushmalari, yoshlar, tinchlik tarafdorlari (ular hozirgi kunda o`zlarining avvalgi ahamiyatlarini ancha yo`qotganlar, bunga sobiq sotsialistik lagerning barbod bo`lganligi sabab bo`ldi).

O`zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishining o`ziga xos xususiyatlari. Інсоннинг ялпи ҳуқуқлари кафолатланадиган, мафкуравий плюрализм таъминланадиган жамият тузилиши. Бунда ҳар бир фуқаро, жумладан, Ўзбекистон фуқароси ўз ихтиёри билан фуқароликдан чиқиши мумкин. Фуқароликдан чиқмоқчи бўлганлар олдига маълум шартлар қўйилади, яъни улар давлат, жамоа, фуқаролар олдида ҳеч қандай мажбурияти, қарздор ёки давлат ва ҳарбий сирлардан воқиф бўлмаслиги керак. Агар фуқароликдан чиқишни илтимос қилувчи шахс айбланувчи сифатида жиноий жавобгарликка тортилган бўлса ёки унга нисбатан қонуний кучга кирган ва ижро этилиши зарур бўлган суд ҳукми бўлса, у фуқароликдан вақтинча чиқарилмайди. қуйидаги ҳолларда Ўзбекистон фуқароси фуқаролигини йўқотади:

1) Чет давлатда ҳарбий хизматга, хавфсизлик хизмати идораларига, полицияга, адлия идораларига ёки давлат ҳокимияти идораларига ишга кирса.

2) Чет элда яшовчи Ўзбекистон фуқароси 5 йил давомида узрли сабабсиз консуллик ҳисобида турмаса.

3) Фуқароликни сохта ҳужжатлар тақдим этиб олган бўлса.

Фуқароликдан чиқариш Ўзбекистон Президенти ваколатига киради.

O`zbekistonda fuqarolik jamiyatining asosiy institutlari. Нақиқий фуқаролардан, яъни узвий боғлиқликда бўлган ҳамда ахлоқий маданиятга таянадиган ҳуқуқий ва сиёсий маданиятга эга одамлардан иборат жамиятдир. Ўзбекистон «Кучли давлатдан – кучли жамият сари» концепциясини ишлаб чиқди ва уни изчилик билан амалга оширмоқда. Фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқаришнинг қуйи органи бўлган маҳалланинг аввало ҳуқуқий асослари яратилмоқда. Бу Асосий қомусимизнинг 105-моддасида ўз ифодасини топган. 1993 йил 2 сентябрда «Фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари тўғрисида» қонун, 1999 йил 14 апрелда «Фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари тўғрисида» қонуннинг янги таҳрири, 2001 йил 9 апрелда Олий Мажлис Кенгашининг «Фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органларига сайлов ўтказишни ташкил этиш тўғрисида»ги қарори қабул қилинди. 2000 йилга келиб Ўзбекистон 13 мингдан ортиқ, Тошкент шаҳрида эса 481 тадан кўпроқ маҳалла фаолият юритмоқда.

4. Siyosiy partiyalar va harakatlar

“Siyosiy partiya” tushunchasi. “Partiya” so`zi lotincha, “parz qism” “guruh” so`zlaridan kelib chiqqan bo`lib, u yoki bu jamiyatda mavjud bo`lgan ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, qatlamlarning bir qismini, odatda ularning ilg’or va eng faol qismini birlashtiradigan siyosiy tashkilotni anglatadi.

XX asrning so`nggi davriga kelib J.Lapalambara va J.Anderson “Boshqaruv va siyosat ensiklopediyasi” nomli asarida quyidagi ta’rifni berganlar. Partiya rasmiy maqomga ega bo`lish va rasmiy tashkilot bo`lish bilan bog’liq markazni

periferiya bilan bog'lovchi va davlat organlariga o`z nomzodlarini saylovlar vositasida o`tkazishga moyil bo`lgan har qanday guruhdir.[43]

G'arb politolog olimlari siyosiy partiyalarni quyidagi belgi va funktsiyalari asosida ta'riflaydilar. Siyosiy partiya – rasmiy va tashkiliy tizimiga ega huquqiy maqomga ega bo`lgan va saylov jarayonlariga qo`yilgan nodavlat institut turi va guruhiy birlashmadir.

Siyosiy Partiya umumiy g'oya va manfaat, ijtimoiy-siyosiy manfaatlar, maqsadlar asosida odamlarni ixtiyoriy ravishda birlashtiruvchi turg'un tashkilot, fuqaroviy jamiyat bilan davlatni bir-biriga bog'lovchi eng muhim vositalaridan biri, hozirgi zamon demokratik davlati hayotining zururiy omilllaridan biridir.

«Partiya» so`zining o`zi lotincha «parz» - qism, bo`lak so`zlaridan kelib chihhan bo`lib, u jamiyatda mavjud bo`lgan ijtimoiy sinf, tabaqa, guruhlarning bir qismini, ularning eng ilg'or faol qismini birlashtirgan siyosiy tashkilotni anglatadi.

Siyosiy partiya – ijtimoiy sinf, tabaqa va guruhlarning tub manfaatlarini va O`zbekiston faoliyatida ifoda etuvchi ularning muayyan maqsad-manfaatlarini, orzu-umidlarini himoya qilish uchun kurashda ularga siyosiy rahbarlik qiluvchi siyosiy tashkilotdir.

Boshqacha aytganda, siyosiy partiya – jamiyat muayyan qismi, manfaatlarini ifodalovchi va davlat organlari faoliyatida ishtirok etishni o`ziga maqsad qilib qo`yuvchi maslakdoshlarning uyushgan guruhidir.

Siyosiy partiyalar – jamiyatning muayyan ijtimoiy tabaqalari faol namoyondalarini birlashtiruvchi, siyosiy hayotda bevosita ishtirok etishorqali O`zbekiston manfaatlarini ifodalovchisiyosiy tashkilot. Yoki boshqacha izohlaganda, siyosiy partiyalar - qarash va maqsadlari bir bo`lgan turli tabaqa va guruhlardagi fuqarolarning siyosiy maqsadini ko`zlab tuzgan birlashmalari-tashkilotlaridir.

Siyosiy partiyalar - siyosiy tizimning o`ziga xos tarkibiy qismi sifatida. Ularning boshqa jamoat tashkilotlari va uyushmalardan farqi. Asosiy siyosiy tashkilotlar ichida ko'zga ko'ringan rolni siyosiy partiyalar o'ynaydi. Partiya odatda ma'lum sinf va qatlamning manfaatlari va qiziqishlarini ifoda etuvchi va himoya qiluvchi nisbatan faol hamda tashkiliy qismi sifatida yuzaga kelgan. Ammo XX asrning o'rtalariga kelib partiyalar siyosiy kurashining asosiy formasi sifatida parlament faoliyatining qaror topishi bilan sinfiylikni ifoda etgan partiyalar o'rniga "umumxalq" partiyalari kela boshladi. Umumxalq terminini qat'iy ma'noda tushunish kerak emas, chunki biror bir partiya hammaning qiziqishlarini to'la qondira olmaydi. Ammo har bir partiya o'z dasturida ma'lum bir sinf yoki qatlamning qiziqishlarinigina emas, shuningdek ijtimoiy kuchlarning butun bir katta bo'lagining manfaatlarini hisobga olishga harakat qiladi. Masalan, sotsial-demokratik partiyalar qo'shma iqtisodiyotni tartibga solish, sotsial adolatlilik qadriyatlariga erishish, birdamlik, mehnatkashlarni himoya etishga o'z faoliyatlarini yo'naltirmoqdalar. Tabiiy bunday siyosatdan ishchilar ham, mayda va o'rta burjuaziyaning bir qismi, pensionerlar va ishsizlar ham manfaatdor.

Asosiy bo'lmagan siyosiy tashkilotlarga kasaba uyushmalari, yoshlar

[43] O`sha joyda. 106-b.

tashkiloti, kooperativ tashkilotlar va mehnat jamoalari hamda aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qiluvchi turli uyushmalar kiradi.

Bu tashkilotlar ijtimoiy xarakterni kasb etgan bo'lishiga qaramay demokratiya va oshkoralik tufayli siyosiy hayotga keng tortilmoqdalar.

Shaxs siyosiy tashkilotning a'zosi bo'lib, u o'z manfaatlarini ma'lum sotsial qatlam, guruh, sinf, millat manfaatlari bilan bir deb hisoblaydi, o'zini ma'lum tashkilot bilan bog'laydi, unga o'zining manfaatlarini davlat darajasida ifoda etish va himoya qilishni ishonib topshiradi.

Siyosiy tashkilotlarning ta'siri ma'lum siyosiy tartib asosida yuz beradi. Eng muhimi huquqiy tartibot hisoblanadi. Konstitutsiyalarda belgilangan qonun va boshqa qoidalardan chetga chiqish hollari yuz bergan taqdirda uning ustidan davlat sanktsiyasi amalga oshiriladi. Shuningdek siyosiy faoliyatni amalga oshirishda ijtimoiy tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan va ishlarni tartibga soluvchi qoidalar (normalar) ham katta rol o'ynaydi. Bu ushbu tashkilotlarning ustav qoidalaridir.

Partiyaning siyosiy, sotsial, mafkuraviy vazifalari. XX asrga kelib politolog olimlar tomonidan demokratik tamoyillar asosida faoliyat yuritadigan siyosiy partiyalarning asosiy funktsiyalari quyidagilaridan iborat ekanligi aniqlandi:

1.Nazariy: Jamiyat istiqbolini tahlil etish va nazariy jihatdan baholash, turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini aniqlash, jamiyatni yangilash strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish. .

2.G'oyaviy: Ommaning dunyoqarashini, ahloqiy qadriyatlarini ximoya qilish, o`zlarining dasturiy maqsadlari va siyosatini tashviq qilish, fuqarolarni o`z partiyasi saflariga jalb etish.

3.Siyosiy: Hokimiyat uchun kurash, davlatning ichki va tashqi siyosiy yo`lini ishlab chiqish va amalga oshirish; muqobil takliflarni tayyorlash, saylovoldi dasturini bajarish.

4.Tashkiliy: Dasturiy ko`rsatma va qarorlarni amalga oshirish, saylov yo`lini ishlab chiqish va amalga oshirish; saylov kompaniyasini o`tkazish; saylanadigan lavozimlar uchun nomzodlarni tanlash; hukmron elita uchun kadrlarni tayyorlash, hukumatni tuzish.

***Partiyalarning paydo bo`lishi va shakllanishi.*** Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi siyosiy hokimiyatni yo`lga kiritish uchun murosasiz kurash olib borish zaruriyati bilan uzviy bog'liqdir. Siyosiy partiyaga o`xshash institutlar /arb va Sharqda qadimdan mavjud bo`lgan[1]. tarixdan ma'lumki siyosiy partiyalar qadimgi Yunonistonda tashkil topgan bo`lib, ular oldin juda ozchilikni O`zbekiston saflarida birlashtirgan. Ular tarkibi jixatdan juda tor doirada uyushgan siyosiy tashkilotlar bo`lgan. Ular asosan jamiyatdagi turli sinflarnign manfaatlarini emas, balki quldorlar sinfi ichidagi xilma-xil siyosiy oqimlar manfaatlarini ifoda etgan. Afinada geteriylar, Rim optimat va populyarlari antik djavrida siyosiy partiya vazifalarini bajarishgan.

O`rta asrlarning siyosiy hayotida ham siyosiy partiyalar o`zlarining mohiyati jixatidan bir oz farq qilgan. Faqat mustabidlik yoki mutlaq hukmronlik tuzumlarida siyosiy partiyalar jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida ochiq harakat qila olmagan.

Sanoatlashtirish davriga qadar siyosiy partiyalarning universal shakli klanlar va maxfiy tashkilotlar edi. Klanlar asosan qarindoshlik aloqalari bilan bog'langan kishilardan iborat edi. *O`rta asrlar* Angliyasida Yorklar va Lankasterlar, Arabistonda (urta asrda) esa alaviylar («Ali partiyasi»), Osiyo davlatlarida xozirgi kunda ham qarindoshlik va yurtdoshlik printsiplarning siyosiy partiyalarning shakllanishi va faoliyat ko`rsatishidaahamiyati katta.

XVIII-XIX asrlarga kelib, siyosiy partiyalar belgilangan tarzda tasdiqlangan dastur , nizomi va doimmiy a'zoligi bilan zamonaviy demokratik institutlar shakllanishi davrida payda bo`lgan. Agar partiya muxolifat xususiyatiga ega bo`lsa, demokratik muassasalar rivojlanmagan sharoitdamaxfiy tashkilot xususiyatlariga ega bo`lib qoladi. Evropada masonlar tashkilotlari, Islom dunyosida Ismoiliylar tashkilotlari. Ayrim paytlarda bu siyosiy partiyalar maxfiy tashkilot xususiyatlariga ham ega bo`ladi.

***Siyosiy partiyalarning shakllanishi uch yo`l bilan sodir etiladi.*** "Yuqoridan" shakllanish yo`li parlament guruhlari siyosiy elita, partiya byurokratlari faoliyatlari asosida amalga oshirilishi mumkin. "Quyidan" shakllanish ijtimoiy harakatlar, yoki aniq mafkura, etakchi tarafdorlarining birlashuvlari asosida bo`lishi mumkin. Partiya shakklanishining "aralash" usuli elitar guruhlar va oddiy fuqarolarning birgalikdagi harakatlari asosida ro`yobga chiqadi.



***Ularning paydo bo`lishiga va shakllanishiga ta'sir etadigan tarkibiy – tarixiy, iqtisodiy va siyosiy omillar.*** Xozirgi sharoitda amal qilayotgan siyosiy partiyalar O`zining ijtimoiy a'zosi, tarkibi va siyosiy harakat dasturining qanday maqsadlarga yo`naltirilganiga qarab 3 guruhni tashkil etadi:

1. *Feodal munosabatlari* va tartiblarning saqlanib qolishini ifoda etuvchi siyosiy partiyalar. Bu guruhga Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasidagi feodal munosabatlari saqlanib qolayotgan mamlakatlarda faoliyat ko`rsatayotgan siyosiy partiyalar kiradi. Maqsadi: feodal tuzum tartiblarini himoya qilishdan iborat. O`zbekiston mavqeini yo`qotib borayotgan podsholik(monarxistik), diniy, millatchilik, konservativ, ozodlik partiyalari nomlari ostida ish yuritadi.

Burjua sinfi manfaatini ifoda etuvchi partiyalar bo`lib, podsholikni tan oladi, ba'zan sotsialg'demokratik ko`rinishidagi partiyalardir.

3. *Ishchilar, dehqonlar, ziyolilar,* hunarmand-kosiblar manfaatini siyosiy faoliyatlarida va harakat dasturlarida aks ettiradigan siyosiy partiyalardir.

Avval boshda kapitalistik jamiyatda siyosiy partiyalar XIX asrda burjuaziyaning turli guruhlari tomonidan tuzilgan. Amerika qit'asida: AQSh Demokratik partiya (1828), Gonduras milliy partiyasi (1854), Kolumbiya

konservati vpartiyasi (1848), Kolumbiya liberal partiyasi(1849), Argentina trajdanlar radikal ittifoq partiyasi (1891), Gonduras liberal partiyasi (1891), Gonduras milliy partiyasi (1891) tashkil topdi. Evropada: Belgiya katolik partiyasi (1891), Italiya respublikachilar partiyasi (1832), Buyuk Britaniya liberal partiyasi (1867), Buyuk Britaniya konservativ partiyasi(1867) tashkil topdi. Osiyoda: Hindiston milliy kongressi partiyasi (1885). Afrikada: (asosan XX asr boshlarida) Janubiy Afrikaliklar milliy kongressi partiyasi (1912), JAR millatchilar partiyasi (1918). Avstraliya va Okeaniya qit'asida: Avstraliya leyboristlar partiyasi (1891), Milliy (sobiq agrar) partiya (1916), Leyboristlar partiyasi (1916), Avstraliya liberal partiyasi (1944) va boshqa partiyalar yuzaga kela boshladi. Siyosiy partiyalar faoliyati O`rta Osiyoda asosan XX asr boshlariga kelib tashkil topdi. Bu avvalo O`rta Osiyoda mustamlakachilik siyosatiga qarshi ozodlik harakati bilan bog'liq bo`lgan[2]. Jumladan, shu yillarda keng yoyilgan jadidchilik harakati tufayli «Turon», «Ittixodi taraqqiy», «Birlik», «Sharq birligi», «Yosh buxororliklar», «Yosh xivaliklar», «Miftah ul-maorif» va boshqa ko`plab ijtimoiy tashkilotlar faoliyat ko`rsatgan. Ammo sobiq sho`ro hukumatining qurolli istilosi natijasida barcha milliy siyosiy partiyalar faoliyati ta'qibga olindi va batamom tugatildi. Faqat istiqlol tufayligina O`zbekiston siyosiy partiyalar tom ma'nodagi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tarkibiga aylandi.

Partiyaning turlari; kadrlar va ommaviy, demokratik, avtoritar va totalitar, etakchi, muxolif partiyalar va h. Siyosatshunoslik ta'limotida politologlar siyosiy partiyalar tuzilishiga doir turli O`zbekiston fikr-muloxazalarni bildirganlar.

Siyosiy partiyalarning tuzumga ko`ra turlari:

1. Burjua-demokratik partiyalar.
2. Avtoritar partiyalar.
3. Sotsialistik partiyalar.

Siyosiy partiyalar faoliyatidagi ustunlik xususiyatiga qarab, ularni quyidagi turlarga bo`lish mumkin:

1. Avngard tipidagi partiyalar.
2. Parlament tipidagi partiyalar.
3. Saylov kampaniyasida ishtirok etish uchun ta'minlanadigan partiya (ko`proq rivojlangan mamlakatlarda).
4. Munosabat partiyasi, klub partiyasi (ma'rifatparvarlik xarakteridagi, Moskva ishchilar klubi va hokazo.

*Siyosiy partiyalar sinfiy belgilariga ko`ra:* proletar, dehqon, mayda burjua, burjua, pomeshchik partiyalari mavjud bo`lgan.

*Siyosiy partiyalar mafkuraviy belgilariga ko`ra:* kommunistik, sotsialistik, sotsial-demokratik, xalq, liberal, konservativ, diniy va milliy partiyalarga bo`lingan.

Siyosiy partiyalar mavjud tuzumga ko`ra bo`lingan: inqilobiy, islohotchi, konservativ va reaktsion partiyalar bo`lgan.

*Siyosiy partiyalar tarkib topishi, faoliyat usullariga ko`ra:* demokratik, avtoritar, totalitar partiyalarga bo`lingan.

Siyosiy partiyalar tarkibiga ko`ra: ommaviy partiyalar, xodimlar partiyasi, oq

suyaklar partiyasi bo`lgan.

*Siyosiy partiyalar yo`nalishiga ko`ra bo`lingan:* so`l, markaz, o`ng partiyalar mavjud bo`lgan.

Siyosiy partiyalar faoliyatiga ko`ra bo`lingan: bosiq, radikal, ekstremistik partiyalar uchraydi.

Partiyaviy tizim va uning turlari; bir partiyaviylik, ikki partiyaviylik, ko`p partiyaviylik. *Partiya tizimi*_– siyosiy institut tushunchasi, jamiyatning siyosiy tuzilishi va jamiyat a'zolarini davlat va jamiyat hayotida ishtirok etishning qabul qilingan hamda e'tirof etilgan qoidasi.

Partiyaviy tizim – jamiyat ichida ijtimoiy faoliyatni shakllantiruvchi, tashkil etuvchi siyosiy institutlar majmuasidir. Siyosiy institutlar bir tomondan siyosiy partiyalar bilan davlat o`rtasidagi o`zaro munosabatlar, boshqa tomondan – partiyalar siyosiy tizimning ijtimoiy elementlari va fuqarolar o`rtasidagi munosabatlari ifodasi. Partiya tizimi ma'lum bir jamiyat yoki davlatlar tomonidan qabul qilinmagan. Iasalan, Butan, Omon, quvayt, Saudiya Aravistoni kabilar. Shu bilan birga, bir partiyali yoki ko`p partiyali tizimlar hammavjud.

Siyosiy partiyalar partiyaviy tizim jixatdan klassifikatsiyasi, turlari: demak, dunyo davlatlarida partiyaviy tizim klassifikatsiyasi, turlari quyidagilar bo`lib kelgan:

1. ***Ko`p partiyaviylik tizimi*****.** Bu tizimda fuqarolarga turli partiyalardan nomzodlarni tanlab olishga va jamiyatni davlatlashtirishda u yoki bu dasturga afzallik berishga imkon yaratadi. Ko`p partiyaviylik tizimi O`zbekiston navbatida:

1) Ko`p partiyaviylik tizimida *hukmron pratiyalarga* bo`linadi. Masalan AqSh demokratik partiyasi (1828), AqSh respublikachilar partiyasi (1854), Avstraliya qat'asida leyboristlar partiyasi (1916), Alyans partiyasi (1966), O`zbekistonda FMDP (1998), XDP (1991) va hokazo.

2) Ko`p partiyaviylik tizimida *hukmronsiz partiyalar*. Masalan, AqSh Kompartiyasi(1919), AqSh sotsial-demokratik partiyasi, AqSh sotsialistik partiyasi, O`zbekistonda bizning taxminimizcha, «Adolat» partiyasi (1995), Milliy tiklanish partiyasi (1995) va hokazo.

3) *Ittifoq (blok) partiyalari.*_Masalan, Germaniya sotsial-demokratikpartiya (1869), Xristian sotsial ittifrqi (1945), Erkin demokratik partiya (1848), Xristian demokratik ittifoqi (1950), «Ko`katparvarlar» partiyasi (1980) va hokazo.

2. Ikki partiyaviylik tizim. AqShda 2 partiyaviyli tizim tarkib topgan bo`lib hokimiyat tepasiga Respublikachilar (xozirgi prezident J.Bush) va Demokratik partiyasi kelib turadi.

3. Bir partiyaviylik tizimi. Tarixning borishi yakka partiyaviylik tizimi davlatda diktatura o`rnatilishiga olib kelishini tasdiqladi.

Siyosiy partiyalar jamiyatda tutgan mavqeini uning
belgilariga qarab aniqlash mumkin.

Ижтимоий таркиб



Siyosiy partiyalarning jamiyat siyosiy tizimi tarkibida egallab turgan mavqei va jamiyat siyosiy hayotidagi ahamiyatini mana shu belgilarning kuchliligi va zaifligi bilan baholanadi.

Siyosiy partiyalarning turlari ham turli-tumandir.

Arxaiq turdagi partiyalar (Amerika turi): aniq tashkiliy tuzilmaning yo`qligi, faoliyatining doimiy emasligi (saylovlar davrida), tashkiliy tuzilmaga ega bo`lgan, parlament faoliyatiga qaratilgan islohatchilar partiyasi.

Parlament turidagi partiyalar: (Evropa turi) ijtimoiy tuzumni o`zgartirmay harakat qilib keluvchi, tashkiliy tuzilmaga ega bo`lgan, parlament faoliyatiga qaratilgan, islohatchilar partiyasi.

Avangard turdagi partiyalar (Marksga, Leninga) ular aniq tashkiliy tuzilmalari bo`lgan, ijtimoiy hayotning hamma sohalarini qamrab olgan, davlat tuzilmasiga kirgan, tashkil topish va faoliyati markazlashgan printsipga asoslangan, a’zolik badaliga ega bo`lgan, revolyutsionerlar partiyasi.

*Qo`shma ittifoqli partiya* sistemalari. Masalan, GFR umumfederativ-xristian – demokratik partiya hamda xristian-ijtimoiy uyushma partiyasi hamkorligida o`z ifodasini topgandir.

*Qo`shma ittifoqli partiya* sistemalari, shuningdek, ayrim tarixiy davrlarda, ayniqsa, saylovlar o`tkazish munosabati bilan tuziladigan milliy yoki xalq frontlarida namoyon bo`lishi mumkin. Bunday partiya sistemalari turi ilgari ham bo`lgan, hozir ham mavjud va kelajakda ham amal qilishi extimoldan xoli emas.

Demokratik jamiyatning muhim omillaridan biri bu ko`ppartiyaviylikdir. Qonuniy hokimiyat uchun kurashda imkoniyatlari taxminan bir xil bo`lgan bir qancha partiyalar mavjud bo`lganda qo`ppartiyaviy tizim vujudga keladi.



Ko`ppartiyaviylik umuman jamiyat uchun foydalidir, chunki partiyaning hokimiyatga kelishining madaniy mehanizmlariga ega bo`ladi. Jamiyat rivojlanishining muqobil variantlari olg'a suriladi.

Hozirgi G'arb jamiyati ijro hokimiyati masalasini hal qilishda ko`partiyaviylik sharoitida partiyaviylar o`zaro munosabatlarining aniq mehanizmilarini ishlab chiqdi.

G'alaba qozongan hech bir partiya qonun chiqaruvchi hokimiyat – parlamentda ko`pchilikni tashkil qila olmasa, koalitsion tizim vujudga keladi. Natijada g'alaba qozongan partiya boshqalari bilan hamkorlikda koalitsion xukumat tuzishga majbur (Italiya, Belgiya, Gollandiya, Daniya). Ammo bunday xukumat barqaror bo`la olmaydi.

Hukmron partiya ustunligi tizimi parlamentda bir partiyali mutloq ko`pchilik bo`lganda va bir partiyali xukumat tuzilganda vujudga keladi. Hukmron partiya partiyaviy tizimda ustivor mavqeini egallaydi, jamiyatga mafkuraviy ta'sir o`tkazadi. Bunday davlatda kuchli va uyushgan muhalifat bo`lmaydi, hukmron partiya uzoq vaqt mavqeini saqlab qoladi. (Shvetsiya, Yaponiya).

Siyosat maydonida ikki partiya hukmronlik qilsa, biri hukmron, ikkinchisi muhalifat partiyaga aylansa ikki partiyali ko`rinishi o`zgargan tizimdir. Ikki partiyadan birortasi ham parlamentda ko`pchilik bo`la olmasa va biri uchinchi partiya bilan koalitsiya tuzsa vujudga keladi. Siyosiy hokimiyatga yakka egallikni qat'iy o`rnatish va ko`ppartiyali tizimga o`tish hozirgi amalga oshirilayotgan

siyosiy islohatlarning asosiy mazmunini tashkil etishiga, amaliy demokratiyaning ravnaq topishiga keng yo`l ochib beradi.

O`zbekistonda ko`p partiyaviylik tizimining qaror topishi va uning tasnifi. Mustaqil O`zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati tomonidan amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va siyosiy isloho`tlar o`tkazish siyosati natijasida mulkchilik shakllarining xilma-xilligi qonuniy kafolatlandi, mulkni davlat tasarrufidan chiqarib xususiylashtirish jarayonlari tobora tez sur'atlarda sodir etilmoqda,jamiyat siyosiy tizimida ham tub mohiyatli chuqur islohatlar o`tkazildi. Bularning hammasi O`zbekiston jamiyati siyosiy hayoti oqimida siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va faoliyatining jadallashuviga qulay shart-sharoitlar yaratib berdi.

O`zbekistonda ko`ppartiyaviy tizim shakllanmoqda. Hozirgi kunda to`rtta parlamentar partiya mavjud. Hukmron va muholifat partiyasi shakllanishi uchun asta-sekin sharoit yaratilmoqda. 2004 yilda qonunchilik palatasini shakllantirishda ikki hukmron partiya aniqlandi. Qonunchilik palatasida eng ko`p o`rin olgan LDP va Fidokorlar hukmron partiyalari maqomini, qolganlari esa parlamentar partiyalar maqomini oldi. Bu esa ko`p sabablar qatori siyosiy madaniyat va siyosiy ongning rivojlanishi bilan ham bog'liqdir.

Mamlakatimizda siyosiy hayotni demokratiyalashtirish borasida konstitutsiyaviy huquqiy asoslar yaratildi. Bunga misol qilib, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Siyosiy partiyalar to`g'risida", "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to`g'risida", "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratiyalashtirish ham mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarining rolini kuchaytirish to`g'risida"gi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunlarni keltirish mumkin.

Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega – faoliyat to`g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o`z g'oyalari va qarorlarini targ'ib qilish;

- Saylab quyiladigan davlat organlaridagi o`z vakillari tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish;

- Qonunda belgilab qo`yilgan tartibda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;

- Partiya faoliyati bilan bog'liq yig'inlar, konferentsiyalar va boshqa tadbirlarni o`tkazish;

- Qonun xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalarini tavsiya etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

- O`zbekiston Respublikasi siyosiy partiyalari bilan ittifoq tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlari o`rnatish.

Har bir partiyaning o`z dasturi mavjud bo`lib, unga ko`ra ular siyosiy maydonda ushbu dasturlarda nazarda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun faoliyat olib boradilar. Masalan, O`zbekiston xalq demokratik partiyasi O`zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, barqaror bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat qurish, mamlakatning har bir fuqarosiga munosib turmush sharoitlari va uning farovonligini ta'minlay oladigan siyosatni olib borishni o`z faoliyatining bosh vazifalari deb hisoblaydi. "Adolat" partiyasida barqarorlikning va O`zbekiston bozor islohatlari modelini ro`yobga chiqarishning kafolati sifatida fuqarolarning huquqiy madaniyatini shakllantirish, "Milliy tiklanish" partiyasida xalq ma'naviyatini, tarixiy xotirasini va madaniyatini tiklash va milliy demokratik partiya dasturida mulkdorlar sinfining iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy mavqeini oshirib borish, Liberal demokratik partiyasida tadbirkorlar va ishbilarmonlarning yanada kengroq faoliyat olib borishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularning ertangi kunini ta'minlashdek maqsad partiyaviy dastur sifatida ilgari surilgan.

O`zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to`g'risida"gi qonunda partiyalarning tashkil topishi, faoliyatlarining kafolatlari, ular faoliyatini to`xtatib turish va faoliyatini tugatish bilan bog'liq qoidalar o`z aksini topgan.

Quyidagi siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko`rsatish taqiqlanadi:

1.Konstitutsiyaviy tuzumni zo`rlik bilan o`zgartirishini maqsad qilib quyuvchi;.

2.O`zbekiston Respublikasi suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi;

3.Urushni, ijtimoiy, millat, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi;

4.Xalqning sog'ilig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi;

5.Milliy va diniy ruxiyatdagi partiyalar.

Demokratik tartibotdagi ikki partiyaviy yoki ko`p partiyaviy tizimga ega bo`lgan davlatlarda hukmron partiyalar va muxolif partiyalar o`rtasida sog'lom raqobat mavjud bo`ladi. Muxolif partiyalar milliy taraqqiyot uchun muqobil dasturlar ishlab chiqadi va jamoatchilik muhokamasiga o`z takliflarini beradi, amaldagi xukumat faoliyatida mavjud bo`lgan xato, nuqsonlar, suiste'molchiliklarni tanqid qiladi, bu bilan esa xukumatni jamiyatdagi mavjud muammolarni muvaffaqiyatli hal etish usullarini izlab topishga majbur qiladi.

Hozirgi kunda O`zbekiston jumxurriyatining siyosiy hayoti oqimida bunday siyosiy kuchlar, bunday siyosiy muxolifat vujudga kelib shakllanayotganligini yangitdan tashkil topgan Oliy majlis quyi qonunchilik palatasi, 2007 yil 23 dekabr Prezidentlikka saylovlar natijalari yaqqol qo`rsatdi.

Masalan, O`zbektiston Liberal demokratik partiyasi Oliy Majlis quyi palatasida 41 deputatdan iborat o`z fraksiyasiga, Xalq demokratik partiyasi 26 deputatdan iborat o`z fraksiyalariga ega bo`lgan holda etakchi siyosiy kuch sifatida o`rin egallab turibdi. Qolgan siyosiy partiyalar oz sonli parlament turdagi partiyalar hisoblanadilar. Bu dastlabki qo`yilgan qadamdir. O`zbekistonda xaqiqiy yaratuvchi (konstruktiv) istiqbol burch-vazifalariga yo`nalgan siyosiy muxolifat demokratik, ochiq vositalarda amaliy siyosiy kurash olib borib, O`zbekiston istiqloliga, uning to`la mustaqil davlat sifatida qaror topib gullab-yashnagan, ravnaq topgan mamlakatga aylanishi uchun o`zining munosib xissasini qo`sha oladi.

Demokratik jamiyatning muhim omillaridan biri bo`lgan ko`ppartiyaviylik mustaqillik yillarida O`zbekistonda siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining vujudga kelishi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ob'ektiv jarayoniga aylandi. Partiya jamiyat hayotini demokratlashtirishda va har bir mamlakat oldida turgan vazifalarni belgilashda va amalga oshirishda o`ziga xos o`ringa ega bo`ladi, hamda muayyan funktsiyalarni bajaradi. Birinchidan, jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Ikkinchidan, siyosiy faoliyatda ishtirok etadi. Uchinchidan, fuqarolar siyosiy faolligini qo`llab-quvvatlash va rag'batlantirishvazifalarini o`taydi. To`rtinchidan, siyosiy madaniyatni oshiradi. Beshinchidan, parlament va hukumat faoliyatiga siyosiy maqsadlari orqali ta'sir ko`rsatadi. Oltinchidan, davlat oldida turgan maqsadlarning shakllanishi va amalga oshishida faol ishtirok etadi.

Partiya dasturlari siyosiy-ijtimoiy aniq maqsad va funktsiyalarga qaratilgan bo`lib, ular 2 turga bo`linadi.

1. Ichki funktsiyasiga: 1)jipslashtiruvchi; 2)muvofiqlashtiruvchi; 3)rag'batlantiruvchi; 4)etakchilikka intilish; 5)O`zbekiston mavqeiga mosligi.

2. Tashqi funktsiyasiga: 1)targ'ibot va tadqiqot; 2)ma'lum siyosiy yo`nalishga moslashtirish; 3)siyosiy voqea va jarayonlarga xozirjavoblik kabi vazifalar kiradi[1]. (Siyosatshunoslik ma'ruzalar matni. T. 2000, 95-bet.)

Siyosiy partiyalar faoliyati quyidagi asosiy yo`nalishlarda olib oriladi:

1. O`zbekiston faoliyatining maqsadlarini aniqlash va belgilash, o`zining siyosiy, huquqiy, falsafiy, diniy, badiiy qarashlari tizimini yaratish va ularni keng omma orasida yoyish.

2. Jamiyat a’zolarining turli manfaatlarini O`zbekiston faoliyati va hujjatlarida mumkin qadar keng qamrab olib, ularning eng ma’qullagan partiyasiga aylanishga intilish.

3. Turli organlarga saylovlarni tashkil qilish va o`tkazishda nixoyatda o`rinli va dolzarb shiorlarni o`rtaga tashlab, saylovchilarning mumkin qadar keng doirasining ovozini O`zbekiston foydasiga ola bilish.

4. Siyosiy partiya qatoriga yangi a’zolarni tortish va saralash yo`li bilan uning etakchiva bilag’onlar tabaqasini shakllantirish.

5. Partiya dasturida ko`rsatilgan vazifalar vava’dalarni qonun chiqaruvchi hamda ijroiya davlat organlari orqali amalga oshirishga harakat qilish. (Mustaqillik. Izohli ilmiy ommabop lug’at. T.: «Sharq», 1998, 193-195 betlar.)

Demak siyosiy partiyalar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlarida ishtirok etadilar.
2. Oliy Majlis saylovlarida ishtirok etadilar.
3. Mahalliy vakillik organlarini tuzishda ishtirok etadilar.

O`zbekiston Respublika Konstitutsiyasining bir qancha moddalari partiyalar faoliyati uchun konstitutsiyaviy asos bo`lib xizmat qiladi. Siyosiy partiyalar tashkil etish huquqi Konstitutsiyaning 34-moddasida mustahkamlangan. Konstitutsiyaning siyosiy partiyalarga uyushish, siyosiy partiyalar ommaviy harakatlarida ishtirok etish huquqiga egaligi, ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatni siyosiy partiyalardagi huquqlari tug’risida so`z yuritilgan «Jamoat birlashmalari» bobida (8-bob) siyosiy partiya ro`yxatdan o`tkazilishi zarurligi qayd etiladi. Konstitutsiyada, shuningdek, siyosiy partiyalarning Konstitutsiyaga qarshi xatti-harakatlari ta’qiqlanadi (57-modda). Siyosiy partiyalarga nisbatan davlatning huquqlari (58-modda), partiyaga a’zo bo`lish ixtiyoriyligi (59-m.), demokratik faoliyatni to`xtatish yoki cheklashda umumiy sudlarning vakolatlari to`g’risida ham so`z yuritiladi. Konstitutsiyada O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisi deputatlari kuppartiyaviylik asosda saylanishlari ta’kidlanadi. 1996 yil 26 dekabrda O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 7-sessiyasida «Siyosiy partiyalar to`g’risida» qonun qabul qildi. (Ungacha siyosiy partiyalar faoliyati 1991 yil 15 noyabrda qabul qilingan «O`zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to`g’risida»gi qonun asosida ish olib bordi.) Yangi «siyosiy partiyalar to`g’risidagi qonun» 17 moddadan iborat. Prezidentlik vakolatlarini bajarish vaqtida siyosiy partiyalarga a’zolikni to`xtatish shart. qu1yidagilar siyosiy partiyalarga a’zo bo`la olmaydilar: sudyalar, prokurorlar va prokuratura tergovchilari, ichki ishlar organlari, militsiya xavfsizlik xizmatixodimlari, xarbiy xizmatchilar, xorijiy davlat fuqarolari va fuqaroligi bo`lmagan shaxslar. Siyosiy partiya tuzish kamida 8 ta xududiy sub’ekt (viloyat), shu jumladan qoraqalpog’iston Respublikasi va Toshkent shaxrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida bo`lgan kamida 5 ming fuqaroning imzosi bo`lishi talab etiladi (oldin, 1996 yilgacha 5 ta viloyatdan 3 ming imzo to`plaganda edi). Siyosiy partiya tuzish tashabbuskorlari kamida 50 kishidan iborat bo`lishi, partiya ta’sis xujjatlarini tayyorlashi, ta’sis s’ezdi yo konferentsiyasini chaqirish bo`yicha tashkiliy qo`mita tuzishlari lozim. Tashkiliy qo`mita tuzilgan kundan boshlab 7 kunlik muddatda, kechiktirmpasdan Respublika Adliya vazirligiga qo`mita haqida, rahbariyati haqida xabardor qilishi lozim. Tashkiliy qo`mita 3 oy

faoliyat ko`rsatishi mumkin. S'ezd yo konferentsiya chaqirishi lozim. Ta'sis s'ezd yo konferentsiyada: partiya ustavi va dasturini qabul qiladi, organini tuzadi. Ustav qabul qilingach 1 oy muddatda O`zR Adliya vazirligiga: partiya organining kamida 3 a'zosi imzolangan ariza, ustav, dastur, ta'sis s'ezdi yo konferentsiya bayoni ro`yxatdan o`tkazish yig'imi – bank xujjati va boshqalar topshirilishi kerak. Adliya vazirligi 2 oy ichida ko`rib chiqadi. Ro`yxatdan o`tsa ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinishi kerak. Siyosiy partiya har yili barchaning e'tibori uchun O`zbekiston budjetlarini e'lon qiladilar va O`zbekiston faoliyatini mablag' bilan ta'minlash manbalari to`g'risida Oliy Majlis yo vakolat yo vakolat beruvchi organga hisobot taqdim etadi. (Ma'rifat. 1997 yil 8yanvar.)

Siyosiy partiyalar tegishli tartibda ro`yxatga olingach, faoliyatini amalga oshiradi. Ular faoliyati O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va maxsus qarorlar bilan tartibga solinadi.

O`zbekistondagi siyosiy partiyalar (ular 5 ta):

***1. O`zbekiston Xalq Demokratik Partiyasi*** (XDP) – (1991y. 1noyabr). Birinchi kotibi: 1991-1994 yillarda M.Rasulov, 1994 y. 1 noyabrdan Abdulhofiz Jalolov. Partyai a'zolari 557.168 mingdan ko`proq (Xalq so`zi, 5 may). A'zolarning salohiyatining qismi 200 mingga 30 yosh atrofidagilar tashkil etadi. 14.173 ta boshlag'ishlab chiqarish tashkiloti bor. XDP O`zbekiston saflarida keng ommani: ziyolilar, xizmatchilar, dehqonlar, tadbirkorlar, yoshlar, faxriylarni, 80 ga yaqin millat va elatlarni birlashtirgan. 1995-1999 yillarda Oliy Majlisda 69 deputat (27%), 1999-2004 yillarda 50 deputatdan iborat partiya fraksiyasiga ega[1]. Bu jixatdan pardament fraksiyalari orasida 2-o`rinda turadi. 2000 y. 9 yanvarda bo`lgan mamlakat Prezidentligiga nomzod qilib A.Jalolov nomzodi ko`rsatildi va saylovda 4,17% ovozga ega bo`ldi.

XDPning oliy organ iqurultoy bo`lib, u 5 yilda 1 marta chaqiriladi. Partiya shiori: «O`zbekiston kelajagi buyuk davlat». 1993 y. dekabrida XDPning Milliy istiqlol mafkurasi qabul qilingan. 1999 y. Oktabrida 3-qurultoy qabul qilingan yangi tahrirdagi dasturiga «Yoshlar – Vatan kelajagi» nomli maxsus bobni kiritdi. XDPning maqsadi: ijtimoiy adolat, mamlakat atraqqiyti va ma'eaviy yangilanishni ta'minlash. Yoki boshqacha aytganda O`zbekiston XDPning dasturiy maqsadlari:

1. Milliy mustaqillikni mustahkamlash.
2. Tub iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy islohotlarni amalga oshirish orqali ravnaq topgan qudratli, demokratik davlat, adolatli, insonparvar jamiyatni bunyod etish.
3. Kishilarning millat, siyosiy qarashlari, diniy e'tiqodlaridan qat'iy nazar, munosib hayot kechirish uchun teng imkoniyatlarni yaratish.
4. Fuqarolarning erkinlik va huquqlari, tinch hayot kechirishini kafolatlash.

Matbuot organi: «O`zbekiston Ovozi», «Golos Uzbekistana» gazetalari, oylik «Muloqot» jurnaliga ega. Jurnalistoari akkreditatsiya qilingan.

2. «Adolat» sotsial demokratik partiyasi (1995y. 18 fevral).

Partiya raisi Turg'unpo`lot Daminov. Partiya a'zolari 30 ming kishidan ziyod. 147 shahar va tumanlarda mingdan ortiq boshlang'ich partiya tashkilotlari bor. Keng omm atabaqasini o`zida biriktirgan. Parlamentda O`zbekiston fraksiyasiga

ega bo`lib, Oliy Majlisda 1995-1999 yillarda 44 deputati (17%), 1999-2004 yillarda esa 9 deputati bor. Prezident saylovida (2000y. 9 yanvar) I.A.Karimov nomzodini ko`rsatdi. Partiya shiori: «Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak». Partiyaning maqsadi: huquqiy demokratik davlat barpo etish, ijtimoiy adolat o`rnatish. Yoki boshqacha aytganda «Adolat» SDPsi O`zbekiston oldiga quyidagi vazifalarni qo`ygan:

1. Huquqiy demokratik davlat qurish.
2. Mamlakat mustaqilligini mustahkamlash.
3. Vatanga sodiq xizmat qilish.
4. Adolat fuqaroviy jamiyat qurish.
5. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy talablariga hamda mamlakatimizda yashab turgan barcha millat va elatlarning orzu-umidlariga monand shart-sharoit yuzaga keltirishga hissa qo`shish.

Matbuot organi: «Adolat» haftalik gazetais chop etilmoqda.

3. «Milliy tiklanish demokratik partiyasi» (1995y. 3 iyun).

Partiyaning birinchi kotibi dastlab Aziz qayumov edi, xozir (2002) Ibrohim /affurov. Partiya a'zolari 10 ming kishidan ko`proq. O`zbekiston faoliyatida ko`proq O`zbekiston ziyolilariga suyanadi. Ijtimoiy qatlam sifatida o`rta tabaqani, ya'ni o`qituvchi, vrach, injener va boshqa kasb egalarini O`zbekiston saflarida biriktirgan. Partiya O`zbekiston atrofida ilm-fan, madaniyat va maorifga xizmat qioayotgan yirik olimlarni uyushtirgan. Parlamentda 1995-1999 yillarda bu pariyaning 7 nafar a'zosi bor edi. 1999-2004 yillarda Oliy Majlisda 12 deputatdan iborat partiya fraksiyasi faoliyat ko`psatmoqda. 2000 yil prezident saylovida I. Karimov nomzodini qo`llab quvvatladi. Partiya shiori: «Millat, inson va vatan manfaati muqaddasdir» deb biladi. Partiyaning maqsadi: davlatning umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy tiklanish. Yoki boshqacha aytganda partiyaning oliy maqsadi:

1. Millatning ma'naviy birligi.
2. Vatan (Turkiston) – yagona oila.
3. Kuchli demokratik davlat.
4. Milliy qadriyatlar.
5. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va umumjahoniy integratsiya.
6. Zamon kishisi.
7. Milliy istiqbol.

MTPning matbuot organi: «Milliy tiklanish» haftalik gazetasi chop etilmoqda.

4. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar xarakati Uzbekiston Liberal-demokratik partiyasi (LDP) 2003 yil 15 noyabrda toshkentda bulib utgan ta'sis kurultoyida tuzilgan. Kurultoyda dasturi va nizomi kabul kilinib, Adliya vazirligi tomogidan 2003-yil 3-dekabrda ruyxatdan utgan.LDP mamlakatimizda davlat va jamiyat tizimi rivoji va yangilanishaida, vatan tarakkiyoti, ijtimoiy-iktisodiy va siyosiy isloxotlarning jadal sur'atlar bilan amalga oshirilishida faol ishtirok etadigan kuch sifatida maydonga chikdi.

UzLiDePningasosiy vazifasi mamlakatimizning siyosiy-iktisodiy, ijtimoiy-ma'naviy xamda jamiyatimiz tarakkiyotining boshka soxalarini erkinlashtirish, davlat va jamiyatni demokratik asosda yangilash, isloxotlarni yanada chukurlashtirish, insn xukuk va erkinliklarini, tadbirkorlar va ishbilarmonlar manfaatlarin ximoya kilishga yunaltirilgan

dasturni xayotga tatbik etishdan iborat. Partiyaning «XXI asr » nomli ijtimoiy-siyosiy nashoi mavjud.

Umuman, ko`ppartiyaviylik tizimi tashkil qilish jarayoni ketyapti. 5 ta siyosiy partiya va qator jamoat birlashmalarining vakillari ko`rsatilgan. Har bir fuqaro O`zbekiston fikriga uning manfaatlarini ifodalaydigan, mamlakat taraqqiyotiga imkon yaratib beradigan partiyani tanlab olish uchun demokratik huquqiy davlatda kamida 2 partiya bo`lishi kerak. Xozirgi kunda ko`ppartiyaviylik tizimi shakllanish jarayoni mamlakatimizda ham rivoj topmoqda.

Siyosiy partiya fraksiyasi – Oliy Majlis fraksiyalari siyosiy partiyalar va davlat hokimiyati vakillik organlari tomonidan ko`rsatilgan va ularga mansubligiga qarab uyushgan deputatlar birlashmasidir. Ular tegishli vakillik organlari va siyosiy partiyalar manfaatini ko`zlaydi, masalalarni muhokama etishda ishtirok etib, umumiy fikrga erishishga harakat qiladi (Azizxo`jaev A. va boshqalar. Konstitutsiyaviy huquq. Izohli lug'at. T.: «Akademiya», 2001, 109-bet).

Umumiy siyosiy partiyalar va harakatlar quyidagi printsiplar asosida birikishi lozim:

1) Konstruktiv (tuzilish asos qilib, amaliy) taklif asosida.
2) Kompromizm (murosa-madora) yo`li bilan.
3) Reallik.

Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalar rolining ortib borishi. Jamiyat siyosiy tizimida va uning rivojida siyosiy partiyalar muxim urin tutadi. Partiya jamiyatning muayyan bir bulagi, ayrim shaxslar. Ijtimoiy guruxlar, mulk egalariga tayangan xolda ularning karashlari, maksadlari, manfaatlarini uzida aks ettiruvchi kuch sifatida , ularni uz atrofida birlashtiradi, muayyan goya, maksad, xamda uni amlga oshirish yul yuriklari bilan kurollantiradi.

Turli jamiyatlar siyosiy tizimi bir partiyalik, ikki partiyalik va kup partiyalik bilan xarakterlanadi va ular urtasida muayyan xukukiy asoslar, normalar mavjud.

Jaxon davlatchiligi tajribasidan ma'lumki, siyosiy partiyalar boshka jamoat birlashmalaridan farkli ravishda parlamentda, xukumatda ishtirok etish ochikchasiga va konuniy asoslarda xarakat kiladi.

Siyosiy partiyalar va xarakatlar xama vakt jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tizimini tarkibiy kismini tashkil etgan, unga davlat va jamiyatnt, xokimiyat bilan xalkni boglab turuvchi bugin sifatida karab kelishgan.Iyosiy partiyalar jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi turli xil siyossiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilmaqxilligiga asoslangan sharoitdagina erkin, demokratik jamiyat kurilishining muxim ajralmas kismiga aylani mumkin.Shunda siyosiy partiyalar tugrisida mavjud karashlar uzgarad va fukorolarda kup partiyaviylikni jamiyatdagi bekarorlik, siyosiy ixtiloflaar xamda uzaro kelishmovchiliklar manbai sifatida emas, aksincha demokratik adolatli, fukorolik jamiyati kurilishining muxim sharti sifatida karash karor topib boradi.Siyosiy partiyalar va ularning liderlari xam muayyan ijtimoiy kuchlarga tayanadi, ammo sinfiylik uning faoliyatining asosiy tamayili bulmasligi kerak.Siyosiy partiyalar jamiyatdagi axolining nisbatan kengrok katlamiga tayanishi, turli xil ijtioiy guruxlar, mulk egalarining karashlari,

manfaaltlarni uzida ifodalashi bilan birga u, asosan, real inson maksadolari va manfaatlari, umuminsoniy tamoyillarga buysundarilgan bulishi lozim.

Jamiyatning demokratlashganlik darajasi siyosiy partiyalarning mikdori yoki uning jamiyatdagi mavkei bilan belgilanmaydi. Xakikiy demoratik jamiyat shu fukorolarning jinsi, Irki, millati, dini, shaxsi va ijtimoiy kelib chikishidan kat'iy nazar bir xil xukuk va erkinliklarni, faoliyatni bir xil ta'minlab berganligi, uning kafolatlanganlik darajasi bilan, jamiyatdagi xamjixatlik, siyosiy-ijtimoiy barkarorlik, tinchlik mustakillik kabi tamoyillar bilan belgilanadi.

Jaxondagi rivojlaggan mamlakatlar tajribasi xam shuni kursatmokdaki, partiyalar uz vazifasini Tula bajarishi, malakat tarkkiyotig Tula xissa kushishi uchun ularga dastlabki teng imkoniyatlar yaratilib berilishi kerak.Bu ayniksa, kuppartiyaviylik shakllanayotgan va uz yulini belgilayotgan Uzbekistonning xozirgi utish davrida juda muximdir.

Tayanch tushunchalar:

Siyosiy hokimiyat, hokimiyat sub'ekti, ob'ekti va resurslari, utilitar, majburlovchi, Me'yoriy resurs, monarxiya, absolYut monarxiya, konstitutsion monarxiya, respublika, parlament, Prezidentlik respublikasi, totalitar, avtoritar, liberal, demokratik hokimiyat, siyosiy partiya, bir partiyaviylik, ikki partiyaviylik, ko'ppartiyaviylik, avangard partiya, muxolifatchi partiya, halq demokratik, "Adolat" sotsial - demokratik, Milliy tiklanish, Fidokorlar milliy - demokratik partiyalari, "Halq birligi ", "Kamolot" ijtimoiy harakati, jamoat tashkilotlari,

Adabiyotlar.

1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: «O'zbekiston», 2003, 2-bo'lim, 8 bob.

2.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.:»O'zbekiston», 6 jild, 1998.

3.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: «O'zbekiston», 7 jild, 1999.

4.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demoqratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir.-T.:»O'zbekiston», 2005.

5.Karimov I.A. YAngi hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi. – T.: «O'zbekiston», 2005.

6.Karimov I.A. "YUksak ma'naviyat-engilmas kuch" 2008y

7.Karimov I.A. "Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish" T.: "O'zbekiston" 2009.

8.Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning choralari va yo'llari" T.: "O'zbekiston" 2009.

9.Otamuratov S., Ergashev I. va boshqalar. Siyosatshunoslik. Toshkent. «O'zbekiston» 1999 y.

10. «Siyosatshunoslik». (o'quv qo'llanma) Toshkent 2002y.

11. Sotliqov A., CHo'ponov O., Abdullaev O. Siyosatshunoslik. Urganch. 2003y.

12. O'zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi boskichi.-T.: 2004.

13. O'zbekistonda Siyosatshunoslik. (respublika – ilmiy amaliy konferentsiya materiallari). Toshkent. «Sharq» 2002 y.

5 – Mavzu: Siyosiy elita va siyosiy etakchilik

Reja:

1. Siyosiy etakchilik tushunchasi va tabiati.

2. Siyosiy elita va etakchini shakllantirishning o`ziga xos xususiyatlari.

3. Siyosiy etakchilikning zamonaviy tendentsiyalari

1. Siyosiy etakchilik tushunchasi va tabiati.

"Siyosiy elita" tushunchasi va kontseptsiyalari. Sotsial – siyosiy fanlarda va unga tegishli lug'atlarda dohiy, arbob, elita, etakchi (lider), rahbar kabi tushunchalar mavjud. Ular bir ma'nodagi turdosh so`zlarmi?

Dohiy favqulodda zehn va zakovat, eng yuqori va har taraflama inteliktual rivojlangan iste'dodli qishilardir. Ular odatda qomusiy bilm egalari bo`lishadi, lekin ular ko`p sohalarning bittasida quyoshdek yarqirab turadi. M: Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy, Farobiy, Ibn Sino, Mirzo Udug'bek, Alisher Navoiy.

Arbob – davlat arbobi, xizmat ko`rsatgan fan arbobi, Amir Temur buyuk davlat arbobi va h.k.

"Elita" – lotinchadan olingan bo`lib – *"eng yaxshi", "saralangan", "tanlangan"* degan ma'nolarni anglatib, u har qanday ijtimoiy tuzilmaning hokimiyatni monopoliya qilishga qobil bo`lgan yuqori qismi, imtiyoz qatlami, boshqaruvchi ozchilik demakdir.

XX asr boshlarida politolog olimlar *G.Moska, R.Mixele* siyosiy jarayonlarda yuqori tabaqaning roli masalasini tizimlashtirishga harakat qilganlar. Elitizimning qoidasi shundaki barcha turdagi jamiyat o`zining ichki tuzilishiga ko`ra ikkita sinfga bo`linadi, boshqaruvchi kamchilikka (hukmron elita, hukmron sinf, siyosiy sinf) va ko`pchilik boshqariladigan (olamon, omma, xalq). Ko`pchilik G'arb sotsiologlari elita tarkibidagi hokimiyatli – siyosiy guruhlarni kiritadilar.

Россиялик сиёсатшунослар В.П. Пугачев ва А.И. Соловьев ўзларининг «Введение в политологию» номли дарсликларида «**Сиёсий элита**» - жамиятдаги озчиликни ташкил қилувчи, ички жиҳатдан табақалаштирилган, умумий бўлмаган, бироқ ижтимоий институтларда раҳбарлик лавозимларини эгаллаган ёки жамиятда ҳукмрон қарорларни қабул қилиш жараёнига бевосита таъсир кўрсата оладиган, раҳбарлик функцияларини бажариш учун тайёргарликдан ўтган ҳамда озми -кўпми лидерлик сифатларига эга кишилар гуруҳи ёинки гуруҳларнинг нисбатан интеграциялашганлигини тушуниш мумкин, деган таърифни келтирадилар[44].

Hozirgi zamon siyosiy fani siyosiy elita deganda son jihatdan ko`p bo`lmagan imtiyozli guruhni ya'ni faol siyosiy faoliyatni olib borish uchun zarur imkoniyatga ega bo`lgan va siyosiy hokimiyat yordamida qarorlarni qabul qilishga va amalga oshirishga to`g'ridan to`g'ri yoki bilvosita ta'sir ko`rsatishga qodir guruhni

[44] Пугачев В.П., Соловьев А.И. Введение в политологию / Издание третье, переработанное и дополненное. – М.: АСПЕКТ ПРЕСС, 2000

tushunadi.

Jamiyatning elitarligi, elita to`g'risidagi qarashlar.*** Elita nazariyasiga munosib xissa ko`shgan olimlardan biri G.Moskadir. U XIX asrning oxirida siyosiy fanni shakllanish davrida ushbu jarayonga munosib xissa qo`shganlar bilan bir safda bo`lgan. ***Moska "Siyosiy fan asoslari" asarida o`zining siyosiy kontseptsiyani bayon etgan. Shu kontseptsiyaga ko`ra jamiyat ikki sinfga bo`linadi: boshqaruvchi sinf va boshqariladigan sinf. Boshqaruvchi sinf har qanday jamiyatni ozchilikni tashkil etsada, barcha asosiy siyosiy funktsiyalarni bajaradi, hokimiyatni monopoliya qilgani holda, u bergan imtiyozga egalik qiladi. Boshqariladigan sinf har qanday mamlakatda ko`pchilikni tashkil etishi etarli darajada uyushmagan holda boshqaruvchi sinf qo`li ostida bo`lib, uning hukmronligini qonuniyligi, shuningdek zo`ravonlik harakterini kasb etilishini tan oladi.

Moska "Elita" terminini hali ishlatmagan. Uning o`riniga u "boshqaruvchi sinf" va "boshqariladigan sinf" tushunchasini qo`llagan.

Siyosiy (boshqaruvchi sinf)ga mansublikni G.Moska quyidagi alomatga ya'ni boylikka, kelib chiqishga, cherkov isrorxiyasiga munosabati, shaxsiy sifati, xarbiy jasorati, boshqaruv san'atini egallaganligi kabilarga qarab aniqlanadi.

Moskadan farqli o`laroq ***V.Pereto*** "elita" so`zini keng qo`llagan. Uning tushunchasicha elita – bu tanlab olingan jamiyatning ozchilik qismi bo`lib, unga barcha uning a'zolari moslashishi kerak. Pereto fikriga ko`ra elita o`zini tutishi va tadbirkorligi, uni o`rab turganlarning ojiz va ta'sirchan tomonlarni ko`ra bilish va ulardan o`zining manfaatlari yo`lida foydalanish qobiliyati bilan xarakterlananishi kerak.

Moska va Peretto hamda Mixelening g'oyalari ko`p jihatdan o`xshash bo`lgani holda elita haqida yagona qontseptsiyani tashkil etadi. Ushbu kontseptsiyaning asosiy qoidalari shunday: - jamiyat har doim imtiyozli, ijodkor, hukmron ozchilikka va passiv, ijodsiz ko`pchilikka bo`linadi:

- Elita o`ziga xos psixologik sifatga ega, unga tabiiy iste'dod va tarbiyaga mansublik xos;
- Elitaga guruhiy birdamlik xos, u sotsial holatining umumiyligi, kasbkorlik maqomi, o`z-o`zini anglash, jamiyatni boshqarishga bo`lgan qobiliyati kabilar bilan birlashgan;
- Elitaga legitimlik xos, ya'ni siyosiy rahbarlikka bo`lgan huquqini ko`pchilik omma tomonidan tan olinishi;
- Elitaning tuzilmaviy hokimiyatga munosabatining doimiyligi, tarix davomida uning tarkibiy qismining o`zgarishi yuz bergan taqdirda ham uning hukmronlik holati o`zgarmasdan qoladi;

Elitaning almashinishi hokimiyat uchun kurash davomida yuz beradi. Alohida psixologik va sotsial sifatlarga ega bo`lgan ko`p odamlar hukmronlik holatini saqlab qolishga harakat qiladilar, ammo ularning hech biri o`zlarining imtiyozli ijtimoiy holatidan voz kechishni xoxlamaydilar, shuning uchun ushbu imtiyozli o`rin uchun yashirin yoki ochiq kurash muqarrar. Elita o`z maqomidan qat'iy nazar xalq ommasidan o`zining intellektual va ahloqiy ustunligiga ega bo`lgan shaxs. Таъсир кўрсатиш манбааларидан келиб чиққан ҳолда элиталар қуйидаги турларга ажратилади: **меъросий** (аристократия), **қадриятлардан**

келиб чиқувчи (нуфузли ва ижтимоий аҳамиятли давлат мансабларини эгаллаган шахслар), **ҳукмрон** (ҳокимият бевосита қўлида бўлган шахслар), **функционал** (раҳбарлик лавозимларини эгаллаш малакасига эга бошқарувчилар). Булар орасидан бевосита давлат ҳокимиятига эга **ҳукмрон** ва контроэлита бўлган **оппозиция**; жамият ичидан етишиб чиқувчи **очиқ** ва ўз муҳитидан етишиб чиқувчи **ёпиқ** элиталарга ажратиш мумкин.

Demokratik jamiyatlarda elitani to`rt asosiy vazifaga ajratish keng tarqalgan.



Jamiyat uchun eng maqbul, siyosiy muholifatlarni tushunishga imkon beruvchi hamda barcha uchun maqbul bo`lgan murosali qarorlarni topuvchi, xalq bilan mustahkam aloqalarni yuqori darajadagi guruhiy kooperatsiyalash bilan qo`shib olib beruvchi barqaror demokratik elita hisoblanadi.

*Elita ochiq va yopiq bo`ladi.* Agar jamiyat turli tabaqalari safiga kirish ochiq bo`lsa ochiq shakldagi elita. Bu tendentsiya demokratik davlatlarga xos. Yopiq elita u o`zining tor sotsial muhitida o`zini-o`zi takror ishlab chiqarsa.

Jamiyatda siyosiy elitani tanlash qanday yo`l bilan amalga oshiriladi. Elitani shaklantirishda tanlovning uch tamoyili ajratib ko`rsatiladi: Qonga ko`ra (Aristokratik holatiga va mavqeiga); egalik qilish (mulkiy va pul aristokratiyasi); erishilgan yutuqlariga (aql va qobiliyat aristokratiyasi).

Siyosiy elita jamiyatda izchillikni tashkil qiluvchi, ichki tabaqalanish nisbiy uyushgan boshqaruvchilik vazifasini bajarishga tayyorlangan shaxslar guruhidir. U quyidagi omillar tufayli mavjud bo`ladi.

- Kishining psixologik, ijtimoiy, malakaviy salohiyati;
- Mehnat taqsimoti qonuni;
- Boshqaruv mehnatining ahamiyati;
- Siyosiy rahbarlar ustidan to`la nazorat o`rnatishning imkonsizligi;
- Siyosatdan chetda turuvchi keng aholining siyosiy sustkashligi.

2. Siyosiy elita va etakchini shakllantirishning o`ziga xos xususiyatlari.

Elitaning tabaqalanishi. Uning boshqaruvchi va muxolif, oliy, o`rta, ma'muriy elitalarga bo`linishi. Hozirgi zamon elitasining tuzilishi qanday? Bu savolga shunday javob beradi va guruhlarga ajratadi. *Oliy elita* – yuqori strategik

siyosiy lavozimni egallagan odamlar: ular xukumatda, partiya va kasaba uyushmasida muhim siyosiy qarorlarni qabul qiladilar.

*O`rta elita* saylovlar orqali shakllangan obro`li odamlar: Parlament a'zosi, deputat, gubernator, xokim. Odatda bu mamlakat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatning besh foiz yuqori qatlamini tashkil etadi. *Ma'muriy elita* boshqaruv apparatiga xalqali mavqeni egallagan xizmatchilar kiradi. Юқори элита давлат аҳамиятига молик қарорларнинг қабул қилинишида бевосита иштирок этади. Ўрта элита эса 3 белги билан ифодаланади: даромади, малакавий мақоми ва маълумоти. Агар ушбу белгилардан бирортаси бўлмаса, у ҳолда бундай шахслар **маргинал** элита деб аталади[45].

Siyosiy elitaning ijtimoiy vakilligi. 1. Муҳимийлик ва зарурийлик назарияси (Г.Моска, В.Парето, В.Робка, Н.Бердяев ва бошқалар). Бу назарияда сиёсий элита жамиятнинг муҳим етакчи кучи сифатида таърифланади ва у жамиятдаги бошқа ижтимоий гуруҳларга қараганда аҳолининг энг маҳсулдор ва ташаббускор қисмлари эканлиги назарий жиҳатдан асослаб берилади.

Муҳимийлик ва зарурийлик назариясининг айрим тарафдорлари сиёсий элита гуруҳларининг жамият ҳаётига таъсир кўрсатиш даражасини аниқлаб беришга ҳаракат қилганлар. Масалан, Н.Бердяев жамиятдаги аҳолининг юқори маълумотли қисмига солиштириш асосида сиёсий элитанинг жамият учун зарурлигини исботлашга ҳаракат қилган. В.Робка эса сиёсий элитанинг зарурлигини жамият эҳтиёжлари билан боғлаб асослашга ҳаракат қилади. Унинг фикрича, жамият ҳаётидаги муаммоларни ҳал этиш сиёсий элитага боғлиқдир.

2. Демократик элита назариясида (Р.Далл, М.Липсет, Л.Зиглер, К.Мангейм ва бошқалар) сиёсий элита гуруҳи аҳолининг мамлакатни бошқаришга қодир қисми бўлиб қолмай, шу билан бирга демократияни ҳимоя қилишга қодир бўлган қисми эканлиги масаласи асослаб берилади.

3. Либерал назария ҳам сиёсий элита назарияларидан биридир. Бу назарияда (Р. Миллс, М. Милбанд ва бош.) сиёсий элитанинг хилма-хил кўринишлари ва турлари ҳақида фикр юритилиб, уларни ўзаро фарқлашга ҳаракат қилинади. Масалан, Р. Миллс сиёсий элитани жамиятдаги мавқеига кўра 3 турга бўлиб кўрсатади, улар: 1) сиёсий ҳокимиятнинг марказий идораларида хизмат қилувчилар; 2) сиёсий ҳокимиятнинг ўрта поғонасида хизмат қилувчилар; 3) сиёсий ҳокимиятнинг қуйи поғоналарида хизмат қилувчи бошқарувчилардир.

Либерал назарияда иқтисодий элита билан сиёсий элита ҳам фарқ қилади. Иқтисодий элитага завод ва фабрикалар, қишлоқ хўжалиги, молия ва банк тизимларида раҳбарлик қилувчи кишилар киритилади. Сиёсий элитага эса сиёсий ҳокимиятларнинг турли бўғинларида банд бўлган кишилар киритилади.

4. Партократик назария ҳам сиёсий элита назарияларидан бири. Бу назария бир вақтлар собиқ социализм мамлакатларида кенг тарқалган бўлиб,

[45] Шаран П. Сравнительная политология /Пер. с англ. Ч. 2. М.: 1992. – С. 92.

унда сиёсий раҳбарликнинг тарихан муқаррарлиги исбот қилинади. Бу назариянинг асосий қоида ва хулосалари тоталитар сиёсий тузумлар ҳукмрон бўлган собиқ социализм мамлакатларида коммунистик партиянинг дастурлари ва қарорларига асос қилиб олинганди

50 – 60 йиларда Ғарбий Европада элита назариясига қаршилар пайдо бўлди.(Р.Миллс) унинг мохияти ягона хукмрон элита хақида гапиришдан кўра хокимиятнинг бўлиниб кетиши деб изохлаган тўғри деган хулосага келади. Элитада плюрализмни шакллантирсак у холда кўплаб бир биридан фарқ қилувчи элиталар шаклланади. Ва улар етакчиликка интилади ва зиддиятларни келиб чиқишига сабаб бўлади бунда сиёсат ўз вазифаси турли фикрларни ўзаро мувофиқлаштириш хусусияти йўқолади, деган хулосага келади.

Elitalarni tanlash va saralash tizimlari (gildiya, anterprenerlik). Италиялик социолог ва сиёсатшунос Моска (1858-1941) ҳар бир жамиятнинг ижтимоий жиҳатдан тенг бўлмаган икки қисмга ажралишини исботлашга ҳаракат қилган. 1896 йилда чоп эттирган «Сиёсий фанлар асослари» ҳақидаги рисоласида у: «Ўртача ривожланган ёки ривожланиш ибтидосида бўлгандан тортиб то маърифий ва қудратли даражага эришган ҳар бир жамиятда икки синфдаги шахслар-бошқарувчилар ва бошқарилувчилар синфи мавжуд бўлади», деган фикрни илгари суради. Ўз фикрини давом эттирар экан, у «сон жиҳатдан доимо кам бўлган биринчиси ҳокимиятни монополлаштиради ва унга тегишли бўлган имкониятлардан фойдаланади; кўп сонлик бўлган иккинчиси эса биринчилари томонидан бошқарилади ва йўналтирилади … ҳамда сиёсий организмни фаолиятига зарурий бўлган моддий воситаларни етказиб беради» деб таъкидлайди.

Моска сиёсий элитанинг шаклланиши ва унга тегишли бўлган хусусиятларнинг шаклланишини таҳлил қилган. Унинг фикрича, бошқа инсонлар устидан бошқара олиш, яъни ташкилотчилик қобилияти, ҳамда элитани бошқа қатламдан ажратиб турувчи моддий, маънавий ва ақлий устунлиги мазкур қатламга киришнинг энг асосий шарти бўлиб хизмат қилади.

Бошқарувчилар гуруҳининг жипслашганлиги ва унинг жамиятдаги ҳукмрон мақомини таъкидлаган ҳолда Моска уларни сиёсий синф деб таърифлайди. Мазкур синф аста секинлик билан ўзгариб туради. Уларнинг ривожида икки тенденция мавжуд: аристократик ва демократик. Уларнинг биринчиси сиёсий синф ворисийлигини ё юридик, ёинки амалий бўлишига интилишида кузатиш мумкин. Аристократик тенденция устунлиги синфнинг «ёпиқлиги ва кристаллашуви»га, ўзгаришига ва табиийки ижтимоий турғунликка олиб келади. Бу эса ўз навбатида жамиятда ҳукмрон мақомларни эгаллаш учун янги ижтимоий гуруҳлар курашининг фаоллашувига олиб келади.

Иккинчи, демократик тенденция бошқаришга лаёқатли ва фаолроқ бўлган қуйи қатлам ҳисобига сиёсий синфнинг янгиланишида намоён бўлади. Бундай янгиланиш элиталар айнишининг олдини олиб, жамиятни самарали бошқариш салоҳиятини оширади. Аристократик ва демократик

тенденциялар орасидаги мувозанат жамият учун энг мақбул ҳисобланади, зеро у бир томондан мамлакат бошқаруви ворисийлиги ва барқарорлигини, бошқа томондан сифат жиҳатдан янгиланишини таъминлайди.

Москанинг сиёсий синф концепцияси элитар назарияларнинг келгуси ривожига ҳисса қўшиши билан бирга, жамиятнинг ижтимоий табақалашишида иқтисодиётнинг ўрнига сиёсий омилнинг (бошқарув қатламига тегишлилик назарда тутилмоқдА. қайсидир маънода мутлақлаштирганлиги сабабли танқидга учради. Сиёсий синф назарияси кутилмаган равишда тоталитар давлатларда ўз ифодасини топганлигини кузатиш мумкин.

Парето ва Михельс концепциялари.

Москадан бехабар ҳолда тахминан шу даврда Парето (1848-1923) ҳам сиёсий элита назариясини ишлаб чиққан. У ҳам Моска сингари алоҳида – психологик (туғмА. ва ижтимоий (тарбия ва таълим туфайли қўлга киритилган) сифатларга эга сараланган озчилик – элита доимо бошқарган ва бошқариши лозим. «Умумий социология бўйича трактат» асарида у: «айрим назариётчиларга ёқадими ёки йўқми, аммо кишилар жамияти турли туман бўлиб, шахслар бир бирларидан жисмонан, маънан ва ақлан фарқланиб турадилар», деган фикрни илгари суради. У ёки бу соҳада фаолият жихатидан самарадорлик, юқори натижа билан ажралиб турувчи кишилар мажмуи элитани ташкил этади.

Элита бошқарувда самарали равишда бевосита ёки билвосита иштирок этувчи ва ноҳукмрон – контрэлита – элитага хос сифатларга эга, аммо ўзларининг ижтимоий мақомларига ҳамда жамиятда қуйи қатламлар учун мавжуд турли тўсиқлар туфайли бошқарув жараёнида иштирок қила олмайдиган кишиларга ажратилади.

Ҳукмрон элита ичкаридан жипслашган бўлиб, ўз ҳукмронлигини сақлаш мақсадида кураш олиб боради. Элиталарнинг икки муҳим турлари – «тулкилар» (раҳбарликнинг «юмшоқ» методлари – музокаралар, ён босишлар, тилёғламалик, ишонтириш ва шу кабилардан фойдаланувчи уддабуронлар) ва «шерлар»нинг (асосан кучга таянувчи кескин ва қатъий шахслар) циркуляцияси, яъни мунтазам алмашиниб туриши орқали жамият ривожлана боради.

Жамиятда рўй бераётган ўзгаришлар аста секинлик билан элиталарнинг мазкур турларидан бири ҳукмронлигига барҳам беради. Масалан, тарихнинг нисбатан сокин даврларида «тулкилар»нинг ҳукмронлиги кескин ҳаракат ва куч ишлатиш зарур бўлган тарихий даврларда ярамай қолади. Бу эса жамиятда норозиликларнинг ошишига ва бу орқали халқни сафарбар қилиш натижасида ҳукмрон элитани ағдариб, ўз ҳокимиятини ўрнатувчи контрэлита – «шерлар»нинг кучайишига олиб келади.

Сиёсий элиталар назарияси ривожига сезиларли таъсир кўрсатган яна бир олим Р. Михельсдир (1876-1936). У жамият элитарлигини юзага келтирувчи ижтимоий механизмларни тадқиқ этган. Элитарлик сабабларини талқин этишда Моска билан ҳамфикр бўлган Михельс элитарликни кучайтириб берувчи ва ҳукмрон қатламни янада юқори кўтарувчи

ташкилотчилик қобилияти, ҳамда жамиятнинг ташкилий тузилмасини алоҳида ажратиб кўрсатади. У жамият тузилиши элитарликни талаб қилади ва уни қонуний равишда яратади деб хулоса қилади. Жамиятда «олигархик тенденцияларнинг темир қонуни» амал қилади. Унинг моҳияти йирик ташкилотларнинг ижтимоий тараққиёт жараёнидан ажралмаганлиги жамиятни бошқаришда олигархизациялашишга ва элиталарнинг шаклланишига олиб келади. Зеро, бундай уюшмалар устидан раҳбарликни уларнинг барча аъзолари тарафидан амалга ошириб бўлмайди. Улар фаолиятининг самарадорлиги функционал ихтисослик ва самарадорлилик, раҳбарий ядро ва аппаратни ажратиб олишни талаб этади. Улар эса ўз навбатида оддий аъзолар назоратидан аста-секинлик билан чиқиб, улардан узилган ҳолда сиёсатни ўз манфаатларига бўйсиндиришга, ўзларининг имтиёзли мавқеларини сақлаб қолишга интиладилар. Ташкилотнинг оддий аъзолари эса етарли даражада ваколатсиз бўлиб, кундалик сиёсий фаолиятда суст ва лоқайд бўладилар. Натижада, ҳар қандай, ҳаттоки демократик уюшмани ҳам амалда олигархик, элитар гуруҳ бошқаради. Ўзларининг имтиёзли ҳолатларини сақлаб қолишдан манфаатдор, таъсири кучли бундай гуруҳлар омма манфаатларини унутган ҳолда ўзаро турли хилдаги алоқаларни ўрнатадилар.

«Олигархик тенденция қонуни»дан келиб чиққан ҳолда Михельс умуман демократия имкониятлари ва хусусан социал-демократик партиялар демократизмига нисбатан пессимистик хулосалар беради. Демократияни у омманинг бошқарувда бевосита иштироки билангина изоҳлайди.

Моска, Парето ва Михельс асарларида сиёсий элита тушунчаси аниқ сифатларга эга бўлганлигини кузатишимиз мумкин. Унинг асосий замонавий элитар назарияларни чегаралаш ва баҳолашда кўмак берувчи хусусиятлари, ўлчамлари белгилаб қўйилди. Уларга қуйидагиларни киритиш мумкин: 1) элита вакилларига тегишли ўзига хос хусусиятлар; 2) элитар қатлам ичида мавжуд бўлган ҳамда унинг жипслилиги, интеграциялашуви даражасини белгилаб берувчи ўзаро алоқалар; 3) элитанинг ноэлита ва омма билан муносабатлари; 4) элитанинг «тўлдирилиши», яъни унинг қандай ва ким томонидан шаклланиши; 5) элитанинг жамиятдаги (конструктив ёки деструктиС. роли, унинг функциялари ва таъсири.

Моска, Парето ва Михельсларнинг элиталар концепциялари назарий, иккинчи жаҳон урушидан сўнг эса давлатни бошқарувчи ёки шунга интилувчи гуруҳларни эмпирик жиҳатдан тадқиқ этишга туртки бўлди. Замонавий элиталар назариялари хилма-хил. Замонавий аҳамиятини йўқотмаган назарияларнинг тарихий биринчи гуруҳи макиавеллистик мактаби (Моска, Парето, Михельс ва бошқалар) концепцияларининг қайта кўриб чиқилганлиги гувоҳ бўлишимиз мумкин. Уларни қуйидаги ғоялар бирлаштириб туради:

1. Табиий иқтидор ва тарбия ҳамда уларнинг бошқаришга қобилияти ёки ҳокимият учун курашда намоён бўлувчи элитанинг ўзига хос сифатлари.

2. Элита гуруҳининг жипслашганлиги. Мазкур ҳолат гуруҳнинг нафақат малакавий мақоми, ижтимоий ҳуқуқи ва манфаатларининг умумийлиги

билан, балки жамиятни бошқаришда ўзларини алоҳида қатлам сифатида қабул қилинувчи элитар онг билан белгиланади.

3. Ҳар бир жамият элитарлигининг тан олиниши, яъни унинг ижодий озчиликнинг имтиёзли ҳукмронлиги ва суст ижодкор кўпчиликка муқаррар ажратилиши. Бундай ажратилиш инсон ва жамият табиатидан келиб чиқади.

4. Ҳокимият учун курашда элиталарнинг шаклланиши ва алмашиниши. Юксак психологик ва ижтимоий сифатларга эга қатор инсонлар имтиёзли ҳукмрон ҳолатни эгаллашга ҳаракат қилишади. Бироқ, ҳеч ким ўз лавозими ва ҳолатини ўз ҳоҳишича беришни истамайди. Шу боис қулай имконият ва лавозимларни эгаллаш учун доимий асосда очиқ ёки яширин рақобат бўлиши табиий.

5. Умуман элитанинг жамиятдаги конструктив, раҳбар ва етакчилик роли. У ижтимоий тизим учун муҳим бўлган (баъзи ҳолларда эса самарасиз бўлиши мумкин) бошқарув функциясини бажаради. Ўзининг имтиёзли мақомини сақлаб қолиш ва уни наслдан наслга қолдиришга интилиш натижасида элита ўзининг ижобий жиҳатларини йўқотиши ва салбий томонга ўзгариши мумкин.

Ш.Л. Монтескьенинг фикрига кўра «барча сайлашга яроқли бўлса-да, ҳамма сайланишга ярамайди». Шу муносабат билан В. Парето, Г. Моска ва бошқа олимлар ҳар бир сиёсий режимда ҳокимият структураларида, айниқса юқори қатламларда етакчи мавқеларни элита вакиллари эгаллайди.

Элиталарнинг Макиавеллистик назарияси психологик омилларнинг бўрттириб кўрсатилиши, антидемократизм ҳамда омманинг қобилияти ва фаоллигига етарли даражада баҳо берилмаслиги, жамият ривожи ва давлатлар замонавий воқеликлари инобатга олинмаслиги, ҳокимият учун курашга баҳо беришда беписандлик оқибатидакескин танқидга учраб келмоқда.

3. Siyosiy etakchilikning zamonaviy tendentsiyalari

Etakchilik haqidagi qarashlarning kelib chiqishi. Amerikalik politolog ***Margarit Xarmani*** etakchi (lider)ni quyidagicha ta’riflaydi: Etakchi – ko`p qirrali tushuncha, uning namoyon bo`lishini ko`rayotganda, quyidagilarga e’tibor berish kerakligini aytadi.

a) Rahbarning o`z harakteri.

b) Unga muxolifatda bo`lgan rahbarning xislatlari (unga ta’sir ko`rsatuvchi barcha siyosat sub’ektlari).

v) Rahbarlar va unga raqobat qilayotganlar o`rtasidagi o`zaro aloqa.

g) Rahbarlikni amalga oshirish chog’idagi aniq vaziyat.

Etakchini (liderni) anglab etishda quyidagi uch xildagi yondashuvni farqlash kerak: psixologik, sotsiologik va politologik.

Psixologlarni olomandan tabaqalashgan birlikka o`tish bilan bog’liq bo`lgan psixologik jarayonlar qiziqtiradi. Sotsiologlarni ushbu jarayonlarni sotsial mehanizmi (dastagi) masalasi tashvishlantiradi (Norasmiy guruhlar ishlab chiqarish jamoalariga etakchilik va h.k.).

Etakchilik faoliyatini tushuntiruvchi qo`plab nazariyalar mavjud. Bular:



1. ***Xislatlar nazariyasi*** qahramonlarga xos bo`lgan sifatlarni aniqlash asosida yaratiladi. Siyosiy etakchiga xos bo`lgan xislatlar orasida odatda o`tkir aql, kuchli iroda va maqsadga intiluvchanlik, kuch-quvvat, tashkilotchilik qobiliyati, vakolatga egalik va o`ziga xos ma'suliyatni olishga tayyorgarlik kabilar ko`rsatiladi. Ammo intelektual va ahloqiy sifatlar etakchi bo`lishiga to`siq ham bo`lar ekan. Ba'zan kishilarning ajoyib qobiliyatlari butun hayoti davomida talab etilmasdan qolaverishi mumkin.

2. ***Vaziyatlar nazariyasi*** etakchilikning ma'lum bir ijtimoiy sharoitlarga bog'liqligi g'oyasiga asoslandi. Bunga ko`ra, aynan vujudga kelgan aniq shart-sharoitlar etakchini saralaydi va xulq-atvorini beligilaydi. Vaziyatlar nazariyasi shaxs individual sifatlarining muhim rolini inkor etmaydi, biroq ularni mutlaqlashtirmaydi ham. Biroq bu tamoyil etakchining faolligini, uning vaziyatni o`z vaqtida to`g'ri baholash va o`zgartirish, o`tkir muammolar echilishini topa olish qobiliyatini etarlicha aks ettirmaydi.

3. ***Konstituentlar nazariyasi*** etakchilik qobilyatini izdoshlar va konstituentlar orqali tushuntiradi. Ayni izdosh – deb yozadi ***F.Etenford,*** - etakchini va vaziyatni o`zgartiradi, oxir oqibatda etakchilikni qabul qiladi yoki rad etiladi. Ancha afzalliklarga ega bu nazariya etakchining yangiliklarga intiluvchanligi, mustaqilligi va faolligini etarli hisobga olmaydi.

Psixologik tomonlar va interfaol tahlil etarlicha murakkab va qat'iy talqinga bo`ysunmaydigan etakchilik tabiatining sub'ektiv dastaklarini yoritadi. ***Freyd*** fikricha etakchilikning asosida tushkunlik holatidagi vaziyat – asosan shahvoniy harakterdagi ongsiz qiziqish yotadi. Bu jarayonda u ijodkorlikka, etakchilikka intiladi. ***Fromm, Aderno*** avtoritarizmga moyil va hokimiyatga intiluvchi shaxs turini aniqladilar. Boshqalar ustidan cheksiz hokimiyatga ega bo`lish, ularni to`liq bo`ysundirish bunday odamga alohida roxat bag'ishlaydi.

Amerikalik politolog ***Robert Takker*** siyosiy etakchini uch turini ajratib ko`rsatadi.

Bular:

- Konservatorlar – jamiyatni asl holda saqlab qolishga qaratilgan faoliyat;
- Reformatorlar – hokimiyat tarkibini keng qamrovli islohatlar vositasida tubdan o`zgartirishga intiladilar;
- Inqilobchilar – odatda qurol kuchi bilan va pala-partish islohatlar o`tkazish yo`li bilan boshqa ijtimoiy tuzumga tez sakrash orqali o`tishni rejalashtiradi.

Mashxur nemis sotsiologi M.Veber hokimiyat fenomenini tahlil qilar ekan, u uch ko`rinishda amal qiladi degan xulosaga keladi.



An’anaga asoslangan hokimiyat – arbobga (patriarxga, knyazga) – “kechagining doimiylik” nufuziga tayanadi. U yoki bu shaxs xislati, qobiliyati, obro`si ko`pchilik irodasini mazkur raxnamolar irodasiga bo`ysundirilishiga olib keladi.

Hukmronlikni xarizmatik shakli “xudo nazar qilgan” nodir xislat-fazilatlarga ega bo`lgan shaxslar faoliyati bilan bog’liq. Bunday shaxslar odatda shaxsiy xislat-fazilatlari, odamlarga bo`lgan cheksiz mehribonliklari tufayli inson ongi qalbini ixtiyoriy tarzda bo`ysundira oladilar. (Iso, Muso Muhammad payg’ambar va h.k.).

Ochiq shakli eng mustabid – zo`ravonlik (diktatura) jamiyatlaridan eng demokratik jamiyatlargacha davrni qamrab oladi. Odamda u tub o`zgarishlar pallasi ob’ektiv pishib etilgan, ammo sub’ektiv omillar hali shakllanmagan paytda sodir bo`ladi. Shuning uchun u shartli ravishda “ochiq hukmronlik” iborasi bilan atalashi mumkin.

Siyosiy professionallik nuqtai nazaridan tan olishning eng maqbuli ***xarizma*** xodisasi deb hisoblaydi M.Veber.

Etakchi faoliyatning hajmi va harakteriga qarab uchga bo`linadi. Shaxslar *kichik guruh darajasining etakchisi* (Prezident atrofidagilar, parlament rahbariyati guruhlari) guruh faoliyatini tashkil qiladigan, yo`naltiradigan eng obro`li shaxsdir. Unda tez qaror qabul qilish qobiliyati, ma’suliyatni o`ziga olish, guruh qatnashchilari manfaatlarini qondirishga erishish talab qilinadi. Bu darajada etakchining rahbarlik usuli, shaxsiy sifatlari hal qiluvchi rol o`ynaydi.

Katta ijtimoiy guruhning (qatlam, partiya) siyosiy harakatida etakchilikda etakchining shaxsiy fazilatlari emas, aholining bu qismi manfaatlarini ifodalash layoqati birinchi o`ringa chiqadi. Strategiyani, maqsadga erishish yo`llarini ishlab chiqish, bu manfaatlarni qondirish etakchining bosh xususiyatidir. Etakchi shaxsi guruhning asosiy kayfiyati va umidlarning ramziga aylanadi. Bunday etakchida faqat integrativ emas pragmativ vazifa ham bo`lishi kerak.

Etakchilik tushunchasi. Етакчилик феноменининг бойлиги унинг таърифларида акс этади.

1 Сиёсий етакчилик - ҳокимиятнинг бир кўриниши бўлиб, юқоридан пастга йўналган ва унинг намояндаси бир киши ёки шахслар гуруҳидир. Сиёсий етакчилик деб ёзади - Жан Блондель - бу «миллат аъзоларини ҳаракатларга ундаш учун бир ёки бир канча индивидлар амалга оширувчи

ҳокимиятдир».[38]

2 Сиёсий етакчилик - қарорлар қабул қилиш мақоми, ижтимоий мавқедир, бу раҳбарлик амалидир.

Бу структуравий-функционал ёндашувдан келиб чиққан бўлиб, ижтимоий ҳаётда роллар ва мавқелар поғонасимон ташкилий тизимидан келиб чиққан. Даунтоун « Сиёсий етакчилик - жамиятдаги ҳолат бўлиб, уни эгаллаган шахснинг айрим ёки жамият барча аъзоларининг жамоавий ҳулқ-атворни йўналтириш ёки ташкил этиш қобилияти билан тавсифлайди».[39]

3. Сиёсий етакчилик - бошқа кишиларга таъсир этишдир.

4 Сиёсий етакчилик - бу алоҳида турдаги тадбиркорлик бўлиб, ўзига хос бозорда амалга оширилади, сиёсий тадбиркор рақобат курашида ижтимоий вазифаларни ҳал этиш ва уларни рўёбга чиқаришнинг мўжалланаётган усуллари дастурини раҳбарлик амалларига алмаштиради. (Дж Оппенгеймер, Н.Флорих);

5 Сиёсий етакчилик - бирлик белгиси ва гурух сиёсий ҳулқ-атворнинг намунасидир.

Сиёсий рахбарлик - сиёсий етакчиликдан фарқ қилади, «сиёсий рахбарлик - сиёсий етакчиликдан фарқли ўлароқ етарлича қаттиқ ва расмийлашган ҳукмдорлик буйсуниш муносабатлари тизимини тақозо этади.

Rasmiy va norasmiy etakchilik. Лидерлик мураккаб ва кўпқирралик ҳолат ҳисобланади. Лидерлик одатда ҳокимият кўринишларидан бири бўлиб, қарорлар қабул қилиш жараёнидаги бошқарувчанлик мақоми сифатида қаралади.

Лидерликнинг асосий шакллари ва кўринишлари билан талабалар В.П. Пугачев ва А.И. Соловьевларнинг «Введение в политологию» ўқув дарслигида танишиб чиқишлари ҳамда бу борадаги назариялар, лидерлик табиати, уларнинг турлари ва функциялари билан танишишлари керак бўлади[46].

Лидерлик ҳақидаги фикрларни талабалар, шунингдек, Политология. Ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир: с.ф.д., проф. С. Жўраев. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2006. – б. 140-155; Рамазонов И, Мўминов Э. Политолгия Т.: Адолат, 1997. 162-173 бетлар каби адабиётларда танишишлари мумкин.

Siyosiy etakchilik kontseptsiyalari. Siyosatshunoslikda etakchilikning xarakterli xususiyatlarini tushuntirib berishda tubandagi nazariyalar mavjud:

Xarakter nazariyasi – bu nazariya etakchilar xarakteridagi Yuksak fazilatlarni – o’tkir zakovat, fahm – farosat, temir iroda, g’ayrat, tashkilotchilikni asos qilib oladi.

Omilli – tahliliy ta’limot nazariyasi. Ular xarakterlar nazariyasini ma’qullamaydi, etakchining sof individual xususiyatini, muayyan siyosiy

[38] Қаранг: Блондель. Ж. Политическое лидерство. М., 1992й 10 бет

[39] Қаранг: Dawnton J, Rebel Jr. lidership; Commintment and charisma in the Revolutionary process. New York; London 1972. P. 15.

[46] Введение в политологию: Учебник для студентов ВУЗа / В.П.Пугачев, А.И.Соловьев. – М.: Аспект Пресс, 2005. 132-137

maqsadlarni amalga oshirishdagi hulq-atvorini asos qiladi.

Ijtimoiy vaziyat nazariyasi - bu nazariya etakchilikni muayyan ijtimoiy vaziyatga, shart-sharoitga bog'liq, deb ko'rsatadi. Ular vujudga kelgan siyosiy vaziyatlar etakchilarni tanlab oladi, uning hulq – atvorini belgilaydi. Har bir etakchi o'z davri, tarixiy vaziyat taqozasi. Masalan, Aleksandr Makedonskiy, CHingizxon, Petr1, Amir Temur, Jaloliddin kabilar. Sho'rolar inqirozidan keyingi davr I.Karimov. N.Nazarboev, A.Akaev, B.Elsin kabi etakchilarni keltirib chiqardi. Vaziyatlar ta'limoti siyosiy etakchining individual xususiyatini inkor etmaydi. Lekin uni mutlaqlashtirishni noo'rin, deb hisoblaydi.

Etakchining izdoshlari, tarafdorlari nazariyasi. Ular etakchining shaxsiy sifatlari va imkoniyatlarini etarli baholay oladilar, uni qo'llab-quvvatlash kompaniyasini tashkil qiladilar.

M.Veber o`zining "***Siyosiy iste'dod va kasb"*** (1919 yil) asarida ahloqiy siyosiy etakchi to`g'risida savol qo`yar ekan shunday deydi: Tarixni rivojlantirish uchun yo`l tutishda inson qanday bo`lishi kerak. Siyosiy etakchining muhim sifatlaridan biri: extiros, javobgarlikni xis etish va ko`z bilan chamalash.

Siyosiy ishni amal qilishi uchun extiros bilan yondashish, ishga bor kuchini safarbar qilish, - mana bu etakchining birinchi qonuni. Ammo bir extirosning o`zi etarli emas. Agar extiros bilan xizmat qilish javobgarlik asosida bo`lmasa u holda siz siyosiy etakchi bo`la olmaysiz. Javobgarlik – etakchilikning yo`lchi yulduzi hisoblanadi. Ammo eng asosiy psixologik sifat extiros va javobgarlik birga qo`shilgan – ko`z bilan chamalashdir.

Siyosiy etakchi siyosiy jarayonlar bilan birga butun jamiyat, siyosiy tashkilot yoki harakatga rahbarlik qiladi, voqealarning borishi va siyosiy jarayonlar yo`nalishini belgilaydi va o`zgartira oladi.

Siyosiy etakchilik tasnifi (avtoritar va demokratik). Siyosiy etakchilar o'zining qo'l ostidagilarga munosabatiga ko'ra 2 turga ajratiladi.

Avtoritar etakchi

Demokrat etakchi

Avtoritar etakchi - tanho yo'naltirilgan ta'sir etish xususiyatiga ega, u boshqaruvda zo'rlik, kuch ishlatishga amal qiladi.

Demokrat etakchi - guruh va tashkilotning barcha a'zolari fikri, manfaati bilan hisoblashib boshqaradi.

Siyosiy elita va etakchilik to`g'risida sharqona qarashlar. А.Навоий сиёсий ғояларини «Садди Искандарий» достонида асослаб берган. Унда ижтимоий адолатли тузум ғоясини адолатли шоҳ тимсолида баён қилган. Навоий бу муаммони адолатли шоҳ – адолатли давлат – адолатли қонунлар – адолатли тартиб сифатида поэтик тасвирлаган[47]. Шунингдек, даҳо шоир турли халқлар, ижтимоий гуруҳлар ва табақалар ўртасидаги оқилона, маърифатга асосланган муносабатлар ижтимоий барқарорликка олиб келишини гўзал тимсоллар орқали куйлаган.

Навоий сиёсий қарашларида кўпроқ адолатли қонунларга асосланган маърифатли шоҳ ҳокимиятини орзу қилиб, уни Ҳусайн Бойқаро давридаги вазирлик фаолиятида амалга оширишга уринади. Навоийнинг бу каби илғор

[47] Политология. Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002, 31–32-бетлар.

сиёсий қарашлари кейинчалик Бобурнинг давлат фаолиятида ва унинг бутун дунёга машҳур «Бобурнома» асарида янада бойитилди.

Forobiy qarashlarida etakchilarga qo`yilgan talablar. Давлат бошлиғи ўз лавозимига мансуб бўлган шахс бўлишини ёқлайди. Унинг фикрича, давлат бошлиғи ҳар томонлама етук бўлиши керак. Форобий ана шу якка ҳокимлик тўғрисида гапирар экан, унинг олдига 12 талабни қўяди. Булар: 1) тўрт мучали соғлом; 2) нозик фаросатли; 3) хотирали; 4) зеҳни ўткир, зукко; 5) фикри тиниқ, сўзлари чиройли; 6)маърифатли; 7) тамоқ, ичимлик, аёлларга нисбатан очофат бўлмаслиги; 8) ҳақиқатгўй; 9) номусли, ориятли, олийҳиммат бўлиши; 10) бойликка қизиқмайдиган; 11) адолатпарвар; 12) ботир, яъни қўрқоқлик ва ҳадиксирашдан холи бўлиши даркор. Форобий мана шу барча хислатларнинг бир одамда бўлиши қийин, бундай туғма қобилият камдан кам одамларда учрайди ва улар нодир инсонлардир. Баркамол инсон топилмай қолса, унда юқоридаги фазилатлардан 6 ёки 5 таси камол топган инсон ҳам ақл ва заковатда беназирлиги туфайли фозиллар шаҳрига раҳбарлик қила олади, дейди. Фозиллар шаҳрида бундай одам йўқ бўлганда ана шу имом ёки унинг издошлари чиқарган қонун ва тартибларга амал қилинади. Аввалги имом ўрнига келган кейинги раҳбарда ҳам юқорида айтилган хислатлар ёшликдан шаклланган бўлиши лозим. Кейинги имомда яна 6 та фазилат ҳосил қилиниши зарур: 1) донишмандлик; 2) кучли хотира; 3) янги қонунларни ихтиро қилиш; 4) вазиятни тез илғаб оладиган; 5) нотиқлик; 6) ҳарбий ишларга моҳирлик, раҳбарлик қилиш. Шу хислатларга эга бўлган шахс топилмаса, 2 киши бирлашиб фозил шаҳарга раҳбарлик қилиши лозим, дейди.

O`zbekistonda siyosiy elita va siyosiy etakchilik, uning ijtimoiy samardorligini oshirish yo`llari.

Boshqarish har qanday jamiyatga xos bo’lgan ichki xususiyatdir. Uning tuzilishi va mexanizmlari nihoyatda murakkab bo’lib, jamiyat xayotida amal qilishi o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’ladi. Boshqarish jamiyat xayotining hamma sohalariga dahl qiladi va uning ta’sirida muhim o’zgarishlar ro’y beradi. Boshqarishga xos bo’lgan ob’ektiv xususiyat jamiyat rivojlanish qonuniyatlari talablariga muvofiq amal qiladi. Boshqarish kanday shakllarda olib borilishi va amal qilishidan qat’iy nazar, u siyosiy mohiyatga ega bo’ladi. Boshqarishning siyosiy mohiyati boshqarish va rahbarlikni siyosat sub’ektlari tomonidan amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Siyosatning har bir sub’ekti boshqarishda ma’lum darajada ishtirok etadi.

Boshqarishning siyosiy mohiyati jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Agar jamiyat xayotida ro’y beradigan voqea-xodisalar, o’zgarishlarga ta’sir qilmasa va ular harakatidan maqsadga muvofiq ravishda foydalanilmasa, jamiyat rivojlanishi izdan chiqadi. Insoniyatning butun tarixi kishilarning tabiat va jamiyatning stixiyali harakatiga qarshi kurashdan iborat bo’lib kelgan. Ibtidoiy munosabatlardan mulkchilik munosabatlariga o’tilishi va dastlabki kuldorlik davlatining paydo bo’lishi boshqarishning siyosiy mohiyat kasb etishi uchun asos bo’lgan. Davlat siyosatining sub’ekti sifatida jamiyat hayotini boshqarishni o’z zimmasiga olgan va davlat bilan fuqarolar o’rtasidagi munosabatlar siyosiy mazmunga ega bo’lgan.

Siyosiy etakchilik tushunchasi va tabiati. *Siyosiy etakchilik* – siyosiy guruhiy faoliyat integratsiyasining dastaklaridan biri bo`lib, individ yoki ijtimoiy guruhning bir qismi siftida etakchi rolni bajaradi. Ya'ni o`z harakatini qabul qilgan va qo`llab-quvvatlagan guruh faoliyatini birlashtiradi va yo`naltiradi.

Siyosiy etakchi tushunchasi. Siyosiy etakchi ***(lider)*** – mamlakat taraqqiyotida muhim rol o`ynaydigan, siyosiy jarayonlarga va vaziyatlarga ta'sir ko`rsata oladigan jamiyatning, muayyan ijtimoiy guruhning, tashkilotning obro`li shaxsidir.

Elita bilan bir qatorda siyosiy jarayonlarning eng muhim sub'ekti bo`lib siyosiy liderlar (etakchilar) hisoblanadi. Lider – rahbar, raxnamo, yo`lboshchi degan ma'nolarni anglatadi.

Lider (etakchi) ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, biznesda, fanda, san'atda, oila va maktabda amal qiladi. Lug'atni ochib qaraganimizda lider (ang. leader – etakchi, rahbar) – bu qandaydir birgalikdagi faoliyatni tashkil etish maqsadida boshqalarga ta'sir etishga qobiliyatli shaxs. Siyosiy etakchilik aniq namoyon bo`ladi. *Siyosiy etakchi* – bu siyosiy faoliyat va harakatning tashkilotchisigina emas, shuningdek, siyosat tarixini borishini o`zgartira oladigan, siyosiy jarayonlarning yo`nalishini aniqlash, istiqbolga qaratilgan siyosiy maqsadlarni belgilashga qodir shaxsdir.

Darhaqiqat siyosiy etakchi - bu mamlakat hayotida muhim rol o'ynaydigan, siyosiy jarayonlarga va vaziyatga ta'sir o'tkazadigan jamiyatning muayyan guruhi va tashkilotining bilimdon, kuchli irodali va noyob qobiliyatli, obro'yli shaxsidir. Aniqrog'i etakchi bu yo'lboshchi, muayyan maqsadni amalga oshirishda boshqalarga ta'sir o'tkazadigan, ularni jipslashtira oladigan shaxsdir.

Siyosiy etakchi jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi, u siyosiy jarayonga, jamiyatga rahbarlik qiladi, siyosiy jarayonning yo'nalishini belgilaydi, uni o'zgartira oladi.

Siyosiy etakchilarning turlari. Evropalik sotsiolog **M. Veber** klassifikatsiyasiga ko'ra etakchilar tubandagi 3 turga ajratiladi.

An'anaviy etakchilik - bu an'analarning muqaddasiligi, itoat etish odatiga, hokimiyatning meros kuchiga asoslanadi. Masalan, dohiylar, oqsoqollar, shoxlar.

Xorizmatik etakchilik - hukmdor etakchi halqning cheksiz ishonchiga asoslanadi. Bu o'tish davrida, jamiyatni yangilanish davrida muhim rol o'ynaydi.

Ratsional - oshkora etakchilik - bu jamiyat taraqqiyotining nisbatan tinch davrida islohotchi - qonunchi etakchilar maydonga chiqadi.

Amerikalik politolog **Robert Taker** esa siyosiy etakchilarni tubandagi 3 turga ajratadi (1 – sxema).

Konservatorlar - jamiyatning mavjud holatini saqlab qoluvchi etakchilar

Reformatorlar - jamiyat hayotini islohatlar yordamida tubdan o'zgartiruvchi etakchilar

Inkilobchilar – qurol kuchi bilan boshqa tuzimga o'tishga harakat qiluvchi etakchilar

Siyosiy etakchi, rahbar haqidagi nazariy fikrlar antik davr tarixchilaridan Gerodot, Plutarx, o'rta asr olimlaridan Abu Nasr Forobiy, Nizomulmulk, Temur, Alisher Navoiy, Munis va Ogahiy, XIX asr mutafakirlaridan F.Nitsshe, G.Tard va boshqalarning asarlarida bayon qilingan. Ular siyosiy etakchini jamiyatni

jipslashtiruvchi, kuchli irodali, tashabbuskor va go’zal ahloq normalariga ega hukmdor sifatida ta’riflaydilar. Umuman, *siyosiy etakchilik hakidagi nazariyalar* quyidagilardan iborat:

1. Fatalizm (lot. taqdirga oid) nazariyasi. Kishilarning «oliy kuchlar»ga, «ilohiy taqdirga», «xudoning peshonaga yozib qo’ygani»ga bog’liq g’oyalar ilgari suriladi. Hukmdorlik nazariyasi. Podshox, amir, xon, monarx va hoka zo bilan bog’liq.

2. Volyuntaristik (lot. erk, iroda) nazariyasi. Ushbu tushuncha 1883 yilda F.Tennis tomonidan kiritilgan va quyidagi ma’nolarga ega: 1) erkni borliqning oliy qoidasi deb hisoblovchi yo’nalish (A.Shopengauer); 2) tarixiy jarayonning konuniyatlari bilan hisoblashmaydigan faoliyat. Aslida bu nazariyani G.Karleyli (1795-1881) va R.U.Emersonlar (1803-1882) ishlab chiqqanlar. Ularning fikriga ko’ra, tarix qahramon, diniy shaxs ijodining maxsulidir.

3. Paradigmatik (Yunon. namuna) nazariyasi. F.Nitsshe ishlab chiqqan. U oliy biologik tip - etakchi yo’lboshchi, Yulboshchi inson, g’ayri tabiiy favqulodda inson to’g’risidagi g’oyani asoslashga harakat qiladi. Inson insoniy ahloq normalari chegaralanmagan, yaxshilik va yomonlikdan Yuqori turadi. U oddiy odamlar hamda o’ziga o’xshash favkuloddagi yo’lboshchi insonlar bilan mehribon, muloyim bo’lishi mumkin. U kuchli, irodali, komil va go’zal insondir.

4. Ijtimoiylashuv nazariyasi (taqlid qilish). Bu zamonaviy nazariya bo’lib, uni G.Tard (1843-1904) ishlab chiqqan. Xayotning asosiy qonuniyatlaridan biri - etakchi, yo’lboshchilarga izdoshlarning taqlid qilishidir, degan g’oyani asoslashga harakat qiladi.

Siyosiy etakchilik masalasida hozirgi zamon Siyosatshunosliksida turli yondashuvlar mavjud:

Etakchi boshqalarga ta’sir etish demakdir.

Etakchilik bu boshqaruvchanlik maqomi.

Siyosiy etakchilik bu siyosiy faoliyat shakli.

Biroq, tarixdan ayrim siyosiy rahbarlar uni hokimiyat tepasiga keltirgan guruhlarga qarshi faoliyat yuritganligi xam ma’lum. Masalan, I.Stalin, A.Gitler, Saddam Husayn, nemis sotsiologi ***Z.Freyd va T.Adorno*** etakchilik nazariyasida ***psixoanalitik nazariyasini*** yaratdilar. Ular etakchilar orasida avtoritarizmga moyil bo’lgan va hokimiyatga intiluvchi shaxs tipini aniqladilar. Bunday shaxslar nosog’lom muhit, oilaviy sharoitda shakllanadi. Bunday shaxs hokimiyatda cheksiz hukmronlik, saddizm, zo’ravonlikni qaror topdiradi. Bunday shaxsdagi hulq-atvor zaiflik alomati bo’lib, tenglik, demokratiyaga toqat qilmaydi. Zo’rlik vositasida o’zini kuchli qilib ko’rsatishga harakat qiladi.

Etakchi faoliyatning funksiyalari. Jamiyatni jipslashtirish va birlashtirish. Vatanga, davlatga, halqqa namunali xizmat qilish; Eng maqbul siyosiy qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish. Hatolarni o’z vaqtida payqash va tuzatish; Ommani qonunsizlikdan, amaldorlar o’zboshimchaligidan himoya qilish. Q’onunlar ijrosini nazorat qilish, rag’batlantirish, jazolash; Omma bilan uchrashuv, muloqat orqali bevosita aloqada bo’lish; YAngilik tashabbuskori bo’lish, ommani siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga safarbar qilish;

Jahonda yuz berayotgan hozirgi o’zgarishlar etakchilar oldida yangi

tendensiyalarni keltirib chiqarmoqda. Ularni hisobga olmoq lozim:

Biror mamlakat etakchisi jahondagi global - umumbashariy muammolarni chetlab o'tolmaydi.

Endilikda norasmiy etakchilar roli va ta'siri oshmoqda.

Etakchilar faoliyati ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishga ko'prok jalb qilinmoqda.

Hokimiyatlar bo'linishi va jamoat tashkilotlari mavqeining kengayishi hisobiga etakchi hokimiyati ham cheklanmoqda.

Dunyo davlatlarida etakchi kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berilayapti. Kadrlar tayyorlash tizimi 3 ta yo'nalishga ega:

Liberal - demokratik tizim. Uning Evropa va Sharqona ko'rinishlari mavjud.

Totalitar tizim. Bunda etakchiga, tizimga, yagona mafkuraga sodiqlik tarbiyalanadi.

Teokratik tizim. Diniy mafkuraga amal qilinadi. Evropa va Sharqning ayrim davlatlariga xos yo'nalish.

Jamiyatda siyosiy madaniyatning etukligi, demokratik qadriyatlar ustunligi, fuqorolik jamiyati, siyosiy partiya va jamoat tashkilotlari rolining kuchliligi, siyosiy muxolifatning mavjudligi etakchi qobiliyati va talantini namoyon etadi, turli o'zboshimchalikka va mansabni suiste'mol qilishga imkoniyat bermaydi.

Xulosa

Umuman, qisqacha qilib, shunday xulosaga kelish mumkin: Birinchidan, millat insoniyat va jamiyat taraqqiyotining hosilasi hisoblanadi. Uning shakllanishida moddiy omillar, xususan, davlat, iqtisodiyot muhim rol o'ynagan bo'lsada, ular millatning to'liq mohiyatini ochib berolmaydi. Ular insonlarning o'zaro yaqinlashishiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Ammo millatni birlashtiruvchi narsa, ma'naviy omillar hisoblanadi. Xususan, ruhiyat, til, ma'naviyat, urf-odat, an'ana, qadriyatlardir.

Ikkinchidan, millat tushunchasini ta'riflashda sinfiy yondoshuv, uning chinakam kuch, qudratini xaspo'shlash hisoblanadi. CHunki insoniyat va jahonning bir qator rivojlangan mamlakatlari tajribalari shuni ko'rsatadiki, sinflar o'rtasida ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar zamini moddiy manfaatdorlik bilan bog'liq. Mamlakatlarda aksariyat aholining moddiy ehtiyojlarini ta'minlash o'zaro qarama-qarshiliklarning ham sunib borishiga olib keladi.

Umuman millatning shakllanishida moddiy omillar qanday rol o'ynasa, uning abadiyligi va barqarorligini ta'minlashda asosiy omil - ma'naviy- ruhiy salohiyat ham shuncha muxim rol uynaydi.

Demak, milliy munosabatlar - kishilarning tarixan vujudga kelgan birligi: urug', qabila, elat, xalq, milliy guruhlar, kam sonli xalqlar, etnoslar va ularning hozirgi Yuksak, barqaror shakli bo'lgan millatlarning rivojlanishi va o'zaro aloqalarini ifodalaydi.

«Millatlaro munosabatlar» - elatlar, xalqlar, millatlar, kam sonli xalqlar o'rtasida tarkib topadigan turli aloqalarga aytiladi. «Milliy munosabatlar» deyilganda ko'pincha millatlar, elatlar, kam sonli xalqlar hayotini rivojlantirish va ular o'rtasidagi turli aloqalar tushuniladi. Shu bois «milliy munosabatlar»

deyilganda odatda «millatlararo munosabatlar» to'grisida ham gap ketishi mumkin. Demak, bularni bir-biriga qo'shib Yuborish yoki ajratib ko'rsatish notug'ri. Bu tushunchalar bir-biri bilan bog'liq. Lekin «millatlararo munosabatlar» «milliy munosabatlar» doirasiga kiradi.

Tayanch tushunchalar:

Siyosiy etakchi, elita, rahbar, xarakter, omilli – tahlil, ijtimoiy vaziyat nazariyalari, avtoritar, demokrat etakchi, konservator, reformator, inqilobchi etakchi, siyosiy etakchining sharqona tahlili, rahbar, fozil rahbar, rahnamo, Yurtboshi, millat, elat, ijtimoiy guruh, til, iqtisodiy, hududiy, psixik birlik, madaniy, ma'naviy, ruhiy omil, urf – odat, an'ana, qadriyat, etnik birlik, milliy huquq, milliy tenglik, milliy davlat, manfaat birligi, milliy barqarorlik, milliy siyosat, shovinizm, milliy – madaniy markaz.

Adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston» 2003.

2.Karimov I.A. Amir Temur fahrimiz, g'ururimiz. 5 jild. T.: «O'zbekiston» 1996.

3.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. 6 jild. – T.: «O'zbekiston», 1998.

4.Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Xalq so'zi. 30 avgust 2002 y.

5.Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. – T.: «O'zbekiston» 2004.

6.Karimov I.A.Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: «O'zbekiston» 2005.

7.Karimov I.A. "YUksak ma'naviyat-engilmas kuch" 2008y

8.Karimov I.A. "Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish" T.: "O'zbekiston" 2009.

9.Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning choralari va yo'llari" T.: "O'zbekiston" 2009.

10. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T. O'zbekiston» 2001 y.

11. Malsev V.A. Osnovo' politologii: Uchebnik dlya vuzov. M: ITRK, 2002g.

12. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.T: «O'zbekiston» 2000 y.

13. «Siyosatshunoslik». o'quv qo'llanma.-T.: «O'zbekiston» 1999.

14. O'zbekistonda Siyosatshunoslik (respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari) Toshkent «Sharq» 2002 y.

15. Odilqoriev X.T, Razzoqov X.D. Siyosatshunoslik. T- 2008.

6-mavzu Siyosiy kommunikatsiyalar. Saylovlar. Siyosiy ixtiloflar

Reja:

1. “Siyosiy kommunikatsiya” tushunchasi va mohiyati.
2. “Axborot”, “ommaviy axborot” tushunchalari.
3. Saylovlar va ularning ko`rinishi.
4. Siyosiy ixtiloflar, ularning kelib chiqishi.

1. “Siyosiy kommunikatsiya” tushunchasi va mohiyati.

“Siyosiy kommunikatsiya” tushunchasi.
Siyosiy kommunikatsiyaning rivojlanishi tarixi.
Siyosat sohasida kommunikatsiya jarayonlarining mohiyati va o`ziga xosligi.
Kommunikatsiya nazariyalaridagi asosiy yondashuvlar va ilmiy maktablar.
Siyosiy kommunikatsiya tarkibi.
Siyosiy kommunikatsiyalarni turkumlash.
Ommaviy siyosiy kommunikatsiyalar, ularning mohiyati va o`ziga xosligi.

2. «Axborot», «ommaviy axborot» tushunchalari.

***OAVlarining ommaviy kommunikatsiya tarkibida tutgan o`rni.*** Siyosiy faoliyat, siyosiy jarayonlarda ishtirok etish, aniq maqsad va yo`nalishlarga ega bo`lishini axborotsiz yoki ommaviy axborot vositalarining tasavvur etib bo`lmaydi. OAV orqali avvalo insonlar siyosiy –ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotda, hamda dunyohamjamiyati, davlatlararo munosabatlarda sodir bo`layotgan o`zgarishlardan xabardor bo`ladi. Uni idrok etadi. Munosabatlar bildiradi, qabul qilishi hamda siyosiy jarayonlarning ishtirokchisiga aylanishi yoki aksincha, xolisona turishi mumkin. Lekin, nima bo`lganda ham bugungi hayot tarzimizni OAV larsiz tasavvur etolmaymiz. OAV ijtimoiy hayotidagi o`rni va roli oshib bormoqda. «Axborotlashgan jamiyat» to`g’risidagi qarashlarning negizi ham dunyoda axborot ko`lamining ortib borayotganliligi bilan bog’liq.

OAV insonlarni mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan uzviy bog’laydi. Hamda ularni bu jarayonlarga ihtirok etishga turtki beradi. Shunda «axborot xolis», «ishonchli», «aniq», bo`lishi muhim. Noxolis, dalillar bilan to`siq tasdiqlamagan, yoki «yolg’on» axborotlar inson hayotiga, shuningdek, uning ko`lami, axborotni qamrovli darajasiga qarab xalqlar, davlatlar o`rtasidagi munosabatlar salbiy ta’sir ko`rsatadi. Ommaviy axborot vositalarini haqiqiy «to`rtinchi hokimiyat»ga aylantirish jarayoni hamma joyda ham ancha murakkab kechayotganligi kuzatilmoqda.

Xususan, axborot tahlilida eskicha fikr yuritish o`z ta’sirini saqlab turibdi. Eski sarqitlardan judo bo`lish esa dunyoqarashlar, psixologiya, turli da’volar o`rtasidagi ko`zga ko`rinmaydigan kurashlar bilan birga bormoqda.

Insonlar ega bo`layotgan axborotning xarakteri va tarqatish usullari tashviqot ko`rinishlariga ham ta’sir etadi va uni belgilab boradi. Axborotning kundalik bo`layotgan voqea va hodisalar bilan mos kelishi siyosiy munosabatlarda shaxs faolligini oshiradi. Fuqarolarning mustaqilligini, erkin fikrini yanada mustahkamlaydi. Hozirgi zamonda axborot tarqatish texnikalari qisqa muddatda

keng auditoriyani qamrab olish imkoniyatiga ega. U ko`prq «chegara» bilmaydigan omilga aylanib qoldi.

Bugun insonlar dunyo axboroti «maydoni» bilan birga yashayapti. Siyosat, siyosiy munosabatlarni va jarayonlarni axborot bilan bog'liqligi esa oshib bormoqda. Bu uni hisobga olishni taqozo etadi.

Demokratik jamiyat qurish vazifalari matbuot va so`z erkinligi tamoyiliga amal qiladi. OAV ni siyosiy qarorlar qabul qilishida bevosita o`rni bor. Shuningdek, axborot siyosati, mamlakat siyosiy rejimi, xarakteri bilan bevosita bog'liq. Masalan, avtoritar va totalitar rejimlar «axborot»ni bo`g'ish, uni «sir» saqlashdan unga «hukmronlik» qilishda ko`proq manfaatdor. Demokratik jamiyatlar esa axborotni erkin almashish, uning xilma-xilligidan ko`proq manfaat ko`radi. Bu shu jamiyatlarni yashovchiligini ta'minlab beradi.

OAVlarining tarkibi va vazifalari. «Axborot», «ommaviy axborot» XX asrda keng ishlatila boshlandi. U avvalo xalqlar, ijtimoiy guruhlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlar, xulq-atvor normalarini, ijtimoiylashish jarayonlariga ta'sirining ortib borayotganligini bilan bog'liq. Bugun axborotni jamlash, asrash va uzatish jarayoni o`zgardi. U «og'zaki so`z» dan eng zamonaviy kompyuter axborot uzatish, kabilli, sputnik orqali ko`rsatiladigan televizorlar, teletayp va faksimal aloqalar, aloqa sputniklari bilan bog'liq. Yangi XX asrni «axborot asri» bo`lish hamda axborotni asosiy «resurs»ga aylanishi to`g'risidagi qarashlar reallikka aylanib, ayrim mamlakatlar taraqqiyotning ustuvor yo`nalishini belgilmoqda. Axborot sohasidagi texnik taraqqiyot ko`pgina ijtimoiy, siyosiy muommolarni hal etish imkoniyatini berishga qodir ekanligi shubhasiz. Ayni paytda, ommaviy axborot axborot vositalari, dunyoda «mafkuraviy kurash» yoki «inson ongi va tafakkurini egallash unga ta'sir ko`rsatish» maydoni hamdir.Bugungi murakkab siyosiy mafkuraviy jarayonlar buni tasdiqlamoqda. Ommaviy axborot vositalari turli xalqlar madaniy hayotiga, tafakkur tarziga, urf-odat, an'analarga, qadriyatlarga ham ta'sir ko`rsatish va ko`proq ta'sir «maydoniga» ega bo`lishi imkoniyatiga ega. Unga alohida e'tiborini qaratish va fuqarolarda unga nisbatan «mafkuraviy immunitetni» shakllantirish ham alohida ahamiyat kasb etayotganligini inkor etib bo`lmaydi. OAV jamiyati ma'naviy yangilashdan ko`zlangan bosh maqsad-yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil inonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ishonchini shakllantirishda, hamda xalqning, millatning o`tda yonmaydigan, suvda cho`kmaydigan o`lmas e'tiqodini (I.Karimov) uyg'otishda va qaror toptirishda muhim rol o`ynaydi. OAV jamoatchilik fikrini uyg'otadi, shakllantiradi, yo`naltiradi va ularni safarbar etish «quvvatiga» ega. Shuning uchun mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik jamoatchilik fikrining holatiga etarli darajada bog'liq bo`lib, unda OAV muhim o`rin tutadi.

Ijtimoiy fikrni shakllantirish. OAVning yuksak g'oyaviy minbar va odamlar qalbu shuuriga tez ta'sir etuvchi vosita singari imkoniyatlaridan samarali foydalanish -odamlar ongida demokratik qadriyatiyatlarni mustaxkamlash va axolining ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish, eng avvalo insonning o`zini o`zi tushunishi va fuqarolararo munosabatlarni yuksak ma'naviy-ma'rifiy mezonlar

asosida shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, OAV institutlari zamonaviy insonparvar tafakkurni, fuqarolardan ijodkorlik ruxini, yaratuvchilik qobiliyatini, bunyodkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Ya'ni, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish, boshqarish, xozirgi zamon me'yorlari asosida kishilik taraqqiyotini ta'minlashning yangi usul va uslublarini qidirib topish zarurligidan kelib chiqib, OAVning siyosiy-huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik axborot tizimini boshqarish kabi qator, bir-biriga o`zviy bog'liq bo`lgan imkoniyatlarini yanada kengaytirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari soxasida olib borilayotgan davlat siyosatining qonunlar yordamida mustaxkamlanishi, ommaviy axborot vositalari faoliyati erkinligi va mustakilligini amalda ta'minlash, ularni tom ma'noda "turtinchi xokimiyat" sifatida shakllanishi uchun etarli huquqiy asos bo`lib xizmat kilmokda.

O`zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muxim sharti - ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni joriy etish buyicha anik va izchil choralarni amalga oshirishdir. Bu boradagi asosiy vazifa matbuot, televidenie, radio faoliyatini yanada liberallashtirish, ularning mustakilligi va erkinligini amalda ta'minlashdan, ommaviy axborot vositalarini fikrlar va g'oyalarni erkin ifoda etadigan maydonga aylantirishdan iborat. Bu choralar natijasida axolining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotida amaliy ishtirok etishi uchun kengrok jal b qilishga erishish mumkin.

Mustaqillik yillarida O`zbekistonda siyosiy kommunikatsiyalar ahamiyatining ortib borishi, bu boradagi davlat siyosatining asosiy yo`nalishlari. Yangi asr, siyosiy munosabatlarni axborot maydoni bilan bog'liqligini yanada oshirishi shubhasiz. Bu har bir mamlakat, hamda dunyo axborot markazlari oldida yangi ma'suliyatli vazifalar qo`yadi. OAV takomillashib borgan sari uning xolisligi ham ortib borishi kerak. Mamlakatlar, xalqlar o`rtasida o`zaro hamkorlik, ozod va farovon hayotni, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlanib borishiga xizmat qilishi zarur. Ommaviy axborot dunyo hamjamiyati hayotini boyitishi, uni rang-barang bo`lishiga ko`maklashishi, xalqlarni bunyodkorlik ishlariga safarbar etishi, huquqiy, erkin, demokratik jamiyat qurish talablariga mos tushadi. O`zbekiston Respublikasida, hozirgi paytda jamiyat hayoti va faoliyatiga OAV rolini faollashtirish quyidagicha tasavvur etilmoqda. Birinchidan, ommaviy-axborot vositalari imkoniyatini oshirish uchun kerakli sharoitlar yaratish, ularga jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida munosib o`rin berish, jurnalistlar faoliyatini ijtimoiy va huquqiy kafolatlash; ommaviy axborot vositalari mamlakatda yuz berayotgan jarayonlarga turlicha qarashlarni erkin va xolis ifodalashga qodir bo`lishi, hokimiyat bilan jamiyat o`rtasida xolis vositachi bo`lishi va muhim, inson va jamiyat manfaatlarining faol va izchil himoyachisi bo`lishi uchun professional jurnalistlar va ommaviy axborot vositalarini tayyorlash jarayonini ko`rib chiqish. Axborot olish, tahlil qilish, ishlash va etkazishning zamonaviy usullarini va vositalarini o`zgartirishda ularga yordam berish;

ikkinchidan, OAV faolligini va ularning samarali ishlashiga yordam beradigan mexanizmlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu sohada muyyan yutuqlarga erishildi. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida OAV sohasida fuqarolarning erkinliklarini, huquq va majburiyatlarini, belgilab qyo`ildi. Matbuot to`g'risida, hamda jurnalistlar faoliyati, axborot olish bilan bog'liq me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Ommaviy axborot vositalari «To`rtinchi hokimiyat» sifatida insonlar ongi, qalbi, dunyoqarashiga, xohish –irodasiga ta'sir etishning muhim omilidir. U mamlakatlar, xalqlar hayotida mavjud siyosiy jarayonlarni shakllanishi qaror topishida, kishilar irodasini yo`naltirishda o`ziga xos «hokimiyat», ta'sir ko`rsatish quvvatiga ega ekanligi bilan xarakterli. OAB insonlarni hokimiyatga nisbatan munosabatini shakllantiradi, ularni siyosiy jarayonlarni amalga oshirishning muhim sub'ektiga aylanishiga xizmat qiladi. Bu esa axborotning «xolis»ligiga ko`p jihatdan bog'liq bo`ladi. Axborot maydonida ham turli siyosiy kuchlar, mamlakatlar, xalqlar, sotsial guruhlar bilan bog'liq «manfaatlar», «qarashlar» bir-biri bilan duch keladi. Axborot xolisligi ta'minlanmasa u «xavf-xatar», «beqarorlik» omiliga aylanib qolish ehtimoli yo`q emas. Jamiyat siyosiy hayotini erkinlashtirish vazifalari erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari har tomonlama rivoj topishini taqozo etadi. Ular haqli ravishda hokimiyatning to`rtinchi tarmog'i bo`lishi darkor. (I. Karimov). Bundan keyin ham ommaviy axborot vositalari hayotimizga kun sayin, chuqurroq kirib boraveradi. O`zbekiston buni tabiiy xol deb qabul qilmoqda. Mustaqillik yillarida nashrlar soni ko`paymoqda. Hozir mamlakatimizda 490 dan ortiq gazeta va 138 dan ortiq jurnallar chop etilmoqda. Radio va teleko`rsatuvlarning hajmi ko`payadi. Ularning jamiyatni rivojlantirish va davlat qurilishida tutgan o`rni ortib bormoqda.

Qabul qilingan qonunlar va qonun hujjatlari ijrosi ustidan OAB jamoat nazoratini ta'minlashda o`ziga xos mavqega ega. Shuningdek, OAB davlat va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradigan o`ziga xos mexanizmdir. Ayni paytda OAB har bir kishi o`z fikrini erkin ifoda eta olishiga imkon beradigan mansabdir. Shuning bilan birga OAB demokratik jarayonlarni amalga oshirish, demokratik qadriyatlarni himoya qilish, jamoatchilik fikriga kuchli ta'sir o`tkazishga qodir va mamlakatimizda, dunyoda demokratik jamiyat qurish vazifalarini amalga oshirishda muhim rol o`ynaydi.

1994 yilda respublikada 475 ta OAV, ulardan 384 ta gazeta, 66 ta jurnal, 19 ta telestudiya, 3 ta kabel televideniesi, 2 ta radiostudiya va bitta agentlik faoliyat kursatgan bo`lsa[1], davlatimiz raxbari o`z ma'ro`zasida ta'kidlaganidek, keyingi 10 yilning o`zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar kupayib, bugungi kunda ularning umumiy soni kariyb 1200 taga etdi. Mavjud barcha telekanallarning kariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari O`zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tilida faoliyat olib boradi, shuningdek, bosma materiallar va telekursatuvlar ingliz tilida ham tarkdtilmokda

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov axborot sohasini isloh qilish, axborot va so`z erkinligini ta'minlash to`g'risida.

Bugun biz demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so`z yuritar ekanmiz, albatta, axborot erkinligini ta’minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o`z fikr va g’oyalarini, sodir bo`layotgan voqealarga o`z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo`lmasligini o`zimizga yaxshi tasavvur etamiz.

Ma’lumki, fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta’minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o`z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o`zida mujassam etgan bo`lib, bu O`zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta’bir joiz bo`lsa, tamal toshi hisoblanadi.

Mamlakatimizda o`tgan yillar davomida, ayniqsa oxirgi 10 yilda ommaviy axborot vositalarini yanada liberallashtirish, so`z erkinligini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Yurtimizda avvalo ommaviy axborot vositalari rivojini ta’minlaydigan, demokratik talab va standartlarga to`la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Ushbu davrda ommaviy axborot vositalarini erkin va jadal rivojlantirishga, axborot sohasining samarali faoliyat ko`rsatishini ta’minlashga qaratilgan 10 ga yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi.

«Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to`g’risida»gi Qonunnin qabul qilinishi har kimning axborotni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalga oshirishda, shuningdek, axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

So`nggi yillarda yangi tahrirdagi «Ommaviy axborot vositalari to`g’risida»gi Qonunga, shuningdek, «Telekommunikatsiyalar to`g’risida», «Reklama to`g’risida», «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to`g’risida»gi va boshqa bir qator qonunchilik hujjatlariga tegishli o`zgartish va qo`shimchalar kiritildi. Bu esa yangi siyosiy shart-sharoitlarda ommaviy axborot vositalari sohasidagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ta’minladi. Shu bilan birga, nodavlat ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, ularning axborot sohasini demokratlashtirishda faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli institutsional islohotlar amalga oshirildi.

Nodavlat ommaviy axborot vositalarini qo`llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida bir qancha jamoat tashkilotlari tashkil qilindi. O`z tarkibida 100 dan ortiq elektron ommaviy axborot vositasini birlashtirgan Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O`zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo`llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi shular jumlasidandir.

Yuridik va jismoniy shaxslarning, axborot texnologiyalari va tizimlarini qo`llagan holda, axborot resurslaridan foydalanish mexanizmlarini belgilab bergan yangi tahrirdagi «Axborotlashtirish to`g’risida»gi Qonunnin qabul qilinishi ommaviy axborot vositalarini modernizatsiya qilishni jadal rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O`zbekistonda keyingi yillarda sun’iy yo`ldosh aloqa tarmog’i orqali teleradiodasturlarni tarqatish yo`lga qo`yildi. Bugungi kunda mamlakatimiz telekommunikatsiyalar tizimi dunyoning 180 ta mamlakatiga 28 ta yo`nalish bo`yicha to`g’ridan-to`g’ri chiqadigan xalqaro kanallarga ega. Yurtimizdagi teleradiokanallar tomonidan tayyorlanayotgan ko`rsatuv va eshittirishlar Internet global tarmog’i orqali real vaqt rejimida jahonga uzatilmoqda.

Dunyodagi etakchi mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash milliy tizimining takomillashtirilishi axborot sohasidagi faoliyatning sifati va saviyasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimida ko`p jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`ldi.

Bunday keng miqyosdagi ishlar natijasida faqat keyingi 10 yilning o`zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko`payib, bugungi kunda ularning umumiy soni qariyb 1200 taga etdi. Mavjud barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari O`zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tilida faoliyat olib boradi, shuningdek, bosma materiallar va teleko`rsatuvlar ingliz tilida ham tarqatilmoqda.

Yana bir muhim yangilik efir orqali uzatiladigan materiallarni tayyorlash jarayoniga zamonaviy raqamli va multimedia texnologiyalari joriy qilinayotganida namoyon bo`lmoqda. Yurtimizda Internet tizimidan foydalanuvchilar safi jadal sur’atlar bilan kengayib bormoqda. Bugungi kunda ularning soni 6 milliondan ortib ketgani ham buni tasdiqlab turibdi.

Mamlakatimizda fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta’minlash borasida amalga oshirilgan keng ko`lamli ishlarni tanqidiy baholar ekanmiz, muhim bir masalaga alohida e’tibor qaratishimiz zarur, deb o`ylayman. Ya’ni, bu o`rinda gap ommaviy axborot vositalari va davlat hokimiyati organlari o`rtasidagi munosabatlarning ustuvor jihatlarini to`g’ri belgilash, jumladan, ommaviy axborot vositalari faoliyati ustidan nazorat qilishning iqtisodiy mexanizmlarini, axborot manbalarining yopiqligini, shuningdek, tahririyatlarga hokimiyat organlari va ma’muriy tuzilmalar tomonidan bo`layotgan ma’lum darajadagi bosimlarni bartaraf qilish bilan bog’liq muammoli masalalarni hal etish haqida bormoqda.

Shu boisdan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish o`ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda:

Birinchi. «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to`g’risida» Qonun qabul qilish zarur. Bu o`z navbatida fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqini yanada kengroq amalga oshirish imkoniyatini yaratib berish bilan birga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qabul qilinayotgan qarorlar sifatini oshirish borasidagi mas’uliyatini ham ko`p jihatdan kuchaytirgan bo`lur edi.

Ushbu qonun davlat hokimiyati organlari faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilib borish tartiblarini aniq belgilab berishi, aholining, jamoat birlashmalarining davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, avvalambor fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari

bilan bog’liq qarorlar haqidagi axborotlardan keng xabardor bo`lib borishini ta’minlashi lozim.

Mazkur qonunning joriy etilishi ijro hokimiyati organlari faoliyatining, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning, davlatning ichki hamda tashqi siyosatining ochiqligi va oshkoraligini, mamlakatimiz va xorijda kechayotgan voqea-hodisalar xususida fikrlar xilma-xilligi va siyosiy plyuralizmni hisobga olgan holda, ta’minlashi zarur.

Ikkinchi. Demokratlashtirish jarayonlarida ahamiyati tobora ortib borayotgan axborot kommunikatsiyalari sohasining eng muhim tarmoqlaridan biri bo`lgan teleradio tizimini rivojlantirishga qaratilgan «Teleradioeshittirishlar to`g’risida» Qonun qabul qilish haqida taklif kiritilmoqda.

Ma’lumki, hozirgi vaqtda ushbu sohadagi faoliyat ommaviy axborot vositalari, radiochastota spektri, telekommunikatsiyalar, axborotlashtirish to`g’risidagi qonunlarning muayyan moddalari bilan tartibga solib kelinmoqda.

Shu bilan birga, teleradioeshittirishlar sohasini mustaqil qudratli industriya sifatida qayta tashkil etish, teleradioeshittirishlarning yangi shakl va turlarining paydo bo`lishi teleradiodasturlarni tayyorlash va uzatish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tizimli va keng ko`lamli ravishda tartibga soladigan yaxlit qonunni kuchga kiritish zaruratini tug’dirmoqda.

Ushbu qonunning qabul qilinishi teleradiodasturlarni tayyorlash va tarqatish sohasida raqobatni yanada kuchaytirish, teleradiodasturlarni uzatish borasida mobil va raqamli televidenie kabi ilg’or zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, teleindustriyaning istiqbolli yangi tarmoqlarini tashkil qilish uchun zarur sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

Bu qonun milliy teleradioeshittirishlar tizimi faoliyatini huquqiy tartibga solish mexanizmlarini va moliyalashtirish manbalarining erkinligi va mustaqilligi kabi printsiplarini belgilab berishga, radiochastotalarni olish uchun o`tkaziladigan tanlovlarning demokratik va oshkoraligini ta’minlash, teng raqobat va elektron media-bozor tarmoqlarining monopollashuviga yo`l qo`ymaslik uchun sharoit yaratish va boshqa bir qator muammolarni echishni nazarda tutadi.

Uchinchi. Ommaviy axborot vositalari erkinligi va mustaqilligini yanada mustahkamlash mualliflik huquqlari va intellektual mulkni ishonchli himoya qilishning huquqiy kafolatlari va mexanizmlarini kuchaytirish, axborot sohasiga bozor mexanizmlarini joriy qilish bilan bevosita bog’liqdir.

Ushbu vazifani amalga oshirish uchun *«Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to`g’risida», «Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash kafolatlari to`g’risida»*gi qonunlarni qabul qilish taklif etiladi. Bu qonunlar axborot bozori ishtirokchilari faoliyati samaradorligini kuchaytirish va ularning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, qo`shimcha iqtisodiy preferentsiyalar yaratish va milliy axborot makonini izchil rivojlantirishni ta’minlashga qaratilgan boshqa tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

To`rtinchi. Ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini ta’minlash, hokimiyat va jamoatchilik o`rtasida mustahkam aloqa o`rnatish borasidagi rolini

kuchaytirishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish maqsadida *«Ommaviy axborot vositalari to`g'risida», «Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to`g'risida»*gi va boshqa bir qator qonun hujjatlariga tegishli o`zgartish va qo`shimchalar kiritish taklif etiladi.

Bunda, xususan, davlat va jamoat birlashmalari axborot xizmatlari, media-tuzilmalar ishini faollashtirish bo`yicha keng ko`lamli chora-tadbirlarni ko`zda tutish lozim. Ommaviy axborot vositalarining axborot olish yuzasidan murojaatlarini ko`rib chiqish muddatlarini qisqartirish, axborot olish sohasidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun yuridik va mansabdor shaxslarning ma'muriy javobgarligini kuchaytirish va boshqa chora-tadbirlarni ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar ustida ish olib borish zarur.

Shu bilan birga, siyosiy modernizatsiya jarayonlarida tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan davlat va jamiyat qurilishi tizimida keng foydalanish lozim.

«Telekommunikatsiyalar to`g'risida»gi Qonun normalarini yanada takomillashtirish, raqamli teleradioeshittirish tizimiga o`tish bo`yicha tadbirlar davlat dasturining ishlab chiqilishi ham ushbu vazifani hal etishga xizmat qiladi. Mazkur dastur raqamli teleradioeshittirishlar infratuzilmasini shakllantirish, bu boradagi faoliyatni huquqiy jihatdan tartibga soladigan samarali tizimni yaratishga qaratilishi darkor.

Muxtasar aytganda, yuqorida zikr etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi o`rni va rolini yanada mustahkamlashga, fuqarolarning so`z erkinligi va tanlash erkinligini ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy huquqlarini yanada to`liq ro`yobga chiqarishga yordam beradi.

3. Saylovlar va ularning ko`rinishi.

"Saylov" tushunchasi. Saylovlar – zamonaviy siyosatning muhim komponenti hisoblanadi. U fuqarolarning siyosiy irodasini belgilangan qoidalar asosida (saylov tizimiga binoan) hokimiyat va boshqaruv organlarini shakllantirish uslubi hisoblanadi. Saylovlar natijasida saylangan nomzodlar hokimiyat vakolatlariga ega bo`ladilar.

Saylov huquqi konstitutsiyaviy huquqning muhim instituti sifatida saylov jarayonini tartibga soladigan normalar tizimi sifatida tushuniladi. Saylov huquqi muayyan bir davlatdagi vakillik organlari va mansabdor shaxslarning saylanish tartibi va asoslarini tartibga soluvchi normalar majmuidan iborat.

Saylovlar – turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarining hokimiyat organlarida ifoda etilishi bo`lib xizmat qiladi. Saylovlar har bir fuqaroning ushbu jarayonlarda ishtirok etish huquqi bilan belgilanadi. Saylovlar aksariyat fuqarolar uchun siyosatda ishtirok etishining yagona shakli hisoblanadi. Bu orqali hokimiyatga sezilarli ta'sir ko`rsatishga: parlament va hukumatning saqlanib qolishi yoki o`zgarishi, xalq oldida ularning mas'ulligini oshirish, siyosiy kursning o`zgarishida imkoniyat yaratib beradi.

Bu borada talabalar saylov va ovoz berish orasida farqlarni aniq tushunib olishlari lozim. Saylov – bu Konstitutsiya va davlatning boshqa me'yoriy

hujjatlarida o`z ifodasini topgan, belgilangan muddatda va muntazam ravishda amalga oshiriluvchi davlat organlari tarkibining shakllanish shakli hisoblanadi. Ovoz berish jarayoni esa har doim ham saylov jarayoni bilan bog'liq bo`lavermaydi. Mazkur jarayon referendumlarda, so`rovlarda, partiya, kasaba uyushmalari, assotsiatsiya, aksiyadorlik jamiyatlari majlislarida jamoaviy qarorlar qabul qilish maqsadida qo`llaniladi.

***Saylovlarning demokratik jamiyatdagi o`rni.*** Demokratik jamiyatlarda saylovlar davlat siyosatining o`zagini tashkil etib, mamlakat suverenitetining asosiy belgisi hisoblanadi. Saylov jarayoni turli ijtimoiy guruhlarning hokimiyat organlarida namoyon bo`lish vakolati hamdir. Bu jarayon orqali fuqarolar hokimiyatga, masalan parlament va hukumatlarning qolish yoki qolmasligi, ularga o`zgartirishlar kiritish, siyosiy kursni o`zgartirish kabi ta'sir ko`rsatadi.

Demokratik jamiyatda saylovlarning vazifalari, asosiy tamoyillari. Bugungi kunda demokratik jamiyatlarda saylovlarning o`rni turlicha bo`lib, bu uning muhim funktsiyalarida namoyon bo`ladi. Talabalar ilmiy adabiyotlarda saylovlarning quyidagi funktsiyalari namoyon bo`lishlariga e'tibor qaratishlari zarur:

- ***aholining turli manfaatlarini ifodalash, umumlashtirish va namoyon etish***; saylov paytida fuqarolar o`z manfaatlarini anglab etishlari va ularni partiya va ayrim nomzodlarning saylov oldi dasturlariga tatbiq etishlari uchun qulay imkoniyatlar tug'iladi.

- ***hokimiyat institutlari ustidan nazorat qilish***; saylovlar natijasida parlament ustidan nazorat o`rnatish, hamda konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish imkoniyati tug'iladi. Zero, kelgusi saylovlarda yutqazib qo`yish ehtimoli hukumat va oppozitsiya o`rtasida muvozanatni o`rnatish zaruriyati oldinga chiqadi.

- ***turli-tuman fikrlarni umumlashtirish va umumiy siyosiy irodani shakllantirish***; bugungi jamiyatda plyuralizm o`z chegaralariga ega. Anarxiya, xaos va keskin mojarolarni keltirib chiqarmaslik uchun plyuralizm davlat tomonidan nazorat qilib turilishini taqazo etadi. Saylovlar yordamida muayyan siyosiy platforma atrofida aholi birlashtiriladi.

- ***siyosiy tizim hamda hokimiyatning muayyan institutlari: parlament, hukumat, prezident va boshqalarni qonuniylashtirish va barqarorligini ta'minlash***; fuqarolarning saylov jarayonlarida ishtirok etishi muayyan mas'ul shaxslar, hukumat va hukmron partiyalarga nisbatan munosabatlaridan qat'i nazar ma'lum bir siyosiy tizim va tuzumni tanlash, hokimiyat organlarini shakllantirishda ishtirok etadilar. Saylovlar fuqarolarga nomaqbul bo`lgan hukumat yoki deputatlarni almashtirish imkoniyatiga ega bo`ladi.

- ***hokimiyat institutlari va fuqarolar o`rtasida vakolatli munosabat va aloqalarni kengaytirish***; saylov jarayonida nomzodlar muntazam ravishda fukarolar bilan uchrashib, ularning fikr mulohazalari va iltimoslarini eshitadilar hamda o`z saylov platformalariga o`zgartirishlar kiritadilar.

- ***siyosiy mojarolarni institutsional ravishda tinch yo`l bilan hal etish***; saylovlar qarama-qarshi bo`lgan manfaatlar, qadriyatlar, g'oyalarni ochiq va ommaviy ravishda ijtimoiy fikrni shakllantirish va davlat institutlari orqali ularni hal etishga erishiladi.

- ***saylov jarayoni orqali dolzarb ijtimoiy masalalarni hal etish***; targ'ibot tashviqot jarayoni paytida partiya va ayrim deputatlar ijtimoiy fikrni shakllantirish orqali mamlakat uchun muhim bo`lgan siyosiy jarayonga omma e'tibori qaratiladi.

- ***aholi siyosiy ongi va siyosiy ishtirokini rivojlantirish***; saylov jarayoni natijasida fuqarolar faol ravishda siyosiy qadriyat va me'yorlarni o`zlashtiradilar. Bu paytda siyosiy va targ'ibot-tashviqot axborot oqimi faolllashadi.

- ***siyosiy elitalar almashinuvi***; saylovlar fuqarolar uchun siyosiy karera va siyosiy elitaga eltuvchi muhim yo`l hisoblanadi.

- ***muqobil siyosiy dasturlarning raqobati orqali jamiyatni yangilash***; saylovlar doimo turli siyosiy kuchlarga ijtimoiy muammolarni anglab etish hamda ularni bartaraf etish yo`llarini muhokama etish imkoniyatini beradi va shu orqali ularni rag'batlantirib turadi.

Saylovlar mazkur funktsiyalarni demokratik shart-sharoitlarda bajara oladilar va uning kontseptsiya va qadryatlari bilan bevosita bog'liq bo`ladi. Talabalar tomonidan seminar mashg'ulotlarida mazkur tushunchalarni sharhlash va o`zaro muhokama etish ularning bu boradagi bilim va ko`nikmalari oshishiga xizmat qiladi.

Saylovlar muayyan tamoyillarga tayangan holdagina ijtimoiy vazifalarni bajarishi mumkin. Saylov tamoyillari ikki xil: 1. Har bir fuqaroning holati va maqomini belgilab beruvchi saylov huquqi tamoyillari. 2. Saylovlarni tashkil etishda asosiy bo`lgan tashkiliy, jumladan, ijtimoiy shart sharoitlarni belgilab beruvchi tamoyillar.

Saylov huquqining demokratik tamoyillari o`z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

1. Umumiylik – har bir fuqaro, jinsi, irqi, milliy, sinfiy, kasbiy holati, tili, daromadi, boyligi, bilimi, konfessiyasi, siyosiy qarashlaridan qat'i nazar saylovlarda **faol** (saylovchi sifatida yoki sust ravishda (nomzodlar sifatida ishtirok etish huquqiga ega. Kishilar qonun tarafidan belgilab berilgan tartibdagina saylovlarda ishtirok eta olmaydilar. Bular sirasiga, masalan, yosh tsenzi, sud hukmi bilan jazoni o`tash joylaridagi va boshqa erga ko`chib o`tgan shaxslarni kiritish mumkin.

2. Tenglik – har bir nomzod, kimga va qanday g'oyaga tegishli bo`lishiga qaramasdan faqat bir xil baholanadigan bir ovozga egalik. Bunda saylovchining na mol-mulki, na biror bir ijtimoiy maqomi, na shaxsiy xislatlari ta'sir ko`rsatmasligi kerak. Saylash huquqi, shuningdek, saylovchilarning ovozlari o`zaro teng bo`lishi maqsadida saylov okruglarida aholi soni tengligi bilan ham ta'minlanadi.

3. Saylovlarning maxfiyligi – har bir saylovchining qarori hech kimga ma'lum bo`lishi kerak emas. Mazkur tamoyil saylov erkinligini, fuqarolarning ta'qibini, hamda pora berish orqali o`z tomoniga og'dirib olish kabi holatlarning oldini oladi.

***4. To`g'ri*** (bevosita ovoz berish – saylovchi saylanuvchi mansabga muayyan nomzod uchun, ma'lum bir shaxsga ovoz berish haqidagi qarorni bevosita qabul qiladi. Saylovchilar va nomzodlar orasida ularning hohish-istaklariga ta'sir ko`rsatuvchi, bevosita deputatlar nomzodini belgilab beruvchi biror bir tashkilot mavjud emas.

Saylovlarni tashkillashtirishning umumiy tamoyillari va asosiy bosqichlari.

Saylovlar doimo saylov jarayoniga ta’sir ko`rsatuvchi qator omillarni o`z ichiga olgan muayyan ijtimoiy-siyosiy muhitda amalga oshiriladi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- jamiyatda murosa (konsensus[48]), ishonch muhitining mavjudligi, aksariyat fuqarolarning saylov natijalarini hurmat qilishi;
- mamlakat ichida inson huquqlariga nisbatan ehtirom;
- saylovchilarning elektoral bilimi;
- saylovchilarni ro`yxatga olishning demokratik xususiyatlari;
- ro`yxatga olishning demokratik tartibi va partiyalararo munosabat;
- barcha uchun shikoyatlarni ko`tarish va ko`rib chiqish hamda bahslarni hal etish mexanizmlarining barcha uchun barobarligi;
- saylov jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan qonunlarga rioya etilishi ustidan samarali va mustaqil nazorat.

Shu bilan birga, demokratik saylov huquqi asosida saylov jarayonini tashkillashtirishni belgilab beruvchi tamoyillar ishlab chiqilgan. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. **Saylovchilar, faollar, nomzodlar va saylov tashkilotchilariga siyosiy, ma’muriy, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va axborot bosimining mavjud emasligi**ni anglatuvchi ***erkin saylovlar.*** Masalan, **siyosiy bosim**ga – raqiblar, faollar yoki raqobatchi partiya vakillarini jazolash; **ma’muriy bosim** – hukmron partiya g’alabasini «ta’minlab» bera olmagan rahbarlar va mas’ullarni lavozimidan olish bilan tahdid qilish, tegishli nomzodni ilgari surish uchun imzo chekishdan bosh tortgan xodimlarni ishdan bo`shatish bilan qo`rqitish; **ijtimoiy-iqtisodiy bosim** – pora berish, tahdid yoki real sanktsiyalar, jumladan, aholining muayyan qatlamlariga mehnat haqini ko`tarish, uzoq muddat to`lanmay kelingan oyliklar, nafaqalar, bolalar pulini berish, ma’lum bir mintaqalarga imtiyoz va engilliklar bo`yicha va’da berish; **psixologik bosim** – saylovchilarni opponent partiyaning hokimiyatga kelishi natijasida fuqarolar urushi, ommaviy qatag’onlar ro`y berishi mumkinligi bilan qo`rqitish; **axborot bosimi** – sistemali ravishda bir tomonlama va noto`g’ri axborotni tarqatish.

2. Tanlash imkoniyati, muqobil nomzodlarning mavjudligi. «Saylov» atamasining o`zi turli takliflardan birini tanlash degan ma’noni anglatadi. Agar bir nomzod yoki partiya bo`ladigan bo`lsa, u holda so`z saylash emas, balki saylovchilarning qo`llashi yoki qo`llamasligi haqida borishi kerak bo`ladi. Siyosiy plyuralizm sharoitida real muqobil nomzodlarning mavjudligi demokratik saylovlarning muhim ko`rsatkichi hisoblanadi.

3. **Bahsli, raqobatli saylovlar**. Turli siyosiy kuchlar saylovlarda saylovchilar ishonchi uchun kurash olib borish, o`z saylov dasturlarining to`g’riligi va afzalliklari, hamda raqiblar saylov platformalaridagi kamchiliklarni tanishtirish va o`zlarining haqliklariga ishontirish imkoniyatiga ega bo`lishlari zarur. Ma’lumki, haqiqat bahslarda tug’iladi. Shu bois, siyosiy haqiqat – fuqarolarning aksariyatiga maqbul keladigan dasturlar, partiyalar va nomzodlar odatda davlat hokimiyatini egallash uchun bo`lgan saylov oldi kurashlarida aniqlanadi.

[48] Konsensus (lot. *consensus*) – «rozilik», «ittifohlik», «birlik» ma’nolarini anglatadi

4. Saylovlarning davriyligi va muntazamligi. Mandat egalari uzoq bo`lmagan ma'lum muddatlarga saylangan hollardagina saylovlar konstruktiv (yaratuvchan) funktsiyalarni bajarishi, demokratiya instrumenti bo`lib xizmat qilishi mumkin. Bu holat saylovchilar o`z vakillarini nazorat qila olishlari, hokimiyatning suiste'mol qilinishini bartaraf etish, hamda hukumat siyosiy kursi to`g'ri yo`naltirilib turishida muhim ahamiyat kasb etadi.

5. **Siyosiy partiyalar va nomzodlar uchun imkoniyatlarning tengligi**. Bu, birinchi navbatda, moddiy va axborot resurslari tengligini anglatadi. Bunday tenglikni har bir partiya uchun saylovlarni o`tkazishga sarf xarajat miqdorining belgilanishi, partiyalar va nomzodlar saylovoldi fondlariga tashkilotlar va muayyan shaxslar badal miqdorining cheklanganligi, tenglik tamoyili asosida davlat televideniesi va radiosida bepul vaqt ajratilishi hisobiga ta'minlash mumkin. Ayrim davlatlarda saylovlar «davlat miqyosidagi siyosiy jarayon» sifatida baholanib, saylov kompaniyalari davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

Nemis siyosatshunosi D. Nolen avtoritar siyosiy rejimlardagi saylovlar haqida to`xtalar ekan: «Avtoritar siyosiy tizimlarda saylovlar mavjud siyosiy rejim legitimligini (qonuniyligini) mustahkamlash, uning obro`sini mamlakat ichkarisida va ayniqsa xalqaro maydonda mustahkamlash, davlatdagi siyosiy taranglikni yumshatish; oppozitsiyani aniqlash va uni boshqarish yoki hukumat tarafidan sun'iy muxolif partiyalarni yaratish, muxolif fikrlarni qisman inobatga olish orqali tuzumni barqarorlashtirish funktsiyasini bajaradi», degan fikrni ilgari suradi[49]. Saylovlar o`z mohiyatiga ko`ra siyosiy bosimni inkor etishi bilan birga demokratiyaga og'riqlarsiz o`tishning eng maqbul yo`l hisoblanadi.

Totalitar, avtoritar, o`tish davridagi jamiyatlarda saylovlar.

Saylovlar – demokratiyaga o`tish vositasi sifatida. Fuqarolik demokratik davlat barpo etishning muhim sharti fuqarolarning davlat ishlarida erkin va faol ishtirok etishlari bilan ifodalanadi. Ushbu jarayonda fuqarolarning xohish-istaklari, birinchi navbatda, saylov jarayonlari bilan ifoda etiladi. Shu bois, mazkur masala dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Fuqarolar siyosiy jarayonlarda bevosita va bilvosita ishtirok etadilar. Bilvosita ishtirok etish usuli saylov hisoblanadi. Saylov – huquqiy jarayon bo`lib, unda fuqarolar muayyan bir partiya (masalan, parlamentgA. yoki nomzod uchun (davlat rahbari, shahar hokimi) ovoz berishadi va bu orqali siyosiy jarayonlarga ishtirokini namoyon qiladilar. Jamiyat a'zolarining davlat hokimiyati organlariga bo`lgan saylovlardagi keng ishtiroki demokratik siyosiy jarayonlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Demokratik saylovlar davlat va ularning takomillashgan modellarini shakllantirish maqsadidagi tarixiy rivojlanishning ziddiyatli izlanishlari natijasi o`laroq paydo bo`lgan institutdir. XX asrga kelib davlat hokimiyati organlarini vujudga keltirish bilan bog'liq bo`lgan demokratik saylovlar jahondagi aksariyat mamlakatlar siyosiy hayotidagi tabiiy bir jarayonga aylandi.

Umum e'tirof etilgan xalqaro demokratik tamoyillardan biri quyidagicha ifodalanadi: "Demokratik idora etish erkin va adolatli saylovlar davomida mustaqil

[49] Harang.: Nohlen D. Wahlrecht und Parteiensysthem. Opladen. 1990. – S. 26.

ifodalanib boradigan xalq irodasiga asoslanadi”[50].

Saylovlar quyidagicha o`tkazilishi mumkin: umumiy-chegaralangan (tsenzli); teng-noteng; to`g’ri-bilvosita, yashirin-ochiq ovoz berish. Saylovlarni bunday ko`rinishi demokratik qadriyatlar asosidagi saylovlar o`tkazilishini bildiradi.

Fuqarolik jamiyati davlat hokimiyatiga bo`ysundirilgan mamlakatlarda avtoritar tartibotga xos saylovlar amal qiladi.

Saylovlarning uchinchi turi – demokratik tartibotlardagi – ya’ni, davlatlar fuqarolik jamiyatiga bo`ysungan mamlakatlar uchun xosdir. Fuqarolik jamiyati qurishni rivojlantirishning muhim sharti – davlat, jamiyat va shaxs o`rtasidagi o`zaro muvozanat, tenglik bir maromdagi rivojlanishning mavjudligidir. Ularning o`rtasidagi yuz berishi mumkin bo`lgan ziddiyatlar, qo`rqitishlar va hukmronlik usullari bilan emas, balki qonun oldida mas’ul bo`lgan davlat hokimiyat, huquqiy va siyosiy vositalar bilan muvofiqlashtiriladi.

Hozirgi dunyoning ko`plab demokratik mamlakatlari o`zlarining konstitutsiyalari yoki maxsus saylovlarga doir qonunlarida fuqarolarni yashirin ovoz berish orqali umumiy va teng saylovlar huquqlarini e’lon qilgan.

Demokratik jamiyatda saylovlardagi kurashlar siyosiy partiya faoliyatining asosiy kurash maydoni hisoblanadi. Har bir partiya o`z elektoratini (lot. “dektor”-saylovchi) ko`paytirishga intiladi. Elektorat saylovlarda u yoki bu partiyaga ovoz beradigan saylovchilardir.

Hozirgi zamon davlatlarida ovoz berish nafaqat fuqarolik huquqi, balki, fuqarolik majburiyati hamdir. Ba’zi mamlakatlarda saylovda qatnashmaganlik uchun ham jazo choralar belgilangan. Masalan, Belgiya, Niderlandiya, Avstraliya kabi mamlakatlarda jarima to`lanadi. Pokistonda xattoki qamoq jazosi ham qo`llaniladi.

Hozirgi davr demokratik saylovlar tamoyillaridan biri – teng saylov huquqi hisoblanadi. Uning amaldagi ifodasi shundan iboratki, qonun chiqaruvchi organdagi har bir deputat deyarli teng miqdordagi fuqarolar vakili hisoblanadi, shuningdek, har bir saylovchi umumiy saylov qarorlariga bir hilda ta’sir etish darajalariga ega bo`ladi.

Demokratik saylovlarning yana bir mezonlaridan biri – saylovlarni to`g’ridan-to`g’ri o`tkazish qoidasi hisoblanadi. Parlament demokratiyasi rivojlangan mamlakatlarning ko`pchiligida saylovchilar to`g’ridan-to`g’ri (delegatlar yoki vakillar vositasisiz) prezident, parlament va boshqa siyosiy hokimiyat organlarini saylaydilar.

Demokratik saylovlarning yana bir muhim qoidasi musobaqadoshlik yoki o`zaro raqobatdoshlik hisoblanadi. Ya’ni u saylovlarda turli xil ijtimoiy guruhlar yoki qatlamlar manfaatlarini ifodalovchi turli partiyalar va nomzodlarni ishtiroki asosidagi raqobatdoshlik demokratik rivojlangan mamlakatlar uchun xos.

Barcha demokratik mamlakatlar tomonidan tan olingan qoidalardan yana biri, bu – yashirin ovoz berish usulidir. Saylovlarda yashirin ovoz berish natijasida saylovchilarga tashqaridan tayziq yoki ta’sir o`tkazishning oldi olinadi, har bir saylovchining erkin bo`lishi, o`z xohish-ihtiyorini amalga oshirish uchun

[50] Inson huquqlarining umumiy deklaratsiyasi. T. “O`zbekiston” 1998. 30 b.

imkoniyatlar yaratiladi.

Saylovlar o`tkazishdagi yana bir demokratik qoida – saylovlar ustidan xalq nazoratini o`rnatishdir. Qolaversa saylovlar marosimlarida milliy va xorijiy kuzatuvchilarning ishtirok etishi saylov o`tkazilayotgan davlatning obro`-e'tiborini oshiradi.

Demokratik mamlakatlardagi saylovlar o`tkazish qoidalaridan biri – saylovchilarning ishtirok etishini ixtiyoriyligi hisoblanadi. Bu qoidaning mohiyati shundaki, hech kim fuqaroning saylovda erkin o`z xohishini bildirishga yoki saylovda ishtirok etish va etmasligiga ta'sir o`tkaza olmaydi.

Demokratik saylovlarning yana bir qoidasi – nomzodlarning saylovoldi kurashi uchun teng imkoniyatlar yaratishdir. Bu qoida nomzodlarga turli moddiy yoki siyosiy imkoniyatlar ularninng ba'zilariga ustunliklar va imtiyozlar paydo bo`lishini oldini olib, barcha nomzodlar uchun teng imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, BMT ning "Inson huquqlarining umumiy deklaratsiyasi"da ifodalangan "xalq irodasi xukumat hokimiyatining asosi bo`lishi kerak" degan demokratik qoida asosan saylovlar vositasida amalga oshirilib, unda jamiyat a'zolarinig xohish-istaklari asosida siyosiy hokimiyatning izchil vujudga kelishi ro`y beradi.

Saylov jarayonining asosiy bosqichlari. Hal etiluvchi vazifalarning davriy bosqichi va xususiyatlarini e'tiborga olgan holda saylov jarayoni bir necha bosqichga ajratiladi: 1) nomzodlarni ilgari surish va ularni ro`yxatga olish; 2) targ'ibot-tashviqot kampaniyasi; 3) ovoz berish va saylov yakunlarini ma'lum qilish. Qat'iy ravishda aytadigan bo`lsak, ushbu uch bosqich bevosita saylov jarayonini belgilab beradi.

Nomzodlarni ilgari surish. Tayyorlov chora-tadbirlari amalga oshirilib, saylov muddati rasman belgilanganidan so`ng saylov kompaniyasi boshlanadi. Saylov kompaniyasi ikki ma'noda – davlat miqyosida va muayyan nomzod yoki partiyaga nisbatan qo`llaniladi. Birinchi holatda – ***saylov kompaniyasi davlat miqyosida saylov jarayonini bevosita ta'minlash bo`yicha kompleks tashkiliy, siyosiy, axborot-targ'ibot va tashviqot tadbirlarini****, ikkinchi holatda – muayyan nomzod yoki partiyaning g'alabasiga yo`naltirilgan chora-tadbirlar tizimini qamrab oladi.*

Ma'lum miqdorda qo`llab-quvvatlovchi imzo to`plagan partiyalar, ijtimoiy harakatlar va tashkilotlar, tashabbuskor guruhlar nomzodlarini ilgari surishlari mumkin. Nomzodni ro`yxatga olish uchun zarur bo`lgan imzo soni saylov turiga (prezident, parlament, mintaqaviy va h.k.), hamda mamlakat saylov qonuni xususiyatlariga bog'liq.

Targ'ibot-tashviqot kampaniyasi. Nomzodlarni ro`yxatdan o`tkazish bilan ularni ilgari surish jarayoni tugaydi va saylovoldi targ'ibot-tashviqot kampaniyasi boshlanadi. Bu bosqichda raqobatda bo`lgan partiyalar va nomzodlarning yuqori darajadagi faoliyati boshlanadi. Ular ommaviy axborot vositalari, reklama, ko`rgazmali vositalar orqali, shuningdek, mamlakat yoki saylov okruglari bo`ylab qator tashriflar paytidagi uchrashuvlar chog'ida saylovchilarini o`z dasturlaridagi afzalliklar bilan tanishtirishga, ularni bunga ishontirishga keng imkoniyatlar tug'iladi. Targ'ibot-tashviqot kampaniyasi saylovchilar qarorlariga katta ta'sir

ko`rsatib, nomzodlar yoki da'vogarlarning yutishi yoki yutqazishini belgilab beradi. Shu bois uni tashkillashtirish va o`tkazishga alohida e'tibor qaratiladi.

Saylovda, birinchi navbatda, targ'ibot-tashviqot kampaniyasini olib borish maqsadida boshqaruvchi, moliyaviy agent, matbuot-kotibi, siyosiy tashkilotchi, kompaniya grafigining muvofiqlashtiruvchisi, texnik kotib, yordamchilarian iborat maxsus shtab tuziladi. Mazkur shtabga ishonchli vakillar, nomzodni qo`llab-quvvatlash guruhi, malakali siyosatshunoslar, sotsiologlar, psixologlar, yuristlar, imidjmeykerlar[51], ijtimoiy-siyosiy ta'minot guruhi, shuningdek, ko`ngilli faollar va targ'ibotchilar, kampaniya homiylari va boshqa faollar jalb etiladi.

Zamonaviy targ'ibot-tashviqot kampaniyasi aniq ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalar, ya'ni analiz va siyosiy vaziyatni baholash, hamda nomzodning nozik tomonlari, strategiya, taktika va kompaniya dasturi, boshqaruv tizimi va uning budjetini qamrab oluvchi reja asosida olib boriladi[52].

Har qanday saylovlar etarli darajada **moddiy** (moliya, bino va sh.k.), **vaqt** (saylovlarga tayyorgarlik va o`tkazish, apparatni o`qitish, byulletenlar va saylovoldi materiallarni nashr etish, dastur va saylov strategiyasini ishlab chiqish, mablag' yig'ish uchun zarur bo`lgan), **insoniy** (saylov kampaniyasida ishtirok etuvchilar) resurslarni talab qiladi. Bunday resurslar hukmron guruh, yirik sarmoya vakillariga, OAV egalariga keng imkoniyatlar tug'dirib berib, ularsiz hech bir kuch saylovlarni o`tkaza olmaydi.

Targ'ibot-tashviqot kampaniyasining demokratik xususiyatlaridan biri – barcha asosiy nomzodlar orasida resurslarning teng miqdorda yoki adolatli ravishda taqsimlanishi hisoblanadi. Bular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) saylov fondlarining tenglashtirilishi; 2) OAVga imkoniyatlar tengligining ta'minlanganligi; 3) saylovlarda ustunlikni egallash maqsadida davlat vositalaridan foydalanish imkoniyatlarining qt'iy ravishda ta'qiqlanganligi.

Ovoz berish va saylov natijalarini hisoblash. Targ'ibot-tashviqot kampaniyasi saylovdan bir yoki bir necha kun avval tugatilib, so`ngi qaror qabul qilish uchun saylovchilarga imkoniyat yaratib beriladi. Ovoz berish va saylov natijalarini hisoblash saylov jarayonining eng yuqori bosqichi hisoblanadi. Zero, aynan mana shu paytda hokimiyat organlari tarkibini belgilab beruvchi fuqarolarning irodasi ifoda etiladi.

Bugungi kunda ovoz berish yo maxsus uskunalar (mashinalar) orqali, yoki saylov byulletenlari orqali amalga oshiriladi. Saylov uchastkalari ovoz berishda asosiy joy hisoblanadi. Biroq, ayrim mamlakatlarda, masalan, Shvetsiyada pochta orqali ovoz berish ham mumkin.

Ovoz berish jarayoni tugaganidan so`ng saylov komissiyasi yoki boshqa maxsus saylov organi natijalarni hisoblashga kirishishadi. Turli shakldagi falsifikatsiya (soxtalik) uchun imkoniyat tug'dirmaslik maqsadida ovoz berish va sanash orasida tanaffus yoki uzilish bo`lishi mumkin emas. Xalqaro amaliyotda ovoz berish va sanash jarayonida ortiqcha saylov byulletenlarini tayyorlash va

[51] *Imagemaker* - image «tasavvurni shakllantirish», maker «yaratuvchi», siyosiy reklama bo`yicha mutaxassislar

[52] Harang: Metodicheskoe posobie po organizatsii izbiratelnoy kampanii. Natsionalniy demokraticheskiy institut mejdunarodnix otnosheniy (SShA). M.: 1991. – S. 4

hisoblash, biror bir nomzodga to`g'ridan-to`g'ri ovozlar qo`shib yozish, nomaqbul nomzodga berilgan byulletenlarini olib qo`yish yoki yashirish holatlarini kuzatish mumkin bo`ladi.

Bunday soxtalashtirishning oldini olish hamda fuqarolarda saylov natijalariga ishonchini ta'minlash maqsadida ovoz berish va sanash jarayoni ustidan ishonchli nazoratni amalga oshirish darkor. Buning uchun raqobatda bo`lgan partiyalarning saylov komissiyasiga nisbatan ishonchini oshirish; mustaqil, jumladan xorijiy kuzatuvchilarni taklif etish; ovoz berish natijalarini partiya va OAV vakillari, mahalliy va xorijiy obro`li kuzatuvchilarni jalb etgan holda parallel ravishda mustaqil hisoblash. Saylov jarayoni ustidan ishonchli nazoratning yo`qligi ularni manipulyatsiya quroliga aylanishi, hokimiyatga nisbatan ishonchsizlik tug'dirishiga olib keladi.

Saylovlarning huquqiy asoslari. Jamiyat a'zolari tomonidan davlat hokimiyatini shakllantirish maqsadida o`tkaziladigan saylovlar nafaqat demokratiyaning belgisi yoki ko`rinishi, shu bilan birga, uning zaruriy sharti hamdir. BMT Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrida qabul qilingan "Inson huquqlarining umumiy deklaratsiyasi"ning 21-moddasida demokratik tamoyillar asosidagi saylovlarning inson huquqlari sifatidagi o`rni quyidagicha ta'riflanadi: "Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali o`z mamlakat boshqaruv ishida qatnashish huquqiga egadir. Xalq irodasi xukumat hokimiyatining asosi bo`lishi kerak, bu ifoda yashirin ovoz berish yoki ovoz berish erkinligini ta'minlovchi boshqa shunga teng ahamiyatga ega bo`lgan umumiy va teng saylov huquqi asosida ifodalanish lozim".[53]

Fuqarolarning saylov huquqi ularning saylovlardagi ishtirokini, saylovchilar va saylanuvchi organlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, keyinchalik saylovchilar ishonchini oqlamagan vakillarni chaqirib oluvchi tartibotlarning huquqiy me'yorlari majmuasidir.

Saylov tizimi tushunchasi. Saylov jarayoni konstitutsiya va saylovga oid qonunlarda belgilangan muayyan me'yorlar, qoidalar asosida amalga oshiriladi. Saylovlarning eng muhim tartibga soluvchi jihati saylov tizimi hisoblanib, u saylovlarni tashkillashtirish, hamda saylovchilar ovozlarini mandatlarga, hokimiyat mansablariga «aylantirish»ning umumiy tamoyillarini belgilab beradi. Saylov tizimining bosh maqsadi – xalq irodasi vakolatining ta'minlanganligi, hamda hayotiy va samarali hokimiyat organlarini shakllantirish hisoblanadi. Saylov tizimining ikki muhim turi – ***majoritar*** (muqobil) va ***proportsional*** (vakillik), hamda ularning uyg'unligidan kelib chiquvchi ***aralash*** shakli mavjud.

Saylov tizimi – huquqiy me'yorlarda mustahkamlab qo`yilgan, shuningdek, davlat va jamiyat institutlari faoliyatlari tajribasida shakllangan vakillik organlari yoki ayrim rahbarlik vakilini saylashni o`tkazish va tashkil etishga doir tartibotdir. Saylovlar tizimi – siyosiy tizimning tarkibiy qismidir. Shu bilan birga, saylovlar tizimining o`zi ham boshqa tizimlar kabi tuzilmaviy qismlarga bo`linadi: ularning ichida ikkitasi alohida ajralib turadi: birinchisi, fuqarolarning saylov huquqi - nazariy -huquqiy komponent; ikkinchisi esa – saylov jarayonlari – amaliy-tashkiliy

[53] Mestnoe samoupravlenie: teoriya i praktika. Pod obsh. Red. G. Lyuxterxan't. – M.Fond. F. Naumana. 1996, 10-11 str.

komponentlar.

Ovoz berish yakunlari bo`yicha saylovlar natijalarini aniqlash asosan ikki katta saylov tizimi asosida kechadi: mojaritar va proportsional tizimlar.

Majoritar saylov tizimi. Majoritar[54] tizim – bu nomzod yoki partiyaning saylanishi uchun muayyan okrug yoki mamlakat miqyosida ko`p ovoz olishi zarur bo`ladi. Kam ovoz olganlar esa hech qanday mandat ololmaydi. Majoritar saylov tizimi ham ikkiga – **mutlaq ko`pchilik** (asosan prezident saylovlarida qo`llaniladi va g'olib 50 % plus bir ovoz olishi kerak bo`ladi) va **nisbiy ko`pchilik** (boshqa nomzodlardan ko`p ovoz olishining o`zi etarli bo`lgan) tizimlariga ajratiladi[55]. Mutlaq ko`pchilik tizimida agar birorta ham nomzod 50 foizdan ko`p ovoz ololmasa, bunday holda yuqori ovoz olganlardan ikkitasi saylovning ikkinchi turiga o`tkaziladi. Ayrim hollarda belgilangan minimumdan oshgan nomzodlarning barchasi ham ikkinchi turga o`tkazilishi mumkin.

Har ikala siyosiy tizim o`zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Majoritar tizimning ijobiy jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) hukumatning shakllantirish jarayonining nisbatan engilligi va barqarorligi. Bu asosan yutib chiqqan yirik partiyalar orasida parlament mandatlarining taqsimlanishi, o`z nomzodlariga aksariyat saylov okruglarida ko`p ovoz olishni ta'minlab bera olmaydigan mayda partiyalarning saralanishiga, hamda saylovlar boshlanmasidan avval partiyalarning koalitsiyalar tuzish yoki uyushishiga undaydi; 2) saylovchilar va deputatlar orasida muqim aloqalarni shakllantirish. Har bir deputat muayyan okrug fuqarolari tomonidan saylanganligi hamda yana qaytatdan saylanish umidi bo`lganligi bois ular o`z elektoratlariga tayanadilar. Elektorat[56] esa o`z navbatida proportsional tizimda partiya ro`yxati asosida saylaganlaridan ko`ra mazkur deputatlarni yaxshi biladilar.

Ma'lum yutuqlar bilan birga majoritar saylov tizimi kamchiliklardan holi emas. Mazkur tizimda saylovchilarning irodasi asosiy o`rinni egallab, ayrim hollarda kichik, notanish partiyalar ancha yirik va faolroq bo`lgan partiyalardan ustun kelish hollarini kuzatish mumkin. Masalan, A partiya B partiyadan 51 saylov okrugida yutqazgan bo`lishiga qaramasdan parlamentga B partiyadan ko`proq nomzodni o`tkazishi mumkin. Buning uchun 51 saylov okrugida B partiya A partiyadan kam son bilan yutishi, lekin qolgan 49 saylov okrugida esa B partiya sezilarli darajada A partiyadan qolib ketishi hisobiga erishish mumkin bo`ladi.

Masalaning yana bir jihati, keskin mojaroli jamiyatlarda majoritar saylov tizimi demokratiya uchun juda xavfli hisoblanadi. Zero, nomzodlar orasidagi keskin tafovut raqiblarni ijtimoiy muammolar echimini hamkorlikda topishga emas, balki ularni tanqid qilish, qoralash va bu orqali nafrat muhitiga olib kelishi mumkin. Bu esa jamiyatning qutblashishiga, demokratik qadriyatlardan og'ishga va natijada demokratik tizimning barbod bo`lishiga olib keladi.Mojaritar tizimda nomzod yoki nomzodlar ro`yxati qonunda belgilanganidek, eng ko`p ovoz olgandagina u yoki bu saylanadigan vakillik organiga saylangan, deb hisoblanishi

[54] Majoritar (fr. «*majorite*») – «ko`pchilik» ma'nosini anglatadi

[55] Kratkiy politicheskiy slovar / Abarenkov V.P., Averkin A.G., Ageshin Yu.A. i dr.; Sost. i obщ. red. L.A.Onikova, N.V. Shishlina. – 3-e izd., dop. – M.: Politizdat, 1983. – S. 173

[56] *Electorate* – «saylovchilar»

bilan tavsiflanadi. Mojaritar tizimning ijobiy tomoni shundaki, unda samarali faoliyat yurituvchi va barqaror xukumatni shakllantirish imkoniyati borligi bilan izohlash mumkin. U katta va yaxshi takomillashtirilgan siyosiy partiyalarga saylovlarni muvaffaqiyatli o`tkazish imkoniyatlarini beradi.

Mojaritar tizimning salbiy tomoni: Mamlakat saylovchilarining ko`pchilik qismi (ba'zan 50 foizga yaqin) hokimiyat organlarida o`z vakillariga ega bo`lmay qoladilar.

Proportsional saylov tizimi. Majoritar tizimning kamchiliklarini bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning mohiyati partiyalar yoki saylov koalitsiyalarining olgan ovozlariga mutanosib ravishda mandatlarni taqsimlash yotadi. Mazkur tizimning bosh maqsadi – saylanuvchi organlarda partiyalarning saylovchilar orasida ommabopligiga mutanosib ravishda ularning vakillik organlarida namoyon bo`lishida ifodalanadi[57].

Biroq, proportsional tizim ma'lum kamchiliklarga ham ega. Ulardan eng muhimi – hukumat barqarorlik darajasining nisbatan pastligi. Mazkur tizimga xos turli siyosiy kuchlarning parlamentda keng vakillikka ega bo`lishi biror bir partiyaga muqim ko`pchilikka ega bo`lishga yo`l qo`ymaydi hamda koalitsiyalar tuzilishiga turtki bo`ladi. O`z maqsadlariga ko`ra turli partiyalar majmuidan yuzaga kelgan uyushmalar ular orasida kelishmovchiliklarga, partiyalararo koalitsiyalarning tarqab ketishiga va hukumat inqiroziga olib keladi. Boz ustiga, partiyalararo koalitsiyalar asosida tashkil topgan hukumat siyosati tarqoqligi va noizchilligi bilan ajralib turadi.

Proportsional tizim kamchiliklariga, shuningdek, nomzodlarni ilgari surishda o`zlarining tor manfaatlaridan kelib chiqib partiya ro`yxatlariga mashhur bo`lmagan shaxslarni ilgari suruvchi partiyaviy apparat, byurokratiya nuqtai nazariga bevosita bog'lanib qolishni kiritish mumkin. Biroq bunday faoliyatning yuzaga kelish ehtimoli ichki partiyaviy munosabatlar xususiyatlariga bog'liq.

Ovoz berish ro`yxatining 3 xil turlari mavjud: partiyaga umumiy ovoz berish va bu orqali nomzodlar partiya ro`yxatlarida qay tartibda berilgan bo`lsa shu tarzda saylanuvchi **qat'iy ro`yxat**; **yarim qat'iy** – bunda partiyaviy ro`yxatda etakchi bo`lgan nomzod mandatni albatta oladi, qolganlari esa nomzodning olgan ovozlariga binoan (preferentsiya[58] orqali) amalga oshiriladi; **erkin** – barcha deputat o`rinlari taqsimoti saylovchilar preferentsiyasiga binoan amalga oshiriladi.Saylovning proportsional tizimida berilgan ovozlarning miqdoridan kelib chiqib, barcha mandatlarning ana shu berilgan ovozlar o`rtasida aniq proportsional taqsimlanishi ro`y beradi. Masalan, G'arbiy Evoropa, Yaponiya, Lotin Amerikasi mamlakatlarida saylovlar ko`pincha proportsional tizimda o`tkaziladi.

Proportsional tizim ikki xil ko`rinishga ega: birinchisi – umumdavlat darajasidagi proportsional saylovlar tizimi (saylovchilar butun mamlakat doirasida siyosiy partiyalar uchun ovoz beradilar, unda saylov okruglari belgilanmaydi), ikkinchisi – ko`p mandatli okruglarga asoslangan proportsional saylov tizimi (deputatlik mandatlari partiyalarning saylov okruglariga nisbatan ta'siri asosida

[57] Kratkiy politicheskiy slovar / Abarenkov V.P., Averkin A.G., Ageshin Yu.A. i dr.; Sost. i obщ. red. L.A.Onikova, N.V. Shishlina. – 3-e izd., dop. – M.: Politizdat, 1983. – S. 271

[58] Preferentsiya (lot. *praeferens*) – «afzal ko`rmoh», «ustunlik», «imtiyoz» ma'nolarini anglatadi

taqsimlanadi).

Proportsional tizimning ustun tomonlari to`g'risida quyidagilarni keltirish mumkin: uning yordamida jamiyat siyosiy kuchlarni joylashishining real va aniq manzaralarini ko`rish mumkin. U fikrlar xilma-xilligi va ko`ppartiyaviylikni rivojlanishi, davlat bilan fuqarolar o`rtasidagi uzviy aloqadorlikni ta'minlab beradi.

Proportsional tizimning asosiy kamchiliklari esa quyidagilardir: xukumatni shakllantirishda murakkabliklar yuzaga keladi (sababi: biron-bir ustunlik qiladigan partiyaning yo`qligi, har xil maqsad va muddaolardagi partiyalarning ko`ppartiyaviylik asosdagi koalitsiyasini beqarorligini keltirib chiqaradi).

Aralash saylov tizimi. Zamonaviy dunyoda ham majoritar, ham proportsional tizimlarning turli modifikatsiyalari qo`llaniladi. Bunday uyg'unlikka **aralash va konsensus tizimlar** deb ta'rif beriladi. Aksariyat mamlakatlar har ikkalasining ijobiy jihatlaridan foydalanish hamda iloji borida ularning kamchiliklarini bartaraf etish maqsadida majoritar va proportsional saylov tizimlari elementlarini o`zida mujassam etgan **aralash tizimlar**ni qo`llaydilar.

XX asrning oxirlariga kelib ayrim tashkilotlar (masalan, BMT, «yashillar partiyasi» va boshqalar) saylovlarning **konsensus tizimini** joriy eta boshlaganlar. Uning ijobiy jihati raqibini tanqid qilmaslikka yo`naltirilgan bo`lib, barcha uchun maqbul kelgan nomzodni yoki saylov platformasini topishga qaratilgan. Bunda saylovchi bir nomzodga emas, balki barcha nomzodga barobar ovoz beradi va o`z nazarlariga binoan ularni ro`yxatda tartibi bilan qo`yadi. Masalan, agar nomzodlar beshta bo`lsa, u holda birinchisiga 5 ball, ikkinchisiga 4 ball, uchinchisiga 3 ball, to`rtinchisiga 2 ball, beshinchisiga 1 ball qo`yadi. Ballar qo`shib hisoblanadi va eng ko`p ball to`plagan nomzod g'olib deb e'lon qilinadi.

Mexanizm va tadbirlar.

Saylov bosqichlari. Saylov kampaniyasining birinchi bosqichi – nomzodlar, partiyalarni (harakatlarni) ilgari surish. Ularni ilgari surish va ro`yxatga olishning turli uslublari mavjud: 1) nomzod yoki partiyani qo`llab-quvvatlash uchun imzolar to`plash; 2) ro`yxatga olish badali yoki moliyaviy garovni, shuningdek, nomzodni qo`llab-quvvatlovchi faollar yoki guruh a'zolari mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish; 3) bo`lib o`tadigan saylovlarda munozarali lavozimlarni egallovchi nomzodlarni avtomatik tarzda ro`yxatga olish.

***Mustaqillik yillarida O`zbekistonda saylov tizimining shakllanishi va rivojlanishi.*** O`zbekistonda saylov tizimi bir qator hujjatlar bilan – O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (18, 19, 23 boblar)[59], «O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to`g'risida»[60], «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g'risida»[61], «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to`g'risida»[62], «Referendum to`g'risida» O`zbekiston Respublikasi qonunlarida[63]

[59] O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O`zbekiston, 2003.
[60] O`zbekiston Respublikasi: mustahil davlatning bunyod bo`lishi. – T.: O`zbekiston, 1992. – 18-41 b.
[61] Mazkur Honunning yangi tahriri O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 29.08.2003 y. 519-II-son haroriga muvofih amalga kiritilgan
[62] Mazkur Honun O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 29.08.2003 y. 521-II-son haroriga muvofih 2004 yil 1 iyulidan amalga kiritilgan
[63] O`zbekiston Respublikasi № 265-II honuni bilan 30.08.2001y.da tasdihlangan

qayd etilgan.

Talabalar O`zbekistonda saylov tizimi haqidagi asosiy ma'lumotni O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXIII bobi bilan tashishishlari orqali olishlari mumkin. Mazkur bobda «O`zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar» degan fikr bildiriladi. Shuningdek, mazkur bobda «Saylovlar umumiy, teng va to`g'ridan-to`g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo`li bilan o`tkazilishi», «O`zbekiston Respublikasining o`n sakkiz yoshga to`lgan fuqarolari saylash huquqiga egaliklari» qayd etiladi.

«O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to`g'risida»gi qonunning 3-moddasida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o`tkazish printsiplari keltirilgan. Ular quyidagilardan iborat: umumiylik; tenglik; saylovlarda erkin qatnashish; to`g'ridan-to`g'ri; yashirin ovoz berish[64]. Prezident saylovini o`tkazishga tayyorgarlik ko`rish, uni o`tkazish, saylov okrug va saylov uchastkalarini tuzish, saylov komissiyalarini tashkil etish, nomzodlar ko`rsatish va ularni ro`yxatga olish kabi savollarga javoblarni «O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to`g'risida»gi qonundan konspekt qilib olishlari kerak.

«O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g'risida» O`zbekiston Respublikasining qonunida talabalar O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov o`tkazishning asosiy printsiplari, saylov huquqi ko`rinishlari, saylovga tayyorgarlik ko`rish va saylov okruglari, uchastkalari, komissiyalarini tuzish, Markaziy saylov komissiyasining vakolatlari, saylovda siyosiy partiyalarning ishtirok etish tartibi, fuqarolar tomonidan nomzodlar ko`rsatish va boshqa shu kabi savollarga javoblarni yozib olishlari kerak bo`ladi[65].

Mazkur seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko`rish jarayonida talabalar O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (T.: O`zbekiston, 2003), «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g'risida» O`zbekiston Respublikasining qonuni (T.: O`zbekiston, 2003), «O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to`g'risida» O`zbekiston Respublikasining qonuni (T.: O`zbekiston, 2001), «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to`g'risida» O`zbekiston Respublikasi qonuni (T.: O`zbekiston, 2004), «Referendum to`g'risida» O`zbekiston Respublikasi qonuni (T.: O`zbekiston, 2002) kabi manbalar, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo`lishi (T.: O`zbekiston, 1992) risolasi bilan tanishib chiqishlari maqsadga muvofiq.

***O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mamlakatimizda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish haqida.*** Erkin saylov va o`z xohish-irodasini erkin bildirish printsiplari, birinchi navbatda har bir shaxsning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish bo`yicha konstitutsiyaviy huquqi milliy davlatchiligimiz modelining asosini tashkil etadi. **Saylovlar – bu mamlakatimizda amalda bo`lgan huquqiy normalarning**

[64] O`zbekiston Respublikasining «O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to`g'risida»gi honuni // O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2004. № 12, 3-modda

[65] «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g'risida» O`zbekiston Respublikasining honuni. – T.: O`zbekiston, 2003

nechog'liq demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, xalqning o`z xohish-irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo`lib, o`ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masaladir.

Shu munosabat bilan o`tgan davr mobaynida yurtimizda samarali, demokratik saylov tizimini shakllantirish va rivojlantirish sohasida g'oyat chuqur o`zgarishlar amalga oshirilganini ta'kidlash o`rinlidir.

Ma'lumki, Konstitutsiyamizga, shuningdek, «Saylovchilar huquqlarining kafolatlari to`g'risida»gi hamda yangi tahrirdagi «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g'risida», «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to`g'risida», «O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to`g'risida»gi qonunlarga 2003 va 2008 yillarda tegishli o`zgartish va qo`shimchalar kiritildi.

Shu bilan birga, ushbu davrda mazkur sohaga oid ko`plab qonun hujjatlari qabul qilindi. Bularning barchasi milliy saylov tizimining izchil va bosqichma-bosqich liberallashuvini, ikki palatali parlament saylovlarining qonun talablari va umume'tirof etilgan xalqaro printsip va normalarga to`la mos holda o`tkazilishini ta'minlaydigan mukammal qonunchilik bazasining shakllanishiga olib keldi.

Ushbu qonunlarda davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlarning **faqat ko`ppartiyaviylik asosida o`tkazilishi qat'iy belgilab qo`yildi.** Mamlakat Prezidenti lavozimiga, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarni siyosiy partiyalar tomonidan, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlarni esa — siyosiy partiyalarning joylardagi tegishli organlari tomonidan ko`rsatilishi to`g'risidagi printsipial qoida mustahkamlandi. Deputatlikka nomzodlarning davlat hokimiyati ijro organlari tomonidan ko`rsatilish amaliyoti bekor qilindi va bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o`zgarishlarni chuqurlashtirish yo`lidagi printsipial qadam bo`ldi.

Shu borada saylov qonunchiligimizga saylovga tayyorgarlik ko`rish va uni o`tkazish bilan bog'liq bo`lgan, eng rivojlangan demokratik davlatlar tajribasida ham kamdan-kam uchraydigan mutlaq vakolatlarning Markaziy saylov komissiyasiga berilishini ko`zda tutadigan o`zgartishlarning kiritilishi o`ta muhim ahamiyatga molik ulkan voqea bo`ldi. Amaldagi qonunchiligimizga ko`ra, saylov kampaniyasi jarayoniga davlat va hokimiyat tuzilmalari, jamoat birlashmalari tomonidan aralashishga qaratilgan har qanday urinish qonun bilan taqiqlanishi ham buni yaqqol ko`rsatib turibdi.

2009 yilgi saylov arafasida Markaziy saylov komissiyasi tomonidan O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari sayloviga tayyorgarlik ko`rish va o`tkazish bo`yicha Kontseptsiya ishlab chiqildi. Mazkur Kontseptsiya xorijiy ekspertlar tomonidan fuqarolarning saylov va o`z xohish-irodasini erkin bildirish borasidagi konstitutsiyaviy huquqlariga rioya etilishi bo`yicha noyob hujjat sifatida baholangan edi. Haqiqatan ham, ushbu Kontseptsiyaning amalga oshirilishi saylovning qonun talablariga to`la muvofiq holda, siyosiy partiyalarning o`ta faol ishtirokida, saylov jarayoniga markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarining aralashuviga yo`l qo`ymasdan o`tkazilishini ta'minlashda g'oyat muhim rol o`ynadi.

Bizning qonunchiligimizda saylov kampaniyasining biron-bir ishtirokchisi uchun qandaydir alohida imtiyoz va preferentsiyalar berilmasligi belgilab qo`yilgan. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalariga muvofiq, Prezident saylovi, parlament va davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov hozirgi vaqtda qonun bilan belgilangan yagona kunda – ularning konstitutsiyaviy vakolatlari muddati tugaydigan yilning dekabr oyi uchinchi o`n kunligidagi birinchi yakshanba kuni o`tkaziladi.

Aytish kerakki, bizning saylov tizimimiz rivojida 2008 yili saylov qonunchiligimizga kiritilgan o`zgartishlar muhim bosqich bo`ldi. Qonunchilik palatasidagi deputatlik o`rinlarining soni 120 tadan 150 taga ko`paytirildi, shundan 135 nafar deputat siyosiy partiyalardan saylanadi. Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari nihoyatda muhim va dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganidan kelib chiqqan holda, quyi palatamizdagi 15 ta deputatlik o`rni O`zbekiston Ekologik harakatidan saylangan deputatlarga berildi.

Bundan tashqari, qonun hujjatlariga saylov jarayonining yanada liberallashuvini ta’minlaydigan bir qator normalar kiritildi. Jumladan, saylovda ishtirok etadigan siyosiy partiyalarning ro`yxatdan o`tishi uchun o`rnatilgan muddat 6 oydan 4 oyga tushirildi.

Ayni vaqtda siyosiy partiyalarning saylovda ishtirok etishi uchun ruxsat berish masalasini hal etish borasida zarur bo`ladigan saylovchilar imzosining miqdori avvalgi 50 ming imzo o`rniga 40 ming qilib belgilandi.

Shuningdek, deputatlikka nomzodlarning ishonchli vakillari soni 5 nafardan 10 nafargacha ko`paytirildi. Shular qatorida saylov to`g’risidagi qonun hujjatlariga siyosiy partiyaning «vakolatli vakili» degan yangi institut kiritildi, unga imzo varaqalarining to`g’ri to`ldirilishini tekshirishda, saylov uchastkalarida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish huquqi berildi.

Yana bir muhim yangilik — qonun hujjatlariga saylov komissiyalarining saylovga tayyorgarlik ko`rish va o`tkazish bilan bilan bog’liq faoliyatida oshkoralikni ko`proq ta’minlashga qaratilgan normalarning kiritilishida o`z aksini topdi.

Shu asosda saylovga tayyorgarlik ko`rish va uni o`tkazishning barcha bosqichlarida, shuningdek, saylov kunida ovoz berish xonalarida va ovozlarni sanab chiqishda deputatlikka nomzodlar ko`rsatgan siyosiy partiyalardan bittadan kuzatuvchi, ommaviy axborot vositalari vakillari, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va harakatlardan ham kuzatuvchilar qatnashish huquqiga ega bo`ldi.

Shunisi e’tiborga sazovorki, bizning saylov tizimimiz xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini, ularning davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi mavqeini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Saylov to`g’risidagi qonun hujjatlariga siyosiy partiyalardan ko`rsatiladigan deputatlikka nomzodlarning kamida 30 foizini ayollar tashkil etishi shart ekani to`g’risidagi normaning kiritilgani buning yaqqol tasdig’idir.

2009 yilgi saylovlar jarayonida ayni ana shu normaning tatbiq etilishi parlamentning quyi palatasiga umumiy deputatlar sonining 22 foizini tashkil etadigan 33 nafar xotin-qiz deputatni saylash imkonini berdi.

Senat a’zolari etib saylanganlarning 15 foizi ayollardir, mahalliy vakillik

organlarida faoliyat ko`rsatayotgan ayollar esa bugungi kunda jami deputatlar sonining 20 foizidan ortig'ini tashkil etadi.

Bir so`z bilan aytganda, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va demokratik o`zgarishlarning muhim tarkibiy qismi hisoblangan saylov tizimimiz muntazam takomillashib bormoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda hayotning o`zi, ayniqsa, oxirgi saylovda biz to`plagan tajriba yurtimizda saylov jarayonlarini yanada demokratlashtirish masalalarini kun tartibiga qo`ymoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi qonunchilik tashabbuslarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo`lur edi.

Birinchi. «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g'risida»gi Qonunning 27-moddasi hamda «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to`g'risida»gi Qonunning 25-moddasiga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish taklif etiladi.

Bu avvalambor partiyalararo raqobatning kuchayishi, saylovoldi tashviqotining shakl va usullari tobora turli-tuman va keng miqyosga ega bo`lib borayotgani bilan izohlanadi. Shuning uchun **saylov qonunchiligida saylov kampaniyasining ushbu muhim bosqichini amalga oshirish jarayonida deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalarga teng sharoitlar yaratish mexanizmlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan normalarni nazarda tutish lozim.**

Bundan tashqari, «Saylovoldi tashviqoti» tushunchasining o`ziga aniq ta'rif berish, bunday tashviqotni olib borish shartlari, turlari, ruxsat etilgan shakl hamda usullarini qonunchilik yo`li bilan belgilab qo`yish zarur.

Yaxshi bilamizki, bunday tajriba turli demokratik mamlakatlarning saylov qonunchiligida keng qo`llanib kelmoqda.

Ikkinchi. «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g'risida»gi Qonunning 27-moddasiga saylovoldi tashviqotini nafaqat saylov kuni, balki ovoz berish boshlanishidan bir kun oldin ham olib borish mumkin emasligi to`g'risidagi normani kiritish maqsadga muvofiqdir. Mazkur norma bir qator rivojlangan xorijiy davlatlar qonunchiligida keng qo`llanadi. Uning qonunchiligimizga kiritilishi saylovchilarga o`z qarashlarini, siyosiy xayrixohligini aniqlab olish, boshqacha aytganda, ularning kim uchun va qanday siyosiy dastur uchun ovoz berish masalasida ongli ravishda aniq bir qarorga kelishi uchun qo`shimcha vaqt berilishiga imkon yaratgan bo`lur edi. Qonunchilikning ushbu qismini takomillashtirish ovoz berish arafasida turli suiiste'mollik holatlari va qonun buzilishlarining oldini olish imkonini ham beradi, albatta.

Uchinchi. «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g'risida»gi Qonunning 41-moddasi hamda «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to`g'risida»gi Qonunning 38-moddasiga qo`shimchalar kiritish taklif etiladi. Ma'lumki, joylardagi uchastka komissiyalari aksariyat hollarda qonunchilikda yanada aniq belgilab qo`yishni talab etadigan turli vaziyat va muammoli holatlarga duch keladi. Ulardan biri **muddatidan oldin ovoz berish tartib-qoidasi bilan bog'liq muammodir.** Shuning uchun ham zikr etilgan qo`shimchalarning kiritilishi fuqarolarning saylov huquqlari amalga oshirilishini, ularning o`z xohish-irodasini erkin bildirishini, uchastka komissiyalari faoliyati

oshkoraligini ta’minlash va saylov qonunchiligi buzilishi mumkin bo`lgan holatlarga yo`l qo`ymaslik borasida navbatdagi qadam bo`lur edi.

**To`rtinchi.** «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g’risida»gi, «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to`g’risida»gi qonunlarga “ovoz berish kuniga qadar qolgan besh kun ichida, shuningdek, ovoz berish kuni jamoat fikri so`rovlari natijalarini, saylov natijalari prognozlarini va o`tkazilayotgan saylov bilan bog’liq boshqa tadqiqotlarni nashr etish (e’lon qilish), shuningdek, ularni umumiy foydalanishdagi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlariga (shu jumladan, Internet tarmog’iga) joylashtirish taqiqlanadi” degan normani kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu normaning yuqorida ko`rsatilgan qonunlarga kiritilishi saylovchilar huquqlarining yanada ta’sirchan himoya qilinishi, muayyan nomzodga g’arazli munosabatda bo`lish, bu borada saylov qonunchiligi buzilishining oldini olish imkonini beradi.

Beshinchi. O`zbekiston Ekologik harakatidan O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovining ochiqligi va oshkoraligini ta’minlash maqsadida «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g’risida»gi Qonunning 6-moddasiga O`zbekiston Ekologik harakatining Qonunchilik palatasi deputatlarini saylash bo`yicha konferensiyalarida kuzatuvchilarning ishtirok etish huquqini belgilab beradigan qo`shimcha kiritish maqsadga muvofiq, deb o`ylayman.

Yuqorida bayon etilgan qonunchilik tashabbuslarini amalga oshirish mamlakatimizda saylov erkinligi huquqi printsipining to`liq joriy etilishi va saylov tizimining yanada demokratlashuviga xizmat qilishi muqarrar.

4. Siyosiy ixtiloflar, ularning kelib chiqishi.

“Siyosiy ixtilof” tushunchasi va nazariyalari. Сиёсатни унинг ички омиллар — иҳтилоф ва келишув асосида тушунтирувчи ёндошув — рационал танқидий парадигма эканлигини биласиз. Сиёсатнинг ички зиддиятлилиги ва иҳтилофлилиги ғояси фанда XIX "асрда қарор топди. А. Токвиль; К.Маркс, Г.Зиммель, кейинчалик эса К.Баулдинг, Л.Краузер, А. Бентли ва бошқа назариётчилар иҳтилофни сиёсатдаги ўзгаришларнинг асосини ташкил этувчи ва шу боис ижтимоий ҳаётни бу сохаси мавжудлигининг чегаралари ва табиатини белгилаб берувчи етакчи мамба, деб қарашган.

Тўғри, сиёсий фанда қарама — қарши нуқтаи назар ҳам бор, Э.Дюркгейм, М.Вебер ва бир қатор бошқа олимлар сиёсатни тушунишда иҳтилофнинг иккиламчилигидан ва ривожланиш аҳолини бирлаштирувчи ҳамда сиёсий тизим яхлитлигини таъминловчи туб ижтимоий қадриятларга боғлиқлигидан келиб чиқадилар. Уларнинг қарашларича идеаллар ва ижтимоий — маданий қадриятларнинг бирлиги мавжуд иҳтилофларни ҳал қилиш ва бошқарув тартибининг барқарорлигини таъминлаш имконини беради. Шу муносабат билан улар иҳтилофларни сиёсий жараёнга хос бўлмаган ходиса сифатида баҳолайди.

Фикримизча, ҳар иккала ёндошув бир — бирини тўлдириб келади. Аммо у аввалги маърузаларда айтилганидек, жамиятдаги ижтимоий қатламлашув — даромад, ҳокимият, нуфузнинг нотекис тақсимланиши — иҳтилофларни

келтириб чиқарувчи омил ҳисобланади, иҳтилофларни ижтимоий ҳаётнинг таркибий қисмига айлантириб қўяди. Ихтилоф асосида томонларнинг қарама — қаршилиги, душманлик, келишувларнинг емирилиши, ҳамкорликнинг тугаши сингари тушунчилар ётади. Алоҳида шахслар, ижтимоий гуруҳлар, институтлар, цивилизациялар, тарихий тизимлар ва ижтимоий ривожланиш йўналишлари ихтилоф холатида бўлиши мумкин. Натижада, иҳтилофлар табиати, сабаблари, оқибатлари, уларни башорат қилиш ва олдини олиш механизмларини ўрганувчи махсус фан тармоғи- конфликтология юзага келди. Конфликтология социологлар, хуқуқшунослар, иқтисодчилар, этно графлар, тарихчилар, филологлар, бошқарув муаммолари бўйича мутахассислар диққат марказида. Шу билан бирга конфликтология ривожланишида сиёсий назария ўрни ўзига хос. Иҳтилоф борасида сиёсий фан вазифаси — иҳтилофларни бошқаришни ўрганиш, уларни ҳал қилиш технологияларини ишлаб чиқиш, уларни олдиндан башорат қилиш ва олдини олиш механизмларини қўллашдир.

Турли фанларда қўлланган учун, ҳар бир фан (ёки илмий мактаб) вакиллари иҳтилофга ўз таърифларини беришга интиладилар. Шунинг учун иҳтилофнинг таърифлари — хилма — хилдир. Ўз навбатида, сиёсий фанда ҳам иҳтилофларнинг турли таърифлари мавжуд. Жумладан, бу ерда ҳар қандай иҳтилоф эмас, сиёсий иҳтилоф ўрганилади ва таърифланади.

Сиёсий ихтилоф — қандайдир мавҳум субъектлар

тўқнашуви эмас, балки амалда мавжуд ижтимоий кучлар (агентлар) курашидир ва у етакчилар, элиталар, ташкилотлар, партиялар ва одамларнинг бошқа иттифоқлари ва уюшмалари тимсолида намоён бўлади. **Сиёсий иҳтилоф - Ҳокимлик муносабатлари тизимидаги ўрни ва ролига кўра қарама — қарши сиёсий манфаатлар, қадриятлар, қарашлар, мақсадларга эга субъектларнинг курашидир.** Сиёсий иҳтилоф тушунчаси сиёсий давлат ҳокимияти институтларида ва бошқарувда таъсирга эга бўлим, ижтимоий аҳамиятга эга қарорларни қабул қилишда иштирок этиш, манбаларни тақсимлашда қатнашиш, ўз манфаатлари якка ҳокимлиги ва уларни барчанинг манфаати тарзида тақдим этишга интилиш учун бир ижтимоий кучларнинг бошқалари билан курашини англатади.

Сиёсий иҳтилоф — сиёсий субъектларнинг сиёсий

мафаатлари, қадриятлари, қарашлари билан белгиланган тўқнашувлари, курашлари ҳамдир.

Сиёсий иҳтилоф тушунчаси бир турдаги субъектларнинг бошқалари билан ҳокимият ва сиёсий ҳукмронлик учун курашини англатади.

Шундай қилиб, сиёсий иҳтилоф, бошқа ҳар қандай иҳтилоф сингари, одамлар ўртасидаги ижтимоий муносабатларнинг муайан кўринишидир. Аммо бу иҳтилоф - ўзига хос. Негаки, у, биринчидан, жамиятдаги сиёсий ҳокимият ва унинг амал қилиши борасида вужудга келади; иккинчидан, сиёсий иҳтилофда айрим индивидлар эмас, ижтимоий гуруҳлар, минглаб ва миллионлаб омма ўз мафаатлари билан иштирок этади; учинчидан, сиёсий иҳтилоф ижтимоий аҳамиятга эга. Унинг натижалари, одатда ижтимоий ҳаётнинг ҳимма соҳаларида намоён бўлади.

Siyosat sub’ektlari orasidagi munosabatlardan biri konflikt bo`lib, u hayotning ajralmas, tarkibiy qismidir. Konflikt (lot. *conflictus* – «to`qnashuv» ma’nosini anglatadi) – ijtimoiy sub’ektlarning qarama-qarshi bo`lgan manfaatlari, pozitsiyalari, qadriyatlari va qarashlarini amalga oshirish bilan bog’liq kurashi sifatida qaraladi[66].

Siyosatda ichki qarama-qarshilik, mojarolilik g’oyasi fanga XIX asrdan kirib kela boshladi. A. Tokvil, G. Zimmel, K. Boulding, L. Kozer, A. Bentli va boshqa nazariyotchilar konfliktni siyosatning etakchi manbaasi sifatida qaraganlar.

Boshqa ayrim tadqiqotchilar, masalan E. Dyurkgeym, M. Beber, D. Dyui va boshqalar siyosatni anglashda konfliktning ikkilamchi o`rinni egallashi, hamda uning asosiy ijtimoiy qadriyatlarga bo`ysundirilganligi haqida fikr bildiradilar. Ularning fikricha ideal va madaniy qadriyatlar birligi mavjud muammolarni bartaraf etish va boshqaruv rejimi barqarorligini ta’minlashga imkoniyat yaratib beradi. Shu munosabat bilan aksariyat tadqiqotchilar konfliktni siyosiy jarayonlar anomaliyasi[67] sifatida qarashadi. Siyosat oldiga esa, o`z navbatida, konfliktlarga to`sqinlik qilish uchun «ijtimoiy birdamlik» (E. Dyurkgeym) yoki jamiyatga «pedagogik ta’sir ko`rsatish»ni (D. Dyui) qo`llab-quvvatlash maqsadi qo`yiladi.

G’arb sotsiologiyasi va siyosatshunosligida ijtimoiy konflikt haqidagi ta’limotlar E. Dyurkgeym, G. Zimmel, L. Gumplovich, M. Veber, V. Pareto, G. Moska asarlarida ilk bora ishlab chiqilgan. G.Zimmel «Konflikt kontseptsiyasi» atamasini birinchi bo`lib ilmiy muomalaga kiritgan[68]. U madaniyatlar shaklining yuzaga kelishi va almashishini, madaniyatlar mazmuni va shakli orasida, «ob’ektiv» va sub’ektiv madaniyatlar konfliktlarni tahlil qilib, ularda mojarolarning doimiy xususiyati mavjudligini aytib o`tadi.

Adabiyotlarda «konflikt» tushunchasiga berilgan qator ta’riflarda, birinchi navbatda, qarama qarshilik yoki uning asosiy jihatlaridan biri – tomonlarning kurashi bilan bog’lanadi. Masalan, amerikalik konfliktolog L. Kozer, «konflikt – qadriyatlar va muayyan maqom, hokimiyat va resurslarga da’vogarlik uchun bo`lgan kurash», deb ta’riflaydi. Amerikalik boshqa konfliktolog K. Boulding esa, «konflikt – manfaatlar qarama- qarshiligi va to`qnashuvining anglab etilishini bildiradi».

R. Darendorf «konflikt deganda barcha tuzilmaviy-yaratuvchanlik munosabatlari qarama-qarshiligi»ni tushunadi. Rossiyada chop etilgan «Kratkiy slovar po sotsiologii»da, «konflikt – kishilar, ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy institutlar, va umuman jamiyat munosabati tizimidagi qarama-qarshiliklarning yuqori bosqichi», deb izohlanadi[69]. Shunday qilib, «konflikt» tushunchasi falsafiy «qarama-qarshilik» tushunchasi bilan bevosita bog’liqligini kuzatish mumkin.

Konflikt nazariyasi yangi yo`nalish sifatida AQShda tuzilmaviy funktsionalizmdan (T. Parsonc. farqli ravishda yuzaga keldi. Konfliktologiya fan sifatida birinchi marotaba L. Kozerning «Ijtimoiy konflikt funktsiyalari», K.

[66] Kratkiy politicheskiy slovar // Abarenkov V.P., Averkin A.G., Ageshin Yu. A. i dr.; Sost. i obщ. red. L.A.Onikova, N.V. Shishlina. – 3-e izd., dop. – M.: Politizdat, 1983. – S. 150

[67] Anomaliya (gr. *anomalia*) – «me’yordan og’ish, chetga chihish», «g’alatilik» ma’nolarini anglatadi

[68] Sovremennaya zapadnaya sotsiologiya. Slovar. M.: Izdatelstvo politicheskoy literaturi, 1990. – S. 106

[69] Kratkiy slovar po sotsiologii. M.: Politizdat, 1988. – 42 s.

Boldingning «Konfliktning umumiy nazariyasi», R. Darendorfning «Sanoatlashgan jamiyatda sinflar va sinfiy mojarolar» kabi asarlarida ilk marotaba ilgari surilgan.

Konfliktlarga bag'ishlangan asarlarning deyarli barchasida uning muhim belgilaridan biri **manfaatlarning qarama-qarshiligi** ta'kidlanadi. Jamiyatning funktsionalistik modeli tarafdorlari, «konfliktlar qarama-qarshi guruhlarning manfaat va ehtiyojlarini o`zaro ta'siri va qoniqtirilishi orqali uyg'unlikka erishishi mumkin bo`ladi», degan fikrni ilgari suradilar.

O`z navbatida manfaatlar qadriyatlar, maqsadlar, yo`nalishlar bilan bevosita bog'liq bo`ladi. Amerikalik siyosatshunos D. Apter «konfliktlarni tahlil qilishda qadriyatlar konfliktlarini qanday qilib manfaatlar konfliktlariga o`zgartirish mumkinligi eng muhim masala hisoblanadi», deb ta'kidlaydi.

Amerikalik tadqiqotchilar R. Fisher va U. Yuri mojarolarni hal etish yo`llarini muhokama etib, «…pozitsiyalar haqida emas, balki manfaatlar haqida fikr yuriting», «oqilona qarorga kelish uchun pozitsiyalarni emas, balki manfaatlarni uyg'unlashtirish zarur», deb aytadilar[70]. Fikrlarini davom ettirib, ular «qarama-qarshi pozitsiyalar ortida ziddiyatlar bilan birga alohida va o`zaro maqbul manfaatlar mavjud bo`ladi», deb aytishadi[71].

Shunday qilib, manfaatlar – ijtimoiy konfliktni tahlil qilishda muhim tushuncha hisoblanadi.

Konfliktga nisbatan keltirilgan ta'riflarda maqsad tushunchasi yotadi. Shu bois ayrim siyosatshunoslar konfliktlarni maqsadlar to`qnashuvi sifatida baholaydilar. Biroq, konfliktda maqsad elementini inkor etib bo`lmaydi. Konflikt – maqsadga qaratilgan xulq-atvor va faoliyat bo`lganligi bois u yoki bu darajada sub'ekt ongi bilan bog'liq. Manfaatlar, qadriyatlar, maqsadlar qarama-qarshiligining anglanib etilishi – mojaroning zaruriy belgisi. Rossiyalik faylasuf M.Rutkevich: «… kishilararo qarama-qarshilik sifatida konfliktning belgilanishi manfaatlar qarama-qarshiligining anglab etilgan xususiyati sifatida ko`rsatilishi zarur», deb yozadi[72].

Siyosiy qadriyatlar turli avlodlar tomonidan turlicha singdiriladi va doimo real siyosiy o`zgarishlarga singdirilmaydi. Shu bois mazkur jarayon muqarrar ravishda konfliktlar bilan kechadi. Boz ustiga yagona qadriyatlar asosida qurilgan hokimiyat institutlari ham doimo ularni himoya qilmaydilar va mustahkamlamaydilar. S. Lipsetning fikricha, «demokratiyaning siyosiy institutlari nafaqat konsensusga erishish quroli, balki keskinlikni tug'dirish va konfliktlarni kuchaytirish vositasi sifatida ham foydalanish mumkin».

Amalda kishilarning real siyosiy hamjamiyati doimo ularning ham hamkorligi, ham bellashuvini nazarda tutuvchi o`zaro hamkorligi orqali shakllanadi. Siyosiy konflikt turli ijtimoiy-siyosiy kuchlar, siyosat sub'ektlarining hokimiyat uchun va uni qayta taqsimlash, o`z siyosiy maqomlarini o`zgartirish, jamiyat rivoji siyosiy istiqbollari bilan bog'liq o`z manfaat va maqsadlari amalga oshirishga bo`lgan kurashi, raqobati.

Umuman olganda siyosiy konflikt **o`zaro hukmron vakolat yoki resurslar**

[70] Fisher R., Yuri U. Put k soglasiyu (perevod s angliyskogo). M.: 1992. – 56 s.
[71] Fisher R., Yuri U. Put k soglasiyu (perevod s angliyskogo). M.: 1992. – 58 s.
[72] Rutkevich M. Sotsialniy konflikt: filosofskoe izmerenie. Vestnik Rossiyskoy Akademii Nauk, iyun 1994, t. 64, 6. – 481 s.

ustidan bahslashuvchi ikki va undan ortiq tomonlarning (shaxslar, guruhlar, davlatlar) raqobatona hamkorligi shakli (natijasi) sifatida namoyon bo`ladi. Konflikt – siyosiy sub'ektlarning ehtimoliy hamkorlik shakllaridan biridir. Biroq, kishilarning o`z maqomlaridan qoniqmasligini muntazam ravishda tug'dirib turuvchi, qarashlardagi tafovutlar va yondoshuvlarning mos kelmasligi tufayli jamiyatda yuzaga keluvchi xilma-xil mojaroli holatni yuzaga keltiradi.

Konfliktlar natijasida muayyan sub'ektlar (institutlar) boshqa kuchlar bilan raqobatga kirishib, boshqa kuchlar bilan siyosiy koalitsiyalar, ittifoqlar, bitmlar tuzish orqali hamkorlik o`rnatishga harakat qiladilar. Shu bois, siyosiy mojarolar siyosiy o`yin ishtirokchilardan o`z pozitsiyalarini aniq shakllantirishni talab qiladi. Bu esa butun siyosiy jarayonning samaradorliligi va tizimliligiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi.

Konfliktlar jamiyat va hokimiyatga mavjud ixtiloflar, qarama-qarshiliklar, mos kelmagan fuqarolar pozitsiyalari haqida ma'lum qilib, vaziyatni nazorat ostiga oluvchi faoliyatni rag'batlantirishga, siyosiy jarayonlarda yuzaga kelgan asabiylikni bartaraf etishga undaydi. Shu bois, talabalar, hokimiyatdagi beqarorliklar va jamiyat dezintegratsiyasi mojarolar yuzaga kelganligi uchun emas, balki mas'ullarning siyosiy qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qodir bo`lmaganligi, yoki ushbu kolliziyalarni[73] rad etish sababli paydo bo`lishini bilishlari zarur. Nemis olimi R. Darendorf: inson erkinligi va siyosiy tanlash erkinligi «boshqariluvchi mojaro dunyosidagina mavjud bo`ladi», deb qayd etadi[74]. Shu sababli konfliktlarni muntazam ravishda aniqlash va bartaraf etish jamiyat barqaror va rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Aytish mumkinki, siyosiy mojarolarning faqat ayrimlarigina haqiqatan jamiyat uchun buzg'unchi ahamiyat kasb etadi. Konfliktlarni aniqlash va bartaraf etish siyosiy tizim yaxlitligini samarali ushlab turish, markazga intiluvchi kuchlarni markazdan qochuvchi kuchlardan ustunligini saqlab turish imkoniyatini beradi.

Ixtiloflar tasnifi; iqtisodiy, ijtimoiy, ichki–siyosiy, tashqi ijtimoiy–siyosiy, xududiy, til xususidagi ixtiloflarning asosiy turlari; manfaatlar, qadriyatlar, monandlikka oid, gorizontal va vertikal ixtiloflar. Одатда сиёсий иҳтилофларнинг уч асосий турини ажратиб кўрсатилади.

1. **Манфаатлар иҳтилофи:** иқтисодий ривожланган мамлакатлар, барқарор давлатларда кўпроқ учрайди. Иқтисодий "патир" ни бўлиш атрофидаги савдо бу ерда сиёсий қоида бўлиб қолган (солиқлар миқдори, ижтимоий таъминот ҳажми в.ҳ. учун кураш). Иҳтилофнинг бу тури тез ечимини топади, негаки бу ерда муаммо келишув йўлини топиш мумкин. («унисига ҳам, бунисига ҳам»).
2. **Қадриятлар иҳтилофи:** ривожланаётган давлатлар учун хос; уларни ҳал қилиш учун кўпроқ харакат талаб этилади, негаки улар келишувга қийинчилик билан тортилади.

[73] Kolliziya (lot. *collisio*) – «harama-harshi harashlar, intilishlar yoki manfaatlar to`hnashuvi» ma'nolarini anglatadi

[74] Dahrendorf R. Life Changes: Approaches to Social and Political Theory. – Chicago: 1979. – 107 p.

3.Идентификацион иҳтилоф ўзини жамият (давлат) билан, муайян гуруҳ (этник, демий, тил) билан боғлиқ, деб тан олувчи жамиятлар учун хос. Ирқлар этник ёки тил қарама - қаршилиги мавжуд ҳолларда вужудга келади.

Иштирокчиларига кўра сиёсий иҳтилоф **давлатлараро** (субъектлари – ҳокимият шаҳобчалари, сиёсий партиялари в.ҳ.), **регионал** (худудий) (субъектлари – худудий сиёсий кучлар), **маҳаллий** бўлиши мумкин.

Ички сиёсий иҳтилофлар позицион *(горизонтал)* ва мухолиф *(вертикал)* турларига бўлинади.

Позицион ички сиёсий иҳтилофларнинг субъектлари бўлиб ҳокимиятни учта тизим доирасида амалга оширувчи сиёсий институтлар, ташкилотлар чиқади, аммо улар турлича мавқе эгаллайдилар.

Муҳолиф ёки сиёсий иҳтилоф субъектлари бўлиб бир томондан хукмрон элиталар, уларнинг манфаатларни ифодаловчи партиялар, давлат институтлари, ташкилотлар, етакчилар; иккинчи томондан – турли ижтимоий гуруҳлар номидан чиқувчи ташҳкилотлар шунингдек, мавжуд тартиб, хукмрон сиёсий ҳокимиятга қарши сиёсий гуруҳлар чиқаради.

Маълум бир иҳтилофнинг бир вақтнинг ўзида бир нечта турларга мансуб бўлиши табиий эканлигини унутмаслик керак. Иҳтилофларни турларга ажратишдан мақсад бу содир бўлиб ўтган ёки бўлаётган воқеа – ҳодисани тадқиқ этишнинг бошланғич нуқтасини топишдан иборатдир. қолаверса, назарий ва амалий жиҳатдан иҳтилофлар хукумлаш конфликтларни бартараф этишидаги бошланғич омил эканлигига қараб унинг юзага келиши, ривожланиб бориши ва мухтасар ҳолатидан бахс этишимиз мумкин.

Ижтимоий муҳитда иҳтилофнинг юзага келтирган сабабни асослаш ўта мушкул ва чигал вазифа. Ҳар бир ижтимоий ҳаракат ўзига хос хусусиятларга эга. Бунинг устига унинг чегарасига кўплаб қарама - қарши ҳодисалар ҳам туташган бўлади. Иҳтилоф анна шу туташув чизиғига таъсир этувчи объектув ва субъектув сабаблари асосида юзага келади.Иҳтилофни юзага келтирган ўша обьектив ва субьектив сабабларни таҳлил этиш учун ҳодисалар ва инсонлар ўртасидаги боғлиқликни тадқиқ этиш зарур.

Оммавий иҳтилофлар мотивацияси шуни кўрсатадики , иҳтилоф орқасида ижтимоий ҳаётнинг у ёки бу қийинчиликлари,элита билан халқ ҳртасида юзага келган тафовутлар ва ҳоказолар туради.Масалан, иқтисодий қийинчилик, сиёсий симпатия ва антипатия, популистик йўл билан сиёсий лидерликка интилиш ва бошқалар.

Сиёсий ихтилофларнинг табиати уч ижтимоий омиллар ва сабаблар билан тушунтирилади.

Аввало, бу – сиёсат субъектлари мАқомларининг мос келмаслиги, уларнинг роллари ва вазифалари, ҳокимиятдаги манфаатлари ва эҳтиёжлари, манбаларнинг етишмаслиги в.ҳ. каби ижтимоий муносабатларининг турли шакллари ва қирраларидир. Шартли равишда сиёсий ихтилофларнинг объектив манбалари деб аталиши мумкин бўлган бу омиллар ҳукумрон ва контрета , муайян кучларнинг манфаатларини тақДим этувчи ва давлат бюжетининг қисмлари учун кураш олиб борувчи турли босим гуруҳлари,

шунингдек, ҳокимият тизимидаги барча сиёсий субъектлар ўртасидаги қарама-қаршиликларни белгилиб беради.

Сиёсий ихтилофларнинг иккинчи асосий манбаи шахслар (уларнинг гуруҳ ва уюшмалари)нинг асосий деб билувчи қадрятлар ва сиёсий идеалга кўра, тарихий ва долзарб ҳодисаларни баҳолашдаги, шунингдек, сиёсий воқеалар тўғрисидаги бошқа субъектив тасаввурларида фарқЛар киради. Бундай ихтидлофлар давлатчиликни ислоҳ қилиш йўллари тўғрисидаги ҳар хил қарашлар тўқнашаётган, жамиятнинг Янги сиёсий тузилиши асослари шаклланаётган, ижтимоий инқироздан чиқиши йўллари изланаётган мамлакатларда кўпроқ рўй бериши мумкин.

Кейинги йилларда бир қатор ғарб назариётчилари (Ж.Бертон, К. Ледерер, Ж.Девис в.б.) сиёсий изхтилофлар табиатини тушинтиришга қаратилган Яна бир эҳтимолни илгари суришди. Уни инсон эҳтиёжлари назарияси, деб аталди. 1 Бу консепцияга кўра, ихтилофлар инсон моҳиятини ташкил этувчи эҳтиёжларнинг чекланиши ёки тўлиқ қониқтирилмаслиги натижасида вужудга келади.

Ва, ниҳоят, сиёсий иҳтилофларнинг учинчи манбаи сифатида сиёсатшуносликда фуқароларнинг ўзларини ижтимоий, этник, диний ва бошқа жамоалар ва иттифоқларга тааллуқлигини англаганликлари ва ўзларининг ижтимоий ва сиёсий тизимдаги ўринларини яхши тушунганликлари қаралади. Бу — идентификация термини билан аталади,

Ихтилофли ҳолатлар деганда биз бундай шароитларнинг инсон манфаатлари билан бирга қўшилиб кетишини тушунишимиз керак, ҳақиқий заминни вужудга келтиради. У низоли ҳолатларда курашувчи томонларнинг ирода ва истакларидан қатъий назар объектив равиҳда юзага келади. (масалан, идорада штатларнинг қисақариши натижасида) ёки — у, ёки — бу томоннинг, ёки икки томоннинг чақириғи билан вужудга келади. Siyosiy mojarolar manbalarini nazariyotchilar yo noijtimoiy yoki ijtimoiy omillarda ko`radilar. Noijtimoiy omillarga bir turdagi hayvonlar orasidagi dushmanlik va inson agressivligi orasidagi o`xshashlikka asoslanuvchi siyosiy keskinlik shakllarining turlicha talqini kiritiladi. Biroq, zamonaviy fanlar kishilarning yuqori darajada konfliktlarga mayli bor degan nazariyalarni tasdiqlamadi.

Ijtimoiy konfliktning to`g'ri tushunilishi birinchi navbatda uning asosi bo`lgan ijtimoiy qarama-qarshilik mohiyatini anglashni talab qiladi.

Ijtimoiy omillarning etakchi rolini tan olish *siyosiy konflikt*lar tabiatini aniq ochib beradi. Bunday ta'rifni berishda *siyosiy konfrontatsiya* asosida yotgan uch asosiy sabab ko`rsatiladi. Birinchi navbatda – bu siyosat sub'ektlari, maqomlari, ularning belgilangan vazifalari va funktsiyalari, hokimiyatdagi manfaat va ehtiyojlari, resurslarning etishmasligini belgilab beruvchi ijtimoiy munosabatlarning turli shakllari va aspektlarini keltirish mumkin. Siyosiy konfliktlarning ushbu ob'ektiv manbalari hukmron qatlam va kontrelita, muayyan kuchlar manfaatlarini ifoda etuvchi va davlat budjeti qismi uchun kurash olib boradigan bosim ko`rsatuvchi turli guruhlar, shuningdek, hokimiyat tizimining barcha siyosiy sub'ektlari orasida yuzaga keladi.

Bunday turdagi mojarolarning tashqi tangligini pasaytirish odatda, nisbatan

oson kechadi. Biroq, turli shaklda siyosiy o`yinga jalb etilgan tomonlarning konfliktogen dispozitsiyasi manbalarini faqat islohotlar orqali bartaraf etish mumkin.

Siyosiy mojarolarning ikkinchi asosiy manbaiga kishilarning (guruhlar va uyushmalar) asosiy ***qadriyatlar*** va ***siyosiy g'oyalar***, ***tarixiy*** va dolzarb voqealarga baholar, shuningdek, siyosiy jarayonlardagi sub'ektiv ahamiyat kasb etuvchi boshqa tasavvurlardagi ixtiloflarni kiritish mumkin. Bunday mojarolar, odatda, jamiyatning yangi siyosiy tizimi shakllanayotgan, ijtimoiy inqirozdan chiqish yo`llari izlanayotgan, davlatchilikni isloh qilish yo`llari borasida turlicha fikrlar to`qnashuvchi mamlakatlarda yuzaga keladi. Bunday mojarolarni hal etishda murosaga kelish g'oyatda murakkab.

So`nggi yillarda g'arb nazariyotchilari (***Dj. Bergon, K. Lederer, Dj. Devis*** va boshqalar) siyosiy mojarolar tabiatini ta'riflovchi yangi fikrni – insoniy ehtiyojlar nazariyasini ilgari suradilar. Ularning fikrlaricha, shaxsining o`zini tashkil qiluvchi ehtiyojlarni cheklab qo`yilganligi yoki nomutanosib ravishda qondirilishi natijasida mojarolar paydo bo`ladi. Mazkur yondoshuv tarafdorlari asosiy konflikt manbalariga turli qadriyatlarni kiritadilar: O. Nadler – bir xillik, iqtisodiy o`sish, transtsendentsiya (ichki o`zini o`zi namoyon etish); R. Inglxart – xavfsizlik, ijtimoiy tan olinish, ma'naviy barkamollik va boshqalar. Bunday intilishlarning qoniqtirilishi oldi-sotdi, hokimiyat bilan savdolashish predmeti bo`la olmaydi.

Siyosiy fanlarda siyosiy mojarolarning uchinchi asosiy manbasiga ijtimoiy va siyosiy tizimlarda o`z o`rnini anglashga ko`mak beruvchi, ijtimoiy, etnik, diniy va boshqa umumiylik hamda uyushmalarga fuqarolarning mansubligi qaraladi. Konfliktlarning bunday turi, birinchi navbatda, kishilar o`zlarini yangi davlat fuqarolari sifatida anglab etishlarida, hokimiyat bilan munosabatlarda o`zlariga yot bo`lgan noan'anaviy me'yorlarga ko`nikishlari lozim bo`lgan beqaror jamiyatlarga xos.

Siyosiy konflikt turlari. Siyosiy jarayonlarda kechayotgan o`zgarishlar xususiyatlari, boshqaruv tizimi evolutsiyasi sur'ati va yo`nalishlari ustun bo`lgan siyosiy mojarolar turiga bevosita bog'liq. Siyosiy fanlarda konfliktlarni quyidagi asoslar bo`yicha tasniflashtirish qabul qilingan:

- ***namoyon bo`lish sohasi va nuqtai nazaridan***. Bunda asosan turli inqiroz va qarama qarshiliklarning qator ko`rinishlariga ajratiladigan ***tashqi va ichki siyosiy mojarolar*** ko`rsatiladi. Masalan, xalqaro mojarolar orasida quyidagi turlar – bir davlatning ikkinchi davlatga nisbatan raqib kurashishga qaraganda yon bosishi umidida talab va da'volarni ilgari suruvchi «urush arafasida muvozanatlash» (***D. Dalles***; yuzaga kelgan vaziyatdan foydalangan holda dushmanga nisbatan nomuvofiq talablarni ilgari surish orqali ehtimoldagi dushmanga qarshi ig'vogarona faoliyatni amalga oshirishni nazarda tutuvchi «dushmanlikni oqlash» (***R. Lebou***).

Ichki siyosiy konfliktlar ham hokimiyatning turli sub'ektlari (hukmron va kontrelita, raqobatda bo`lgan partiyalar va manfaatdor guruhlar, markaziy va mahalliy hokimiyat va boshqalar) orasidagi siyosiy jarayonlar xususiyatlarini ifoda etib, o`zaro aloqadorlikni ochib beruvchi inqiroz va qarama qarshiliklarga ajratiladi.

- ***ularning me'yoriy boshqarish darajasi va xususiyati bo`yicha*.** Bu holatda kishilarning siyosiy o`yinnning mavjud qoidalariga bo`ysunishga layoqatli yoki layoqatsizligini ko`rsatib beruvchi instituallashgan va noinstituallashgan konfliktlar (***L. Kozer***);

- ***muammoni hal etish jarayoniga kishilarni jalb qilishning namoyon etilganligi, inqirozlar va qarama qarshiliklar intensivligi, ularning siyosiy jarayonlar dinamikasiga ahamiyatini namoyon etuvchi sifatiy xususiyatlari bo`yicha*.** Mojarolarning bunday turiga (kishilar ongiga «chuqur» va «yuza singgan» konfliktlar (***Dj. Berton***); «nollik natija qiymatlik» konfliktlar (tomonlar pozitsiyalari qarama qarshi bo`lganligi sababli birining g'alabasi ikkinchisining mag'lubiyati bo`lib qoladi) va «nolsiz natija qiymatlik» konfliktlar (bitta bo`lsa ham o`zaro kelishuvga erishish mumkin bo`lgan holat – ***P. Sharan***); qarama-qarshi tomonlardan birining yo`q qilinishi yoki qarama-qarshi kuchlarning saqlanib qolishini ifoda etuvchi *antagonistik* va *neantagonistik* konfliktlar;

***- Tomonlar raqobatining ommabopligi nuqtai nazaridan*.**

Bunda konfliktlarning **ochiq** (konfliktlashayotgan sub'ektlar aloqadorligining ochiq ravishda namoyon bo`lishi) va sub'ektlarning o`z hukmron vakolatlarini yashirin ravishda bahslashish nazarda tutiluvchi **yopiq** (latent) shakllari haqida gapirish mumkin. Agar konfliktlarning birinchi turi siyosiy jarayonlarda namoyon bo`lishi oson ajrata olinsa, ikkinchi holati oddiy inson nazaridan chetda bo`lgan siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida kuzatiladi;

- ***Tomonlar raqobatli munosabatlarining muayyan vaqt – uzoq muddatli va qisqa muddatli konfliktlar bo`yicha.*** Masalan, ayrim siyosiy mojarolar nisbatan qisqa muddatlarda o`z intihosiga etishi, yoki bo`lmasa bir necha avlodni qamrab olishi mumkin;

- ***Boshqaruv rejimining tuzilishi va tashkillashganligining o`zaro nisbati bo`yicha.***

Mazkur holatda konfliktlar vertikal (yuqori va quyi bo`g'inlar orasidagi munosabatlarni belgilovchi) va gorizontal (o`zaro teng bo`lgan sub'ektlarning raqobati).

Talabalar inobatga olishlari zarurki, u yoki bu xususiyatlarga ega bo`lgan konfliktlar muayyan siyosiy jarayonlarda turlicha, masalan ayrim hollarda musobaqalashish va hamkorlikdan tortib, to qarama-qarshilik, murosasizlik, antogonistik shakllarida bo`lishi mumkin.

***Hozirgi zamondagi ixtiloflar (davlatlararo, siyosiy partiyalararo, millatlararo, guruhlararo)ning kelib chiqishi sabablari va ularni boshqarish yo`llari.*** Konfliktning yuzaga kelish bosqichi konfliktga moyil siyosiy sub'ektlar pozitsiyalari mos kelmaganda, qarama-qarshi tomonlar orasida muayyan bahs va raqobat predmetini ifoda etuvchi keskinlik muhiti paydo bo`lgan taqdirda yuzaga keladi.

Konflikt yo`nalishini nazorat qilishga uringan sub'ektning asosiy vazifasi uning asosiy sabablarini, ya'ni ishtirokchilarning asl maqsadlarini ochishdan iborat. Buning murakkab tomonlaridan biri – har bir tomonning raqib tomonga nisbatan bo`lgan asosiy sabablarini sir tutishi, yashirishga intilishi bilan belgilanadi. Konfliktogen munosabatlarning asosiy sabablarini izlash mobaynida

boshqarish sub’ekti voqealar boshlanishiga turtki bo`luvchi sababdan ajrata olishi lozim.

Vaziyatning dastlabki baholanishidan hokimiyat organlari raqobatlashayotgan tomonlar paritetini saqlashga urinishlari yoki biror bir tomonni qo`llab quvvatlash orqali keskinlikni kamaytirish yohud yuksaltirishga «hissa» qo`shishlari, ma’lum bo`ladi. Biroq, har qanday vaziyatda ham hokimiyat raqobatlashayotgan tomonlar munosabatlarining me’yor va qoidalarini belgilab qo`yishi orqali konfliktning institutsionallashishiga va bu orqali uni nazorat etishiga urinishi lozim. Konfliktning institutsionallashishi nafaqat jamiyatning himoyalanishiga va davlat xavfsizligining ta’minlanishiga, balki ayni paytning o`zida mojaroning o`z-o`zidan tugashiga olib keladi.

Konfliktlarni bartaraf etishning strategik va taktik maqsadlarini belgilash orqali hokimiyat «texnik» jihatdan: jalb etilayotgan ekspert va analitiklar, hamda davlat boshqaruviga jalb etilayotgan mutaxassislarning yuksak malakali ekanligi; kommunikatsiyalar va joriy voqealar haqidagi xabarlarni tahlil qiluvchi markazlarning ishonchliligi va ularning moddiy jihatdan ta’minlanganligi; konfliktlarni boshqarishga jalb etilgan hokimiyatning turli qatlamlari va bosqichlari orasida aloqalarni yaxshilash; hokimiyat institutlari tizimini voqealarni samarali nazorat qilishga moslashtirish; qat’iy ravishda kuch ishlatish mexanizmlari tayyorligini tekshirib ko`rish kabi tayyorgarlik ishlarini bajarish lozim. Mazkur choralar majmui yuqori qatlam qo`lida mujassamlashgan zaxiralarga mos kelishi, hamda hokimiyat imidjini, ya’ni aholi orasida mojarolar ustidan davlat nazorat o`rnatganligini ta’minlashi kerak.

Konfliktning rivojlanish bosqichlari. Ихтилоф ривожланишинг қуйидаги босқичлари мавжуд:

Яширин босқич. Иҳтилофларга одатда аввалдан мавжуд яширин босқич ўтмишдошлик қилади, бунда ташқи харакатдан ташқари низоларнинг ҳамма элементлари мавжуд бўлади.

Биринчи давр — объектив низоли шароитнинг вужудга келиши;

Иккинчи давр — бу шароитда ҳеч бўлмаса бирорта субъект томонидан ўзининг манфаатларини баён этади. Манфаатлар ёлғон, нотўғри бузилган ёки ҳақиқий бўлиши мумкин, лекин булар баён этилмас экан, кейинги кураш ҳеч қандай асосга эга бўлмайди;

Учинчи давр — аввалгиси билан маҳкам боғланган — ўз манфаатларини қондириш йўлидаги тўсиқларни аниқлаш (когнитив низоларда бошқа курашлардаги қобилиятларнинг аниқланиши.);

Тўртинчи давр — томонлар томонидан ўз манфаатларини ҳимоя қилиб, шунинг учун бошланган аниқ харакатларни англатади — бу эса низонинг бошланиши демакдир, чунки ҳар икки томоннинг нуқтаи назарлари аниқ белгиланади ва амалиётда бир- бирларига қарши харакатлар бошланади.

Konfliktning rivojlanishi bilan uning kechishi ustidan nazorat o`rnatishga intiluvchi sub’ekt faoliyati kengayadi. Mazkur bosqichda konfliktga kirishayotgan tomonlarni qo`llab quvvatlovchi yoki unga qarshi turuvchi kuchlar aniq tus ola boshlaydi; bahsning kengayish yoki torayishi, uning intensivlik darajasi va shu kabilar ochiq namoyon bo`la boshlaydi. Shunday qilib, raqobatli munosabatlar

rivoji ustidan nazoratni saqlab qolish maqsadida kuzatish zarur bo`lgan omillar soni ko`payadi.

Konfliktni boshqarish sub'ekti qaror qabul qilar ekan nisbatan ancha keng axborotga (informatsiya) tayanishi, uning tezkorligini (operativligi) oshirishi, kelayotgan ko`plab ma'lumotlar ichidan ishonchlilarini qat'iy ravishda tanlab olishi kerak bo`ladi. Bu borada nafaqat tomonlar yurish-turishidagi ma'lum, oshkor ma'lumotlarni, balki yashirin, ayrim hollarda o`y-hayol va niyatlar haqidagi axborotni ham olish talab etiladi. Bu bosqichda dezinformatsiyaga qarshi kurash alohida ahamiyat kasb eta boshlaydi. Zero, u yoki bu tomon o`z maqsadlarini yashirish niyatida konfliktni boshqaruvchi sub'ektni vasvasaga solish orqali betartib faoliyatga undaydi.

Hukumat nazoratning axborot maydonini kengaytirar ekan, odatda, raqobatlashayotgan tomonlarning qiyofasini (pozitsiyalari, yon bosishga mayli, maqsadlarni o`zgartirish imkoniyatlari ehtimoli va boshqalar) va avvallari ishlab chiqilgan shaxsiy baholarini aniqlaydi. Amerikalik xalqaro munosabatlar bo`yicha mutaxassislar ***G. Snayder*** va ***P. Dizing*** «tashqi» obraz (raqobatlashayotgan tomonlarning uzoq muddat evolutsiyasi nuqtai nazaridan baholash) va «joriy» obrazdagi (qarashlardagi o`zgarishlarning dolzarb voqealarga nisbatan qisqa muddatlarda o`zgarishi) o`zgarishlarni ajratish lozimligini ta'kidlaydilar.

Bunday yondoshuvlarni belgilab olgan hukumat tomonlarning o`zgarayotgan pozitsiyalarini muntazam ravishda taqqoslashi, raqobatlashayotganlar taktikasiga kirishga harakat qilishi, raqiblar tutashadigan nuqtalarni aniqlab topishi kerak. Oxir oqibatda konfliktning kechishini belgilab beruvchi turli omillarni inobatga olinishi uning o`sish yoki pasayish tendentsiyasi haqida ma'lumot beradi.

Konfliktlashayotgan tomonlar o`rtasidagi munosabatlarning quyidagi uch asosiy turini ajratib ko`rsatish mumkin: raqiblarning bir biriga nisbatan muxolif munosabatlarni muntazam ravishda yuzaga keltiruvchi **raqobatkorona**; raqib tomonning huquq va manfaatlarini inkor etgan holda bir tomonlama ustivorlikka erishishni belgilab beruvchi **individualistik**; mojaroda ishtirok etuvchilarning qarama qarshi tomon manfaatlarini hurmat qilishga tayyor va ziddiyatdan chiqish yo`llarini birgalikda izlashni namoyon etuvchi **hamkorona**.

Konfliktning yakunlovchi bosqichi. Bu bosqich muhim ahamiyat kasb etib, munozarali munosabatlar yakuni natijasida siyosiy kuchlarning yangi balansi yuzaga keladi.

Konfliktologiyada mojaro tugashining asosan ikki varianti qaraladi – tomonlarning murosaga kelishlari yoki kelmasliklari (ya'ni, boshi berk vaziyatga kelishi yoki mojaroning hal etilmasligi). Konflikt hal etilmaydigan bo`lishi ham mumkin. Bunday holat uning intihosiga emas, balki «doira bo`ylab harakat» holati paydo bo`lishga olib keladi. Bu konfliktni boshqaruvchi sub'ektdan konfliktli munosabatlarning dastlabki ikki bosqichiga binoan o`zining faoliyati va operatsiyalarini qaytadan ko`rishi kerak bo`ladi. Mazkur holat konfliktlarni nazorat qilish, boshqarishning yangi strategiya va taktikasini takomillashtirish, shakllantirishni taqazo etadi.

Mojaroda ishtirok etuvchilarni yarashtirish to`liq yoki qisman hal qilish yoki umuman tugatishni nazarda tutadi. Ayrim hollarda mojaro o`zidan-o`zi, ya'ni

mojaro ob’ekti o`z ahamiyatini yo`qotgan taqdirda ham tugashi mumkin.

Mojarolarni boshqaruvchi sub’ekt yarashishga erishishini ta’minlovchi vositalarni topishi kerak bo`ladi. Eng odatiy vositalarni inobatga olgan holda tomon yarashuvining quyidagi umumiy ikki yo`lini ko`rsatish mumkin:

1. Quyidagi natijalar asosida mojaroni tinch yo`l bilan hal etish mumkin: boshlang’ich pozitsiyalarni saqlab qolish asosida murosaga erishish; o`zaro yon bosishlarga asoslangan kelishuvlar; bir yoki bir necha tomon zaxiralarining tugashi natijasida raqobatni davom ettira olmasliklari; munozara chog’ida tomonlar o`zaro hurmatni ta’minlashlari, raqib huquq va manfaatlarining tushunishlari. Mazkur uslub bir tomonlama kuch ishlatish orqali emas, balki raqobatlashayotgan har ikkala tomonlarning faoliyatlari orqali erishishlari mumkin.

2. Majburlash asosida yarashtirish yoki, boshqacha aytganda, raqib da’volarini inkor etishga imkoniyat beruvchi «boshqaruv uslubi» munosabatlarini qo`llash. Bir tomon yoki uchinchi kuchning qolgan barcha raqobatlashayotgan tomonlarga aloqa xususiyatlarini singdirish asosida quyidagilar yotadi:

- bir tomon (mavjud bo`lgan, qo`lga kiritilgan) kuch va zaxiralarining boshqa tomonga nisbatan ustunligi;

- mojarolashayotgan bir tomonni yakkalash, uning maqomini tushirish, hamda pozitsiyasini zaiflashtirish, o`yin qoidalari asosida uni mag’lub etishni ma’lum qiluvchi boshqa holatlar;

- qirib tashlash, «dushmanni tag tugi bilan yo`qotish» orqali tinchlikni o`rnatish.

Boshqaruv sub’ekti mojaroni bartaraf etish vositalarini tanlashda mamlakat siyosiy taraqqiyotiga mos keluvchi madaniy-tarixiy, tsivilizatsiyaviy qadriyatlaridan kelib chiqishi, munozara olib borishning muvaqqat jihatlarini inobatga olishlari kerak.

Zamonaviy siyosiy fanlarda konfliktlarning kechishi ustidan nazorat shakli va uslublarini izlashga, ularni boshqarishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratiladi. Konfliktlarni bartaraf etishni istamaydigan ayrim kuchlar uning ustidan nazorat o`rnatishga intiladilar. Ular konfliktlarni «saqlab», o`z manfaatlari yo`lida samarali foydalanish maqsadida vaqti-vaqti bilan yuzaga chiqarib turishdan manfaatdordirlar.

Aksariyat hollarda siyosiy kuchlar konfliktlar ustidan ularni bartaraf etish maqsadida nazorat o`rnatishga harakat qiladilar. Bunda konfliktlarni boshqarish sub’ekti sifatida ham uning ishtirokchilari, ham ishtirok etmaydigan, biroq bartaraf etilishidan manfaatdor uchinchi kuch chiqishi mumkin.

Konfliktlarni boshqarish sub’ekti quyidagi muhim universal vazifalarni bajarishi kerak bo`ladi:

- konfliktning yuzaga kelishi yoki uning rivojlanib, bartaraf etish uchun ijtimoiy taranglikni tug’diruvchi holatga etishiga to`sqinlik qilish;

- nazorat qilinmaydigan jarayonlar va salbiy oqibatlarning oldini olish, to`g’ri va operativ ravishda munosabat bildirish murakkab bo`lgan kutilmagan holatlardan uzoqlashish maqsadida barcha yashirin, yopiq, «ko`lanka»dagi konfliktlarni ochiq-oshkora shakllarga o`tkazish;

- qo`shimcha zaxira va energiya sarflashni talab etuvchi boshqa larzalar

yuzaga kelishining oldini olish maqsadida siyosiy (ijtimoiy) hayot sohalarga tutash bo`lgan siyosiy mojaro natijasida yuzaga keluvchi taranglik darajasini minimal darajaga tushirish.

Konfliktlarni boshqarish strategiyasi asosida yotuvchi ushbu universal maqsadlar asosiy yo`l-yo`riq orqali bahsli vazifalarni yo **hal qilish**, yo **bartaraf etish** orqali konkretlashtiriladi. **Hal qilish** tomonlar qarama-qarshiligi keskinligini yumshatish, hamda konfliktdan kelib chiquvchi salbiy oqibatlarning oldini olishga qaratilgan sub'ektning intilishlarini qamrab oladi. Biroq, har qanday vazifada tomonlar erishgan murosa konflikt sabablarini bartaraf eta olmaydi va istiqbolda yangi mojaro kelib chiqishiga turtki bo`ladi. **Bartaraf etish** esa bunday bahs predmetining yo`qotilishini va tomonlarning mojarolarsiz munosabatlarini nazarda tutadi.

Konfliktlarni boshqarish uchun siyosiy sub'ekt ularning shakllanishi va kechishining printsipial ichki va tashki omillarini inobatga olishi darkor. Boshqaruv sub'ektining faoliyat shakli va uslublariga ta'sir ko`rsatuvchi xususiyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: siyosiy tizimning ochiqlik darajasi; konfliktlashayotgan guruhlarnig jipslashganlik darajasi va a'zolar ichki munosabatlarining jadalligi; bahsli munosabatlarga keng ijtimoiy qatlamlarning jalb etilganlik darajasi; guruhlar va fuqarolar faoliyatining hissiyotlilik darajasi va ularning o`z hukmron intilishlarini cheklay olish qobiliyati va boshqalar.

Konflikt ustidan nazorat o`rnatish texnologiyalarini ishlab chiqishda boshqaruv sub'ekti mojaroning kechishi umumiy omillarini emas, balki har bir davr xususiyatlariga muvofiq keluvchi maqsadlar spetsifikasini inobatga olishi zarur. Odatda, nazariyada siyosiy konfliktlarning yuzaga kelish, rivojlanish va tugash bosqichlari ajratib ko`rsatiladi. Shu bois, fanda liderlar, hukumatlar, davlatlar va konfliktlarni boshqaruvchi boshqa sub'ektlar fe'l-atvori va yurish-turishining texnologik modellari ishlab chiqilishi nazarda tutiladi.

Ихтилофларнинг умумий назариясини ўрганиш, шунингдек, унинг асосий турларини таҳлил этиш уларни бошқариш муаммоларини кўриб чиқишимиз имконини беради. Масаланинг шу тарзда қўйилиши, яъни ихтилофларни бошқариш мумкинлигини эътироф этиш уларни ижтимоий жараёнларнинг таркибий қисми сифатида тушунишдан, ҳамда уларни одамларнинг ижодий фаолиятцдаги харакатлантирувчи куч, шу билан бирга, ривожланиш муаммолари ва қийинчиликларни белгиловчиси сифатида қабул қилишдан келиб чиқади.

Агар иҳтилофни ижтимоий тизимни емирувчи, унинг нормал фаолиятига путур етказувчи ходиса сифатидагина тушунилганда эди, асосий муаммо — уни йўқотиш барҳам топтириш, тезда ҳал этишдан иборат булар эди. Иҳтилофни жамиятдаги қонуний ходиса ва яна, тараққиётнинг харакатлантирувчи кучи сифатида тан олиш—унга муносабат масаласини ҳам кенгайиши, ҳам чуқурлашишига олиб келади. "Иҳтилофни бошқариш" тушунчаси унинг моҳиятини ифадалайди. Тушунчани таърифлашда иҳтилофларнинг жамиятга таъсири турличалиги ва зиддиятлигини (яъни яратувчилик фаолиятига туртки берувчи) ва емирувчи (тизимнинг парчаланиши, манбаларнинг курашга сарфланиши) бўлиши мумкинлиги

назарда тутилади.

Иҳтилофни бошқариш — иҳтилоф жараёнига мақсадли таъсир этиш бўлиб, бу таъсир ижтимоий аҳамиятга эга масалаларни ҳал этишни таъминлайди. Иҳтилофларни бошқариш ўз ичига қуйидаги жиҳатларни олади: уларни олдиндан айтиб бериш; баъзиларини олдини олиш айримларини рағбатлантириш; иҳтилофларни ҳал этиш.

Иҳтилофни бошқариш субъекти ким бўлишидан қатъий назар рақобатли ўзаро муносабатларни тартибга солиш технологиялари муқаррар равишда бир қатор умумий вазифаларни ҳал қилиши лозим бўлади: иҳтилоф пайдо бўлишининг олдини олиш ёки, уни бартараф этишнинг ижтимоий баҳоси, ортиб, кетадиган даражада ўсиб кетишига имкон бермаслик,

барча яширин, маҳфий, очиқ бўлмаган иҳтилофларни очиқ шаклга олиб чиқиш. Назорат қилиб бўлмайдиган жараёнлар ва уларнинг оқибатларини камайтириш, тўғри ва тезкор жавоб бериш имконини бермайдиган тасодифий упирилишлар олдини олиш;

• қўшимча манбалар ва куч — қувват сарф қилиш заруратини келтириб чиқарувчи янги, кенгроқ, қўшимча силсилалар келиб чиқишининг олдини олиш мақсадида сиёсий иҳтилоф кечиши жараёнида ижтимоий ҳаётнинг бошқа соҳаларида рўй бериши мумкин бўлган ижтимоий қўзғалиш даражасини камайтириш.

Иҳтилофни салбий ходиса сифатида қараш унинг олдини олиш заруратини белгилайди. Иҳтилофни тизимнинг ўз-ўзини тартибга солиш ва ўз-ўзини такомиллаштириш, созлаш, унинг ўзгариши ва ривожланиши манбаи сифатида тушуниш эса иҳтилофларни рағбатлантириш муаммоси тўғрисида фикр юритиш имконини беради. Иҳтилофларнинг олдини олиш — унинг вужудга келиши, ижтимоий тизимнинг у ёки бу элементини емиришини йўл қўймасликка қаратилган фаолиятдир. Иҳтилофнинг олдини олиш уни **башорат этишни** тақозо этади. Асосли башоратсиз мавжуд бўлган иҳтилофни вужудга келиши олдини олиб бўлмайди. **Башорат-бўлажак иҳтилоф тўғрисида муайян аниқлик билан вақти ва ўрнини кўрсатилган тасаввур, башоратнинг илмий ва амалий аҳамияти унинг асослилиги ва ҳақиқатга қанчалик тўғри келиши билан белгиланади.** Башоратнинг асосий услублари: муайян вазиятни тизим (ёки унинг бир қисми)нинг келажагидаги ҳолатига кўчириш; бўлиши мумкин бўлган иҳтилофли вазиятни моделлаштириш, статистик метод, экспертлар сўровини қўллаш.

Башоратнинг дастлабки босқичи муайян зиддиятли вазият асосида ётган қарама—қаршиликни аниқлашдан иборат. Кейинги қадам — шу вазиятнинг ўзгариши, қарама-қаршиликларнинг ва муаммолар ечими ривожланишининг йўналишини аниқлаш ҳисобланади.

Иҳтилофларни қисман ва толиқ олдини олиш, эрта огоҳлантириш ва аввалдан ҳал қилиш босқичлари фарқланади. **қисман олдини олишга** иҳтилоф сабабларидан бирини тўхтатиш ва қарама—қарши томонларга салбий таъсирини чеклаш билан эришилади. Тўлиқ **олдини олиш** босничи иҳтилофни белгиловчи барча омиллар фаолиятини тўхтатиш ва унинг субъектлари фаолиятини умумий манфаатларни амалга ошириш бўйича

ҳамкорликка йўналтиришдан иборат. **Иҳтилофни аввалдан ҳал қилиш босқичи,** уни эрта огоҳлантириш сингари мавжуд зиддиятдан муҳимроқ масалалар бўйича ижтимоий бирликка эришиш, томонлар нуқтаи назарларини мувофиқлаштиришни англатади.

Ижтимоий иҳтилофларнинг олдини олиш учун иқтисодий, сиёсий, ижтимоий, идеологик, ҳуқуқий манбалар мавжуд бўлиши зарур. Иҳтилофларнинг олдини олиш услуб ва воситалар мажмуи орқали амалга ошади. Улар вазиятни реал баҳолаш, ижтимоий жараёнларда иштирок этаётган барча субъектлар манфаатларини келиштиришга алоҳида эътибор бериш ва бошқалар фикрига сабр—тоқат билан ёндашиш (толерантлик) имкониятларини ҳисобга олган ҳолда самара беради.

Аввал таъкидланганидек, жамоатчилик ҳамма иҳтилофларнинг ҳам олдини олишга интилмайди. Айрим иҳтилофларнинг авж олишидан улар манфаатдордирлар. Конструктив иҳтилофларни рағбатлантириш ижтимоий бошқарувнинг муҳим жиҳатини ташкил этади. Гап низоларни сунъий равишда авж олдириш, жамият барқарорлиги йўқотиш ҳақида кетмаяпти. Иҳтилофларни рағбатлантириш стратегияси — ҳаётий муҳим муаммоларни ҳал қилишда ижтимоий субъектлар фаоллигини ошириш, ижобий ташаббусни ривожлантириш, ижтимоий бошқарув самарадорлигини ошириш стратегиясидир.

Вужудга келган низо жараёнига фаол аралашув турли шаклларда намоён бўлиши мумкин; иҳтилофни тартибга солиш, бостириш ва ниҳоят, ҳал этиш. Иҳтилофни тартибга солиш бошқарув субъектининг уни юмшатиш, заифлаштириш, ёки бошқа томонга буриб юбориш бўйича фаолиятини англатади. Иҳтилофни тартибга солиш масаласи — унинг ижтимоий муносабатларга салбий таъсирини чеклаш ва ижтимоий маъқул ривожланиш ва ечим шаклларига ўтказиш масаласидир. Тартибга солинган иҳтилоф назоратдаги ва демак, олдиндан баҳоланиши мумкин бўлган иҳтилофдир. У ҳар қндай низо жараёнида мавжуд бўлади. Зиддиятни тартибга солишда, шунингдек, иҳтилофни аста секин бошқа йўналиш ёки даражага ўтказиш орқали заифлаштириш ҳам хизмат қилиши мумкин. Масалан, ижтимоий иҳтилофни индивидуал даражага олиб ўтиш билан. Шунингдек томонларни ташқи конфликтга йўналтириш, "умумий душманга" қаратиш орқали кучли ижтимоий иҳтилофни заифлаштириш тактикаси ҳам кенг қўлланади.

Иҳтилофни тартибга солиш туфли технологиялар ёрдамида амалга оширилади: ахборот, коммуникатив, ижтимоий — психологик таъсир, ташкилий усуллар. Мунозарали масалалар буйича ахборот етишмовчилигини йўқотиш, томонларнинг нуқтаи—назарлари ва манфаатлари тўғрисидаги нотўғри маълумотларни ахборот майдонига киритмаслик; субъектлар. фаолияти тўғрисида миш-мишларга йўл қўймаслик — ижтимоий вазиятни бошқаришга доир бу ва бошқа харакатлар зиддиятли муносабатлар даражасини пасайтиришга хизмат қилади.

Иҳтилофларни тартибга солишнинг шартлари:

1. Иҳтилофнинг етилиб қолганлиги

2. Субъектларда иҳтилофни ҳал этишга эҳтиёжи ва бунга

қобилиятнинг борлиги.

3. Иҳтнлофни ҳал этиш учун зарур воситалар ва манбаларнинг мавжудлиги. Булар: моддий, сиёсий, маданий, ниҳоят, инсоний манбаълардир..

Баён қилинган иҳтилоф унинг аъзоларига муайян "ўйин қоидалари"га риоя қилиш ва изчил равишда ҳал этишнинг у ёки бу стратегиясини қўллаш имконини беради. Аммо ҳар қандай қоида ва стратегия уларни амалга ошириш истаги ҳамда зарур воситалар бўлишини тақозо этади. Кўпчилик маиший иҳтилофлар зарур воситалар, ёки истак, ирода қобилият йўқлиги сабабли ҳал бўлмай қолган.

Ҳар қандай иҳтилофни бартараф этиш энг камида уч босқчдан иборат.

• Биринчиси — тайёргарлик босқчи—иҳтилоф ташхисидир.

• Иккинчиси — бартараф технологиялар босқичи.

• Учинчиси — иҳтилофни бартараф этиш бўйича бевосита амалий фаолият босқичи.

Иҳтилоф ташхиси ўз ичига қуйидагиларни олади: а) унинг кўзга кўринииб турган кўринишларини тавсифлаш (зиддият, тўқнашувлар инқирозлар в.б.) иҳтилоф ривожини даражасини аниқлаш; в) иҳтилоф сабаблари ва унинг табиатини аниқлаш (объектив ва субъектив); г) тезлиги ўлчови; д) тарқалиш соҳасини белгилаш. Ташхис элементларидан ҳар бир иҳтилоф асосий ўзгарувчиларнинг кураш мазмуни, қатнашчилари ҳолати, фаолият мақсади ва тактикаси, бўлиши мумкин бўлган оқибатлар-ҳисоби ва баҳоси, уларни объектив тушуниш назарда тутилади. Иҳтилоф ҳолат ва жараён сифатида белгиланади.

Сиёсий амалиётда ва назарияда сиёсий иҳтилофларни олдини олиш, тартибга солиш ва ҳал қилишнинг бир қатор шакл ва услублари ишлаб чиқилган. Уларга компромисс (ўзаро битимга келишиш) ва консенсус ҳам киради.

Умуман, иҳтилофли вазиятларни назорат қилишнинг демократик жараёнларни қуйидаги махсус тадбирларни ўз ичига олади:

• иҳтилофларда иштирок этувчи томонларнинг манфаатлари, мақсадлари ва навбатдаги қадамлари тўғрисида ўзаро ва тезкор ахборот алмашуви;

иҳтилофли вазиятни бошқармайдиган ҳолатга олиб келиши мумкин бўлган ҳар қандай куч ишлатишдан томонларнинг онгли ва ўзаро тийилиши;

• иҳтилофни кескинлаштирадиган харакатларга ўзаро тадқиқ эълон қилиниши;

• ҳолислиги кафолатланган ҳакамларнинг жалб қилиниши ва уларнинг тавсияларини компромисс фаолиятини асоси сифатида қабул қилиниши;

• иҳтилофли томонларнинг яқинлашувига хизмат қилувчи мавжуд ҳуқуқий қоидалари, маъмурий ва бошқа тадбирларнинг қўллаиши ёки янгиларни қабул қилиниши;

• мавжуд иҳтилофни,бартараф этиш, ва шунга ўхшаш вазиятларни келажакда олдини олиш шароити сифатида иш юзасидан ҳамкорлик муҳитини, кейинчалик эса ишончга асосланган муносабатларни шакллантириш ва қўллаб-қувватлаш.

Юқорида айтилганидек, иҳтилофда иштирок қилаётган томонларни яраштириш, тўла ёки қисман бартараф қилиш табиатига эга (яъни, мунозарали муносабатлар асоси сақланган ҳолда иҳтилофдаги томонлардан бири ёки бир неча томонни ўз ҳаракатларини ўзгартириши) ёки иҳтилофнинг ҳал қилиниши (томонларнинг бундай муносабати негизини йўқ қилувчи). Шуни ҳам ҳисобга олиш керакки, иҳтилоф ўз — ўзидан, уни онгли равишда ҳал қилишга уринишларсиз бартараф этилиши мумкин. (Масалан, баҳс мавзуси долзарблигини йўқотиши, сиёсий субъектлар чарчаганлиги, манбалар тугаши ва ҳ.к.).

Шундай қилиб, иҳтилофларни бартараф этиш учун бошқарув субъекти томонидан танланган воситалар албатта мамлакатлар (минтақа, субъект) нинг маданий — тарихий, цивилизацион хусусиятларига мос келиши, баҳс кечишининг вақт шароитларини ҳисобга олиши зарур.

Бугунги кунда иҳтилофларни бошқариш технологияларида томонларнинг келиштиришнниг энг кенг тарқалган воситаси — музокаралардир.

Баҳсталаб муаммоларнинг тинчлик йўли билан, ҳеч қандай қон тўкишларсиз ҳал қилишнинг бугунги кундаги бирдан бир ва синалган йўли музокаралар олиб боришдир.

Музокаралар жараёни ҳақида билимларга, шунингдек, музокаралар олиб боришнинг тактикаси ҳақида тасаввурларга эга бўлишлик ҳар бир сиёсатчи, дипломат ва ҳарбий шахс учун зарурдир. Улар, ўз фаолиятлари давомида, ишлаб чиқилган, синалган методик тавсияларга суянган ҳолда юзага келган ҳар бир ўзига хос ҳолатга нисбатан ўз билимларини қўллай олиш малакасига эга бўлишлари лозим. Музокаралар ён босишларни тенглаштириш, муқо бил вазиятларни ҳотиржам кўриб чиқиш, қарашларнинг очиқлигини намойиш этиш, рақибнинг кинғир ишлари самарадорлигини бўшаштириш имконини беради. Айнан шу шароитда ўзаро даъволар моҳиятини очиб берувчи иҳтилофнинг ўрта келишув нуқтасини топиш осон бўлади.

***Siyosiy muzokaralar, murosa-madora – turli ixtiloflarni boshqarishning bosh yo`li.*** Konfliktlarni boshqarish texnologiyalarida tinchlikka erishishning muhim vositasi muzokaralar hisoblanadi. Muzokaralar chog'ida tomonlar mojaroning keskinligini tushirishga, raqib argumentlarini, kuchlar mutanosibligini to`liq tushunishga harakat qiladilar, tinchlik shartlarini anglash borasida fikr almashadilar. Muzokaralar yon bosishlarni tenglashtirish, muqobil vaziyatlarni bafurja qarab chiqishlari, pozitsiyalarni ochiq namoyon etish, dushman imkoniyatlari samaradorligini pasaytiradi. Aynan mana shu vaziyatda o`zaro e'tiroz mohiyatini anglatuvchi mojaroning o`rta nuqtasini topish oson kechadi.

Muzokaralar jarayoni boshlang'ich pozitsiyani saqlab qolish, bir tomonlama ustunlikni qo`lga kiritish, raqiblarning o`zaro tushunishlariga erishish, tomonlarning o`zaro manfaatlarini qoniqtirish imkoniyatlarini beruvchi o`ziga xos uslublardan foydalanuvchi «savdolashish» maxsus texnologiyasiga asoslanadi.

Amerikalik mojaroshunoslar ***M. Deych va S. Shikman***, agar *mavjud muammolarni munozaralarda ishtirok etuvchi kishilarning sub'ektiv manfaatdorligidan asta-sekin uzoqlashtirilsa; e'tibor yondoshuvlarga emas, balki*

real qarama-qarshiliklarga qaratilsa; qarorlarning bir necha variantlari ishlab chiqilsa; kuchlar mutanosibligida partiyaviylik yoki mafkuraviylik emas, balki real ustunliklar inobatga olinsa muzokaralarning samaradorligi, shu bilan birga tomonlar manfaatlarining qoniqtirilishi mumkin deb hisoblaydilar[75]. Yon bosishlarga va'da berish, qarama-qarshi tomonga e'tibor berish bir to`xtamga kelish imkoniyatini kuchaytiradi. Tahdid, kuch jihatdan raqibga bosim qilish esa bunday imkoniyatni pasaytiradi, muzokaralar jarayonini «muzlatib» qo`yadi.

Mojaro tugaganidan so`ng kishilar muzokaralarni «obro`sizlantirish evaziga erishilgan» natijalar sifatida baholamasliklari uchun tegishlicha baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa qabul qilingan qarorlar samaradorligi oshishiga olib keladi.

Siyosiy inqiroz: mohiyati, manbai va belgilari.

Siyosiy inqirozning ko`rinishlari: monandlik, legitimlik, ishtirok, taqsimlash inqirozlari.

Hozirgi zamondagi siyosiy inqirozlar va ularni hal etish yo`llari.

Tayanch tushunchalar:

Axborot: Ommaviy vositalari, so`z va matbuot erkinligi, «to`rtinchi hokimiyat», xolis axborot, axborotning jamiyat hayotiga ta'siri, axborot va demokratiya. Axborotlashgan jamiyat.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1.Axborotni siyosiy hayot va rejim bilan bog'liqligini tahlil eting.

2. Axborotlashgan jamiyat deganda nimani tushunasiz?

3. Demokratik jamiyatda axborot rolining oshib borishiga e'tibor berilishining sabablarini aniqlang.

4. O`zbekistonda OAB va uning imkoniyatlari to`g'risida o`z fikr va mulohazalaringizni bildiring.

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.; O`zbekiston, 1992.
2. Karimov I. A. O`zbekiston XXI asr bo`sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot. T.; O`zbekiston, 1998.
3. Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T.; O`zbekiston.; 1999.
4. Karimov I. A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.; O`zbekiston, 1999.
5. Karimov I. A «Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz». T.; O`zbekiston 2000.
6. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.; O`zbekiston, 2000.
7. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.; O`zbekiston 2000.
8. Azizxo`jaev A. A. Davlatchilik va ma'naviyat. T.; Sharq, 1997.

[75] Ddeutch M., Shicman S. Conflict in Social Psychological Perspective//Political Psychology: Contemporary Problems and Issues. San Francisco, 1986. – 241-243 pp.

9. Azizxo`jaev A. A. Demokratiya xalq hokimiyati demakdir. T.; 1996.
10. Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi. Akademiya, 2000.
11. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 2001y.
12. Karimov I. A. O`zbekiston demokratik o`zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo`nalishlari. «O`zbekiston ovozi» 31 avgust'. 2002y.
13. www.google.ru.

7-mavzu Siyosiy madaniyat, siyosiy mafkuralar. Siyosiy modernizatsiya

Reja:

1. Siyosiy madaniyatning mazmun va mohiyati.
2. Siyosiy mafkuralar va ularning turlari.
3. Siyosiy modernizatsiya.(zamonaviylashuv)

1. Siyosiy madaniyatning mazmun va mohiyati.

"Siyosiy madaniyat" tushunchasi, mohiyati va mazmuni. Mustaqil davlat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan omillaridan biri siyosiy madaniyat. Siyosiy madaniyat insonning umum bilim darajasi, dunyoqarashi, axloq-odobi bilan uzviy bog'liqdir. Siyosiy madaniyat o'z xolicha jamiyatdan tashqarida, yoki umummadaniyatdan uzilgan holda bo'la olmaydi. Siyosiy madaniyat, bu odamlar va jamoalar, sinflar va siyosiy firqalarning aniq maqsadga ongli intilish, maqsad va mohiyatini chuqur tushunishi, ehtirosga berilmay istiqlol yo'lidan borishni ta'minlovchi muhim omildir. Siyosiy madaniyat jamiyat, davlat va odamlar o'rtasidagi odob-axloq, qadriyatlar va qoidalar asosidagi munosabatlar ko'rinishi hamdir. Bunda davlat siyosatini bilish, qonunchilik asosida o'z munosabati siyosiy madaniyatning holati va darajasi ko'p narsalarga bog'liq: aholi ishlab chiqilgan siyosiy yo'lni qanday qabul qiladi, uni ixtiyoriy ravishda qabul qiladimi yoki majbur etish orqali qabul qiladimi, uning orzu-umidlarini aks ettiradimi yoki unga nimaga, kimga taqlidada munosabatda bo'ladimi, yoki to'la befarqlik va darajasining etukligi va xarakterini hisobga olish aholining siyosiy-boshqaruv qarorlariga munosabatni bilib olishga va so'ng esa shu qarorlarni amalga oshirish uchun choralar topishga imkon beradi.

Siyosiy madaniyat haqida gapirganda, birinchi navbatda, siyosiy ongning darajasi, siyosiy mafkuraning mohiyati, siyosiy ruhiyatning sifat mazmuni hamda siyosiy xulq-atvorning murakkab tarkibini teran ravishda tahlil qilish kerak bo'ladi, Chunki ular o'rtasidagi dialektik birlik siyosiy madaniyat amaliyotining mushtarak qonuniyati mazmunini tashkil etadi.

Siyosiy madaniyat ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik vujudga kelib, sinfiy jamiyat tashkil topganda keyin shakllana boshlaydi va amal qiladi. Lekin u to'la tan olinmagan holda, ob'ektiv zaruriyat sifatida amal qilar edi, Chunki uning tub tabiatini inson va insoniyat umumiy madaniyati iqtisodiyotdan, siyosiy jarayonlardan, ijtimoiy munosabatlardan, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlardan ajratib anglab bo'lmaydi.

Siyosiy madaniyat termini ancha keyin paydo bo'ldi. Uni ilmiy muammalaga

XVIII asrda nemis faylasufi ***I.Gerder*** olib kirgan degan qarashlar mavjud. Hozirgi zamon politologiyasida ***"Siyosiy madaniyat"*** tushunchasi amerikalik nazariyotchi ***H.Fayer*** o'zining 1956 yilda yozgan "***Yevropaning buyuk davlatlari boshqaruv tizimi"*** kitobida tilga oladi. Keyinchalik ***G.Almond va S.Verba*** besh mamlakat – AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Meksika va Italiya siyosiy jarayonlarini tahlil qilib o'zlarining ***"Fuqarolik madaniyati"*** (1963) qitobini yozadilar.

"Siyosiy madaniyat" tushunchasini talqin qilishda turlicha yondashuvlar mavjud unga 30 dan ortiq ta'rif berilganligi, uning murakkab va etarli darajada o'rganilmaganligidan dalolat beradi.

Siyosiy madaniyat moddiy va ma'naviy madaniyatlar bilan bir qatorda o'ziga xos mustaqil madaniyat turidir. Uning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, o'zining faoliyat sohasining alohidaligi (siyosiy sohasi, siyosiy hokimiyatning amal qilishi) va ushbu madaniyat sohasini xarakterlovchi elementlarning o'ziga xosligi bilan belgilanadi. (Siyosiy tasavvur va qadriyatlar, siyosiy ko'rsatma va xulq-atvor). Siyosiy madaniyatni jamiyat siyosiy hayoti bilan chambarchas bog'liqligini hisobga olish uning o'ziga xos xarakterini va chegarasini aniqlashga yordam berali, bu o'ziga xoslikni to'g'ri baholamaslik esa siyosiy madaniyat mazmunini siyqalashtiradi.

Siyosiy madaniyat qachon paydo bo'lgan? U jamiyat siyosiy hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Siyosiy madaniyat sotsial voqelik sifatida sinflar va davlatning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Ammo siyosiy hayot madaniyati sinflarning yuzaga kelishidan avval Qadimgi Sharqda, Qadimgi Gretsiya va Rimda shakllangan. O'sha vaqtdayoq mutafakkirlar etuk siyosiy ijtimoiy tuzumning xulq-atvor, siyosiy hayotni boshqarish san'ati bilimlarni paydo bo'lishi va ulardan jamiyat hayoti amaliyotida foydalanishga siyosiy madaniyatni yuzaga kelganligi sifatida qarash kerak. Aflotun, Arastularning ozodlik, davlat va huquq haqidagi ajoyib fikrlari hozir ham dolzarb hisoblanadi. Siyosiy madaniyatning vujudga kelish jarayoni tarixini ochib berishda O'rta Osiyo mutafakkirlari ***Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiylar***ning insonparvarlik, erkin fikr va ozod nafas olish, tinchlik va osoyishtalik, ilm va adolat, aqlli, irodali va fanni sevuvchi bo'lishi kabi qarashlari qimmatlidir. Burjua revolyutsiyalari davri siyosiy ta'limoti sifatida ***V.Makiavelli, I.Monteske, J.Russolar***ning hokimiyatni taqsimlash nazariyasi, demokratik revolyutsiya, fuqarolik jamiyati va davlat haqidagi g'oyalari ham taqsinga loyiq.

Har qanday jamiyatning siyosiy hayotini anglash, uning siyosiy madaniyatini har taraflama o'rganish orqaligina erishiladi. Faqat shu orqaligina siyosiy tizimning manbai, xarakteri va o'ziga xos xususiyatlarini, jamiyatda hukmronlik qilayotgan siyosiy tartibot, ijtimoiy guruhlarning xatti-harakati va siyosiy ongi, siyosiy jarayonlarning yo'nalishi va harakati haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Siyosiy madaniyat odamlarning xulq-atvoriga va turli tashkilotlarning faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi, ularning ichki va tashqi xodisalarni idrok etish, siyosiy tizim va tartibotlarga, hukmron guruh va alohida siyosiy rahbarlar faoliyatiga, shaxsning jamiyat siyosiy hayotida tutgan o'rniga baho berishda asosiy mezon

hisoblanadi. U siyosiy yo'lni ishlab chiqish, aniq siyosiy-boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ro'yobga chiqarish uchun keng istiqbol yo'llarini ochib beradi.

Siyosiy madaniyatning hozirgi vaqtda ilmiy muomalada mavjud bo'lgan quyidagi talqinlarini keltirib o'tish mumkin:

1. Siyosiy madaniyat bu – o'ziga siyosiy ma'rifatni, siyosiy ongliligini hamda ijtimoiy-siyosiy faoliyatni ham qamrab olgan shaxs va ijtimoiy birlikning madaniyatidir.
2. Siyosiy madaniyat bu – o'z ichiga ijtimoiy-siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlar bilan bevosita aloqador bo'lgan elementlarni qamrab olgan jamiyat ma'naviy madaniyatining bir qismidir.
3. Siyosiy madaniyat – konkret ijtimoiy birlik yoki shaxsga tegishli bo'lgan siyosiy ong va siyosiy xulq-atvor yig'indisidir.
4. Siyosiy madaniyat – tarixan qaror topgan siyosiy munosabatlar tizimida ijtimoiy sub'ektning o'z siyosiy bilimlari, qadriyatlaridan kelib chiqqan holda mo'ljallangan niyatlarni, hamda o'ziga xos siyosiy xulq-atvorini namoyon qilishi, amalga oshirishidir.

Siyosiy madaniyatning yuqorida keltirilgan umumiy talqinlaridan kelib chiqib unga quyidagi ta'rifni berish mumkin:

Siyosiy madaniyat bu – siyosiy hokimiyat va siyosiy hayotga bo'lgan munosabat, uni idrok etishdagi siyosiy tafakkur va siyosiy faoliyat madaniyatidir. SHuningdek, siyosiy institutlarning xarakteri va faoliyat tartibining hamda jamiyat siyosiy hayoti barcha jabhalarining barkamol holatidir.

Ammo ushbu ta'rif siyosiy madaniyat mazmunini to'laligicha ochib berolmaydi. Buning uchun uning asosiy tarkibiy qasmlarini (komponentlarini) kiritish kerak.

Siyosiy madaniyatning darajalari va tarkibiy elementlari.

Siyosiy madaniyatning tarkibiy qismlariga siyosiy ong, siyosiy qadriyatlar, siyosiy ko`rsatma, siyosiy xulq-atvor, siyosiy belgilar, ramzlarni kiritish mumkin.

Siyosiy madaniyat elementlari:

Siyosiy xissiyot, ko`nikmalar, bilimlar, qarashlarning mazmuni, xarakteri, sistemasi va darajasini ko`rinadi.

1. Siyosiy xulq - atvor va fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy xayotida qatnashuvida bilinadi.
2. Siyosiy an'analar. Odatlar, normalar, siyosiy xayotning bir xil tipi va ko`rsatmalarida mavjud bo`ladi.
3. Siyosiy munosabatlar, siyosiy xayotning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.



Siyosiy ong: a) mafkuraviy, g’oyaviy qismlari; b) ruhiy qismlaridan iboratdir.

Siyosiy madaniyatning tarkibiy qismi bo’lib, siyosiy ong elementi, avvalo, jamiyatda hukmron bo’lgan, yoki birorta, ijtimoiy guruhga xos bo’lgan jamiyat siyosiy hayotining turli jihatlariga singib ketgan qarashlar hisoblanadi. Bular siyosiy tizim va uning alohida institutlari: siyosiy tartibot, hokimiyat mehanizmi va boshqaruv, qarorlarni qabul qilish va ularni amalga oshirish, hokimiyatning vakolatli egasi, siyosiy hayotda qatnashuvning samaradorligi va bilimdonligi.

Siyosiy ong siyosiy madaniyatga tasavvurlar asosida kiritilganligini nazarda tutmoq kerak.

Siyosiy ko’rsatma: Siyosiy ko’rsatma bu sub’ektning siyosiy voqelikka munosabati. Bu siyosiy bilimni qabul qilish yoki qilmaslik, siyosiy faoliyatning turli jihatlariga bo’lgan munosabat.

Siyosiy qadriyatlar. a) milliy-madaniy qadriyatlari; b) tarixiy xotirasi va an’analari; v) Milliy davlatchilikni amalga oshirish; o’z milliy qadriyatlaridan kelib chiqib siyosiy mo’ljalari.

Siyosiy qadriyatning mazmuni va yo’nalganligi siyosiy voqelikning shaxs, guruh, jamiyat qadriyatlari tuzilmasidagi o’rni bilan bog’liq.

Ko’pchilik chet el tadqiqotchilari amerikaliklarning siyosatga: siyosiy faoliyatga qiziqishlari past darajada siyosiy hayotga sust munosabatda ekanliklarini ta’kidlaydilar. Ularning ko’pchiligi o’zlarining fuqarolik faolliklarini saylovlarda qatnashish bilangina cheklaydilar. AQShning ikkita yirik firqasi: demokratlar va respublikachilar fuqarolardan a’zolik ba’dali evaziga hech narsa olishga qodir emaslar: majlislarda qatnashish, a’zolik ba’dalini to’lash yoki o’ziga xos vazifani bajarishni talab eta olmaydilar. Shu tufayli partiya tashkilotlarining xalq ommasini o’z tomoniga og’dirib olish sohadagi qilgan harakatlari ko’pincha natijasiz yakunlanadi.

Bu holat G’arbiy Yevropa mamlakatlarida ko’plab kuzatiladi. Kuzatishlarga qaraganda faqat 10 foiz Gollandiyaliklar va 25 foiz Avstiyaliliklar siyosat bilan qiziqishlarini aytganlar.

Siyosiy xulq-atvor: a) Siyosiy vaziyat; jarayondagi xatti-harakat, faoliyat yo’nalishi, b) ijtimoiy-siyosiy faoliyat uslubining namunalari, turlari xususiyatlari.

Namunali xulq-atvorni shakllantirishda siyosiy an’analar katta rol o’ynaydi.

An’analarda jamiyat maqsadlari va manfaatlariga javob beradigan, uni asosiy yo’l-yo’riq sifatida e’tirof etib, mustahkamlaydigan o’tmish siyosiy tajribalari jamlangan.

Jamiyat siyosiy madaniyatning ko’zgusi bo’lib jamiyat siyosiy –madaniy taraqqiyotining yakuni bo’lgan siyosiy tizimning tashkilot tuzilmasi, siyosiy tartiboti hisoblanadi. Ular jamiyat siyosiy etukligining ko’rsatkichidir.

Xullas, siyosiy tasavvur, qimmatdorlik, yo’l-yo’riq va xulq-atvor bir butun holda siyosiy madaniyat mazmunini ochib beradi.

Siyosiy madaniyatning o’ziga xos elementi bo’lib ***siyosiy belgilar, ramzlar (simvol)*** hisoblanib, ular o’zida jo’shqilikni aks ettirgan bo’lib, keskin jalb etish xususiyatiga ega. Masalan, natsistlar boshlig’i Gitler o’z maqsadlarini ro’yobga chiqarish uchun siyosiy belgilardan ustalik bilan foydalangan. Angliya siyosiy belgilaridan biri (siyosiy madaniyati belgilaridan) bu monarhiyadir. U Britaniya fuqarolarining birligi, vatanparvarlik hissiyotlarini o’zida aks ettiruvchi, xalqni birlashtirish manbai deb hisoblanadi.

Siyosiy madaniyat turlari. Yuqorida ta’kidlab o’tkanimizdek, siyosiy madaniyat hamma vaqt ham barcha jamiyatlarda bitta mazmunda, bir tur yoki ko’rinishda amal qilmaydi. Uning hilma-xilligi va turli ko’rinishda namoyon bo’lishi xususiyatlari siyosatshunos olimlar ***Almond va S.Verba “Fuqarolar madaniyati”*** kitobida siyosiy madaniyatning uch o’rnini ajratib ko’rsatganlar. Ularning ta’kidlashlaricha siyosiy madaniyatning **ibtidoiy, fuqarolik va faollik turlari mavjud** bo’lib ular ommaviy, guruhiy, alohida yakka ko’rinishlar va shakllarda namoyon bo’ladilar.

Yopiq va ochiq, patriarxal, fuqarolik va faol siyosiy madaniyat. Siyosiy madaniyatning **ibtidoiy** (boshlang’ich) turi ibtidoiy jamoadan quldorlik tuzumiga o’tish davrida shakllangan bo’lib tarixiy vorislik aqidalari sifatida hozirgi madaniyat tarkibida ham o’rin egallaydi, Chunki inson maqsad-manfaatlarining umumiyligi, tabiat kuchlari oldida uning ojizligi hali ham ma’lum darajada saqlanib qolayotganligi o’sha davrda ob’ektiv zaruriyat sifatida vujudga kelgan birgalikda mehnat qilish, birgalikda himoyalash va sig’inish o’z ifodasini topgan.

Patriarxal (an’anaviy) siyosiy madaniyat u aholining siyosiy tizimdan uzilganligi, ixtisoslashgan siyosiy rollar mavjud emasligi, dohiylar ham ijtimoiy, ham siyosiy, ham diniy vazifalarni bajarishi, aholining manfaatli yo’nalishlarida tabaqalashtirilmasligi, hududiy va ijtimoiy-madaniy ayniylashtirishning ustunligi bilan tasniflanadi.

Siyosiy madaniyatning ***fuqarolik turi*** uning eng ommaviy, keng tarqalgan, har bir ijtimoiy-siyosiy tuzum doirasida amal qiladigan asosiy turi bo’lib rasmiy siyosiy munosabatlar jarayonini qamrab olgan.

Fuqaro siyosiy madaniyati umumjamiyat va umuminsoniy siyosiy madaniyatning tarkibiy qismidir, lekin ayni vaqtda u o’ziga xos xususiyatlarga ham ega bo’ladi. Bu xususiyatlar shaxsning fuqarolik ruhiyasi, burchi, huquqlari, maqsad-manfaatlari bilan chirmashib ketadi.

G.Almond va S.Verba siyosiy madaniyat faollik turining birinchi navbatdagi sub’ektlari sifatida siyosiy hokimiyat egalari bo’lgan kishilar, ulardan keyin esa jamiyat siyosiy sistemasi tarkibiga kiradigan barcha siyosiy partiyalar, ijtimoiy-

jamoat tashkilotlari, demokratik harakatlar boshliqlari, siyosiy elitalar, liderlarni ta’riflaydilar.

Faol siyosiy madaniyatning tub mohiyati jamiyat istiqbolini oldindan ko’ra bilish, uni ilmiy metodologik tahlil qila bilishdir. Kelajak siyosiy hayot yo’nalishlarini o’tmishdagi siyosiy munosabatlar tarixiy tajribasi va saboqlarini oqilona xisobga olgan holda, sodir bo’layotgan siyosiy jarayonlar oqimini ob’ektiv va chuqur ilmiy-nazariy tahlil qilish asosida rivojlantirish bilan birga istiqbol maqsadlarini aniq ifodalash yuksak darajada amal qiladigan siyosiy madaniyatning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Tabaolik siyosiy madaniyati passiv siyosiy xulq-atvor, hukmron qadriyatlarga tayanish, siyosiy tizimga tegishli boqimandalikga xosdir.

Ishtirokchilik siyosiy madaniyati. Unga individlarning siyosiy hayotda faol ishtirok etishi, siyosiy savodxonlik, funktsional tabaqalashganlikga xosdir.

Siyosiy submadaniyatlar: hududiy, guruhiy, etnik va boshqalar. Siyosiy madaniyat turli ko’lamda va teranlikda, xilma-xil tabiatga mansub holda namoyon bo’lish xususiyatga ega. Uning shaxs, ijtimoiy guruh yoki omma siyosiy madaniyatlari doirasida amal qilish shakllari ma’lum bo’lib, ular o’z nisbiy mustaqilligiga ega.

Siyosiy madaniyatning alohida, ***yakka tarzda*** namoyon bo’lish jarayoni u yoki bu jamiyatda muayyan siyosiy maqom va mavqega ega bo’lgan ayrim shaxslar faoliyatlarida o’z ifodasini topadi. Har bir shaxs o’zining qaysi siyosiy partiya safiga kirib qanday tarzda qatnashishini o’zi belgilaydi.

Guruhiy siyosiy madaniyat muayyan bir ijtimoiy guruh tub maqsad-manfaatlari, talab-ihtiyojlarining aniq ifodasi sifatida namoyon bo’ladi va amal qiladi.

Guruh siyosiy madaniyati siyosiy partiyalar va ijtimoiy jamoat tashkilotlari harakat dasturlari hamda nizomlari vositasida muayyan bir maqsad tomon yo’naltiriladi va boshqariladi.

Siyosiy madaniyatning ***ommaviy shakli*** guruhiy siyosiy madaniyatning namoyon bo’lishiga nisbatan kamroq, oldindan rejalashtirmagan holda, jamiyat siyosiy hayotning keskin pallalarida namoyon bo’ladi va amal qiladi. Siyosiy hokimiyat yoki uning siyosiy faoliyat yo’nalishlari keskin o’zgargan paytlarda, masalan, narx-navo oshirilishi munosabati bilan xalq chiqishlari mana shu shakldagi ommaviy siyosiy madaniyat amal qilishga olib keladi.

G’arb va Sharq siyosiy madaniyatlarining asosiy xususiyatlari. Har bir siyosiy madaniyatda o’zgacha o’ziga xos qiyofa bergan u yoki bu xususiyatlar va tasniflar yig’indisini ajratish mumkin. Siyosiy madaniyatda milliy, mintaqaviy, diniy, etnik va boshqa o’ziga xosliklar bor. Biroq barchasi uchun umumiy bo’lgan belgilar ham bor. Madaniyatning universal muhim unsurlari va umum dunyoqarashlik yo’nalishlariga asoslanib, siyosiy madaniyatning asosiy modellarini ajratish mumkin.

Milliy madaniyat, ijtimoiy-tarixiy, geografik, diniy va boshqa unsurlar siyosiy madaniyatning mutanosib modelini ajratish zarurligini taqazo qiladi.

Siyosiy madaniyatning quyidagi modellari mavjud:

- Totalitar-avtoritar modeli.
- Liberal-demokratik modeli.
- Sharqxona siyosiy madaniyat modeli.

Totalitar-avtoritar modelga asoslangan mamlakatlarda o'z mafkurasi va g'oyalarini xalqqa majburan singdirish, boshqacha fikrlashga nisbatan umumiy murosasizlik, ihtiyoriy birlashmalarning yo'qligi, mojarolarni hal qilishda kuchga tayanish, kuchli davlat hokimiyatiga sig'inish, ichki va tashki dushmanlarni izlash va ularga xalq nafratini ko'zg'atish ushbu modelga xos xususiyatdir.

Liberal-demokratik modelga xos jihatlar: Plyurolistik qarashlarning mavjudligi, siyosiy nizolarning tinch yo'l bilan hal qilinishi, mavjud siyosiy tizimini tan olinishi, xalqning davlatni boshqarishdagi keng ishtiroki kabilardir..

Sharqona siyosiy madaniyat modeliga tegishli xususiyat: qanday? Jamiyat tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, insoniyatning ilk o'tmishi, birinchi moddiy va ma'naviy madaniyat maskanlari Sharqda shakllangan va insoniyatning keyingi taraqqiyoti uchun zamin tayyorlab bergan.

Sharq xalqlarining bosiqligi, har qanday keskin vaziyatda ham masala va muammolarni tinchlik, muboxasa, muzokara, munozara yo'li bilan hal qilish, borini avaylab asrash, yo'g'ini esa yaratish, hayotning negizi va zamini izchil kundalik mehnat ekanligini tan olish va unga rioya qilish, avlodlarning o'zaro chambarchas bog'liqligini ko'zda tutib, ota-ona hamda farzandlarga alohida mehribonlik bildirish, hayotning o'tkinchi ekanligini bilib mol-dunyo eg'ish, yoki shon-shuxratga, yuksak lavozimlarga erishgan bilan inson zoti osmonga ustun bo'lolmaydi deb hamma vaqt o'zini tiya bilish, bundan o'ziga xos xislat va xususiyatlar Sharq va sharqxonalikni ifodalashga yordam beradi.

Sharq birinchi bo'lib inson qanchalik sabr-toqatli, irodali, o'tkir zexnli, jismonan baquvvat va ruxan egilmas bo'lishini insoniyatga namoyon etdi.

Prezident I.Karimov ***"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch***" – asarlarida ta'kidlaganlaridek, - *"qaerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch-osoyishta hayot kechirishi, o'z oldiga ezgu va buyuk maqsadlar qo'yib yashashi uchun etarli shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, o'sha erda erkin fikrlash muhiti va shu asosda ma'naviy yuksalish uchun yangi imkoniyatlar tug'iladi"*.[76]

Yangi tarix davridan boshlab, ya'ni XVI asrdan G'arb mamlakatlari va xalqlari insoniyatning oldi qatoriga chiqa boshladilar. Lekin G'arb Sharqning tajribasi zaminiga suyanib qoloqlik va qashshoqlik olamidan qutilib chiqa oldi. Ana shu sababli Sharq G'arbning diqqatini o'ziga jalb etgan.

Ana shu aytib o'tilgan xususiyatlar sharqxona siyosiy madaniyat modelining asosini tashkil etadi.

Siyosiy madaniyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy o`zgarishlarni amalga oshirishdagi roli. Siyosiy madaniyat jamiyat siyosiy hayotida muhim funktsiyani bajaradi. **Sinfiy va milliy manfaatlarni ro'yobga chiqarishni siyosiy jihatdan ta'minlash belgilovchi funktsiya** hisoblanadi.

Bu funktsiyaning mazmuni turlicha ma'noga ega. Uning mazmuni ijtimoiy-siyosiy formatsiyaning rivojlanishi, jamiyat taraqqiyoti darajasiga qarab o'zgaradi.

[76] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat". 2008, 28-29 b.

Uni amalga oshirish formalari ham turlichadir.

Ikkinchidan, **siyosiy madaniyat sinflar: ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, milliy va milliy tuzilmalar manfaatlari yo'lida siyosiy munosabatlarni qayta o'zgartirish va o'zlashtirish funktsiyasi**. Bu funktsiyani amalda tadbiq etish bilimlarini ijodiy qo'llash, jamiyat siyosiy hayotini, siyosiy firqalar, davlat hokimiyati organlari va bog'liq. Hozirgi kun vaziyatidan kelib chiqib, siyosiy madaniyatga ob'ektiv ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini inkor etgan sub'ektiv valyuntarizm qanchalik ziyon etkazganligini ko'rish mumkin. Mustaqillikni ko'lga kiritgandan keyin respublikada katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Siyosiy tizim hokimiyatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, demokratiyalash, yangi huquqiy davlatni tuzishdagi xatti-harakatlar, siyosiy madaniyatni boyitadi.

Uchinchidan – **siyosiy madaniyatni normativ tartibga soluvchi funktsiya**, bunday funktsiya barqaror siyosiy tizim, siyosiy tashkilotlar bo'lishini ta'minlaydi. U bevosita siyosiy normalar, oliy maqsadlar yordamida amalga oshiriladi. Siyosiy madaniyat jamiyatda barqarorlikni qaror topishiga ko'maklashadi.

To'rtinchidan – **tarbiyaviy funktsiya**. Bu funktsiya siyosiy madaniyatda markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Yuksak maqsadlar, qadriyatlar, normalar asosida shaxs siyosiy madaniyatini shakllantirish uning mohiyatini tashkil etadi. Bizning jamiyatimizda bu funktsiya insonparvar, demokratik jamiyatga xos bo'lgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan. U siyosiy faollikni, fuqarolik mas'uliyatini tarbiyalaydi, ijtimoiy-siyosiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantiradi.

Beshinchidan – **aloqa funktsiyasi**. Siyosiy madaniyat fuqaroning siyosiy tizim va boshqa jamiyat a'zolari bilan aloqasi formasi sifatida namoyon bo'ladi. Siyosiy madaniyat fuqaroning g'oyaviy-siyosiy aloqasini ta'minlashga qaratilgan va turli avlodlar siyosiy tajribalarining davomiyligi, jamiyat barcha a'zolarining jamiyatni anglash vazifalarini amalga oshirishda birgalikdagi hamkorligi masalalarini nazarda tutadi.

Bu funtsiyani amalga oshirishning muhim vositasi bo'lib, ta'lim, tarbiya tizimi, ommaviy-axborot vositalari, madaniy-oqartuv muassasalari, adabiyot va san'at hisoblanadi. Bu funktsiyani rivojlantirishning shart-sharoiti – oshkoralikdir. Oshkoraliksiz demokratiya, ommaning siyosiy ijodkorligi, ularning boshqaruvda ishtirok etish haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Va nihoyat oltinchidan **siyosiy madaniyat oldindan aytib berishlik funktsiyasi**ni bajaradi. Ma'lum tarixiy tajriba, sinflar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, millatlar, umuman jamiyat siyosiy hayoti haqida ma'lum bilimlarga ega bo'lish aniq. Ijtimoiy-siyosiy sharoitda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni oldindan aytib berish uchun imkoniyat beradi.

Jamiyat siyosiy madaniyati va shaxsning siyosiy madaniyati tushunchalari mavjud. Bular qanday tushunchalar? – Jamiyat siyosiy madaniyati turmush madaniyati, jamiyat hamma tuzilmalarining hayotiy faoliyatining ko'zgusi bo'lib, ijtimoiy rivojlanish sub'ektida hamma siyosiy madaniyatlarni umumlashmasi hisoblanadi. U o'tmishdagi barcha progressiv, shuningdek, inqirozli xodisalarni ham, aytaylik, buyuk davlatchilik, millatchilik, boy-feodallarcha ruhiyat, hokimiyatga sig'inish kabilarni meros qilib olishi mumkin. Bunga sobiq ittifoq tarixidan ko'p misollar keltirish mumkin. Shaxsning siyosiy madaniyati jamiyat

jami tuzilmasining yoki ijtimoiy hayotning ta’siri ostida shakllanadi.

Shaxsning siyosiy madaniyati siyosiy ong, shuningdek, an’analar, printsiplar, siyosiy faoliyat zaminida, shaxsiy va fuqarolik xatti-harakatida, sinflar, sotsial qatlam va guruhlar, millatlar va milliy tuzilmalar darajasida namoyon bo’ladi. G’oyalar qanchalik anglab etilgan bo’lsa, shunchalar e’tiqodning o’zi mustahkam bo’ladi. Jamiyat hayotining hamma sohalarini tubdan yangilash xalqning katta siyosiy faolligini, yuqori siyosiy madaniyatni namoyish etadi.

“Siyosiy ong” tushunchasi va uning shakllanish jarayoni. Siyosiy ong – ijtimoiy ongning asosiy formalaridan biridir. U davlat va jamiyat siyosiy tashkilotining paydo bo’lish bilan yuzaga keladi. Qadimgi grek mutafakkirlari Platon va Aristotel jamiyat uchun davlat tuzilmalari hamda xulq atvor tizimi siyosiy makonda zarur ekanligini ta’kidlaganlar.

Siyosiy ong – bu ijtimoiy ong sohasi bo’lib, u sotsial xissiyot, tasavvurlar, qarashlarning yig’indisini, aniq siyosiy munosabatlarni, shuningdek, uning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Siyosiy ongning mazmuni siyosiy faoliyat shaklida namoyon bo’ladi, u siyosiy tuzilma bilan chatishgan holda, uning amal qilishining tarkibiy qismini ifodalaydi.

Siyosiy ongning mazmuni amal qilayotgan siyosiy munosabatlar va hokimiyat, shuningdek, siyosiy voqelikdagi xissiy va abetrakt tasavvurlar yig’indisidir.

Siyosiy ongning muhim jihati – uning aniq tarixiy xarakterga ega ekanligidir. Birinchi navbatda jamiyatda hukmronlik qilayotgan ijtimoiy guruhning tasavvurlari va qadriyatlari umumlashadi.

Siyosiy ongning o’ziga xos tomoni – undagi jo’shqinlik, o’zgaruvchanlik bo’lib, siyosiy borliqning o’ziga xosligi bilan belgilanadi.

Tez o’zgaruvchan siyosiy ong voqeligida aks etishning uch vositasini ajratib ko’rsatish mumkin.

1) Bilish tizimi, uning amal qilish qoidalari, shuningdek, muammo va qarama-qarshiliklar:

2) Xis-tuyg’uli, ya’ni siyosiy voqelikni ijobiy yoki salbiy xis-xayajon, sezgida aks etish;

3) Baholi – siyosiy harakatning maqsadi, uning natijalari va oqibatlarini mulohaza etish va fikrlash.

Ushbu siyosiy ong darajasini tasnifi amerika politologlari G.Almond va S.Verbaga tegishli.

Har bir xalqning, har qanday sotsial birlik siyosiy ongi unga xos bo’lgan mentalitet asosida shakllanadi.

Siyosiy ong jamiyatning ob’ektiv tarzda mavjud bo’lgan ijtimoiy-siyosiy strukturasi va unga xos bo’lgan siyosiy faoliyatning turlarini, ularga muvofiq keladigan siyosiy tashkilotlar va muassasalarini aks ettiradi.

Siyosiy ong ijtimoiy mavjudot va mohiyat bo’lgan inson aql-zakovatining, ma’noviy-ahloqiy faolligining oliy darajasini anglatadi. Insonning dunyoqarashi, e’tiqodi, siyosiy ruhiy yo’nalishi, siyosiy xulq-atvori siyosiy mafkurasi uning ongida shakllanib, bir qolipga tushadi so’ng ular insonning siyosiy xatti-harakatlariga aylanib, o’z ifodasini topadi, uning amaliy faoliyati ramzi sifatida

namoyon bo’ladi.

Ob’ektiv voqelik kishi ongiga ta’sir ko’rsatib unda turli tasavvurlar, g’oyalar xosil qiladi hamda unda ong mazmunini vujudga keltiradi.

Insonning siyosiy ongi jamiyat ishlab chiqqan va odamlar tomonidan o’zlashtirgan xissiy va qadriyatli yo’nalishiga xos asosiy muammolar hamda siyosiy jarayonlar oqimiga, munosabat vositasida namoyon bo’ladi. Siyosiy ong tarkibida ilmiy, siyosiy, falsafiy, ahloqiy, estetik, diniy qadriyatlar ham muhim o’rin tutadi.

Siyosiy ong – bu kishilarning siyosiy tizim va hayot, siyosiy munosabatlar to’g’risidagi bilimlar, tasavvurlar, e’tiqodlar, o’zlari yashab turgan siyosiy tuzumga baho berishlari yig’indisidan iborat.

Siyosiy ong – siyosiy borliqning sub’ektiv aks etishidir. U siyosiy voqelik qanday bo’lsa, shunday xolisona tarzda aks ettirishdir. Biroq, siyosiy ong siyosiy voqelikni mehanik tarzda aks ettirmaydi. U siyosiy voqelikning ichiga kirib, undan ilgarilab ketuvchi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o’zgarishi va rivojlanishini aks ettiradi.

Siyosiy ong – jamiyatning siyosiy hayoti va uning barcha sohalariga katta ta’sir ko’rsatadigan ijtimoiy xodisadir. Shningdek, alohida olingan kishilarning ham, jamiyat ijtimoiy-siyosiy birlashmalarining ham xulq-atvori va faoliyatining xarakteri ko’p jihatdan siyosiy ongning darajasiga bog’liq.

Siyosiy ongning shakllanishi va rivojlanishiga quyidagi manbalar asosiy omil bo’lib xizmat qiladi:

Birinchi manba – insonning oilaviy muhitidir. Siyosiy g’oyalar va xissiyotlar unga oiladagi tarbiya orqali beriladi. Bunga to’g’ri keluvchi ijtimoiy-ruhiy qarashlar – siyosiy ongning poydevorini barpo etadi. Uning negizida esa fuqaro shaxsi shakllanadi.

Ikkinchi manba – bu keng ma’nodagi axborotdir. U insonga ham muomala orqali, ham ommaviy axborot vositalari orqali kirib boradi.

Uchinchi manba – bu individning shaxsiy tajribasidir. Bu shaxsiy tajriba olingan bilimni rad qiladi yoki tasdiqlaydi. Biroq u har qanday holatda ham siyosiy ongning shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga muhim ta’sir ko’rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan manbalar insonga siyosat dunyosini tahlil etishga va unga nisbatan munosabatini belgilab olishga imkon beruvchi bilimlar yig’indisini tashkil etadi.

Siyosiy ong va siyosiy borliq.

Siyosiy ongning tuzilishi.

Siyosiy ongning g’oyaviy, kommunikativ, bashorat qilish, tarbiyaviy vazifalari. Ijtimoiy hayotning barcha shakllari orasida siyosiy ong alohida o’rin tutadi. Chunki unda ijtimoiy tabaqalar va guruhlarning iqtisodiy manfaatlari o’zining mujassam holdagi aksini topadi. U hokimiyat uchun kurashga va ijtimoiy hayotning barcha sohalariga jiddiy ta’sir ko’rsatadi. Jamiyatda siyosiy ong etakchi o’rin tutadi, u iqtisodiy bazisga yaqin bo’lib, sub’ektlarning moddiy va siyosiy manfaatlarni ifoda etadi.

Siyosiy ong ijtimoiy hayotda birlashtiruvchi ahamiyatga ega, chunki u ijtimoiy ongning qolgan barcha shakllariga singib ketgan. Siyosiy ong jamiyat hayotining

umumiy sohasi sifatida tabaqalar, davlat va siyosatning paydo bo'lishi, ya'ni jamiyatning siyosiy tizimi vujudga kelishi bilan bir vaqtda shakllanadi. Siyosiy ong jamiyatda ***baholash, tartibga solish, bilish va bashorat qilish*** funktsiyalariga ehtiyoj oshib boradi. Siyosiy manfaatlar davlat hokimiyati uchun kurashda to`qnashadi. Shunday paytda davlat hokimiyatining tuzilishi siyosiy tafakkurning asosiy muammosiga bog'liq. Davlat uchun siyosiy kurash parlament munozaralari va iqtisodiy talablar qo'yish, ijtimoiy muammolarni muhokama qilish, davlat to'ntarishlari hamda ijtimoiy inqiloblar kabi har xil shakllarga yuz berishi mumkin.

Siyosiy ong ijtimoiy ongning boshqa shakllari kabi bir qator funktsiyalarni bajaradi. Bu funktsiyalarga quyidagilar kiradi:

1. Siyosiy hayot to'g'risida bilish – axborot berish. Kishilar ertami yoki kechmi, xoxlaydimi yoki yo'qmi ammo muqarrar ravishda siyosat dunyosiga duch keladi. U kishilarning hayoti va taqdiriga davlat, partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlari orqali ta'sir ko'rsatadi. Siyosat kishilarga siyosiy axborot ko'rinishida kirib boradi.

Siyosiy ong kishilarga siyosiy bilimlar va axborotlarni o'zlashtirishga, ijtimoiy-siyosiy hayotda o'z o'rnini belgilashga va unda to'ri mo'ljalni olishga yordam beradi.

2. Siyosiy baholash. Siyosiy ong sotsial-siyosiy voqelikni nafaqat biladi, izoxlaydi, balki uni baholaydi. Kishilar u yoki bu xodisalar, voqealarni anglash jarayonida ularga o'z munosabatlarini bildiradilar. Aynan siyosiy voqelikni baholash asosida kishilar o'zlarining siyosiy qarashlarini shakllantiradilar.

3. Siyosiy-ijtimoy yo'naltirish. Siyosiy ong kishilarga o'zlarini jamiyat va davlat oldida nafaqat burchlariga, majburiyatlariga, balki muayyan huquqlar, erkinlarlar va siyosiy manfaatlarga ega bo'lgan fuqarolar erkinliklarini anglashga yordam beradi. Bu bilan siyosiy ong o'zining yo'naltiruvchilik funktsiyasi orqali kishilarning ijtimoiy hayotda ishtirok etishlari, siyosiy partiyalarga, tashkilotlarga o'zlarining fikrlari bilan birlashmalari zarurligini uyg'otadi.

4. Siyosiy hayot va manfaatlarni tartibga solish. Siyosiy ong voqelikni idrok etish asosida, hamda u tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy g'oyalar negizida kishilarning siyosiy-ijtimoiy xulq-atvorlarini, faoliyatini tartibga soladi.

Politologiya nuqtai nazaridan yondoshilganda siyosiy ong insonlar ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ahloqiy hayotlari davomida ularning turli guruhlari tub maqsad-manfaatlari hamda tasavvur-qarashlarining siyosiy hayot vositasida aks ettirilishidir. Demak siyosiy ong bilan siyosiy hayot mutanosibligi va dialektik birligi jamiyat hayotida katta ta'sir kuchiga ega bo'lib, davlat hokimiyatining ichki va tashqi siyosat yuritishida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, siyosiy ong sotsial sub'ektlarning ijtimoiy hayotning asosiy sohasi haqidagi bilimlar, tasavvurlar va baholashlarining yig'indisidan iboratdir. U bir qator funktsiyalarni: bilish, baholash, yo'naltirish, tartibga solish kabi funktsiyalarni bajarish bilan jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi, uni harakatga keltiradi, o'zgartiradi.

Siyosiy ongning quyidagi darajalari farqlanadi:

Oddiy – amaliy siyosiy ong odamlarning hayot faoliyatida, ularning tajribasi asosida o'zo'zidan vujudga keladi.

G’oyaviyg’nazariy siyosiy ong siyosiy voqelikni to’liq va teran aks ettirishi, qarashlarni bashorat qilish va tizimga solishga qodirligi bilan ajralib turadi. Siyosiy mafkura – siyosiy voqelikni muayyan ijtimoiy guruh, tabaqa, sinf, millatning manfaati va ehtiyojlari nuqtai nazaridan idrok etishga oid g’oyalar, tasavvurlar, qarashlar, nazariy fikrning umumlashtirilgan tizimidir.

Siyosiy ongning turlari: nazariy, empirik, ommaviy, guruhiy, individual, umuminsoniy, milliy, odatiy. *Nazariy siyosiy ong* - bu siyosiy xarakterga ega bo`lgan turli turdagi g’oyalar, kontseptsiyalar, qarashlardir. Uning belgilari:

- yaxlitlik;
- sistemalashganlik;
- bashorat qilishga qobiliyatlilik.

Mazkur ong fan va u yoki bu ijtimoiy qatlamlarning qarashlari bilan chambarchas bog’langandir.

Siyosiy nazariyalar va talimotlarda quyidagi muammolarni tadqiq etish maqsad qilib qo`yiladi:

a) siyosatning ma’no-mazmunli ko`rinishlari;

b) qonuniy siyosiy tendentsiyalar va jarayonlar.

V) ularni keltirib chiqaradigan sabablar;

g) siyosiy pozitsiyaning real yo`li;

d) qonunchilik, ma’muriy va sud organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning xaqiqiy va kelajakda sodir bo`ladigan oqibatlari.

Nazariy siyosiy ongning xususiyati - uning iqtisodiy, xuquqiy, xarbiy-strategik va boshqa reallik bilan chambarchas bog’liqligidir. Siyosiy ongning ushbu shakli siyosiy nazariyalarning kerakli siyosiy dasturlar, deklaratsiyalar va doktrinalar bo`lib shakllanganligi bilan ham farq qiladi.

Amaliyotda joriy etiladigan ushbu dasturlar, deklaratsiyalar va doktrinalar siyosiy ongni siyosatning etakchi elementi sifatida mustaxkamlanib qo`yadilar. Siyosiy munosabatlar va siyosiy institutlar, tashkilotlar va muassasalarning xarakteri o`z navbatida bu elementga bog’liqdir.

Nazariy ong darajasi va shaklida siyosatni anglash quyidagilarni:

a) uning muhim maqsadlari va ham fundamental (strategik), ham kundalik (taktik) vazifalarni qo`yish va hal etishga;

b) ularga erishishning vositalari va usullarini aniqlashga;

v) dolzarb muammolarni hal qilishda tashkiliy-siyosiy jihatdan ta’min etishning yo`nalishlari va yo`llarini aniqlab olishga;

g) siyosiy qarorlar va maqsadli dasturlarning bajarilishi ustidan sotsial nazoratga kontseptual yondashuvlarni ishlab chiqishga;

d) amaliy tajribani xisobga olgan holda siyosatga tuzatishlar kiritishga imkon beradi.

Emperik siyosiy ong - bu bevosita amaliyotga, siyosiy jarayonda alohida kishilarning, mayda va yirik sotsial birliklarning jonli ishtirok etishlariga asoslangan siyosiy ong darajasi va shaklidir. U nazariy siyosiy ongning zamini bo`lib xizmat qiladi.

Emperik siyosiy ong - siyosiy voqelikni hissiyotlar, tasavvurlar, illyuziyalar,

kechinmalar shaklida aks ettiradi. U birinchidan, ommada siyosat va siyosiy arboblarga nisbatan jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun ozuqa bo`lib xizmat qiladi;

Ommaviy siyosiy ong jamiyat extiyojlarining darajasi va mazmunini bevosita ifoda etadi. U siyosiy voqelik xaqidagi jamiyat bilimlarining xarakterini ham aks etttiradi. Bunday bilimlar, bir tomondan, turli mafkuralar tomonidan ishlab chiqiladi va siyosiy madaniyatda mustaxkamlanadi. Ikkinchi tomondan esa ushbu bilimlar ijtimoiy guruxlarning amaliy faoliyati tomonidan ko`zga kiritiladi.

Ommaviy siyosiy ong aniq-tarixiy va o`zgaruvchan xarakterga egadir. U tez-tez ko`tarilish va pasayish davrlarini o`z boshidan kechiradi. Unda ko`plab omillar: u yoki bu partiyalarning siyosiy yo`li va taktik-strategik faoliyati, turli ijtimoiy alg'ov-dalg'ovlar, muayyan tarixiy vaziyatning mazmuni va boshqalar ta'sir o`tkazib turadi.

Siyosiy ong shakllanishining asosiy omillari. Siyosiy ong qanday shakllanadi. U avvalo insonda muayyan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy shart-sharoitlar, tarixiy tajriba, milliy qadriyatlar, siyosiy hayotni idrok etishga qaratilgan urf-odat, an'analar negizida shakllanadi. Bunday shart-sharoit bo'lmasa insonda siyosiy ong shakllanmaydi. Siyosiy ongning shakllanishi murakkab jarayon. Bu avvalo, ijtimoiy-siyosiy shart-sharoit – demokratik tartibotning mavjudligiga bog'liq, agar u bo'lmasa Yuksak siyosiy ong shakllanmaydi. Qaerdakim avtoritar, ma'muriy-buyruqbozlik tizim bo'lsa, u siyosiy ongni rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi.

Demokratik ong kishilarning ozodlik, erkinlik, ijtimoiy adolat, fikrlar xilma-xilligi, oshkoralik va muloxazalar erkinligi haqidagi xis-tuyg'ulari, qarashlari, g'oyalari, nazariyalarning majmuidir. Demokratik ong ham yangi xodisa, ammo chuqur tarixiy ildizlarga ega. Xalqning ozodlik, erkinlik, adolat, oshkoralik, muloxazalarining xilma-xilligi haqidagi o'ziga xos intilishlari, qarashlari udumlari asosida bunday ongning tarixiy zaminlari bor.

Demokratik ong huquqiy, demokratik, insonparvar davlat, ijtimoiy adolatga asoslangan jamiyat qurish jarayonida shakllanadi. U davlat tomonidan o'z fuqarolariga demokratik huquqlar, erkinliklarni berishi, oshkoralik, fikrlar, mulohazalar xilma-xilligi uchun shart-sharoitni barpo qilishi, bularni poymol qilganlarni qat'iy jazolashi orqali vujudga keladi. Demokratik ong siyosiy, huquqiy, ahloqiy, falsafiy onglar vositasi bilan tarbiya orqali ham shakllanadi. Kishilarda demokratik ongni tarbiyalashda televidenie, radio, gazeta, jurnallarning roli kattadir. Bu jarayonda ijtimoiy tashkilotlar, muassasalarning faol ishtirok etishlari mumkin.

Demokratik ong jamiyat, kishilarning hayoti, faoliyati, taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Demokratik ong shakllangan rivojlangan mamlakatlarda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish yuqori darajada bo'ladi, moddiy va ma'naviy boyliklar ko'plab barpo etiladi: kishilarning xilma-xil extiyojlari qondirilib boriladi, Yuksak qadriyatlar mavjud bo'ladi, kishilar erkin yashaydilar, ishlaydilar, chinakam oshkoralik, fikrlar, qarashlar xilma-xilligi xukm suradi.

Siyosiy ongning shakllanishi faqat demokratik siyosiy tazimning mavjudligi bilan belgilanib qolmaydi. U jamiyat iqtisodiyotining darajasiga, xalqning moddiy

farovonligiga ko’p jihatdan bog’liq.

Jamiyat iqtisodiyotining yuqori darajada taraqqiy etishi fuqarolik jamiyatining bilimdon, malakali, kasbiy tayyorgarlikka ega bo’lgan boshqaruv kadrlari korpusining shakllanishi uchun zarur baza hisoblanadi.

Iqtisodiyotning rivojlanishi, xalqning farovonligiga erishuvi – siyosiy ong shakllanishining asosiy shartlaridan biridir.

Siyosiy ongning shakllanishi jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishiga ko’p jihatdan bog’liqdir. Sababi, ma’naviy-ma’rifiy jihatdan qashshoq, savodsiz bo’lgan inson jamiyat anglagan siyosatdan tashqarida bo’ladi. Insonda ma’lumotchilik darajasi qanchalik yuqori bo’lsa, u shunchalik siyosiy bilimdon bo’ladi. Inson qanchalik ma’lumotli bo’lsa, unga siyosiy bahs – munozaralarda ishtirok etish extimoli shunchalik yuqori bo’ladi.

“Ma’naviyat – insonni ruxan poklanish, qalban uyg’onishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baqquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg’otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”.[77]

Individ qanchalik ma’lumotli bo’lsa, u muayyan jamoat tashkilotlarining faol a’zosi bo’lishi, o’zini o’rab turgan ijtimoiy-siyosiy muhitga ishonch bildirishi extimoli shunchalik yuqori bo’ladi.

Shunday qilib, siyosiy ong muayyan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy omillar, shart-sharotlar negizida shakllanadi va inson fazilatlarining ochilishiga yordam beradi.

Siyosiy ong insonda muayyan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy shart-sharoitlar negizida shakllanadi. Bunday shart-sharoitlar mavjud bo`lmas ekan, insonda siyosiy ong shakllanmaydi. U siyosatning obektligicha qolaveradi. Siyosiy ongning shakllanishi - murakkab jarayondir. Bu jarayon avvalo, ijtimoiy-siyosiy tartibotning mavjudligiga bog’liqdir. Jamiyatda bunday munosabatlar mavjud bo`lmasa, mustaxkamlanib borilmasa insonda siyosiy ong shakllanmaydi. Jamiyatda mavjud bo`lgan avtoritar, ma’muriy-buyruqbozlik siyosiy tizimi esa inson siyosiy ongning shakllanishiga imkon bermaydi. Aksincha, bu tizim insonni qullikka mahkum etadi, uni hokimiyatdan begonalashtiradi, baqiqlik, befarqlikni tug’diradi, boshqaruv apparatlarini xalqdan uzoqlashtiradi.

Jamiyatda demokratik siyosiy tizimning mavjudligi va uning mustaxkamlanib borishi - insonda siyosiy ong shakllanishining hal qiluvchi shartidir. Bunday siyosiy tizim inson siyosiy onggi va faoliyatining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi, uni rag’batlantiradi. Jamiyat siyosiy tizimi qanchalik demokratik bo`lsa, inson shunchalik siyosiy xayotda faol ishtirok etadi.

Siyosiy ongning shakllanishi jamiyatda faqat demokratik siyosiy tizimning mavjudligi bilan belgilanib qolmaydi. U jamiyat iqtisodiyotning taraqqiy etib borishi darajasiga, xalqning moddiy farovonligiga ko`p jihatdan bog’liqdir.

Jamiyat iqtisodiyotining yuqori darajada taraqqiy etishi fuqarolik xizmatining bilimdon, malakali, kasbiy tayyorgarlikka ega bo`lgan boshqaruv kadrlari korpusining shakllanishi uchun zarur baza bo`lib xizmat qiladi. Ntishmovchilik, qashshoqlik sharoitida demokratiya negizida samarali boshqarish uchun zarur

[77] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. ─T:. “Ma’naviyat”, 2008, 19 b.

bo`lgan umumta'lim va kasb tayyorgarligining yuqori darajasiga ommaviy miqyosda erishish qiyin. Bunday sharoitda kadrlarni shakllantirishda, ulardan foydalanishda bilimdonlik va kasbga bo`lgan talablar boshqa tamoyillar: qon-qardoshlik, yurtdoshlik, oshno-og'aynigarchilik, boshliqqa sodiqlik va oshqalar bilan almashtiriladi. Davlat xizmati, siyosiy faoliyatga tezda boy bo`lib ketish maqsadida shaxsiy manfaatlarini qondirishning vositasi sifatida qarash boshqarish tizimi uchun og'ir oqibatlar keltirib chiqaradi.

Iqtisodiyotning taraqqiy etishi, xalqning farovonligiga erishuvi - siyosiy ong shakllanishning asosiy shartlaridan biridir. Jamiyat qanchalik iqtisodiy jihatdan taraqqiy etib borsa, u idora qilishning demokratik shakllariga shunchalik ochiq bo`ladi. Xalq qanchalik boy va badavlat, farovon yashasa, u shunchalik demokratiyani qo`llab-quvvatlaydi va himoya qiladi.

Siyosiy ongning shakllanishi jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishiga ko`p jihatdan bog'liqdir. Sababi, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan taraqqiy etmagan jamiyat hech qachon insonni siyosat subekti sifatida shakllantira olmaydi. Bunday jamiyat va uning fuqarolari siyosiy manipulyatsiya-firibgarlikning obekti bo`lib qolaveradi. Ma'naviy qashshoq, savodsiz bo`lgan inson jamiyat anglagan xalqaro siyosatdan tashqarida bo`ladi. U siyosiy xarakatlarning subekti emas, balki obekti bo`lib qoladi. Tarixiy tajriba shuni ko`rsatadiki, jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy sohasi, insonning ma'lumotlilik darajasi qanchalik yuqori bo`lsa, u shunchalik siyosiy bilimdon va siyosiy yo`naltirilgan bo`ladi. Eng asosiysi, demokratik yo`l, ko`rsatmalar, xatti-xarakatlarga moyil bo`ladi. Xususan, mukammal ta'lim insonning siyosiy dunyoqarashini kengaytiradi, sabr-toqatli, mehr-oqibatli bo`lishga yordam beradi, ekstremistik g'oyalarga aloqador bo`lishdan saqlaydi, saylov kompaniyalari davrida uning odil va oqilona yo`lni tanlash qobiliyatini oshiradi. Yuqori ma'lumotga ega bo`lgan shaxs xukumatning qarorlarini, ko`rsatmalarini yaxshi anglaydi, siyosiy xabarlarni chuqur biladi, keng doiradagi masalalar bo`yicha o`zining mustaqil fikriga ega bo`ladi. Inson qanchalik ma'lumotli bo`lsa-da uning siyosiy baxs-munozaralarda ishtirok etish ehtimoli shunchalik yuqori bo`ladi. U o`zini kichik bir murvat emas, balki xukumatga ta'sir ko`rsatishga qodir inson, deb hisoblaydi. Individ qanchalik ma'lumotli bo`lsa, u muayyan jamoat tashkilotlarining faol a'zosi bo`lishi, o`zini o`rab turgan ijtimoiy-siyosiy muhitga ishonch bildirishi ehtimoli shunchalik yuqori bo`ladi.

O`zbekistonda zamonaviy siyosiy madaniyatni shakllantirish yo`llari va vositalari. Mustaqil davlat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan omillardan biri siyosiy madaniyatdir. Siyosiy madaniyat ancha murakkab xodisa. Chunki siyosiy madaniyat ma'lum darajadagi siyosiy ilmni, mustaqil fikrlash va xulosa chiqarish (jarayoni) qobiliyatini, qatiy siyosiy e'tiqodni, o'zini tuta bilish, boshqara olish va o'zgalar manfaatini ustun qo'ya bilish qobiliyati kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Siyosiy madaniyatni ifodalovchi bu belgilar juda qo'l keladi. Masalan, hozirgi demokratiya jarayonida huquqiy jamiyatga o'tish davri uchun ham odamlar, xalqning siyosiy madaniyati darkor. Hozirgi milliy uyg'onish va umuminsoniy qadriyatlarning tiklanishi davrida ham yaxshini yomondan, kerakligini keraksizdan ajratib olish ommaning siyosiy madaniyatga bog'liq.

Bizning huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatimizda amal qilishi lozim bo'lgan

siyosiy madaniyat turlari, ko'rinishlari, shakllari bo'sh erda emas, balki o'zbek xalqining ko'p asrlik davri davomida yaratgan, ulkan va nodir ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni asos qilib olgan holda qaror topmoqda. Prezident I.A.Karimov o'zining "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida uqtirib o'tganidek, - "hozirgi kunda shakllanib qaror topayotgan yangi demokratik mazmunli siyosiy madaniyat, avvalo jumhuriyat aholisining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi, chuqur ildizlari o'tmishdagi an'anaviy jamoatchilik turmush tarziga borib taqaladigan ma'naviy-madaniyat asoslari, O'zbekiston xalqiga xos xususiyatdir: kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar haqida g'amho'rlik, ochiq ko'ngillik, odamlarning millatidan qat'iy nazar, ular bilan o'zaro xayrihohlik munosabatlarida muloqat qilishi, har bir fuqaro siyosiy ongida va siyosiy madaniyatida keng o'rin egallagan, boshqalar kulfatlariga hamdardlik va o'zaro yordam tuyg'usi o'zbek xalqi asrlar davomida amalga oshirib kelayotgan siyosiy munosabatlar me'yorini ko'rsatadi"[78].

O'zbeklar siyosiy madaniyatiga xos belgilardan yana biri – bu o'z diyoriga, o'z Vataniga bo'lgan cheksiz va chuqur mehr-muhabbat, uning tinchligi, xavfsizligi, ravnaqi yo'lida fidokorona mehnat qilish ruxining kuchliligi, ilm fanga, bilimlarga, ma'naviyat-ma'rifatga doimiy chanqoqligidir.

Keyingi yillarda xalqimizning o'zligini anglashi, mustaqil, erkin davlat, demokratik jamiyat qurishga bo'lgan xoxish-irodasi nechog'li kuchli ekanini mamlakatimiz sotsial-iqtisodiy va siyosiy hayotda bo'layotgan o'zgarishlar to'liq tasdiqlamoqda.

Shunday bo'lsada, Prezident I.A.Karimov ***"O'zbekiston XXI asrga intilmoqda"*** asarida, ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasida so'zlagan ma'ruzasida ta'kidlaganidek, - *"aholining siyosiy faolligi ham zamon talablari darajasida emasligini, hamon sust ekanini qayta-qayta aytishiga to'g'ri kelmoqda. Siyosiy madaniyatni yuksaltirish kerak"*, - deydi Prezidentimiz. *Odamlar hokimiyat qarorlari qanday qabul qilinishini, uning ijrosi qanday nazorat qilinayotganini bilishlari, bu qarorlarni tayyorlash va amalga oshirishda faol ishtirok etishlari zarur. Boshqacha qilib aytganda, "jamiyat markazda va joylarda saylangan hokimiyat o'z taqdirini qay tarzda hal etayotgani, ularning istiqbolini qay tarzda belgilayotganidan xabardor bo'lib turishi kerak"*.[79]

Hozirgi tub o'zgarishlar jarayonida, mulkchilik munosabatlari o'zgarayotgan ishbilarmonlik, tadbirkorlik, kichik korxonalar, turli bank va jamg'arma jamoalari keng tarmoq otib borayotgan bir vaqtda to'g'ri so'zlik, o'z so'zi ustidan chiqish kabi ma'naviy va siyosiy madaniyat omillari nihoyatda zarur. Masalan, chet ellarda odamlar orasida, ayniqsa, siyosatdonlar, biznesmenlar, olimlar va huquqshunoslar doirasida qog'ozbozlik emas, so'zga ishonish katta rol o'ynaydi. O'z faoliyatida so'zi ustidan chiqmagan, ishi bilan so'zi bir bo'lmagan odam jamoatchilik ichida mutaxassis sifatida mavqesini tushiradi. Demak siyosiy madaniyatni oshirishda, jahon tajribasining yaxshi tomonlarini o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik e'lon qilingandan keyin o'tgan muddat davomida fuqarolar, ijtimoiy guruhlar, tabaqalar o'zaro munosabatlarida ham, siyosiy muloqat

[78] Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. –T:. "O'zbekiston", 1992. 7-bet.
[79] Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". -T.: "O'zbekiston", 1999. 20-21-betlar.

tarzlarida hali juda muhim ijobiy o’zgarishlar sodir etilib, ular keyingi yillarda o’tkazilgan prezdentlik saylovlari, Konstitutsiyaning umumxalq muhokamasi, Oliy Majlisga bo’lib o’tgan saylovlar, ikki palatali parlament, prezident muddatini 5 yildan 7 yilga o’zgartirish bilan bog’liq referendum va shu kabi yirik siyosiy hayot voqea-xodisalarida namoyon bo’ldi, barcha fuqarolar siyosiy faolliklarida Yangi jamiyat siyosiy madaniyatining nisbatan yuksak darajasi va sifati o’z ifodasini topdi.

Ommaviy yoki guruhiy siyosiy madaniyat darz ketayotgan pallalarda davlat hokimiyatining mas’ul rahbarlari – boshqaruvchi siyosiy elita etarli darajada sovuqqonlik, xushyorlik namunalarini ko’rsatib, juda ko’p sodir bo’lishi ehtmol bo’lgan mojaro-to’qnashuvlarning oldini olishga muvaffaq bo’ldilar va bu bilan o’zlarining siyosiy madaniyatlari darajasi omma siyosiy madaniyat darajasidan ancha yuqori ekanligini hayot tajribasi sinovlaridan o’tkazdilar.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yangi jamiyatga xos qonunlar, qarashlar, normalar hayotimizga kirib qela boshladi. Shu bilan birga sharqxona madaniyat, milliy merosimizga tayanish ham yangilanayotgan siyosiy madaniyatimizda samarali o’rinni egallamoqda.

11.2-chizma



Siyosiy madaniyatni o’zgartirishdagi qiyinchiliklar respublika aholisining madaniy-tarixiy mintalitetini o’zgartirish zarurligi bilan bog’liq. Demokratik institutlar, demokratiya amaliyoti ildiz otgan sari O’zbekistonda siyosiy madaniyat Yangilana va takomillasha boradi.

Qadimdan ma’lumki, davlat hokimiyatining vujudga kelishi bilan uni kim yoki kimlar boshqarishni masalasi ko’ndalang bo’lib qoladi. Davlat hokimiyati tashkil topishi jarayonida uni boshqaradigan odamlar guruhi ham shakllana boradi. Demak, bu ikki jarayon davlat hokimiyatining tug’ilishi hamda uni amalga oshiradigan ijtimoiy-siyosiy guruhning shakllanishi, bir-biri bilan dialektik uzviy bog’liqlikda yonma-yon, barobar sodir bo’ladi.

Demak, millat hokimiyatining vujudga kelishi uni amalga oshiradigan mutaxassis kadrlar korpusi shakllanishi zaruriyatini tug’diradi. O’z navbatida, mazkur zaruriyat tufayli tayyorlangan kadrlar davlat hokimiyatini izchil va

omilkorlik bilan amal qilish dinamikasini ta’minladi.

Davlat hokimiyatining amal qilish ko’lami kengayib, jamiyatni boshqarish jarayonlari murakkablashib va chuqurlashib borgani sari bu ishlarga mutassadi bo’lib qolgan odamlarni tayyorlash, tanlash, joy-joyiga qo’yish, bir joydan ikkinchi joyga ko’chirish, quyi mansablardan yuqori mansablarga ko’tarish kabi chora-tadbirlar majmuasi kadrlar siyosati sifatida shakllana boradi yoki boshqacha aytganda, kadrlar masalasi bilan shug’ullanish va uni hal qilish rejalarini amalga oshirish davlat hokimiyati kadrlar siyosatining asosiy mazmunini tashkil etadi. Kadrlar masalasi va uni hal qilish, borasidagi siyosat har qanday davlat hokimiyatining, iqtisodiy-xo’jalik, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy, mafkuraviy, mudofa-muhofaza, hayot sohalarining uyg’un va mustaqil ravishda ishlab turishini doimiy ta’minlashdan iboratdir.

Uning asosiy mazmunini kadrlar tayyorlash tizimini vujudga keltirish, ularga eng zamonaviy boshqarish mahoratini o’rgatish, eng ilg’or boshqarish tajribalarini ayriboshlash vositasida ommalashtirish, jamiyatni boshqarish san’atini takomillashtirib borish haqida qayg’urish, kadrlar qayta o’qishlari va malaka oshirishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish, tajribali va yoshi ulug’ kadrlar bilan yonma-yon yosh iste’dodli kadrlarni chiniqtirish kabi chora-tadbirlar tashkil etadi.

Ana shu mazmundagi vazifalarning uzoq muddatga mo’ljallangan majmuasi kadrlar siyosatidagi strategik yo’nalish, ularni amalga oshirish vositalari, usullari, uslublarini qo’llash esa kadrlar siyosatidagi taktik yo’nalish bo’lib xizmat qiladi.

Yangicha fikrlovchi kishilarni tayyorlamasdan, tarbiya qilmasdan o’z oldimizga qo’ygan vazifa va maqsadlarni ro’yobga chiqara olmaymiz. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti qiyinchiliklari har qadamda o’z ta’sirini ko’rsatayotgan, mustaqil davlatlarning ko’pchiligida ta’lim tizimini isloh qilish u yoqda tursin, balki, mavjud ta’lim-tarbiyaning o’zida beqarorlik va qiyinchiliklar sezilib turgan bir davrda O’zbekiston o’z ko’lami va ahamiyati, mazmun va mohiyati jihatidan beqiyos va echimi juda katta moddiy sarf-xarajatlar bilan bog’liq bo’lgan g’oyat ulkan muammo kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishga qaror qilindi. Xo’sh, uning bosh maqsadi, sababi v vazifalari, zaruriyat va mohiyati nimalarda edi?

Prezidentimiz ***“Tafakkur”*** jurnali bosh muharriri savollariga bergan javoblarida aytganidek, “Umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli tafakkuri har xil “ilmlar”dan ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo’lgan insonlargina fuqarolik jamiyat barpo etishga va uni yanada takomillashtirishga qodir bo’ladi”[80]. Demak, ta’lim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida o’zgartirmasdan turib, ongni o’zgartirib bo’lmaydi. Ongni, tafakkurni o’zgartirmasdan turib esa ozod va obod Vatanni, huquqiy, demokratik davlatni, fuqarolik jamiyatini qurib bo’lmaydi. Chunki, huquqiy, demokratik davlat barpo etishdek buyuk maqsad va ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirayotgan islohatlarimiz samarasi, taqdiri avvalombor, zamon talablariga to’la javob

[80] Karimov I.A. “Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga hizmat etish”. “Tafakkur” jurnali, bosh muxarriri savollariga javoblar. 1998 yil 2-son.

beradigan yuqori, har tomonlama malakali, ma’naviy barkamol kadrlar tayyorlash bilan bevosita bog’liq ekanligini aslo unutmasligimiz kerak. Mamlakatimizning mustaqillik yo’lidagi birinchi qadamlaridanoq boy-madaniyatimizni tiklash, uni yanada rivojlantirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish muammosi qo’yilganining maqsadi va sababi ham ana shundadir.

O’zbekiston davlat hokimiyati ishlab chiqib, amalga oshirilayotgan kadrlar siyosatida erkinlik, ijodkorlik, tashabbusrolik, yaratuvchilik muhitini vujudga keltirish ko’zda tutilgan bo’lib, unda barcha mutaxassis kadrlarni iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy axloqiy muammolarning samarador echimini ishlab topishga, ro’y-rost fikrlashuvga undaydigan demokratik shart-sharoitlar yaratib berish mo’ljallanganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ***“O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li”*** asarida kadrlar siyosati xususida fikr yuritib quyidagilarni yozgan edi. *“... bozorning o’zgaruvchan sharoitlarida mehnat qilishga layoqatli bo’lgan o’zimizning yuqori malakali mahalliy kadrlarimiz O’zbekiston mustaqilligini tasavvur qilish qiyin”*.[81]

O’zbekiston ham boshqa mamlakatlarda bo’lgani kabi jamiyat ijtimoiy taraqqiyotning yangi bosqichiga ko’tarilishi bilan bog’liq bo’lgan murakkab davrda kadrlar masalasi eng dolzarb muammolardan biriga aylandi.

Chunki, jamiyatni idora etishning yangi munosabatlari mehanizmi va usullari tamomila boshqacha tus olgan holda o’ziga xos murakkablashib boradi. Ana shunday sharoitda kadrlar siyosati yana ham muhim ahamiyat kasb etib, jamiyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biriga aylanadi. Bu dolzarb muammoni har jihatdan puxta va mukammal holda oqilona hal etish har qanday davlatning, u qaysi ijtimoiy-siyosiy tizimda bo’lishdan qat’iy nazar, eng zaruriy va mas’uliyatli vazifalardan biriga aylanishi ob’ektiv qonuniyatdir. Chunki, hayot oqimini, jamiyatning iqtisodiy-siyosiy rivojlanishidagi yo’lini belgilab olish va amaliy hayotga to’g’ri yo’naltirish har tomonlama bilimdonlikni, katta hayotiy tajribani taqozo etadi. SHuning uchun ham Yuksak aqliy kamolotga erishgan, etuk mutaxassis kadrlar tayyorlash, tanlash va ulardan to’g’ri, o’z o’rnida bilib foydalanish har qanday davlatning yutug’ini ta’minlovchi, rivojiga-rivoj qo’shuvchi bosh omil hisoblanadi.

Mustaqil O’zbekiston davlatini rivojlantirish jarayoni kadrlar siyosatida munosib o’rin egallashi uchun yuqori malakali mutaxassis kadrlar resspublika iqtisodiyotini har tomonlama taraqqiy ettirishlari, ularning intensiv omillardan oqilona foydalanishlari, xalq xo’jaligini boshqarishda iqtisodiy usul va vositalarni joriy etishlari, ya’ni ishlab chiqaruvchilarning moddiy va ma’naviy manfaatdorliklarini birinchi o’ringa qo’yishlari kerak. Ayni vaqtda ilm-fan yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalarga asosiy e’tiborni qaratib, ishlab chiqarishda amaliy hamkorlikini vujudga keltirish, har qanday Yangi tashabbusni ilmiy asoslarga qo’ya bilish, olimlar va muhandislar jamiyatni yangilashda hamkorlik asosida astoydil ishtirok etishlarini ta’minlash zarur.

Bu vazifani ado etish ayni ilm fan va texnika-texnologiya mutaxassis kadrlar

[81] Karimov I.A. O’zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.-T.: “O’zbekiston”,T.1. 1996, 76-bet.

ham tayyorlab berishni ta’minlaydi. Barqarorlikni saqlab qolish imkoniyatlarini izlash va ishbilarmonlarni qo’llab-quvvatlash sohasida Respublikada olib borilayotgan ishlar, 1997 yilda ***“Ta’lim to’g’risida”***gi Qonunlar va ***“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”*** kabi hujjatlarning qabul qilinishi va ularni hayotga tatbiq etish uchun olib borilayotgan chora-tadbirlarda o’z aksini topmoqda, bular yaqin kelajakda o’z samaralarini bera boshlaydi.[82]

XX asr oxirida sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan intellektual davlatlar o’rtasidagi iqtisodiy musobaqa fan-texnika va texnologiyalar va pirovard-natijada ta’lim sohasiga ko’chdi. Chunki, raqobatbardosh kadrlarni etishtirmay turib, raqobatga qodir iqtisodiyot bo’lishi mumkin emas.

Bu borada O’zbekiston Respublikasida kasbiy ta’lim “Milliy dastur” asosida shunday harakatlanmog’i kerakki, u mamlakatimiz va xorijda fan-texnika, texnologiya hamda iqtisodiyot sohalarida bo’lajak taraqqiyotni hisobga olgan holda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta’minlay oladigan bo’lmog’i darkor. Har tomonlama etuk kadrlarning yangi avlodi istiqbolga monand vazifalar qo’yish va ularni echishga qodir, yuqori saviyada fikrlash madaniyatga ega, siyosiy-ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy axborotlar dunyosida mustaqil o’z yo’lini topa oladigan bo’lishi kerak.

Milliy dastur bunday talablarga mos keladigan kadrlarni tayyorlash uchun yangi modelni – kadrlar tayyorlashning O’zbekiston modelini nazarda tutadi. Bu modelning asosini quyidagilar tashkil etadi.

- shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti bo’lib, ta’limiy xizmatlarning iste’molchisi va yaratuvchisidir (o’quvchi-o’qituvchi tandemi);
- uzluksiz ta’lim – malakali kadrlar tayyorlash tizimining o’quv-ilmiy ishlab chiqarish va tarbiyaviy bazasidir;
- davlat va jamiyat – malakali kadrlar tayyorlash va ularga bo’lgan zaruriyatning asosiy kafolatchisi;
- fan – yuqori malakali kadrlarni etishtiruvchi va iste’molchisi;
- iqtisodiyot kadrlarga asosiy buyurtmachi bo’lib, tayyorlangan mutaxassislarning sifatiga baho beradi, shunga yarasha kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta’minlaydi.

Mazkur model uch qutbga ega. Birinchi qutb – shaxs uzluksiz ta’lim tizimida bilimlarni iste’mol qilish va yaratish borasida o’zining fuqarolik burchini to’la-to’kis amalga oshiruvchi inson. Ikkinchi qutb – davlat va jamiyat, shaxsning fuqarolik burchlari samarali amalga oshirilishida va iqtisodiyot tarmoqdarini malakali kadrlar bilan ta’minlash bo’yicha milliy vazifalarni hal qiladi. Uchinchi qutb iqtisodiyot bo’lib, u davlat byudjeti yoki kontkrakt asosida o’zi uchun zarur bo’lgan kadrlar etishtirishni moddiy-texnika bazasi va moliya bilan ta’minlaydi.

Milliy dastur kadrlar tayyorlash tizimining ana shu uchala qutbini o’zaro qutbiy uzviy birlashtirishni ta’minlovchi barcha shart-sharoitlar, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy psixologiya va boshqa shart-sharoitlar yaratilishini ko’zlaydi.

Kasbkorlik va ijtimoiy ma’noda o’qituvchining shaxsiga alohida e’tibor talab etadi. Prezident I.A.Karimov O’zyuekiston Respublikasi Oliy Majlis I chaqiriq IX

[82] Oliy ta’lim. Me’yoriy hujjatlar to’plami. –T.: “Sharq”, 2001, 3-52-betlar.

sessiyasida so’zlagan nutqida ta’kidlaganidek, o’qituvchi va murabbiylarning hayotiy talablarini qondirish, ularni rag’batlantirish, o’z ishi, kasbidan mamnun bo’lishini ta’minlash lozim[83]. Bu vazifalarning hal qilinishiga Milliy dasturning *“Qishloq maktabining taraqqiyoti”*, *“Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash”*, *“Ilmiy va pedagogik kadrlar”*, *“Ijtimoiy muxofaza”* nomli maqsadi dasturlari yo’naltirilmoqda.

Milliy dasturda ikkinchi qutb bo’lgan davlat va jamiyatga alohida o’rin ajratiladi. Davlat va jamiyat raqobatbardosh mahsulot yarata oladigan va xizmatlar ko’rsata ish qobiliyatiga ega malakali kadrlar tayyorlash tizimini uzluksiz rivojlantirish va takomillashtirish kafolatini oladi. Chunonchi:

- fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va malaka oshirish huquqining amalda bajarilishini;
- kafolatli ta’limning himoya qilinishini;
- davlat ta’lim muassasalarining moliyaviy ta’minlanishini;
- o’qish, yashash va dam olish shart-sharoitlarini ta’minlash borasidagi vazifalarni echishda o’zini-o’zi boshqaruvning ortib borishini;
- o’quvchilar hamda pedagogik kadrlarning ijtimoiy muhofazasini;
- jismonan salomatligi cheklangan shaxslarning kasbiy ta’lim olishini;
- o’qituvchilar, ota-onalar va o’quvchilarga konsul’tatsiyalar berish, psixologik-pedagogik, ijtimoiy va tibbiy yordam ko’rsatish va maslahatlar berish markazlari ko’paytirilishini kafolatlaydi.

Dastlabki ikki qutb, shaxs, davlat va jamiyat qutblari orasini to’ldiruvchi uchinchi qutb iqtisodiyot hisoblanadi. Bir jihatdan, iqtisod kadrlar tayyorlash tizimi uchun tayanch bo’lsa, ikkinchi tomondan iqtisod o’ziga zarur va malakali kadrlarning iste’molchisidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi har bir shaxs hamda davlat va jamiyat manfaatlari, iqtisodiy holat va raqobatbardoshlik bilan bog’liq bo’lgan bir qator muammolarni echishga yo’naltirilgan.

Prezident I.A.Karimov “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida” gapirar ekan, uni *“Mustaqilligimizning, bugungi va ertangi hayotimizning kafolati hisoblanadi”*[84], - degan edi.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari, mustahkam ilmiy asosga tayanadi.

Birinchidan, Milliy dastur negizida tizimli yondashuv yotadi. Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimining samarali ishlashiga ta’sir ko’rsatuvchi o’zaro bog’langan barcha omillar ko’rib chiqiladi. Quyidagi yo’nalishlarni qamrab olgan o’n to’rtta maqsadli yo’nalish tizimli yondashuv natijasi hisoblanadi.

1. Ta’lim-tarbiya yo’nalishi:

- kadrlar tayyorlash sifati va kadrlar raqobatbardoshliligi;
- ma’naviyat va ma’rifat;
- professional ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi;
- iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlar;
- ilmiy pedagogik kadrlar;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

[83] Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo’lida.– T.: “O’zbekiston”, T.6. 1998, 328-bet.
[84] Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo’lida.– T.: “O’zbekiston”, T.6. 1998, 346-bet.

- qishloq maktablarini rivojlantirish.

2. Informatsion yo'nalish:

- axborot texnologiyasi va ta'limini informatizatsiyalash;
- o'quv jarayonni axborotlar bilan ta'minlash va XXI asr kutubxonasi;
- oliy professional ta'lim holatini baholash va kadrlar tayyorlashni bashorat qilish tizimi.

3. Ijtimoiy yo'nalish:

- bolalar va o'quvchi yoshlar salomatligi muhofazasi;
- maxsus ta'lim (alohida nuqsonli bolalar tarbiyasi va ta'limi);
- ijtimoiy himoya.

Ikkinchidan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash vazifasini hal qilish professional ta'limning hamma bosqich va tabaqalari uchun xalqaro modellar va me'yorlar asosida yaratiladigan, ilmiy asoslangan, ilg'or ta'lim standartlari kompleksiga tayanadi.

Uchinchidan, Milliy dasturda ko'zlangan rejalarni amalga oshirish negizida, o'zbek modelining eng asosiy tamoyili islohatlarni bosqichma-bosqich o'tkazish printsipi yotadi.

Birinchi bosqichda (1991-2001 yillar) amaldagi kadrlar tayyorlash tizimi salohiyatlarini saqlagan holda bor tizimning rivojlanishi uchun huquqiy me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlarni yaratish bilan bog'liq bo'lgan vazifalar ijrosi ta'minlanadi.

Ikkinchi bosqichda (2001-2005 yillar) – rejalashtirilgan masalalar bo'yicha Milliy dastur to'la amalga oshirilmoqda.

Uchinchi bosqichda (2005 yildan keyingi yillar) – XXI asr raqobatbardosh kadrlarini tayyorlashning yalpi tizimini taraqqiy ettirish va takomillashtirish nazarda tutiladi.

Milliy dasturning birinchi bosqichini ishlab chiqish va uning amalda bajarilishi mustaqillik yillarida erishilgan intellektual va moddiy, ilmiy-metodik, me'yoriy va huquqiy potentsiallari, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ta'lim va fan, texnika va texnologiya, iqtisodiyot va madaniyat sohalaridagi yutuqlarga tayanadi.

Kadrlar tayyorlash tizimida professional-texnik ta'limni, ayniqsa, qishloq mintaqalarida qayta tashkil qilish boshlangan. Qishloqlarda hozir zamonaviy kasb-hunar maktablari va litseylar, biznes-maktablar shakllanmoqda.

Oliy ta'lim sohasida markazdan belgilash o'rniga kadrlar tayyorlashning mintaqiviy va demokratik printsiplariga amal qilish siyosati o'tkazilmoqda, oliy o'quv yurtlari ko'paymoqda, universitetlar safi kengaydi. Respublika ehtiyojlariga javob bera oladigan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar klassifikatori ishlab chiqildi. Oliy maktabda ko'p bosqichli o'qish tizimiga o'tildi, bilimning Yangi sohalarida kadrlar tayyorlash boshlandi.

Reyting tizimi va test usuli asosida abiturient va talabalarning bilimdonligini xolisona baholash usullari joriy qilindi.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Yangi talablarga muvofiq ravishda aspirantura va doktoranturada kadrlar tayyorlashga keng yo'l ochilgan. Oliy attestatsiya xay'ati faoliyat ko'rsatayapti.

Iqtidorli o’quvchi yoshlarni qo’llab-quvvatlash bo’yicha maqsadli davlat siyosati amalga oshirilayapti. Maxsus fondlar yaratildi va qobiliyatli yoshlarni xorijdagi yetakchi o’quv va ilmiy markazlarida o’qitish tashkil qilindi. Aspirant va talabalar uchun O’zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi, buyuk allomalar nomi bilan atalgan stipendiyalar joriy qilingan.

O’quv-ta’lim va fan sohalarida xalqaro aloqalar kengaymoqda. Bir qator nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan yaqin munosabatlar o’rnatilmoqda. Ta’lim sohalarida hukumatlararo bitimlar tuzilgan.

Ta’lim jarayonining maxmuniga oid muammolar sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarilmoqda. O’quv rejalari va o’quv dasturlariga o’sib kelayotgan avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, odamiylik elementlari kirib bormoqda. Gumanitar, iqtisodiy-ijtimoiy fanlar turkumi butunlay yangidan ko’rib chiqilmoqda. Ta’limning barcha tabaqalariga ma’naviyat, iqtisod va huquq asoslarini o’rganish kiritilmoqda, chet tillarini o’rganishga katta ahamiyat berilmoqda.

Yuqoridagi kabi o’zgarishlar va yutuqlar kadrlar tayyorlash bo’yicha Milliy dastur uchun baza bo’lib xizmat qilmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimining yangi o’zbek modeli quyidagi tuzulmalardan iborat:

- umumiy ta’lim;
- maktabgacha ta’lim;
- boshlang’ich ta’lim (I-IV-sinflar);
- umumiy o’rta ta’lim (I-IX-sinflar);
- uch yillik o’rta maxsus va kasb-hunar ta’limi.

Umumiy ta’lim tizimida o’qitish olti-etti yoshdan boshlanadi[85]. Umumiy ta’lim majburiy hisoblanadi.

Maktabdan tashqari ta’lim uzluksiz ta’limning ajralmas qismidir. U o’quvchi yoshlarning iste’dodi va qobiliyatini o’stirishga yo’naltirilgani bois ularning xohishlari, istak va qiziqishlariga qarab dars soatlari va predmetlari belgilanadi.

Oliy professional ta’lim, odatda, o’n sakkiz yoshdan boshlanadi va o’qish muddati davlat ta’lim standartlari doirasida kamida to’rt yil davom etadi. Oliy professional ta’lim bakalavrlik va magistraturadan iborat.

Oliy maktabdan keyingi ta’lim jamiyatning ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo’lgan ehtiyojlarini qondirishga yo’naltirilgan bo’lib, shaxsning kasb-korligi bo’yicha ta’limiy, ma’naviy va ma’rifiy qiziqishlari qondiriladi. Oliy maktabdan keyingi ta’lim oliy o’quv yurtlari va ilmiy tadqiqot muassasalarida (aspirantura, doktorantura va h.k.) amalga oshiriladi.

Ta’lim tizimini isloh etish vazifalari muvaffaqiyatli hal etilsa, ijtimoiy-siyosiy iqlim keskin o’zgaradi, odamlar ongida demokratik qadriyatlar qaror topadi, inson jamiyatdagi o’rnini ongli ravishda o’zi belgilaydi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “jamiyat yangilash, erkin demokratik davlatni shakllantirish, taraqqiyot va ravnaq yo’lidagi barcha sa’y-harakatlarimizni biz aynan ana shu tamoyil asosida tashkil etishimiz kerak”.

[85] Oliy ta’li. Me’yoriy hujjatlar to’plami. – T.: “Sharq”, 2001, 7-bet.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyatini yuksaltirish to`g'risida.

Siyosiy ta'lim-tarbiyani rivojlantirish zarurligi.

2. Siyosiy mafkuralar va ularning turlari.

"Siyosiy mafkura" tushunchasi, mohiyati va vazifalari. Hozirgi insoniyat taraqqiyoti bosqichida mafkura, xususan siyosiy mafkuraning o'rni va ahamiyati haqidagi masala eng dolzarb, ziddiyatli bo'lib, g'oyat extirosli, qarama-qarshi munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Siyosiy mafkura jamiyatning siyosiy hayoti, siyosiy tizim tuzilishi, turli ijtimoiy kuchlar va guruhlarning o'rni va roli to'g'risidagi g'oyalar, uning hokimiyatga ega bo'lishi, undan foydalanish yo'llari, mehanizmlari to'g'risidagi qarashlarni amalga oshirishga bo'lgan ishonch, maqsadlar yo'lidagi faoliyatdir.

Mafkura umuman siyosiy mafkura xususan, jamiyat hayotida ijtimoiy tengsizlik va ijtimoiy adolatsizlik tartibotlari o'rnatila boshlashi bilan uzviy bog'liq tarzda shakllana boshlaydi va takomillashib jamiyat hayotida faol amal qila boshlaydi. Mafkura birinchi navbatda, hukmron ijtimoiy guruhlarning tengsizlik va adolatsizlik tartiblarini g'oyaviy-siyosiy oqlash hamda ularni himoya qilish quroli sifatida shakllanib, undan keyin tengsizlik va adolatsizlik oqibatlaridan jabrlanayotgan jamiyat ko'pchiligining o'rnatilgan tartib-qoidalarga qarshi ko'tarilayotgan kurashini ifoda etuvchi g'oyaviy-siyosiy qurol sifatida qaror topadi.

Mafkurada ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, qatlamlar manfaatlari va qarashlari aks ettiriladi.

Mafkura atamasi yunoncha ideya va logos so'zlarining birikmasidan tashkil topgan, g'oyalar haqidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi.

Mafkura iborasi birinchi marta o'tgan asrning boshlarida (ya'ni XIX asr boshlarida) chop etilgan to'rt jildli "Mafkuraning tarkibiy qismlari" nomli frantsuz faylasufi va iqtisodchi olimi Desyut de Trasi asarida ilmiy muaomalaga kiritilgan bo'lib, e'tiqod, siyosat, ahloq, huquq va boshqa hayot sohalarining asoslarini ta'minlaydigan g'oyalar haqidagi ilmiy ta'limot yo'nalishi sifatida bayon qilingan.

Siyosiy mafkura hokimiyatning siyosiy munosabatlari mehanizmi to'g'risidagi g'oyalar, qarashlar, tasavvurlarning ilmiy-nazariy va dunyoqarash-metodologik mushtarakligi ekanligini ta'kidlash kerak. Siyosiy mafkuraning g'oyaviy yo'nalganligi mavjud siyosiy hokimiyatni saqlab qolish, uni mustahkamlash, yoki hukmronlik qilayotgan ijtimoiy guruhlarning siyosiy hukmronligini cheklash, zaiflashtirish, imkoniyat tug'ilgan taqdirda uni ag'darib tashlash o'z siyosiy hokimiyatini o'rnatish tomon harakat qilishning g'oyaviy-mafkuraviy asosini tashkil qiladi.

Siyosiy mafkuraning g'oyaviy yo'nalganligi muqarrar tarzda ilmiy-nazariy asoslanishga muhtoj bo'ladi. Siyosiy hokimiyat egasi bo'lgan ijtimoiy-siyosiy kuchlar ham, unga da'vogar bo'lgan ijtimoiy-siyosiy kuchlar ham avvalo o'z maqsad intilishlarini g'oyaviy-siyosiy jihatdan asoslash, ularning huquqiy va ahloqiy tabiatini namoyish etish uchun kurashadilar.

Siyosiy mafkura merosiylik va vorisiylik qonun-qoidalariga amal qiladi.

Oldingi jamiyatlarda shakllanib, amal qilib kelgan siyosiy-g'oyaviy ta'limotlarning hayotchan qismlari yangi jamiyat tarkibiga ham o'tib uning rasmiy va norasmiy siyosiy mafkuralariga singdiriladi.

Masalan, ijtimoiy tenglik va ijtimoiy adolat, insonparvarlik, vatanparvarlik, inson huquqlari, demokratiya kabi umuminsoniy qadriyatlar mehnatkash ijtimoiy guruhlarning asriy orzu-umidlari sifatida to'la qondirilishiga qadar ular siyosiy mafkurasining asosini tashkil etib qolaveradi, faqat bir jamiyatdan ikkinchisi o'tib borgan sari mazmunan boyib, rivojlanib boraveradi.

Siyosiy mafkura ijtimoiy hayotda muayyan funktsiyalarni bajaradi. Bular:

1. Mo'ljallash. Bu funktsiya shunda ifodalanadiki, mafkura jamiyat, ijtimoiy ravnaq, shaxs hokimiyat haqidagi fundamental tasavvurlarni o'ziga qamrab olib, u inson faoliyatining ma'no-mazmunini va mo'ljalini ko'rsatib beradi.
2. Safarbar etish. Fozil jamiyat g'oyasini taklif etib uni amalga oshirish uchun jamiyatni, ijtimoiy guruhlarni safarbar qiladi.
3. Birlashtirish. Siyosiy mafkura jamiyatni birlashtiruvchi omil bo'lib yuzaga chiqadi.
4. Yumshatish. Siyosiy mafkura jamiyat, guruhlar, individ extiyojlari va ularni qondirishning imkoniyatlari o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelgan vaziyatdagi ijtimoiy keskinlikni yumshatishga xizmat qiladi.
5. Muayyan ijtimoiy guruh manfaatlarini ifodalash va ximoyalash. Buning ma'nosi shuki, siyosiy mafkura u yoki bu ijtimoiy guruh manfaatlari asosida vujudga keladi va ularni boshqa guruhlar manfaatlari bilan o'zaro munosabatda sog'lom raqobat, murosa yoki kelishuv, ayriv hollarda ihtilofda bo'lishi mumkin. Mafkuraning funktsiyasi – aholining ommaviy siyosiy ongini egallash, qishilar mo'ljal qiladigan maqsad va vazifalarni belgilashdir.

Umuman mafkura, xususan siyosiy mafkura ham ijtimoiy ong mahsuli sifatida ilmiy yoki g'ayri ilmiy, haqiqiy yoki xato belgilari bilan baholanishi zarur. Ilmiy mafkura haqidagi ta'limot ishlab chiqishi munosabati bilan siyosiy mafkura yaxlit va tugal bir mazmunga ega bo'ladi. Ilmiy mazmundagi siyosiy mafkura ayni vaqtda uning haqiqiy bo'lishini, g'ayriilmiy siyosiy mafkura esa ayni bir vaqtning o'zida uning xato bo'lishini ham anglatadi.

***Mafkuraning ijtimoiy hayotdagi o`rni, roli, manbalari va maqomi xaqidagi qarashlar.*** Siyosiy mafkura ijtimoiy hayotda muayyan vazifalarni bajaradi. Ulardan quyidagilarni ajratib ko`rsatish mumkin:

**1) mo`ljallash vazifasi**. Mafkura jamiyat, ijtimoiy ravnaq, shaxs, hokimiyat xaqidagi fundamental tasavvurlarni o`ziga qamrab olib, inson faoliyatining mazmuni, tizimi va mo`ljalini ko`rsatib beradi;

2) safarbar etish vazifasi. Siyosiy mafkura siyosiy faoliyatni amalga oshirish uchun jamiyat hamda ijtimoiy guruhlarni safarbar etadi;

3) birlashtirish vazifasi. Siyosiy mafkura xususiy bo`lgan siyosiy manfaatlarga qarshi turadi va shu bilan ijtimoiy guruhni birlashtiruvchi omil bo`lib yuzaga chiqadi;

4) amortizatsiyalash vazifasi. Siyosiy mafkura jamiyat, guruhlar, individ ehtiyojlari va ularni qondirishning real imkoniyatlari o`rtasida nomutanosiblik vujudga kelgan vaziyatdagi ijtimoiy keskinlikni yumshatishga xizmat qiladi.

5) muayyan ijtimoiy guruh manfaatlarini ifoda etish va himoyalash vazifasi. Siyosiy mafkura u yoki bu ijtimoiy guruh manfaatlari asosida vujudga keladi va ularning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo`ladi.

Globallashuv (globolizatsiya) – lotincha "global" so'zidan olingan bo'lib, aynan uni "dumaloqlashuv", "kurralashuv"deb tarjima qilish mumkin[86]. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi (taniqli amerikalik olim R.Robertson 1985 yilda fanga kiritgan). Insoniyat taraqqiyoti ayni payitda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish jarayonidir. Bu jarayon ming yillar davom etgan. Globallashuvning ikki tomonini ko'rishimiz mumkin: ijobiy tomoni shundan iboratki, u xalqlarning, davlatlarning, milliy madaniyat va iqtisodiyotning yaqinlashtirishni tezlashtiradi, ularning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Uning salbiy tomoni shundan iboratki, ko'pgina mayda, qaloq etnik guruhlar va millatlarning madaniyati, tili, rasm-rusumlari jahon bo'ylab kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlarida katta millatlar, yirik milliy madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlasha olmay, o'z-o'zidan ijtimoiy-iqtisodiy hayotdan chetda qoladi.

Har bir sohada globallashuv bo'lgani kabi mafkura sohasida ham globallashuv mavjuddir.

Biron-bir hudud yoki mamlkatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamzot ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqladigan, turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib yashamoqda.

Bunday vaziyatda o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, mustahkam iroda va dunyoqarashiga ega bo'lmagan odam goh oshkora, goh pinhona ko'rinishda namoyon bo'layotgan mafkuraviy tazyiqlarga bardosh bera olmaydi. Yaponiyada paydo bo'lgan "AUM Sinrikyo" kabi zararli oqimlar turli mamlakatlardagi minglab yosh yigit-qizlarni irodasidan, ong-shuuridan mahrum qilib, zombiga aylantirib qo'ygani bu fikrning dalilidir[87].

Keng miqiyosli integratsiya va globallashuv jarayonlari jahon taraqqiyotining hozirgi paytdagi muhim xususiyatlaridan biri ekanini e'tirof etgan holda, ularning kuchli mafkuraviy ta'sir o'tkazish vositasi ekanini ham unutmaslik darkor.

Bunday sharoitda har bir ongli fuqaroning vazifasi- o'z millatining raqobatbardoshligini ko'tarish, buning uchun uning faol siyosati, tadbirkor iqtisodiyoti, madaniyatda salmoqli yutuqlari uchun kurashishdir. Buning uchun mustaqil O'zbekistonning har bir fuvarosi, birinchi navbatda, hozirgi kun amaliyoti talab qilayotgan to'rt sifatga ega bo'lishi shart:

1) Zamonaviy mutaxassis bo'lishi;
2) o'zbek-davlat tili, rus tili va ingliz tillarini mukammal bilishi;
3) doimo o'z bilim doirasini yangilab borishi;
4) tadbirkor-tashabbuskor bo'lishi kerak.

Dunyoning siyosiy iqtisodiy, madaniy qiyofasi bo'lgani kabi, mafkuraviy

[86] Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: "Sharq", 2006. 70-bet.
[87] Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: "O`zbekiston", 2001. 23-bet.
.

manzarasi ham mavjud. Dunyoning mafkuraviy manzarasideganda odamlarning qalbi va ongini egallash uchun olib borilayotgan kurash qaerda, qanday kechayotgani, bu yo'lda qaysi joyda qanday usul va vositalar qo'llanilayotgani tushuniladi. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasida inson qalbi va ongiga ta'sir o'tkazuvchi turli xil vositalar bilan kurash olib boruvchi mafkuraviy poligonlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Mafkuraviy poligon deb, odamlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan g'oya va mafkurani mablag', zamonaviy texnik vositalar bilan kuchlantirib, moddiy va ma'naviy tashviqot qurollarini ishga solib, dunyodagi axborot va fikr oqimini o'z foydasi yo'lida boshqarib turadigan g'oyaviy markazga aytiladi. Ularning ta'sirida radio, televidenie, gazeta-jurnal, internet, umuman hamma axborot tarmoqlari mavjud.

Jahon maydonlaridagi mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar:

1. Siyosiy (buyuk davlatchilik shovinizmi).
2. Diniy (diniy ekchtrimistik, aqidaparastlik, panislomizm).
3. Badiiy (G'arb turmush tarzini salbiy tomonlarini – zo'oavonlik, yovuzlik va boshqa axloqsizlikni targ'ib qiluvchi).

Dunyoni bo'lib olishga urinayotgan mafkuralarning shakllari:

1) Buyuk davlatchilik mafkurasi.
2) Diniy ekstrimistik mafkuralar.
3) Pansovetizm mafkurasi.
4) Panislomizm mafkurasi.
5) G'arb turmush tarzini ifodalagan mafkuralar.
6) Amerikacha turmush tarzini ifodalagan mafkuralar.
7) Turli diniy sektalarning g'oyalarini targ'ib qiluvchi mafkuralar.

Jahonni mafkuraviy jihatdan bo'lib olish uchun tinimsiz harakat olib borayotgan bunday paytda faqat kuchli milliy mafkuragina jamiyatni ana shu tazyiqlardan muhofaza qila oladi.

Siyosiy mafkuraning darajalari: nazariy-kontseptual, dasturiy-siyosiy, xulq-atvor. Talaba siyosiy mafkuraning amal qilish darajalarini bir xil emasligini tahlil qilib, xususan, uning nazariy-kontseptual, dasturiy-direktivalik va xulq-atvorlik darajalari mavjudligini yoritib berishi kerak.

Siyosiy mafkuraning *nazariy-kontseptual* darajada amal qilishi - u yoki bu sinf, ijtimoiy qatlam, millat, davlatning manfaatlari va ideallarini ochib beruvchi asosiy qoidalarning qaror toptirilishidir.

Siyosiy mafkuraning *dasturiy-direktivalik* darajada amal qilishi esa ijtimoiy-falsafiy tamoyillar va ideallarni siyosiy elitaning aniq dasturlari va boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ommaning siyosiy xulq-atvorini rag'batlantirish uchun g'oyaviy asos bo`lib xizmat qilishini anglatadi. Ta'kidlash joizki, siyosiy mafkura amal qilishining ushbu darajasi "siyosatning yaratuvchi elementi" deb talqin etiladi.

Siyosiy mafkuraning *xulq-atvorlik* darajasida mazkur mafkura maqsadlari va tamoyillari fuqarolar tomonidan o`zlashtiriladi, hamda uning jamiyat siyosiy hayotida ishtirok etishi u yoki bu shakllarda o`z ifodasini topadi. Bu holda mafkura

kishilarning xatti-harakatiga aylanib, ularni jipslashtiradi, birlashtiradi, muayyan yo`lga yo`naltiradi, safarbar etadi.

Siyosiy mafkuraning amal qilish darajalari

12.2-chizma



Mafkuraning xilma-xilligi. Qarama-qarshi manfaatlar mavjud bo'lgan jamiyatlarda siyosiy mafkura inqilobiy yoki reaktsion, taraqqiyparvar yoki turg'un (konservativ), keskin (radikal) yoki murosachi (liberal), baynalminal yoki millatchi ruhdagi mafkuralar sifatida baholanadi.

Asosiy mafkuraviy oqimlar: liberalizm va neoliberalizm; konservatizm va neokonservatizm; sotsial-demokratiya, marksizm va neomarksizm; fashizm, anarxizm. Siyosiy mafkura zamon va makondan tashqarida bo'lgan mavxum ruxiy xodisa emas. U muayyan tarixiy sharoit bilan bog'liq – aniq ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan ma'naviy xodisadir. Har bir tarixiy davr o'ziga xos, o'ziga mos mafkuraviy oqimlarni ilgari suradi. Bundan hozirgi zamon ham mustasno emas.

Hozirgi davrda eng yirik va keng tarqalgan mafkuraviy oqimlardan biri – **liberalizm**. Bu atama lotincha **"liberalis"** so'zidan olingan bo'lib **"erkin"** degan ma'noni anglatadi.

Liberalizmning poydevorini shaxs erkinligi, uning barcha jamiyat institutlariga nisbatan eng oliy qadriyat ekanligi, shaxsning ham o'z oldida, ham jamiyat oldida mas'uliyati barcha kishilarning o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish huquqini tan olishligi kabi printsiplar tashkil etadi. Liberalizm XV11-XV111 asrlarda shakllandi. Liberalizmning asosini shaxs erkinligi, uning barcha jamiyat institutlariga nisbatan eng oliy qadriyat ekanligi, shaxsning ham o`z oldida, ham jamiyat oldida mas'ulligi kabi tamoyillar tashkil etadi. Bu mafkura parlament tuzumining muhim siyosiy muammolarini hal etishda murosa hamda kelishuvning tarafdori bo`lib, davlatning o`sib ketgan iqtisodiy-ijtimoiy funktsiyalariga salbiy munosabatda bo`ladi. Bu g'oyani, D. Mill quyidagicha izohlaydi: "Inson o`ziga nima kerakligini har qanday hukumatdan ko`ra o`zi yaxshi biladi". Liberalizm

g’arb demokratiyasining g’oyaviy asosi hisoblanadi. Bu mafkura bayrog’i ostida AQShda “oqilona davlat”, “yalpi farovonlik davlati” deb ataladigan model yaratilgan.

Mafkuraning har qanday ko’rinishi o’zgarmasdan qola olmasligi kabi liberalizm ham o’zgarmasdan qolmadi. U ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlarning ta’siri ostida XX asrning 30-yillarida **neoliberializmga** o’sib o’tdi. Neoliberallar siyosiy dasturining negizini boshqaruvchi va boshqarilayotganlarning o’zaro kelishuvi, siyosiy qarorlarni qabul qilish amaliyotini demokratiyalash tashkil etadi. Bu yangi mafkuraviy oqimning paydo bo`lishini AQSh Prezidenti Franklin Ruzveltning “Yangi yo`l”i bilan bog’laydilar. Neoliberalizm — bu ya’ni liberalizmning yangicha talqini. Ruzvelt liberalizm mafkurasiga asoslangan siyosatga davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rolini qaytadan ko`rib chiqish bilan bog’liq muhim tuzatishlar kiritdi. Neoliberallar davlatning iqtisodiy munosabatlarini tartibga solish, faol ijtimoiy siyosat olib borish zarurligini tan oladilar. Bugungi kunda neoliberalizm AQSh Demokratik partiyasi va boshka demokratiyaga asoslangan mamlakatlardagi siyosiy partiyalar faoliyatining g’oyaviy-nazariy negizi bo`lib qolmoqda.

Taraqqiyot natijasida konservatizim ham muhim o’zgarishlarga yuz tutdi. Ular ham liberallar singari bozor, raqobat erkinligi ta’minlanishi, iqtisodiyotga davlatning aralishishini cheklashni talab qildilar.

Konservatizim hozirgi zamonning yirik mafkuraviy oqimlaridan biri. Bu atama lotincha “konservare” so`zidan olingan bo`lib “saqlash”, “qo`riqlash” degan ma’noni anglatadi. Konservatizmning asosiy qoidalari negizida tabiiy ravishda qaror topgan narsalar tartibining buzilmasligi, oila, millat, din, tabaqaviy bo`linishi bilan bog’liq an’anaviy qadriyatlarni saqlab qolish g’oyasi yotadi. Konservatorlar ijtimoiy taraqqiyotda yangiliklarga nisbatan vorislik ustuvorligini yoqlab chiqadilar. Siyosiy printsiplarni urf-odatlarga, milliy an’analarga, qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy institutlarga moslashtirish lozimligiga alohida e’tibor beradilar. Konservatorlar har doim egalitarizm (“egalitarisme” - frantsuzcha umumiy tenglik) bilan bog’lik bo`lgan “haddan tashqari demokratizm”ga qarshi chiqadilar. Endilikda konservatizm ham liberalizm singari muhim o`zgarishlarga yuz tutdi hamda yirik kapital manfaatlarini himoya qiluvchi g’oyaga aylandi.

XX asrning 70-yillarida konservatizimning tarixida Yangi bosqich – **neokonservatizim** boshlandi. Bu yangi oqimning paydo bo`lishini AQShda Ronald Reygan boshchiligida respublikachilar, Buyuk Britaniyada Margaret Tetcher boshchiligida konservatorlar, GFRda Gelmut Kol boshchiligida XDX-XSS blokining hokimiyatga kelishi bilan bog’laydilar. Neokonservatizm neoliberalizm va sotsializmga qarshi turish maqsadida shakllandi. Neokonservatizm davlatning iqtisodiyotga ta’sirini cheklashni talab kiladi.

Davlatning ijtimoiy vazifalarini cheklash neokonservatizim g’oyaviy-siyosiy ko’rsatmalarini belgilovchi alomatidir. Neokonservatizim shaxsning ijtimoiy faolligini tan olib, vazifali ta’limotlarning insonparvar g’oyalarini birlashtirdi.

Hozirgi zamonning eng ta’sirli mafkuraviy oqimlaridan biri – **sotsial-demokratiya**dir. Ular jamiyatni evolyutsion yo’l bilan o’zgartirish, davlatning jamiyat iqtisodiy hayotiga aralashishni, daromadlarni yo’qsillar foydasiga taqsimlashni yoqlaydilar. Sotsial demokratiya mafkurasi X1X asrning oxirida

vujudga keldi va yangi jamiyatga inqilobiy yo`l bilan emas, balki tinch, evolyutsion yo`l bilan, ya'ni jamiyatni bosqichma-bosqich isloh qilish orqali o`tish g'oyasi bilan chiqdi. Jahonda sotsial-demokratiya mafkurasi negizida turli-tuman "sotsializm modellari" shakllandi. Bular ichida shved va german modeli katta obro` qozondi. Germaniya va Shvetsiyada sotsial-demokratik partiyalar boshqaruvi davrida hayotning yuqori darajasi va sifatiga erishildi.

12.3-chizma



Bu g'oyalar XX asr ijtimoiy ongiga juda katta ta'sir ko'rsatdi, biroq demokratik sotsializm modellarining amalga oshmaganligi "umumiy farovonlik" davlatni ro'yobga chiqarish bilan bog'liq qiyinchiliklar, "real sotsializm"ning barbod bo'lish: sotsial demokratiyaning jahondagi ta'siriga putur etkazdi.

Mafkura turlari

12.4-chizma



Hozirgi zamonning yirik mafkuralari qatorida **milliy mafkuralar** ham muhim o`rinni egallaydi. Ular kelib chiqishi va mazmun-mohiyatiga ko`ra boshqa

mafkuralardan farq qiladi. Birinchidan, milliy mafkuralar dunyo mustamlakachilik sistemasining emirilishi, yosh mustaqil milliy davlatlarning tashkil topishi va ularni qaramlik doirasidan chiqarish, rivojlantirish zaruriyati bilan maydonga keldi. Ikkinchidan, milliy mafkuralar faqat ayrim ijtimoiy, irqiy, etnik guruh, xalq manfaatinigina emas, balki mustaqillik uchun, milliy hayotni rivojlantirish uchun kurash olib borayotgan xalqlarning intilishlarini aks ettiradi. Uchinchidan, milliy mafkuralar qaramlikning ob'ektiv sabablarini, ularni bartaraf etish va haqiqiy mustaqillikka erishish yo`llarini ochib beradi. To`rtinchidan, milliy mafkuralar xalqlarning o`zligini anglashga, qaramlik doirasidan chiqishga, ularning chinakamiga erkin bo`lishiga, jahon hamjamiyatida munosib o`rnini topishga yordam beradi.

Milliy mafkuralar maqsadi

12.5-chizma



Ekologik-siyosiy mafkuralar urushdan keyingi yillarda vujudga keldi va XX asr 70–80-yillarda keng rivoj topdi. Bunga rivojlangan mamlakatlardagi og'ir ekologik vaziyat sabab bo`ldi.

Diniy-siyosiy mafkuralar diniy aqidalarga tayanadi. Buni ayrim mamlakatlarda, xususan Yaqin Sharq va Osiyoda (Eron, Pokiston, Afg'oniston, Saudiya Arabistoni) va boshqa mamlakatlar misolida ko`rish mumkin.

Shunday qilib, hozirgi zamonning mafkuraviy oqimlari rang-barangdir. Ular xilma-xil ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifoda etadi va jamiyatni taraqqiy ettirishning turli-tuman yo`llarini ilgari suradi.

Shuni ta'kidlash lozimki jamiyat siyosiy hayotida amal qilayotgan barcha turdagi va ko'rinishdagi siyosiy mafkuralar tarkibiga u yoki bu darajada buddizm hamda ularning xilma-xil mazxablari ta'siri singdirilgandir. Aytish mumkinki, har bir ijtimoiy guruh, tabaqa, qatlam o'zining tub manfaatlariga zid kelmaydigan

diniy aqidalarni o’zining siyosiy mafkurasi mazmuni bilan bog’laydi va shunday tarzda amal qildiradi. O’zbekiston ham o’z xususiyatlaridan kelib chiqib islomdagi barcha umuminsoniy qadriyatlarni o’zining siyosiy mafkurasi bilan bog’laydi.

Jahon tarixini umumlashgan tarzda bir pillapoya ko’rinishida tasavvur qilsak, uning har bir zimmasini insoniyat oldida yangi imkoniyatlar va istiqbollar eshigini ochib beruvchi taraqqiyot bosqichi deyish mumkin. Bu tarix mazmunini esa ko’p jihatdan turli ijtimoiy tabaqalar, siyosiy oqimlar, xalqlar va millatlar, alohida davlatlar va ijtimoiy tuzumlarning xilma-xil maqsad va manfaatlarini o’zida aks ettiruvchi g’oyalar va mafkuralarning amaliyoti belgilaydi. Tarixiy jarayon tabiatidan kelib chiqadigan mazkur xususiyatning dialektikasi insoniyat uchun doimiy bo’lgan “ezgulik” va “yovuzlik” o’rtasidagi abadiy kurash deb atalmish muxtasar ta’rifda o’z aksini topgan.

“Ezgulik” taraqqiyotga intiluvchi kuchlarni, insonparvarlik va yuksak axloq falsafasini, ijtimoiy adolat printsiplari yoki “Avesto”da bayon qilingan “ezgu fikr, ezgu so’z va ezgu ish”ning negizini tashkil etadigan qadriyatlarni o’zida mujassam etadi. “Yovuzlik” esa tarixiy reaktsiya, taraqqiyot g’ildiragini orqaga burish, qora kuchlar faoliyati va hukmronligini ifodalaydi. Insoniyatning, jumladan, O’zbekistonning keyingi yuz yillik solnomasida ham turli bosqinchiliklar oqibatida zulm, zo’rlik, kulfat urug’larini sochish va qon to’kilishiga sabab bo’lgan buzg’unchi g’oyalar va mafkuralarning halokatli ta’smiri bilan bog’liq qayg’uli sahifalar ko’p. Bu g’oyalar o’zlarida siyosiy bosqinchilik va mustabidlik intilishlarini goh yashirin, goh oshkora ifodalagan holda diniy, milliy, sinfiy shiorlarni bayroq qilib maydonga chiqqanini ko’ramiz. Lekin mohiyat hamisha o’zgarmay qolavergan. Ya’ni, ular millatlar va xalqlarning turmush tarzi, madaniyati, a’nana va urf-odatlarini kuch bilan o’zgartirishga, keng xalq ommasini boshqalarning siyosiy irodasiga bo’ysundirish va mafkuraviy asoratga solishga, o’zaro adovatga asoslangan ijtimoiy tartiblarni qaror toptirishga, millatga yot mafkuraviy tasavvurlarni tiqishtirishga qaratilgan. Buzg’unchi g’oyalar va mafkuralarning amalga oshirilishi millatlar va xalqlar azaliy madaniyatining emirilishiga, davlat va jamiyat hayotida salbiy hodisalarning kuchayishiga sabab bo’lgan, ko’plab xalqlarni o’z yo’lini o’zi tanlash huquqidan mahrum etgan.

G’oyalar va mustabid mafkuralar tarixida sobiq kommunistik ta’limot alohida o’rin tutadi. U tashqi jihatdan adolat idealini o’zida mujassam etgan olijanob intilishlarni asos qilib olgandek ko’rinsa-da, oxir-oqibatda mustabid jamiyatni shakllantirish mafkurasiga aylanadi.

Bolshevizm bilan bir qatorda, XX asrning boshida ildizlari sotsialistik g’oyadan suv ichgan mustabid g’oya va mafkuraning boshqa shakli fashizm paydo bo’ldi. Sobiq sotsialist B.Mussolini Italiyada fashistlar harakatining asoschisi bo’ldi. Germaniyada milliy sotsialistik partiya tuzgan A.Gitler esa fashizmning “ma’naviy ota”siga aylandi. Fashizm II-Jahon urushi olovini yoqdi, 50 mln.dan ortiq kishining qirilib ketishiga sabab bo’ldi. Bizning mamlakat ham motam libosiga o’raldi. Ikkinchi Jahon urushi jabhalarida kurashgan O’zbekiston jangchilardan 263005 nafari halok bo’ldi, 132670 kishi dom-daraksiz ketdi, 60452 kishi nogiron bo’ldi.

Kommunizm va fashizm mafkuralari o’rtasida ko’plab o’xshash jihatlar

mavjud. Ayni paytda jiddiy tafovutlar ham ko'zga tashlanadi. Asosiy farqlardan biri, bu millat omilining turlicha baholashidir. Agar kommunistik ta'limot, xalqlarning milliy-etnik o'ziga xosliklarini yo'qotish, "proletar baynalminalligi" shiori bilan maydonga chiqqan bo'lsa, fashizm bir hukmron millatning "irqiy-etnik sofligi"ni mutlaqlashtirishni targ'ib-tashviq etadi. U irqchilikning homiysi hisoblanadi.

"Rasizm" so'zi "rasa" (irq) atamasidan kelib chiqqan. Bu atama XVII asrdan boshlab Yevropada "insoniyat nasli"ni turli irqiy guruhlar, jumladan, "oq", "qora" va "sariq" irqqa ajratish uchun qo'llana boshladi. Irqchilik ta'limoti "oq tanli"larning afzalligi, ularning azaldan "oliy irq" etib tayinlangani, boshqa irqlarning esa "oq"larga qaraganda nomukammal yaratilganligi va hamisha taraqqiyotning quyi pog'onalarida turishini "asoslab" beradi. Uning asosiy g'oyasi o'zining "iloxiy" tabiatiga qaratilgan edi. Irqchilik milliy mansubligi va terisining rangiga ko'ra ajralib turuvchi kishilarga tazyiq o'tkazish, ularni haqoratlash, urish va o'ldirish kabi harakat-hodisalarda yaqqol namoyon bo'ldi. Ijtimoiy hukmronlik shakllaridan birining mafkurasi bo'lar ekan, u buyuk davlatchilik, ashaddiy shovinizm, "tanlangan" xalqlarning milliy afzalligi g'oyalari bilan chambarchas bog'lanib ketdi.

Irqchilik – ko'p qiyofali. Masalan, o'zini oliy irq hisoblagan ingliz, ispan, frantsuz bosqinchilari o'rta asrlar va ayniqsa, XVIII-XIX asrlarda Amerika, Avstriya, Afrika va Osiyoda yerli xalqlarni ko'plab qirib tashladilar. Janubiy Afrika Respublikasi tomonidan XX asrda uzoq yillar mobaynida o'tkazib kelingan irqiy ayirmachilik siyosati – shavqatsiz irqiy tahkirlash va kamsitishlarda o'z ifodasini topdi. 1865 yilda AQShda tuzilgan "Ku-kluks-klan" terroristik tashkiloti ham o'zining oshkora irqchilik yo'nalishidagi faoliyati bilan ajralib turdi. Negrlarning fuqarolik huquqlariga qarshi kurash va ularni mamlakatdan chiqarib yuborish uning asosiy g'oyasi hisoblanadi.

Yana bir yozuv g'oya-**terrorizm** bugungi kunda ham insoniyatga katta tahdid solmoqda. Jamiyatga doimiy qo'rquv, fitna-g'alamaslik muhitini vujudga keltirish, zo'rovonlik yo'li bilan jamiyat barqarorligini buzish, gunoh kishilar, jumladan, bolalarning halok bo'lishiga olib keladigan siyosiy maqsaddagi o'ldirish va portlashlar bu mudhish g'oyaning asl mohiyatini tashkil etadi.

Siyosiy terrorizm XIX asrdayoq vujudga kelgan edi. Lekin u XX yuz yillikda keng quloch yozdi. G'arbiy Germaniyadagi "qizil armiya" va Italiyadagi "qizil brigada" guruhlari, Ispaniyadagi banklar tashkiloti, Olsterdagi "Inqilobiy-haloskorlik armiyasi", Perudagi "Porloq hayot" kabi birlashmalar zamonaviy siyosiy terroristlarning avlodi edi. Keyingi yillarda dunyoning o'nlab mamlakatlarida, jumladan, bizning yosh davlatimiz chegarasiga yaqin davlatlar hududlarida ham terrorizm o'choqlari paydo bo'ldi.

Dunyoning mafkuraviy manzarasi deganda odamlarning qalbi va ongini egallash uchun olib borilayotgan kurash qaerda, qanday kechayotgani, bu yo`lda qaysi joyda qanday usul va vositalar qo`llanayotganini tushunamiz. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasida inson qalbi va ongiga ta'sir o`tkazuvchi turli xil vositalar bilan kurash olib boruvchi mafkuraviy poligonlar yaqqol ko`zga tashlanmoqda. «Mafkuraviy poligon» tushunchasini birinchi marta Prezidentimiz

Islom Karimov «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga bergan javoblarida ishlatgan.

Mafkuraviy poligon deb, odamlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan g'oya va mafkurani mablag', zamonaviy texnik vositalar bilan kuchlantirib, moddiy va ma'naviy tashviqot qurollarini ishga solib, dunyodagi axborot va fikr oqimini o`z foydasi yo`lida boshqarib turadigan g'oyaviy markazga aytiladi.

Insoniyat XX asr oxiriga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolarga duch keldi. Urush va tinchlik, ekologik falokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm kabi muammolar ana shular jumlasidandir.

1. Buyuk davlatchilik shovinizmi. (Shovinizm fran. burjua millatchiligining o`ta reaktsion formasi) boshqa millat va xalqlarga nafrat va dushmanlikni avj oldirishga qaratilgan. Shovinizm go`yo to`laqonli bo`lmagan boshqa millatlar va irqlar ustidan hukmronlik qilishga da'vat etilgan bir millatning alohidaligini («mumtozligini») targ'ib etadi.

Buyuk davlatchilik shovinizmining bugungi kunda boshqacha ko`rinishlari ham mavjud:

1) Pansovetizm – uzoq vaqt davomida bir ittifoq doirasida yashash natijasida ijtimoiy-siyosiy hayotda yuzaga kelgan muayyan yaqinlik, o`xshashlik, umumiylik, iqtisodiy aloqadorlik va bog'liqlikni mutlaqlashtirishga asoslangan.

2. Diniy aqidaparastlik – siyosiy maqsadlar yo`lida mavjud ijtimoiy muammolarni ilk, ya'ni mazkur din paydo bo`lgan paytdagi arkonlar asosida hal etmoq niyatidagi harakat va qarashlardan iborat. Masalan, islom dinidagi hozirgi aqidaparastlar ijtimoiy, milliy xususiyati, qaysi davlatga mansubligidan qat'iy nazar, barcha musulmonlarning ma'naviy birligi haqidagi tasavvurlarga tayanib ularning yagona halifalik ostida siyosiy birlashuvi g'oyasini asoslashga harakat qiladi. Bu ideologiya diniy asosda birlashuv g'oyasini birinchi o`ringa qo`yadi. Bu oqim ma'naviy zaminda iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, ilmiy-texnik hamkorlik, salohiyat taraqqiyotga yo`l ochsa, buning nimasi yomon degan «beozor» mafkuraviy qarashni ilgari suradi.

Islom aqidaparastligi – zamonaviy islomda mavjud 3 yo`nalishdan biri: bu **diniy aqidaparastlik – Islom fundamentalizmidir**. Aslida u demokratiya va oshkoralik davrida «sof» islomni tiklash harakati asosida Markaziy Osiyo musulmonlari, ko`pincha yosh musulmonlar orasida paydo bo`lgan diniy oqimdir. Islom aqidaparasligi, ya'ni islom fundamentalizminining **asosiy g'oyasi** – «sof islom» qadriyatlariga (printsiplariga) qaytish, maqsadi esa – islomiy davlat va taraqqiyot yo`lini joriy etishdan iborat.

Diniy ekstremizm – ma'lum siyosiy maqsadlar yo`lida va din niqobi ostida mutaassiblar yoki ularning irodasiga ko`ra ish ko`ruvchi guruhlar tomonidan olib boriladigan o`ta ashaddiy harakatlar va qarashlar majmuini anglatadi. Boshqacha aytganda, diniy ekstremizm – muayyan diniy yo`nalish va tashkilotlardagi ashaddiy mutaassib unsurlar siyosiy faoliyatining mafkurasi[48].

3. Islom modernizmi – islomning diniy ta'limotdagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ijtimoiy muammolarga taalluqli aqidalarini yangi zamon sharoitlariga

[48] Irisov B. Din, aqidaparastlik va tahdid. Ma'ruza matni. T.: «Ma'naviyat», 2000, 3–4-betlar.

muvofiqlashtirish, zamonaviylashtirish orqali taraqqiyotning yangi yo`llarini ishlab chiqishdir.

4. Islom traditsionalizmi – bu oqim tarafdorlari o`rta asr aqidalariga qattiq amal qilib, bularni o`zgarmas deb hisoblagan holda dinni har qanday isloh qilishga, modernizmga qat'iy qarshi chiqqanlar va hozir ham shunday qilayotirlar.

1991 yil 14 iyunda O`zbekiston Oliy Kengashining 12-chaqiriq 5-sessiyasida «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to`g'risida»gi qonuni qabul qilingan edi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to`g'risida»gi qonunning yangi tahriri 1998 yil 1 mayda Oliy Majlisning 11-sessiyasida qabul qilindi.

Hozirgi davr va mafkuraviy poligonlarda g'arazli geosiyosiy maqsadlarga erishish yo`lidagi mafkuraviy ta'sir o`tkazishda eng avvalo «**bo`lib tashla va hukmronlik qil**» degan, qadimiy tamoyilga amal qilishga urinilmoqda.

Foyaviy bo`shliq** deb, eski hukmron mafkura halokatga uchrab, u bilan bog'liq tushunchalarning qadrsizlanishi, bugungi hayot, o`tmish va kelajakka daxldor qadriyatlar, tushuncha va tasavvurlarni to`liq anglab etmasligi oqibatida odamlarning qalbi va ongida vujudga keladigan **bushliqqa aytiladi.

Prezident Islom Karimov **mafkuraviy immunitetga** shunday ta'rif bergan edi: «Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida Ona-Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo`lsa ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur».

2001 yil 18 yanvarda O`zbekiston Prezidentining «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo`yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to`g'risida»gi farmoyishi qabul qilindi[49].

G'oyalar ko'rinishi **2.1-chizma**



Ikki tizim amal qilgan yaqin o'tishida shiddatli g'oyaviy-mafkuraviy kurash sodir bo'lib turgan. Mana shu kurashning asosiy yo'nalishlarini ikki oqim mafkurasizlantirish (deidolizatsiya) va mafkuralashtirish (ideologizatsiya) tashkil etgan.

[49] Ma'rifat gazetasi. 2001 yil 20 yanvar.

Mafkuralashtirish – bu keng omma, jamoatchilik uchun ma’qul va majburiy tarzda “Yangi mafkura” yaratib, jamiyatdagi barcha ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarni va to’qnashuvlarni shu vosita yordamida bir yo’la hal qilish demakdir.

Demak, g’oyaviy-siyosiy kurash jarayonlarining ikki asosiy yo’nalishda – mafkurasizlantirish va mafkuralashtirish tamoyillarda ifoda topgan ekan.

Rivojlangan mamlakatlarning “Sotsializm” dunyosiga qarama-qarshi turgani sharoitida ulardagi ijtimoiy-siyosiy tafakkuri olamida XX asrning o’rtalaridan boshlab mafkurasizlashtirish oqimining keng o’rin egallab, g’oyaviy kurash sohasida yoyila boshlaganligi ma’lum. Mazkur oqim zaminida yotgan asosiy maqsad yo’nalish g’oyaviy kurashda “ob’ektivlik”ni qalqon qilib olib mafkuraning partiyaviyligi aqidasini butunlay inkor etish tashkil qilar edi.

Mafkurasizlashtirish, shu jumladan ishchilar sinfi siyosiy mafkurasini ham inkor etish monopolistik burjuaziya tub manfaatlarini himoya qilishga mo’ljallangan edi.

XX asrning 50-60 yillarida rivodlangan mamlakatlarning bir qator siyosatshunos va sotsiolog olimlari, shu jumladan S.M.Lipeet, E.Shile, R.Aron, D.Byoll, K.Popper mafkurasizlashtirishni marksizm ta’minotiga va umuman, ijtimoiy-siyosiy tafakkurning so’l va o’ta so’l oqimlariga qarshi qaratilgan sotsiologik hamda siyosatshunoslik ta’minotlari sifatida ishlab chiqdilar va keng tarkib qila boshladilar. Mazkur mafkurasizlashtirish ta’limotining aso maqsadini bir tomondan, monopolistik guruh mafkurasini partiyasiz, siyosatsiz “toza fan” sifatida targ’ib qilib, ikkinchi tomondan, har qanday mafkuraning g’ayri ilmiy tabiatga ega ekanligini isbotlamoqchi bo’ladilar.

Mafkurasizlashtirish maslakdoshlari o’zlarining shu tarzdagi fikr-mulohazalarini isbotlashga urinib, yana bir dalil keltiradilar: ilmiy-texnika inqilob keng va chuqur amal qilish natijasida go’yo o’tgan asrdan meros bo’lib o’tgan va qotib qolgan g’oyaviy mafkuraviy aqidalar o’rniga ob’ektiv tabiatli, “betaraf” ilm-fan va din-e’tiqod kelgan bo’lib, yangi vaziyat va yangi shart-sharoit mafkurasizlashtirishni taqazo etayotgan emish.

Mafkurasizlashtirish ta’minoti keyingi yillarda “industrial jamiyat” va ikki tuzumning qo’milib ketishi (“konvergentsiya”) haqidagi tamoyillar bilan uyg’unlashtirish sifatida talqin etila boshlandi.

Ikki tomonlama – ham ilmiy-metodologik ham siyosiy hayot amaliyoti tomonidan mafkurasizlashtirish ta’minoti jiddiy zarbaga uchrashi natijasida uning oldingi ijodkorlari va qatiy targ’ibotchilari bu sohadagi o’z mavqelarini bir oz bo’ysuntirishga, uning ayrim tomonlarini qayta ko’rib chiqishga hamda tanqidiy mulohazalarning birmunchasini tan olishga majbur bo’ldilar. Lekin mafkurasizlantirish uchun kurash zaiflangan holda bo’lsada, xamon davom etmoqda, mafkurasizlantirish ta’limotiga moyillik esa ham monopolistik guruhlar tub manfaatlarini himoya qilishga astoydil bel bog’lagan politolog va sotsiolog olimlar, targ’ibotchilar doirasida kuchli tarzda mavjuddir.

Sharq mamlakatlarida mafkuralarning o`ziga xos xususiyatlari.

O`zbekistonda milliy g’oya va uning jamiyat hayotidagi o`rni va roli. O’zbekistonning mustaqil suveren davlat maqomiga ega bo’lganligi, jamiyatda yuz bergan demokratik jarayonlar, xurfikrlilikka intilish xalqning milliy ongi mutassil

oshib borishi mavjud hodisalarga yangicha tafakkur bilan qarashni taqazo qilardi. Jumladan, O'zbekiston butunlay yangi tarixiy sharoitlarda butunlay yangicha qarashlarni, munosabatlarni qaror topgandagina respublika o'zining to'la siyosiy suvereniteti va iqtisodiy mustaqilligiga erishgandagina belgilashi mumkinligini ancha oldin tushungan va bu borada o'zining qat'iy qaroriga kelgan edi. Binobarin, xalqni yangi yo'ldan boshlab borish, uning qarashlari va orzu-maqsadlarini bir yo'nalishga burib, kuchlarni uyg'unlashtirish uchun yagona g'oyaviy qurol zarur edi. O'zbekiston uchun buyuk tarixiy voqea, milliy mafkura shakllanishida yangi davr boshlanishi edi. Bu xol tabiiy sur'atda kishilarning siyosiy ongi oshishiga olib keladi. Odamlar jamiyatda yuz bergan o'zgarishlar shiddati oldida birmuncha gangib qolishdi. Ana shunday paytda umumxalq, umumdavlat mos keladigan eng maqbul yo'lni tanlash, bunnig uchun esa mafkuraviy yakkaxokimlikka barxam bergan holda aholining barcha tabaqalari qatlamlarini, talab-extiyojlarini ma'naviy-ruxiy chanqoqligini qondira oladigan etuk va barkamol g'oyani yaratish zarur edi.

Masalaning yana bir boshqa tomoni ham bor edi. Bu bevosita uzoq yillar mobaynida hukmron bo'lgan g'oya va aqidalardan xalos bo'lish, uning bir yoqlama, xavoyi, balandparvoz da'vatlaridan voz kechish kabi og'ir, vaqt talab etadigan jarayon bilan bog'liq. Endi tafakkur tarzi, qarashlarni tubdan o'zgartirish uchun eng avvalo, o'sha davrning bosh mafkurachisi sobiq kommunistik partiya g'oyalaridan voz kechish, qolaversa, butunlay yangi, zamon talablari va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mazmun-mohiyatidan kelib chiqadigan mafkurani ishga solish lozim edi.

Shu bois respublikada mafkuraviy aqidalarga va bir qolipdagi safsatabozlikka bo'ysunadigan, inson, xalq, jamiyat manfaatlariga putur etkazayotgan siyosiy, mafkuraviy va davlat tuzilmalaridan dadil voz kechila boshlandi. Demokratiyaning asosiy xususiyati – adolat va qonunning ustivorligini ta'minlashga qaratilgann choralar ko'rildi. Mamlakat va xalq manfaatlari yo'lida birlashgan, kuchlarni uyg'unlashtirish, barcha imkoniyatlardan extiroslarga berilmay, aqil-idrok bilan foydalanish yo'li bilan tutildi.

Milliy istiqlol, milliy taklanish mafkurasini yaratish va hayotga tatbiq etish O'zbekiston uchun muhim masalaga aylandi.

O'zbekiston istiqlol mafkurasining jamiyat barcha hayot jabhalarida keng va chuqur tarzda amal qiilsh uchun birinchi navbatda barcha fuqarolar siyosiy ongiga, siyosiy ruxiyatiga xaqiqiy, fidokorona mehnat qilish zarurligi ruhini singdirib yuborish lozim. Siyosiy mafkuraning istiqlol xizmatidagi ahamiyati shundan iboratki, u yuksak ravnaq toptirish vositasida O'zbekiston milliy mustaqilligini yanada mustahkamlaydi va uni jahondagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga chiqib olishi yo'llarini ko'rsatib beradi.

Istiqlol mafkurasida inson bilishi lozim bo'lgan yetakchi tamoyillardan biri sifatida shakllanishi inson huquqlari va burch-vazifalarining xamoxang tarzda ifoda topishini hamda namoyon bo'lishini anglatadi.

"Vatanni sevish – iymondandir" – deydi ulug'larimiz. Vatanga chin e'tiqod istiqlol mafkurasining bosh mezonlaridan birini tashkil etishi tabiiy bir xoldir. Vatanni sevish, uni gullab yashnayotgan vatandoshlarni ham sevish, yoshi

ulug’larga hurmat-exirom ko’rsatish, kichiklarga mehr-shavqatli bo’lish, boshqacha qilib aytganimizda, insoniy fazilatlarga ega bo’lish demakdir. Mana shu tarzda insonparvarlik, vatanparvarlik ruxi bilan uyg’unlashib istiqlol mafkurasining tub mohiyatini tashkil etadi va boyitadi.

Har bir mafkuraning, ayniqsa, istiqlol maqsadlari sari yo’naltirilgan istiqlol mafkurasining o’zak-mag’zini ilmiy dunyoqarash tashkil etadi.

Hozirgi davrda O’zbekistonda sovetga dog’ma va stereo o’rinlardan qutilishini ta’minlaydigan, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishga xizmat qiladigan siyosiy mafkura qaror topmoqda. O’zbekiston milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o’tmish va kelajagini bir-biri bilan bog’laydigan hayotimiz yo’nalishini belgilaydigan mafkuradir.

Biz ijtimoiy-siyosiy jarayonlar odamlar hayotini keskin tarzda bir o’zandan ikkinchi o’zanga burib yuborgan, hayotimiz butunlay boshqacha tus olgan va turmushimiz o’zgacha mazmun kasb etgan murakkab ruhiy-ma’naviy holatni boshdan kechiryapmiz. Yillar mobaynida qotib qolgan ongimiz uyg’onmoqda.

Mustaqillik, xurriyat degan so’zlar butun jozibasi bilan birga beqiyos qudratini, buyuk o’zgartiruvchilik mo’jizasini ko’rsatmoqda. U dunyoqarashimizni tubdan o’zgartirib, fikrimiz, tafaakkurimizni boyitmoqda. Voqealar rivojini butun mohiyati bilan anglashni, dunyog’a kengroq va tirakroq nazar bilan qarashni, sho’ro tuzumidan boshqa adolatni tuzumlar ham borligini, boshqacha yashash ham mumkin ekanligini, kommunistik mafkuradan bo’lak hayot lazzatini, inson qadru-qimmatini ximoya qiladigan o’zga g’oyalar ham mavjudligini ko’rsatib berdi. Zotan mustaqillikning buyuk mohiyati, beqiyos qadriyati ana shunda.

Mustaqillik inson imkoniyatlarini tobora kengaytirib, uning yaratuvchilik iqtidorini va bunyodkorlik qobiliyatini yanada kuchaytirmoqda. Endi odamlar real voqelikka, o’z hayotini kutilmagan butunlay yangi izga solishga extiyoj sezilmoqda. Ular yashash huquqi, o’z oilasi dahlsizligi va istiqbol xususida ko’proq o’ylaydigan bo’lib qolishdi. Ayni paytda istiqlolning mazmun-mohiyatini kundan-kunga chuqurroq anglay boshlashdi.

To’g’ri, hayotimiz biz orzu qilgandek mukammal emas. Hali turmushning hal etilmagan muammolari ko’p. Yulg’ichilik, fribgarlik, poraxo’rlik, xizmat vazifasini suiste’mol qilish, to’rachilik, manmanlik, xibru-xavo, mansab kasaliga o’tkir va yuqumliligicha qolmoqda. Biroq bular mustaqillikning, omma va jamiyatning mushtarak ravnaqi bilan qonuning ustivorlik kuchi ortishi bilan bartaraf etib boriladigan illatlardir.

Ma’naviy olamizdagi o’zgarishlar barcha yangilanishlarning asosidir. Zero, Vatan, millat tushunchalari tobora chuqurlashmoqda. Biz endi yashab turgan zaminimiz, fuqaroligimiz jihatidan dahldor bo’lgan mamlakatimiz, milliy ravnaqimiz va istiqbolimiz xususida jiddiyroq o’ylaydigan bo’ldik. Har qanday moddiy manfaatdorlik, har qanday iqtisodiy taraqqiyot bevosita ma’naviy yetuklik, ma’naviy barkamollik tuyg’ulari bilan bog’liq holdagina rivoj topishi mumkinligini yaqqol ko’ryapmiz. Milliy ravnaq hamma vaqt aqliy imkoniyatning beqiyos kuchiga, ong va tafakkur rivojiga muxtoj ekanligini, unda tayanish va suyanish lozimligini chuqur anglay boshladik.

Ayni vaqtda O’zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlari, uning taraqqiyot yo’llari xususida o’zimizda ham, xorijda ham ko’p gapirilmoqda. Mamlakatimizda milliy barqarorlik, millatlararo munosabatlarining mutanosibligi, iqtisodiy jarayonlarning bir me’yorda rivojlanishi, ishlab chiqarishning tobora takomillashib borayotganligi mamlakat ma’naviy-siyosiy muhitining sog’lomligi, xalq orzu-umidlari bilan davlat siyosatining uyg’unligi natijasi ekanligi jahon siyosatdonlari tomonidan tan olinmoqda. Ana shunday muhitni vujudga keltirish, mamlakatda barqaror taraqqiyotga erishish – bu bevosita davlat siyosatining xalq talab va extiyojlarini, ruxiy va ma’naviy holatini nechog’lik hisobga olinganligi bilan belgilanadi.

O’zining yetakchi siyosiy mafkurasi bo’lmagan jamiyat boshi berk ko’chaga kiirb qolgan odamga o’hshaydi. Milliy ozodlik bilan milliy ravnaq topish, har tomonlama gullab yashnash tamoyili milliy istiqlol tamoyilining asosiy mazmunini tashkil etishini bugungi kunda barcha taraqqiyparvar kuchlar e’tirof etayotgan xaqiqatdir.

Milliy istiqlol tushunchasi to’la milliy mustaqillik, davlat suvereniteti kategoriyalariga nisbatan ancha keng qamrovli tushuncha bo’lib, ulardan tashqari yana mazkur mamlakatning har tomonlama kamolotga erishishi zarurligini ham aks ettiradi. Istiqlol tushunchasi mustaqil mamlakatlar, davlatlar, xalqlar taraqqiyot darajasiga ko’tarilib, ular qatoridan teng va o’ziga munosib o’rin egallash maqsad-manfaatlarini ham ro’yobga chiqarish uchun sayii-harakat va kurash ma’nosini anglatadi.

O’zbekiston istiqlol mafkurasining tub mohiyatini chin insonparvarlik aqidasi tashkil etadi. Ijtimoiy tenglik va ijtimoiy adolat aqidalariga og’ishmay va izchil amal qilish, insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy o’zligini anglash, umumbashariyat manfaatlari va qadriyatlari ustivorligi aqidasiga amal qilish hozir shakllanib amal qilayotgan O’zbekiston istiqlol mafkurasining asosiy mazmunini tashkil etadi, zero mazkur tamoyillarning barchasi mustaqil O’zbekiston davlat hokimiyatining amaliyot dasturida Prezident I.A.Karimovning asarlari, risolalari, nutqlarida o’zining to’la ifodasini topgandir.

Prezident Islom Karimovning ***“O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li”, «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin», «Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir»*** va boshqa asarlarining mazmuni bilan tanishib chiqish lozim. Chunki milliy mafkura masalasi aynan shu asarlarda asoslab berilgan. Bu kontseptsiyada Prezident milliy istiqlol g’oyasini ishlab chiqishga juda katta hissa qo`shgan, uni yangi, fundamental-nazariy qoidalar hamda xulosalar o`ziga xos yoritilgan. Jumladan, Islom Karimov mafkuraga shunday ta’rif beradi: «*Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mintalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu mamlakatning kelajagini ko`zlagan va uning dunyodagi o`rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o`rtasida o`ziga xos ko`prik bo`lishga qodir g’oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman»*[47] Shu boisdan ham milliy mafkura har qanday xalqni - xalq, millatii - millat qiladigan, uning o`ziga xos yo`li va maqsadlarini belgilab beradi. “Hech

[47] Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. T.7 – T.: «O`zbekiston», 1999, 89-bet.

shubxasiz, - deydi Yurtboshimiz, - *yurtimizda erkin, adolatli, farovon hayot qurish jarayonida ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va tafakkuri ham o'ziga xos, shu bilan birga, mutlaqo yangicha ma'no kasb etib bormoqda. Xususan, shaxs va davlat, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar yangicha mazmun va shakl topib, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillar asosida takomillashib borayotganini sezish, anglash qiyin emas"*.[88]

3. Siyosiy modernizatsiya. (zamonaviylashuv)

Siyosiy modernizatsiya. Замонавийлашув - жамият тизими ҳусусиятларининг ўзгариши жарёни сифатида унинг энг муҳим соҳаларининг қайта қурилишини ва мураккаброк, аммо мослашувчан турмуш тарзининг шаклланишини назарда тутади.

Siyosiy modernizatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati. Бугунги кунда дунёдаги сиёсий жараёнларни одатдаги, эскича ёндошувлар орқали тушунтириб бўлмайди. Бу жараёнларнинг моҳият мазмуни уларни таҳлил қилиш чегараларини кенгайтиришни, бу жараёнларга таъсир этувчи барча омилларни хисобга олишни талаб этади. Бунинг учун цивилизацион ёндошув жуда мос: у асосий диққатни қадриятлар тизими, маданият, менталитетга қаратади.

Жамиятлар ҳам оддийдан мураккабга томон ривожланади. Ана шу ривожланиш жараёнида жамиятларни анъанавий ва замонавийга ажратиб ўрганиш қабул қилинган. Анъанавий ва замонавий жамиятларнинг энг муҳим фарқи - уларнинг турлича қадриятлар тизимига асосланишидадир.

Анъанавий жамиятлар учун иқтисодда технологик ортда қолиш хос. Ижтимоий соҳада ижтимоий муносабатлар кўплаб қоидалар, анъаналар, удумлар билан тартибга солинади. Жамиятнинг асосини жамоа ташкил этади. Бундай жамиятларда одамлар мавжуд ижтимоий муносабатларни сақлаб қолишга интиладилар, ўз турмуш тарзларидан фарқ қилувчи бошқа қадриятлар тизимига салбий ёндашадилар.

Замонавий жамиятларга саноати ривожланган давлатлар киради. Бу: жамиятларнинг: ижтимоий муносабатлар тизимида шахс энг олий қадрият сифатида эътироф этилади. Замонавий жамиятлар прагматизм, рационализм, танлаш эркинлиги, мулкчилик; маданиятлар мулоқоти каби умумий қадриятлар асосида ривожланади.Эркин индивидлар фуқаролик жамиятини ташкил этадилар. Ҳукумат ва рационал бюрократия уларнинг олдида масъулдир.

Анъанавий ва замонавий жамиятлар оралиғида **ўтиш даврини** бошидан кечираётган жамиятлар жойлашган. Улар қайсидир соҳаларда замонавийлашган бўладилар. Масалан, ишлаб чиқариш соҳасида технологик модеонизацияни амалга ошириб, иқтисодий қолоқлик ва табақавийликни енгган, аммо анъанавий қадриятлар, удумлар, диний меъёрлар ижтимоий муносабатларда етакчилик қилувчи жамиятлар – шуларга мисол бўла олади. Собиқ МДҲ мамлакатлари, Ҳитойдек улкан қўшнимиз, Жанубий

[88].Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008. 125-b.

Америкадаги қатор давлатларни ўтиш даврини бошидан кечираётган мамлакатлар, деб ҳисоблаш мумкин.

Умуман шуни таъкидлаб ўтиш лозимки, кўрсатилган жамиятларнинг қайси бири – яхши, қайси бири – ёмон, деган назарий таҳлилнинг абстрак моделларидан бири, холос. **Ривожланиш, яъни сиёсий тизимнинг ўзгариб бораётган ижтимоий шароитга мослашиш қобилиятининг ортиб бориши** тарихий, табиий ва узлуксиз жараён. Турли ижтимоий тизимларда у турлича ижтимоий ва маданий негизларда, ўзига хос тарзда кечиши мумкин. Ривожланиш юқори ва замонавий технологияларга ўтишни муқаррар қилган ҳолда, анъанавий қадриятлар тизими, анъаналар, одатлар, ҳаётий тамойиллар ва турмуш тарзини буткул емирилишини англатмайди. Бунинг ёрқин мисолини Япония тажрибасида кузатиш мумкин. Яхши маълумки, Ушбу жамиятда бу борада наъмуна бўладиган уйғунликка эришилган. Жаҳон цивилизациялари ичида ўзига хос ва мос ўринни эгаллаб турган ҳалқимиз маданияти ҳам Ўзбекистоннинг энг тараққий этгна мамлакатлар қаторига ўтиши йўлида тўғаноқ эмас, асосий, бош омилни ташкил этади.

Анъанавий жамиятлардан замонавийларга ўтиш – ижтимоий ҳаётни қайта ишлаб чиқариш услубини ўзгартиришни, яъни жамиятнинг одатдаги мавжудлик шаклларини қайта — қайта яратувчи туридан, индивид эҳтиёжига кўра ижтимоий муносабатлар доимо такомиллашиб борувчи жамиятга ўтишини англатади. Бу тарздаги ривожланиш фанда замонавийлашув термини билан белгиланади. Замонавийлашув — ривожланишнинг функцияси, деб қараш қабул қилинган.

Modernizatsiya nazariyalarining vujudga kelishi va rivojlanishi. Замонавийлашув назарияси барча ижтимоий омиллар тенглиги, улардан бирининг муайян вазиятда устунлиги - мавжуд шарт — шароитларга боғлиқлигидан келиб чиқади.

Замонавийлашув назарияси XX асрнинг 50 — йилларида вужудга келди. Ўтган даврда замонавийлашув моделлари хақидаги бахсларни умумлаштириб, унинг бир неча моделини кўрсатиб ўтиш мумкин:

1. Замонавийлашувнинг мумтоз, органик ёки эволюцион модели; уни келтириб чиқарувчи омилларнинг уйғун етилиши ва бири — иккинчисига ўтиши билан кечади. Бу модел асосида ғарбий Европа ва Шимолий Америка демократиялари ривожланган. Уларда замонавийлашув даври бир неча асрлар давом этган.

2. Замонавийлашувнинг "қувловчи" ёки "акс эттирувчи" моделида баъзи омиллар ҳали мавжуд бўлмаган ҳолларда (масалан, шаклланган бозор муносабатлари, фуқаролик жамияти, ҳуқуқий давлат) кечади. Бунга Жанубий Америка давлатлари мисол бўла олади. қитъада XIX аср охирларида миллий — озодлик харакатининг ғалабаси ва мустамлакачилик емирилиши билан боғлиқ ҳолда бошланган замонавийлашув жараёни ҳали ҳам давом этяпти.

Бу моделда иқтисодий омилларнинг етук эмаслиги сиёсий омилларнинг кучли, авторитар таъсири билан мувозанатга солинади. Натижада ривожланишнинг харакатлантирувчи кучи — давлат, харизматик турдаги етакчилар бўлиб қолади. Ўз навбатида, анъанавий жамиятлар учун хос

бўлган қуйи фуқаролик сиёсий иштироки в.б. омиллар бюрократлашув, ислоҳотларнинг изчил эмаслиги, маълум босқичлардан сакраб ўтиш, ҳатто, ортга қайтиш ҳолларини келтириб чиқаради.

3. Тезкор замонавийлашув модели Жанубий — Шарқий Осиё мамлакатларида (Жанубий Корея, Сингапур, Тайванда) авторитар башқарув тизимлари томонидан қисқа (30 — 35 йил) муддатларда ўтказилган. Бу ерда ислоҳотлар аввал қишлоқ хўжалигида, сўнг саноатда ўтказилган. Иқтисод асосан экспортга йўналтирилиб ривожланган.

Замонавийлашувнинг барча моделлари ўзига хос ижобий ва салбий томонларга эга. Уларни ўрганиш ва мамлакатимиздаги жараёнларга қиёслашда албатта ҳар бир мамлакатнинг ўзига хослигини ҳисобга олиш зарур.

Замонавийлашувни ғарблашувдан фарқлаш лозим. ғарблашув – тараққиёт йўлини ғарб андазаларидан тўғридан – тўғри кўчириш, муайян жамият, давлат, халқнинг ўзига хослиги хисобга олмасликни англатади.

Modernizatsiya omillari, modellari va bosqichlari. **Иқтисодий соҳада замонавийлашув —** товар — пул муносабатларининг кенг тарқалиши, технологик инқилобни, меҳнат самарадорлигининг доимий ўсиш қобилиятини таъминлай олувчи касбий ихтисослашувнинг юқори даражасини назарда тутади. Иқтисодий соҳада шахсий манфаатдорлик ишлаб чиқарувчининг иқтисодий мустақиллиги, иш кучин инг харакатчанлиги, таълим ва малака оширишнинг узлуксиз тизими мавжудлиги, малакали раҳбарлик билан рағбатлантирилади, натижада фуқароларнинг турмуш даражаси ва истеъмол даражаси сезиларли ортади.

Иқтисодий ва технологик соҳадаги ривожланиш жамиятда мавжуд **ижтимоий муносабатларнинг** тубдан ўзгаришига олиб келади, ундаги ижтимоий бўлиниш тамойиллари ва таркиби ўзгаради. Масалан, ғарбий Европа мамлакатларидаги саноат инқилоби — жамиятдаги анъанавий табақаланиш тартибини емириб, ижтимоий қатламлар мавқеини келиб чиқиши, насли — насаби билан эмас, ақли, заковати, қобилияти, берадиган самараси билан баҳоловчи муносабатлар тизимини юзага келтирди. Бу тизимда Шахс фаолиятининг мотивацияси ҳам ўзгаради: у жамият ва давлат ёрдамидан кўра кўпрок ўз кучига таяна бошлайди.

Сиёсий соҳадаги замонавийлашув — юқори самара билан ишлайдиган ҳокимият ташкилотлари чўзилиши, уларнинг роллари; функциялари ва ваколатлари аниқ чегараланиши, жамиятда **оқилона бюрократия** шаклланиши, фуқароларнинг сиёсий жараёнда фаол иштирок этишидан иборат. Бундай ўзгаришлар жамият ривожининг мантиғидан келиб чиқади.

Sharq va G’arb mamlakatlarida modernizatsiyaning o`ziga xos xususiyatlari.

Modernizatsiya jarayonida davlatning o`rni.

Modernizatsiya va demokratlashuv jarayonlarining o`zaro bog’liqligi. **«Транзит» тушунчаси авторитар сиёсий тизимлардан демократияга ўтишни** англатади. У хилма – хил шаклларда намоён бўлиши ва турлича вақт оралиғини қамраб олиши мумкин. Минимал муддат – бир авлод. Амма

Англияда бу жараён 1640 йилдан 1918 йилгача, Швецияда 1890-1920 йиллар оралиғида, Туркияда 1945 йилдан ҳозирги кунгача, Лотин Америкаси мамлакатларида ҳам юз йилдан ошиқ муддат давом этяпти. **Демократик транзит авторитар сиёсий тизим доирасида демократияга ўтишни англатади.** Гап шундаки, авторитар сиёсий тартиботлар демократияга ўтишнинг бир қатор муҳим омиларига, институтларига эгалар.

Жумладан, авторитаризмда иқтисод бозор муносабатларига асосланган, мулкчиликнинг турли шакллари мавжуд бўлади, улар сиёсат томонидан эмас, ўз қонуниятлари билан бошқарилали, Уларни фақат демократик тамойиллар асосида қайта қуриш талаб этилади, холос. Ижтимоий муносабатлар соҳасида . ҳам жамиятдаги қатламлар, гуруҳлар тизими шаклланиб бўлган ва ҳар бирининг манфаати сараланиб бўлгани ҳолда (шу манфаатлар босими остида) улар ўртасидаги муносабатлар, таъсир тамойилларини демократик изга солиш зарур бўлади.

Демократик транзитнинг идеал модели тўрт босқичдан иборат бўлиши мумкин, деб ҳисобланади:

1 босқич — сиёсий ҳаётни эркинлаштириш — фуқаролар ҳуқуқ ва эркинликларининг институционаллашуви, бошқарув назорати остида режимнинг "бир оз очилиши". Юқорида, АқIII мисолида кўрсатилганидек, ҳукумат иҳтилофлар борасида жамиятдаги барча кучлар билан мулоқотга киришиб, иҳтилофни бартараф этишдан манфаатдорлигини намойиш этади. Бу босқичда амалдаги ва яширин иҳтилофлар аниқланади.

II босқичда эски институтларнинг қайта қурилиши ёки барҳам топиб, янгиларига ўз ўрнини бериши кузатилади. Уни "назорат остидаги емрилиш", деб аташ мумкин. Иккинчи, босқичда аввал аниқланган иҳтилофларни ҳал қилиш учун янги "ўйин қоидалари" қабул қилинади, бағрикенглик маданияти шаклланади.

III босқич — янги демократиянинг мустахкамланиши босқичи бўлиб, унинг боришини сайловлар жараёни орқали кузатиш мумкин. Жамиятда демократиянинг қай даражада қарор топганлигининг мезони — сайловларда иштирок этаётган томонларнинг ҳеч бири уларни тўлиқ назорат эта олмайди ва ўз фойдасига якунланишига кафолот бера олмайди.

Олимларнинг фикрича, янги демократияларнинг мустахкамланиши босқичида вужудга келган муаммоларни албатта ҳал қилиш керак, негаки улар нинг тўпланиши «тўлқининг қайтиши» (reverse wave) га олиб келиши мумкин. У қуйидаги сабаблар туфайли вужудга келади: 1) марказий сиёсий кучлар ва жамоатчиликда демократик қадриятларнинг заифлиги, 2) сиёсий иҳтилофни кучайтирувчи иқтисодий инқироз ёки синиш; 3) кескин сиёсий ва ижтимоий қутблашув; 4) сиёсий ҳокимиятдан консерваторлар поппулистик ва сўл ҳаракатларни четлаштиришга ҳаракат қилиш; 5) қонунчилик ва тартибнинг доимий равиҳда бузилиши; 6) интервеция; 7) буларни ҳаммасини бирлаштирувчи «қор гуваласи эффекти». «Тўлқиннинг қайтиши» натижасида демократлаштириш босқичини ўтмаган режим а) авторитар — миллатчилик; б) диний фундаментализм; в) олигархик, авторитаризм; г) поппулистик диктатура, д) жамоа демократиясига ўтиши мумкин.

IV босқич фуқароларнинг янги тизим меёрлари ва қоидаларини ўзлаштириш унга кириб бориши билан борлиқ.

Унинг айнан якунловчи босқич сифатида келиши -

демократик фуқаролик маданиятининг шаклланиши учун маълум вақт, шу вақт давомида орттирилган тажриба ва шароитларнинг етилиши зарурлигидан келиб чиқади.

Юқорида демократияга ўтиш борасида келтирилган мулоҳазаларнинг барчасидан келиб чиқадиган хулоса шуки, демократик транзит (ўтиш) авторитар сиёсий тизимдан деимократияга ўтиш жараёнларини, тушунтириш учун қўлланади.

Тизимли трансформация ("ўзгариш") тушунчаси- коммунистик тизимни Демократия ва бозор иқтисодиётини қарор топтириш мақсадида ўзгартириш, жараёнини белгилаш учун қўлланади. Тизимли трансформациянинг демократик транзитдан муҳим фақи шундаки, унда тизимда мавжуд ижтимоий институтлар, тузилмалар тубдан ўзгаради, қайта қурилади.

Тоталитаризмдан демократияга ўтаётган мамлакатлар сиёсий тизимларида ўзгаришлар жамиятнинг фақат сиёсий соҳасида эмас, қолган барча соҳаларида ҳам кечади: онг, турмуш тарзи, иқтисод в,ҳ.. Шунинг учун бу йўлни танлаган

мамлакатлар бир вақтнинг ўзида икки мураккаб вазифани бажаришлари лозим бўлади: биринчидан, тоталитаризмнинг институционал, социал, руҳий асоратларидан қутулиш (транзит — бу вазифани бажармайди); иккинчидан, жамиятга мулкчилик муносабатларини киритиб, уларни акс эттирувчи янгича ижтимоий табақалашувни, аввавло, "ўрта синф" ни шакллантириши керак.

қуйида тизимли трансформация бажарадиган вазифаларни кенгрок кўиб чиқшга харакат қламиз:

Бозор иқтисодиётига ўтиш. Собиқ СССР ҳудудида қарор топган мулкчиликнинг ягона шакли — ижтимоий **мулкчилик хусусий мулкчилик ва бозор иқтисодига йўл қўймас эди.** Бу ерда бозор ва унинг қонуниятлари - бюрократик ишлаб чиқариш ва тақсимот билан алмашган эди. Совет туридаги тоталитаризм иқтисодни жамиятнинг мустақил кичик тизими сифатида қарамайди, балки уни емиради. Тарихий вазият тақозоси билан бўлинган мамлакатлар мисолида буни янада яққолроқ тушуниш мумкин: Жанубий ва Шимолий Корея, қитъадаги Хитой ва Тайван, Гонконг, Шарқий ва ғарбий Германия, Берлинг бўғозининг шарқи ва ғарбидаги эскимослар. Шарқий Европа мамлакатларида (Польша, Чехия, Словения, Венгрия каби) тоталитаризм даврида ҳам сақланиб қолган хусусий сектор хозирда бу мамлакатларда демократик қурилиш муваффақиятларини кўп даражада белгилаб берди.

Шундай қилиб, совет тоталитар тизимидан демократияга ўтиш мамлакатда бозор иқтисодини киритиш вазифасини қўяди. Бу эса ўз навбатида қуйидаги уч муҳим масалани ҳал қилиш билан боғлиқ.

Биринчи масала-иқтисодни эркинлаштириш:

• иқтисодий фаоллик эркинлиги;

• баҳоларни назорат қилишдан воз кечиш;

• чегараларни товар импортига очиб беришни назарда
тутади.

Натижада, бу зарурий чора - тадбирларнинг салбий оқибатлари: инфляция, ҳукумат харажатларининг (шу жумладан, соғлиқни сақлаш, маориф, ижтимоий ҳимояга) кескин камайиши, турмуш даражасининг пасайиб кетиши, иқтисодий инқироз юз беради.

Иккинчн масала-хусусийлаштириш билан боғлиқ бўлиб у жамиятда қутблашув кескинлашган вазиятда кечади (яъни бойлар ва камбағаллар орасидаги фарқ, жуда сезиларли бўлиб қолади)

Хусусийлаштиришнинг салбий оқибатларига ишсизлик (яширин ишсизлик) ортиши, технологик қолоқлик, рақобатга чидамсизлик кабилар киради.

Учинчи масала-иқтисодни барқарорлаштириш

бевосита сиёсатга даҳлдор бўлиб, у сиёсий етакчиларнинг аввалги икки муҳим масалани ҳал қилиш давомида юзага келган салбий оқибатларни олдиндан, кўра билиши, уларни юмшатиш чора — тадбирларини ишлаб чиқиши, умуман, вазиятни назорат қила олиш қобилияти билан боғлиқ.

O`zbekistonda modernizatsiya jarayonlarining o`ziga xosligi. Ўзбекистон мустақил бўлганига ўн йил тўлди. «Янги тизимга ўтиш… мураккаб жараён экан» лигини бугун давлат раҳбарларидан тортиб оддий фуқарогача яхши тушунади. Ушбу жараён жиддий илмий тадқиқотларни талаб этиши ҳам Аниқ бўлиб қолди. Ўтган йиллар давомида собиқ коммунистик давлатларда кечаётган жараёнларни етакчи ғарб олимлари Лотин Америкаси, Жанубий Осиё, Жанубий Европпада аввалроқ бўлиб ўтган демократлашув жараёнларига қиёслаш асосида тушунтиришга уриндилар. Ўша тажриба негизида политология фанида вужудга келган «тарнзитология» Фан йўналиши ишлаб чиққан моделлар, жумладан, Ўзбекистондаги жараёнларни тушунтиришга ожизлик қилди. Кейинги йилларда айнан мустақил ҳамдўстлик мамлакатлари воқелигига қиёсан «тизимли трансформация» термини ишлатила бошланди. Назарий планда «транзит» («ўтиш») ва «трасформация» («ўзгариш») тушунчаларига Аниқлик киритиб ўтамиз.

Ўзбекистонда рўй бераётган жараёнлар тўғрисида объектив ҳукм юритиш учун уни Дуне ҳамжамиятидаги тараққиёт контекстида, цивилизацион ёндашув асосида тахлил қилиш тўғри бўлади, деб ҳисоблаймиз. Демак бу жараёнлар кечаётган ижтимоий — сиёсий муҳитнинг ўзига

хослиги масалалари доимо диққат марказида турмоғи керак.

Шу маънода, Ўзбекистон мустақиллик йилларида, ривожланишнинг замонавийлашув, функциясини тез суръатлар билан амалга оширяпти, деган хулосага келишимиз мумкин. Жаҳонга ривожланишнинг "ўзбек модели" деб танилган тараққиёт стратегияси ишлаб чиқилди. Белорус, киргиз, ёки рус моделларидан фарқлича ривожланишнинг "ўзбек модели" замонавийлашувни халқимизнинг бой тарихий тажрибаси, қадриятлари, турмуш тарзи ва тамойиллари негизида амалга оширишни мақсад қилиб қўйганлиги билан ажралиб турадц. Ўзбекистондаги замонавийлашув жараёнига жиддий, таъсир

кўрсатиши мумкин бўлган барча омиллар чуқур тахлил қилиниб, хисобга олинади. Ўзбекистоннинг демократияга ўтишида иқтисод соҳасида амалга оширилган чора — тадбирлар ҳам мавжуд шарт — шароитларнинг чуқур таҳлилига таянади. Гап шундаки, Польша, Россия сингари давлатларда қўлланилган "шок терапияси" усули Ўзбекистонда қўлланмади. Бу - аҳолининг демографик таркиби, мавжуд иқтисодий ва иш кучи ресурсларини хисобга олиб қилинди. Маълумки, замонавий бозор иқтисодини, яратиш, жараёни бир неча ўн йил давом этади. "Шок терапиясини" қўллаган, мамлакатлар бу босқичда биринчи даражали ва, халқ учун энг номаъқул, аммо зарур тадбирларни тезлик билан амалга ошириб оладилар, Шу билан бирга бу ўзгаришларнинг бутун юки жамият зиммасига, тушади. Иқтисодий тизимни бир

"сакраш" давомида қайта кўриб бўлмайди. Шунинг учун ҳам мамлакатимизда, замонавий бозор . иқтисодига босқичма – босқич, кучли ижтимоий ҳимоя сиёсатини қўллаш орқали ўтиш йўли танланди. Натижада йўқотишлар сони ютуқлар сонидан ортиб кетмади ва иқтисодий, ижтимоий, ҳамда сиёсий барқарорлик сақланиб қолинди.

Бугунги кунга келиб, мамлакатимизда янги, демократик сиёсий ва ижтимоий институтларнинг шаклaниши, вазифаси ҳал қилинди. Жараён сифатида, у давом этавериши мумкин, лекин фуқаролар ва сиёсий, элита доирасида жамиятда у ёки бу сиёсий институтларнинг роли, функциялари ва ваколат доираси хақида тушунча ва тасаввурлар шаклланиб бўлди.

ғарбдаги демократшунослар у ёки бу мамлакатларда кечаётган жараёнларни баҳолашда иккига бўлинадилар, биринчи гуруҳ — **максималистлар** бирор жамиятни демократик, деб тан олиниши учун унинг барча соҳаларида демократик негизида бирлашиш (консолидация) жараёнлари якунланган бўлиши керак, деб ҳисоблайдилар. Уларга кўра дунёда хақиқий демократиялар сони унча кўп эмас,

Минималистик нуқтаи назарга кўра (уни яна формал ёндашув ҳам дейилади) сиёсий элита ва сиёсий фаол фуқаролар демократик меъёрлар, тадбирлар ва институтларни ҳурмат қилишлари, қўллаб қувватлашлари, ҳамда нодемократик тадбирлар, институтлар ва меъёрларни рағбатлантирмасликлари ва қўлламасликлари талаб этилади.

Бу ёндошувлардан келиб чиқиб, Ўзбекистонда институционал демократия босқичи қарор топганлигини эътироф эта оламиз. Институтлар, меъёрлар тамойиллар, тадбирлар, демократик «ўйин қоидалари» мунтазам ва рақобат асосида ўтувчи сайловлар, кўп партиявийлик, фуқаролик жамияти ва унинг таркибида иқтисодий мустақил субъектларнинг шаклланиши — бунин г асосий белгиларидир.

Бундан сўнг мамлакатимизда демократия қуриш жараёни эришилган ютуқларни мустахкамлаб бориб, фуқаролик жамияти доирасидаги ривожланиш ва иқтисодий ҳамда ижтимоий демократияни қарор топтириш билан боғлиқ.

Ўзбекистонда янги ижтимоий қатламлар, гуруҳлар шаклланиши ва ривожланиши жараёни фаол ке чмокда: профессионал сиёсатчилар,

тадбиркорлар, фермерлар, банк ҳодимлари, менеджерлар каби. Шу билан бирга мана шу қатламлар манфаатларини ҳокимиятда тақдим этишга қаратилган ваколат тизими — партиялар, нодавлат ташкилотлари, жамғармалар, ҳаракатлар, мустақил халқ номзодлари, маҳалла — шаклланиб, қарор топиб бормоқда.

Шуни таъкидлаш лозимки, тоталитаризмдан демократияга ўтиш — жуда мураккаб ва давомли жараён. Бу жараённинг кейинги босқичларида мамлакатимизда бугунги кунда муваффақиятли фаолият кўрсатаётган институтлар янада ривожланиб, қолганлари ҳам изга тушиб кетиши, демократиянинг мустаҳкамланиши, демократик меъёрлар ва тадбирларнинг сиёсат субъектлари томонидан ўзлаштирилиши рўй беради.

Siyosiy tizim va siyosiy institutlar modernizatsiyasi. Демократиянинг институцноналлашуви. Шуни яхши англаб етиш зарурки, тоталитаризмда сиёсий институглар моҳияти ўзгариб кетади. Масалан, ҳукумат парламент қабул қилган қонунларнинг ижрочиси, қарорлар қабул қилиш ва амалга оширишнинг сиёсий механизми вазифасини бажариши керак. Советлар давридаги ҳукумат — на — у, на - бу вазифани бажармаган, у Коммунистик партиянинг ижро органига айланиб қолгани маълум.

Посткоммунистик тизимли трансформацияда демократик институционаллашувнинг мақсади — сиёсий институтларга уларнинг асл вазифаларини қайтаришдан иборат. (Дейлик, транзитда бу — сиёсий институтлар мустақиллигини ошириш билан боғлиқ). Ушбу йўналишда гап фақат тегишли қонунлар, қоидалар, ёндошувлар, таркибий ўзгаришлар хақида кетади. Яна фуқароларнинг дунеқарашлари, одатлари, хулқ, — атворлари ҳам тубдан ўзгариши керак бўлади. Масалан, аввал давлат ялпи назорат органи бўлган ва барча соҳаларда бошқарувни ўзи, амалга, оширган даврдан қолган "юқоридан кўрсатма кутиш" кайфияти хали хануз мавжудлиги, нафақат меъёрлар ва қонунлар, балки одамларнинг одатлари ҳам ўзгариши муҳимлигини кўрсатиб туради.

Партия тизимлари. Одатда, коммунистик тоталитаризм мамлакатларида бир партиявий тизим амал қилган, ёки кўппартиявий, тизим шароитида хукмрон коммунистик партия устунлиги ва қолган партияларнинг уларга ҳайриҳоҳлиги таъминланган. Ижтимоий мулк хукмрон бўлган ва ижтимоий «бир хиллик» шароитида партия бутун халқ номидан сўзлаш ҳуқуқига эга эди.

Тизимли трансформация давомида жамиятда партияларнинг роли ҳам ўзгаради деярли барча посткоммунистик мамалакатларда кўп партиявий тизимлар шаклланган. Лекин улардаги партияларнинг роли бир хил дарпажада деб бўлмайди. Масалан, Шарқий Европа мамлакатларида табақалашув жараёни тез кечганлиги сабабли, партиялар ҳам ўз электоратига, шунга мувофиқ, сиёсий дастур ва шиорларига эгалар. Натижада, бу жамиятлардаги партиявий рақобат – турли қарашлар, манфаатларнинг рақобатини акс эттиради. Бу – партиялар ўз асл вазифасини бажара бошлаганини англатади. Демак, партиялар фаолиятининг изига тушиши учун зарур омилларидан бири – жамиятда уюшган, хилма – хил манфаатдарнинг

мавжудлигидир.

Фуқаролик жамияти. Тоталитар тизимларда фуқаролик жамияти бўлмайди, чунки бу ерда фуқаролик жамиятининг энг муҳим шарти – иқтисодий субъектлари йўқ. Тоталитар жамият – иқтисодий бир турдаги жамият. Унда турли қатламлар, ҳамда шу қатламларнинг бир – биридан фарқли, уюшган манфаатлари мавжуд эмас. Тизим трансформацияси даврида жамият ижтимоий таркибида, мулкчиликнинг турли шакллари асосида, табақалашувини келтириб чиқариши, бу қатламларини уюшган манфаатларини аниқлаш, бу манфаатларини ҳокимиятда ифодаловчи иттифоқлар, харакатлар, нодавлат ташкилотлари, партиялар фаолиятини изга солиш вазифаси бажарилади.

Юқоридаги ўзгаришлар натижасида маънавият соҳасида ҳам туб ўзгаришлар рўй бериб, ижтимоий фаол, иқтисодий мустақил, хуқуқий ва сиёсий жиҳатдан соводхон эркин шахс тарбияланади.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi – modernizatsiya jarayonining yangi bosqichi sifatida. Мамлакатимиз ўзининг қарийб йигирма йиллик мустақил тараққиёти давомида ҳаётнинг барча соха ва тармоқларида оламшумул ютуқларни қўлга киритди, дунё хамжамиятидан муносиб ўрин эгаллаб, миллий давлатчилик асосларини мустаҳкамлаб, том маънодаги озод ва суверен мамлакатга айланди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг 2010 йил 12 ноябрда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисида "Мамлакатимизда демократик ислоҳатларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси" мавзусида сўзлаган маърузасида Ватанимиз, халқимизнинг ана шу тарихан қисқа бир даврда эришган улкан ютуқ ва марралари хар томонлама чуқур таҳлил этиб берилди. Юртбошимиз бу хақда гапирар экан, қуйидаги рақамларга алохида эътибор каратди. Аввало, мустақил тараққиётимиз мобайнида **Ўзбекистонда ялпи ички маҳсулотнинг ўсиши 3,5 баробарни, ахоли жон бошига хисоблаганда эса 2,5 баробарни, ахолининг реал даромадлари 3,8 баробарни ташкил этгани** алохида таъкидланди. **"Айникса, ижтимоий-гуманитар сохада эришилган марралар - ахолини ижтимоий ҳимоя қилиш учун йўналтирилган давлат харажатларининг 5 баробар кўпайгани, турмуш даражасининг сезиларли равишда яхшиланган ва бунинг натижасида оналар ўлими 2 баробардан кўпроқ болалар ўлими 3 баробар камайгани, одамларнинг ўртача умр кўриши 67 ёшдан 73 ёшга, жумладан, аёлларнинг ўртача умр кўриши 75 ёшга етганини мамнуният билан таъкидласак арзийди",** деди давлатимиз рахбари.

Маърузада шу каби яна кўплаб улкан муваффақиятларимиз барқарор ривожланиб бораётган иқтисодиётга асосланган, хуқуқий демократик давлат қуриш, инсон, унинг манфаатлари, хуқуқ, ва эркинликлари сўзда эмас, амалда олий қадрият даражасига кўтарилган, жаҳон миқёсида обрў-эътибор қозонган жамият барпо этиш борасидаги узоқ ва мураккаб йўлнинг фақат бир қисми

экани, айни вақтда эришилган ютуқларга маҳлиё бўлиб, хотиржамлик кайфиятига берилиш, реал воқеликдан узилиб қолиш мамлакатимиз тараққиётининг самарадорлиги ва истиқболига салбий таъсир кўрсатиши мумкинлигига алохида эътибор қаратилди. Ўзбекистон Президенти ўз маърузасида **"эртанги кун талабларидан келиб чиққан холда, мамлакатимизни ислоҳ этиш ва модернизация қилиш йўлидаги изчил харакатларимизни кучайтиришимиз, уларни янги, янада юқори босқичга кўтаришимиз даркор"лигини** таъкидлаб, яқин келажакда амалга оширилиши лозим бўлган энг муҳим устувор вазифаларни белгилаб берди.

Маълумки, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 83-моддасига мувофик, мамлакат Президенти қонунчилик ташаббуси хуқуқига эга. Шу конституциявий нормадан келиб чиқиб, юртбошимиз ўз маърузасида мамлакатимизнинг сиёсий, хуқуқий, ижтимоий-иқтисодий, гуманитар хаётига оид энг муҳим устувор йўналишлар бўйича амалий таклиф ва ғояларни илгари сурди.

Биринчи устувор йўналиш **"Давлат хокимияти ва бошкарувини демократлаштириш"** деб номланади. Унда ҳокимиятлар бўлиниши конституциявий принципини амалиётга татбиқ этишни янада такомиллаштириш, ҳокимиятлар ўртасида ўзаро тийиб туриш ва манфаатлар мувозанатини амалда таъминлаш, қонун чиқарувчи ва ижро ҳокимияти органлари ваколатлари ҳамда назорат вазифалари доирасини аниқ белгилаб бериш, Ўзбекистан Республикаси Президенти, Олий Мажлис (унинг палаталари), Бош вазир ваколатлари тизимига, демакки, Ўзбекистан Республикаси Конституциясининг тегишли моддаларига зарур ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш борасида қатор таклифлар билдирилди.

Маърузанинг **"Суд-хукук тизимини ислох этиш"** деб номланган иккинчи устувор йўналишида мустақиллик йилларида фуқароларнинг хуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, ҳимоя қилиш барча амалга оширилган кенг кўламли ислоҳатларнинг моҳияти ҳамда уларнинг реал натижалари аниқ рақамлар орқали кенг очиб берилди. Президентимиз мазкур йўналишдаги ишларни янада такомиллаштириш, жумладан, жиноий-хуқуқий сохани либераллаштириш, суд-ҳуқуқ тизимини янада демократлаштириш вазифаларини самарали хал қилишга қаратилган саккиз йўналишдаги муҳим таклифларини билдирди.

Маълумки, жамият ҳаётини демократлаштириш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини амалда таъминлаш масаласи мамлакат аҳолисини ахборот олиш, ахборотни ва ўз шахсий фикрини тарқатиш эркинлиги, оммавий ахборот воситалари мустақиллигининг таъминланишига бевосита боғлиқ. Юртбошимиз ўз маърузасининг **"Ахборот соҳасини ислоҳ қилиш, ахборот ва сўз эркинлигини таъминлаш"** деб номланган учинчи устувор йўналишида бу борада мамлакатимизда ҳозирга қадар олиб борилган муҳим тадбирларни эътироф этган ҳолда, соҳани ривожлантириш, оммавий ахборот воситалари ҳуқуқ, ва эркинликларини янада кенгайтириш, уларнинг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, бунда давлат томонидан уларни қўллаб-қувватлашни қонуний асосга қўйиш сингари муҳим йуналишларда к;атор янги

крнунларни к,абул к;илиш, мавжуд к,онун хужжатларига тегишли ўзгартиш ва қўшимчалар киритишни хаётнинг ўзи талаб қилаётганини таъкидлади.

"Ўзбекистонда сайлов ҳуқуқи эркинлигини таъминлаш ва сайлов қонунчилигини ривожлантириш" деб номланган туртинчи устувор йўналиш мамлакатимиз сайлов тизимини шакллантириш, уни боскичма-боскич такомиллаштириш борасида ҳозирга қадар эришилган муваффақиятлар таҳлили билан бошланади. Айни вақтда юртимизда ўтказилган охирги сайлов тажрибаларидан, қолаверса, ривожланган давлатларда бу борада эришилган натижалардан ижодий фойдаланиш асносида сайлов тизимимизни янада такомиллаштиришга қаратилган муҳим қонунчилик ташаббуслари илгари сурилади.

Маърузанинг бешинчи устувор йўналиши **"Фуқаролик жамияти институтларини шакллантириш ва ривожлантириш"** деб аталади. Унда фуқаролик институтлари, нодавлат нотижорат ташкилотлари, жумладан, ўзини ўзи бошқариш тизимининг юртимизга хос муҳим ва ноёб бўғини бўлмиш маҳалла институти фаолиятини қонуний асосга қўйиш борасидаги саъй-ҳаракатлар, уларнинг амалий натижалари таҳлил этилди. Юртбошимиз мамлакатимизнинг бошқарувида фуқаролик жамияти институтлари роли ва таъсирини ошириш, бунинг учун эса уларнинг ҳуқуқ ва ваколатлари доирасини янада кенгайтириш мақсадида қатор янги қонунлар яратиш, амалдаги қонун хужжатларига муҳим ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш зарурлигини аник таклифлар асосида кўрсатиб берди.

Маълумки, Ўзбекистон ўз мустақиллигини қўлга киритганидан сўнг собиқ шўро тузумининг умрини ўтаб бўлган маъмурий-буйруқбозлик, режали-тақсимот тизимидан воз кечилиб, бутун дунёда "ўзбек модели" деган ном билан хақли равишда эътироф этилаётган ўзига хос тараққиёт йўли Президентимиз Ислом Каримов томонидан ишлаб чиқилди ва бугунги кунда ўзини тўла оқламокда. Мазкур модель иқтисодиётни мафкурадан холилиги, унинг сиёсатдан устунлиги, қонун устуворлиги, давлатнинг бош ислохотчи бўлиши, ислохотларнинг босқичма-босқич амалга ошириши, кучли ижтимоий сиёсат олиб бориш каби муҳим тамойилларни ўз ичига олади. Маърузанинг **"Демократик бозор ислохотларини ва иктисодиётни либераллаштиришни янада чуқурлаштириш"** деб номланган сўнгги устувор йўналишида юртимизда амалга оширилаётган бозор ислоҳотларининг суръати ва мантиқий талабларидан келиб чиққан холда, иқтисодиёт соҳасининг қонунчилик асосларини такомиллаштириш, бунда, айниқса, тадбиркорликни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, хусусий мулк дахлсизлигини сўзсиз таъминлаш, аҳолини, айниқса, ёшларни иш билан банд қилишдек муҳим ижтимоий аҳамиятга молик масалалар ечимидан келиб чиқиш лозимлиги таъкидланди.

Бир сўз билан айтганда, Ўзбекистон Республикаси Президенти -Ислом Каримовнинг "Мамлакатимизда демократик ислоҳатларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси" мавзусидаги маърузаси мустақил давлатимиз, халқимиз ва жамиятимизнинг бугунги ҳамда келажак ҳаётининг энг муҳим устувор соҳалари ривожини

ўзида мужассам этган, том маънода тарихий, дастурий концептуал аҳамиятга эга муҳим ҳужжат ҳисобланади. Буни Юртбошимизнинг қуйидаги якуний мулоҳазалари хам яққол тасдиқлайди: **"Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантиришнинг таклиф этилган Концепцияси Ўзбекистонни ислоҳ этиш ва модернизация қилиш борасида биз қарийб 20 йил олдин бошлаган жараённи давом эттириш бўйича Олий Мажлис томонидан узоқ муддатли аниқ ҳаракат дастурини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш учун асос бўлади, деб ишонаман".**

Президентимизнинг ушбу маърузасида белгилаб берилган мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепциясини тўлиқ ва самарали амалга ошириш энг аввало жамиятимиз аъзолари, турли ижтимоий қатламлар, айниқса талаба ёшлар томонидан унинг мазмун-мохияти теран ва чуқур англаб етилишини тақоза этади.

Qisqacha xulosa.

Zo`ravonlik bilan o`rnatilgan g’oyalar utopik, hayotiy g’oyalar real hayot talablariga javob bermaydigan, xalqning an’anaviy turmush tarziga, jamiyat taraqqiyoti qonunlariga mutlaqo zid, siyosiy ayovsiz kurashlar, ta’qib, tayziq va zo`ravonlikka asoslangan g’oyadir.

Lekin tarixiy xaqiqat shundan iboratki, mustabidchilik mafkuralarimizning turli andozalari va ularnig loyihalari asosida yaratilgan demokratiyaga qarshi tuzumlarning pirovard natijada halokatga uchrashi muqarrardir.

Biroq, hozirda g’oyaviy kurash tobora yangilanib, yangi qiyofaga kirmoqda. Ko`p sinovlar, azobu-uqubatlar, xatolar, fojialar, qatag’onlarni boshdan kechirgan asrimiz poyoniga etib yangi asr birinchi choragida turli xil eski va yangi mafkuralarning o`zaro kurashi har qachongidan ham ko`ra shiddatli tus olmoqda. Rang-barang, ba’zan bir-biriga zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazxab va sektalar o`rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib qonli to`qnashuvlar, ommaviy qirg’inlarga sabab bo`lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg’u-kulfatlar solmoqda.

Ana shu sababdan ham mustaqil O`zbekistonda hozirgi davrda millat, jamiyat, jamiyatni birlashtiruvchi bayrog’i bo`lgan milliy g’oya va mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirish yuzasidan faollik bilan ish olib borilmoqda.

Tayanch tushunchalar.

Mafkura, siyosiy mafkura, siyosiy mafkura funktsiyalari, liberalizm, neoliberalizm, konservatizim, neokonservatizim, sotsial-demokratiya, bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi, globallshuv jarayoni, geosiyosat, mafkuraviy

poligon, mafkuraviy profilaktika, mafkuraviy immunitet.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Siyosiy madaniyatning mohiyatini tushuntiring.
2. Siyosiy madaniyat, siyosat va siyosiy barqarorlik tushunchalari o`rtasidagi ichki bog'liqni aniqlang?
3. Jamiyat siyosiy hayotini, davlat va jamiyat kurilishini erkinlashtirish jarayonida siyosiy madaniyatning o`rni va ahamiyati qay tarzda namoyon bo`lishini qiyosiy-siyosiy tahlil eting.
4. Siyosiy madaniyat ijtimoiy ongning boshqa turlari bilan qanday bog'liklikka ega?
5. Siyosiy madaniyat va siyosiy ong, ularning tarkiblarini aniqlang?
6. Sobiq Ittifoq davrida kadrlar siyosatida yo`l qo`yilgan kamchilik va xatolar nimalarda nimoyon bo`ldi?

Nazorat va muxokama uchun savollar.

1. Mafkura tushunchasining qanday talqinlari bor?
2. Siyosiy mafkurasiz davlat mavjud bo`ladimi?
3. Qanday siyosiy mafkuralarni bilasiz?
4. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi va globallashuv jarayonlari mohiyati qanday?
5. Hozirgi davrda geopolitik maqsadlarning namoyon bo`lish sabablari?
6. Geosiyosat tushunchasining mohiyati, mazmuni nimadan iborat?
7. Jahon maydonlarini mafkuraviy bo`lib olishga urunishlar?
8. Mafkuraviy profilaktika, mafkuraviy immunitet so`zlari qanday ma'nolarni anglatadi?
9. Markaziy Osiyoda yot va begona g'oyalar, ularga qarshi kurash zaruriyati.
10. Milliy mustaqillik mafkurasi, milliy istiqlol mafkurasi tushunchalari o`rtasida qanday farq bor?

Adabiyotlar.

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. "O`zbekiston", 2009, 30-35 b.
2. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. "O`zbekiston", 1997. 19-33 b.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblar. T. "O`zbekiston", 2000.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T. "Ma'naviyat". 2008, 11-18 b.
5. Aliev B. Xoshimov T. va boshqalar. Siyosatshunoslik o`quv qo`llanma. T. TDIU. 2006, 211-228 b.

6. Aliev B. Boboev A. Siyosatshunoslik fani bo`yicha ta'lim texnologiyasi. T. TDIU. 2006, 104-115 b.
7. Avtorlar jamoasi. Siyosatshunoslik. Darslik. M. INFRA-M. 2007, 287-301 b.
8. Avtorlar jamoasi. Siyosatshunoslik. Darslik, M.Prospekt, 2008, 457-471 b.
9. X.T.Odilqoriev. D.X.Razzaqov. Siyosatshunoslik. "O`qituvchi" nashriyoti. T. 2008, 170-186 b.

7 – Mavzu Xalqaro siyosat va xalqaro munosabatlar.

Reja:

1. Xalqaro siyosat tushunchasi

2. Xalqaro tashkilotlar va ularning asosiy turlari.

3. Xalqaro munosabatlar tizimida O`zbekiston.

4. O`zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida siyosiy nizolarni xal qilishdagi o`rni.

5. Xalqaro Terrorizm – insoniyat dushmani.

1. Xalqaro siyosat tushunchasi

"Xalqaro siyosat". xalqaro siyosat – xalqaro munosabatlarda ishtirok etayotgan davlatlar, sub'ektlar, siyosiy partiyalar va harakatlar, siyosiy va nosiyosiy tashkilotlar, ijtimoiy guruhlar va shaxslarning xalqaro me'yorlar, qadriyatlar asosida o'zaro munosabatlarini saqlab turishga qaratilgan faoliyatlaridir.

Xalqaro siyosat va munosabatlar ikki yoki undan ortiq mamlakatlar, turli xil siyosiy va nodavlat tashkilotlar bilan bog'liq bo'lgan aloqalarni ifoda etadi. Uning faoliyati xalqlarning talab va extiyojlari, davlat manfaatlari xalqaro normalar va qadriyatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Xalqaro siyosat – xalqaro siyosat sub'ektlarining xalqaro me'yorlar, normalar, qadriyatlar asosida o'zaro munosabatlarni saqlab qolish vazifalarini, takomillashtirishga qaratilgan faoliyatdir.

Xalqaro siyosat tushunchasining paydo bo'lishini er yuzida tobora ko'proq mamlakatlar va xalqlarning feodalizmdan kapitalizmga o'tishi jarayoni bilan bog'lash mumkin.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Yevropada Napaleon Bonopart olib borgan urush siyosati aslida feodal tartiblardan kapitalistik tartibga o'tish, yangi xalqaro munosabatlar tartib-qoidalarini o'rnatish davlatlar tashqi siyosat yo'nalishlarini mushtarak jahon siyosatiga aylantirish edi.

13.2-chizma



"Xalqaro siyosiy tizim" Davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlar siyosat va siyosiy faoliyatnnig natijalariga bog'liq. Binobarin, siyosatning o'zgarishi bilan xalqaro munosabatlarda ham muhim sifat o'zgarishlari ro'y beradi.

Davlatlar siyosiy faoliyati orqali xalqaro munosabatlarning borishiga biror darajada ta'sir ko'rsatadilar va shunga muvofiq tarzda bu munosabatlar turli darajada rivojlanadi. Garchi, alohida bir davlat olib boradigan tashqi siyosatining o'zgarishi xalqaro munosabatlarning batamol o'zgarishiga olib kelmasa-da, biroq uning ayrim jihatlariga o'zining ta'sirini ko'rsatadi.

O'tmishda xalqaro siyosatda ba'zi davlatlar (AQSh) o'z manfaatlaridan kelib chiqib xalqaro vakanlarni mustaqil xal qilishga harakat qilib kelgan bo'lsalar, endilikda vaziyat tubdan o'zgardi. Hozirda uning o'rnini yangicha jahon tartiblarini xalqaro huquq normalariga, barcha mamlakatlarning manfaatlarini hisobga olishga qaratilgan, xalqlarning o'z siyosiy yo'lini o'zlari erkin tanlashlari, xalqaro muammolarni birgalikda bartaraf etish siyosati egalladi. Shuningdek, hozirgi davr, jahon taraqqiyoti intellektual (aql-zakovat) kuch-qudratidan omilkor va samarador ravishda foydalanishni taqazo etadi. Demak, fan va texnika, yangi texnologiyalar sohalarida ham o'zaro manfaatdor ruhda keng hamkorlik qilish maqsadga muvofiq keladi. Mehnat umumdorligini bir necha bor oshirishga, mahsulot tan narxini kamaytirishga, uning sifatini yaxshilashga mo'ljal qilingan fan-texnika yutuqlarini bevosita ishlab chiqirishga joriy qilib, ulkan samaralarga erishish uchun xalqaro miqyosda hamkorlik qilish hozir biz yashab turgan

kompyuter asri, yangi texnologiyalar asri talabidir.

Xalqaro munosabatlarda siyosatning yetakchilik rolini xalqaro tashkilotlar va harakatlarning faoliyati orqali ham namoyon bo'ladi. Ular xalqaro munosabatlarga shunday ta'sir ko'rsatadiki, buning natijasida muayyan sharoitlarda vujudga kelgan o'zaro munosabatlar u yoki bu darajada o'zgarishi mumkin.

Siyosat xalqaro munosabatlarning umumlashgan ifodasi bo'lganligi uchun ham davlatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'zgarishi siyosatning o'zgarishida to'la namoyon bo'ladi. Davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning butun tarixi siyosat va siyosiy faoliyat rivojlanishining tarixi hamdir.

Xalqaro tizim haqida so'z boro ekan, avvalo, dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlarga ikki tomonlama yondashish, ya'ni bir tomondan dunyoda yuz berayotgan o'zgarish va jarayonlar hayotga beqarorlik baxsh etsa, tartibga moyillik tizimi shakllanadi. Bu xodisaga ob'ektiv bir voqelik sifatida qarash lozim. Demak, bunga xalqaro siyosatga, xalqaro hamjamiyatga xos bo'lgan jarayon sifatida qarash lozim.

13.1-chizma



1. Xalqlar (umum insoniyat) – irqidan, millatidan, sinfiy mansubligidan, qaerda yashashidan qat'iy nazar hamma uchun bir hildagi tushuncha.

2. Davlat (davlatlar) – iqtisodiy jihatdan hukmronlik qiluvchi sinfning siyosiy tashkiloti bo'lib, bu tashkilotning maqsadi mavjud tartibni qo'riqlash va boshqa sinflarning qarshiligini bostirishdan iborat. Davlatlar – turli tartibotlarga asoslangan xalqaro hamjamiyatdir.

3. Xalqaro tashkilotlar – mustaqil davlatlar yoki milliy jamityalar (assotsiatsiyalar)ning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy maqsadlarga erishishlari uchun tuzilgan birlashmalari, mamlakatlar o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlik qilishning eng muhim turlaridan biri. Xalqaro tashkilotlarning umumiy hususiyati har bir davlat chegarasidan chetga chiqadi.

4. Siyosiy tashkilotlar – davlat, partiyalar va siyosat bilan o'zaro ta'sirda bo'luvchi, rasmiy yoki norasmiy barcha tashkilotlar kiradi. Tashkilotlar siyosiy tizimida (xalqaro tizimda) muhim rol o'ynaydi, chunki u ma'lum maqsad, tartiblar asosida uyushgan kishilar guruhidir.

5. Siyosiy harakatlar – ma'lum siyosiy manfaatlarni, maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan ijtimoiy faoliyat hisoblanadi. Siyosiy harakatlar alohida

mamlakatlarga xos bo’lgan xodisa emas. Har qanday mamlakatda ham kishilar o’zlarining maqsad va manfaatlari yo’lida kurashadilar. Ularning bu kurashi qanday shaklda bo’lishidan qat’iy nazar, u siyosiy xususiyatga ega bo’ladi.

“Xalqaro munosabatlar” Xalqaro munosabat bu ikki yoki undan ortiq davlatlar, turli xil siyosiy va nodavlat tashkilotlari o’rtasidagi xalqlarning talab va extiyoji, davlat manfatlari va xalqaro normalar bilan aloqador aloqalarini o’zida aks ettiradi. Hozirgi vaqtda davlatlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish hayot zaruriyatiga aylandi. Buning sababi:

O’zaro munosabatlar ularning manfatiga mos tushadigan tamoyillarga asoslanishi kerak.

Yalpi qirg’in qurollari ishlab chiqarish va tarqatishni oldini olish munosabatlarni tartibga solishni taqazo etadi.

Hozirgi dunyoda davlatlar o’zaro manfaatli aloqalarsiz rivojlana olmaydi.

Umumbashariy muammolarni hal qilish, ayniqsa xalqaro terrorizmga qarshi birgalashib kurash zaruryati munosabatlarni tartibga solishni talab etadi.

Davlatlar o’rtasidagi munosabatlarda kuchga tayanish qanchalik og’ir oqibatlarga olib kelgani ma’lum. Masalan, insoniyat tarixining 5 yarim ming yildan atigi 300 yil tinch – osoyishta o’tgan. Q’olgan vaqtlarida 15 mingdan ko’p urushlar bo’lgan. Shu urushlar birgina Evropada XVII asrda 3 mln, XVIII asrda 5 mln – dan ortiq, XIX asrda 6 mln, XX asrda 70 mln – dan ortiq kishini xalok bo’lishiga sabab bo’lgan. Endilikda, XXI asr arafasida xalqaro munosabatlarda muxim o’zgarishlar sodir bo’ldi. Jaxon sivilizatsiyasining rivojlanishi xalqaro munosabatlar muammosini insonparvarlik tamoyillari talablari asosida qayta ko’rib chiqishni talab etmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida – YUgaslavyada, CHechenistonda, Afg’onistonda, Iroqda, Falastin – Izrail, Xindiston – Pokiston va boshqa xududlarda turli xil ixtiloflar, kelishmovchiliklar mavjud. Agar shu ixtiloflar bartaraf etilmas ekan insoniyat boshiga og’ir kulfatlar solishi mumkin. Ayniqsa yalpi qurollarini yangi, yanada daxshatli turlarini ishlab chiqarishni hisobga olsak, bu daxshat oqibatlarini tushinish qiyin emas. Unchalik katta bo’lmagan atom bombasi YAponyanining Xirosima shaxrini tamom vayron qildi, Yuz minglab odamlar qirilib ketdi. Endilikda yanada daxshatli netron, vodorod bombalari, ximyaviy va baktrelogik qurollar ixtiro qilindi. Bu esa xalqaro munosabatlarni izga solishni, kelishmovchiliklarni qurol kuchi bilan emas, tinch yo’llar bilan hal etishni insoniyat oldiga kechiktirmas vazifa qilib qo’ymoqda.

Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosatning o’zaro aloqadorligi nimadan iboratq

Tashqi siyosat – bu davlatlarning o’zaro munosabatlarida o’zlarining milliy manfatlarini himoya qilish, o’zaro xafsizlikni ta’minlashga qaratilgan faoliyatidir.

Xalqaro siyosat esa yanada kengroq ma’noni anglatadi. Bu xalqaro munosabatda ishtirok etayotgan turli davlatlar, subh ektlar, siyosiy partiyalar va xarakatlar, siyosiy va nosiyosiy tashkilotlar, ijtimoiy guruxlar va shaxslarning xalqaro Me’yorlar, normalar va qadriyatlar asosida o’zaro munosabatlarini saqlab qolishga qaratilgan foliyatidir.

Xalqaro munosabatlar deganda nima anglashiladiq

Xalqaro munosabatlar – bu davlatlar o'rtasida, davlatlararo tashkilotlar, partiyalar, turli hil shaxslar tamonidan tashqi va xalqaro siyosatda belgilangan tamoyillar asosida hamkorlikni amalga oshirishga yo'naltirilgan aloqalardir. (1 – Sxema).

Jahon sotsializm sistemasining tugatilishi, sobiq Ittifoqning tarqalishi bilan ulardan ajralib chiqqan davlatlarning mustaqil ichki va tashqi siyosat Yuritayotganligi xalqaro munosabatlarni keskin o'zgartirib Yubordi. Xalqaro munosabatlar xalqaro siyosiy, iqtisodiy – siyosiy munosabatlar bilan uzviy bog'liq bo'ladi va davlatlar ichki va tashqi siyosatida muxim o'rin tutadi. Tashqi siyosatning xalqaro munosabatlarga ta'siri masalasida olimlar orasida turli xil fikrlar mavjud. Masalan, avstriyalik olim L. Gumplevich xozir xalqaro munosabatlardagi ziddiyatning sababi erning hosildorlik darajasining bir xil emasligidan, bu dunyo davlatlari mavqeining turli xilligiga olib keladi. Bunda Yuzaga kelgan ziddiyatni kuch ishlatish, urush bilan hal qilishga to'g'ri keladi, deb isbotlamoqchi bo'ladi.

An'anaviy jamiyatdagi xalqaro siyosat.

Xalqaro siyosatni nazariy tahlil qilishning boshlanishi. Napaleon boshlagan urush Yevropa qit'asiga yoyilib undan tashqari Afrika va Amerika qit'alariga ham yoyilib, birinchi marta unga qarshi xalqaro miqyosida uyushgan qarshilik harakati vujudga keldi. G'olib davlatlar **Venada Kongress chaqirib** urushdan keyingi Yevropa taqdiriga tegishli hujjatlar qabul qildilar.

Vena Kongressi 1814 yil 1 oktyabrdan 1915 yil 9 iyungacha davom etib, oxigi kuni 9 iyunda "Yakunlovchi axd"ni qabul qildilar. (U 121-modda va 17 ilovadan iborat).

Xalqaro munosabatlarning xalqaro siyosati 2 bosqichi birinchi jahon urushi va uning nixoyasida qabul qilingan. "Versal (Parij) tinchlik bitimi" va Versal anjumanida "Millatlar ittifoqi"da ta'sis etildi. (50 mamlakat a'zo).

Millatlar ittifoqi va uning doimiy organlari birinchi marta xalqaro munosabatlarning jahon tizimi oqimida amal qildirish mehanizmini ishlab chiqish va ikkinchi jahon urushi boshlanguncha qadar davlatlar tashqi siyosati amaliyotida dastur sifatida kiritilishiga harakat qilib, ularni boshqarib turishga intiladi. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi Millatlar Ittifoqi o'z burch-vazifalarini o'tab bo'lganligini, uning faoliyatidagi ziddiyatli va zaif jihatlarini ochib berdi hamda jahon siyosatining boshqarilishida yangi xalqaro tashkilotlar zarur ekanligini ko'rsatib berdi.

Xalqaro siyosatning uchinchi bosqichi uch buyuk davlat rahbarlarining (AQSh-Ruzvelt, Cherchil-Angliya, Stalin-SSSR) Texron, Qirim (Yalta), Potedam (Berlin) anjumanlari xalqaro munosabatlar oqimini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

1945 yil 7 iyul-1 avgust Potedosh anjumanida 1945 yil 25 aprelda AQShning San-Fransisko shahrida BMT anjumanini chaqirib, uning Nizomini qabul qilishga kelishib olindi. BMTning ta'sis anjumani 23 iyun 1945 yil San-Fransiskoda ochilib, uning nizomi 50 ta davlat vakillari tomonidan imzolandi. U 1945 yil 24 oktyabrda kuchga kirdi.

BMTning Nizomida Davlat mustaqilligini hurmat qilish, tinch-totuv yashash

aqidalariga rioya qilish, davlatni o'ziga yuklatilgan xalqaro burch va vazifalarini og'ishmay ado etish, nizolarni tinch yo'l bilan xal etish kabi qoidalar belgilab berilgan.

Demak, xalqaro siyosat – xalqaro munosabatlarda ishtirok etayotgan davlatlar, sub'ektlar, siyosiy partiyalar va harakatlar, siyosiy va nosiyosiy tashkilotlar, ijtimoiy guruhlar va shaxslarning xalqaro me'yorlar, qadriyatlar asosida o'zaro munosabatlarini saqlab turishga qaratilgan faoliyatlaridir.

XX asr bo`sag'asida jahon siyosatidagi o`zgarishlar. AQ'Sh sotsiologi G. Morgentau ham «Xalqaro siyosatning mutlaqo maqsadi, qanday bo'lishidan qat'iy nazar, kuch to'plash uchun kurashishdir», deb ta'kidlaydi. Xalqaro siyosatga va munosabatlarga bunday yondoshish, o'zaro munosabatlarda ishonchsizlikni, siyosiy beqarorlikni keltirib chiqaradi. Davlatlararo munosabatda faqat kuchga tayanishni targ'ib qiladi.

Xalqaro siyosatga boshqacha, o'zaro bog'liqlik, o'zaro manfatdorlik nuqtai nazardan qarashlar ham bor. Bunda davlatlarning o'zaro munosabatida u yoki bu tomonning ustivorligi emas, o'zaro manfatdorlik va teng huquqlilik tamoyili asos qilib olinadi. Har bir davlatning rivojlanishi nafaqat ichki, tashqi omillarga ham bog'liq bo'lib qolyapti. Jumladan, umumbashariy muammolar – urush va tinchlik, ekologiya, oziq – ovqat, terrorizm, Yuqimli kasalliklar va boshqa muammolarni hal etish jaxon jamoatchiligi va davlatlarning o'zaro munosabatlarini yaxshilashga, yaqinlashishga davat etmoqda. Bunday siyosat tarafdorlari ko'paymoqda. Xalqaro siyosat va xalqaro munosabatlarda faqat bir tomonlama manfaat asosida ish Yuritish davlatlar rivojiga faqat salbiy ta'sir ko'rsatadi, dunyodagi barqarorlikni buzilishiga sabab bo'ladi.

Shuni ta'kidlash joyizki, hozirgi davrning xalqaro siyosati o'ziga hos Yutuq, muammo va xususyatlarga ega. Zero xalqaro siyosat har bir davrda davlatlarning rivojlanish darajasi, kuchlar nisbati, maqsad, vazifasi, dunyo hamjamiyatida tutgan o'rniga bog'liq bo'lgan.

XX asrda jahon siyosati va xalqaro munosabatlarning rivojlanishi.

XX asrda xalqaro munosabatlar haqidagi nazariyalar: "jahon tartibini inqilobiy o`zgartirish" kontseptsiyasi, "geosiyosat" kontseptsiyasi, "siyosiy idealizm", "siyosiy realizm maktabi".

Xalqaro munosabatlarning "zamonaviylashuv" nazariyasi.

Hozirgi zamon xalqaro munosabatlari taraqqiyotining asosiy xususiyatlari. Xalqaro xavfsizlik deganda dunyodagi barcha kattaYu kichik davlatlarning o'zlarini asrab qolish, tinch va osoyishta yashashlari uchun o'zaro qamkorlik va qamjiqatlikda yashash amaliyotidir. Shuni ta'kidlash joizki, o'tgan asrning so'ngi o'n yilligida jaqon qamjamiyatida, xususan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy xayotida keskin o'zgarishlar Yuzaga keldiki, bu xalqaro maydonda yangi davlatlarning Yuzaga kelishi, jaqon xalqlarining yashash tarzi qamda dunyo qarashi va ongida Yuz bergan o'zgarishlar bilan bevosita aloqadordir. Shu munosabat bilan, xalqaro qamjamiyatning eski tizimi va qadriyatlari qozirgi talabga javob berolmay qo'ydi, insonlar manfaatiga javob beradigan yangi tizim va qadriyatlarga zaruriyat vujudga keldi. Kishilar ongi va tafakkurida yangicha yashashga bo'lgan intilish jamiyatning ijtimoiy va siyosiy jarayonlarida xam keskin o'zgarishlarni keltirib chiqardi.

Natijada Xalqaro xavfsizlik, uning moxiyati va funktsiyasi masalasiga xam yangicha qarash Yuzaga kelmoqda.

Zamon o’zgardi, mabodo Xalqaro xavfsizlik tizimi o’zgarmay, eskicha qolib ketadigan bo’lsa bu Xalqaro qamjamiyat manfaatlariga, shuningdek qar bir davlat manfaatlariga zid kelishi mumkin.

Demak gap Xalqaro xavfsizlikning batamom yangicha tizimini yaratish ustida borayapti. YAngicha xavfsizlik tizimi albatta avvalgi tizim orttirgan tajribalarga tayangan xolda faoliyat ko’rsatadi.

Yangicha xavfsizlik tizimining moqiyati nimadan iborat, buni qanday tushunish kerakq

Yangicha Xalqaro xavfsizlik tizimi – bu dunyodagi barcha katta-kichik davlatlarning garchi turli tuman maqsadlari bo’lishiga qaramay, o’zaro munosabatlarida yagona maqsadga ya’ni, tinchlik va osoyishtalikka erishish yo’lida qamjiqatlik va qamkorlikda yashash maxkumligidir. (1 – Sxema). Barqarorlik Xalqaro xavfsizlik tizimiga kirgan barcha davlatlarning tub manfaatlariga to’la javob beradi, shu tizimga kirgan davlatlarning xar biri uni mustaxkamlashga mas’ul bo’ladi. Demak Xalqaro tizim tizim taqdiri va kelgusi istiqboli uning tarkibidagi xar bir davlatning qoqish-irodasi, xulq-atvori va samimiy munosabatiga boqlik. Xalqaro xavfsizlik tizimiga kirgan davlatlarda global muammolarda turli xil qarashlar fikrlarga ega bo’lishligi mumkin, biroq umumiy maqsad o’zaro yakdillikni, kelishuvni talab etadi. Aks xolda umum xavfsizlik ishi xavf ostida qolishi mumkin. Umumiy konsensus printsipi – umumiy fikrga kelishish – bu Xalqaro xavfsizlik tizimiga xayot baxsh etadigan bosh omildir. Faqat shundagina xavfsizlikni saqlab qolishdek muqaddas vazifani xal qilish mumkin. Jaqonda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashga erishish mumkin.

Xalqaro xavfsizlik bu istiqbol yo’lida turli-tuman manfaatlarni yaxlit manfaatlar tizimiga keltirishdek ijobiy jarayonlardangina iborat emas. Biroq ish bilan birga ushbu tizim doirasida unga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi tizimbuzar jarayonlar va omillar xam mavjuddirki, buni xisobga olmaslik mumkin emas. Bunday kuchlar tizimning yaxlitligini buzishga, ishdan chiqarishga xarakat qiladi.

Xalqaro xavfsizlik tizimi manfaatlariga, qoqish irodasiga qarshi qarakat qilayotgan bunday destruktiv kuchlar va guruxlarning asl maqsadlari nimadan iboratq Ular qanday siyosat Yurgizayaptiq

1. Bunday Xalqaro xavfsizlikka raqna solayotgan kuchlar avvalo o’z milliy manfaatlarini boshqalarning manfaatidan ustun qo’yadi, boshqalarni nazar pisand qilmaydi;

2. Ular gegomonizm, imperiyaviylik tafakkuriga amal qiladi, jaqonga xukmron bo’lishga xarakat qiladi;

3. Ular o’zlaridagi ijtimoiy tizimni boshqalardan ustun qo’yadi va bu tizimni boshqalarga majbur qilib bo’lsada o’tkazishga, joriy qilishga qarakat qiladi;

4. Bu kuchlar dunyo davlatlarini moddiy, siyosiy va qarbiy saloqiyatiga qarab qutblarga – lagerlarga ajratishga qarakat qiladi. Ularning ta’biricha dunyo boy-badavlat xamda kambaqal-nochor guruqlarga bo’linishi kerak;

5. Bu kuchlar jaqonda diniy, milliy, etnik ziddiyatlarni kuchaytirib Yuborishdan manfaatdordir. Bunday kuchlar va guruqlar qarakati Xalqaro

xavfsizlik tizimini zaiflashtiradi, jaqonda barqarorlik va taraqqiyotga o’ta xavfli taqdid solmoqda.

Shuni aloqida qayd qilish lozimki, jaqon davlatlari qamjiqatligi bugungi kunda ulkan bunyodkorlik saloqiyatiga biroq, uni ro’yobga chiqarish butun dunyoda xavfsizlikni ta’minlashni talab etadi. Bu masalada politologlar 2 xil fikrga ega.

Bir gurux olimlar – dunyoda barqarorlik va taraqqiyot bo’lsa xavfsizlik xam o’z – o’zidan ta’minlanadi, deb ta’kidlaydilar.

Ikkinchi guruxdagilar – jaqonda barqarorlik va taraqqiyot birinchi navbatda xavfsizlikka boqliq, deb ko’rsatadilar. Albatta bu ikkala fikrlar bir – biriga aloqador, lekin dunyoda xavfsizlikka asos solinmas ekan na barqarorlik va na taraqqiyotga erishiladi. Zero Xalqaro xavfsizlik umuman insonni bu dunyoda eson–omon yashashi, o’nib-o’sishi, kelgusida farzandlarning kamol topishi uchun xayoti zaruriyat ekanligiga ko’pchilik ishonch xosil qilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov o’z ma’ruzalarida, muxbirlar bilan uchrashganlarida xavfsizlik xayotiy zaruriyat, u tom ma’noda xammaga daxldor, xadsiz-xududsizdir, uni ko’z qorachiqiday saqlash barchaning muqaddas burchidir, deb qayta-qayta ogoxlantirdi. Ammo Xalqaro xavfsizlik strategiyasi dunyo davlatlari tomonidan xozirgacha bir butunligicha ishlab chiqilgancha yo’q. To’qri ayrim davlatlar o’zlarining milliy xavfsizlik strategiyasiga ega, ishlab u chiqilgan.

Xalqaro xavfsizlikni ta’minlash zarurligini xisobga olib BMT bu borada bir muncha xayrli ishlarni amalga oshirayapti. Ammo, qozirgi murakkab davrda BMT ning qabul qilgan qarorlari, tavsiya va ko’rsatmalari ayrim qudratli davlatlar va xarbiy-siyosiy bloklar tomonidan mensimaslik xollari Yuz bermoqda, buzilmoqda, o’zboshimchalik bilan ish tutish xollari Yuz bermoqda. Masalan, sobiq Ittifoq davrida Afqonistonga qo’shin kirgizishda shunday bo’ldi. AqShning 2003 yil mart-aprel oyida Iroq urushi masalasida qam BMT qarori bilan xisoblashilmadi. Demak shunday siyosat Yuritish xalqaro xamjamiyat mavqeiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Bundan Xalqaro xavfsizlik yo’lida qilinayotgan qarakatlar samarasiz, degan xulosa chiqarish mumkin emas. Aksincha, jaqonning barcha davlatlari shu yo’lda xalqaro ququq normalari doirasida dunyoda Yuz berayotgan taxdidlarni bartaraf etish borasida kelishib ishlashlari, aniq taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishlari talab etiladi. Ma’lumki, xar bir davlatning o’z milliy xavfsizlik strategiyasi mavjud, biroq xalqaro xavfsizlik strategiyasida esa umumjaxon axamiyatiga ega vazifalar ustivorlik qiladi. Mustaxkam Xalqaro xavfsizlikni ta’minlashda bosh mezon ya’ni asosiy maqsad butun dunyoda barqarorlik, osoyishtalik va taraqqiyotni ta’minlash manfaati asos qilib olinmoqi lozim. Masalan, Afqoniston va Iroqda Yuz bergan noxush voqealar garchi birinchi navbatda Markaziy va Old Osiyo, YAqin Sharq va Kaspiy dengizi davlatlari manfaatiga daxldor bo’lsada, bundan aynan ana shu xududda joylashgan davlatlar birinchi navbatda tashvishlanayotgan va talofat ko’rayotgan bo’lsada, bu mojarolar tez orada jaqonning barcha davlatlari xavfsizligiga taxdid soladi, bundan biror davlat va xalqaro xamjamiyat xoli qolishga kafolatlana olmaydi. Afqonistonda makon tutgan "Al-qoida" tashkilotining 60 mamlakatdagi maxfiy guruqlari, ularning bevosita ishtirokida AqShda (2001 y. 11 sntyabr),CHechenistonda va Rossiya shaxarlarida Yuz bergan qo’poruvchilik xarakatlari, Saudia Arabistoni

poytaxtida Amerika maxkamasi oldida (2003 y. 13 may) Yuz bergan portlashlar shundan guvoxlik beradi. Demak shundan ma'lumki, o'ta maxfiy yo'llar bilan o'zaro boqlangan xadsiz-xududsiz, lekin o'ta xavfli xalqaro terrorizm va diniy ekstrimizmni e'tibordan chetda qoldirish mutlaqo mumkin emas, mabodo yadroviy, ximiyaviy va baktreologik qurollar ana shu guruxlar qo'liga tushib qolguday bo'lsa qanday falokatni keltirib chiqarishini tasavvur qilish qiyin emas. Xullas endilikda xar bir aloxida mintaqa xavfsizligini ta'minlash o'z navbatida Xalqaro xavfsizlik tizimining ajralmas qismi, deb qaralmoqi kerak. Aniqroq aytganda xar bir mamlakat xalqlarining barqarorligi, tinch va osoyishta xayoti jaxonning barcha joyida Xalqaro xavfsizlik tizimini shakllantirish va mustaqkamlashga bevosita boqlik xisoblanadi.

Demak Yuqoridagilardan kelib chiqadigan xulosa nimadan iboratq

1). Endilikda jaxondagi xar bir davlatning xavfsizligi Xalqaro xavfsizlikni ta'minlanishi bilan boqliq.

2). Xalqaro xavfsizlikni ta'minlashni esa taraqqiyparvar davlatlarning o'zaro xamjixatligiga, xavfsizlik tizimini mustaqkamligiga bevosita boqliq.

Xalqaro barqarorlik va xavfsizlikka erishishning asosiy yo'llari nimadan iboratq (2 – Sxema).

1).Davlatlar va nodavlat xalqaro tashkilotlar (BMT, EXX, Evropa Ittifoqi, NATO, MDX va boshqa) xamkorligini mustaxkamlash lozim (Evropa Ittifoqida xozir 15 davlat a'zo, 2004 y. IYunda yana 10 davlat qo'shiladi. NATO ga 17 davlat a'zo, yana unga 9 davlat qo'shiladi). Xavfsizlik masalasida Rossiya va O'zbekiston xam NATO ishlarida faol ishtirok etmoqda. Shuningdek BMT Xavfsizlik Kengashi tarkibini kengaytirish va ish uslubini qaytadan ko'rib chiqish talab etilmoqda.

2). Yadroviy qurollarni sinab ko'rish va ishlab chiqarishni to'xtatish. o'tgan asr 80 y.da AqSh va Sobiq Ittifoq shartnomasi. Bunga yadro quroliga ega boshqa davlatlar xam qo'shildi.

3).Yadroviy, ximyaviy, baktreologik kurollarni ishlab chiqarishni to'xtatish, uni boshqa davlatlarga tarqatmaslik, uni birinchi bo'lib ishlatmaslik. Bu masalada bir qancha bitimlar imzolandi.

4).Xalqaro terrorizmga qarshi kurashda barcha davlatlar birdamligi va faolligini oshirish.

5).Mintaqaviy mojarolarni tinch yo'l bilan xal qilishda faol ishtirok etish, beparvo bo'lmaslik.

Xalqaro munosabatlarda ikki qutbli tizimning tugashi va "yangi tartib"ning xalqaro munosabatlar tizimi sifatida qaror topishi. Ma'lumki XX asr oxirigacha xalqaro siyosatga ikki jaxon tizimi – sistemasining mavjudligi ta'sir ko'rsatib kelgan bo'lsa, sobiq Ittifoqning tarqalishi, Sharqiy Evropa davlatlarida Yuz bergan o'zgarishlar xalqaro siyosat va munosabatlarda o'ziga xos xususyatlarni Yuzaga keltirdi.

Xalqaro siyosat va xalqaro munosabatlarda yuzaga kelgan o'ziga xos xususiyatlar nimadan iboratq

1. Agar ilgari xalqaro siyosatda va munosabatlarda ayrim davlatlarni kuchga tayanib, bahzilarni o'zini muxofaza chorasini ko'rish siyosatiga amal qilingan

bo’lsa, endilikda o’zaro manfaatlarni hisobga olish amaliyoti ustivor bo’lmoqda.

Boshqacha aytganda xalqaro siyosatda umuminsoniy tamoyillarga amal qilish, u yoki bu davlatning ustinligidan voz kechish, ichki ishlarga aralashmaslik, umumbashariy muammolarni birgalashib hal qilish hamda o’zaro ishonch qaror topmoqda. Bu sohada dunyodagi ko’pgina xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiyalar, jamoa tashkilotlari va ijtimoiy xarakatlarning faoliyati aloxida ahamiyatga ega.

2. Hozirgi ikkinchi xususiyat dunyo jamoatchiligi, barcha ilg’or kuchlar, taraqqiyparvar davlat arboblari endilikda xalqaro siyosatda milliy manfaat va xususyatlarni ham alohida hisobga olish zarurligini tushinib etmoqdalar.

Har bir millat oldida, umuman insoniyat oldida ma’suliyatni his qilish, dunyoning bir butunligini ta’minlash davlatlardan hamjixatlikni talab etadi.

3. Xalqaro siyosatda insoniyatni ximoya qilish, xavsizligini ta’minlash, urushga barxam berish, yadroviy, ximiyaviy va baktriologik qurollarni tugatish umuminsoniyat oldidagi maqsad sifatida qaralmoqda.

4. Xalqaro siyosat va xalqaro munosabatlarning demokratlashish jarayonining ustivor bo’lishi ham muhim xususiyatlardandir. Jahon jamoatchiligining fikri xatto ayrim siyosatchilar fikridan ustinlik qilmoqda. Umuminsoniy qadiryatlar xalqaro siyosatda ustivor bo’lmoqda. Bu xalq diplomatiyasining roli va ahamiyati oshib borayotganidan guvoxdir.

5. Endilikda Evropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlari o’rtasida xamkorlik va hafsizlikni ta’minlash borasida ijobiy o’zgarishlar xalqaro siyosatdagi muxim xususiyatlardandir.

Xalqaro siyosat va munosabatlardagi Yuqoridagi xususiyatlar davlatlarning iqtisodiy va madaniy rivojlanishi, siyosiy barqarorlikni ta’minlashida muxim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat institutlari va ularning xalqaro hayotni tashkil etishdagi roli.

2. Xalqaro tashkilotlar va ularning asosiy turlari.

Xalqaro munosabatlar hamda xalqaro siyosiy munosabatlarni amalga oshirishda muayyan bir tashkilotlarning yaratilishi orqali ko`zlangan maqsadni amalga oshirish mumkin. Zero, xalqaro tashkilotlar jahon davlatlari o`rtasidagi ko`p tomonlama aloqa qilishning eng muhim ko`rinishlaridan biridir. Ushbu savolga javob tayyorlash jarayonida talaba shunday tashkilotlarning vujudga kelishi va amal qilishi mexanizmiga e’tibor berishi lozim. Bugungi mavjud darslik va turli qo`llanmalarda ta’kidlanishicha, xalqaro tashkilotlar deb, umumiy maqsadlarga erishish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy madaniy va ilmiy-texnik asoslarda davlatlar, milliy jamiyat uyushmalari birlashuvlaridan hosil bo`lgan tashkilotlarga aytiladi.

Xalqaro tashkilotlarni tuzish uchun harakatlar qadim zamonlarga borib taqaladi. Ammo bugungi zamonaviy xalqaro tashkilotlar X1X asrning ikkinchi yarmida shakllana boshlagan. Chunki ushbu davr davlatlar va xalqlar o`rtasida iqtisodiy, xo`jalik aloqalarini har tomonlama yanada rivojlantirishni taqozo etgan.

Talaba bilishi zarurki, hozirgi zamonda turli mazmun va maqsadlarga bo`ysundirilgan juda ko`p xalqaro tashkilotlar mavjuD. Bu xalqaro tashkilotlar ikkita katta guruhga ajratiladi:

1) davlatlararo xalqaro tashkilotlar (faqat davlatlar a’zo bo`lishi mumkin);

2) nohukumat xarakterga ega bo`lgan xalqaro tashkilotlar (bularga milliy uyushmalar, jamiyatlar, nohukumat xarakteridagi birlashmalar, hatto ayrim shaxslar ham a'zo bo`lishlari mumkin).

Xalqaro tashkilotlar a'zolarining soni va tarkibiga ko`ra ikkiga bo`linadi:

1. umumiy (universal) tipdagi xalqaro tashkilotlar (turli ijtimoiy-siyosiy tuzumdagi davlatlar ishtirok etadi);

2. bir xil turdagi (mintaqaviy, submintaqaviy) xalqaro tashkilotlar.

Bu xalqaro tashkilotlar xalqaro munosabatlarda hamkorlik qilishlariga qarab ham farqlanadi: Masalan, tinchlik va xavfsizlik, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarga taalluqli masalalar bilan shug'ullanadigan tashkilotlar. Bundan tashqari alohida vazifalarni bajaruvchi xalqaro tashkilotlar ham mavjuD. Masalan, ilmiy-texnik, madaniy, ta'lim, transport, aloqa, sog'liqni saqlash va boshqa masalalar bilan shug' ullanuvchi tashkilotlar.

Barcha turdagi xalqaro tashkilotlarning o`z ustavi bo`ladi. Bu ustav xalqaro shartnoma ko`rinishiga ega. Ustav xalqaro tashkilot a'zolari uchun qonun vazifasini o`taydi va ularning maqsadi, tamoyillari, tuzilishi va faoliyat usulini belgilab beradi. Uning qoidalari hozirgi zamon xalqaro huquqning tamoyillari va normalariga zid kelmasligi kerak.

Misollar bilan tushuntirish lozimki, xalqaro tashkilotlarning ichki tuzilishi turli bo`lishiga qaramay ularning ko`pchiligi uchun bir xil bo`lgan umumiy belgilari mavjud. Masalan, xalqaro tashkilotlarning deyarli hammasida oliy organ konferentsiya, ya'ni umummajlis hisoblanadi. Bu majlis har xil muddatda yoki bir necha yilda bir marta chaqirilishi mumkin. Bu oliy organning vazifasiga: ta'sis Ustavini qabul qilish, o`zgartirish, qo`shimcha kiritish, yangi a'zolarni qabul qilish, a'zolik badallari miqdorini belgilash, budjet qabul qilish va boshqalar kiradi. Konferentsiyalar oralig'ida xalqaro tashkilotlarning faoliyatini ijro etuvchi komissiya, prezidium va boshqalar boshqarib turadi.

Odatda, har bir xalqaro tashkilotlarning Bosh kotib (direktor) rahbarligidagi doimiy kotibiyati bo`ladi. Bundan tashqari konsultativ xarakterdagi boshqa yordamchi qo`mitalar barpo etiladi. Masalan, turli komissiyalar, qo`mitalar, ishchi gruhlari, kengashlar va shunga o`xshashlar.

Xalqaro tashkilotlar turli qarorlar, takliflar ishlab chiqadilar. Ba'zi xalqaro tashkilotlar qarorlari tavsiyanomalar shaklida bo`lib, bu tavsiyalarni yuridik jihatdan bajarilishi uning hamma a'zolari uchun shart hisoblanmaydi. Faqat ayrim davlatlararo tashkilotlargina majburiy xarakterdagi qarorlar qabul qilishga haqlidir. Masalan, BMT Xavfsizlik Kengashining xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash haqidagi rezolyutsiyalari, jahon sog'liqni saqlash tashkilotining sanitariya reglamentlari barcha davlatlar, birinchi navbatda ularga a'zo bo`lgan davlatlar uchun bajarilishi shart hisoblanadi.

Hozirgi kunda jahonda ko`p xalqaro tashkilotlar bo`lib, ular o`zlarining tashkil topish tarixi, maqsadi, xususiyati, vazifalari, tuzilishi va faoliyatining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ular o`zining ommaviy xarakteri, ilmiy xususiyati, taraqqiyot darajasi, maqsadlari, vazifalari va xalqaro munosabatlardagi o`rniga qarab bir necha turga ajraladi:

1. Ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar**:** BMTning YuNESKO bo`limi,

BMTning oziq-ovqat va qishloq xo`jaligi bo`yicha bo`limi, BMTning sanoat taraqqiyot dasturi, BMTning jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, BMTning Kosmik komiteti, BMTning Parlamentlararo xalqaro tashkiloti, EXHTning Parlamentlar Assambleyasi, YuNISEF — BMTning Bolalar muammosi bilan shug'ullanuvchi komiteti, MAGATE, XVF, BMTning Butunjahon Ma'naviy Mulk Tashkiloti va hokazo.

2. Regional (mintaqaviy) xalqaro tashkilotlar: Amerika Davlatlari Tashkiloti, Afrika Birligi Tashkiloti, Osiyo va Afrika Birligi Tashkiloti, Janubi-Sharqiy Osiyo Davlatlari Uyushmasi, Boltiq Dengizi Kengashi, Hind okeani uyushmasi va h.k.

3. Iqtisodiy xalqaro tashkilotlar: Evropa Iqtisodiy hamkorligi, Iqtisodiy hamkorlik va Taraqqiyot tashkiloti, Markaziy Amerika Umumiy bozori, Xalqaro Energetika Agentligi, Osiyo davlatlari Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Jahon Intellektual mulki tashkiloti, Osiyo Rivojlanish banki, Evropa Osiyo iqtisodiy hamkorligi h.k.

4. Harbiy-siyosiy xalqaro tashkilotlar: NATO harbiy-siyosiy blok, siyosiy Evropa Ittifoqi va hokazo.

Siyosiy va nosiyosiy, davlat va nodavlat xalqaro tashkilotlar va ularning xalqaro siyosatdagi o`rni va roli.

Hozirgi davrda O`zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasining o`ziga xos xususiyatlari. Talabalar ushbu savolga javob tayyorlashni mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimovning Respublika Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati qo`shma yig'ilishidagi (2005 y.) «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish» nomli ma'ruzasi hamda shu ma'ruza asosida Prezident Huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi bir guruh mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan «O`zbekiston jamiyatini demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo`lida» (T.: «Akademiya», 2005) nomli kitob shuningdek, Prezident I.A. Karimovning «O`zbekiston: 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo`lida» (2007) nomli asari bilan tanishishdan boshlashlari kerak.

Bu manbalarda O`zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo`nalishlari bayon etilgan va tahlil qilib berilgan. Bunda tashqi siyosatimizda mamlakatimiz manfaatlarini himoya qilish; milliy manfaatlarimizni e'tiborga olgan holda chet mamlakatlar bilan faol hamkorlik olib borish; xalqaro munosabatlarni mafkuralashtirishga qaratilgan har qanday urinishlariga qarshi kurashish kabi va boshqa vazifalar juda yaxshi yoritib berilgan.

Talabalar ushbu savolning mazmunini quyidagi tartibda ochib berishlari maqsadga muvofiqdir:

A. O`zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o`rni va nufuzi. Bunda talabalar asosan:

- O`zbekiston jahon siyosati va xalqaro munosabatlarning faol ishtirokchisi ekanligini;
- O`zbekiston manfaatini himoyalash – tashqi siyosatimizning asosiy maqsadi ekanligini;
- mudofaa va xavfsizlik organlari tizimini rivojlantirish lozimligini sharhlab berishlari kerak.

V. Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash. Bunda, talabalar asosan:

- Markaziy Osiyoda (MO) geostrategik holat: muammo va echimlar;
- MOda integratsiya jarayonlari va bozor islohotlarini rivojlantirish;
- MOda iqtisodiy, suv-energetik, transport-kommunikatsion, ekologik muammolar echimining amaliy mexanizmini shakllantirish;
- MOni ommaviy qirg'in qurollaridan holi qilish va yadroviy tahdiddan himoyalash;
- Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish va mamlakatni qayta tiklash jarayonlari kabi masalalarni sharhlab berishlari zarur.

S. O`zbekiston va xalqaro tashkilotlar. Bunda talabalar asosan:

- O`zbekistonning BMT bilan hamkorligini rivojlantirish;
- Xavfsizlikni ta'minlashda O`zbekistonning EXHT va NATO bilan hamkorligi;
- O`zbekistonning MDH va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish yo`llari haqida ma'lumot berishlari darkor.

D. O`zbekistonning dunyo davlatlari bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlash. Bunda talabalar asosan:

- O`zbekistonning dunyodagi etakchi davlatlar (AQSh, Rossiya, Yaponiya, Xitoy) bilan hamkorligini mustahkamlash va rivojlantirish;
- O`zbekistonning Evropa Ittifoqli davlatlari bilan hamkorligini mustahkamlash va rivojlantirish;
- O`zbekistonning Osiyoning Tinch okeani mintaqasi, Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq mamlakatlari bilan munosabatlarini rivojlantirish masalalarini izohlab berishlari kerak.

D.Xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashda dunyo mamlakatlari bilan hamkorlik. Bunda talabalar asosan quyidagilarning bayoniga ahamiyat berishlari kerak:

- Xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizmning birlamchi manbalariga qarshi kurash vazifalari;
- Jangari, mutassib kuchlarga qarshi kurashayotgan davlatlar, tashkilotlar bilan hamkorlik;
- Xalqaro terrorizmni islom dini bilan bog'lashga urinishlar va ularning oqibatlari.

Savolga taalluqli axborot va materiallarni talabalar yuqorida qayd etilgan kitoblardan hamda ushbu mavzu uchun tavsiya etilgan adabiyot ro`yxatida ko`rsatilgan boshqa kitob va risolalardan topadilar.

3. Xalqaro munosabatlar tizimida O`zbekiston.

Xalqaro maydonda O`zbekistonning strategiyasi. Jaxonning barcha davlatlarida milliy xavfsizlik strategiyasi mavjud. qozirgi talab shundan iboratki biron-bir davlatning milliy xavfsizlik strategiyasi boshqa bir davlat xavsizligiga zid kelmasligi kerak. Milliy xavfsizlik strategiyasi maqrifiy xususiyatiga ega bo'lgandagina u mamlakat axolisining aksar ko'pchiligi tomonidan maqullanadi xamda dunyo xalqlari orasida katta obru-e'tiboriga sazovor bo'ladi. Endilikda

milliy xavfsizlik strategiyasi xarakteriga dunyo davlatlari siyosiy tizimida Yuz berayotgan demokratik jarayon ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda. Uni ishlab chiqishda tegishli xokimyat organlari bilan bir qatorda keng jamoatchilik va olimlar ishtiroki qam muqim aqamiyatga ega. Darqaqiqat xafsizlik masalasi endilikda umummilliy, umumxalq va vatanparvarlik ishiga aylandi. Buni O’zbekiston Respublikasi misolida aniq ko’rish mumkin.

«Asosiy strategiya» yoki «Milliy xavfsizlik strategiyasi» ni ishlab chiqishda barcha davlatlar bir xil andozaga amal qiladi. Uning asosiy elmentlari nimadan iboratq Bular tubandagilar:

1. Strategiyada uni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan vosita, resurslar tizimi bayon qilinadi;

2. Strategiyani amalga oshirishda xisobga olinadigan «risk» xisoblab chiqiladi;

3. Strategiyadan pirovard maqsad nima ekanligi belgilanadi.

«Milliy xavfsizlik strategiyasi» ning ana shu asosiy tamoyillari Amerikalik strategiya nazariyachisi Genri Bartlett tomonidan ishlab chiqilgan va u «Bartlett modeli» deb Yuritiladi.

O’zbekiston o’zining qavfsizlik strategiyasini ishlab chiqishda o’zimizning xarbiy san’at tarixiy ilmimiz va boy tajribamizga, jaxon tajribasiga va «Bartlett modeli» ga amal qildi.

O’zbekistonning milliy xavfsizlik strategiyasida xisobga olinadigan omillar nimalardan iboratq (3 – Sxema).

1.Milliy xavfsizlik strategiyasi birinchi navbatda AQSh va NATO faoliyatidagi o’zgarishlarni xisobga oladi. Bu O’zbekiston xavfsizligida ustivor omil. yana xavfsizlik strategiyasi Xitoy, Xindiston, Yaponiya, qarbiy Evropa va Rossiyada, so’ngra Pokiston, Eron va Turkiyada mintaqaviy kuch markazlarida sodir bo’lgan salbiy va ijobiy jarayonlarni xisobga oladi.

2.Strategiyada xisobga olinadigan ikkinchi omil bu jaxon taraqqiyotidagi belgilab turuvchi bir-biriga qarama-qarshi, biroq birgalikda namoyon bo’ladigan ikkita tendentsiya: Bir tomondan jaxon xalqlarining xavfsizlikka bo’lgan xoxish-irodasi kuchaysa, ikkinchi tomondan qurollanish poygasi jonlanayotganligi xisobga olinadi;

3.Strategiyadagi uchinchi omil - dunyoning turli joylarida yuz berayotgan voqealarga yangicha qarash. Boshqacha aytganda dunyoning barcha joylarida yuz berayotgan noxush mafkuraviy diniy va demografik o’zgarishlarning xavfsizlikka ta’siri xisobga olinadi;

4.Strategiyadagi to’rtinchi omil – sub’ektiv tashqi ta’sir ostida mintaqamizda paydo bo’layotgan ayrim muammolarning milliy xavfsizligimizga ta’siri xisobga olinadi.

Xullasikalon, Yuqoridagi omillar va tendentsiyalar u yoki bu darajada milliy xavfsizlik strategiyasiga muayyan ta’sir ko’rsatadi, uni o’zgartirishni xam talab etishi mumkin.

O’zbekistonning milliy xavfsizlik strategiyasi milliy istiqlol qoyasi bilan bevosita aloqador. Istiqlol qoyasi respublikadagi barcha millatlarni Vatan mustaqilligi, xavfsizligi va barqarorligi yo’lida jipslashtiradi.

Respublikaning milliy xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqishda Prezidentimiz

I.Karimovning xizmati katta. Uning fazilatlaridan biri u milliy kadiriyatlarimiz, boy milliy merosimiz moqiyatini anglab etgan, xalqimizning Yuksak ideallariga amal qilib kelayotgan zakovatli lider sifatida o'zini namoyon etdi. Unda fozil kishilarga xos barcha xislatlar-bilimdonlik, mardlik, jasurlik, adolat, muruvvat, raxim-shafkat, printsiapialik kabi oliyjanob xislatlar o'z aksini topgan. Xavfsizligimiz kafolati xam ana shunda.

XXI asrning asosiy talabi - bu biron-bir davlatning milliy xavfsizlik strategiyasi ikkinchi bir davlat xavfsizligi tizimiga zid kelmasligi, aksincha uni mustahkamlashga yordam berishi kerakligidir.

Demokratik jarayonlarning milliy xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqishdagi ahamiyati nimadan iborat?

«Milliy xavfsizlik strategiyasi» nomi bilan butun dunyoda qabul qilingan hujjatni ishlab chiqish jarayoni barcha mamlakatlarda deyarli bir xil andozalarga ega.

Savolga javobni O`zbekiston «Milliy xavfsizlik strategiyasi» asosida berish mumkin. Bu strategiyaning asosiy elementlari quyidagilardir:

- strategiyani amalga oshirish uchun zarur bo`lgan vositalar, resurslar tizimi;
- uni amalga oshirish borasida hisobga olinishi kerak bo`lgan «risk»ni hisoblab chiqish;
- pirovard maqsadni belgilash.

Shu bilan birga, milliy xavfsizlik strategiyasining funktsional holati hamda amalga oshirilishiga dahldor bo`lgan ikki muhim omil: 1) resurslarning ob'ektiv chegaraga ega ekanligi; 2) xavfsizlik muhitining asosiy parametrlari va darajasini inobatga olish lozim bo`lishini talabalar bilishlari kerak.

Savol «Bartelet modeli» nomi bilan mashhur tizim kim tomonidan ishlab chiqqanligini Siyosatshunoslik (O`quv qo`llanma. T.: TDYuI nashryoti, 2006, 57-75-betlar) darsligidan topib javob bering, chunki O`zbekiston Respublikasining xavfsizlik strategiyasi ana shu modelga tayangan holda ishlab chiqilgan.

Uni ishlab chiqish uchun bir qancha ish olib borish ma'qul:

- «xavfsizlik muhiti»ni belgilash;
- taklif etilayotgan model doimiylikka davo qilmasligi, chunki notinch dunyoda ro`y berayotgan o`zgarishlar xavfsizlik strategiyasiga ta'sir qilshini nazarda tutish kerak.

O`zbekiston Respublikasiga tatbiqan modelni olib ko`radigan bo`lsak, dunyodagi kuchlar markazining bir nuqtadan ikkinchi bir nuqtaga o`tishi; ya'ni xalqaro hayotning o`zgaruvchanligi va unda doimiylikni inkor etishni hisobga olgan holda xavfsizlik strategiyasining asosiy, shuningdek, taxminiy konturlari quyidagicha ko`rinishga ega bo`lishi mumkin ekanligini talabalar darsda tushunib olishlari zarur:

- milliy xavfsizligimizda ma'lum darajada hisobga olinishi lozim bo`lgan kuch markazlarining joylashishi. Masalan, AQSh rahnamoligida faoliyat yuritayotgan Shimoliy Atlantika davlatlari ittifoqi bo`lib, uning rejasi, hatti-harakatida ro`y berayotgan biron-bir keskin o`zgarish O`zbekistonga nisbatan xavfsizlik makonida u yoki bu tomonga o`zgarish yasash mumkinligini bilib, talabalar O`zbekiston milliy xavfsizlik strategiyasiga yana qanday mintaqaviy kuchlar markazlari

hisobga olinmog'i kerak, degan savolga javob berishlari kerak.

- hisobga olinishi zarur bo`lgan ikkinchi omil – bu butun jahon taraqqiyotini u yoki bu darajada belgilab turuvchi tendentsiyalardir. Bularning orasida eng muhimi - ikkita bir-biriga qarama-qarshi tendentsiya, bir tomondan xalqlarning xavfsizlikni ta'minlashga bo`lgan hohish-irodasining kuchayishi bo`lsa, ikkinchi tomondan qurollanish poygasining jonlanishi.

- uchinchi omil «sovuq urush» davridagi keskin qarama-qarshiliklarning o`rnini global noaniqlik egallayotganligi bilan belgilanadi. Kim-kimning ta'siri doirasida degan savol bo`lishi mumkin emas.

- to`rtinchi omil - dunyoning turli joylarida ro`y berayotgan voqealarga yangicha qarash, diniy va demografik tendentsiyalarning xavfsizligimizga u yoki bu darajada ta'sir o`tkazshi.

- beshinchi omil, sub'ektiv tashqi ta'sir ostida mintaqamizda paydo bo`layotgan ayrim muammolarning milliy xavfsizligimizga ta'siri.

Javobga xulosa qilib, talabalar, O`zbekiston Respublikasining xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqilishi bugungi kunda milliy g'oya bilan bog'liq jihatining kuchayganligini alohida ta'kidlashlari zarur. O`zbekiston ko`p millatli mamlakat va unda yashaydigan barcha xalqlar hamda elatlar yagona g'oya atrofida birlashgan. Milliy g'oya O`zbekiston uchun xavfsizlik strategiyasining funktsiyasi, faoliyat rejimi nuqtai nazaridan tayanch sifatida millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, barcha fuqarolarga zarur bo`lgan g'oyaviy immunitetning shakllanishiga olib keladi.

4. O`zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida siyosiy nizolarni xal qilishdagi o`rni.

O'tmishda Turon zamin – Movarounnahr – Turkiston - O'rta Osiyo va Qozoqiston hozirda Markaziy Osiyo deb nom olgan bu ulkan hududda beshta mustaqil davlat mavjud. Bular: O'zbekiston, Qozoqiston, Qirqiziston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlaridir. Ularning xududi 4 mln. kv. km, aqolisi 55 mln dan ortiqdir. Bu davlatlarda 100 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilmoqda. Ularning dini, tili, dili, suvi, qavosi bir va eri tutash, madaniyati, urf-odatlari, an'analari bir-biriga yaqindir. Ular nafaqat qo'shni balki qon-qardosh bo'lib ketgan.

Markaziy Osiyo davlatlari orasida aqolisining soni, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va intelektual saloqiyati jiqatidan O'zbekiston etakchi o'rinni egallaydi.

Istiqlol tufayli O'zbekiston mustaqil tashqi siyosat olib borish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu siyosat davlatimiz milliy manfaatlarining ustuvorligi, xalqaro xuquq normalariga qat'iy rioya qilish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, xududiy da'volar qilmaslik, nizoli masalalarni tinch yo'l bilan qal qilish, tajovuzkor xarbiy bloklarga qo'shilmaslik, yadro quroliga ega bo'lmaslik kabi tamoyillarga asoslanadi. Shu tufayli qam O'zbekiston jaqon qamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallab, xalqaro maydonda katta ob'ro'-e'tiborga ega bo'lmoqda.

Bugungi kunda Markaziy Osiyoda joylashgan mamlakatlarni demokratik, xuquqiy, dunyoviy taraqqiyot yo'lidan qaytarishga urinayotgan turli xil

ekstremistik kuchlar va markazlar bu erdagi xavfsizlikka raxna solmoqda. Bu yovuz kuchlar diniy ekstremizm va xalqaro terrorchilikni mintaqamizga yoyishga urinmoqda.

Giyoqvand moddalar va qurol –yaroqlarni noqonuniy yo'llar bilan olib o'tish va sotish nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo xavfsizligiga jiddiy taqdid solmoqda.

Afqonistonda bizga ma'lumki 20 yildan ziyod birodorkushlik urushi bo'lib o'tgan edi. Bu mamlakat xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm markaziga aylangan edi. Afqonistonda etishtirilayotgan giyoqvand moddalar Markaziy Osiyo orqali dunyoning boshqa mintaqalariga tarqatilayotgan edi.

Shuning uchun xam Prezidentimiz I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-50 sessiyalari va «1000 yillik» sammitida so'zlagan nutqida ilgari surilgan «Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash», «Mintaqani yadro qurollaridan xoli zonaga aylantirish», «Fuqarolar urushi olovida yonayotgan qo'shni Afqonistonga qurol-yaroq etkazib berishni to'xtatish», «Mintaqalar xavfsizligini barqaror etish orqali dunyo tinchligini ta'minlash», «Xalqaro terrorizm va ekstremizga qarshi kurash» kabi muqim takliflari xalqaro jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Xavfsizlik uzluksiz qolatdir, qad-qududsizdir».

O'zbekistonda xavfsizlikni ta'minlash uchun albatta mintaqa xavfsiz bo'lishi, mintaqada xavfsizlik bo'lishi uchun dunyo xavfsiz bo'lishi kerak.

Prezidentimiz xavfsizlik masalasiga bir mamlakat doirasida emas, balki jaqon aspektida yondashmoqda.

Ko'p yillar davomida O'zbekiston qukumati afqon muammosini xal qilish uchun xalqaro maydonda va mintaqada sa'y-qarakatlar qilib kelmoqda

1997 yilda O'zbekistonning tashabbusi bilan Afqoniston muammosini xal qilish bo'yicha 6Q2 guruqi tuzildi. Bu Afqoniston bilan chegaradosh 6 ta davlat (Eron, Pokiston, Xitoy, O'zbekiston,Tojikiston, Turkmaniston) qamda Rossiya va AqSh. Bu davlatlarning 3 tasi BMT xavsizlik kengashining doimiy a'zosidir (Xitoy, Rossiya AqSh).

Bu davlatlar vakillari bir necha marta uchrashib mazkur masala Yuzasidan muzokaralar o'tkazdilar. Nuqtai nazarlari turlicha bo'lishidan qat'iy nazar bu davlatlar Afqonistonda tinchlik o'rnatilishini yoqlab chiqdilar.

1999 yil 19 iYulda Toshkentda 6Q2 guruqining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvga «Tolibon» qarakati vakili qam taklif qilindi.

Uchrashuvda mamalakatimizda raqbari «Tinchlik va barqarorlik-iintaqaviy taraqqiyotining bosh omili» mavzuida nutq so'zladi. Bu nutqning asosiy afqon mojorasini faqat tinch yo'l bilan xal etish natijasida Osiyo qit'asining tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratildi.

Uchrashuv yakuni bo'yicha «Afqonistondagi mojaroni tinch yo'l bilan bartaraf etish tamoyillari qaqidagi Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi». Mazkur deklaratsiya BMTning Rasmiy qujjati sifatida qabul qilindi.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan yadro quroli sinovlariga va ularni ishlab chiqarishga qarshi ekanligingi ma'lum qildi. Shu maqsadda Markaziy

Osiyoni yadrosiz qududga aylantirishtashabbusi ilgari surildi.

Prezidentimiz taklifi bilan 1997 yil 15 – 16 sentyabrda Toshkentda «Markaziy Osiyo yadro qurolidan xoli qudud» mavzusida xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Unda 20 ta xalqaro tashkilot va jaqonning 50 dan ortiq, jumladan, AqSh, Germaniya, Frantsiya, Rossiya, YAponiya, Xitoy, qindiston, Pokiston, Eron va boshqa davlatlarning diplomatiya va qukumat vakillari ishtirok etishdi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish lozimligi to'qrisidagi tashabbusini BMTning xavfsizlik kengashi qo'llab-quvvatladi.

1997 yil 9 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 52-sessiyasida «Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli qudud yaratish» qaqida rezlYutsiya qabul qildi. Bu O'zbekiston tashqi siyosatining ulkan qalabasi bo'ldi.

O'zbekiston Prezidentining tashabbusi va faol qarakati natijasida Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida xalqaro terrorizmga, diniy ekstremizmga, uYushgan jinoyatchilikka qarshi birgalikda kurashish to'qrisida 2 va ko'ptomonlama qamkorlik yo'lga qo'yilgan. Prezidentimiz BMTning «Ming yillik sammiti» dagi nutqida, YUNESKO bosh direktorining mamlakatimizga safari davomidagi muzokaralarda, Yurtboshimizning Turkmaniston, qirqiziston safari, Ukraina va Turkiya davlat raqbarlarining diyorimizga kelgan paytidagi muzokaralarda Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, Afqoniston muammosini tinch yo'l bilan qal etish, xalqaro terrorizm va ekstremizmga, giyoqvandlik vositalari kontrabandasiga va uYushgan jinoyatchilikka qarshi qamkorlikda kurashish to'qrisida fikr bildirildi.

2000 yil 19-20 oktyabrda Toshkentda «Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustaqkamlash, narkotik moddalar, uYushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashga qamkorlikda yondashuv» nomli xalqaro anjuman bo'lib o'tdi.

Anjuman BMTning narkotik moddalar nazorati boshqarmasi EXqT tashkiloti tomonidan o'tkazildi.

Unda 67 ta mamlakat, 44 ta xalqaro tashkilot vakillari qatnashdi. Anjuman ishtirokchilari Markaziy Osiyoda narkotik moddalarning noqonuniy savdosi, uYushgan jinoyatchilik va terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha qamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini belgilab oldilar. Anjuman qujjatida Markaziy Osiyo davlatlari qamkorlikni milliy, qududiy va xalqaro miqyoslarda mustaqkamlash va muvofiqlashtirish lozimligi qayd etildi.

Rossiya bilan iqtisodiy, madaniy, do'stlik aloqalari Yurtimiz va mintaqamiz uchun qamisha muqim aqamiyat kasb etib kelgan. O'zbekistonning jaqon qamjamiyati va rivojlangan davlatlar bilan qamkorligini kuchaytirishning asosiy sharti va garovi – Markaziy Osiyoning, jumladan O'zbekistonning xavfsizligini qamda tinchlik, barqarorligini ta'minlashdir.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning boshqa davlatlariga nisbatan ko'proq va kuchliroq zarba va mafkuraviy taqdidlarning nishoniga aylandi. Sababi ma'lum – O'zbekiston mintaqaning Yuragi. Uni egallash – mintaqani egallashni, boy berish – mintaqani boy berishni anglatadi. Shuning uchun qam bunday strategik maqomni egallab turish oson emas. Juda kuchli iroda, juda kuchli milliy birlik, mustaqkam

qarbiy qudrat kerak.

“Geosiyosat” tushunchasi o’zida (“geo” – “er”, “siyosat” esa – “davlat” va “ijtimoiy ish”) ma’nolarini anglatadi. “Geosiyosat” atamasida geosiyosiy muddaolar, ularning ko’rinishlari, turli xil davlat va xalqlarning mantfaatlari tizimi, unga bo’lgan yondashuv uslublari, vositalari u yoki bu davlatning hududiy joylashuvi, salohiyatiga bo’lgan munosabatda ifodalangan maqsadlar o’z ifodasini topadi.

“Geosiyosat” uzoq tarixga ega bo’lsada, u tushuncha sifatida XX asrning boshlarida shakllangan. Bu atama R.Chellen tomonidan muomalaga kiritilgan bo’lib, hozirgi davrda davlatlar va dunyo mamlakatlari xalqaro siyosatida, falsafada, siyosiy fanlarda keng qo’llanilmoqda. Geosiyosat ko’p qirrali tushuncha sifatida turli mantfaatlarni o’zida mujassam etadi. Hozirgi davrda geosiyosiy maqsadlar ko’proq mafkuraviy siyosat bilan hamoxanglikda namoyon bo’layotganligini alohida ta’kidlash zarur. Bunda mafkuraviy ta’sir ko’rsatish geosiyosatning eng ta’sirchan vositasi sifatida namoyon bo’lmoqda. Ya’ni turli davlatlarning maqsadlari xalqning turli qatlamlari, xususan yoshlar ongi va qalbiga mafkuraviy ta’sir ko’rsatish orqali, ularning faoliyatini o’z ta’siriga, ya’ni manfaatlariga yo’naltirilgan mafkuraviy muhitni yaratishni ko’zlagan holda amalga oshishini aniq bilish qiyin va murakkabdir. Ana shu sababdan ham Prezidentimiz mafkuraviy poligonlar yadro poligonlariga qaraganda xavfliroq bo’lib qolganligini alohida ta’kidlaganlar.

Yadro poligonlarini qaerda joylashganini, uning quvvatini, qanday maqsadga yo’nalganligini muayyan darajada aniq bilish mumkin. Ammo, yovuz, yot mafkuraviy maqsadlarni qaerda va qanday yo’llar bilan va qaysi insonlar qalbini egallab olayotganligini osonlikcha bilib bo’lmaydi. Bugun “ikki qutbli mafkura” o’rtasidagi kurashga barham berilgan bo’lsada, ammo dunyoda mafkuraviy kurashlar to’xtab qolgani yo’q. Aksincha, jahon maydonlarini mafkuraviy bo’lib olishga urunishlar turli yo’llar bilan sodir bo’lmoqda. Masalan, O’zbekiston mustaqillikni qo’lga kiritganidan keyin mafkura sohasida hayot osonlikcha kechmadi. Milliy istiqlol g’oyasiga zid bo’lgan yot va begona g’oyalar kirib kelishga va yoshlarimiz ongini egallashga, ularni mamlakatimizda belgilangan ulug’ maqsadlarni amalga oshirishga qarama-qarshi qo’yishga urunishlar bo’lganligining guvohimiz. Bunday harakatlarni ular o’zlarini “do’st”, “millatdosh”, “vatandosh”, “dindosh” etib ko’rsatish niqobi bilan amalga oshirishga urunishdilar. Natijada, haqiqiy qadriyatlarimizga zid bo’lgan turli xil oqimlar yoshlarimiz ongini egallashga harakat qildi.

Jahon geosiyosatida xalqlarni ma’naviy-mafkuraviy jihatdan tobe etishga intilish va bugungi kunda dunyoni shunday tarzda bo’lib olishga urunishlar davom etmoqda. Buning uchun ular hozirgi zamon ommaviy axborot vositalari, ularning yutuqlaridan, hamda turli xil markazlar, ayni paytda o’zaro hamkorlikka yo’naltirilgan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy vositalardan foydalanish orqali dunyoning turli hududlarida sog’lom mafkuraviy muhitni shakllantirish maqsadlarini ham ko’zlamoqdalar.

Milliy istiqlol g’oyasini chuqur egallash orqaligina bunday mafkuraviy maydonlarda olib borilayotgan kurashlarning mohiyatini to’g’ri tushunish va oldini

olish mumkin. Mafkuraviy jarayonlar fikr, g'oya, mafkura, tizim sifatida inson ongiga yo'naltirilganligi, o'ziga xos maqsadlari borligi bilan xarakterlanadi. Ular ayrim insonlar ongini egallab olish orqali o'ziga xos ta'sir ko'rsatish maydonini yaratadi. Bu maydon ichida turli xalqlar, insonlar faoliyati mujassamlashadi.

Ma'rifiy rivojlanish va dunyo xalqlari rivoji shuni taqozo etadiki, geosiyosat ham ma'lum bir maqsadlarni ko'zlar ekan, u faqat insoniyat orzu qilib kelgan tinchlik va barqarorlikka, mamlakatlar va xalqlar ravnaqiga, yurt tinchligi, xalq farovonligi, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyalarini o'zida mujassam etib, hozirgi geosiyosiy maqsadlarning bosh mezoniga aylanib borishi lozim. U nosog'lom mafkura va g'oyalarni boshqa xalqlar ongiga, qalbiga singdirib, mafkuraviy jihatdan dunyoni bo'lib olishga emas, o'zaro manfaatli hamkorlikka, dunyoviy muammolarni o'zaro hamjihatlik bilan xal etishga xizmat qilishi kerak. Shu ma'noda, geosiyosatga yangicha yondashuv yangi asrda yangicha yondashuv yangi asrda yangicha ma'no va ahamiyat kasb etadi va dunyo taraqqiyotiga xizmat qiladi. XX asrning oxirida dunyoda jahonshumul voqealar ro'y berdi. Uning siyosiy xaritasi, jumladan Markaziy Osiyoning manzarasi tubdan o'zgarib ketdi. Ushbu vaziyatning mohiyati quyidagidan iborat:

Birinchidan, sobiq sho'rolar hukmronligi sharoitida kommunistik mafkura mintaqa xalqlari azaldan qon-qardosh bo'lishlariga qaramasdan ularni zo'rma-zo'raki "birlashtirib" turgan edi. U mintaqa xalqlari ongiga zo'ravonlik bilan yagona "Yagona Vatan" va sovet xalqi – yangi tarixiy birlik degan soxta tushunchalarni singdirishga zo'r berib urinar edi. Mintaqa xalqlari bundan qanchalik norozi bo'lmasin, o'zlarining tarixiy va ma'naviy yaqinligiga intilmasin, ammo bu intilishlarga nisbatan mafkuraviy tayziq benixoya kuchli edi.

Mintaqadagi sobiq ittifoqdosh respublikalar o'zlarining mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan bu mafkura barbod bo'ldi. Mustaqilligini qo'lga kiritgan mintaqa mamlakatlarining har biri oldida o'zlarining ichki hayoti va istiqlolini mustahkamlash, barqarorlikni ta'minlash va o'zlari uchun maqbul ulkan taraqqiyot yo'lini belgilab olishdek juda murakkab vazifalar yuzaga keldi. Bu jarayonning mintaqa mamlakatlarining o'zaro munosabatlarini uyg'unlashtirib turishga xizmat qiladigan ma'naviy-mafkuraviy omillar shakllanishiga ta'sir o'tkazish tabiiydir.

Ikkinchidan, mintaqadagi mamlakatlar o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan bo'lishiga qaramasdan, 1991 yilgacha sobiq markaz xali o'z hukmronligini qaytadan tiklashga moyil edi. Shuning uchun ham mintaqa mamlakatlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish, millatlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarish kabi siyosatni davom ettirdi. Bu o'z navbatida, o'sha davrda ma'lum darajada mintaqa xalqlarining o'zaro munosabatlariga ham muayyan ta'sir ko'rsatdi.

Uchinchidan, mustaqillikni qo'lga kiritgan mintaqamiz mamlakatlarini o'z ta'sir doirasiga o'tkazish uchun yana boshqa bir qator mamlakatlar ham harakatni boshlab yubordilar. Ularning ko'pchiligi tashqaridan beg'araz ko'rsatayotganday bo'lib ko'rinsalarda, aslida har bir ko'rsatayotgan "yordamlari" evaziga mintaqa o'z mavqeini mustahkamlashga harakat qildilar. Aslida bunday harakatlarning bo'lishi tabiiy xoldek ko'rinadi. Ammo, bu harakatlarda ham mintaqa davlatlari va xalqlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga intilishlar yo'q emas. Demak, ana shu intilishlar ham mintaqa mamlakatlarining mustaqillik sharoitida yuzaga kelgan

muammolarni o’zaro yaqdillik bilan xal qilishga xizmat qiladigan omilning yuzaga kelishiga o’zining ta’sirini o’tkazadi.

To’rtinchidan, mintaqada yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga xizmat qiluvchi yangi ma’naviy-mafkuraviy vaziyatni yumshatish ehtiyoji ham oshib bordi. Prezident Islom Karimov ta’kidlagani kabi: “SSSR parchalanib ketganidan keyin bizning irodamiz yoki intilishimizga bog’liq bo’lmagan holda O’zbekiston amalda front yaqinidagi davlatga aylanib qoldi. Uning tashqi chegaralarida Afg’oniston va Tojikistonda so’nggi yillarda yuz minglab insonlar hayotiga zomin bo’lgan ikkita tanglik o’chog’i alanga olib turibdi”.

O’zbekistonning Afg’onistondagi front yaqinidagi davlatga aylanib qolishi faqat mamlakatmiz uchungina emas, balki butun mintaqadagi barcha mamlakatlar uchun ham katta xavf-xatarni vujudga keltirdi.

Beshinchidan, O’zbekiston o’zining iqtisodiy salohiyati, xom-ashyo resurslarga boyligi, ishchi kuchi va demokratik imkoniyatlari bilangina emas, ko’p jihatdan geopolitik joylashuviga ko’ra ham, mintaqada yetakchi o’rinda turganligi bilan ham, ajralib turadi. Shuning uchun ham O’zbekistonga nisbatan bo’ladigan har qanday xavf-xatar, albatta, butun mintaqaga ta’sir qiladi. Shu ma’noda ham turli siyosiy kuchlar va harakatlar Afg’onistondagi urush olovini kuchaytirish va mintaqadagi vaziyatni murakkablashtirish hamda mintaqa davlatlarini unga jalb qilishning turli yo’llarini va uslublarini ishga solishga urunib keldilar. Vaziyat shu darajada murakkablashadi, qo’shni mamlakatlarni bir-birining ichki ishlariga “aralashuvida” ayblab pirovard natijada qardosh xalqlar o’rtasidagi azaliy do’stlik xavf ostida qoldi.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlar tizimida Afg’onistonda davom etayotgan fuqarolar urushi ham alohida o’rin egallab turibdi. “Yigirma yildan buyon davom etib kelayotgan harbiy mojarolar oqibatida umuminsoniy tsivilizatsiyadan uzilib qolgan Afg’oniston hududi xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm, qurol-yaroq va giyoxvand moddalarning noqonuniy savdosi o’chog’i bo’lib qoldi. Bu esa turli zararli g’oyalarning terrorchilik, taxdid va tahlil yo’li bilan butun mintaqaga yoyilish xavfini tug’dirmoqda”.[89]

Shuning uchun ham Prezidentimiz bu xavfning oldini olish zarurligiga jahon hamjamiyatining e’tiborini qaratmoqda.

2000 yilning sentyabr oyida ham BMT Bosh Assambleyasi “Ming yillik sammiti”da Prezidentimiz mintaqaviy xavfsizligini ta’minlash bilan bog’liq bo’lgan xalqaro terrorizm va narkobiznesga qarshi faol kurashish, Markaziy Osiyo mintaqasidagi barqaror xavfsizlikni ta’minlash va jahon xavfsizlik tizimini takomillashtirish muammolariga e’tibor qaratdi. Bu masalalarni o’ta murakkab tus olayotganligini asoslab berdi.

Mustaqil taraqqiyot, erkin va farovon hayotga bo’lgan ishonch – e’tiqodni mustahkamlash yo’lida xavf-xatarlarning oldini olish uchun muttasil ogoh bo’lib yashash, birgalikda kurash olib borish mintaqa xalqlari uchun hayotiy zaruriyatga aylanib qoldi. Mintaqa xalqlari uchun o’ta muhim ahamiyatga ega bo’lgan bu

[89].Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.
-T.: “O’zbekiston”, 1997. 21- b.

jarayonni to’g’ri anglab etgan Markaziy Osiyo mamlakatlarining rahbarlari faqat 2000 yilning o’zida bir necha bor uchrashdilar va xavfsizlikni ta’minlash hamda o’zaro iqtisodiy integratsiyalashuvning dolzarb masalalarini muhokama qildilar. Jumladan, 2000 yil aprel oyida Toshkentda, 2001 yil avgust oyida Bishkekda va oktyabr oyida yana Toshkentda, 2001 yil yanvarida Ostonada bo’lib o’tgan uchrashuvlarda mintaqada xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim qarorlar qabul qilindi. Xususan, oktyabr oyida Toshkentda bo’lib o’tgan uchrashuvda “Markaziy Osiyoda narkotiklarning noqonuniy savdosi, uyushgan jinoyatchilik va terrorchilikka qarshi kurash bo’yicha hamkorlikning ustuvor yo’nalishlari” to’g’risidagi o’ta muhim hujjat shular jumlasidandir.

2004 iyunida Toshkentda ochilgan SHHTning aksilterror tuzilmasi terrorizm diniy ekstremizm va seperatizim kabi taxdidlarga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega bo’lmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari rahbarlarining bu uchrashuvlari umumiy xavfsizlikni ta’minlash, mintaqa xalqlarining o’zaro do’stligini mustahkamlash va mavjud iqtisodiy muammolarni xal etish imkonini beradi. Shu ma’noda O’zbekiston Prezidenti tomonidan olg’a surilgan “Turkiston – umumiy uyimiz” g’oyasining amalaiy ahamiyatini alohida ta’kidlash lozim. Shuning bilan birga Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Markaziy Osiyo mamlakatlarining tinchligi va barqarorligiga, mazkur mintaqada yashovchi xalqlarning xavfsizligiga daxl qiluvchi tajovuzlarning oldini olish va bartaraf etish borasidagi hamjihatligini mustahkamlash zarur. Ularning bu yo’ldagi sa’y-harakatlari, imkoniyatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirish ayniqsa muhimdir”.[90]

O’zbekiston ilgari surayotgan Afg’onistondagi harbiy mojarolarni siyosiy yo’l bilan xal etishga qaratilgan “olti qo’shuv ikki” guruhi faoliyatini yo’lga qo’yish, terrorchilikka qarshi xalqaro kurash markazini tashkil qilish borasidagi tashabbuslar, mintaqa mamlakatlari o’rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish yuzasidan olib borilayotgan sa’y-harakatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O’zbekiston Prezidenti NATO (Yevroatlantika hamkorlik kengashi (SEAP)ning Buxarestda bo’lib o’tgan sammitida Afg’onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish bo’yicha takliflari ya’ni 6+1 muloqat guruhini Afhonistondagi mavjud vaziyatni hisobga olgan holda va NATO ning ishtirok etishini nazarda tutib, 6+3 guruhiga aylantirish tashabbusini muhokama etish maqsadida 2008 yil 29 aprelda Toshkentda (20 dan ortiq) davlatlar vakillari ishtirokida seminar o’tkazildi.

Umuman, Afg’onistonda davom etayotgan harbiy mojarolarni siyosiy yo’l bilan hal qilish g’oyasi Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan dastlabki qadam bo’lib qoldi. Albatta ana shu ijobiy harakatni davom ettirish, unga manfaatdor bo’lgan davlatlarni faollashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi bo’lib qolmoqda.

Xullas, bugungi kunda mintaqada xavfsizlikni ta’minlash bilan bog’liq

[90]. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.
-T.: “O’zbekiston”, 1997. 26 - b.

bo’lgan muammolarni xal etish mintaqadagi barcha mamlakatlarning istiqbolini ham belgilab beradi. Shuning bilan birga bu mintaqada yashayotgan xalqlarning azaliy qon-qarindoshligi, hamkorligi va ma’naviy-ruxiy yaqinligini mustahkamlashda o’ta muhim amaliy ahamiyatga molik masaladir.

5. Xalqaro Terrorizm – insoniyat dushmani.

Terrorizm bu insoniyatning ashaddiy dushmani. Xalqaro tinchlik va osayishtalikka tahdid solayotgan hozirgi davrning o’ta salbiy ijtimoiy hodisasi. Aniqroq qilib aytganda terrorizm – millati, dini va ma’lum hududi yo’q ofat, XXI asrning dahshatli vabosi. U bugun vujudga kelmagan, qadim-qadimdan mavjud.

Terrorizm so’zi lotincha – terrore so’zidan olingan bo’lib dahshat , vahima, falokat ma’nosini anglatadi. Terrorizm qadim va o’rta asrlar davrida boylik orttirish uchun kurashgan bir guruh qaroqchi, banditlar harakati ko’rinishida bo’lgan. XIX asr o’rtalaridan bu harakat «o’ta inqilobiy harakat», fitnachilar, qo’poruvchilar harakati shaklini oldi.

Masalan Rossiyada narodniklar chiqishi va boshqa XX asr o’rtalaridan boshlab terrorizm keng siyosiy tus oldi, ko’p mamlakatlarga yoyildi, xalqaro xarakter shaklini oldi. insoniyatga behisob fojealar keltirdi. U qaysi mamlakatda sodir bo’lmasin surbetlarcha oddiy xalq va din nomidan ish ko’radi. o’zini go’yo xalq manfaatini va dinning sofligini ko’zlovchilar sifatida ko’rsata boshladi.

Masalan G’arbiy Germaniyada «Q’izil armiya», Italiyada «Q’izil brigada», Ispaniyada basklar tashkiloti, Olg’sterda (Angliya)«Inqilobiy xaloskorlar armiyasi», Peruda «Porloq hayot», Afg’onistonda «Hisb-ut-tahrir», «Al-Q’oida», «Islom lashkarlari» va boshqa nomlar bilan Yuritildi. Xalqaro terrorizmning eng ishonchli tayanchi Afg’oniston, CHechiniston, janubiy Tojikiston bo’lib qoldi.

Halqaro terrorizmning mohiyati va maqsadi nimadan iboratq Terrorizm bu – begunoh odamlarni, xususan davlat va jamiyat rahbarlarini suiqasd yo’li bilan o’ldirish, garovga olish, jamoat binolari, turar joylar, ijtimoiy ob’ektlarni, transport vositalarini portlatish yo’li bilan xalqni hukumatdan narozi qilish, parokandalikni vujudga keltirish orqali hokimiyatni qo’lga olishga qaratilgan jinoiy guruh harakatidir.

Xalqaro terrorizmning hozirgi xususiyatlari nimadan iborat

Bular tubandagilar:

Terrorizm ilgari ham, hozir ham halq nomidan gapiruvchi go’yo halq manfaatini aks ettiruvchi sohta ko’rinishi saqlab kelayapdi. Bu bosh xususiyat bo’lib, uning barcha ko’rinishlariga xosdir.

Ilgari terrorchilar turli mamlakatlarda bir-birlaridan ajralgan holda harakat qilardi. Endilikda esa ularning faoliyati bir yoki bir nechta qudratli markazlar tomonidan boshqariladigan halqaro jinoyatchi guruhlarning siyosiy harakatiga aylandi.

Hozirgi terroristlar juda katta moddiy, texnika imkoniyatga ega. Eng zamonaviy qurollarga, hatto raketa texnikasi, ximiyaviy va bakterologik qurollarga, aloqa vositalariga ega.

Halqaro terrorizm hozirgi paytda narkobiznes, diniy ekstremizm, diniy millatchilik, separatizm, davlat to’ntarishi kabi globol ijtimoiy illatlar bilan

qo’shilib ketdi. Diniy ekstremizm, millatchilik g’oyasi bu harakatning asosiy mavkurasi, terrorizm esa uning amaliyoti bo’lib qoldi.

o’ta havfli retsedevistlar, narkomanlar, jinoyatchilar soxta diniy g’oyalar bilan aldangan, siyosiy saviyasi past yoshlar bu harakatning sotsial bazasidir.

Terrorizmning o’ta havfli harakatga aylanish sababi nimadaq

Ma’lumki XX asr oxiriga kelib ko’pchilik davlatlarida demokratlashtirish jarayoni Yuz beradi. Halqning hohish-irodasini ifodalovchi tizim ustivor bo’la boshladi. Odamlarning ongi, dunyoqarashi va tafakkurida ijobiy o’zgarishlar Yuzaga keldi. Ayni paytda eski tartib tarafdorlari, reaksion guruhlar, diniy ekstrimistlar va aqidaparastlar bundan tahlikaga tushib, ana shu ijobiy jarayonni izdan chiqarishga, hokimiyatga egalik qilish uchun terrorizmdan ishonchli vosita sifatida foydalanishga xarakat qildilar. Bunday harakat nafaqat Evropada, Sharqning Afg’oniston, Pokiston, Tojikiston, Saudiya Arabitoni, Misr, Jazoir, Indoneziya, YAponiya va boshqa joylarda ham kuchayib ketdi. Bu xarakatning kengayishiga jaxonning rivojlangan davlatlari hamda jamoatchilikning beparvoligi, loqaydligi ham sabab bo’ldi.

Hozirgi davrda terrorizm havfi har qachongidan ham daxshatli tus olayapti, avvalgiga nisbatan takomillashib, nihoyatda shavqatsiz bo’lib bormoqda. Ularning qo’lida eng havfli zamonaviy qurollar, hatto ximiyaviy, bakterologik qurollar to’planib, ishga solinmoqda. Dunyoning ko’pchilik davlatlaridan o’ta reaksion guruhlar ularni mablag’ bilan ta’minlamoqda. Afg’oniston jahonda 70% ga yaqin narkotik moddalar etkazayapti. Shundan keladigan daromadning asosiy qismi, Janubiy Afrika Respublika, Rodeziya, Angola olmos konlaridan, Iroq konlaridan olingan foydaning bir qismi terroristlar foydasiga Yuborilib kelingan. Afg’oniston, Janubiy Tojikiston, CHechiniston terroristlar tayyorlaydigan asosiy markazga aylanib qolgan. Bu erlarda terroristlar tayyorlaydigan harbiy maktablar-lagerlar doimiy ravishda ishlab turgan. Bu maktablarda turli millatlarga mansub josuslar, qo’poruvchilar tayyorlangan. Afg’onistonning Mazori Sharif, Q’andaxor, Q’unduz, Q’obul, Jalolobod shaharlari atrofida 20 dan ortiq ana shunday harbiy lagerlar faoliyat ko’rsatgan. Ularga hatto O’zbekistondan (Farg’ona, Toshkent, Xorazm, Namangandan) ham aldangan, saviyasi past yoshlarning jalb qilingani ma’lum. Arab millatiga mansub Usama Ben Laden, Hattob, chechinistonlik Shomil Basaev, Axmad Baraev, O’zbekistonlik Tohir Yo’ldoshev, Juma Namangoniylar halqaro terrorizmning tanilgan raxnomalaridir.

2001 yilgacha Afg’onistonning deyarlik 90% gacha hududiga egalik qilgan Tolibonlar ularni har jihatdan qo’llab kelganlar.

Birinchi sonli terrorchi nomini olgan Ben Laden asli Saudiya Arabistonidan, yirik biznesmen, boy oiladan chiqqan. Saudiya Arabistonida universitetda o’qigan. AQ’Sh da malakasini oshirgan. Kasbi quruvchi injener, dunyoning juda boy odami, boyligi 5 mld. dollardan ziyod. o’tgan asrning 70 yillarida Saudiya Arabistonida islom fundamentalistlari harakatida qatnashgan, 80 yillari Afg’onistonda sobiq Sovet qo’shiniga qarshi kurashda faol ishtirok etdi. U «Al-qoida», «His-bu- tahrir», kabi terroristik tashkilotlarni vujudga keltirdi. Usama Ben Laden 60 dan ortiq mamlakatda terroristik tashkilitlarga boshchilik qilmoqda, ularni mablag’, qurol-aslaha bilan taminlamoqda.

Terrorizm jahon xalqlariga, ularning tinchligi va osoyishtaligiga qanchalik fojia, dahshat keltirganligini quyidagi misollar bilan tasdiqlash mumkin.

Jaxonning o'nlab yirik davlat va jamoat arboblari terroristlar qo'lida halok bo'ldilar. Bular tubandagilar:

Hindistonning mashxur jamoat arbobi Maxatma Gandi, Bosh vaziri Indira Gandi(1984), Rajib Gandi(1992), Angola Prezidenti Lumumba(1982), Misr Prezidenti Anvar Soadat(1981), Shvetsiya Bosh vaziri Uolef Polg'me(1986), Livan Prezidenti Rene Mavvad (1989), Jazoir Oliy davlat Kengash raisi Muhammad Budiaf (1992), Shri-lanka Prezidenti Ranasingxe Premadasa(1993),Ruanda Prezidenti JYuvenalg' Xabi-YArimana(1994), Brunda Prezidenti Sipriem Ntaryamira(1994), Isroil Bosh vaziri Ishoq Rabin (1995), AQ'Sh Prezidenti Jon Kennedi va ukasi Robert Kennedi(1960 yillar), AQ'Sh negerlar huquqi himoyachisi Martin LYuter King(1970 yillar), va boshqalar.

1994-2003 yillar oralig'ida Rossiya Davlat dumasining o'nga yaqin deputatlari, o'nlab va Yuzlab bank boshliqlari hamda jurnalistlar terrorchilar qurboni bo'ldi. Hatto siyosatga aloqasi bo'lmagan oddiy fuqarolar, Ozarbayjonning mashhur sharqshunos olimi, Sovet Ittifoqi qaxramoni akademik Ziyo Bunyodovga o'xshagan olimlar ham terrorchilar tomonidan o'ldirilgan.

1980-1990 yillarda Jazoirda bir Yuzmingdan ortiq begunoh odamlar terrorchilar qurboni bo'ldi.

1997 yilda Luhsordagi xunrezlik oqibatida Misrga sayoxatga kelgan ko'plab xorijlik turistlar xalok bo'ldi.

Bunday fojealar Afrika, Indoneziya, AQ'Sh, YAponiya, Rossiya shaxarlarida ham tashkil etildi. 1998 yili AQ'Shning Keniya va Tanzaniyadagi elchixonasida, YAponiya metrosida, 2001 yil AQ'Shning NYu-YOrkdagi xalqaro savdo palatasi binosida, 2002 yili Moskvada Teatr binosida, Grozniy shaxrida Prezident binosi oldida tashkil etilgan portlashlar bunga misol buladi. NYu- YOrkdagi portlatish oqibatida 7 minga yaqin kishi xayotdan ko'z Yumdi. Prezidentimiz Islom Karimov o'zining Oliy Majlisning 2- chaqiriq 9- sessiyasida(2002y. 29 avg.) so'zlagan nutqida istiqlol yo'li oson kechmayotganligini, ichki va tashqi dushmanlar, diniy ekstrimistlarning respublika mustaqqilligiga qarshi qilgan yovuz niyatlari va xurujlarini aniq misollar bilan ko'rsatib berdi. Bunday havfli xurujlar Afg'oniston orqali tayyorlangan edi. Jumladin 1989 yil may iYun oyida Farg'onada, 1990 yil fevral-martida Bo'ka va Parkentda- 1990 yil iYunida o'sh va o'zganda. 1991 yil dekabrda Namanganda, 1999 yil 16 fevralida Toshkentda, shu yil martida Xorazmda Sorimoy hududida, 2005 yil 13 mayda Andijonda qonli fojialar uyishtirildi. 1999, 2000, 2001 yillarning yoz faslida Afg'onistonda uya qurgan terrorchilar chegaramizga bostirib kirib, tarixga aylangan eski mustabid tuzumni qayta tiklashga harakat qildilar.

Terrorchilar o'zlarining qabih harakatlari bilan ko'pgina begunoh kishilarni, ayniqsa yoshlarni qurbon bo'lishiga sabab bo'ldilar. Ming afsuski ana shu terrorchilar safida dushmanlarning chaqa pullariga sotilgan Xorazmlik yoshlar ham bor edi. Ammo dushmanlar o'z niyatiga etolmadilar, O'zbekistonning o'zi tanlagan yo'lidan qaytara olmadilar.

Terrorchilar qilmishiga yarasha jazolandilar.

2001 yil 11 sentabrda AQ'Shda sodir bo'lgan voqea hammani o'ylantirib qo'ydi, shungacha ayrim davlatlar, xatto AQ'Shning o'zi ham terrorizmga deyarli etarlicha e'tibor bermay kelayotgan edi. Terrorizmga qarshi yakkama-yakka kurashish mumkin emas ekanligi ko'pchilikka ma'lum bo'lib qoldi. Ko'pchilik davlatlar hamda nufuzli xalqoro tashkilotlar(BMT, Evropa Havfsizlik va Hamkorlik tashkiloti, NATO, MDH va boshqalar) terrorizmni o'ta xavfli ekanligiga,. biron mamlakat undan qutula olmasligiga endilikda to'la ishonch hosil qildilar. Xalqaro terrorizmga qarshi faqat birgalashib kurashmoq kerakligi ayni xaqiqat bo'lib qoldi.

Respublikamiz hukumati mustaqillikning birinchi kunidan boshlab xalqaro terrorizmning insoniyat uchun, ayniqsa mustaqil rivojlanish yo'liga qadam qo'ygan barcha davlatlar uchun qanchalik xavfli ekanligini chuqur anglab etdi. Shu boisdan diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurash masalasi hukumatimizning milliy havfsizlik strategiyasini ustuvor yo'nalishi bo'lib qoldi. Prezidentimiz I.Karimov o'zining Oliy Majlis 2- chaqiriq 1-sessiyasida (2000 yil 22 yanvar) so'zlagan nutqida «Bugungi kunda bizning barcha tashabbus va sayyi-xarakatlarimiz mintaqamizga tajovvuzkorona xatti-xarakatlar, diniy ekstremizm, aqidaparastlik va xalqaro terrorizmning yoyiliish xavfi kuchayib borayotganligini keng jamoatchilikka tushuntirishga qaratilmoqda», deb qayd qildi. Davlatimiz rahbari xalqaro terrorizmning milliy mustaqillikka, har bir mamlakatning demokratik taraqqiyot yo'liga dushman bo'lgan eng havfli salbiy xodisa ekanligini ko'rsatadi.

YUrtboshimiz xalqaro tinchlik va barqarorlikka rahna soluvchi bu jiddiy havfni bartaraf etish bo'yicha jahon davlatlari bilan hamkorlik choralarini ko'rish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi ekanini ko'rsatdi. Darhaqiqat Prezidentimiz I. Karimov terrorizmga qarshi kurashni tashkil etish buyicha xalqaro nufuzli yig'ilishlarda ishtirok etib bir qator takliflarni ilgari surdi. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasining 48 sessiyasida (1993 yil sentabr) 2000 yil dekabrda bo'lib o'tgan ming yillik sammitida so'zlagan nutqida, 1999 yil noyabrda Evropa Xavfsizlik va Hamkorlik tashkilotining Istambulda bo'lgan sammitida, 1999 yil aprelda NATO ning 50 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda , 1999 yil iYulda Toshkentda 6Q2 guruhiga kirgan davlatlar yig'ilishida, 2000 - 2001 yillarda MDH davlat rahbarlarining Moskva sammitida, Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining (O'zbekiston, Q'ozog'iston, Q'irg'iziston, Tojikiston) Dushanba, Bishkek va Toshkent uchrashuvlarida (2000- 2001 yil), shuningdek 2003 yil iYunda Shanxay hamkorilk tashkilotiga a'zo bo'lgan davlat rahbarlari sammitida so'zlagan nutqlarida Prezidentimiz I. Karimov xalqaro terrorizmga qarshi bir qator samarali takliflarni maydonga tashladi:

Terrorizmni butun insoniyat uchun xatarli illat ekanligini ko'rsatib unga karshi barcha kuch va imkoniyatlarni birlashtirish lozimligini ko'rsatdi.

BMT qoshida xalqaro terrorizmga qarshi kurash markazini tashkil etish va bu markazning vazifasi faqat terrorizmning o'zi bilan emas, balki uni qo'llab quvvatlayotgan qurol yarog' va mablag'lar bilan ta'minlayotgan kuchlarga, markazlarga xam qarshi kurashni muvofiqlashtirish zarurligini qayd etdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deyarlik keyingi barcha

sessiyalarida (ayniqsa 2 chaqiriq 7,9,11 sessiyalarida 2001 - 2003 yil) bu masalalaga alohida e'tibor berildi. 2000 yil avgustida Oliy Majlisning jaxon parlamentlari va xalqlariga karata murojatnomasida barcha davlatlarni xalqaro terrorizmga qarshi kurashda birlashishga chaqirdi. O'zbekiston Oliy Majlisi 2000 yil 15 dekabrda 31 moddadan iborat "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" gi qonunni qabul qildi. Q'onunda terrorizmga qarshi kurashning asosiy tamoyillari, ularga qarshi kurashning eng oliy vositasi mamlakat fuqarolarining ma'naviyatini Yuksaltirish, huquqiy ongini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish zarurligi, odamlarga islom dinimizning insonparvarlik moxiyatini, vayronagarchilik, genotsidga asoslangan terrorizm va ekstremizmning o'ta zararli illat ekanligini tushuntirish lozimligi qayd etildi.

2001 yil oktabrida AQ'Sh boshliq xarbiy koalitsiya Afg'onistondagi terrorizm o'choqlarini tugatish maqsadida keng miqyosda xarbiy xarakatlarni boshlab Yubordi. AQ'Sh xarbiy kuchlari terroristlar va ularni qo'llab quvvatlagan tolibonlarning xarbiy kuchlari, tayanch punktlariga AQ'Sh qaxshatgich zarba berdi. AQ'Sh boshliq koalitsiyaning aksilterror xarakatiga 40 dan ziyod davlatlar qo'shildi, bir Yuzga yaqin davlatlar xayrixoxlik bildirdi. Xatto Angliya, Germaniya, Kanada, Avstraliya va boshqa davlatlar bu kurashda qatnashdilar. Kurash o'zining ijobiy natijasini berdi, 23 yildan buyon davom etgan va afg'on xalqi boshiga bexisob musibat keltirgan afg'on urushi nixoyat tugadi. Jafokash afg'on xalqi tinch xayot kechirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu yil 6 oktabrdagi ehlon qilgan bayonotida O'zbekiston Prezidenti AQ'Sh ning Afg'onistondagi antiterrorchilik xarakatiga o'zining xayrixoxligini bildirdi. Shu munosabat bilan respublika matbuotda terrorizmga qarshi maxsus murojat ehlon qilindi. Murojatda terrorizmning moxiyati, basharasi ochib tashlandi, bu xarakat afg'on xalqiga, islom diniga qarshi qaratilgan xarakat ekanligi xalqqa tushuntirildi. O'zbekiston xukumati insoniyat xayotiga jiddiy xavf solayotgan XXI asr bevosiga qarshi, uni tugatgunga qadar jaxon xamjamiyati bilan o'zining birdam ekanligini ehlon qildi. Ma'lumki, Afg'onisondan keyin YAqin Sharqda Iroq davlati diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm o'chog'iga aylanib qolgan edi. Saddam Xusayn boshliq mustabid xukumati ularni moddiy va ma'naviy jixatdan qo'llab quvvatlab kelayotgan edi. Iroqda jaxon xamjamiyati uchun juda xavfli vaziyat Yuzaga keldi. Bu erda BMT tomonidan tahqiqlangan yadroviy, ximyaviy, baktereoloigk qurollar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, armiyaning soni salkam bir millionga etkazildi. Iroq xukumati BMTning yalpi qirg'in qurollarini ishlab chiqarishni to'xtatish, tugatish va tarqatmaslik xaqidagi talabini bajarishdan bosh tortdi, AQ'Sh xukumati Iroqda Saddam Xusayin diktaturasini ag'darib tashlash, bu erdagi xalqaro terrorizm tayanchini tugatish, Iroqda demokratik boshqaruv tizimini qaror topdirishga qaratilgan xarbiy operatsiyani boshlab Yuborishga qaror qildi. Bu operatsiya 2003 yil 20 martda boshlandi va uch xafta davom qildi. Bu xarakatda Angliya va Ispaniya xarbiy kuchlari xam ishtirok etdi. Koalitsiyaning xarbiy xarakatini jaxonning 40 dan ortiq davlatlari qo'llab quvvatladi. Shu jumladan O'zbekiston xukumati xam AQ'Shning Iroqdagi siyosatiga o'zining xayrixoxligini bildirdi. Natijada Sadam Xusayin diktaturasi ag'darildi, xalqaro terrorizmning yana bir xavfli o'chog'i tugatildi. Endilikda Iroqni demokratlashtirish uchun zarur choralar

ko’rilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov Oliy Majlis 2-chaqiriq 11-sessiyasida so’zlagan nutqida Afg’oniston va Iroq masalasida respublika xukumatining pozitsiyasini chuqur analiz qildi, shu davlatlarni tinch taraqqiyot yo’liga o’tishga xar taraflama yordam berganligini bildirdi. Demak O’zbekiston nafaqat Afg’oniston va Iroq zaminida, balki butun dunyoda terrorizm va ekstrimizm o’choqlarining butunlay tugatilishidan manfaatdordir, chunki buning zamirida Yurtmiz tinchligi, xavfsizligi, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi mujassamdir. Jaxonda adolat va ezgulik timsoli bo’lgan demokratik kuchlar yovuzlik, jaxolat timsoli bo’lgan diniy ekstrimizm va terrorchilik ustidan muqarrar g’alaba qozonadi, bunga shubha bo’lishi mumkin emas.

Tayanch tushunchalar:

Xalqaro xavfsizlik, tizim, tartib, umumiy konsensus destruktiv kuchlar, barqarorlik, taraqqiyot, BMT, NATO, EXX, Evropa ittifoqi, MDX, xavfsizlik kengashi, dekolanizatsiya, deklaratsiya, siyosiy echim, kuch ishlatish, xavfsizlik strategiyasi, milliy xavfsizlik strategiyasi, «Bartlett modeli», xavfsizlik faktorlari, umumbashariy muammo, «Markaziy Osiyo omili» Geopolitika.

Adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O’zbekiston», 2003y.
2. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’saqasida: xavfsizlikka taqdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. 6 jild.-T.:»O’zbekiston», 1998.
3. KarimovI.A. Xushyorlikka da’vat. Toshkent. O’zbekiston , 1999
4. KarimovI.A. Egali Yurt erkini bermas. Xalq so’zi. 2000 yil 31 avgust.
5. Karimov I.A. O’zbekistonda demokratik o’zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo’nalishlari. «Xalq so’zi», 2002. 30 avgust.
6. Karimov I.A.Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.: «O’zbekiston» 2002y.
7. Karimov I.A. Biz tanlagan yo’l demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan qamkorlik yo’li. T.: «O’zbekiston» 2003y.
8. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloq etishdir. T.: «O’zbekiston» 2005. 56-68 betlar.
9. Karimov I.A. o’zbek xalqi xech qachon, xech kimga qaram bo’lmaydi.-T: «O’zbekiston» 2005y.
10. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasida so’zlagan nutqi. "Fidokor" 2000, 12 sentyabr.
11. . 19. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch” 2008y
12. 20. Karimov I.A. “Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish” T.: “O’zbekiston” 2009.
13. 21.Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning choralari va yo’llari” T.: “O’zbekiston” 2009.
14. Abdullaev O.B. O’zbekistonning Xalqaro Tashkilotlar bilan

xamkorligi. (uslubiy qo’llanma) Urganch. 2005y.
15. Galxin A.Mir kak sistema. Polis. 1998g
16. Jo’raev N. Agar ogox sen... Toshkent 1998y.

O’ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI FANI BO’YICHA MA’RUZALAR MATNLARI

1-mavzu: O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Reja:

1.O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti, ob’ekti, tushunchalari, maqsad va vazifalari.

2. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishning umumjaxon e’tirof etgan qonuniyatlari.

3. O’zbekistonda o’ziga xos taraqqiyot yo’lining mavjudligi.

“O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining ob’ekti va predmeti. “O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining ob’ekti O’zbekiston ijtimoiy xayotining barcha soxalaridir.

Mazkur kursning predmetini O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi, demokratik, fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish, bozor munosabatlariga asoslangan ko'p ukladli iqtisodiyotni qaror toptirish, jamiyatimizni ma'naviy qayta tiklash va yuksaltirish, O'zbekistonning teng huquqli xamkorlikka asoslangan tashqi siyosati nazariyasi va amaliyoti tashkil etadi.

O’zbekistonning siyosiy hayoti va undagi o’zgarishlar. Respublikamizning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi bilan jamiyatimizda siyosiy islohotlar avj olib ketdi. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurishning nazariy asoslari va ularni hayotga tatbiq etish yo'llari ishlab chiqildi. Shunga muvofiq,

respublikamizda eski ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan xokimiyat tizimidan milliy davlatchilik tizimiga o'tish mexanizmi yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi qabul qilindi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyati barpo etildi. Maxalliy davlat xokimiyati organlari – viloyat, shahar, tuman xokimiyatlari tashkil etilib ularning vakolatlari belgilab berildi. Demokratik institutlari va fuqarolik jamiyatni qaror toptirish siyosati ishlab chiqildi va hayotga joriy etildi. Siyosiy partiyalar, nodavlat jamoa tashkilotlari va boshqa jamoat barlashmalarning O'zbekiston Respublikasi hayotidagi o'rni asoslab berildi.

Shuningdek, davlat mudofaa qobiliyatini mustaxkamlash, islohotlar huquqiy asoslarini yaratish, inson huquqlarini himoya qilish, huquqiy ongni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan nazariy va amaliy tadbirlar ishlab chiqildi.

O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish shart-sharoitlari, omillari va amal qilish qonuniyatlarini o’rganish. Bu fan o’zining mantiqiy tuzilishiga xamda ilmiy-taxlil usullari va vositalariga ko’ra mustaxkam nazariy asos va manbalarga asoslanadi. Bu o’rinda BMTning 1948 yil 10 dekabrda qabul qilgan «Inson xuquqlari umumjaxon deklaratsiyasi»ni keltirish mumkin. SHuningdek, O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror va qonunlari, xamda mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimovning bir qator fundamental va ustuvor asarlari, mahruzalari, nutqlari, muxbirlarning savollariga bergan javoblari, farmonlari va Vazirlar Maxkamasining qarorlari xam bu fanni o’rganishning asosiy manbalari xisoblanadi. Ushbu asarlar va manbalarda O’zbekistonda amalga oshirilayotgan isloxotlarning vazifalari, ustuvor yo’nalishlari va mexanizmlari, ularning yakunlari va saboqlarining xar biri aloxida bosqichga xos ravishda asoslab berilgan, demokratik, xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, xuquqiy, ma’naviy asoslarining ma’lum tizimga solinishi bilan bir qatorda ular asosida barpo etilayotgan yangi jamiyatni takomillashtirish, modernizatsiya qilish, demokratik boshqarishning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan.

“O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining maqsadi va vazifalari. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining maqsad va vazifalari yangi jamiyat qurilish tajribasini ilmiy-nazariy jixatdan umumlashtirish, nazariy xulosalar chiqarish, amaliy tadbirlar belgilash, yoshlarni ilg’or g’oyalar ruxida tarbiyalash, ularni Vatanga, xalqqa sadoqatli bo’lishga undash, ularni demokratik jamiyat qurilishiga faol safarbar etishdan iborat.

O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining maqsadi - yoshlarda O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o’ziga xos xususiyatlari hamda umume’tirof etilgan demokratik tamoyillar va uni amalga oshirish shart-sharoitlari to’g’risida bilim, ko’nikma va malaka hosil qilish.

O’zbekistonda demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining shakllanishi va amal qilish qonuniyatlari. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining o’ziga xos qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

1. Demokratik jamiyat qurilishida mamlkatimizning o’ziga xos milliy xususiyatlarini xisobga olish qonuniyati. O’zbekiston ko’p millatli mamlakat.

Xozir bu zaminda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydilar va O’zbekistonni o’zlarining muqaddas vatanlari deb biladilar. Davlatimiz xam barchani millatidan qathiy nazar, O’zbekiston Respublikasi fuqarolari deb biladi va ularning xuquqlarini ximoya qilish, barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va anhanalarini xurmat qilishni ta’minlaydi. Ularning rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratadi. Bu xolat, o’z navbatida siyosiy barqarorlikning muxim omillaridan biridir.

2. Demokratik jamiyat qurilishining milliy-ma’naviy qadriyatlar bilan uzviy aloqadorlik qonuniyati: biz demokratik xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishni maqsad qilar ekanmiz bunda eng avvalo jaxon tajribalari bilan uyg’unlashgan xolda xalqimizning tarixiy, milliy-ma’naviy qadriyatlariga tayanamiz, ulardan oziqlanamiz.

3. Bozor iqtisodining asosiy tamoyillari bilan uzviy aloqadorlik qonuni. Yuqorida qayd qilib o’tganimizdek, o’zimiz tanlagan mustaqil taraqqiyot yo’limiz ajdodlarimiz tarixiy tajribasini, mamlakatimizning o’ziga xos xususiyatini va xalqimizning aql-zakovatini, urf-odatlari va anhanalarini xisobga olib, o’z yo’limizdan aniq maqsad sari qatoiyat bilan ilgarilab borishdan iborat. Ushbu yo’lni amalga oshirishda, demokratik jamiyatni barpo etishda Prezident I.A.Karimov ilgari surgan besh tamoyil asos qilib olingan. Bu tamoyillar faqat bizning mamlakatimizda emas, jaxonning boshqa ko’plab davlatlarida xam tan olindi.

4. Demokratik jamiyat qurilishida umumbashariy qadriyatlarni xisobga olish qonuni. Ma’lumki umumbashariy qadriyatlar, milliy, mintaqaviy qadriyatlar bilan uyg’unlashib insonparvarlik g’oyalari va ezgu niyatlarning ro’yobga chiqishiga xizmat qiladi.

Insonparvarlik g’oyalariga sadoqat, demokratiya, ijtimoiy adolat xamma erda barqaror bo’lishiga intilish, inson xuquqlari poymol etilishiga yo’l qo’ymaslik, xamma xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo’lgan kurashlarini ximoya qilish, kishilarni do’stlik, xamkorlik va xamdardlikka chorlash, xamma erda tinchlik osoyishtalik qaror topishiga xarakat qilish, atrof-muxitni toza saqlash umuminsoniy qadriyatlarning xozirgi kunda eng muxim jixatlaridir.

5. Tashqi siyosatda milliy manfaatlar ustuvorligiga amal qilish qonuni. Ko’zlangan maqsad sari qadam-baqadam ilgarilab borish uchun Prezident I.A. Karimov juda o’rinli bir qator asarlarida aytib o’tganidek, xam tashqi, xam ichki siyosatimiz, xarakatimizning asosiy maqsadi xalqimiz manfaatlarini o’ylaydigan, unga farovonlik va erkinlik ato etadigan adolatli, demokratik jamiyatni barpo etishdir.

O’zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning o’ziga xos xususiyatlari. Mustaqillikka erishgandan keyin O’zbekistonda uning o’ziga xos va o’ziga mos bo’lgan tadrijiy yo’li ishlab chiqildi. Bu yo’l Prezident tomonidan ishlab chiqilgan besh tomoyilda o’z ifodasini topdi. Bu yo’l quyidagi o’ziga xos xususiyatlarga asoslanadi:

- Axolining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq anhanalari va urf odatlaridan kelib chiqadi.
- Respublikaning o’ziga xos demografik vaziyatidan.

- Respublikaning o’ziga xos milliy tarkibi.
- Qulay geostrategik mavqei.
- O’zbekistonning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini ximoya qilish imkonini beradigan potentsial mavjud.
- O’zbek xalqining mentaliteti.

Yoshlarni demokratik davlat va fuqarolik jamiyati to’g’risidagi g’oyalar, qarashlar, nazariya va ta’limotlar bilan tanishtirishning ahamiyati. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini o’rganish orqali erkin, demokratik, fuqarolik jamiyati qurilishining nazariy asoslarini, dunyoda demokratik jamiyat qurish bilan bog’liq, umumiy qonuniyatlarni bilish bilan birga, demokratiyaning o’ziga xos milliy ko’rinishlari, «milliy modellari»ning ma’no-mazmunini to’g’ri tushunib olishga muvafiq bo’lish mumkin. Demokratik jamiyat qurishning qonuniyatlarini bilishda, uning jaxonda ehtirof etilgan tamoyillarini xar bir mamlakat va xalqning milliy, ma’naviy xususiyatlari bilan bog’liq xolda amalga oshirish zarurligini xis etish va unga amal qilish ko’nikmalarini shakllantiradi. Xaqiqiy demokratiya bilan soxta demokratiyaning farqini ko’rishda, uni baxolab, munosabat bildirishda, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muxim o’rin tutadi.

Fanning asosiy tushunchalari va uning qonuniyatlari.

«Jamiyat», «TSilivizatsiya», «Erkinlik», «Xuquqiy», Qonun», «Madaniyat», «Taraqqiyot», «Demokratiya», «xuquqiy davlat», «xususiy mulk», «fuqarolik jamiyati», «siyosat», «siyosiy xokimiyat», «siyosiy tashkilotlar», «siyosiy tizim», «siyosiy rejim», «siyosiy plyuralizm», «siyosiy ong», «siyosiy madaniyat» va b.

Demokratik jamiyatga doir bo’lgan umumiy tushunchalar. Erkinlik, mustaqillik, demokratiya, qonun ustuvorligi, «demokratik davlatchilik», «demokratik jamiyat», «demokratiya», «demokratik jamiyat to’g’risidagi qarashlar», «demokratik jamiyatning milliy-ma’naviy negizlari», «milliy-ma’naviy qadriyatlar», O’zbekiston iqtisodiy xayotining demokratiyalashuvi, ijtimoiy xayot va demokratiya, siyosiy xayotning demokratik tamoyillari, «demokratik qadriyatlar»**.**

“O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanini bilan bevosita bog’liq tushunchalar. «O’zbekistonning o’ziga xos va mos taraqqiyot yo’li», erkinlik, mustaqillik, demokratiya, qonun ustuvorligi, «demokratik davlatchilik», «demokratik jamiyat», «demokratiya», «demokratik jamiyat to’g’risidagi qarashlar», «demokratik jamiyatning milliy-ma’naviy negizlari», «milliy-ma’naviy qadriyatlar», O’zbekiston iqtisodiy xayotining demokratiyalashuvi, ijtimoiy xayot va demokratiya, siyosiy xayotning demokratik tamoyillari, «demokratik qadriyatlar», «O’zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishi», «Ozod va obod Vatan, erkin va faravon xayot», «O’zbekiston va jaxon xamjamiyati».

Demokratik jamiyat qurishning umumjahon e’tirof etgan qonuniyatlari va uning O’zbekistonda o’ziga xos taraqqiyot yo’lining mavjudligi. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining o’ziga xos qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

1.Demokratik jamiyat qurilishida mamlkatimizning o’ziga xos milliy xususiyatlarini xisobga olish qonuniyati. 2. Demokratik jamiyat qurilishining milliy-ma’naviy qadriyatlar bilan uzviy aloqadorlik qonuniyati. 3. Bozor iqtisodining asosiy tamoyillari bilan uzviy aloqadorlik qonuni. 4.Demokratik jamiyat qurilishida

umumbashariy qadriyatlarni xisobga olish qonuni. 5.Tashqi siyosatda milliy manfaatlar ustuvorligiga amal qilish qonuni.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy-madaniy merosga tayanish. Biz demokratik xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishni maqsad qilar ekanmiz bunda eng avvalo jaxon tajribalari bilan uyg'unlashgan xolda xalqimizning tarixiy, milliy-ma'naviy qadriyatlariga tayanamiz, ulardan oziqlanamiz. Masalan: «Avesto», Al-Beruniy, Al-Xorazmiy asarlari, Forobiyning «Fozil odamlar shaxri», Yusuf Xos Xojibning «Kutadg'u bilig», Amir Temurning «Temur tuzuklari», Imom-al-Buxoriy, Imom At-Termiziy, Al-Moturudiy, Maxmud az-Zamaxshariy, Axmad Yassaviy, Najmiddin Kubro asarlari, Alisher Navoiyning «Xayrat-ul-abror», «Saddi Iskandariy», «Ajam tarixi», Boburning «Boburnoma», Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi», Munis, Ogaxiy, Bayoniy, Abdulla Avloniy, Bexbudiylarning ijtimoiy-falsafiy asarlarida milliy davlatchilik, jamiyatni adolatli boshqarish, ozodlik, tenglik, birodarlik, xurriyat, istiqlol g'oyalari biz qurayotgan jamiyat g'oyalari bilan xamoxangdir va milliy istiqlol g'oyasining muxim manbalaridir.

Milliy davlatchilik negizlarini hisobga olish va uning amaliy jihatlari. O'tmish meros, ayniqsa avlod – ajdodlarimizning milliy davlatchilik, adolatli jamiyat to'g'risidagi fikrlari va ularning qanday yo'nalishda rivojlanganligini bilish hozirgi avlod uchun nihoyatda muhimdir.

"Bugun- deb ta'kidlaydi Prezident Islom Karimov, - bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdagi boy anhanalarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak".[91]

Mamlakatimizda demokratik jamiyatni barpo etishda siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga asoslanishi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik jamiyati va xuquqiy davlat qurish maqsadlaridan kelib chiqib jamiyatning siyosiy soxasini erkinlashtirish kontseptsiyasini ishlab chiqdi, va uning quyidagi yo'nalishlarini belgiladi.

1. Mamlakatimiz siyosiy xayotining barcha soxalarini davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish;
2. Mamlakatimiz siyosiy xayotida xaqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik muxitini qaror toptirish;
3. Nodavlat tuzilmalar, xukumatga qarashli bo'lmagan va jamoat tashkilotlarining, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada mustaxkamlash va rivojlantirish;
4. Jamiyatda fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligi, ularni erkin ifoda etish sharoitini ta'minlash;
5. Inson xuquq va erkinliklarini, odamlarimiz ongida demokratik qadriyatlarni yanada mustaxkamlash va rivojlantirish.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanini o'rganishning ahamiyati. Fanni o'rganish orqali fuqarolar O'zbekiston

[91] Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari// Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T-3. –T.: O'zbekiston, 1996. 7-b.

Respublikasining demokratik jamiyat qurishdan iborat maqsad va vazifalarini bilib olishi mumkin. O’zbekiston jamiyati xayotining barcha jabxalari to’g’risida bilimga ega bo’lish muxim siyosiy va ijtimoiy-ma’rifiy axamiyatga ega.

2- Mavzu: Demokratik jamiyat to’g`risidagi dastlabki qarashlar va ularning rivojlanish bosqichlari.

Reja

1. O’zbekiston zaminida demokratiya va adolatli jamiyat to’g’risidagi dastlabki qarashlar.
2. IX-XII asrlarda O’rta Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida davlatni boshqarish va adolatli jamiyatga doir g’oyalar.
3. XV-XIX asrlarda davlat va jamiyat qurilishining ijtimoiy-siyosiy holati.

O’zbekiston zaminida demokratiya va adolatli jamiyat to’g’risidagi dastlabki qarashlar. Mustaqil O’zbekiston yangi jamiyat barpo etayotgan bugungi kunda insoniyatning adolatli jamiyat to’g’risidagi dastlabki qarashlari va bu qarashlarni o’zida mujassam etgan ta’limotlarga murojaat qilish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. Zero, millat qanchalik yuksak taraqqiyotga ko’tarilgani sari uning o’z ildizlariga talpininb yashash ruhiyati kuchayib boradi. CHunki, har qanday istiqbol o’tmish tajribalariga, undan chiqarilgan xulosalarga tayansagina pirovard maqsad va muddaoga erisha oladi. O’tmish meros, ayniqsa avlod – ajdodlarimizning milliy davlatchilik, adolatli jamiyat to’g’risidagi fikrlari va ularning qanday yo’nalishda rivojlanganligini bilish hozirgi avlod uchun nihoyatda muhimdir.

“Bugun- deb ta’kidlaydi Prezident Islom Karimov, - bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo’ldiki, biz bosib o’tgan yo’limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o’tmishimizdagi boy anhanalarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog’imiz kerak”.[92]

Qadimgi ajdodlarimizning adolatli jamiyat to’g’risidagi qarashlari, ta’limotlari, avvalambor, xalq og’zaki ijodida, keyinchalik yozma manbalarda afsonaviy qahramonlar, xalq xaloskorlari, xudolar to’g’risidagi yozma manbalarda ifodalangan. Keyinchalik, ana shu qarashlar afsonaviy diniy ta’limotlarda o’z ifodasini topdi.

«Avesto»da ezgulik, insoniy va adolatli jamiyat boshqaruviga doir qarashlar. Bugungi kunda butun o’zbek xalqi maqtansa arzigulik, unga kuch-quvvat, ilhom, shodlik va fidoyilik baxsh etuvchi avlod-ajdodlaridan qolgan “Avesto”dek noyob merosga egadirlarki, u faqatgina xalqimizning qadimiyligini tasdiqlovchi tarixiy hujjat bo’libgina qolmay, avlod-ajdodlarimizning hali

[92] Karimov I.A. O’zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari// Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T-3. –T.: O’zbekiston, 1996. 7-b.

dunyoning boshqa bir zaminlarida, xususan, hozir taraqqiy etgan mamlakatlarida davlat, uni shakllantirish, idora etish, ezgulikni ulug'lash g'oyalari hali bo'lmagan vaqtda o'zbek xalqining avlod-ajdodlari shunday g'oyalarni, qarashlarni shakllantira olganlarini tasdiqlovchi ma'naviy boylik hamdir. Ma'lumki, "Avesto"ning bizgacha etib kelgan qismi to'rt kitobni o'z ichiga oladi: **birinchi kitob**-"Yasna" (duolar yoki qurbonlik keltirish), **ikkinchi kitob**-"Visparad" (ibodat qo'shiqlari), **uchinchi kitob**-"Yashtlar" (ma'budalarga madhiyalar), **to'rtinchi kitob**-"Vendidot" (devlarga qarshi qonun).

"Avesto"dagi g'oyalar ezgulikni ulug'lashni ifodalash bilan bir qatorda ular mohiyatan bir biri bilan bog'liqdir. "Avesto"dan ma'lum bo'lishicha, o'sha paytdagi ijtimoiy-siyosiy tizim bir-biriga bog'liq ierarxik pog'ona-davlat, shoh ("kavi"), jamoa boshlig'i ("vis"), harbiy boshliq ("daxhyu sastar"), oliy sudg'ya ("zaratushtroema"), oqsoqollar kengashi ("varzanapati")dan iborat bo'lgan.[93] Ko'rinib turibdiki jamoa-ahlining asosiy qismi davlat boshqaruvida ishtirok etgan. Tom ma'nodagi, biroq o'sha oddiy shakldagi fuqarolik jamiyati belgilarini urug' va qabilaga birlashgan jamoa hayotida umumiy ijtimoiy-foydali mehnat bilan shug'ullanishida, erkin jamoa a'zolarining asosiy mulki chorva va yerlardan teng foydalanishganligida, erkaklar bilan xotin-qizlar teng xuquqqa ega bo'lganligida, qabilaning umumiy manfaati bilan bog'liq bo'lgan turli masalalar oqsoqollar Kengashida muhokama etilganligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston hududida milliy davlatchilik negizlari. Zardushtiylik ta'limotida harbiy to'qnashuvlar, xunrezliklar, bosqinchilik harakatlari keskin qoralangan. Zardushtning fikricha, yurt tinchligi, jamoadagi osoyishtalik insonlarning yaratuvchanlik qudratiga, ularning har qanday yovuzliklardan xalos bo'lishiga, bir-birlarining huquqlarini poymol qilmaslikka va jamiyatda adolat bo'lishiga asos bo'ladi. Qabilalar o'rtasida tez-tez sodir bo'ladigan nizolar, urushlar, adolatsizliklar mamlakatlarni, xalqlarni paro-kandalikka olib boradi.

Keyinchalik, Markaziy Osiyoda bir qancha davlatlar tashkil topdi. Ko'pgina tarixiy ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, "Avesto"dagi davlatchilik to'g'risidagi qarashlar, keyinchalik tash-kil topgan davlatlar siyosiy tizimining shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Adolatli davlat to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar, qarashlarning asta-sekin rivojlanib, konkretlashib ta'limotlar darajasiga etishi tarixiy taraqqiyotda uzoq davom etgan jarayondir. Bu jarayon turli xalqlarda turlicha kechgan. Lekin, barcha xalqlarga, mamlakatlarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni kuzatish mumkinki, ular quyidagilardan iborat: adolatsizlikka qarshi adolat, zo'rlik va qonunsizlikka qarshi qonuniylik, rahm-shafqat, urushga qarshi tinchlik va h. k.. Xarakterli joyi shundaki, xalq og'zaki ijodida, yozma manbalarda, diniy va dunyoviy kitoblarda ezgulikka intilish, inson nomini ulug'lash, sotsial adolatga erishish uchun kurash tarixi barcha qadimgi xalqlar hayotiga xosdir. Xulosa sifatida aytish mumkinki, eng qadimgi adolatli jamiyat to'g'risidagi qarashlar, g'oyalar taxminan bundan to'rt ming yil avval xalq og'zaki ijodida, yozma diniy kitoblarda, diniy mifologiyalar tarzida shakllangan.

[93] Boboev H, Hasanov S. «Avesto"- ma'hnaviyatimiz sarchashmasi. –T.: Adolat, 2001. 51-b.

IX-XII asrlarda O’rta Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida davlatni boshqarish va adolatli jamiyatga doir g’oyalar. **IX-XIII asrlar O’rta Osiyo tarixida murakkab davr bo’lgan. Xalqning o’z mustaqilligi uchun kurashishi, bunda xurriyat va inson erkinligi g’oyalari millatning ma’naviy yuksalishiga olib kelgan. Bu davrda dunyoga mashxur Xorazmiy, Farg’oniy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Nizomulmulk kabi faylasuf, siyosatchi, tarixchi olimlar shu davrda yashab ijod etdilar. Bu davr o’z mazmuni, salmog’i jixatidan O’rta Osiyo uyg’onish davri deb tarixga kiradi. Uyg’onish davri madaniyatining o’ziga xos tomonlari mavjud bo’lib, ular quyidagilardan iborat:**

1.Dunyoviy ma’rifatga intilish, bu yo’lda o’tmish va qo’shni mamlakatlarning madaniyati yutuqlaridan keng foydalanish, ayniqsa tabiiy-falsafiy, diniy, tarixiy xamda ijtimoiy ilmlarni rivojlantirish;

2.Tabiatga qiziqish, tabiatshunoslik ilmlarining rivoji, ratsionalizm, aql kuchiga ishonish, asosiy e’tiborni xaqiqatni topishga qaratilgan fanlarga berish, xaqiqatni inson tasavvuri, ilmning asosi deb xisoblash.

3.Insonni ulug’lash, uning aqliy, tabiiy, ruxiy, badii, ma’naviy fazilatlarni asoslash, insonparvarlik, yuqori axloqiy qonun va qoidalarni namoyon etish, komil insonni tarbiyalash.

4.Universallik-qomusiylik, barcha tabiat xodisalari bilan qiziqish, uning moxiyatiga intilish;

5.Davlat qurilishi va boshqaruvining nazariy negizlarini, adolat, axloq tamoyillarida shakllantirish, ularning xuquqiy xamda amaliy asoslarini rivojlantirish.

6. Davlat raxbari va xizmatchilarining faoliyat darajalari tasniflari, ma’suliyat mezonlari tizimining nazariy negizlarini yaratish.

Qolaversa, IX-XII asrdagi O’rta Osiyo mutafakkirlarining fikriga xos xususiyatlardan biri shundan iboratki, uning namoyondalari davlat, hokimiyat, adolat masalalarini islom qoidalariga tayangan holda hal qilishga harakat qilganlar.

SHuni alohida qayd etish joizki, islom dini tarqalgan davlatlarda inson tafakkuriga xos bo’lgan hurfikrlilikka intilish, ayniqsa, ilmu ma’rifat ahllarida so’nmadi. Hatto islom dini ichida ham davlat, huquq, adolat, burch haqida turli xil fikrlar, yondashuvlar va talqinlar bo’lgan. Masalan, al-G’azzoliy (1058-1111) ning aytishicha, Olloh-taolo payg’ambarlarni odamlarga to’g’ri yo’l ko’rsatish uchun tanlagan bo’lsa, hukmdorlarni odamlar o’rtasidagi nizolarni bartaraf qilish uchun tanlagan. Al-G’azzoliy podshoh, amiru-xonlarga yaqin turmaslik, ular bilan hamsuhbat bo’lmaslikka chaqirsa[94], uning zamondoshi, vazir Nizomulmulk esa barcha davlat ishlarini maslahat bilan amalga oshirishga, «har bir ishning tadbirini donolaru qariyalar va dunyo ko’rgan kishilar bilan hal qilish kerak»[95] deb hisoblaydi. Musulmon dunyosida mashhur XI asr huquqshunosi Al-Movardining aytishicha, davlat dinsiz saqlanishi mumkin, ammo adolatsiz yashay olmaydi. O’rta Osiyo xalqlari ilg’or mutafakkirlarining siyosiy-falsafiy qarashlarida odil hukmdor g’oyasi markaziy o’rinni egallaydi. Ular davlat tepasida turgan hukmdor adolatli, xulq atvori pok, fuqarolarga rahm-shafqatli, g’amxo’r bo’lsa, davlat

[94] Ал-Ғаззолий Абу Ҳамид Муҳаммад Ибн Муҳаммад. Охиратнома. –Т.: Ёзувчи, 1994, 24-25 - бетлар.

[95] Низомулмулк. Сиёсатнома ёки Сияр ул-мулук. –Т.: Адолат, 1997. 97-б.

qudratli, jamiyat faravon bo'ladi deb tushunadilar. SHundan kelib chiqqan holda ular insonni ma'naviy kamolatga erishishga chaqiradilar va shu orqali adolatsizlik, xulqiy buzuqliklarni bartaraf qilish mumkin deb hisoblaydilar.

Ma'naviy taraqqiyot jarayonida so'nmas iz qoldirgan, o'rta asrning siyosiy va huquqiy qarashlarini chuqur tahlil qilib, o'zining adolatli jamiyat to'g'risidagi qarashlarini to'la asoslab bergan, qomusiy aql egasi, donishmand mutafakkirlaridan yana biri Abu Nasr Forobiydir. Forobiyning merosi nihoyatda boy, u entsiklopedist olim sifatida 160 dan ortiq ilmiy asarlar sohibi. Uning arab va fors tillarida she'rlar yozganligi, zo'r musiqachiligi, o'zi yaratgan musiqa asbobida ajoyib kuylar ijro etganligi manbalardan ma'lum. Forobiy ko'pgina yunon olimlari (Fales, Gippokrat, Ptolemey, Evklid)ning asarlarini o'rganib, ularga sharhlar yozdi. Uni o'z davrida «Muallimi as-Soniy», ikkinchi muallim (Aristoteldan so'ng), «SHarq Aristoteli» degan buyuk nomga sazovor bo'lishiga asosiy sabab, Forobiy Aristotelning barcha asarlarini tahlil etib ularga sharhlar yozadi.

Forobiyning inson va jamiyat, ularning o'zaro tahsiri, davlat, siyosat, urush va tinchlik, adolat kabi masalalarga bag'ishlangan asar-lari sirasiga «Fozil odamlar shahri», «SHaharni o'rganish haqida», «Urush va tinch turmush haqida», «Baxt-saodatga erishish haqida risola», «Davlat arboblari haqida hikmatlar» nomli asarlarida inson, jamiyat, siyosat, adolat, odob-axloq, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlari bayon etilgan.

Forobiy barcha shaharlarni, davlatlarni fozil va johilga ajratadi. «Fozil shahar shunday shaharki, - deb ta'kidlaydi u,- unda odamlar, ularni baxt-saodatga eltuvchi ishlarda bir-birlariga yordam berishni maqsad qilib qo'yadilar. Haqiqiy baxtga erishish niyatida bir-birlariga yordam berish uchun birlashgan jamoa fozil jamoa hisoblanadi. Barcha shaharlari baxt-saodatga erishish maqsadida bir-birlariga yordam beruvchi xalq fozil xalqdir. SHunday qilib, barcha xalqlar haqiqiy baxt saodatga erishish yo'lida bir-birlariga yordam bersalar, er yuzi fozillikka erishadi, baxt-saodatga olib boradi. Baxt-saodat ilmda, hunarda etuk va erkin bo'lish moddiy va ma'naviy boyliklarga ega bo'lish orqali qo'lga kiritiladi.

Fozil davlatlarning aksi johil shahardir. Unda yashovchilar bir-birlari bilan doim nizoda bo'lib, yaxshi axloqiy xislatlardan mahrumdirlar.

Forobiyning fikricha, fozil davlat o'z maqsadiga erishmoq uchun qator vazifalarni amalga oshirmog'i joiz:

Birinchidan, u o'z aholisini moddiy jihatdan ta'minlashi lozim.

Ikkinchidan, aholiga ta'lim-tarbiya berish ma'naviy jihatdan yuksaklikka etishishi uchun tinmay ish olib borishi zarur.

Uchinchidan, davlatni idora etib turish, u o'z yo'lidan adashib ketmasligi uchun qonunchilik faoliyatini yaxshi yo'lga qo'yish, zarur hollarda kerakli qonunlar qabul qilib tartibni saqlab turish kerak.

To'rtinchidan, o'z aholisini tashqi dushmanlardan, johil shaharlar xujum va ta'siridan saqlay olishi, buning uchun kerakli choralarni amalga oshirishi zarur.

Forobiy davlat va jamiyatni boshqarishda shoh o'n ikki xislatga (Yusuf Xos Hojib ham shuncha xislatni ko'rsatgan) ega bo'lishi lozimligini tahkidlaydi.

Bunday boshliq sog'-salomat, farosatli, tezda masalani aniqlab oluvchi, xotirasi, zehni o'tkir, notiq, ilm olishga qiziqqan va o'z bilimini doimo oshirib

boradigan, turli hayot lazzatlaridan o'zini tiya oladigan, adolatparvar, haqgo'y, yolg'on va xushomadni yomon ko'radigan, nomusli, oriyatli, bu dunyo boyliklariga qiziqmagan, qathiyatli, sabotli, eng muhimi donishmand inson bo'lishi lozim.

Forobiy davlat rahbari uchun zarur 12 xislat bir kishida mujassam bo'lishi amri mahol ekanligini biladi.[96] SHu bois ana shu xislatlarga ega bo'lgan ikki yoki undan ham ko'p kishilarni shahar hokimligiga qo'yishni taklif etadi.[97]

Bu aslida, hozirgi ma'nodagi demokratik boshqaruv tizimiga xos fikrlardir. Forobiy qarashlaridagi «hokimi mutlaq bo'lmasligi», «saylovchilar irodasi», «ozodlik» kabi fikrlari nafaqat o'sha davrda, balki bugunda ham insoniyat madaniyati noyob mahsuli hisoblangan –demokratiyaning bosh g'oyasi bo'lib xizmat qiladi.[98]

SHunday qilib, Forobiy orzu qilgan ideal shahar-davlatlarning asosiy vazifasi – bu tinchlikni ta'minlash, adolat printsiplarini himoya qilish, odil sudlovni o'rnatish kabilardir.

O'rta asrlarda yashab ijod etgan, fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan qomusiy olimlardan yana biri **Abu Rayhon Beruniy** (973-1051) ham adolatli jamiyatni juda orzu qilgan.

Abu Rayhon Beruniyning «Minerologiya» asarida eng og'ir mehnat turlari bilan shug'ullanuvchi kishilarga jamiyat tomonidan beriladigan huquqiy imtiyozlar, mehnatiga yarasha haq to'lanishi va ular mehnatining rag'batlantirilib turilishi ularning og'ir mehnatiga yarasha bo'lishi lozimliligini ta'kidlaydi. Allomaning fikricha, «inson mehnatini qadrlash va moddiy rag'batlantirib turish natijasida davlat mustahkam va barqaror, o'lka ma'mur, xalqning turmushi esa farovon bo'ladi. Ana shuning uchun ham zakovatli hukmdorlarning vazifasi,yuqori tabaqalar o'rtasida adolatli, kuchlilar bilan zaiflar o'rtasida ijtimoiy tinchlik va insonparvarlik printsiplariga asoslangan qonunni o'rnatishdan iboratdir». Hokim qat'iyatli va fuqarolar haqida ko'proq qayg'urishi lozim – deb hisoblaydi olim.

Amir Temurning davlat va jamiyat ishlarini tashkil etish tuzuklari. Amir Temurning (1336-1405) siyosiy saxnaga kelishi xamda mustaqil davlat barpo etishi O'rta Osiyo xalqlarining mo'g'il istilosidan, ichki o'zaro nizolardan qutilishiga olib keladi. Mamlakatda o'rnatilgan barqarorlik markaziy davlatning tez orada mustaxkamlanishiga siyosiy kuchlar tarqoqligini bartaraf etishga, ayni paytda, turli isloxotlarning amalga oshirilishiga ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga turtki bo'ladi. Bu davrda milliy davlatchilik to'g'risidagi qarashlarning rivojlanishida Amur Temurning xizmatlari katta bo'ldi. Uning «Tuzuklari» da davlat tizimi,uni idora qilish uslublari va vositalari, undagi turli lavozim-vazifalar darajasi, tabaqalarning toifalanishi, xarbiy qo'shinlarning tashkil etilishi, jang olib borish maxoratlari, davlat xizmatchilari rag'batini tashkil etish omillari, adolatli soliq turlarining joriy etilishi, mamlakatni obodonlashtirish tadbirlari,milliy

[96] Фаробий Абу Наср Фозил одамлар шаҳри. –Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993. 160-б.

[97] Ўша жойда 161-б.

[98] Эргашев ва бошқалар. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. – Т.: 2005. 49-б.

davlatchilikning yuksak madaniy va xuquqiy darajada shakllantirilganli gidan dalolat beradi. Bunday siyosatning asos-moxiyati adolatli davlat, insonparvar jamiyat negizlarini qaror topdirishga xizmat qiladi. Bu borada Ibn Arabshox shunday deydi: «Temur tamg'asining naqshi» «pasti rosti-rosti» bo'lib,bu «xaqgo'y bo'lsang, najot topasan demakdir. Uning otlaridagi tamg'a, tangayu tilolargi zarb beriladigan belgi xam mana shunday uch xalqadan iborat edi. Ko'pincha uning majlisida uyatsiz so'zlar, qon to'kish, asir olish, naxbu g'ayrat qilish va xarom xaqorat gaplar bo'lmasdi. Temur qo'rqmas, shijoatli, botir kishilarni itoat qildiruvchan bo'lib, jasoratli kishilarni, dovyurak va mardlarni yoqtirar edi. Ular yordamida daxshatli joylar qulflarini fatx etib, odamlar sherlarini o'lja olar, ular zarbalari bilan baland tog'lar cho'qillarini vayron qilardi. U bexato (nishonga oluvchi), fikrli, ajoyib farosatli, mislsiz (darajada) baxtli ulug'vorligi (o'ziga) muvofiq, qatoiy azm bilan so'zlovchi, (boshiga) kulfat tushganda xam xaqgo'y (kishi) edi[99]. Amur Temur ana shunday sifatlar soxibi sifatida davlat boshqaruvining demokratik asoslarini yaratishga erishadi.Umamlakat ishlarini doimo kengash, mashvarat, maslaxat, xushyorligu muloxazakorlik, extiyotkorlik bilan amalga oshirganligini ta'kidlaydi. Ayni paytda mamlakat ishlarini Kengash asosida olib borish bu aslida, fuqarolarning roziligi va ixtiyori demak, undan chiqdi bunday yondashuv bevosita davlat boshqaruvi taqsimotining ilk ko'rinishlari to'g'risidagi qarashlarning rivojlanishiga zamin yaratgan. Soxibqiron xar bir ishda siyosatni adolat bilan amalga oshirishga va bunda turli vositalar asosida uning izchilligini ta'minlashga erishadi. Ya'ni adolatga qaratilgan maqsadlarni adolatli vositalar bilan uyg'unlashtirish asosida davlat boshqaruvining texnologik ta'minotlarini amaliyot jixatdan boyitadiki, saltanatda adolatni ta'minlovchi murvatlar yuzaga keladi. Masalan, u nafaqat davlat xizmatchilarining qanday sifatga ega bo'lishini balki, shunday sifatlarni qanday qilib davlat boshqaruviga kelishini ta'minlashning choralarini ishlab chiqadi. Bu borada u shunday deydi: "Agar xar narsani va xar kimni o'z martabasida saqlay olmasang, saltanatingga bundan xalal va ziyon etgay. Demak, xar kimning qadr-qimmatini, tutgan mavqeini va xar narsaning o'lchovini belgilab olishing va shunga muvofiq ish yuritishing kerak". SHu tariqa, u masalaning nazariy asolarini oydinlashtarish bilan uning amaliy tadbig'ini xam o'z «Tuzuklari»da amalga oshiradi. Jumladan; «Kimning aqli va shijoatini sinov tarozisida tortib ko'rib boshqalarnikidan ortiqroqligini bilsam, uni tarbiyamga olib, amirlik darajasiga ko'tarar edim. So'ngra ko'rsatgan xizmatlariga yarasha martabasini oshirib borardim»deydi.

Amir Temurning adolatli saltanat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligiga doir qarashlari. Amir Temur o'z davridagi xizmatlarining eng asosiysi va eng buyugi–bu uning davlat arbobi sifatida, adolat g'oyalariga asoslangan milliy davlatchilik tamoyillarining xuquqiy negizlari yaratganligi xamda, uni tadbiq etib berganligidadir. SHu tariqa u o'z siyosiy faoliyatini shunday xulosalaydi: «xar millatning yaxshi kishilariga men xam yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o'zlariga loyiq ishlar topshirdim, xamda xadlaridan

[99] Ibn Arabshox, Amur Temur tarixi. –T:. Mehnat, 1992, 65-bet.

oshishlariga yo’l qo’ymadim. Ulug’larini va sharaf-e’tiborli kishilarni xurmatlab, martabalarini oshirdim. Xar mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo’lini to’sdim».

Yusuf Xos Xojib, Nizomulmulk, Mirzo Ulug’bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur va boshqalarning adolatli davlat, odil jamiyat, inson erkinligi, ezgulik, mahrifat to’g’risidagi g’oyalari. Bu davrning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy qarashlarini chuqur tahlil qilib, o’zining adolatli jamiyat to’g’risidagi qarashlarini to’la asoslab bergan mutafakkirlardan biri Yusuf Xos Hojibdir. Uning 1069 yilda yozilgan «Qutadg’u bilig» (Saodatga boshlovchi ilm) asari butun dunyoga mashhur. Mazkur asarda davlatchilik va ezgulik jamiyati yaratishning o’ziga xos ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-falsafiy kontseptsiyalari asoslab berilgan. SHoh (beg), vazir, sarkardalar, sipohsolar (shtab boshlig’i), hojiblar (shohning davlat masalalari bo’yicha maslahatchisi), shaxsni muhofaza qiluvchilar, elchilar, kotiblar, xazinachilar va boshqa saroy xizmatchilari qanday sifatlarga ega bo’lmog’i, raiyat bilan qanday munosabatlarda bo’lishi zarurligi bayon qilingan.

«Umuman, shohlik ishini shohlik sifatiga ega bo’lgan kishilargina bajara oladilar». SHoh quyidagi sifatlarga ega bo’lishi lozim:

- barcha ishlarda tajribali;
- yomonlikni darhol sezuvchi;
- oqillik bobida ibratli;
- zakovatli;
- ma’rifatga tashna;
- kichiklarga (yoshlarga) tayanuvchi;
- adolatparvar;
- sadoqatli;

Ma’rifatli shoh deb uqtiradi – alloma-qudrat egasi bo’laman desa ushbu uch ishni amalga oshirishi lozim:

O’ng qo’lida qilich (kuchli armiya) bo’lsin.

So’l qo’lida boylik.

Tilida shakardan shirin so’z.

Qanday kishi vazirlikka munosib bo’ladi? Davlatdagi beboshliklarni, avvalo, vazir tartibga soladi. Buning uchun aql-idrokli, fahmli, zehni o’tkir, bilimli, yuzi yorug’, tadbirkor, to’g’ri so’zli, iymonli, el ishonchini qozongan, adolatli, bechoralarga muruvvatli, xushyor va mulohazali bo’lishi kerak. U shohga sadoqatli bo’lib, tadbirkor kishi bo’lsin. Uning boylikka nisbatan ko’zi to’q bo’lishi lozim. Vazirlik hisob-kitobdan iborat. Hisob – bu umrni saodatga boshlovchi to’g’ri yo’llardan biridir. Mana shunday kishi vazir bo’lsa, SHoh ham, el ham halovat topadi. Umuman, saroy ahli, xizmatchisi, avvalo, oddiy fuqaro bilan munosabatga kirisha olishi va fuqarolar bilan munosabatda bo’lganida juda xushmuomala bo’lishi shart. Fuqaroning moddiy mafaati qondirilsagina, u intizomga bo’ysunadi. Donishmandlar esa davlat va haqiqat tayanchlaridirlar. Agar haqiqatni istasang, ulardan yo’l-yo’riq, maslahat so’ra, yoningga tort. Ular davlat va jamiyatni saodatga eltadilar. Hunarmandlar davlat va xalq hojatini chiqaradilar. Davlatning xalq bilan munosabatiga qarab, u to’g’rida yaxshi yoki yomon xulosa chiqaradilar. Yusuf Xos Hojib ma’rifatli, ezgulikka asoslangan saodatni ko’zlovchi davlat va

jamiyat qurish g’oyasini ilgari surgan. Uning negizida esa ilm, ma’rifat, adolat, xalq bilan birga bo’lish, uning saodati yo’lida xizmat qilish g’oyasi yotadi.

Adolatli davlat boshqaruvi to’g’risidagi qarashlari bilan mashhur bo’lgan, o’rta asrda yashab o’tgan mutafakkir va davlat arboblaridan biri Nizomulmulk o’zining «Siyosatnoma» asarida adolatli davlat, farovon jamiyatning barpo etilishini adolatparvar, xalqparvar va ilmparvar shoh bilan bog’lab ifoda qiladi. U amaldorlarni axloqiy fazilatlariga qarab tanlash, adolat va insofni oyoqosti qiladigan kishilarni davlat ishlariga aralashtirmaslikni, davlat-ni boshqarishda kengash bilan ish olib borish, faoliyatlarini muntazam nazorat qilish, itoat, ijro va sifatlari to’g’risidagi qarashlari bilan mazkur asar ahamiyatlidir.

Nizomulmulk xalqning ahvolini yaxshilash, davlat va jamiyatni boshqarish, jinoyat va jazo, umuman, barcha ijtimoiy-siyosiy masalalarning hal etilishini ideal shoh bilan bog’laydi. Ayni paytda shoh bilan ra’iyat(xalq) o’rtasidagi aloqalarni ham qanday tartibda bo’lishini ko’rsatadi. «Barcha ishlarni maslahat bilan amalga oshirish podshohning mustahkam irodasidan, oqilligi va keng dunyoqarashidan dalolat beradi, - deb yozadi Nizomumulk. Har bir kishi ma’lum bir narsa to’g’risida ko’proq yoki kamroq biladi. Agar podshoh biror ishni amalga oshirmoqchi yoki qandaydir zaruriyatni hal etmoqchi bo’lsa, u albatta, dono qariyalar va ulug’lar bilan mashvarat hamda kengash qilmog’i lozim. Har birlari o’z fikrlarini bildirib, podshoh ra’yi bilan solishtirib, bir-birlarining fikrlarini eshitib va har tomonlama o’ylab, keyin o’rtada ma’qullagan fikrni tanlaydilar. Ko’pchilik bo’lib qabul qilingan tadbir eng savobli bo’ladi va shunday yo’l tutish kerak».[100]

SHu davrning yirik klassik namoyondalaridan biri Alisher Navoiydir. U nazariyotchi sifatida davlat siyosatining adolatli asoslari va uning ma’naviy mezonlarini rivojlantirishga katta xissa qo’shadi. Ayniqsa, adolatsizlik va zulm davlatni tanazzulga, jamiyatni jaxolatga olib kelishi to’g’risidagi qarashlari o’z ifodasini topadi. «Davlat ishi bilan mashg’ul bo’lgan amaldorlik chog’larimda ko’ngil mulkini turli odamlarning xujumi bulg’aladi. Gox amirlik o’rnida o’tirdim va xukumat maxkamasida xalqning arz-dodini so’rdim va gox podshox yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qarab turgan elga muruvvat ko’rsatdim»[101] deydi. Alisher Navoiy adolat to’g’risidagi qarashlarida inson ruxiyati bilan bog’liq ijtimoiy illatlarning moxiyatini izlaydi. Jamiyatda yovuzlikning kelib chiqish sabablarini taxlil etadi. Adolatli jamiyatga erishishda, nafaqat podshoxning odilligi balki, fuqarolar o’rtasidagi munosabatlarning adolatli, ma’nan sog’lom bo’lishi lozimligiga e’tiborni qaratadi: «Olamda bo’lmish xar navo odam bilan ko’rishdim, katta-kichikning fe’lu atvorini o’rgandim, yaxshi-yomonning xislatlarini tajribadan o’tkazdim,yaxshilik va yomonliklarning sharbatini ichib,zaxrini totib ko’rdim. Baxil va pastkashlarning zaxmini, saxovatli kishilarning malxamini ko’nglim darxol sezadigan bo’lib qoldi»[102] deydi. Ayni paytda inson ruxiyati bilan bog’liq illatlar moxiyatiga shunday nisbat beradi: «Yaxshilikka mukofot-qo’pollik; odob bilan qilingan xushmuomala evaziga

[100] Низомулмулк. Сиёсатнома ёки Сияр ул-мулк. –Т.: Адолат. 1997. 36-37-бетлар.
[101] Alisher Navoiy. Maxbub ul-qulub, -T:. 1983, 12-bet.
[102] O’sh joyda, 13-bet.

kekkayish takabburlikdan o’zgacha munosabat ko’rmaysiz. Birovga bir xizmat qilsang, undan o’n zarb eyishga tayyor turmoq kerak, kimgaki bir tavoz’e ko’rsatsang ming qo’pollik va dilsiyoxlikka xozir bo’lib turmog’ing lozim.

SHu tariqa Alisher Navoiy jamiyat ijtimoiy munosabatlarining yaxlit nazariyasi tizimi,fuqaro-jamiyat-davlat o’rtasidagi axloqiy majburiyatlarni umumlashtirishga erishadi. Alisher Navoiyning juda ko’p asarlarining bosh g’oyasi-adolatdir («Xayrat-ul-Abror», «Saddi Iskandari», «Farxod va SHirin», «Saba’i sayyora», «Maxbub-ul-qulub» va x.k.). Alisher Navoiy, Arastu, Aflatun, Forobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiyning ilmiy merosi, asarlarini qunt bilan o’rgangan, ularning ilmiy va insonparvarlik g’oyalaridan xabardor bo’lib, o’zi xam shu yo’nalishda katta meros qoldirgan ijodkorlar Zaxiriddin Muxammad Bobur, Xusain Voiz Koshifiy va Jaloliddin Davoniylardir. Ular davlatshunoslik, axloqshunoslik, adabiyot, ta’lim-tarbiya, nasr va nazm soxalarida ijod qilgan yirik olimlardir. Davlat boshqaruvi va uning siyosati bilan bog’liq bo’lgan ijtimoiy-axloqiy masalalarni M.Z.Boburning «Boburnoma» Koshifiyning «Axloqi Muxsiniy», Davoniyning «Axloqi Jaloliy» asarlarida atroflicha bayon qilinadi.

Ularda jamiyatning paydo bo’lishi, ijtimoiy tabaqalar, davlat va uni boshqaruv yo’llari, adolatli va adolatsiz podshoxlar, ularning fuqarolarga munosabati, axloq va ta’lim-tarbiya masalalari taxlil etiladi.

XV-XIX asrlarda davlat va jamiyat qurilishining ijtimoiy-siyosiy holati. O’zbekiston xalqlari davlatchilik tarixi bir xilda taraqqiy qilgan emas. XVI-XIX asrlar O’rta Osiyo xayotida murakkab va keskin burilish davri bo’ldi. Uning boshlanishi Amur Temur imperiyasining parchalanishi, vorislar o’rtasidagi nizolar bilan bog’liq. Doimiy ixtiloflar maydoniga aylanib qolgan Movaraunnaxr SHayboniyxon lashkarlari tomonidan bosib olinadi. Davlatda egasizlik, bosh-boshdoqlik xukm suradi. Mana shunday sharoitda xaqiqiy ilm o’rnini diniy aqidaviy qarashlar egallaydi. Natijada aniq va tabiiy fanlar quvg’unga uchraydi, ayniqsa matematika va astronomiya orqada qoladi. Oldingi ilg’or mutafakkirlarning g’oyalari ta’siri zaiflashadi. Din bevosita siyosatning asosiga xokimiyat uning raxnamolari qo’lida manfaatlarini niqoblovchi mafkuraga aylanadi. Natijada jamiyatda diniy taziyq kuchayadi. Xar qanday xur fikr tahqibga olinadi. SHunga qaramay O’rta Osiyoda ijtimoiy fikr, falsafa, adabiyot, tarix, musiqa fanlari,meomorchilik, tasviriy sanoat, rivojlandi, qator madrasa va machitlar qurildi. Jumladan, Ibn Muxammad Yusuf Al-Qorabog’iy, Muxammad SHarif, Mashrab va So’fi Olloyor, Nodira, Uvaysiy, Dilshod, Komil Xorazimiy, Avaz O’tar, Bedil, Fuzuliy, Axmad Donish, Muqumiy, Ogoxiy, Furqat, Mulla Olim, Maxdum Xoji ijodiyotida ilg’or ijtimoiy g’oyalar yaratiladi. Mavjud manbalarni o’rganish milliy davlatchilik tariximizda tanazulga tortgan siyosiy kurashlar va o’zaro ixtiloflarning sabablarini o’rganish bilan birga, undan saboqlar chiqarish imkoniyatlarini beradi. SHuni qayd qilish lozimki, xar qanday murakkab zamonda xam vatandoshlarimiz qalbida xurriyat bilan yo’g’rilgan ijtimoiy-siyosiy qarashlar to’xtagan emas. Xuddi ana shu qarashlar vatandoshlarimiz qalbida umummilliy istiqlol g’oyasining vujudga kelishiga turtki bo’ldi.

Milliy davlatchilik negizlaridan mahrum bo'lish sabablari va uning oqibatlari. XIX asr ikkinchi yarmida O'rta osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi mintaqa xalqlari tarixida eng mash'um davr bo'lib qoldi. Chunki aynan shu vaqtdan e'tiboran erli xalqlar mustaqilligi tamoman tugadi. Mavjud manbalarni o'rganish milliy davlatchilik tariximizda tanazzulga tortgan siyosiy kurashlar va o'zaro ixtiloflarning sabablarini o'rganish bilan birga, undan saboqlar chiqarish imkoniyatlarini beradi. SHuni qayd qilish lozimki, xar qanday murakkab zamonda xam vatandoshlarimiz qalbida xurriyat bilan yo'g'rilgan ijtimoiy-siyosiy qarashlar to'xtagan emas. Xuddi ana shu qarashlar vatandoshlarimiz qalbida umummilliy istiqlol g'oyasining vujudga kelishiga turtki bo'ldi. O'rta Osiyo xalqlarining mustamlakachilik siyosatiga qarshi milliy-ozodlik kurashi va uning asosiy bosqichlarini shartli ravishda uch bosqichga bo'lib o'rganish mumkin: A) Birinchi bosqich: 1860-1904 yillar; B) Ikkinchi bosqich: 1904-1918 yillar; V) Uchinchi bosqich: 1918-1991 yillar.

Jadidlarning milliy davlatchilik va adolatli jamiyat qurilishiga doir ma'rifatparvarlik g'oyalari. Turkiston milliy davlat mustaqilligi uchun kurashda ozodlik xarakatlarining o'ziga xos xususiyatlari xamda shart-sharoitlarini siyosiy jixatdan taxliliga e'tibor qaratish lozim. Bunda jadidlarning mustaqillik uchun kurash g'oyalarining vujudga kelish jarayonlari nazarda tutiladi. Millat ozod bo'lib, o'zining mustaqil davlatini o'rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo'lmaydi. Bu Bexbudiy kelgan birinchi xulosalardan edi[103]. Ayni paytda bunday g'oya milliy istiqlolchilik xarakatining asosini tashkil etgan. Ayni paytda, jadidchilar asosiy e'tiborni jamiyatda ma'naviyatni rivojlantirishga qaratadilar. Ular yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, gazetalar chiqarish, darslik va o'quv qo'llanmalarni nashr ettirish, G'arbning yangi madaniyat va texnologik uslubiyatlarini joriy etish zaruriyatini xamda uni Turkistonda targ'ib etish orqali milliy-dunyoviy ta'limni yuzaga keltirish, ma'naviy xayotni yangilash va boyitish orqali milliy o'zlikni anglashni yuksaltirishga zamin yaratishga intilganlar. SHu tariqa, Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash va uning ijtimoiy-siyosiy asoslarini yorituvchi manbalar Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li («Xotiralarim», «SHarq» 2001 yil), Bexbudiy, Fitrat, Avloniy (Tanlangan asarlar), Xuvaydo va boshqa milliy istiqlol qaxramonlari asarlarida atroflicha yoritilgan. E'tiborli jixati shundaki, o'z davrida jadidlar milliy-madaniy muxtoriyat qurilishi tamoillarini ishlab chiqqan va bunda o'lkani rivojlantirishning amaliy dasturlari mavjud bo'lgan. Turkistonda davlatchilik shakli va uni boshqarish vakolatlari, barcha soxalar bo'yicha qonunlarni joriy etish, sud organlarini tashkil etish, davlat tuzilmalarini yaratish kabi masalarga e'tibor berilgan. Ammo shu davr siyosiy sharoiti xamda yerli xalqning tushunchasida Turkistonda mustaqil demokratik jamiyat qurish to'g'risidagi qarashlari bir muncha cheklanganligini ko'ramiz.

Sobiq sho'rolar davrida O'zbekistonda davlat va jamiyat qurilishining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbek ziyolilarining mustaqillik uchun olib borgan kurashi 30-40 yillarda so'ngra 50-60 yillarda xam turli siyosiy ko'rinishlarda davom etib boradi. XX asrning 80 yillariga kelib komunistik mafkura zug'umi ostida

[103] Bexbudiy. Tanlangan asarlar. So'z boshi. –T:. Ma'naviyat, 1999, 25-bet.

qatag’onlik siyosati yangi pallasiga kirdi. Markaz xodimlari tomonidan uyushtirilgan «Paxta ishi», «o’zbeklar ishi» bilan 2 mingdan ortiq O’zbekistonlik raxbarlar va oddiy fuqarolar taoqib ostiga olindi, jazolandi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ziddiyatlashuvi va xodisalarning keskinlashuvi «qayta qurish» yillarida xam o’z tahsirini kuchaytirib keldi. Natijada respublikada jamiyatni yaxlitligini parchalaydigan xamda vujudga kelgan egasizlik xolati fuqarolar o’rtasida parokandalik muxitini yuzaga keltirdi, millatlararo ziddiyatlar, baozan to’qnashuvlar, ayniqsa, davlat boshqaruvida qonunsizlik parokandalik xolatlari vujudga keldi.

Yagona partiya va davlat manfaatlarining ustuvorligi. Urushdan keyingi yillarda partiya va hukumat rahbarligi lavozimlariga nazariy jihatdan kam tayyorlangan, ish tajribasi yetarli bo’lmagan xodimlar keldi. Davlat boshqaruv tizimida mahalliy xalq vakillari faqat 47 foizni tashkil qildi. Partiyaga qabul qilishga yuzaki, to’ralarcha yondashuv natijasida qabul qilinganlarning ko’pchiligini ishchi va dehqonlar tashkil qilib, ilg’or ziyolilar, malakali mutaxassislar rahbarlik ishlaridan chetlashtirildi. O’zbekiston SSR Oliy va mahalliy kengashlariga saylovlar yuzaki o’tkazilib, oldindan tuzilgan ro’yxat va reja asosida deputatlikka nomzodlar ko’rsatildi. Saylovchilarning 99,9 foizi ovoz berishda qatnashib, “yakdillik” bilan kommunistlarning vakillariga ovoz berdi. Bu qanchalik haqiqatga to’g’ri keladi, tushunish qiyin emas. Sovetlar faoliyatida yuzakichilik, qog’ozbozlik kuchaydi. Oliy Sovetning, ayniqsa, mahalliy sovetlarning sessiyalari vaqtida chaqirilmasdan undagi masalalar ko’pincha muhokama qilinmay yoki hurfikrliliksiz qabul qilinardi. Saylangan sovetlar vazifasini uning ijroiya qo’mitalari bajaradigan bo’ldi. Sovetlarga deputat bo’lib saylanganlarning aksariyat qismi jamiyat taraqqiyotining qonunlaridan xabarsiz, umuman hokimiyatni boshqarish masalalari bilan qiziqmaydigan shaxslar edi. Ayniqsa, oliy sovetlarga saylangan deputatlar rus tilida olib borilgan sessiya majlislarida respublika manfaatlarini himoya qiladigan darajada faoliyat ko’rsata olmasdi.

Markazlashgan ma’muriy boshqaruv. O’zbekiston SSR tashkil qilingandan so’ng davlat boshqaruvi markaz andozalari asosda tuzildi. Yangi iqtisodiy siyosatga asta-sekin chek qo’yilishi jarayonida ma’muriy-buyruqbozlik tizimi va shaxsga sиg’inish qaror topib bordi. Sovetlar tarkibi va raxbariyati butun partiya-sovet amaldorlari qo’liga o’tib bordi, shunga qarab, ijroiya qo’mitalar, jamoat havfsizligi qo’mitalari, shahar dumalari, va zemstvo mahkamalari tarqatib yuborildi. Oxir oqibatda sovetlar amalda o’z mustaqilligini yo’qotdi, sovetlar partiya bilan omma o’rtasidagi «aloqa vositasi»ga, partiya qarorlarining oddiy ijrochisiga aylanib qoldi. Mamlakatda qaror topgan ma’muriy-buyruqbozlik tizimi va uning rahbarlari butun ijtimoiy-siyosiyh muttasil siyosiylashtirib bordi. Kommunistik partiya o’rnatgan bu tizimga nisbatan mahalliy aholining o’z qarashlari bor edi. Ular ana shunday jarayonlarda ma’naviy merosni saqlab qolishga intildilar.

Totalitarizm va uning oqibatlari. O’zbekiston chet davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarini kengaytirish, uni samarali olib borish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo’lsa ham bu imkoniyatdan to’la foydalana olmasdi.

Vaholanki, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76, 77,112, 122 moddalariga ko’ra O’zbekiston chet davlatlar bilan aloqalar o’rnatish, diplomatlar va elchilar tayinlash, chaqirib olish huquqlariga ega va xalqaro tashkilotlar bilan mustaqil aloqalari o’rnatishi mumkin edi. Lekin, amalda respublikaning xalqaro munosabatlari markazda rejalashtirilib, chizib berilgan doirada olib borildi. CHet davlatlardan birorta delegatsiyaning qabul qilinishi, jumhuriyatda o’tadigan uchrashuvlar, kengashlar, anjumanlar uchun “markazdan” ruxsat olinishi shart edi. Ittifoqchi respublikalarning, jumladan, O’zbekistonning teng huquqligi va mustaqilligi to’g’risidagi qonunlar aslida qog’ozda qoldi.

O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Dunyo xaritasida paydo bo'lgan yosh mustaqil davlatlar safida O'zbekiston Respublikasining mavjudligi jahonda yuz bergan va kelajak uchun tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ulkan voqeadir.

O'zbekiston davlat mustaqilligi nixoyatda og'ir, uta murakkab, qaltis va taxlikali vaziyatda amalga oshdi. Bu paytlarda davlat mustaqilligimizga xavf-xatar va taxdid solayotgan, uni gudakligidayok bugib uldirishga shay turgan, tish-tirnogigacha qurolmagan yovuz kuchlar respublikamizning xam ichkarisida, xam tashkarisida to'lib-toshib yotgandi. O'sha kezlarda vaziyat o'ta ketgan darajada xatarli tus olgandi. Vaziyatni boshqarishni eplay olmay qolgan sobiq Markaz mustaqillik, erkinlik yo'lida qilinayotgan xar qanday xarakatlarni shafqatsiz ravishda bostirib yo'q qilib tashlashga tayyor edi.

O'zbekiston vaziyat qanchalik og'ir va mashaqqatli bo'lishiga qaramasdan va zarracha cho'chimasdan mustaqillik, istiqlol va erkinlik uchun dadillik bilan kurash boshladi. Respublika Oliy kengashining 1989 yil 21 oktyabrda O'zbekistonning Davlat tili haqida qabul qilgan qonuni mustaqillik yo'lidagi dastlabki qadam bo'ldi.

Respublika Oliy Kengashi o'zining 1990 yil 24 martdagi sessiyasida o'sha paytdagi SSSR respublikalari ichida birinchi bo'lib O'zbekistonda prezidentlik lavozimini ta'sis etish haqidagi qaror qilindi. O'sha sessiyada o'tkaziladigan saylovda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining birinchi kotibi Islom Abdug'aniyevich Karimov yashirin ovoz berish yo'li bilan O'zbekistonning birinchi Prezidenti etib saylandi. O'zbekistonda Prezidentlik lavozimining ta'sis etilib Islom Karimovning Prezident etib saylanishi mamlakatimiz mustaqillik yo'lidagi yangi bir yutuq edi. Moskva o'sha paytdagi ittifoqdosh respublikalar raxbarlari orasida islom Karimovning birinchi bo'lib prezidentlikka saylanganligini juda salbiy qabul qildi.

O'zbekiston o'zining erkinlik va mustaqillik sari uzoqni kuzlagan adolatli, qonuniy xarakatni zarracha bo'lsa-da to'xtamasdan davom ettiraverdi. Bu sohada erishgan eng katta muvaffaqiyatlardan yana biri - O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1990 yil 20 iyunda qabul qilingan «Mustaqillik Deklaratsiyasi»dir. «Mustaqillik Deklaratsiyasi»da O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilingan. Ana shu muhim xujjatda, shuningdek, O'zbekiston davlatining o'z xududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlarda tanxo xokimligi, davlat xududi chegarasi dahlsizligi va bu xudud Xalqning muxokamasiga qo'yilmay turib, o'zgartirilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

Milliy mustaqillik va demokratik o’zgarishlar sari yo’l tutilishi. Mustabid,

ma'muriy-buyrukbozlik tuzumi tarafdorlari chok-chokidan smirilib borayotgan va siyosiy buxron botqog'iga botib qolgan Ittifoqni qanday qilib bo'lsa-da saqlab qolish ilinjida kurashni avj oldirib yubordilar. O'z maqsadlarini amalga oshirish uchun turli yo'llar, vositalar va imkoniyatlardan foydalandilar. Bir gurux amalparastlar 1991 yilning 19-21 avgustida Moskvada Yanayev raxbarligida davlat to'ntarish qilishga xam urinib ko'rdilar. Favqulodda xolat davlat Qo'mitasi-GKChP tuzilib M.S.Gorbachev xokimiyatdan zo'ravonlik yo'li bilan chetlashtirildi. Fitna qatnashchilarining asosiy maqsadlari SSSR tarkibidagi barcha Xalqlar va millatlarning mustaqillikni qo'lga kiritishlariga yo'l kuymaslik, Ittifoqdan chiqish yo'lidagi xarakatlarni bo'g'ib tashlash, eskirib, o'z umrini tugatib bo'lgan totalitar tuzumni xalok bo'lishdan saqlab qolish edi.

O'zbekiston raxbariyati Islom Karimov raxbarligida g'oyatda murakkab va qaltis bir paytda ro'y berayotgan voqealar va siyosiy jarayonlar rivoji va taraqqiyotiga siyosiy xushyorlik va donolik bilan baxo berdi. O'zbekistonning o'z mustaqilligiga erishish uchun boshlangan xarakati qat'iy ekanligi, bu yo'ldan hech qachon qaytmasligi yana bor alohida ta'kidlandi.

Vaziyat tobora taranglashib, Markaziy xokimiyat kalovsirab, boshqaruv qobiliyatini yo'qotib, siyosiy jihatdan karaxt bo'lib, kuchli inqirozga uchrab qolgan paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1991 yil 31 avgustda Toshkentda Oliy Kengash YI sessiyasi chaqirildi. Uning O'zbekistonni mustaqil davlat deb e'lon qilinishida tarixiy ahamiyati katta bo'ldi. O'sha sessiyada «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qilish tug'risida» O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Qarori, «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi tug'risida» Oliy Kengash Bayonoti, hamda «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi Asoslari tug'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi.

Oliy Kengash qabul qilgan bu xujjatlar mustaqillik haqidagi xalqimiz orzu-niyatlarining ro'yobga chiqkanligining huquqiy asosi bo'ldi.

1 sentyabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqilligi kuni deb belgilanib va 1991 yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilindi.

O’zbekistonda Prezidentlik institutining joriy etilishi. Respublika Oliy Kengashi o'zining 1990 yil 24 martdagi sessiyasida o'sha paytdagi SSSR respublikalari ichida birinchi bo'lib O'zbekistonda prezidentlik lavozimini ta'sis etish haqidagi qaror qilindi. O'sha sessiyada o'tkaziladigan saylovda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining birinchi kotibi Islom Abdug'aniyevich Karimov yashirin ovoz berish yo'li bilan O'zbekistonning birinchi Prezidenti etib saylandi. O'zbekistonda Prezidentlik lavozimining ta'sis etilib Islom Karimovning Prezident etib saylanishi mamlakatimiz mustaqillik yo'lidagi yangi bir yutuq edi. Moskva o'sha paytdagi ittifoqdosh respublikalar raxbarlari orasida islom Karimovning birinchi bo'lib prezidentlikka saylanganligini juda salbiy qabul qildi.

Mustaqillik deklaratsiyasi bilan bog’liq g’oyalar va qarashlar. O'zbekiston o'zining erkinlik va mustaqillik sari uzoqni kuzlagan adolatli, qonuniy xarakatni zarracha bo'lsa-da to'xtamasdan davom ettiraverdi. Bu sohada erishgan eng katta muvaffaqiyatlardan yana biri - O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1990 yil 20 iyunda qabul qilingan «Mustaqillik Deklaratsiyasi»dir. «Mustaqillik

Deklaratsiyasi»da O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilingan. Ana shu muhim xujjatda, shuningdek, O'zbekiston davlatining o'z xududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlarda tanxo xokimligi, davlat xududi chegarasi dahlsizligi va bu xudud xalqning muxokamasiga qo'yilmay turib, o'zgartirilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

Islom Karimov-yangi, mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan keyin mamlakatda davlatni idora etishning zamonaviy va samarali shakli-prezidentlik shakli tizimi qaror topa boshladi. 1991 yil 18 dekabrda Oliy Kengashning navbatdagi YIII sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi tug'risida» qonun qabul qildi. 1991 yil 29 dekabrda mustaqil O'zbekiston Respublikasida birinchi marta butun xalqning xoxish-istagini ifoda etgan Prezident saylovi bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi muqobillik asosida bo'ldi. Saylovda 9 million 900 ming 958 kishi qatnashdi. Bu barcha saylovchilar umumiy sonining 94,2 foizini tashkil etadi. Islom Abdug'aniyevich Karimov nomzodi uchun 8 milion 514 ming 136 kishi yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi ovoz berdi. Islom Karimov – umumxalq ovozini qozonish yo'li bilan saylangan O'zbekistonning birinchi Prezidentidir. Prezident saylovi O'zbekistonning butun xududida chinakam demokratik asosda, fuqarolarning yuksak darajadagi faol ishtiroki bilan o'tkazildi. Dunyoning AQSh, Turkiya, Malayziya va boshqa mamlakatlaridan kelgan xolis kuzatuvchilar O'zbekiston Prezidenti saylovini uyushqoqlik bilan puxta tashkil etilganligini alohida ta'kidladilar.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqilishining ahamiyati. Mustaqillikka erishgandan keyin davlatimiz va xalqimiz oldida bizga o'tmishdan meros bo'lib qolgan majrux iqtisodiyotni sog'lomlashtirish, barqaror rivojlanish mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga o'tishning xuquqiy asoslarini yaratish, xalqimizning mahnaviy ruxiy tiklanishini tahminlashdek muxim vazifalar turar edi. Iqtisodiy isloxlarning bosqichma-bosqich va izchillik bilan amalga oshirilishi iqtisodiy barqarorlikka erishish, shuning bilan birga axolini ijtimoiy ximoya qilish tadbirlari ko'rilganligi mamlakatda barqaror ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tahminlash imkonini beradi. Ko'pmillatli jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, fuqarolar o'rtasida tinchlik va millatlararo totuvlik saqlanganligi mustaqil O'zbekistonning bunyod bo'lishi va rivojlanishining birinchi bosqichida qo'lga kiritilgan eng asosiy yutuq bo'ldi. Rivojlanishning birinchi bosqichida amalga oshirilgan isloxlatlar tufayli demokratiyani yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish uchun zarur shart sharoiti yaratadi. Tarixning ob'ektiv qonunlariga binoan sovet tuzumi va uning mohiyatan xalq ommasi manfaatlari va qadriyatlariga batamom qarama-qarshi bo'lgan davlati barxam topdi.

Mustaqillik tufayli insonparvarlik qoidalariga asoslangan, xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladigan demokratik huquqiy davlat paydo bo'ldi. Uning tub mohiyati, asosiy xislat va fazilatlari ustida fikr yuritib Islom Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida shunday deydi: «O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat. Bu-mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu – insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy axvoli, siyosiy

e'tiqodidan qat'i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir».

Prezident Islom Karimov asarlarida O'zbekistonda barpo etilayotgan huquqiy davlat buyuk madaniyatimiz va o'tmish merosimiz yutuqlariga, Sharq falsafasiga, shuningdek, umumjahon sivilizatsiyasiga asoslanganligi, uning shakllanish va rivojlanish ildizlari nihoyatda chuqur va qadimiy ekanligi mukammal ilmiy asoslab berilgan.

Huquqiy davlatning shakllanish va rivojlanish jarayoni Prezident asarlarida belgilab berilganidek, quyidagi ma'naviy-huquqiy negizlarga asoslanadi. Birinchidan, huquqiy madaniyat va ma'naviyat bo'yicha Sharq falsafasi va islom dini ta'limotiga. Ikkinchidan, umumjahon sivilizatsiyasiga, davlat qurilishi sohasida boshqa Xalqlar erishgan tajribalarga, ijtimoiy qadriyatlarga. Milliy davlatchiligimiz salkam 3 ming yillik tarixga ega. Prezidentimiz «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» suxbat-muloqotida ana shunday nihoyatda yangi fikrni o'rtaga tashladi. Paydo bo'lganiga 3000 yil bo'layotgan eng mo'tabar, qadimiy qo'lyozmamiz «Avesto» ikki daryo oralig'ida – Movvarounnaxrda yashagan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy, huquqiy merosidir. «Avesto» ayni bu qadim o'lkada buyuk davlat, yuksak ma'naviyat, yuksak darajada rivojlangan madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi xujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi.

3-mavzu: Mustaqillik va demokratik jamiyat qurilishining «O’zbek modeli».

Reja:

1. Demokratik jamiyat qurishning turli xil milliy modellarining mavjudligi.
2. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o’ziga xos xususiyatlari va “O’zbek modeli”.
3. Taraqqiyotning “O’zbek modeli”ning demokratik o’zgarishlarni yanada boyitishdagi ahamiyati.

Demokratik jamiyat qurishning turli xil milliy modellarining mavjudligi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida demokratik jamiyat qurishning turli xil milliy modellari mavjud bo’lib, ularning har biri o’ziga xos xususiyatga ega. Shularning ayrimlarini ko’rib chiqamiz: **“**Amerika modeli” – jamiyatda iqtisodiyotning erkinligini maksimal darajada ta’minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo’l ochib berish, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini faollashtirish, siyosiy partiyalar raqobatini rivojlantirishga asoslangan. “Frantsiya va Yaponiya modeli” – mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda davlatning rolini oshirish, davlat korxonalari sonining ko’pligi, fuqarolarning siyosiy faolligi, milliy mentalitetning yuksakligiga asoslangan. “Koreya modeli” – import tovarlarni mamlakat ichkarisida ishlab chiqarish va keyinchalik eksportga chiqarishni tashkil etish, siyosiy kuchlar muvozanatini ta’minlash, qonun ustuvorligi tamoyilining mustahkamlanishiga asoslangan. “Germaniya va SHvetsiya modeli” – yuqori darajada iqtisodiy taraqqiyot natijasida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish imkoniyatinin yaratish, fuqarolarning yuksak huquqiy va siyosiy madaniyat darajasiga asoslangan. “Xitoy modeli” – ijtimoiy mulkka asoslangan iqtisodiy tizimni xususiy mulk bilan uyg’unlashtirish natijasida yuqori darajada

taraqqiyotga erishish, fuqarolarning vatanparvarligi va mehnatsevarligiga asoslangan.

O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o’ziga xos xususiyatlari va “o’zbek modeli”, uning mohiyatan o’zaro mushtarakligi. Mustaqillik bizning xalqimiz uchun qutlug’ voqea bo’ldi. SHu tarixiy sanadan boshlab, yangi mustaqil milliy va zamonaviy davlatchilikni shakllantirish, uning milliy taraqqiyot strategiyasini belgilash vazifasi ko’ndalang bo’lib turdi. Ma’lumki, u yoki bu davlatning umumjaxon tizimida egallab turgan mavqeini belgilash uchun ko’p yillar mobaynida o’sha mamlakatning axolisi, xarbiy imkoniyati, ijtimoiy infratuzilmasi va aloqa vositalari xamda geografik joylashishi xisobga olingan.

Yer kurrasi bugun xar doimgidan ko’ra murakkab va taxdidlidir. SHu bois bunday paytda dunyoda o’rnini belgilash yo’lida bekamu-ko’st ish olib borish zarur. Agar mustaqilligimizning dastlabki paytlarini ko’z o’ngimizga keltirsak, bu murakkab davrda o’z o’rnimizni aniq belgilash jarayonida ba’zan noaniqliklar bilan to’qnash kelgan paytlar xam bo’ldi. Bu tabiiy, ammo keyingi taraqqiyot yillarida O’zbekiston o’z manfaatlari xavfsizligini ta’minlash borasida zarur xulosalar chiqarish va ulkan manbalarni qo’lga kiritishga erishdi. Bu o’z navbatida xalqaro miqyosida O’zbekistonning obro’-e’tiborini oshirdi.

O’zbekiston tajribasi shuni ko’rsatdiki, u yoki bu mustaqil davlatning jaxon siyosiy maydonidagi urnini boshqa birov belgilab bermaydi. Bu yulda jiddiy muammolarga e’tiborini qaratgan va paydo bo’lgan barcha savollarga javob topgan xolda dunyo voqealarining shiddatli o’zgarishlariga davlatning o’zi xar doim tayyor turishi kerak.

Mamlakatimiz Prezidenti O’zbekiston fuqarolarining xar biri uchun oliy ne’mat bo’lgan mustaqillik to’g’risida so’z yuritar ekanlar, uni jamiyat rivojining asosi, bugungi va uzoq istiqboldagi taraqqiyotimizning sharti, barcha isloxotlarimizning mezoni va nixoyat, barchamiz amal qiladigan bosh tamoyil deb atadi.

Milliy faoliyatining o’zagi bo’lgan mustaqil jamiyat a’zolari oldiga mustaqillik yangi-yangi vazifalarni qo’yib boradi va bajarilishini talab qiladi. Taraqqiyotning xar bir bosqichi bu muammolar va ularni bartaraf etish yulidagi yangi vazifalar demakdir, deb ta’kidlaydi davlatimiz boshlig’i. Katta va kichik millatlar, davlatlar va qolaversa xalqaro xamjamiyat tajribasi shuni ko’rsatmoqdaki, vujudga kelgan muamolar echimida sustkashlik qimmatga tushishi mumkin. Zotan xar qanday muammo boshqa qator xavf-xatarlarni keltirib chiqaradiki, bu o’z navbatida xar qanday davlat taraqqiyotini ancha jiddiy murakkablashtiradi. Demak, mamlakat taqdiri uchun ma’sullikni o’z zimmasiga olgan xokimiyat tuzilmasi bu borada bir nafas xam beg’amlikka yo’l qo’ya olmaydi, doimo uyg’oq va xarakatda bo’lishi kerak.

Islom Karimov tomonidan bozor iqtisodiyotiga o’tish va “o’zbek modeli”da demokratik jamiyat qurishga doir tamoyillarning asoslanishi. Vatanimiz mustaqilikni qo'lga kiritgach, taraqqiyotning qaysi yo'lidan borish, milliy iqtisodiyotni rivolantirishda qaydan tamoyillarga tayanish kabi bir qarashda jun ko'rinadigan, lekin xiyla murakkab va ziddiyatli, mamlaktning taqdiri bilan bog'liq o'ta muhim muammolarga duch keldi. Mamlakat Prezidenti Islom Karimov bu iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy muammolarni xal etishga qaratilgan davlat qurilishi va iqtisodiyotni tubdan isoh qilishning besh asosiy tamoyili (qoidasi) ni ilgari surdi. Yurtboshimiz

O'zbekistonning iqtisodiy siyosati, yangilanish va ijtimoiy taraqqiyot yo'lining umumiy prinsplari va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida dastlab 1992 yilda «O'zbekistoning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» deb nomlangan risolasida fikr yuritgan edi. So'ngra 1993 yilda e'lon qilingan «O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» asarida tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning beshta prinsipi (tamoyili) ni chuqur va atroflicha ilmiy asoslanadi.

Iqtisodiyotni mafkura aqidalaridan xoli qilish, davlat boshi isloxotchi ekani, bozor munosabatlariga bosqichma – bosqich o'tish zarurligi, hayotning barcha sohalarida qonun ustivorligini ta'minlash lozimlgi, kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish ana shu beshta asosiy tamoyillarni tashkil etadi. Bozor munosabatlariga o'tish bo'yicha qabul qilingan xujjatlarning aksariyati ushbu tamoyillarga asoslangan yoki ularni rivojlantrishga, yoxud ularni hayota tatbiq etishga bag'ishlangan. Bu qoidalarning naqadar to'g'ri ekanini hayot to'la tasdiqlanadi, shu bois, ular xozir xam, bundan keyin xam o'z axamiyatini yo'qotmaydi. Zotan, besh tamoyil bozor munosabatlariga tayangan mustaqil, milliy iqtisodiyotning asosiy shakl va tamoyillarini tarkib toptirish va uni iqtisodiy yuksalish sari izchil harakatlantarish imkonini berdi. Chunki ular mamlakatimizda yangi, oldingisidan tubdan farq qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy tizimni qaror toptirishning o'ziga xos dasturi edi. Bu qoidalar istiqlol va taraqqiyot yo'lni tanlagan jamiyatimizning bu yo'ldan og'ishmay ilgarilab borishi uchun asos etib qabul qilindi. Bu qoidalarning rivojlantirilishi va hayotga tobora dadilroq joriy etilishi ijtimoiy – siyosiy barqarorlikni yanada mustaxkamladi.

Iqtisodning siyosatdan ustuvorligi. Bu tamoyil mamlakatimizda demokratik bozor o'zgarishlarini amalga oshirishning asosi deb eti'rof etildi. Iqtisodiyotni yana siyosatga, mafkuraviy aqidalarga qurbon qilmaslik uchun siyosiy maqsadlarga erishish vositasi deb qaralmadi. Ijtimoiy yunaltirilgan bozor iqtisodiyotining o'zi ijtimoiy ustqurmaning poydevorida butun jamiyat miqiyosida demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish uchun asos, shart-sharoit xozirlaydi. Bozor iqtisodiyotining o'zi barchaga bir xil imkoniyat (imtiyoz) berish bilan iqtisodiy demokratiyadir. Shu bois endi mamlakat ichkarisida xam, uning tashqarisida xam, ishlab chiqarish munosabatlarni bozor, bozor bo'lganda xam tartibli asosga qurilgan bozor belgilaydigan bo'ldi. Endi kim bilan savdo – iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish, aksincha, kim bilan esa bunday munosabatlarga kirmaslik yuqoridan belgilanmaydi. Shuning uchun xam xozirgi iqtisodiy xamkorlarimiz orasida nafaqat hamdo'stlik mamlakatlari, balki yangi va eski dunyo xam, rivojlangan Yevropa va rivojlanayotan Afrika xam, demokratik Amerika va totalitar Xitoy xam, o'zaro nizoli arab dunyosi va Isroil xam bor. Lekin ular o'rtasidagi nisbat o'rni almashgan bo'lishi mumkin. Agar ilgari mamlakatimiz asosan sobiq ittifoq respublikalari bilan tovar ayirboshlagan bo'lsa, bugungi kunda 70 foiz savdo – sotiqni yuksak taraqqiy etgan – AKSh, Angliya, Belgiya, Niderlandiya, Janubiy Koreya, Shveysariya, Finlandiya kabi davlatlar bilan amalga oshiryapti. Endi sheriklarni bozorni o'zi tanlamokda. Bu jarayonlar eksport va import tarkibida jiddiy o'zgarishlar bilan sodir bo'lmoqda eksport tarkibida paxta tolasining xissasi jiddiy qisqaradi. Mashina va asbob uskunalar energiya tarqatgichlar, transport vositalarning xissasi esa ortmoqda. Importda oziq ovqat

mahsulotlarning xajmi kamayib bormoqda. Tashqi savdo aylanmasi ko'lamning kengayishi va uning tarkiban takomillashuvi, jo'g'rofiyasining keskin o'zgarish natijasida tashqi savdo aylanmasida ijobiy saldoga erishildi. Mamlakatga tovar keltirishdan ko'ra, tashqariga mol chiqarish birnchi marta ustun bo'ldi va o'tgan yilning natijalariga ko'ra tashqi savdo aylanmasining umumiy xajmi 8,9 mlrd. AQSh dollarni tashkil etdi. 1990 yilda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasida salbiy saldo 3,7 mlrd. so'mni (joriy baxolarda), yoki yalpi milliy mahsulotning 11 foizga yaqinini tashkil etgan edi. Ko'rinib turibdiki, siyosat iqtisod uchun emas, balki iqtisod siyosat uchun xizmat qilmoqda.

Davlat bosh islohotchi. Ikkinchi tamoyilga muvofiq bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat bosh isloxotchi, isloxot taqdiri uchun javob beradigan asosiy kuch – qudrat, kafolat bo'lishini ko'zda tutar edi. Bu borada boshqa yo'l xam bo'lishi mumkinmidiq Yo'q bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatdan boshqa qudratli iqtisodiy kuch yo'q. Yirik korxonalar eski kooperativ aloqalarning uzilgan, bozor sharoitiga xali moslashmaganligi tufayli kerakli mablag'ga ega emasdi. Chet el banklarida katta mablag'larimiz yo'q, okean ortida puldor «tog'a» larimiz xam deyarli yo'q, aholining esa start imkoniyatlari aytarli bir xil, kichik va o'rta biznesni, oilaviy tadbirkorlikni moliyalashtirish uchun yetarli emasdi. Davlat esa ilgaridan mustaqillikgacha katta iqtisodiy mavqe va qudratga ega, barcha ishlab chiqarish vositalarining 90 foizini birlashtirgan edi. Bunday uyushgan, bir joyda jamlangan ulkan saloxiyatdan oqilona foydalanmaslik xato bo'lar edi, albatt. Buning ustiga ijtimoiy yunaltirilgan bugungi zamon bozor iqtisodiyotining asosiy unsurlarini tez va izchil qaror toptirish uchun, bozorga o'tish to's – to'polonidan iqtisodiy, moliyaviy tizg'inlarni qo'ldan chiqarib yubormaslik, aholi manfaatlari yo'lida milliy daromadni taqsimlashni iloji boricha odilona va oqilona amalga oshirish uchun xam davlat mexanizimidan foydalanish zarur edi. Bozor munosabatlariga o'tishda, ayniqsa, uning dastlabki bosqichida davlat islohotlarda faol ishtirok etdi, islohotlarni izchillik bilan amalga oshirdi, ishbilarmon va tadbirkor kadrlarni tayyorlashga bosh – qosh xam bo'ldi. Bulardan tashqari xalq xo'jaligida amalga oshirilgan bugungi tub tarkibiy qayta qurishni, kuchli va ko'p tarmoqli ishlab chiqarish infratuzilmasini vujudga keltirilishni faqat davlatning kuchi bilan uddalash mumkin edi. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishni yo'lga qo'yishda davlat o'zining tarixiy vazifasini bajardi. Endi bundan keyin bozor munosabatari mustaxkamlanib borgani sari davlatning iqtisodiy roli susayib boradi. Iqtisodiy vazifalarning aksariyati yirik milliy korporatsiyalar, korxonalar, chet el ishbilarmonlari va xususiy tadbirkorlik zimmasiga o'tadi. Tarixiy taraqqiyot tendensiyasining o'zi shuni taqozo etadi. 1997 yil natijalariga ko'ra sanoat mahsuloti umumiy xajmida davlat sektorining ulushi xammasi bo'lib 41,0 foizni tashkil etdi, xolos. Bu ko'rsatkich bir yil ilgari 46,5 foizni tashkil etar edi. Bu tendensiya davom etaveradi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi, savdo umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish sohalarida davlatning ulushi yanada past. O'tgan yili mamlakat xalq xo'jaligida band bo'lganlarning atigi 28,1 foizi davlatga tegishli korxonalarda mehnat qildi. Lekin bu davlat iqtisodiy vazifa bilan mutlaqo shug'ullanmaydi, degani emas. Iqtisodiyotda davlat sektori xukm surishi, u stansiyada qatnashishi, o'layotgan korxonalarga jon baxshida etib, uni ena xususiy

qo'llarga yoki jamoaga qaytarishi mumkin shuningdek davlat bundan keyin xam o'zining moliya, kredit, solik, valyuta siyosati, narxni nazorat qilishi va boshqa dastaklar orqali iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni izga solib turadi.

Qonun ustuvorligi. Ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishning xuquqiy negizini shakllantirish, hayotning barcha jabxalarida qonun ustuvorligiga erishish muhim vazifalardan bo'lib, munosabatlariga o'tish jarayonida tanlangan to'rtichi tamoyil edi. Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida amalda yangi xuquqiy tizim yaratildi. Bozor munosabatlari o'zini – o'zi boshqaradigan demokratik tizimdir. Bu jarayonga bilib – bilmay aralashish, ma'muriyatchilikka, ayniqsa, ortiqcha markazlashtirishga urinish uning imkoniyatlarini cheklashi, oxir – oqibatda esa obro'sizlantirishi mumkin. Bozor iqtisodiyotining o'z qonuniyatlari bor, unga aralashish valyutarizimga yo'l qo'yish, mensimaslik ko'ngilsiz oqibatlar keltirishi mumkin. Shu bois qonunga bo'ysinish bozor munosabatlariga o'tishning yetakchi tamoyillaridan biridir, xuquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir.

1. Kuchli ijtimoiy himoya. Prezidentimiz kuchli ijtimoiy siyosat yuritishni iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishning ishonchli kafolati, O'zbekistonning yangilanish va taraqqiyot yo'lini namoyon etuvchi eng muhim tamoyillardan biri deb bildilar. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida aholini ijtimoiy himoyalashning butun bir tizimi yaratildi. Kishilarning ijtimoiy himoyalash va kafolatlashlarning kuchli mexanizimi jamiyatda yaratilgan milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashdangina iborat bo'lib qolmadi. Bu vazifani xal etishda davlat manbalaridan tashqari mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari va xayriya jamg'armalarining imkoniyatlaridan keng foydalanildi. Bozor munosabatlariga o'tish hech qachon va hech qayerda silliq, ijtimoiy qiyinchiliklarsiz kechmagan. Bu davrda aholini ijtimoiy himoyalashga, qo'llab - quvvatlashga yetarli e'tibor bermaslik omma orasida yalpi qashshoqlashuvni kuchaytirgan, lyumpenlar, pauperlar (juldurvoqilar) qatlamining paydo bo'lishiga olib kelgan bo'lar edi. Lyumpenlashgan olomon uchun muqqadas narsaning o'zi yo'q, ular uchun to'rt tomoni qibla. Prezidentimiz shuning uchun xam lyumpenlashuv va pauperizmning paydo bo'lishiga qarshi o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, kichik va o'rta biznesni, tadbirkorlikni rivojlantirish g'oyasini ilgari surdi. Kishilar chinakam mulkdor bo'lgandagina pirovard natijalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uning harajatlarini pasaytirish jamiyatda barqarorlikni saqlab qolish uchun kurashadi.

Bosqichma-bosqich rivojlanish. Davlatning iqtisodiy qudrati naqadar bo'lmasin, bu qudratdan qanchalik oqilona foydalanmaylik, baribir uchinchi tamoyil – bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich o'tishi zarur edi. U asosiy qoidalardan biri sifatida ilgari surildi bu borada shoshma – shosharlikka berilmaslik, «yangisini qurmay, eskisini buzmaslik» tarzida ish tutish yo'lidan borildi. Chunki luqmani birdaniga yutaman deb tiqilib qolish xam hech gap emasdi.

Bozor munosabatlari kishilarning yangicha dunyoqarashi, psixologiyasi, ko'nikma va xulq – atvori, ta'bir joiz bo'lsa, hayot tarzi xamdir. Ularning qaror topishi va rivojlanishi uchun esa ma'lum vaqt, sabr – toqat, izchillik darkor. Shuning uchun dastlab mulkni tasarrufdan chiqarish va xususiylashtirish, mulkchilikning davlatga qarashli bo'lmagan shakllari – xususy, oila, xissadorlik,

jamoa va boshqa turlariga asoslanib yangidan tashkil etilayotgan xo'jalik yuritish usullarini qo'llab – quvvatlash yo'li bilan aralash, ko'p qirrali (ukladi) iqtisodiyotni shakllantirish yo'lidan borildi. Bu qadar zalvorli yumushlarni bir xamla bilan xal etilmaydi. Buning o'zi bir jarayonidir, jarayonni esa, ma'lumki, sun'y ravishda tezlashtirib bo'lmaydi. Bizda davlat tassarufidan chiqarish va xususiylashtirish savdo, umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish shaxobchalaridan boshlandi. Binobarin, avvalam bor, kichik xususiylashtirish amalga oshirilib, 1994 yil oxiriga kelib amalda iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi yakunlandi, keyini xiyla ko'lami va murakkab bosqich sari yo'l ochildi. Narxni belgilash borasida xam shunday yo'l tutildi. Narx – navo tizginini birdaniga qo'ldan chiqarib yuborish oxir – oqibatda pulning eplab bo'lmaydigan qadrsizlanishiga – giperinflyatsiyaga sabab bo'lishi muqarrar edi. Iqtisodiy isloxatlarni bosqichma – bosqich amalga oshirish tamoyili ayniqsa, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan ustuvor sohalarni belgilashda xalq xujaligini aniq maqsadli investitsiyalashda juda samarali bo'ldi. Yoqilg'i – energetika, mashinasozlik, aloqa, transport, yo'l qurilishi, yuksak darajada qayta ishlashga o'tish, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish ana shunday ustuvor sohalar deb belgilanadi. Qishloq xo'jaligida bunday ustuvor soha dexqonchilik (g'allachilik) bo'ldi. Bu tadbirlarning amalga oshirilishi taqchil mahsulotlar yuzasidan mamlakatni tashqi bozorga qaramlikdan xolos etibgina qolmasdan, unga katta miqdorda valyutani tejash imkokonini ham berdi. Bu tejalgan mablag' endi boshqa sohalarni rivojlantirishga shart – sharoit xozirlab, sanoat umumiy taraqqiyotini ta'minlamoqda. Tasavvur eting, mustaqillikning dastlabki yillarida zarur neftning 80 foizi chetdan olib kelinar edi. Bu xol xali o'zini o'nglab olmagan iqtisodiyot uchun og'irlik qilar edi. Endi esa o'zimizni neft va boshqa energetika vositalari bilan to'liq ta'minlash imkoniyatiga egamiz.

“Dunyoviy davlat” va “milliy davlatchilik” tushunchalari. Jahon tarixiy tajribasining ko'rsatishicha, mustaqillikni qo'lga kiritgan, milliy va ijtimoiy ozodlikka erishgan har qanday mamlakat, xalq va millat oldida davlat qurilishining u yoki bu turini, demokratiyaga borishning o'ziga xos va mos yo'lini, yangi jamiyat barpo etishining o'z andozasini erkin va ixtiyoriy ravishda tanlab olish, hayotga joriy etishdek o'ta murakkab va nihoyatda mas'uliyatli vazifa ko'ndalang bo'lib turadi.

Dunyoda davlat xokimiyatini tashkil etish va boshqaruvning turli variantlari va shakllari mavjud. Davlat qurilishining u yoki bu turidan qaysi birini o'zi uchun ma'qul deb tanlab olish ayrim shaxslarning xoxishi irodasiga emas, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy tarixiy shart-sharoitlariga, rivojlanish darajasiga milliy manfaatlarga, xalqning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf-odatlari, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlariga bog'liqdir. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston Respublikasi oldida milliy davlatchilikning xalqimiz manfaatlariga, kelajak avlodlarimiz takdiri, talab extiyojlariga, dunyo andozalariga to'la javob beradigan va xalqaro tan olingan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishdek nihoyatda dolzarb muammo turardi. Shunday davlat va jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini uning huquqlari va erkinligini kafolatlashi, milliy an'analar va madaniyat qayta tiklanishini, shaxs

sifatida insonning ma'naviy-ahloqiy kamol topishini ta'minlashi mumin. «Biz mustaqil huquqiy davlatni barpo etishning asosiy maqsad va vazifalarini belgilar ekanmiz», - deydi Prezident, - “O'zbekistonning sivilizatsiya va taraqqiyotning yuksak, yorkin cho'qqilariga erishishda madaniy va tarixiy merosning, xalqning insonparvarlik an'analarining yuksak marralarini egallagan, umum-insoniy qadriyatlar va me'yorlarga sodiq bo'lgan ozod va har tomonlama uyg'un kamol topgan shaxs asosiy tayanch bo'lishini qayta-qayta ta'kidlaganmiz».

Bugun biz ko'rayotgan huquqiy davlat o'zining ma'no-mohiyati, shakli siyosiy va ijtimoiy negizi, asosiy tamoyillariga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, davlatlarning boshqa tiplaridan jiddiy ravishda farq kiladi. Bu – tabiiy – qonuniy jarayondir. «Dunyoda bir-biriga aynan o'xshash ikkita inson bo'lmaganidek, bir-biriga aynan o'xshagan ikkita davlat xam yo'q”. Har bir davlat betakror ijtimoiy hodisadir. Har qaysi xalq tarixiy va ma'naviy taraqqiyotining xosilidir, uning o'ziga xos, o'ziga mos madaniyati rivojining natijasidir».

“O’zbek modeli”ning jamiyat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayot sohalarida namoyon bo’lishi, uning O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish xususiyatlariga mosligi. Ma’lumki xar qanday ilg’or demokratiya tajribasini to’g’ridan – to’g’ri joriy kilish mumkin emas. Gap shundaki, davlat yoki millat umrboqiylikka yo’g’rilishi uchun axolisi va yashash joylaridan tashkari, o’ziga xos va mos urf – odat va axloq, qonunlar majmuasi bosh qomus, yoki konstitutsiya xamda ularga tayanib tuzilgan milliy boshkaruv uslubi , yaoni davlatchilik va xayot tarzini shakllantirish shart. SHunday buldi xam. Natijada demokratiya O’zbekiston uchun nazariyadan amaliyotga yoki mavxumlikdan «O’zbekiston modeli» ga aylandi.

Demokratiya dastlabki davrlarda siyosiy mukobilsizlik vaziyatini boshidan kechirdi. Demokratiyaning O’zbekiston uchun makbul boshqaruv uslubiga aylanishi uchun xisobga olinishi zarur bo’lgan sotsiomadaniy xususiyliklar esa, vazminlik, bagrikenglik, o’zaro xurmat va muruvvat, insoflilik, atrof – muxitga falsafiy munosabat, o’z qarori va ajdodlar o’gitiga sodiqlik va jamoatchilik ko’nikmalaridan tarkib topadi. Demokratiyaning «O’zbekiston modeli»ning yurtimizda ravnaqini taminlash uchun, qolaversa geografik joylashuv, unga monand xolda asrlar osha shakllangan xo’jalik yuritish vositalari va ko’nikmalari xamda insonlararo aloqalar xam xisobga olishni taqozo etadi. Ana shundagina, demokratiya xalqimizga beminnat xizmat qilishi mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq O’zbkistonda isloxotlar isloxot uchun emas, isloxot inson uchun tamoyili ilgari surildi. Va u izchillik bilan amalga oshirildi. Yaoni xar qanday isloxot va yangilanishlar eng avvalo inson ongi va tafakkuri qalbi va tuyg’ulari orqali amalga oshirilishi lozim. Buning uchun dastlab odamlarni isloxotlarga tayyorlash, unga butun imkoniyatlarini ruyobga chiqarishi uchun sharoit yaratish erkinlik berish zarur edi. Bu o’z – o’zidan jamiyatni erkinlashtirish, demokratik tamoyillarni chukurlashtirishni taqozo etadi. Ana shu jixatlarni nazarda tutib, Prezident I. Karimov «Demokratik o’zgarishlar va yangi demokratik jarayonlarni boshqarishni va xayotga tadbiq etishning xamda ularni ximoyalashni jamiyatning o’zi anglamog’i darkor» deb ta’kidlagan edi.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda O’zbekiston tanlagan yo’l inson manfaatlari to’la ximoya qilingan, uning erki, ozodligi xar tomonlama xuquqiy kafolatlangan

fuqarolik jamiyatini shakillantirish yulidir. Aytish joizki, O’zbekiston tarixiy taraqqiyot taqozosi tufayli paydo bulgan imkoniyatdan shu tariqa foydalandi. Bu albatta, inson ongi va tafakkuridagi mutelik va tobelik ruxiyatini uzgartirish, turmush tarzini yangilash orkali ochik jamiyatni vujudga keltirishning yaxlit va tulakonli tizimni ishlab chikishni, mazkur tizimini ijtimoiy amaliyotga yunaltirish yo’riqlarini barpo etishni taqozo etmoqda. O’zbekiston fuqarolik jamiyatini barpo etish yulida inson ongi va qalbi bilan bog’liq bo’lgan, uni islox qilish «Yangilash, ma’naviy – ruxiy taomirlash kabi sermashaqqat yuldan bordi. Bu juda katta sabr-bardosh, siyosiy qudrat, siyosiy madaniyat va siyosiy iroda talab etadigan ijtimoiy zaruratdir.

Milliy siyosiy madaniyatning yo’nalishi, siyosiy ong darajasi jamiyat xayotida inson ishtirokining qandayligini belgilaydi. Zotan, siyosiy madaniyat va siyosiy ong yuksak bo’lgan joyda odamlar xokimiyat ishida faolrok ishtirok etishadi. Qarorlar qanday qabul qilinishi, uning ijrosi qanday nazorat qilinayotganligini kuzatib borishadi, munosabat bildirishadi. O’z xayotlariga daxldor bo’lgan maomuriy tadbirlarga befarq qarashmaydi. Aksincha ularni tayyorlashda ishtirok etishadi, natijada qarorlar ijrosi uchun o’zlari manfaatdor sifatida maosuliyatni xis qilishadi.

Prezident I.Karimov axolining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o’rtasida muvozanatni tahminlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zarurligiga aloxida ehtibor berib kelmoqda. Bu mexanizm eng avvalo, jamiyatni erkinlashtirish orqali odamlarning saylovlarga munosabatini o’zgartirishni taqozo etadi. Odamlar o’z manfaatlari va maqsadlarini amalga oshirish, xaq-xuquqlarini ximoya qilish uchun saylovlarda ishtirok etish zarurligini anglay boshladilar. Saylash va saylanish xuquqi xar bir fuqaro siyosiy faolligini, jamiyat taraqqiyotiga daxldorligini belgilovchi omil sifatida namoyon bo’lmoqda.

O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish jarayonlarida inson erkinligi, huquqlari va manfaatlarining ustuvorligi. Huquqiy davlat o'zining insonparvarlik mohiyati, adolatparvarligi, boshqa xislat va fazilatlariga kura inson, uning moddiy, ma'naviy manfaatlariga tamomila zid bo'lgan sobiq sovet davlatining keskin farq kiladi. Sovet tuzumi davrida yerlar, suvlar, korxonalar, umuman barcha jonli va jonsiz buyumlar davlat mulkiga aylantirildi. Barcha mulk turlari va daromadlar davlatning ixtiyoriga o'tkazildi. Natijada bor-yo'g'idan ayrilib va shilinib qolgan xalqning davlat tomonidan belgilangan arzimas maoshidan boshqa hayot manbai qolmadi.

Davlat maosh vositasida mehnatkash ommani xoxlagan tomonga ergashtirib yurdi. Xalq davlatga iqtisodiy qaramlik xolatida majburan ushlab turildi. Shu boisdan xalq davlat va partiyaga ko'r-ko'rona sajda qildirildi. «Xammamizga ma'lumki”, -deydi bu xaqda Yurtboshimiz, - “biz so'nggi 70 yil mobaynida davlatga qaramlik va sig'inish xolatida yashadik. Mamlakatdagi barcha boyliklarning, mulkning egasi davlat deb xisoblab keldik. Qaysi masalani olmaylik, davlat manfaati birinchi o'rinda, fuqarolar, shaxs manfaati esa deyarli xisobga olinmasligi eski Konstitusiyalarning har qaysi moddasida yaqqol qo'zga tashlanar edi». Sovet davlati mexnat axlidan xususiy mulkka ega bo'lish huquqiy tortib olib, «yagona davlat mulki egaligini» shakllantirdi. Totalitar tuzum davrida «davlat mulki», «shaxsiy mulkdan» ustuvor hisoblandi.

“O’zbek modeli”ni halqaro jamoatchilik tomonidan e’tirof etilishi va

uning ahamiyati. Bozor iqtisodiyotiga o’tishda kishilarning tafakkurini, odat tusiga kirgan qoidalarni o’zgartirish juda muhim va bu ish uzoq muddatni talab qiladi. SHu bilan bir vaqtda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda sustkashlik qilish, tegishli qarorlarni vaqti-da qabul qilmaslik iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi shunday ham qiyin ahvolni og’irlashtirib qo’yishi mumkin.

Bozor munosabatlariga xos bo’lgan ruhiyat, dunyoqarash shakllanib, odamlar shunga muvofiq ish tuta boshlagan taqdirdagina bozor iqtisodiyoti, voqelikka aylanadi. SHu sababli eng asosiy vazifa – ijtimoiy larzalarsiz, odamlarning qashshoqlashuviga yo’l qo’ymagan holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichiga o’ta borishdan iborat.

Ushbu tamoyillar O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’lining asosini, o’tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Ularning amalga oshirilishi mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhim bozor munosabatlarini izchil joriy etishni ta’minlamoqda. Taraqqiyotning «o’zbek modeli» xalqimizning mil-liy davlatchilik an’analari, qadriyatlari va mentalitetiga tayangan, ayni vaqtda, jamiyatni isloh etish borasidagi dunyo tajribasining ilg’or yutuqlariga asoslanganligi tufayli xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda.

Demokratik o’zgarishlarni yanada chuqurlashtirish. SHuni alohida ta’kidlash lozimki, demokratiyaga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etish bosqichma-bosqich amalga oshirila-digan uzluksiz jarayondir. SHuning uchun ham mahlum vaqt o’tgach, bosib o’tilgan yo’lga xolisona baho berilishi va tanlangan strategiyaga mos muayyan o’zgartirishlar kiritilishi-bu hayot tajribasidan o’tgan yo’ldir. Ana shu holatdan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunga qadar mamlakatimiz demokratik jamiyatga o’tishning uchta bosqichini bosib o’tib, to’rtinchi bosqichga qadam qo’ydi. Ularning har biri Prezident Islom Karimov tomonidan O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi chaqiriq VI sessiyasida (1996 yil 29-avgust) ” Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari”, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi chaqiriq XIV sessiyasida (1999yil 14-aprel), “O’zbekiston XXI asrga intilmoqda”, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq IX sessiyasida (2002 yil 29-avgust) “O’zbekistonda demokratik o’zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning ustuvor yo’nalishlari”, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati-ning qo’shma majlisida (2005-yil 28-yanvar) “Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir” , Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisida(2010 yil 12 noyabr) “Mamlakatimizda demokratik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish кonsepsiyasi” mavzuidagi ma’ruzalarida ko’rsatib berildi.

Mamlakatimizdagi islohotlar bosqichma-bosqich, yuqorida belgilab berilgan vazifalarni qamrab olgan holda davom etmoqda.

Ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyoti. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, bozor iqtisodiyotiga o'tish qiyinchiliklar bilan kechadi. Deyarli barcha mamlakatlarda o'tish davrining dastlabki bosqichlarida ishlab chiqarish xajmining pasayishi, ishsizlik darajasining o'sishi, turmush darajasining pasayishi, kishilar hayot farovonlii o'rtasidagi tafovutning kuchayishi kuzatiladi.

Shu sababli bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish bilan bog'liq O'zbekiston modelida markaziy zveno sifatida kuchli ijtimoiy siyosat belgilandi. U eng avvalo aholini adresli himoya qilishni kuzda tutadi. "Eng katta e'tibor haqiqatan xam, - deb yozadi Islom Karimov, - muxtoj oilalarga yordam berishga qarashildi. Aholini aniq ijtimoiy himoyalash mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish borasida katta ishlar qilindi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning butun tizimi tengchilik va boqimandalik kayfiyatini tugatishga qaratildi." Shunday qilib, islohotlarning amalga oshuvi va bozor munosabatlarining rivojlanish darajasiga qarab ijtimoiy siyosatning ustivor yo'nalishlari o'zgarib bordi, aholini ijtimoiy himoyalash mexanizmi, tensizlik va qashshoqlikka barxam berish shakllari va usullari takomillashdi. Natijada chora-tadbirlarning butun bir tizimi shakllandi. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi asosida aholi turli xil qatlamlariga qat'iy tabaqalashgan yondoshuv, ijtimoiy yordamning maqsadli harakteri va adresliligi, uni amalga oshirishda davlat bilan bir qatorda korxonalar, ijtimoiy tashkilotlar, shu jumladan fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari, xayriya fondlari va boshqa nodavlat fondlarining qatnashuvi yotadi.

Ijtimoiy himoyaning harakatdagi tizmi aholining turli xil guruhlari tomonidan olingan daromadlarni davlat tomonidan tartibga solish yo'li bilan tengsizlikning keskin kuchayishi imkoniyatiga barxam berildi. Shu maqsadda kam daromadli, kam ta'minlangan guruhlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va aholining yuqori daromadli qatlami daromadlarining yuqori chegarasini cheklash uchun turli xil yondashuvlardan foydalaniladi.

Ochiq demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish. Jahon tarixiy tajribasining ko'rsatishicha, mustaqillikni qo'lga kiritgan, milliy va ijtimoiy ozodlikka erishgan har qanday mamlakat, xalq va millat oldida davlat qurilishining u yoki bu turini, demokratiyaga borishning o'ziga xos va mos yo'lini, yangi jamiyat barpo etishining o'z andozasini erkin va ixtiyoriy ravishda tanlab olish, hayotga joriy etishdek o'ta murakkab va nihoyatda mas'uliyatli vazifa ko'ndalang bo'lib turadi.

Dunyoda davlat xokimiyatini tashkil etish va boshqaruvning turli variantlari va shakllari mavjud. Davlat qurilishining u yoki bu turidan qaysi birini o'zi uchun ma'qul deb tanlab olish ayrim shaxslarning xoxishi irodasiga emas, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy tarixiy shart-sharoitlariga, rivojlanish darajasiga milliy manfaatlarga, xalqning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf-odatlari, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlariga bog'liqdir.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston Respublikasi oldida milliy davlatchilikning xalqimiz manfaatlariga, kelajak avlodlarimiz takdiri, talab extiyojlariga, dunyo andozalariga to'la javob beradigan va xalqaro tan olingan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishdek nihoyatda dolzarb muammo turardi. Shunday davlat va jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini uning huquqlari va erkinligini kafolatlashi, milliy an'analar va madaniyat qayta tiklanishini, shaxs sifatida insonning ma'naviy-ahloqiy kamol topishini ta'minlashi mumin. «Biz mustaqil huquqiy davlatni barpo etishning asosiy maqsad va vazifalarini belgilar ekanmiz», - deydi Prezident, - “O'zbekistonning sivilizatsiya va taraqqiyotning yuksak, yorkin cho'qqilariga

erishishda madaniy va tarixiy merosning, xalqning insonparvarlik an'analarining yuksak marralarini egallagan, umum-insoniy qadriyatlar va me'yorlarga sodiq bo'lgan ozod va har tomonlama uyg'un kamol topgan shaxs asosiy tayanch bo'lishini qayta-qayta ta'kidlaganmiz».

Bugun biz ko'rayotgan huquqiy davlat o'zining ma'no-mohiyati, shakli siyosiy va ijtimoiy negizi, asosiy tamoyillariga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, davlatlarning boshqa tiplaridan jiddiy ravishda farq kiladi. Bu – tabiiy – qonuniy jarayondir.

Taraqqiyotning "O'zbek modeli"ning demokratik o'zgarishlarni yanada boyitishdagi ahamiyati. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng kun tartibida jahon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohada tub islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni vujudga keltirish vazifasi turar edi. SHuni alohida qayd qilish lozimki, demokratik adolatli jamiyat barpo etishning hamma mamlakatlarbop andozasi hech qachon bo'lmaydi. Qolaversa, har bir mamlakat ijtimoiy hayotining turli sohalarida asrlar mobaynida shakllangan an'analari, qadriyatlari bo'ladiki, buni e'tiborga olmaslikning iloji yo'q.

SHuning uchun ham O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunidanoq «jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda, o'z ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'lini tanlab olishga kirishdi».[104]

Mamlakatimizning mustaqil taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishda o'tmishdan Sobiq ittifoq tuzumidan meros bo'lib qolgan tajriba-lardan saboq chiqarildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida ijtimoiy hayotning turli sohalarida amalga oshirilgan islohotlar chuqur tahlil qilindi. SHular asosida soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojiali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyutsion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish – tanlab olin-gan yo'lning asosiy mazmun va mohiyatidir – degan xulosaga kelindi.

«Pirovard maqsadimiz,-deydi Prezident Islom Karimov,-ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir».[105] Demak, tanlagan yo'limiz, ajdodlarimiz tarixiy tajribasi, mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatini va xalqimizning aql zakovatini hisobga olib, o'z yo'limizdan aniq maqsad sari qathiyat bilan ilgarilab borishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov ilgari surgan kontseptsiyalar, ustuvor vazifalar asos qilib olingan.

4– Mavzu: O'zbekistonda demokratik jamiyat bar'o etishda «o'tish davri»ning zarurligi, uning xususiyatlari.

Reja:

[104]Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. –T.: O'zbekiston, 1992. 10-b.
[105] Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. –T.: O'zbekiston, 1995. 9-b.

1. “O’tish davri” tushunchasi.
2. O’tish davrining: “klassik”, “inqilobiy”, “evolyutsion” yo’llari.
3. O’zbekistonda “O’tish davri”ga yondashishning o’ziga xos jihatlari.

“O’tish davri” tushunchasi. “O’tish davri” ijtimoiy-siyosiy fanlar mavzulari tizimidagi eng dolzarb masalalar qatorida turadi. CHunki, demokratik taraqqiyot yo’lidan borayogan har bir mamlakatda demokratiyaning reallikka aylanishi uchun mahlum vaqt zarur bo’ladi. Ana shu oraliq vaqt “o’tish davri” deb ataladi. Ammo u mustaqil mavzu sifatida kam o’rganilgan. Qolaversa, mazkur mavzuning mohiyatini ochib berishda turli ziddiyatli fikrlar ham mavjud. Demokratik taraqqiyot yo’lidan borayotgan O’zbekiston uchun ham o’tish davri mavzusini o’rganish bugungi kunda zaruriyatga aylanmoqda. O’tish davri barcha mustaqillikka erishgan davlatlarning yuksak taraqqiyotiga erishish jarayonidagi o’ziga xos oraliq muhlat hisoblanadi. U har qanday davlat uchun umumiy qonuniyatdir. CHunki, davlatlar vujudga kelishi bilanoq, birdaniga yuksak taraqqiyot darajasiga ko’tarila olmaydi, balki har bir davlat, eng avvalo shakllanadi va mahlum tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o’z boshidan o’tkazadi. Ana shu bosqichma-bosqich o’tish jarayoni juda murakkab jarayon bo’lib, bu bosqichlarni har bir mamlakat o’ziga xos tarzda bosib o’tadi. Hozirgi kunda 160 dan ortiq mamlakat demokratik taraqqiyot yo’lidan bormoqda. Ammo bu mamlakatlarda demokratik taraqqiyot jarayonlari turlicha bo’lib, bu jarayonlar har bir mamlakat uchun o’ziga xos xususiyatga ega. O’tish davri mamlakatlar taraqqiyotining bir ijtimoiy iqtisodiy bosqichdan ikkinchisiga o’tish umumiy qonuniyati bo’lishi bilan birga anashu bosqichlarga o’tish jarayoni xam turlicha namoyon bo’ladi. Ulardagi asosiy umumiylik eskining taraqqiyot extityojlariga javob berolmaganligi oqibatida, yangi bosqichga o’tish zaruriyatini keltirib chiqarish bilan bog’liq. SHu mahnoda o’tish davridagi bosh yo’nalish «orqaga qaytish» emas, balki «oldinga» yurish, pastdan yuqoriga ko’tarilish yoki oldingi darajaga qaraganda taraqkiy qilish tomon ko’tarilish xisoblanadi.

Mustaqillikni qo’lga kiritgan barcha mamlakatlar uchun uning zarurligi va mohiyati, umumiy qonuniyatlari. O’tish davri uchun barcha mamlakatlarga xos umumiy qonuniyatlar ham mavjud. Ular:

1. Siyosiy hokimiyatni o’zgartirish;
2. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish;
3. Yangi tafakkur va turmush tarzini shakllantirish.

SHuningdek, o’tish davrining boshlanishiga asosiy turtki yoki manba bo’lib xizmat qiladigan omillar ham mavjud. Ular:

birinchidan, jamiyat miqyosida demokratik o’zgarishlar uchun tahsirli xohish va irodaning mavjud bo’lishi;

ikkinchidan, jamiyat ahzolari asosiy ko’pchiligining o’zgarish-lar jarayoniga tayyorgarligi;

uchinchidan, jamiyat ahzolarining demokratik o’zgarishlar zarurligi masalasida yakdilligi, yahni demokratik konsolidatsiya darajasining ko’tarilib borishi hamda demokratiyaga o’tish davri vazifalari va muammolarini hal qilishga

layoqatlilikning kuchayib borishi.

Uning har bir davlat uchun xos bo'lgan xususiyatlarining mavjudligi. Demokratik tamoyillar asosiga qurilgan jamiyatga o'tish bir qator o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi. Birinchidan, ayrim mamlakatlarda demokratik jarayonlar kapitalizm tuzumining ichida shakllanadi va bu uning xalq uchun faravon xayotni tahminlash yo'lidagi faoliyatida namoyon bo'ldi. To'g'ri bu jarayon xam silliq amalga oshmaydi, o'ta murakkab kechdi, juda katta talofatlarni o'z boshidan kechirdi. Xuddi anashu murakkab muammolarni xal qilishda to'g'ri yo'lni tanlashdagi yaoni jamiyat taraqqiyotini xalq manfaatlariga qaratilganligi kapitalizmni «xalq kapitalizmi»gacha, uning faravonligi to'la ma'nodagi xuquqlari va erkinliklarini ta'minlovchi jamiyatga aylanishiga olib keldi. Ikkinchidan, ayrim mamlakatlarda xali kapitalizm to'la ma'nodagi jamiyat sifatida o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarib ulgurmasdan kuch ishlatish yo'li bilan g'ayri ilmiy, soxta «xalq farovonligini ta'minlovchi» kommunistik jamiyatga o'tish yo'lidan borildi.

O'tish davrining: "klassik", "inqilobiy", "evolyutsion" yo'llari. Bugungacha demokratik tamoyillar asosida rivojlanayotgan mamlakatlarning unga o'tish tajribalariga asoslanib, o'tishning asosiy uchta yo'li, yoki «modeli» shakllanganligini ta'kidlash mumkin.

- birinchisi klassik yo'l xisoblanadi. Uning asosiy xususiyati shundaki, u uzoq tarixiy bosqichda amalga oshadi va o'tish davrida siyosiy soxada qancha bo'xronlar sodir bo'lishiga qaramasdan asosiy o'tishning isloxotlari iqtisodiy soxada amalga oshirila boshlanadi, bu soxadagi asosiy tadbir xususiy mulkchilikni qaror toptirish xisoblanadi. Xuddi anashu tadbirning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mamlakat xayotining barcha soxalarini, xususan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy soxalarida xam isloxotlarning amalga oshirilishiga imkon yaratadi.

O'tish davrining klassik yo'lidagi bunday jarayonning xarakterli tomoni shundaki, iqtisodiy soxada xususiy mulkchilikning rivojlanishidan axolining aksariyat ko'pchilik qismi rozi bo'lmaydi. CHunki asosiy moddiy boylik bir qism odamlar qo'lida to'planadi, boshqalar esa ularga qaram bo'lib qoladilar, oqibatda mamlakatda katta bo'xronlar, xatto fuqarolar urushlari sodir bo'lishi mumkin. Bu jarayon mulk egalarining axoli faravonligini tahminlash tomon qiladigan xarakatlari o'zining samarasini beraboshlaganicha davom etadi.

O'tish davrining klassik yo'lning boshlanishi kapitalistik munosabatlarning yuqori bosqichi uning iqtisodiyotda isloxotlar o'tkazmasdan taraqqiy qilishga imkoniyat etmay qolish oqibatida yuzaga keladi.

Bu yo'lning klassik (an'anaviy) yo'l deyilishiga sabab shuki mamlakatlarning demokratik jamiyatga o'tishi dastlab xuddi ana shu ko'rinishda namoyon bo'ladi va butun yuksak taraqqiyotga erishgan mamlakatlarning aksariyati ana shu yo'ldan bordilar.

Klassik yo'l muammolarining ko'pligi, ularni xal qilishning murakkabligi axolining bu jaaryonga «ko'nikib» borishi kabi masalalar bilan bog'liq bo'lganligi uchun xam Ovro'pa mamlakatlarida 2-2,5 asrgacha davom etdi. Ana shu muxlat ichida mamlakatlarda iqtisodiy soxadagi yutuqlarning zaminida demokratik

qadriyatlar xam shakllanadi va ularda bugungi kunda fuqarolik jamiyatini takomillashtirish jarayonlari davom etmoqda.

- Demokratik jamiyatga o'tishning ikkinchisi inqilobiy yo'l xisoblanadi. Uning xarakterli xususiyati shundaki, davlatlarda vujudga keltirilgan katta iqtisodiy saloxiyat aksariyat ko'pchilik axolining turmush tarzi nisbatan yuqori bo'lganligiga asoslanib dastlab mamlakat siyosiy xayotida keskin o'zgarishlar amalga oshiriladi. Yaoni amaldagi xokimiyat shakli barbod bo'ladi va uning o'rniga yangi, demokratik jarayonlarni rivojlantirishga moyil bo'lgan xokimiyat shakli va uning infrastrukturasi vujudga keladi. Ular o'z navbatida iqtisodiy xayotda keskin isloxotlar o'tkazadilar, xususan amaldagi milliy valuta bekor qilinadi (sindiriladi). Axolining qo'lidagi pul mablag'lar xam o'z qiymatini yo'qotadi va mamlakat siyosiy xayotida bo'lgani kabi iqtisodiy xayotda xam demokratik jarayonlarning rivojlanishi sodir bo'ladi. Inqilobiy yo'l uchun zarur bo'lgan asosiy omillar qatorida:

a) Sobiq tuzum sharoitida xususiylik kurtaklarining saqlanib qolganligi;

b) Demokratik qadriyatlar kurtaklarining mavjudligi;

v) mamlakat xayotini demokratik tamoyillar asosida qayta qurishga qodir bo'lgan intellektual saloxiyatning etarli bo'lishi;

g) axolining mahlum bir qismi ana shu demokratik jarayonga xech bo'lmaganda «moyilligi» bo'lishi kabilar xal qiluvchi axamiyatga egadir. Ularning xar biri inqilobiy yo'l uchun aloxida axamiyat kasb etadi.

Agar ana shu omillar etarli bo'lsa, inqilobiy yo'l xam o'zining samarasini berishi mumkin. Bu yo'ldan Ovro'paning sobiq sotsializm tuzumida yashagan Polosha, Vengriya, GDR, Bolgariya, Rossiya kabi mamlakatlar bormoqdalar.

Bu yo'l qanchalik murakkab, mamlakat xayotida juda katta bo'xronlarga olib kelishini xisobga oladigan bo'lsak, uni xar mamlakat o'z xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan xoldagina amalga oshirish mumkin.

Ammo, shuni xam xisobga olish zarurki, yuqoridagi omillarning mavjudligining o'zi xam mamlakatlarning demokratik jamiyatga inqilobiy yo'l bilan o'tishiga «majbur» etadi. CHunki ana shu omillar jarayoni tezlashtiruvchi asosiy qudrat xisoblanadi.

- Demokratik jamityaga o'tishning uchinchisi-evolyutsion yoki bosqichma-bosqich yo'l xisoblanadi. Xarakterli xususiyati - amaldagi siyosiy xokimiyat tugatilib uning o'rniga yangi xokimiyat vujudga kelishi bilan keskin, bir «zarb» bilan tugatilmasdan bosqichma-bosqich, vazminlik bilan tugatilib boriladi.

Siyosiy va iqtisodiy xayotda o'tkazilayotgan isloxotlar bilan xamoxang ravishda mahnaviy-mahrifiy soxalarni xam yangi extiyojlar asosida rivojlantirib boriladi.

Demokratik jamiyat qurishda o'tish davrini "an'anaviy" va "inqilobiy" tushunishning cheklanganligi. Albatta, evolyutsion yo'lning klassik (an'anaviy) yo'ldan farqli tomonlari mavjud va ular quyidagilardan iborat: Birinchidan, klassik yo'lda demokratik qadriyatlar mavjud jamiyat ichida vujudga keladi va u mavjud tuzumning taraqqiy qilishi, mulk egalarining xam, va shuningdek oddiy xalqning extiyojlarini qondirishga yo'nalib boradi. Bundan xar ikki tomon xam manfaatdorlik ko'radi. Yaoni demokratik qadriyatlar taraqqiyotning kapitalistik munosabatlarining

«Ma’rifatlashib» xalq farovonligini ta’minlash omiliga aylanishining «mevasi» sifatida yuzaga keladi.

Ikkinchidan klassik o’tish yo’lida ommaning dunyoqarashi mavjud sodir bo’ladigan o’zgarishlarga mos ravishda o’zgarib, yoki tuzumning o’zgarishiga tahsir o’tkazib kelgan bo’lsa totalitarizm-ommaning ongini to’laligicha o’z manfaatlariga bo’ysundirgan jamiyat edi.

Uchinchidan, klassik o’tish uchun xos bo’lgan kapitalistik munosabatlar sharoitida demokratiyaga o’tishda eski tuzum xavf tug’dirmaydi, balki u o’rnini taraqqiyot qilayotgan yangi demokratik munosabatlarga «bo’shatib» bera boshlaydi. Totalitarizm esa yangi demokratik jarayonlar uchun xavf tug’diradi.

O’zbekistonda “o’tish davri”ga yondashishning o’ziga xos jihatlari. Mustaqillik tufayli O’zbekistonning totalitarizmdan asta-sekin demokratik jamiyat tomon o’tishining o’ziga xos xususiyatlari ham bundan istisno emas, albatta. Jamiyat erishgan yutuqlar asosida taraqqiy qilish imkoniyatlarining tugashi, uning o’sib kelayotgan ehtiyojlarini qondirishga qurbi yetmay qolishi, jamiyatni yangi pog’onaga ko’tarish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Demak, birinchidan, o’tish davrini jamiyat o’zi erishgan imkoniyatlar asosida rivojlanishning tugashi, o’sib kelayotgan ehtiyojlarning qondirolmay qolishidan boshlab, undan yuqori bo’lgan imkoniyatlarning yuzaga kelishigacha bo’lgan muhlat bilan belgilash mumkin. Ikkinchidan, bir ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzumdan ikkinchisiga o’tish davri yoki, oraliq bosqichining muhlati ana shu yuzaga kelgan taraqqiy qilish jarayoni namoyon bo’lishi bilan tugaydi. Uchinchidan, insoniyat faqat o’tish davri bilan yashamaydi, balki uning boshlanishi bo’lganidek poyoni ham mavjuddir. Xuddi ana shu poyoni taraqqiyot darajalarini yoki tuzumlarning birini ikkinchisi bilan farqlash imkonini beradi. Demak, demokratik rivojlanish ana shu imkoniyatni inson manfaatlari bilan bog’laydi. Bunday sharoitda zamonning ehtiyoji va rivojlanish darajalarida yangi vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzumning turli sohalarida mavjud bo’ladigan mexanizmlarning barqaror ishlashi amalga oshadi. Aniqroq qilib aytadigan bo’lsak, davlat hayotida barqaror taraqqiy qilish jarayoni sodir bo’ladi. SHu nuqtai nazardan ham Leonid Levitinning “postkommunistik makondagi o’tish davri-ni zamonaviylashtirish” mezoni sifatidagi fikriga qo’shilish mum-kin. Uning “…zamonaviylashtirish muayyan yakun topguncha, yahni mamlakat barqaror iqtisodiy rivojlanish, siyosiy barqarorlik darajalariga erishgungacha bo’lgan davr o’tish davri deb ataladi”[106], degan tahrifiga faqat zamon nuqtai nazaridan qaralsagina to’g’ri bo’ladi. Zero,insonlar ehtiyojlarinng to’la tahminlanishi va jamiyat taraq-qiyotining yuksak darajaga ko’tarilishi fuqarolik jamiyati qurilgandagina amalga oshadi. Ammo fuqarolik jamiyatini insoniyat ehtiyojlarini qondira oladigan jamiyatning eng yuqori pog’onaga ko’tarilgan va uning bundan keyin rivojlanishiga ehtiyoji bo’lmaydigan “oxirgi manzil” sifatida qarash ham ilmiy nuqtai-nazardan to’g’ri bo’lmaydi. CHunki faqat ehtiyojning yuzaga kelishigina taraq-qiyot zaruriyatini keltirib chiqaradi. U to’xtagan daqiqadan boshlab, taraqqiyot ham to’xtaydi.

[106] Вопросы философии. 3-сон, 2001. 53-б.

Evolyutsion, tadrijiy rivojlanish yo'lining mohiyati. Demokratik jamityaga o'tishning uchinchisi-evolyutsion yoki bosqichma-bosqich yo'l xisoblanadi.

Xarakterli xususiyati - amaldagi siyosiy xokimiyat tugatilib uning o'rniga yangi xokimiyat vujudga kelishi bilan keskin, bir «zarb» bilan tugatilmasdan bosqichma-bosqich, vazminlik bilan tugatilib boriladi.

Siyosiy va iqtisodiy xayotda o'tkazilayotgan isloxotlar bilan xamoxang ravishda mahnaviy-mahrifiy soxalarni xam yangi extiyojlar asosida rivojlantirib boriladi.

Xo'sh, nima uchun asta-sekin, bosqichma-boqich o'tish zaruriyati tug'iladi? Agar asta-sekin o'tiladigan bo'lsa, uning klassik yo'ldan farqli tomoni nimada, unda xam asta-sekinlik bilan demokratik jamiyatga o'tilgan-ku. Evolyutsion yo'lning klassik (anhanaviy) yo'ldan farqli tomonlari mavjud va ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, klassik yo'lda demokratik qadriyatlar mavjud jamiyat ichida vujudga keladi va u mavjud tuzumning taraqqiy qilishi, mulk egalarining xam, va shuningdek oddiy xalqning extiyojlarini qondirishga yo'nalib boradi. Bundan xar ikki tomon xam manfaatdorlik ko'radi. Ko'pchilik xollarda evolyutsion yo'l mamlakatlarning totalitarizm yoki diktaturalar xukumronligining barbod bo'lishi va uning oqibatida demokratiyaga o'tishi uchun xos bo'lib, mamlakatlar xayotida keskin o'zgarishlarni amalga oshirishning imkoniyatlari bo'lmaganligi bilan bog'liqdir. Ikkinchidan klassik o'tish yo'lida ommaning dunyoqarashi mavjud sodir bo'ladigan o'zgarishlarga mos ravishda o'zgarib, yoki tuzumning o'zgarishiga tahsir o'tkazib kelgan bo'lsa totalitarizm-ommaning ongini to'laligicha o'z manfaatlariga bo'ysundirgan jamiyat edi. Uchinchidan, klassik o'tish uchun xos bo'lgan kapitalistik munosabatlar sharoitida demokratiyaga o'tishda eski tuzum xavf tug'dirmaydi, balki u o'rnini taraqqiyot qilayotgan yangi demokratik munosabatlarga «bo'shatib» bera boshlaydi. Totalitarizm esa yangi demokratik jarayonlar uchun xavf tug'diradi. SHuning uchun xam bugun ko'pgina omillar evolyutsion yo'l bugungi o'tish davri uchun eng maqbul yo'l sifatida qaramoqdalar.

Demokratik jamiyat qurish vazifalarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi. O'zbekiston mustaqillik yillarida demokratik jamiyatga o'tishning quyidagi bosqichlarini bosib o'tdi. Ularning har biri Prezident Islom Karimov ma'ruzalarida ko'rsatib berildi.

Birinchi bosqich. 1996 yil 29 avgust. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi chaqiriq oltinchi sessiyasida. "Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari" deb nomlangan ma'ruzasida demokratik jamiyat qurish borasidagi vazifalarni "chuqurlashtirish" vazifalari;

Ikkinchi bosqich. 1999 yil 14 aprel. Oliy Majlisning birinchi chaqiriq o'n to'rtinchi sessiyasida. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" deb nomlangan ma'ruzasida davlat va jamiyat qurilishi sohasini "erkinlashtirish" borasidagi vazifalar;

Uchinchi bosqich. 2002 yil 29 avgust. Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq to'qqizinchi sessiyasida "O'zbekistonda demokratik o'zga-rishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari" deb nomlangan ma'ruzasida demokratik o'zgarishlar orqali fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish;

To'rtinchi bosqich. 2005 yil 28 yanvar. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi

va Senatining qo’shma majlisidagi “Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir” deb nomlangan ma’ruzasida mamlakatni modernizatsiyalash orqali jamiyatni demokratlashtirish;

Beshinchi bosqich. 2010 yil 12 noyabr .Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisida “Mamlakatimizda demokratik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish κonsepsiyasi” deb nomlangan ma’ruzasida demokratik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish vazifalarini belgilab berilgan edi.

Albatta, bu bosqichlardagi belgilangan vazifalar biri ikkinchisidan keskin farq qilmasa-da, ularning negizidagi asosiy g’oya demokratiyaga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan. Avvalo, ana shu jarayonlar izchillik bilan tahlil etilishi undagi muammolar aniqlanishi va istiqboldagi vazifalar belgilab olinishi lozim. Zero, yuqorida ta’kidlaganimizdek, demokratiyaga asoslangan fuqarolik jamiyati barpo etish uzluksiz davom etadigan jarayondir.

Islom Karimov tomonidan demokratik jamiyatga o’tishga doir nazariy va kontseptual asoslarining ishlab chiqilishi. O’zbekistonda demokratiyaga asoslangan fuqarolik jamiyati barpo etishning nazariy va kontseptual asoslari mamlakatimiz raxbarining 18-tomlik asarlarida batafsil ishlab chiqilgan va bayon qilib berilgan.

Islom Karimov o’tish davri va taraqqiyot bosqichlari to’g’risida. O’tish davri ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy tuzum emas, balki mamlakatlarning ularga o’tishi uchun zarur bo’ladigan zamirlarni shakllantirishga ketadigan tarixiy oraliq bosqich hisoblanadi. Uning boshlanishi eng avvalo, mamlakatlarda bo’ladigan siyosiy o’zgarishlar va uning zaminida esa iqtisodiy, ijtimoiy hamda ma’naviy sohalardagi o’zgarishlar bilan bog’liq bo’lgandagina yangi jamiyatning shakllanishi uchun imkoniyatlar to’la yuzaga chiqadi. Buning o’ziga xos xususiyati va alohidagi haqida Prezident Islom Karimov ta’kidlaganiek, “O’tish davri muammolarining yig’indisi va xususiyatlari bir vaqtning o’zida qator g’oyat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etishni taqozo qiladi”[107]. O’tish davri qanchalik turli-tuman bo’lmasin, baribir barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumlar uchun zarurdir. CHunki u har bir vujudga keladigan yangi jamiyat uchun zamin tayyorlash imkoniyati hisoblanadi. Bu zamin nafaqat iqtisodiy, shuning bilan birga jamiyat a’zolarining o’zlarini ham yangi jamiyatga “moslashtirish” jihati ham zarur bo’ladi.

O’zbekistonning totalitar rejim va mustamlaka mamlakatdan demokratik jamiyatga o’tishda o’zbek xalqining o’ziga xos xususiyatlari, urf-odat, an’ana va qadriyatlariga tayanishi. Mustaqillikka erishgandan keyin O’zbekistonda uning o’ziga xos va o’ziga mos bo’lgan tadrijiy yo’li ishlab chiqildi. Bu yo’l Prezident tomonidan ishlab chiqilgan besh tomoyilda o’z ifodasini topdi.

Bu yo’l nimalarga asoslanadi:

- Axolining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq anhanalari va urf odatlaridan kelib chiqadi.

[107] Karimov I.A. “O’zbekiston buyuk kelajak sari”. –T.: O’zbekiston, 1999. 74-b.

- Respublikaning o’ziga xos demografik vaziyatidan.
- Respublikaning o’ziga xos milliy tarkibi.
- Qulay geostrategik mavqei.
- O’zbekistonning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini ximoya qilish imkonini beradigan potentsial mavjud.
- O’zbek xalqining mentaliteti.

O’tish davrida erishilgan yutuqlar va afzalliklarining jamiyatimiz hayotida ko’rinishlari. O’zbekiston fuqarolik jamiyatini barpo etish yulida inson ongi va qalbi bilan bog’liq bo’lgan, uni islox qilish «Yangilash, ma’naviy – ruxiy taomirlash kabi sermashaqqat yuldan bordi. Bu juda katta sabr-bardosh, siyosiy qudrat, siyosiy madaniyat va siyosiy iroda talab etadigan ijtimoiy zaruratdir.

Milliy siyosiy madaniyatning yo’nalishi, siyosiy ong darajasi jamiyat xayotida inson ishtirokining qandayligini belgilaydi. Zotan, siyosiy madaniyat va siyosiy ong yuksak bo’lgan joyda odamlar xokimiyat ishida faolrok ishtirok etishadi. Qarorlar qanday qabul qilinishi, uning ijrosi qanday nazorat qilinayotganligini kuzatib borishadi, munosabat bildirishadi. O’z xayotlariga daxldor bo’lgan maomuriy tadbirlarga befarq qarashmaydi. Aksincha ularni tayyorlashda ishtirok etishadi, natijada qarorlar ijrosi uchun o’zlari manfaatdor sifatida maosuliyatni xis qilishadi.

Prezident I.Karimov axolining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o’rtasida muvozanatni tahminlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zarurligiga aloxida ehtibor berib kelmoqda. Bu mexanizm eng avvalo, jamiyatni erkinlashtirish orqali odamlarning saylovlarga munosabatini o’zgartirishni taqozo etadi.

Odamlar o’z manfaatlari va maqsadlarini amalga oshirish, xaq-xuquqlarini ximoya qilish uchun saylovlarda ishtirok etish zarurligini anglay boshladilar. Saylash va saylanish xuquqi xar bir fuqaro siyosiy faolligini, jamiyat taraqqiyotiga daxldorligini belgilovchi omil sifatida namoyon bo’lmoqda.

O’tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog’liq islohot va o’zgarishlar. O’zbekiston o’zining asosiy qonunida davlat tuzilishi printsiplarini rivojlantirishning negizlarini va strategik yo’nalishlarini mustaxkamlab qo’ygan suveren davlatdir.

Konstitutsiyaga muvofiq, davlat xokimiyati organlarining avvalgi totalitar tuzumdan mutlaqo farq qiladigan, xokimiyatlarning, ya’ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatlarining tuzilishi printsiplariga acoclangan tizimi yaratildi. Ularning xar biri faoliyatida xuquqiy asosda avtotarizm va totalitarizmning xurujlarini istisno etuvchi chinakam demokratik me’yorlar va yo’l-yo’riqlar qaror toptirildi.

Tashkil topgan ijro etuvchi xokimiyat organlari tizimi oldingilaridan tubdan farq qiladi. Ular rejalash-taqsimlash vazifalaridan xoli bo’lgan iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish va tartibga solish rolini bajarmoqda. Ko’plab vazirliklar o’rniga davlat munosabatlariga mos bo’lgan xo’jalik birlashmalari, uyushmalar, kontsernlar, korporatsiyalar, xolding kompaniyalari tashkil etildi.

Konstitutsiyaga muvofiq, yangi saylov tizimi acocida O’zbekiston tarixida birinchi marta Respublika parlamenti - Oliy vakillik xokimiyatining maxalliy organlariga ko’ppartiyaviylik acocida saylab, qonun chiqaruvchi Oliy Majlis

vujudra keltirildi.

O’zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvida joriy etilgan Respublika Prezidenti instituti yangi O’zbekiston xokimiyati organlari tizimida markaziy o’rinni egallaydi. Bu esa jamiyatda barqarorlikning va O’zbekiston isloxotlar yo’lidan muvaffaqiyatli olg’a borishini ko’zlagan xolda, yangi o’zbek davlatchiligi binosining asosiy tayanchidir.

Ma’muriy islohotlar amalga oshirilishi. Mustakillik yillarida davlatning moxiyati butunlay, tubdan o’zgardi. Davlat dastlabki bosqishda jamiyatni yangilashning eng faol xolda, isloxotlarning tashabbuskori va yo’naltiruvchisi, ijtimoiy xayotdari yangi, asosiy amalga oshiruvchisi bo’lib qoldi.

Yangi o’zbek davlatchiligini qaror tortirishning birinshi bosqichidari vazifalar O’zbekistonning xalqaro maydonda obro’sining ortishi va ko’rlab do’stlik va birodarlik rishtalarini bog’lash va rivojlantirishda o’z ifodasini topdi.

Xozirgi paytda demokratik siyosiy tizimning eng muxim sub’ekti bo’lmish davlatchilikni islox qilishda yangi vazifalar ko’ndalang turibdi. By avvalambor, xozirgi boskichda siyosiy institutlarning va nodavlat ijtimoiy uyushmalarning xilma-xilligi xamda ularning roli mustaxkamlanishi, shuningdek axolining siyosiy faolligi asosida jamiyat xayotini yanada demokratiyalash vazifalari muxim va dolzarb bo’lib qolganliri bilan izoxlanadi. By davlatchilikni rivojlantirish soxasidagi strategik vazifadir. By biz tanlab olgan jamiyatni demokratik rivojlantirish tamoyiliga asoslanadi.

Markazlashgan rejalashtirish va taqsimlash tizimini tugatilishi. Iqtisodiy jihatdan sobitqadam va barqaror jamiyatni shakllantirish, eng avvalo tadbirkorlik va mulkdorlar sinfi davlat va jamoat qurilishida, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab turish va mustaxkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ayni o'rta mulkdorlar sinfi shakllantirilayotgan fuqarolik jamiyatining tayanchidir.
Agar mulk shakllari xilma-xilligi va birinchi navbatda xususiy mulk har qanday davlatning demokratik negizlari barqarorligining iqtisodiy asosi xisoblansa, real ishlab chiqarish vasitalarining o'rta mulkdorlaridan iborat kuchli qatlamning mavjud bo'lishi uning siyosiy asosi ekanligini bildiradi. Aholi orasida xaqiqiy mulkdorlar o'rta qatlamining ko'pchilikni tashkil etishi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni orqaga qaytarish imkoniyatlarini bartaraf etishning kafoloti hisoblanadi, deb yozadi Prezidentimiz.

Shu sababli iqtisodiy o'zgarishlar jarayonini mamlakatda o'rta mulkdorlarning chinakam sinfini shakllantirishdek dolzarb vazifani xal qilish bilan bog'liq. Odam o'zini chinakamiga mulkdor deb xis etmas ekan, o'z huquqlari uchun, pirovard natijalar va ishlab chiqarish samaradorligi uchun kurashmaydi. Jamiyatda barqarorlikni saqlab qolish va himoya qilishga intilmaydi. Chinakam mulkdorlar sinfi xam mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni izchil amalga oshirish xisobiga, xam kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish, qimmatli qog'ozlar bozorini yaratish xisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish yo'li bilan shakllantiriladi.

Bizning mamlakatimizda ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish vazifasi qo'yilgan. Bunda ustuvorlik xususiy mulkka, kichik va o'rta biznesga berilmokda.

O'lkamizning o'ziga xosligi, ishchi kuchining xaddan tashqari ko'pligi, rivojlangan qishloq xo'jalik va xom ashyo bazasi, aholining an'analari, ruhiyati kichik va oilaviy biznesni, xususiy tadbirkorlikni faol rivojlantirishni ob'ektiv zarurat qilib qo'yadi.

Milliy davlatchilik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati negizlarining tiklanishi, mustaqil taraqqiyot bosqichlari. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishning birinchi bosqichi I.A. Karimovning O’zbekistonning davlat raxbari lavozimiga kelishi bilan bog’liq. (1989 yil 23 iyunda). Vaxolanki I.A.Karimov raxbarligida O’zbekistonning mustaqillikka erishishi va demokratik, xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo’lida dastlabki amaliy qadamlar qo’yildi:- Uning tashabbusi bilan 1989 yil 15 avgustda «kolxozchilar, savxoz ishchilari, shaxsiy tamorqa xo’jaliklari va individual uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish to’g’risida» maxsus qaror qabul qilindi. SHu yilning to’rt oyi axoli qo’shimcha 90,7 ming gektar er oldi. Qisqa muddat ichida 1,5 mlndan ko’proq oilaning tomorqa uchastkalari kengaytirildi, tomorqaga etolmay yurgan 580 ming oila unga ega bo’ldi. 1989 yil 21 oktabrda «Oliy Kengashning XI sessiyasida O’zbekistonning davlat yili xaqida»gi qonuni qabul qilindi. Xalqimizning madaniy, mahnaviy, siyosiy xayotida g’oyat muxim voqea sodir bo’ldi. 1990 yil 24 martda O’zbekiston SSR Oliy Kengashi sessiyasi boshqaruv tizimini tubdan islox qilish, prezidentlik lavozimini joriy qilish to’g’risida qaror qabul qildi va O’zbekistonda ittifoqdosh respublikalar ichida birinchi bo’lib prezidentlik lavozimi joriy qilindi. 1990 yil 20 iyunda O’zbekiston SSR Oliy Kengashi XII chaqiriq 2-sessiyasida «Mustaqillik dekloratsiyasi» qabul qilindi. 12 moddadan iborat Dekloratsiya qabul qilingandan keyin O’zbekistonning iqtisodiy va siyosiy xayotiga doir masalalar mustaqil tarzda xal qilina boshladi. Buning tasdig’i sifatida 1991 yil 22 iyul O’zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezididumi qarorida Prezident xuzuridagi Vazirlar Maxkamasiga ittifoqqa bo’ysunuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning O’zbekiston SSR xuquqiy tobeligicha o’tmish tartibini belgilash vazifasini topshirilishini keltirishimiz mumkin. Prezident I.A.Karimovning dadil va oqilona siyosati tufayli O’zbekiston o’z mustaqilligini qo’lga kiritdi. 1991 yil 31 avgust Oliy Kengashning navbatdan tashqari sessiyasida O’zbekiston mustaqil davlat deb eolon qilindi. O’zbekiston SSRning nomi O’zbekiston Respublikasi deb o’zgartirildi. Xar yili 1 sentabr mustaqillik bayrami sifatida nishonlanadigan bo’ldi. SHu sessiyada « O’zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to’g’risida»gi Qonun qabul qilindi va u vaqtincha konstitutsiya rolini o’ynadi. 1991 yil 29 dekabrda o’zbek xalqi o’z xoxish irodasi bilan O’zbekiston Respublikasi Prezidentini sayladi. Saylov muqobil asosda o’tdi. Saylovchilarning 86 foizi I.Karimovga, 12,3 foizi Saloy Madaminovga ovoz berdilar. SHunday qilib saylov to’g’risidagi qonunning 15-moddasiga asosan I.Karimov O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb topildi. Mustaqillikka erishgandan keyin davlatimiz va xalqimiz oldida bizga o’tmishdan meros bo’lib qolgan majrux iqtisodiyotni sog’lomlashtirish, barqaror rivojlanish mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga o’tishning xuquqiy asoslarini yaratish, xalqimizning mahnaviy ruxiy tiklanishini tahminlashdek muxim vazifalar turar edi. Iqtisodiy

isloxlarning bosqichma-bosqich va izchillik bilan amalga oshirilishi iqtisodiy barqarorlikka erishish, shuning bilan birga axolini ijtimoiy ximoya qilish tadbirlari ko'rilganligi mamlakatda barqaror ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tahminlash imkonini beradi. Ko'pmillatli jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, fuqarolar o'rtasida tinchlik va millatlararo totuvlik saqlanganligi mustaqil O'zbekistonning bunyod bo'lishi va rivojlanishining birinchi bosqichida qo'lga kiritilgan eng asosiy yutuq bo'ldi. Rivojlanishning birinchi bosqichida amalga oshirilgan isloxlatlar tufayli demokratiyani yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish uchun zarur shart sharoiti yaratadi. Anashulardan biri ko'ppartiyaviylik tizimini shakllantirishdir. 1995 yil 23-24 fevralda chaqirilgan birinchi sessiyada O'zbekiston parlamenti xokimiyat vakillik organlaridan saylangan 120 kishidan iborat deputatlar blokini, 69 deputatdan tarkib topgan Xalq demokratik partiyasi fraksiyasini, 47 deputatni uyushtirgan «Adolat» sotsial demokratik partiya fraksiyasini, 14 deputat ishtirokida «Vatan taraqqiyoti» partiyasi fraksiyasini ro'yxatga oldi va ular Oliy Majlis ishida faol ishtirok etdilar. Mamlakatimizda demokratik jamiyat qurish borasida birinchi bosqichda amalga oshirilgan ishlar quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi: Birinchidan, jamiyatda amalga oshirilgan o'zgarishlar nechog'li teran, murakkab va keng ko'lamli bo'lsa barqarorlik, tinchlik va uning aozolari o'rtasida totuvlik shuncha mustaxkam bo'ladi. Ikkinchidan, siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy soxadagi xar qanday, eng katta o'zgarishlar xam yaratuvchilik axamiyatiga ega bo'lmog'i lozim. Eng asosiysi- oldin o'tgan avlodlarning mexnati, peshona teri va qoni evaziga vujudga keltirilgan barcha narsalarni buzish emas, balki saqlay bilishdir. Uchinchidan, bozor munosabatlariga yo'l ochib beruvchi xuquqiy meoyorlani ishlab chiqish ustida uzluksiz ishlash zarur. Qabul qilingan qarorlarni izchillik bilan amalga oshirish, kishilarning turmush sharoitini yaxshilash zarur. To'rtinchidan, jamiyat va xalqni ekstremistlardan, siyosiy buzg'unchilardan asrab avaylash, dushmanlik va qarama-qarshilik urug'ini sochishga xar qanday urinishlarning payini qirqish kerak. (Biz, tinchlik, totuvlik, o'zaro yordam orqali xar qanday qiyinchiliklarni engib o'tish mumkinligiga ishonch xosil qildik. Tinchlik va barqarorlik bular xalqaro xamjamiyat bilan birlashtiruvchi vositadir. Insonparvarlik, yaxshilik, sofdillik singari umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilgan va birgalikda baxam ko'rgan mamlakatgina, xalqigina butun dunyo yoshlariga yaqin va tushunarli bo'lishi jaxon xamjamiyatiga qabul qilinishi mumkin. Islox qilishning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tomonlari o'zaro bog'liq bo'lib, bir butunni tashkil qiladi.

Faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish. Ma'lumki, o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o'ta muhim bir maqsadga, ya'ni hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy printsipini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko'rishga qaratilgan edi.

Bu jarayonda markaziy ijro etuvchi hokimiyatning boshqaruv tuzilmalari va mahmuriy organlarning vazifalarini o’zgartirishga, ularning boshqarish, tartibga solish va taqsimlash borasidagi vakolatlarini, xo’jalik tuzilmalari faoliyatiga bevosita aralashuvini keskin qisqartirishga katta ehtibor berildi. Boshqacha aytganda, ularning vakolatlarini bozor tamoyillariga muvofiqlashtirish va pirovard natijada davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini jiddiy kamaytirish ko’zda tutilgan edi.

Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini Respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o’tkazish, O’zbekistonda mahalliy o’zini o’zi boshqarishning noyob shakli bo’lgan mahalla tizimini shakllantirish masalalariga katta ahamiyat qaratildi.

Ikki Palatali milliy parlamentimizni tashkil etish masalasi bo’yicha 2002 yil 27 yanvarda o’tkazilgan referendum yakunlari va shu asosda «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to’g’risida»gi konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning asoslarini belgilab berdi.

Bundan ko’zlangan asosiy maqsadlar parlament tomonidan o’z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida o’zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini shakllantirish, qonun ijodkorligining sifatini jiddiy ravishda oshirish, umumdavlat va hududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishishdan iborat edi. Bu borada tarkib jihatidan asosan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari vakillaridan tashkil to’gan yuqori Palata — Senatning hududlar manfaatlarini ifoda etishi, quyi — Qonunchilik Palatasi esa o’z faoliyatini doimiy professional asosda amalga oshirishi hisobga olinganini aytib o’tish lozim.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilinishi. Barchamizga ayonki, mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining dastlabki bosqichida, ya’ni 1991 yildan 2000 yilgacha bo’lgan davrda ulkan o’zgarishlarni amalga oshirishda asosiy ehtiborimiz markazlashtirilgan mahmuriy-buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotining asoslarini, avvalambor, qonunchilik bazasini shakllantirish uchun sharoit yaratishga qaratildi.

SHu borada qabul qilingan o’ta muhim qonun va normativ hujjatlar qatorida Fuqarolik, Yer, Soliq va Bojxona kodekslari, «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to’g’risida», «Banklar va bank faoliyati to’g’risida», «CHet el investitsiyalari to’g’risida», «CHet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to’g’risida»gi qonunlarni qayd etish mumkin.

Islohotlarimizning keyingi bosqichida «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risida», «Xususiy korxona to’g’risida», «Valyutani tartibga solish to’g’risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to’g’risida», «Fermer xo’jaligi

to’g’risida»gi qonunlar, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi va iqtisodiyotni isloh qilish bo’yicha umumiy hisobda 400 dan ziyod qonun hujjatlari ishlab chiqilib, qabul qilindi va joriy etildi. Ularning barchasi iqtisodiyotimizni yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilishda nafaqat mustahkam huquqiy asos, balki amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ortga qaytmasligining kafolati bo’lib xizmat qilmoqda. SHu bilan birga, xolisona tahlil, islohotlarimizning mantiqi va izchilligi, ularning eng zamonaviy bozor normalariga muvofiqligini baholash iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada chuqurlashtirish, takomillashtirish va liberallashtirish bo’yicha jiddiy ehtiyoj mavjudligini ko’rsatmoqda.

Axborot sohasidagi huquq va erkinliklarni ta’minlanishi. Bugun biz demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so’z yuritar ekanmiz, albatta, axborot erkinligini ta’minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o’z fikr va g’oyalarini, sodir bo’layotgan voqealarga o’z munosabati va ‘ozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo’lmasligini o’zimizga yaxshi tasavvur etamiz.

Ma’lumki, fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta’minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o’z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o’zida mujassam etgan bo’lib, bu O’zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini bar’o etishning muhim sharti, tahbir joiz bo’lsa, tamal toshi hisoblanadi.

Mamlakatimizda o’tgan yillar davomida, ayniqsa oxirgi 10 yilda ommaviy axborot vositalarini yanada liberallashtirish, so’z erkinligini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Yurtimizda avvalo ommaviy axborot vositalari rivojini ta’minlaydigan, demokratik talab va standartlarga to’la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Ushbu davrda ommaviy axborot vositalarini erkin va jadal rivojlantirishga, axborot sohasining samarali faoliyat ko’rsatishini ta’minlashga qaratilgan 10 ga yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi.

«Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to’g’risida»gi Qonunnin qabul qilinishi har kimning axborotni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalga oshirishda, shuningdek, axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

So’nggi yillarda yangi tahrirdagi «Ommaviy axborot vositalari to’g’risida»gi Qonunga, shuningdek, «Telekommunikatsiyalar to’g’risida», «Reklama to’g’risida», «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to’g’risida»gi va boshqa bir qator qonunchilik hujjatlariga tegishli o’zgartish va qo’shimchalar kiritildi. Bu esa yangi siyosiy shart-sharoitlarda ommaviy axborot vositalari sohasidagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ta’minladi. SHu bilan birga, nodavlat

ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, ularning axborot sohasini demokratlashtirishda faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli institutsional islohotlar amalga oshirildi.

Nodavlat ommaviy axborot vositalarini qo’llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida bir qancha jamoat tashkilotlari tashkil qilindi. O’z tarkibida 100 dan ortiq elektron ommaviy axborot vositasini birlashtirgan Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O’zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi shular jumlasidandir.

Yuridik va jismoniy shaxslarning, axborot texnologiyalari va tizimlarini qo’llagan holda, axborot resurslaridan foydalanish mexanizmlarini belgilab bergan yangi tahrirdagi «Axborotlashtirish to’g’risida»gi Qonunning qabul qilinishi ommaviy axborot vositalarini modernizatsiya qilishni jadal rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O’zbekistonda keyingi yillarda sunhiy yo’ldosh aloqa tarmog’i orqali teleradiodasturlarni tarqatish yo’lga qo’yildi. Bugungi kunda mamlakatimiz telekommunikatsiyalar tizimi dunyoning 180 ta mamlakatiga 28 ta yo’nalish bo’yicha to’g’ridan-to’g’ri chiqadigan xalqaro kanallarga ega. Yurtimizdagi teleradiokanallar tomonidan tayyorlanayotgan ko’rsatuv va eshittirishlar Internet global tarmog’i orqali real vaqt rejimida jahonga uzatilmoqda.

Dunyodagi yetakchi mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash milliy tizimining takomillashtirilishi axborot sohasidagi faoliyatning sifati va saviyasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimida ko’p jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’ldi.

Bunday keng miqyosdagi ishlar natijasida faqat keyingi 10 yilning o’zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko’payib, bugungi kunda ularning umumiy soni qariyb 1200 taga yetdi. Mavjud barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari O’zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tilida faoliyat olib boradi, shuningdek, bosma materiallar va teleko’rsatuvlar ingliz tilida ham tarqatilmoqda.

Yana bir muhim yangilik efir orqali uzatiladigan materiallarni tayyorlash jarayoniga zamonaviy raqamli va multimedia texnologiyalari joriy qilinayotganida namoyon bo’lmoqda. Yurtimizda Internet tizimidan foydalanuvchilar safi jadal surhatlar bilan kengayib bormoqda. Bugungi kunda ularning soni 6 milliondan ortib ketgani ham buni tasdiqlab turibdi. Mamlakatimizda fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta’minlash borasida amalga oshirilgan keng

ko’lamli ishlarni tanqidiy baholar ekanmiz, muhim bir masalaga alohida ehtibor qaratishimiz zarur, deb o’ylayman. Ya’ni, bu o’rinda ga’ ommaviy axborot vositalari va davlat hokimiyati organlari o’rtasidagi munosabatlarning ustuvor jihatlarini to’g’ri belgilash, jumladan, ommaviy axborot vositalari faoliyati ustidan nazorat qilishning iqtisodiy mexanizmlarini, axborot manbalarining yo’iqligini, shuningdek, tahririyatlarga hokimiyat organlari va mahmuriy tuzilmalar tomonidan bo’layotgan Ma’lum darajadagi bosimlarni bartaraf qilish bilan bog’liq muammoli masalalarni hal etish haqida bormoqda.

Demokratik saylov tizimining shakllantirilishi. Erkin saylov va o’z xohish-irodasini erkin bildirish printsiplari, birinchi navbatda har bir shaxsning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish bo’yicha konstitutsiyaviy huquqi milliy davlatchiligimiz modelining asosini tashkil etadi. Saylovlar – bu mamlakatimizda amalda bo’lgan huquqiy normalarning nechog’liq demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, xalqning o’z xohish-irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo’lib, o’ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masaladir.

SHu munosabat bilan o’tgan davr mobaynida yurtimizda samarali, demokratik saylov tizimini shakllantirish va rivojlantirish sohasida g’oyat chuqur o’zgarishlar amalga oshirilganini tahkidlash o’rinlidir.

Ma’lumki, Konstitutsiyamizga, shuningdek, «Saylovchilar huquqlarining kafolatlari to’g’risida»gi hamda yangi tahrirdagi «O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to’g’risida», «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to’g’risida», «O’zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to’g’risida»gi qonunlarga 2003 va 2008 yillarda tegishli o’zgartish va qo’shimchalar kiritildi.

SHu bilan birga, ushbu davrda mazkur sohaga oid ko’plab qonun hujjatlari qabul qilindi. Bularning barchasi milliy saylov tizimining izchil va bosqichma-bosqich liberallashuvini, ikki Palatali parlament saylovlarining qonun talablari va umumehtirof etilgan xalqaro printsip va normalarga to’la mos holda o’tkazilishini ta’minlaydigan mukammal qonunchilik bazasining shakllanishiga olib keldi.

Ushbu qonunlarda davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlarning faqat ko’ppartiyaviylik asosida o’tkazilishi qathiy belgilab qo’yildi. Mamlakat Prezidenti lavozimiga, Qonunchilik Palatasi deputatligiga nomzodlarni siyosiy ‘artiyalar tomonidan, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlarni esa — siyosiy ‘artiyalarning joylardagi tegishli organlari tomonidan ko’rsatilishi to’g’risidagi printsipial qoida mustahkamlandi. Deputatlikka nomzodlarning davlat hokimiyati ijro organlari tomonidan ko’rsatilish amaliyoti bekor qilindi va bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o’zgarishlarni chuqurlashtirish yo’lidagi printsipial qadam bo’ldi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi. O’zbekiston bosib o’tgan keyingi o’n yillik davr aholining keng qatlamlari qo’llab-quvvatlaydigan turli xil fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarning jadal shakllanishi va rivojlanishi davri bo’ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Konstitutsiyamizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy printsiplarning mustahkamlab qo’yilgani barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida 5100 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda va bu ko’rsatkich 2000 yilga qaraganda 2,5 barobar ko’pdir. Fuqarolar yig’inlari va o’zini o’zi boshqarish organlari – mahallalar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi. Bular qatorida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, O’zbekiston xotin-qizlar qo’mitasi, «Sog’lom avlod uchun», «Nuroniy» jamg’armalari, «Ijod» fondi, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi va boshqa jamoat tashkilotlarini sanab o’tish mumkin.

Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o’z salohiyatlarini ro’yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta’minlashga ko’maklashmoqda.

Mamlakatimizda Ombudsman, Inson huquqlari bo’yicha milliy markaz, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi inson huquqlari bo’yicha milliy institutlar va boshqa bir qator tashkilotlar faoliyat ko’rsatmoqda.
O’tgan davr mobaynida mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani ham bu soha rivojiga bo’lgan katta ehtiborni ko’rsatadi.

Aytish kerakki, fuqarolik jamiyati institutlari tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarini tobora rivojlantirish, ularning mustaqil ish yuritishi va chinakam mustaqilligini ta’minlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy jihatdan qo’llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to’g’risida»gi Qonunnin qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

So’nggi yillarda «Jamoat fondlari to’g’risida»gi, «Homiylik to’g’risida»gi qonunlar, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «O’zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko’maklashish chora-tadbirlari to’g’risida»gi

qarori va boshqa qator hujjatlar qabul qilindi va ular fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim omil vazifasini bajarmoqda.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasining ishlab chiqilishi va uning ahamiyati. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi ma’ruzasida (2010 yil 12 noyabr) Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi bayon qilindi. Mazkur kontsepsiyada davlat va jamiyat rivojlanishining eng ustuvor yo’nalishlari sifatida quyidagilar ko’rsatib o’tildi:

I. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish

II. Sud-huquq tizimini isloh etish

III. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so’z erkinligini ta’minlash

IV. O’zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta’minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish

V. Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish

VI. Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish.

5-mavzu: O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy va umuminsoniy demokratik tamoyillari

Reja:

1. Milliy madaniy meros va qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishda aks etishi.
2. O’zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg’unlashuvi.
3. Milliy-ma’naviy o’zgarishlarning davlat va jamiyat qurilishida aks etishi.

Demokratik jamiyatning milliy va umumbashariy tamoyillari. «Milliy madaniyatning o'ziga xosligini tiklashga alohida e'tibor berilishi kerak. Shu bilan birga milliy o'z-o'zini anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatlari ideallaridan, bizning ko'p millatli jamiyatimiz an'analaridan ajralib qolishi mumkin emas»,-deydi O'z.R. Prezidenti I.Karimov.

O'zbekiston o'z mustaqilligini ko'lga kiritgandan boshlab jamiyatimizning barcha sohalari qatori ma'naviy hayotimizda xam ulkan o'zgarishlar ro'y bermokda. Biz barpo etayotgan davlat avvalo umumjahon sivilizatsiyasiga, davlat qurilishi sohasida taraqqiy etgan boshqa xalqlar erishgan tajribalarga va o'zimizga xos milliy an'analarga, ijtimoiy qadriyatlarga asoslanmoqda.

Yoshlarimiz xalqona, umuminsoniy qadriyatlardan nechoglik ko'p saboq olsalar, ularning tafakkurlari boyib, akl-idroklari charxlanib boradi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati, ularning jamiyatimizni yangilashdagi, inson ma'naviy barkamolligi, dunyoqarashi, yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishdagi o'rni, milliy, umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligi, milliy qadriyatlarimizning jahon xamjamiyatiga kirishdagi vositachilik roli kabi masalalarni baholi qudrat yoritib berishga harakat qilinmoqda.

O'zbek sovet ensiklopediyasida qadriyatga shunday ta'rif berilgan: «Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning insoniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. qadriyatlarni mazmuni va harakteriga ko'ra progressiv va reaksion tiplariga ajratish mumkin».

Qadriyatlar muayyan jamiyat va sinfga mansub kishilar turmushi va madaniyatining xaqiqiy yoki ideal ne'matlari bo'lgan tabiat va jamiyat hodisalarining mohiyatidir. Bu ne'matlarning qadriyatlar deyilishiga sabab kishilar ularni qadrlaydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi. Shuning uchun xam kishilar o'z tasarruflaridagi qadriyatlarni himoya kiladilar va o'zlari uchun maqsad va ideal bo'lgan qadriyatlarni amalga oshirishga intiladilar.

Demokratiya-milliy va umuminsoniy qadriyat ekanligi. Insoniyat taraqqiyotining xozirgi bosqichida davlat qurilishining oliy, madaniy shakli demokratiyaning umumjaxon tan olgan tamoyillarida xam yaqqol ko’zga tashlanadi, ular: -Xalqning erkin xoxish-irodasi;

-Fuqarolarning teng xuquqliligi;

-Inson xuquqlarining ustuvorligi;

-Xokimiyat organlarining saylab quyilishi;

-Ularning saylovchilarga bo’ysunishi;

-Tayinlash yo’li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylab qo’yiladigan organlar oldida xisob berishga burchliligi;

-Xokimiyat tarmoqlarining taqsimlanganligi.

Qadriyat tushunchasi va uning mohiyati. Qadriyat keng qamrovli, ko'p ma'noli, xikmatli so'zdir. O'z qadrini bilgan kishigina boshqalarning qadriga yetadi. O'z milliy qadriyatlarini xurmat kilgan, e'zozlagan insongina o'sha xalq vakili, degan ulug' unvonga sazovor bo'ladi. Milliy qadriyat xalq o'tmishiga, buguni va kelajagiga, fan va madaniyat taraqqiyotiga, milliy ahloq-odobga yuksak xurmat belgisidir.

Qadriyat insonning ma'naviy extiyojini qondirishga xizmat qiladigan, shu bois insoniyat tomonidan qadrlanadigan, madaniy, ma'naviy mafkuraviy, siyosiy,

iqtisodiy omillarning majmuidir.

Eng oliy qadriyat insonning o'zidir, lekin sho'rolar davrida inson qadrlanmadi. Xalqimizning ulug' farzandlari Yusuf Xos Xojib, Axmad Yugnakiy, Ibn Sino, Beruniy, Axmad Yassaviy, Amir Temurlar qadr topmadilar. Alisher Navoiy, Bobur, Ulug'bek, Mashrab, Nodirabegim singari zukko allomalar feodalizm davri namoyandalari deb kamsitildi, ularning boy betakror meroslarini o'rganish ta'qiqlandi. Xalqimizning ma'naviy boyligi hisoblangan «Alpomish» dostoni tazyiqqa uchradi, Alpomish mehnatkash xalq vakili, olijanob fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan kaxramon sifatida emas, aksincha, konxo'r bek, zolim sifatida talqin etildi. «Muqimiy» nomli musiqali drama teatri repertuaridan xalq sevib tomosha qiladigan «Alpomish» spektakli olib tashlandi.

Mustaqillik sharofati tufayli «Suv sayli», «Anor sayli», «Qovun sayli», «Uzum sayli» kabi bayramlarimiz qayta tiklandi. Mazkur bayramlar to'kin-sochinlik, farovonlik, tinchlik, osoyishtalik ramzi sifatida, xalq orzulari, istaklari, intilishlari ifodasi sifatida qadrli sanalardi. Kur'oni Karimning o'zbek tiliga o'girilishi va nashr ettirilishi katta voqea bo'ldi. Bugungi kunga kelib Abu Iso Muxammad at-Termiziyning «Shamoili Muxammadiya», Nosiriddin Burxoniddin Rabg'o'ziyning «xissai Rabg'o'ziy», Axmad Yassaviyning «Xikmatlar»i, Amir Temurning «Temur tuzuklari»ning chop etilishi milliy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirish yo'lida katta yutuq bo'ldi. Amir Temur tavalludining 660 yilligi, Imom al-Buxoriyning 1225 yilligi, Al-Fargoniyning 1200 yilligi, 1998 yil «Alpomish» dostoni yaratilganining 1000 yilligi nishonlandi. Yuqorida nomlari zikr etilgan ajdodlarimiz jahon madaniyatiga munosib xissa qo'shganlar.

Prezident Islom Karimov O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy va umumbashariy tamoyillarga tayanish to’g’risida. «Milliy madaniyatning o'ziga xosligini tiklashga alohida e'tibor berilishi kerak. Shu bilan birga milliy o'z-o'zini anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatlari ideallaridan, bizning ko'p millatli jamiyatimiz an'analaridan ajralib qolishi mumkin emas»,-deydi Prezidentimiz I.Karimov. 1999 yil 14 aprel kuni ochilgan Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» deb nomlangan ma'ruzasida Prezident I.A. Karimov mamlakatimizni yangi asr arafasi va uning dastlabki yillaridagi rivojlanish strategiyasini belgilab berar ekan, «jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish»ni ustuvor yo'nalishlardan ekanligini alohida ta'kidlab, ma'naviyatga mukammal ta'rif berish bilan birga bu sohada bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim masalani xam aniq ko'rsatib o'tdi:

«Erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Boshqacha aytganda, biz o'z xak-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarlarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un xolda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak». Shu ma'noda har bir inson ruhida Borlik xaqiqati bilan uyg'unlik xosil etishga har taraflama ko'maklashish «Milliy ma'naviyat asoslari» fanining asosiy maqsadi bo'lib qoladi.

Har bir mustaqil millat o'z hayot tarzini, kelajagini ajdodlarning tarixiy tajribasi

va jahondagi ilg'or tamoyillar uyg'unligi asosiga ko'rsa, yanglishmaydi. Bunday mustaqil rivojlanish yo'li istiqlolning dastlabki yillaridan e'tiboran O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqildi va o'tgan yillar mobaynida izchil amalga oshirib kelinmoqda. Ma'naviyat insondagi yaratuvchilik qudratidir, insonda shu qudratni uyg'otish va harakatga keltirishga muvaffaq bo'linsa, barcha ulug'vor rejalarni amalga oshirish uchun voqe' imkon vujudga keladi. Masalaga bugungi jahon taraqqiyotining ilg'or tamoyillari darajasida yondoshilsa, milliy ta'limning eng muhim vazifasi xam ana shu imkonni shakllantirish, ya'ni yosh avlod ruhida yaratuvchilik qudratini uyg'otib, uni bashariyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muayyan o'zanlar sari yunaltira bilish bilan belgilanadi. Ma'naviyat poydevori baquvvat bo'lmasa, unday insonning butun gayrati, jushkin faoliyati, oxir natijada, xalq va vatan uchun, bashariyat kelajagi uchun, qolaversa, uning o'z shaxsi uchun qanday xulosaga olib keladi, aytish qiyin.

Milliy madaniy meros va qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishda aks etishi. Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning barchasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini chinakam erkin xis etishi, o'z mehnati natijasining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini ta'minlashga haratilgandir. Vatan mehri oliy qadriyatdir. O'z Vatanini sevmagan millatning, qadriga yetmagan kishi o'zganing xam, bashariyatning xam, kurrai zamin obodligining xam qadriga yetmaydi. Vatanga sadoqat - xaqiqatga sadoqatning, millatga mehr, ahli basharga mehrning ibtidosidir. Busiz na adolat g'alaba qiladi, na xaqiqat yuzaga chiqadi, na insonning o'z shaxsiga extiromi shakllanadi. Chunki Vatan mehrini yo'kotgan shaxs xaqi tagidagi zaminni yo'kotadi, go'yo tayanchsiz muallaq qoladi. Vatanga muxabbat ajdodlar merosiga qiziqish, milliy ma'naviyatdan baxramandlik, o'z shaxsiy saloxiyatiga ishonch, umumbashariyatga xurmat, kelajak oldida mas'ullik tuyg'ularini tarbiyalaydi. Demak, mustaqillik ma'naviyati ona-yurtga muxabbatdan, millat manfaatlariga sadoqatdan boshlanadi, har bir shaxsning o'z ichki imkoniyatlarini Vatan manfaati yo'lida unumli rivojlantirishi bilan namoyon bo'ladi, unda milliy ma'naviy merosdan umumbashariy qadriyatlardan og'ishmaslik, ilg'or tajribalarni ijodiy o'zlashtirish ishtiyoqi tug'iladi.

Demokratik jamiyat barpo etishda milliy qadriyatlarni tiklashga bo’lgan zarurat. Istiqlolga erishish mamlakatimizda yashaydigan barcha millatlarning qadriyatlarini saqlash va takomillashtirish uchun katta imkoniyatlar ochdi. Yurtimizda umrgo'zaronlik qiluvchi fuqarolarimiz O'zbekistonning mustaqilligini mustaxkamlash asosida demokratik jamiyat qurmokdalar. Bu jarayonda umuminsoniy va milliy jixatlarning uyg'unligini ta'minlash extiyoji qadriyatlar omilidan yanada unumli foydalanishni zaruriyatga aylantiradi.

Demokratiyani milliy manfaatlarga zid “zo’rma-zo’rakilik” bilan joriy qilib bo’lmasligi. Mamlakatimizda demokratik, xuquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda, xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizning ijtimoiy faolligini oshirishda «O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanining axamiyati katta. Unda O’zbekiston davlati misolida demokratik xuquqiy davlat va yangi jamiyatga xos bo’lgan xodisa va voqealar, jarayonlar, qo’lga kiritilgan yutuqlar, saboqlar ilmiy taxlil qilinadi.

Fuqarolarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik jamiyat qurishning maqsadlari, uning shakllanishi va rivojlanishining milliy-mahnaviy negizlari, demokratik jamiyat to’g’risidagi g’oyalar, qarashlar bilan tanishtiradi. Demokratiyani fuqarolarning ong va tafakkuriga singishida, ishonch va ehtiqodlariga ko’chishda muxim o’rin tutadi. Demokratik jamiyat qurishning qonuniyatlarini bilishda, uning jaxonda ehtirof etilgan tamoyillarini xar bir mamlakat va xalqning milliy, mahnaviy xususiyatlari bilan bog’liq xolda amalga oshirish zarurligini xis etish va unga amal qilish ko’nikmalarini shakllantiradi. Xaqiqiy demokratiya bilan soxta demokratiyaning farqini ko’rishda, uni baxolab, munosabat bildirishda, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muxim o’rin tutadi.

Milliy qadriyatlar va demokratik tamoyillar o’rtasida mutanosiblikka erishishning jahon tajribasi. «Har bir oqil insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi, aytish mumkinki, hayotning ma'nosi - qobil farzandlar o'stirish, ularni xam jismoniy, xam ma'naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko'rish, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratdir». Insonning ma'naviy, ahloqiy kamoloti nihoyatda keng, ko'p qirrali, mazmun-mohiyati jihatdan chuqur tushunchadir. Jamiyatimizda ro'y berayotgan ma'naviy yuksalish, insonning ahloqiy, g'oyaviy, siyosiy kamoloti mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy uyg'onish jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir.

Ma'naviy barkamol inson o'ziga munosib ko'rmagan biron-bir nojo'ya ishni o'zgalarga xam ravo ko'rmaydi, hech bir kishiga aziyat yetkazmaydi. Vatanga va millatga sodiqlik xam madaniyatlilik, ma'naviy barkamollik, ahloqiy poklikning eng yuksak namunasi hisoblanadi. Jismoniy baquvvat, ma'naviy-ahloqiy jihatdan yetuk bo'lmasdan turib shaxs barkamol bo'lolmaydi. Ma'naviy, jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash bu boradagi ishlarning asosiy mohiyati va yo'nalishini tashkil etadi. Jismoniy sog'lom, baquvvat, lekin ma'naviy qashshoq kishilar insoniyat uchun foydadan ko'ra ko'prok zarar keltiradi. Sog'lom ijtimoiy muhitgina shaxsiy kamolot zaminiga aylana oladi. «Badan tarbiyaning fikr tarbiyasiga xam yordami bordur, - deydi Abdulla Avloniy «Turkiy Guliston yoxud ahloq» asarida, jism ila rux ikkisi bir choponning o'ng ila tersi kabidir. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustini qo'yib, astarini yuvib ovora bo'lmoq kabidirki, har vaqt ustiga kir chiqadur».

O’zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg’unlashuvi. Xozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi taraqqiyot muammolari va kelajagi umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarning ahamiyatini nihoyat darajada oshirdi va ularni jahon sivilizatsiyasining hayotiy zaruriyatiga aylantirdi. Chunki bu muammolarni faqatgina yer yuzidagi barcha xalqlar va davlatlar birgalikda xamjixatlik bilangina xal qilishlari mumkin.

Urf-odat va an'analari hamda dini, tarixiy o'tmishlari, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy manfaatlari xilma-xil, hattoki, bir-birlariga zid bo'lgan millat va elatlarni taraqqiyotning turli bosqichida, hattoki, karama-karshi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda turgan xalqlarni bir-birlariga yaqinlashtirishda, ularni qaysi millat va elatga, sinf va ijtimoiy guruhga mansub bo'lishlaridan qat'i nazar bir inson farzandi ekanliklarini xis etishida va bu omilning ustuvor omil ekanligini tushunib yetishida hamda shu

asosda jahon xamjixatligini vujudga keltirishda umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarning axamiyoti beqiyosdir.

Demokratik tamoyillarga amal qilish shart-sharoitlari. Asosiy Qonun – Konstitusiyada belgilab qo'yilganidek, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning muqaddas ramzlari – Davlat Gerbi, Davlat Bayrog'i, Davlat Madhiyasiga ega. Ular ma'naviyatimizning eng muhim timsollari xamdir. Davlat ramzlari uning tuzumini, Xalqning tabiati-mentalitetini, iqtisodiy asoslarini, ma'naviyatini, ona-Vatanga iftixor va cheksiz xurmatni va boshqa muhim belgilarni anglatadi. Davlatimiz ramzlari-bayrok, tamg'a, madxiya O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, gururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e'zozlash-o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustaxkamlash demakdir. O'z mamlakati bilan faxrlanadigan inson juda ko'p narsalarga qodirdir. Bu esa oilaning xam, o'z Vatanining xam shon-shuxratini oshiradi.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan keyin mamlakatda davlatni idora etishning zamonaviy va samarali shakli-prezidentlik shakli tizimi qaror topa boshladi. 1991 yil 18 dekabrda Oliy Kengashning navbatdagi YIII sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi tug'risida» qonun qabul qildi. 1991 yil 29 dekabrda mustaqil O'zbekiston Respublikasida birinchi marta butun Xalqning xoxish-istagini ifoda etgan Prezident saylovi bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi muqobillik asosida bo'ldi. Saylovda 9 million 900 ming 958 kishi qatnashdi. Bu barcha saylovchilar umumiy sonining 94,2 foizini tashkil etadi. islom Abdug'aniyevich Karimov nomzodi uchun 8 milion 514 ming 136 kishi yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi ovoz berdi. Islom Karimov – umumxalq ovozini qozonish yo'li bilan saylangan O'zbekistonning birinchi Prezidentidir. Prezident saylovi O'zbekistonning butun xududida chinakam demokratik asosda, fuqarolarning yuksak darajadagi faol ishtiroki bilan o'tkazildi. Dunyoning AKSh, Turkiya, Malaziya va boshqa mamlakatlaridan kelgan xolis kuzatuvchilar O'zbekiston Prezidenti saylovini uyushqoqlik bilan puxta tashkil etilganligini alohida ta'kidladilar. O'zbekiston davlat mustaqilligini jahon xamjamiyati, Xalqaro jamoatchilik qo'llab-quvvatladi. Xozir dunyodagi 165 mamlakat O'zbekiston davlat mustaqilligini tan olgan. Tarixda ilk bor, 1992 yilning 2 martida O'zbekiston Xalqaro huquqining teng huquqli sub'ekti, mustaqil, yosh suveren davlat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi va BMT binosi oldida uning Davlat Bayrog'i kutarildi. Mustaqillik siyosiy sohada – O'zbekistonning milliy manfaatlari va istiqboliga mos keladigan ichki va tashqi siyosatni o'zi istaganicha, biron-bir buyuk davlatning ta'siri doirasiga tushib qolmasdan, buyruklarga quloq solmasdan, o'z xalqi irodasi asosida olib borish va amalga oshirish huquqiga ega bo'lishdir.

Qonun ustuvorligi. Demokratik jamiyatning eng muxim belgilaridan biri-jamiyat a’zolarining qonun oldidagi tengligini, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligining ta’minlanganligidir.

«Qonun ustuvorligini ta’minlash shaxs, oila, jamiyat va davlatning xuquq va manfaatlari muxofazasini kuchaytirish, axolining xuquqiy madaniyati va xuquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo’ysunish va xurmat ruxida tarbiyalash-bu

rivojlangan bozor iqtisodiga asoslangan chinakam demokratik, xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muxim sharti xisoblanadi. Qonun ustuvorligining moxiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qator moddalarida belgilab berilgan. Masalan Konstitutsiyaning III bobi (15-16 moddlar) Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga bag'ishlangan.

Konstitutsiyaning 15 moddasiga muvofiq «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar».

O'z faoliyatini Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq amalga oshirish sanab o'tilgan cub'ektlarning Konstitutsiyaviy burchi bo'lib xisoblanadi. Agarda davlat organlari, nodavlat tashkilotlar mansabdor shaxslar yoki fuqarolar o'zlarining bu burchlarini bajarmasalar ularga nisbatan tegishli javobgarlik choralari qo'llaniladi.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etmagan shaxslarning javobgarligi Konstitutsiyaning o'zida yoki tegishli qonun xujjatlarida mustaxkamlab qo'yilgan. Masalan, Konstitutsiyaning 92-moddasining 12-bandiga muvofiq Konstitutsiyani qonunlarni buzgan tuman va shaxar xokimlarini respublika Prezidenti o'z qarori bilan lavozimdan ozod etishga xaqli. Aytish lozimki, Konstitutsiya normalari boshqa qonunlarning normalariga nisbatan ustunlik xarakteriga ega. CHunki Konstitutsiya boshqa barcha qonunlar uchun poydevordir.

SHuning uchun xam Konstitutsiyaning 16-moddasida mustaxkamlangan qoidaga binoan «Birorta xam qonun yoki boshqa normativ-xuquqiy xujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelish mumkin emas » Agarda birorta normativ-xuquqiy xujjat Konstitutsiyaga zid keladigan bo'lsa, u bekor qilinishi lozim.

Demokratiya va shaxs erkinligi. Huquqiy davlat o'zining insonparvarlik mohiyati, adolatparvarligi, boshqa xislat va fazilatlariga kura inson, uning moddiy, ma'naviy manfaatlariga tamomila zid bo'lgan sobiq sovet davlatining keskin farq kiladi. Sovet tuzumi davrida yerlar, suvlar, korxonalar, umuman barcha jonli va jonsiz buyumlar davlat mulkiga aylantirildi. Barcha mulk turlari va daromadlar davlatning ixtiyoriga o'tkazildi. Natijada bor-yo'g'idan ayrilib va shilinib qolgan xalqning davlat tomonidan belgilangan arzimas maoshidan boshqa hayot manbai qolmadi.

Davlat maosh vositasida mehnatkash ommani xoxlagan tomonga ergashtirib yurdi. Xalq davlatga iqtisodiy qaramlik xolatida majburan ushlab turildi. Shu boisdan xalq davlat va partiyaga ko'r-ko'rona sajda qildirildi. «Xammamizga ma'lumki", -deydi bu xaqda Yurtboshimiz, - "biz so'nggi 70 yil mobaynida davlatga qaramlik va sig'inish xolatida yashadik. Mamlakatdagi barcha boyliklarning, mulkning egasi davlat deb xisoblab keldik. Qaysi masalani olmaylik, davlat manfaati birinchi o'rinda, fuqarolar, shaxs manfaati esa deyarli xisobga olinmasligi eski Konstitusiyalarning har qaysi moddasida yaqqol qo'zga tashlanar edi». Sovet davlati mexnat axlidan xususiy mulkka ega bo'lish huquqiy tortib olib, «yagona davlat mulki egaligini» shakllantirdi. Totalitar tuzum davrida «davlat mulki», «shaxsiy mulkdan» ustuvor hisoblandi. Sho'ro tuzumi davrida odamlar ongida o'rnashib qolgan yaramas bir odat, ko'nikma bor edi: uzoq yillar

davomida odamlar miyasiga, bizda xamma narsa davlat mulki, - degan g'oya chuqur singdirib yuborilgandi. Buning oqibatida sobiq mamlakatda million-millionlab insonlar, barcha jumhuriyatlar va ulardagi qanchadan-qancha xalqlar, millatlarning umumiy mehnatlari, chekkan azob-uqubatlari evaziga yaratilgan barcha mol-mulklar, boyliklar va daromadlar egasiz bo'lib qoldi. O'sha tizimda mulk hech kimniki emasdi, balki mavxum «umumniki» edi. Davlat mulki – «umumniki» degan aqida natijasida kishilar mulkdorlik, mulkka egalik tuyg'usidan batamom mahrum qilingandilar. Odamlar bora-bora mulkdan, mulk esa odamlardan begonalashib qolgan edi. Eski mustabid tuzum davrida o'z mulkiga ega bo'lmagan kishi har qancha jon kuydirgani bilan undan o'ziga kutilgan foyda, moddiy manfaatdorlik yo'qligini oldindan bilgan, ko'rgan va chuqur ishonch xosil kilgan odamning jonini jabborga berib, kuch-g'ayratini sarflab, tashabbus ko'rsatib mexnat qilishi amri maxoldir. Sho'ro xukumati davrida kishilar ongida yaxshi ishlasang xam, yomon ishlasang xam baribir davlat boqadi, degan tushuncha chuqur singdirib yuborilgan edi. Bunday ishonch va xis-tuyg'ular kishilardagi mehnatga bo'lgan qiziqishni shaxsiy rag'batni, ijodiy tashabbusni bo'g'ib qo'ygandi. Natijada kishilarda boqimandalik kayfiyati, ko'r-ko'rona itoatkorlik, «qorni to'ysa bas» degan o'ta zararli xis-tuyg'u rivojlangandi. Buning oqibatida sovet davlati chuqur inqirozga mubtalo bo'lib, jar yoqasiga yaqinlashib qolgandi. Sovet davlati xalqimiz hayotiga zo'ravonlik yo'li bilan joriy etilgandi. U “sotsializm tuzumini” qurish va mustaxkamlash jarayonida millionlab kishilarni qirib tashladi, surgun qildi, qamoqxonalarni begunox kishilar bilan to'ldirib tashladi. U o'zining tub mazmun-mohiyatiga ko'ra markazdagi xukmronlar qo'lida milliy chekka xalqlarini, keng mexnatkashlar ommasini tiyib-tutib turish, itoatda saqlash uchun xizmat qiladigan daxshatli qurol, zulm mashinasi edi. Sovet davlatining shakli va mohiyati, xalqlarning ahloqiy, ma'naviy va ruhiy qadriyatlariga tug'ri va mos kelmaydigan tizimga asoslangan edi. U xalqka ishonmas va suyanmas edi.

Fuqarolarning huquq va manfaatlarining ustuvorligi oliy demokratik qadriyat ekanligi. Milliy mustaqillikning dastlabki davridayoq mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishning xuquqiy asoslari yaratildi. Konstitutsiyaning 29-moddasidagi «Xar kim fikrlash, so’z va e’tiqod erkinligi xuquqiga ega..», 32-moddasidagi «O’zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita xamda o’z vakillari orqali ishtirok etish xuquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o’z-o’zini boshqarish, referendumlar o’tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo’li bilan amalga oshiriladi», 34-moddasidagi «O’zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish ommaviy xarakatlarda ishtirok etish xuquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy xarakatlarda, shuningdek xokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning xuquqlari, erkinliklari va qadr qimmatini xech kim kamsitishi mumkin emas», 43-moddasidagi «Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustaxkamlangan xuquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi», kabi fuqarolik jamiyati qurishning demokratik qadriyatlari va tamoyillari shakllanishini tahminlaydigan qonun va qoidalarning kiritilishi O’zbekiston jamiyatining kelajak maqsadlarini belgilab berdi.

Demokratik taraqqiyotning xilma-xilligi. Ma'lumki, u yoki bu davlatning umumjaxon tizimida egallab turgan mavqeini belgilash uchun ko'p yillar mobaynida o'sha mamlakatning axolisi, xarbiy imkoniyati, ijtimoiy infratuzilmasi va aloqa vositalari xamda geografik joylashishi xisobga olingan.

XXI asrga kelib yer yuzida shunchalik ulkan siljishlar sodir bo'ldiki, endilikda, bu ko'rsatgichlar davlatning jaxon siyosatida tutgan o'rnini belgilashda birdan-bir asos bo'lmay qoldi.Ye r kurrasi bugun xar doimgidan ko'ra murakkab va taxdidlidir. SHu bois bunday paytda dunyoda o'rnini belgilash yo'lida bekamu-ko'st ish olib borish zarur. Agar mustaqilligimizning dastlabki paytlarini ko'z o'ngimizga keltirsak, bu murakkab davrda o'z o'rnimizni aniq belgilash jarayonida baozan noaniqliklar bilan to'qnash kelgan paytlar xam bo'ldi. Bu tabiiy, ammo keyingi taraqqiyot yillarida O'zbekiston o'z manfaatlari xavfsizligini tahminlash borasida zarur xulosalar chiqarish va ulkan manbalarni qo'lga kiritishga erishdi.

Dunyoda turli xalqlar, turli madaniyatlar bor joyda demokratiya o'ziga xos milliy xususiyatlarga, qadriyatlarga tayansa, o'zining amaliy samarasini berishi mumkinligi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatdiki, u yoki bu mustaqil davlatning jaxon siyosiy maydonidagi urnini boshqa birov belgilab bermaydi. Bu yulda jiddiy muammolarga e'tiborini qaratgan va paydo bo'lgan barcha savollarga javob topgan xolda dunyo voqealarining shiddatli o'zgarishlariga davlatning o'zi xar doim tayyor turishi kerak.

Mamlakatimiz Prezidenti O'zbekiston fuqarolarining xar biri uchun oliy neomat bo'lgan mustaqillik to'g'risida so'z yuritar ekanlar, uni jamiyat rivojining asosi, bugungi va uzoq istiqboldagi taraqqiyotimizning sharti, barcha isloxotlarimizning mezoni va nixoyat, barchamiz amal qiladigan bosh tamoyil deb atadi.

Milliy faoliyatining o'zagi bo'lgan mustaqil jamiyat aozolari oldiga mustaqillik yangi-yangi vazifalarni qo'yib boradi va bajarilishini talab qiladi. Taraqqiyotning xar bir bosqichi bu muammolar va ularni bartaraf etish yulidagi yangi vazifalar demakdir, deb ta'kidlaydi davlatimiz boshlig'i. Katta va kichik millatlar, davlatlar va qolaversa xalqaro xamjamiyat tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, vujudga kelgan muammolar yechimida sustkashlik qimmatga tushishi mumkin. Zotan xar qanday muammo boshqa qator xavf – xatarlarni keltirib chiqaradiki, bu o'z navbatida xar qanday davlat taraqqiyotini ancha jiddiy murakkablashtiradi. Demak, mamlakat taqdiri uchun ma'sullikni o'z zimmasiga olgan xokimiyat tuzilmasi bu borada bir nafas xam beg'amlikka yo'l qo'ya olmaydi, doimo uyg'oq va xarakatda bo'lishi kerak.

Uning mahalliy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlarda namoyon bo'lishi. Mustaqillik – tom mahnoda inson erki, ozodligi, xamda xaq – xuquqlari bilan bog'liq bo'lgan ulkan qadriyat. Xar qanday mustaqil davlat o'zini siyosiy mustaqilligini bevosita fuqarolar taqdiri bilan bog'liq bo'lgan erkin jamiyat va ozod shaxs timsoli sifatida ko'rsatmog'i lozim.

Demak mustaqillik milliy taraqqiyot yulini erkin tanlash uchun beqiyos imkoniyat yaratdiki, bu nuqtai nazardan mustaqillikni demokratiya uchun shart – sharoit deb xisoblasak bo'ladi. Bunday tarixiy paytlarda bugun va kelajak bir –biriga chanbarchas bog'liq ikki muamoning aniq echimiga borib taqaladi.

Birinchidan, u – demokratiya borasida jaxon xalqlari tajribasini olish va

Ikkinchidan, undan omilkorlik bilan foydalanish, yaoni demokratiyadan millat ravnaqi manfaatlari yulida foydalanish bilan bog'liq vazifalarni xal qilish kerak.

Ularni biri, yaoni jaxon demokratik tajribasidan foydalanish masalasi, nixoyat darajada murakkab, millatdan ulkan intilektual va ruxiy qudratni talab qilishini inobatga olish aloxida axamiyatga ega. Zero, bu masala bevosita millatning demokratiyani jamiyat taraqqiyotining muxim vazifalaridan biriga aylantirish qobiliyati, saloxiyati bilan o'lchanadi. Demak O'zbekistonda bu masala qanday echimini topdi va unda O'zbekistonning xissasi qanday bo'lganligiga ehtiborni qaratish foydadan xoli emas.

Terrorizmning demokratik jamiyat qurishga qarshi qaratilgan xavf-xatar ekanligi. Terrorizm bu insoniyatning ashaddiy dushmani. Xalqaro tinchlik va osayishtalikka tahdid solayotgan hozirgi davrning o'ta salbiy ijtimoiy hodisasi. Aniqroq qilib aytganda terrorizm – millati, dini va ma'lum hududi yo'q ofat, XXI asrning dahshatli vabosi. U bugun vujudga kelmagan, qadim-qadimdan mavjud.

Terrorizm so'zi lotincha – terrore so'zidan olingan bo'lib dahshat , vahima, falokat ma'nosini anglatadi. Terrorizm qadim va o'rta asrlar davrida boylik orttirish uchun kurashgan bir guruh qaroqchi, banditlar harakati ko'rinishida bo'lgan. XIX asr o'rtalaridan bu harakat «o'ta inqilobiy harakat», fitnachilar, qo'poruvchilar harakati shaklini oldi.

Masalan Rossiyada narodniklar chiqishi va boshqa XX asr o'rtalaridan boshlab terrorizm keng siyosiy tus oldi, ko'p mamlakatlarga yoyildi, xalqaro xarakter shaklini oldi. insoniyatga behisob fojealar keltirdi. U qaysi mamlakatda sodir bo'lmasin surbetlarcha oddiy xalq va din nomidan ish ko'radi. o'zini go'yo xalq manfaatini va dinning sofligini ko'zlovchilar sifatida ko'rsata boshladi.

Halqaro terrorizmning mohiyati va maqsadi nimadan iboratq Terrorizm bu – begunoh odamlarni, xususan davlat va jamiyat rahbarlarini suiqasd yo'li bilan o'ldirish, garovga olish, jamoat binolari, turar joylar, ijtimoiy ob'ektlarni, transport vositalarini portlatish yo'li bilan xalqni hukumatdan narozi qilish, parokandalikni vujudga keltirish orqali hokimiyatni qo'lga olishga qaratilgan jinoiy guruh harakatidir.

Mustaqillik va O'zbekiston jamiyati ma'naviy negizlarining o'zgarishi.

«Ma'naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi», - deb yozgan edi Prezident mustaqillikning dastlabki yillaridayoq. Keyinchalik «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida bu g'oya yanada muayyanlik kasb etib, ma'naviyat «insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch» sifatida ta'riflandi. Xo'sh, bu sehrli qudrat, bu botiniy kuch qanday bunyodga keladiq Man'aviyat tushunchasining ta'rifi, biz ba'zan osongina xal qilib qo'ya qolmoqchi bo'lganimizdek, oddiy lisoniy jumboq emas,»ma'no»,"ma'ni» so'zlarining bugungi biz tushungan mazmuni bilan yechilmaydi. Jaloliddin Rumiyning buyuk irfoniy asarida bexudaga «Masnaviyi ma'naviy» nomi bilan shuxrat taratgan emas. Bu yerdagi «ma'no» tushunchasi oliy bir mazmunni anglatmoqda, ulug' allomalarimiz uni «Xaq asrori» deb ataganlar, zoxiriy nazarlar uchun u «g'ayb», agar bugungi ilmiy ifodalarga ko'chirsak, biz

zoxir ko'zimiz bilan ko'rib turgan cheksiz zamon va makonda cheksiz va xududsiz shakllar majmuini to'zg'itib yubormay, g'oyat bir murakkab tizimda ushlab turgan ichki uyg'unlik, inson ongi hech qachon to'liq anglab yeta olmaguvchi yaxlit mohiyatdir. Shaxs ma'naviyati Ayni shu behudud manbaidan quvvat oladi.

Prezidentimizning ta'riflari shu yaxlit mohiyatga tutash botiniy qudratga aloqadordir, uni boshqa, ikkilamchi hodisalardan, voqelik unsunlaridan keltirib chiqarishga urinish muammoni teran ilgamaslikni bildiradi. Butun mustaqil va farovon O'zbekistion atalmish buyuk voqeilikni vujudga keltirish uchun har bir insondan, millatning har bir vakilidan alohida ichki quvvat, cheksizlikka tutashtiruvchi botiniy kuch talab etilmokda. Ana shu kuch har bir inson ruhida yashirin, - deydi Prezident. O'zini mustaqil shaxs deb bilgan har bir inson uni o'zi uchun kashf etishi kerak. Buning uchun, avvalo, ruhimizdagi xudbin mayllarni, yolg'on xoyu-xavaslarni, ruyolarni yengib o'tib, cheksiz qudrat manbaiga qalbimizni ochishimiz lozim. Sovet davrida bizda, birinchi navbatda, falsafa, qolaversa, boshqa barcha inson va jamiyatga oid fanlar xam Yevropa madaniyati an'analari asosida, uning xam asosan bir yo'nalish-marksistik materializm yo'nalishi bilan bog'liq xolda shakllandi. Hatto o'z ma'naviy merosimizni xam begona qoliplarga moslab o'rganishga urindik. Shunday ekan, bugungi kunda milliy ma'naviyatimizni nazariy asosda jiddiy o'rganishga kirishishimiz bejiz emas. O'zbek xalqining ma'daniyati, ma'naviyati hech qachon jahon madaniyati, ma'naviyatidan tamomila ayru, alohida bir yo'ldan rivojlangan emas. Xamisha boshqa xalqlar ma'naviy boyligini ijodiy o'zlashtirib, o'zi xam jahon madaniyatini boyitib borgan. Shu bilan birga millatimizning o'z mustaqil ma'naviy qiyofasi mavjud, u asrlar, balki ming yillar davomida shakllangan, u umuminsoniy qadriyatlarga yot emas, ammo Borlikning oliy xaqiqatiga nisbatan o'z talqinlari, o'z yondoshuvi, o'z tushunchalariga ega. Inson ruhida tabiatga nisbatan, o'zgalarga nisbatan mehr va adolat tuyg'ulari shakllanishiga uning moddiyligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan nafsi ammorasi, ya'ni g'aflat, shaxvat va kibr kabi qusurlar doimo xalaqit berib turadi, shuning uchun har bir kishi hayotga, o'z faoliyatiga sergak boqishi lozim. Ushbu illatlar har bir inson fitrati bilan bog'liq bo'lgani tufayli inson moddiy mavjudot sifatida tirik ekan, ulardan butkul qutulish umidi xom hayol, faqat ularni muvozanatlovchi kuch kerak. Ayni shu kuch-ma'naviyatdir.

1999 yil 14 aprel kuni ochilgan Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» deb nomlangan ma'ruzasida Prezident I.A. Karimov mamlakatimizni yangi asr arafasi va uning dastlabki yillaridagi rivojlanish strategiyasini belgilab berar ekan, «jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish»ni ustuvor yo'nalishlardan ekanligini alohida ta'kidlab, ma'naviyatga mukammal ta'rif berish bilan birga bu sohada bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim masalani xam aniq ko'rsatib o'tdi:

«Erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Boshqacha aytganda, biz o'z xak-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarlarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un xolda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak».

“Ma’naviy tiklanish” va “ma’naviy yangilanish” tushunchalari**. Milliy qadriyatlarimizda jahonning boshqa xalqlariga o’xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an’analardagi o’ziga xoslik ham bor. Mahlumki, qadriyatlar mahlum sharoitlarda shakllanadi. SHu sababli ular mahalliy, milliy, mintaqaviy shakllar va umuminsoniy mazmunda mavjud bo’ladi. Mahalliy qadriyatlarning eng yetuklari va umummilliy manfaatlarga moslari asta-sekin saralanib umummilliy darajaga ko’tariladi. Milliy muhit qadriyatlarni yaratish va saralashning asosiy manbaidir: u mahalliy qadriyatlarning eng yaxshilarini o’z darajasiga ko’taradi va ularni voyaga yetkazib, jahon miqyosiga olib chiqadi yoki aksincha. Umumin-soniy qadriyatlarni o’zidagi har bir kishining boyligiga aylanti-radi. Har bir millatning o’z milliy qadriyatiga munosabati qancha-lik ehtiyotkor va faol bo’lsa, u millatning jahon hamjamiyatidagi o’rni, obro’si, unga ajratiladigan e’tibor, hurmat shu darajada baland nufuzi shu darajada yuksak bo’ladi.**

Mintaqaviy qadriyatlar – iqtisodiyoti, madaniyati, tarixi, tili, urf-odatlari, an’analari mushtarak bo’lgan xalqlar manfaat-lariga xizmat qiladigan tabiiy va ijtimoiy hodisalar majmuasini tashkil etadi. Mintaqaviy qadriyatlarga misol sifatida Markaziy Osiyo hududida istiqomat qiluvchi o’zbek, qozoq, tojik, qirg’iz, turkman xalqlariga xos bo’lgan qadriyatlarni eslatib o’tish mumkin. Bu diyorda unib o’sgan mazkur xalqlarning tarixi, tili, madaniyati, dini, urf-odatlari va an’analarida juda ko’p umumiylik mavjud. Ular hamisha bir-biriga og’aini bo’lib yashaganlar. Markaziy Osiyo xalqlarining asrlardan-asrlarga meros bo’lib kelayotgan jarayonida shakllangan va ko’plab og’ir sinovlarni boshidan kechirgan. Darha-qiqat, mintaqamiz xalqlari 3000 yildan ortiq davrni o’zida mujas-samlashtirgan Markaziy Osiyo tsivilizatsiyasini yarata olgan.

Markaziy osiyo xalqlarining milliy qadriyatlardagi o’ziga xos jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. **Tug’ilgan makon va ona yurtga ehtirom.**
2. **Ajdodlar xotirasiga sadoqat.**
3. **Kattalarga hurmat, yoshlarga izzat.**
4. **Insoniy muomalada mulozimat.**
5. **Hayo, andisha, vazminlik, sabr-toqat kabilarning ustuvor-ligi.**

Umuminsoniy qadriyatlar, eng avvalo jamiyat va inson uchun eng qadrli va uning ma’naviy kamoloti uchun xizmat qiluvchi umumijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi narsalar, hodisalar, faoliyat va boshqalarning nomi, ularni ijtimoiy ifodalash uchun ishlatiladigan tushun-chalar bo’lib hisoblanadi. Demak, umuminsoniy qadriyat deganda, jamiyat ahzolarining hammasi uchun umumiy ahamiyatga ega bo’lgan va har bir kishining hayotiga ijobiy tahsir etadigan, kishilarning xatti-harakati, amaliy faoliyati, yashash tarzi, boshqalarga munosa-bati ham umuminsoniy qadriyatlarning mezoni sifatida baholanadi. Masalan, erkinlik, tinchlik, tenglik, mustaqillik, birodarlik, demokratiya va h. k.

Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishda milliy-ma’naviy merosning yangicha ma’no va mazmun kasb etishi. O`zbekiston o`z mustaqilligini mustahkamlash,

jahon hamjamiyatida o`zining munosib o`rinni e'gallash jarayonida siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda kishilar tafakkurida tubga o`zgarish,- milliy g'oya– milliy- mafkurani shakllanish jarayoni kechmoqda. Bu jarayon uchinchi ming yillik arafasida amalga oshmoqda. SHu munosabat bilan Prezident I. Karimovning quyidagi so`zlari o`ta ibratlidir: «Biz kelgusi asrga o`zimiz bilan nimani olib o`tishimiz mumkin? Va nimalardan voz kechishimiz darkor?. YAngi ming yillikda qanday muammoalrning echimi bizning diqqat e''tiborimiz markazida turmog'i lozim? «Bu fikr madaniy va ma'naviy merosimiz muammolarini hal qilishda asosiy dasturiy amaldir.

Madaniy meros- bu o`tmishdan qolgan qadriyatlar, g'oyalar, tajriba, bilimlar ularni o`zlashtirish yo`llari, ya'ni kishilarning ijodiy faoliyat usullari va uni tashkil qilish hamda uning natijalardir. Uzlashtirish yoki aniqrog'i, madaniy meros jarayoni o`ta muhim bo`lib, madaniyatning harakatdagi asosiy qonunlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon insoniyatning o`tmishi, buguni va kelajagini bir butun holda birlashtirib, odatiy tarzda tayyor yutuqlarga aylanadi. Bor narsani izlash, ma'lum narsani ochish, qilingan kashfiyotni kashf e'tish kerak bo`lmaganidek, o`tmish ajdodlar qilgan ishni takrorlash shart e'mas. E'rishilgan yutuqlardan kelib chiqib jamiyat o`z maqsadlarini amalga oshirishning qisqa yo`llarini tanlaydi. Bundan tashqari ma'naviy meros kishilarning saviyasini behad kengaytiradi, ular hayotini aqliy va hissiy jihatdan boyitadi, bilimning tuganmas manbai bo`lib xizmat qiladi.

Utmish bilan batamom uzilish mumkin e'mas. Insoniyat tarixida mutlaqo yangi madaniyat yaratishga urinishlar bo`lgan, biroq bunday urinishlar hunuk natijalarga olib kelgan. Bunga 1920 yillarda Sovet Rossiyasida «Proletar madaniyatini» yaratishga urinishni yoki «Madaniy inqilob»ni misol tariqasida keltirish mumkin. Bu «Inqiloblar» jarayonida yangi madaniyat yaralmadi, aksincha bori ham qilindi: qo`lyozmalar, kitoblar, suratlar yoqildi; me'moriy yodgorliklar buzildi, e'ng achinarlisi madaniy qadriyat e'galari maxv qilindi. Oqibatda o`tmish bilan bog'liq uzviylik buzilib jamiyat ma'nan orqaga ketdi.

Madaniyatning me'yoriy rivojlanishi uni asrab kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirishni bildiradi. Biroq, bu jarayon oddiy va bir hilda kechmaydi. Ma'naviy qadriyatlarning mundarijasi, ularni qayta ko`rib chiqish va qayta baholash, ularning o`zaro bog'liqlik usullari, munosabat tiplari, bilimlarni asrash va uzatish, hayot me'yorlari, voqelikni e'stetik idrok qilish xususiyati o`zgarmasdan qolmaydi, ular uzluksiz harakatda bo`ladi. Meros serqirra va ko`p qiyofalidir. Uning aniq namoyon bo`lishi tiplarning ko`pligi, tendensiyalar xilma-xilligi bilan farqlanadi. har bir yangi avlodning vorislik mexanizmi o`tmishdoshlarning tajribasidan madaniyatning turli sohalarida farqlanadi: san'atdagi o`lcham fandagidan boshqacha; tabiiy fanlar gumanitar fanlardan farqli. Vorislik (meros) har qanday sohada insonning haqiqiy o`zlashtirishida namoyon bo`ladi, va ayni paytda mahalliy yoki dunyo miqiyosidagi jarayonlar shaklida ham ifodalanishi mumkin.

"Milliy-ma'naviy me'ros" tushunchasi, uning mazmun va mohiyati**.** **Madaniyatning me'yoriy rivojlanishi uni asrab kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirishni bildiradi. Biroq, bu jarayon oddiy va bir hilda kechmaydi. Ma'naviy qadriyatlarning mundarijasi, ularni qayta ko`rib chiqish va qayta**

baholash, ularning o`zaro bog'liqlik usullari, munosabat tiplari, bilimlarni asrash va uzatish, hayot me'yorlari, voqelikni e'stetik idrok qilish xususiyati o`zgarmasdan qolmaydi, ular uzluksiz harakatda bo`ladi. Meros serqirra va ko`p qiyofalidir. Uning aniq namoyon bo`lishi tiplarning ko`pligi, tendensiyalar xilma-xilligi bilan farqlanadi. har bir yangi avlodning vorislik mexanizmi o`tmishdoshlarning tajribasidan madaniyatning turli sohalarida farqlanadi: san'atdagi o`lcham fandagidan boshqacha; tabiiy fanlar gumanitar fanlardan farqli. Vorislik (meros) har qanday sohada insonning haqiqiy o`zlashtirishida namoyon bo`ladi, va ayni paytda mahalliy yoki dunyo miqiyosidagi jarayonlar shaklida ham ifodalanishi mumkin. Vorislikning mahalliy (cheklangan) shakli madaniyatning kasbiy (professional), milliy, e'tnik va boshqa ko`rinishlariga e'ga. Bu faoliyat madaniy bosqichlarda bir me'yorda, tekkis yo`nalish shaklllarida bo`lmay, uning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga sakrab o`tishi notekis bo`xronlar xususiyatiga e'ga. Insoniyatning ma'naviy yutuqlarini meros qilib qoldirishda vorislik keng miqyosli (umumiy) shaklda jarayonlar muffasal yo`nalishda amalga oshadi. Masalan, Qadimgi Misr zakovati «Injil», «1001 kecha e'rtaklari» kabi madaniyat yodgorliklariga ijobiy ta'sir qildi. YAna, er yuzidagi barcha xalqlarning zamonaviy bilim sohalariga zamin bo`lgan Bobil astronomiyasi, hind matematikasi, antik falsafa, rim huquqi haqida ham shunday gapirish mumkin.

Agar madaniyat va ma'naviyat sohalari tarkibida til, udumlar, an'analar va boshqalar bo`lsa, ma'lum xalqning madaniyat tarixi doirasida meros qoldirish jarayoni yaxshiroq kechadi. Boshqa sohalarda e'sa texnika, fan, san'at kabi sohalardagi bir xalqqa tegishli meros boshqa xalqlarga ham tegishli mulkka aylanadi.

Keyingi avlodlarga meros qoldirish uchun madaniyatda belgilangan usul va mexanizm mavjud. Ulardan ba'zilari qadimdan amal qiladi, bu – namoyish qilish, og'zaki uzatish, folklor, san'at; boshqa usullar keyinroq paydo bo`ldi, bu – kino tasviri, ohonrabo yozuvi, kompyuter xotirasi. Barcha jamiyatlarda ham haqaqatdan ma'naviy merosning foydalanish imkoniyatlarini o`zgartirish sharoiti bir xilda e'mas. Ular ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy omillar bilan belgilanadi. Bu omillar merosning hajmi, tanlash xususiyati, intensivligiga bog'liq. Bizga ma'lumki sovet jamiyatida kommunistik g'oya hukmronligi davrida xalqlar, xususan O`zbekistonda ham o`zining haqiqiy tarixiy, milliy va ma'naviy merosidan mahrum e'tilgan e'di. Umuman, madaniy merosdan mutlaqo mahrum bo`lgan yoki foydalanmagan jamiyat yoki xalqlar tarixda bo`lishi mumkin e'mas.

Milliy-ma'naviy negizlarga tayanish va ularni tiklashga bo'lgan zaruratning sabablari. **An'ana madaniyatda yangi odatlar bilan uyg'unlashib ketadi. Insonga nafaqat bilim, shuningdek, hayot faoliyatida an'anaviy ibratlar va yaxshi o`zlashtirilgan mahorat va ko`nikma ham zarur. Biroq, ijodkorlikning boshlanishi fikrlash jihatdan dastlabki e'slab tasvirlashdan ko`ra sermahsullikni vujudga keltiradi. Madaniyatning rivojlanish jarayoni ijodkorlikning sub'ekti sanalgan shaxsning shakllanishi jarayoni bilan birga kechadigan hodisadir, ya'ni, insonni nafaqat jamiyatda mavjud bo`lgan madaniy me'yorlar, an'ana va ibratlar, balki madaniy**

jarayonlarning rivojlanib borishi ham qo`llaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek milliy ma'naviy meros muammosi mamlakatimizda jamiyat uchun o`ta muhimlilik kasb e'tmoqda. CHorizm mustamlakachiligi davrida Turkiston xalqlarining madaniyatiga ular «qoloq» madaniyat deb past nazar bilan qarashgan. Keyin sovetlar davrida O`zbekiston xalqining madaniy merosiga bir yoqlama munosabat hukmronlik qildi. Tarixiy haqiqat, adabiyot va san'at asarlari «sinfiy kurash», «xalqchilik» kabi g'arib nazariya orqali baho berildi. Faqat kommunistik g'oyaga mos keluvchi narsalarga yutuq sifatida qaraldi, qolgan barchasiga hato deb yoki mutlaqo kishilar xotirasidan o`chirib tashlashga urinildi. I.A. Karimov «O`zbekiston XXI asr bo`sag'asida» kitobida ta'kidlanganidek, «Uzoq davom e'tgan qattiq mafkuraning tazyiqiga qaramay, O`zbekiston xalqi avloddan-avlodga o`tib kelgan o`z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o`ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo`ldi. «Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq, ajdodlarimiz tomonidan ko`p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oya ulkan bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo`lib qoldi[108].

Jamiyatimiz jadal tub o`zgarishlar holatini boshdan kechirmoqda. Bunday davrda har bir kishiga mustahkam tayanch zarur. Faqat milliy g'oya shunday tayanch bo`lishi mumkin. Faqat milliy g'oya islohatlar yo`lidan muvaffaqiyatli borish uchun millatni birlashtirishi va jipslashtirishi mumkin. O`zbekistonning kelajagi to`g'risida I.A. Karimov o`zining mulohazalarida birinchi darajali qilib milliy g'oyani shakllantirishni qo`yadi. Uning asosida xalqning haqiqiy tarixini qaytarish, milliy an'analarni tiklash, madaniy va ma'naviy merosni o`rganish yotadi. Xuddi shu g'oya – XXI asrda O`zbekistonning ozod fuqorolarining ma'naviyati shakllanishida katta ahamiyat kasb etib, ularning o`z Vatanini gullab- yashnashi uchun fidoiy bo`lishi, o`z xalqining buyuk o`tmishidan faxrlanuvchi millat farzandlari bo`lib shakllanishi uchun xizmat qiladi.

Demokratik jamiyat qurishda xalqimizning ko'p asrlik davlatchilik va jamiyat qurishdagi an'analarining hisobga olinishi**. O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda milliy tamoyillarning asosini tashkil etuvchi qadriyatlar ham alohida o'rin tutadi. Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillikning dastlabki kunlarida O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini belgilab berar ekan, milliy qadriyatlarning tiklanishi ijtimoiy-ma'naviy sohadagi eng muhim vazifalardan biri, deb ko'rsatdi. Milliy qadriyatlarni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.**

Negaki, biron-bir jamiyat ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Ayniqsa, bizning sharqda xalqning ming yillik milliy qadriyatlari uning uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Xalqimizning yaqin o'tmishidagi uzoq davom etgan kuchli mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq

bo’lganligi boisi ruhida, qalbida doimiy ravishda umumbashariy qadriyatlarga sodiq bo’lganligidir.

“Biz – deb ta’qidlaydi Islom Karimov, - ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o’zlikni anglashning o’sishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz”. Demak, O’zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning milliy, umumbashariy tamoyillarini har bir xalqning qadriyatlarisiz, alohida ajratib bo’lmaydi.

Tarixdan ma’lumki, O’rta Osiyo xalqlari azaldan bashariyat tafakkur xazinasiga ilm-fan, madaniyat taraqqiyotiga unutilmas hissa qo’shib kelganlar. Ajdodlarimiz tomonidan ko’p asrlar mobaynida yaratilgan asarlar, madaniyatning barcha sohalariga taalluqli nodir asarlar, qimmatbaho fikr-mulohazalar hozirgi kunda ham jahon xalqlari ma’naviy dunyosini boyitib, ularning ma’naviy kamolo-tiga xizmat qilib kelmoqdaki, bundan biz faxrlansak arziydi.

Ota-bobolarimiz bizga qoldirgan boy va rang-barang merosni, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularni zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan ijodiy boyitib, kelajak avlodning tafakkuri, dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirib, ularning bunyodkorlik faoliyatini oshirish - mustaqillik poydevorini mustahkamlashning asosiy garovidir. “Hozirgi eng mu-him va dolzarb vazifamiz, deydi Islom Karimov, jamiyatimiz a’zolarini, avvalambor voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol to’tirish, ularning qalbida milliy g’oya, milliy mafkura, o’z Vataniga nisbatan mehr-sadoqat tuyg’usini uyg’otish, o’zligini anglash, milliy va umubashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir”.

Agressiv millatchilik, milliy ayirmachilik, buyuk davlatchilik shovinizmi, ekstremizm va terrorizmning demokratiya va milliy-ma’naviy negizlarga zidligi. Halqaro terrorizm hozirgi paytda narkobiznes, diniy ekstremizm, diniy millatchilik, separatizm, davlat to’ntarishi kabi globol ijtimoiy illatlar bilan qo’shilib ketdi. Diniy ekstremizm, millatchilik g’oyasi bu harakatning asosiy mavkurasi, terrorizm esa uning amaliyoti bo’lib qoldi. O’ta havfli retsedevistlar, narkomanlar, jinoyatchilar soxta diniy g’oyalar bilan aldangan, siyosiy saviyasi past yoshlar bu harakatning sotsial bazasidir.

Hozirgi davrda terrorizm havfi har qachongidan ham daxshatli tus olayapti, avvalgiga nisbatan takomillashib, nihoyatda shavqatsiz bo’lib bormoqda. Ularning qo’lida eng havfli zamonaviy qurollar, hatto ximiyaviy, bakterologik qurollar to’planib, ishga solinmoqda. Dunyoning ko’pchilik davlatlaridan o’ta reaksion guruhlar ularni mablag’ bilan ta’minlamoqda. Afg’oniston jahonda 70% ga yaqin narkotik moddalar etkazayapti. Shundan keladigan daromadning asosiy qismi, Janubiy Afrika Respublika, Rodeziya, Angola olmos konlaridan, Iroq konlaridan olingan foydaning bir qismi terroristlar foydasiga Yuborilib kelingan. Afg’oniston, Janubiy Tojikiston, CHechiniston terroristlar tayyorlaydigan asosiy markazga aylanib qolgan. Bu erlarda terroristlar tayyorlaydigan harbiy maktablar-lagerlar doimiy ravishda ishlab turgan. Bu maktablarda turli millatlarga mansub josuslar, qo’poruvchilar tayyorlangan. Afg’onistonning Mazori Sharif, Q’andaxor, Q’unduz,

Q’obul, Jalolobod shaharlari atrofida 20 dan ortiq ana shunday harbiy lagerlar faoliyat ko’rsatgan. Ularga hatto O’zbekistondan (Farg’ona, Toshkent, Xorazm, Namangandan) ham aldangan, saviyasi past yoshlarning jalb qilingani ma’lum.

Ma’naviyat va ilm-ma’rifatning bosh mezoni-insoniylik, uning asosiy maqsadi-Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish. Insoniyat tarixi, aksiologik nuqtai nazardan, muayyan milliy-etnik qadriyatlarning vujudga kelishi, taraqqiyoti va tanazzuli, ularning o'rniga boshqalari vujudga kelishidan iborat murakkab muammo va jarayonlarni kamrab oladi. Bunday qarash g'oyat muhim va dolzarb masalaga, ya'ni millat milliy qadriyatlarining egasi sifatida o'z-o'zini saqlab turmog'i lozim, degan masalaga e'tibor berishga olib keladi.

Har bir millat o'z qadriyatlarining nafaqat yaratuvchisi, balki asrab-avaylovchisi va kelajakka yetkazuvchisi xamdir. Milliy qadriyatlarning saqlanishi uchun har bir millatning o'zi mas'uldir. Ushbu mas'ullik milliy rivojlanish jarayonida shakllangan ma'naviy burchning alohida shaxslarga emas, butun millatga xos namoyon bo'lishini anglatadi. Hatto xalq ma'lum bir davrda ozod bo'lmagan, siyosiy jarayonlar natijasida biron bir imperiyaga vaqtincha qaram bo'lganda xam unda o'z milliy qadriyatlarini saqlash tuyg'usi yo'qolib ketmaydi.

Milliy qadriyatlarning namoyon bo'lishi va tarixiy rivojlanishda ba'zi jixatlarga e'tibor bermok lozim. Ular: - kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta'minlaydigan etnik makonda shakllanadi, rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo'ladi, kishilarning ongiga, hayotiga o'ziga xos tarzda ta'sir qiladi;

- millatdoshlarning o'zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko'zga tashlanib turadi, ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, extiyoj va intilishlar uchun ma'naviy asos bo'ladi; - moddiy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda muayyan natija sifatida yuzaga kelishi kishilar uchun zaruriyat sifatida o'ziga xos ahamiyat kasb etishi xam mumkin; - ijtimoiy rivojlanish jarayonida o'zgarib, takomillashib, rang-barang jihatlar kashf etib boradi, doimiy yangilanib turadi, shu bilan birga avloddan-avlodga o'tadi, meros qoladi.

Milliy ma’naviy negizlarning demokratik jamiyat, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishdagi o’rni. Bizningcha, milliy qadriyatlarning quyidagilar bilan bog'liq shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- millatning tabiiy betakrorligi, o'ziga xosligi, tarixiy o'zgaruvchanligi va ijtimoiy rang-barangligi (genofondi); - millat tarixi, o'tmishi, kelajagi va ma'naviy merosi; - milliy xudud, moddiy va madaniy yashash sharoitlari;

- iqtisodiy asos va ijtimoiy ustqurma; - urf-odatlar, an'analar, marosimlar, turmush tarzi va boshqalardagi milliylik. - milliy til, milliy madaniyat va ma'naviyat, milliy ong va milliy rux, milliy tuyg'ular va g'oyalar.

Milliy qadriyatlar millatning o'zi bilan birga tarix silsilalari, zamona zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar orasidan o'tmishdan kelajakka tomon o'tib turadi. Ular, tabiatiga ko'ra, faqat tor doirada saqlanib qolmaydi, balki ravnaq topib, turmush jarayonida muttasil yangilanib, boyib boradi.

Har bir el, elat, urug' yoki xalqning urf-odatlarida, ularni bajarishdagi faoliyatida o'ziga xoslik bo'ladi. Agar ana shu o'ziga xoslikni o'sha aholi qadrlasa, ular milliy hayot va ongning bir qismiga aylangan bo'lsa, buning yomon joyi yo'k. Bunday o'ziga xoslik bilan bog'liq qadriyatlarni boshqa joyda, boshqacha tarzda

yashayotgan kishilarning tarozusi bilan o'lchash yoki bu masalada boshqalarning xakam bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Umuminsoniylik tuyg'usi faqat o'z xalqi qadriyatini ardoqlash, ko'z-ko'z qilishgagina asoslanmaydi. Balki har bir xalq, elat, ulug' qadriyatlarini xurmat qilishdan boshlanadi. Dunyoda son jixatidan ko'p yoki kamrok xalq bo'lishi mumkin, ammo madaniy va ma'naviy sohada bir-biridan kam yoki ortiq millat yo'k. Har bir millatning o'ziga xos o'tmishi, madaniy va ma'naviy qadriyatlari, milliy qahramonlari, boshqalar tomonidan e'tirof etilishi lozim bo'lgan urf-odatlari, qon-qardoshlik belgilari mavjud. Bu borada umuminsoniylik xamma millat va elatlarning qadriyatlarini asrab-avaylash, tarix tarozusi saqlab qoladiganlarini xurmat qilish va olamdagi milliy qadriyatlar turli-tumanligining tabiiy xilma-xillik bilan uzviy aloqada ekanligini anglashdan iboratdir.

Demokratiya, milliy-ma’naviy tiklanish va barqarorlik. Demokratiya dunyo taraqqiyotida umuminsoniy qadriyat sifatida turli xalqlar, millatlar tafakkuri va turmush tarziga singgan, e’tirof etilgan va shunga mos e’tibor berilayotgan amal qilib kelinayotgan boshqaruv uslubidir. Ayni paytda, ana shu umumiy qonuniyatning ikkinchi muhim jihatini hisobga olmaslik ham mumkin emas. Bu har bir xalqning hayot tarzi, mentaliteti, demokratiyani his etish, anglash va unga amal qilish xususiyatining mavjudligi bilan bog’liq. Hamma mamlakatlarbo’ yagona demokratik davlat barpo etish andozasi yo’q. Birini ikkinchisidan ustun qo’yish mumkin emas. Umuminsoniy qadriyatga aylangan demokratiyaning hamma uchun muhim va ahamiyatli bo’lgan jihatlarini tan olib, uning har bir xalq milliy-ma’naviy ruhiyati asosida qaror to’ishi va umuminsoniy hodisaga aylanishini e’tirof etish lozim. Yahni demokratiya milliylikni, milliy ruhiyatni hisobga olmasa, unga tayanmasa o’z mohiyatiga zid bo’lib qoladi.

Ma’naviy tiklanish va yangilanishning demokratik jamiyat qurilishidagi ahamiyati. Istiqlolga erishish mamlakatimizda yashaydigan barcha millatlarning qadriyatlarini saqlash va takomillashtirish uchun katta imkoniyatlar ochdi. Yurtimizda umrgo'zaronlik qiluvchi fuqarolarimiz O'zbekistonning mustaqilligini mustaxkamlash asosida demokratik jamiyat qurmokdalar. Bu jarayonda umuminsoniy va milliy jixatlarning uyg'unligini ta'minlash extiyoji qadriyatlar omilidan yanada unumli foydalanishni zaruriyatga aylantiradi.

«Har bir oqil insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi, aytish mumkinki, hayotning ma'nosi - qobil farzandlar o'stirish, ularni xam jismoniy, xam ma'naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko'rish, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratdir».

Insonning ma'naviy, ahloqiy kamoloti nihoyatda keng, ko'p qirrali, mazmun-mohiyati jihatdan chuqur tushunchadir. Jamiyatimizda ro'y berayotgan ma'naviy yuksalish, insonning ahloqiy, g'oyaviy, siyosiy kamoloti mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy uyg'onish jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir.

Ma'naviy barkamol inson o'ziga munosib ko'rmagan biron-bir nojo'ya ishni o'zgalarga xam ravo ko'rmaydi, hech bir kishiga aziyat yetkazmaydi. Vatanga va millatga sodiqlik xam madaniyatlilik, ma'naviy barkamollik, ahloqiy poklikning eng yuksak namunasi hisoblanadi. Jismoniy baquvvat, ma'naviy-ahloqiy jihatdan yetuk bo'lmasdan turib shaxs barkamol bo'lolmaydi. Ma'naviy, jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash bu boradagi ishlarning asosiy mohiyati va yo'nalishini tashkil

etadi. Jismoniy sog'lom, baquvvat, lekin ma'naviy qashshoq kishilar insoniyat uchun foydadan ko'ra ko'prok zarar keltiradi. Sog'lom ijtimoiy muhitgina shaxsiy kamolot zaminiga aylana oladi. «Badan tarbiyaning fikr tarbiyasiga xam yordami bordur, - deydi Abdulla Avloniy «Turkiy Guliston yoxud ahloq» asarida, jism ila rux ikkisi bir choponning o'ng ila tersi kabidir. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustini qo'yib, astarini yuvib ovora bo'lmoq kabidirki, har vaqt ustiga kir chiqadur». Allomalarimiz asarlarida ta'kidlanganidek, insonning ma'naviy kamolotida jismoniy va badan tarbiyasidan tashqari aqliy tarbiya va go'zallik tarbiyasining, shuningdek, ahloqiy, ruhiy tarbiyasining xam ahamiyati shak-shubxasizdir. Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli, uning o'zagi - ahloqdir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'tmishning buyuk mutafakkirlari va xalq donishmandligining ifodasi bo'lmish xurmali insonning qiyofasi uning ahloqiy sofligi bilan o'lchanishini ta'kidlaganlar. Navoiy ahloqni insonning qimmatbaxo libosidir, deb hisoblagan, Abu Ali ibn Sino hayo va iffatni insonda doim saqlanadigan xusn va latofat, deb baxolagan.

Ahloq insonning ma'naviy qiyofasini belgilovchi sifatdir. Ahloq ijtimoiy ongning muayyan shakli sifatida kishilarning yurish- turishlari, ularning jamiyat oldidagi burchi, mas'uliyati, o'zaro aloqalari ijtimoiy mehnatga munosabatlari singari harakatlarini tartibga soluvchi me'yoriy qoidalar yig'indisidan iboratdir. Jamiyat hayotida ahloq kishining ma'naviy qiyofasini, uning insoniylik darajasini belgilashning muhim me'yori bo'lib yuzaga chiqadi. Ilm insonning zexnini o'tkirlashtiradi, ahloqiylik uning dilini ravshanlashtiradi. Insondagi yaxshi xulqlar, ahloqiy fazilatlar rux va nafs tarbiyasining natijasidir. Shayx Baxovuddin Naqshband «Adab-xulqni chiroyli qilish, so'zni va fe'lni soz qilishdir. Adabni saqlash - muxabbat samarasi, yana muxabbat ruhi xamdir», - deb ta'kidlagani ma'lum. Shuning uchun xudbinlik, ahloqiy buzuqlik insoniylikka zid bo'lgan illatlar hisoblangan. Go'zal ahloq insonga xos yaxshi fazilat va barkamollikning ifodasi hisoblanadi. Go'zal ahloq sohibining barkamolligi jamiyatda boshqa odamlar uchun o'rnak bo'lib xizmat qiladi, uning amaliy xatti-harakatlari boshqalar uchun ibratdir. Millat xam go'zal ahloqlari, yaxshi fazilatlari tufayli yuksaladi, ahloqi buzilgan millat inqirozga uchraydi, tubanlashadi. Har bir millatning sog'lomligi va qudrati uning ahloqiy sofligidandir.

Xazrat Alisher Navoiy o'zining «Maxbub-ul Qulub»ida «odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir», deganlarida insondagi odamiylik va ahloqiylik fazilatlari ardoqlanadi.

Barkamol shaxs - barqaror taraqqiyot va demokratik jamiyat mezoni. Bugun biz insonni birinchi o'ringa qo'yib, uning yaratuvchilik fazilati, ijtimoiy faolligi, ma'naviy qudratiga urg'u bermoqdamiz. Chunki O'zbekistonning buyuk kelajagini shakllantiruvchi bosh omillar - shular. Ammo yuqoridagi kabi ta'riflarda inson moddiy borlikning bir unsuri sifatidagina e'tirof etilib, boshqa mahluqotlardan farqli mustaqil mohiyati soyada qolib ketmokda. Insonning mohiyati aslida murakkab bo'lib, ayni moddiyat va ma'naviyatning tutashuvi bilan izohlanadi. Ularning qay biri ikkinisi orqali ta'riflana boshlasa, inson mohiyati haqida bir yoqlama tasavvur xosil bo'la beradi. Bu sohada yo'l kuyilayotgan yana bir kamchilik ma'naviyatni madaniyat, ruhiyat, ahloq, tarbiya, did, dunyoqarash kabi

muayyan darajada o'zaro aloqador, ammo mohiyatan mustaqil hodisalar bilan korishtirib tushintirishga moyillik tarzida namoyon bo'lmoqdaki, bu masalani o'z o'rnida batafsil kurib chiqish lozim bo'ladi. Turli siyosiy uyushmalar, jumladan, davlat ushbu vazifaga mas'ul bo'ladilar. Iqtisod esa insonning moddiy mavjudligini ta'minlash vositasi bo'lib, u ishlab chiqarish, foydali yaratuvchilik mehnatiga aloqador.

Ma'naviyat insonning ruhiyati bilan bog'liq. Inson ruhiyati, albatta, tashqi ta'sirlar natijasida o'zgarib turadi. Insonning iqtisodiy ahvoli, jamiyatda to'tgan o'rni va mavqei uning ma'naviyatiga ta'sir qilmay qolmaydi. Ammo, baribir, ma'naviyat o'z mustaqil yo'nalishiga ega. Masalan, inson qanchalik boy, o'ziga to'q bo'lsa, shunchalik uning ma'naviy kamoloti yuqori yoki, aksincha, past bo'ladi, desak, har ikki xukmda xam yanglishib qolamiz. Alisher Navoiy, Xoja Axrori Valiy, Maxdumi A'zam, Xoja Sa'd Juyboriy kabi allomalar xam ma'naviy barkamol, xam nihoyatda badavlat bo'lishgan. Shu bilan birga, dunyo molidan yuz ugirgan, umrini zoxidlikda utkazgan buyuk allomalarimiz xam kam emas.

Milliy-ma’naviy o’zgarishlarning davlat va jamiyat qurilishida aks etishi. Siyosat va iqtisodning manbasi xam, maqsadi xam ushbu foniy dunyodan tashqarida emas. Inson zoti bu sinov dunyosiga kirib kelar ekan, undagi moddiy vujud iqtisodiy extiyojni tug'diradi, har bir tirik zot tug'ilgandan keyin kun kechirish tashvishiga tushadi. Siyosat jamiyatga oid tushuncha, insonlar jamiyati shakllangan ekan, unda turli shaxslar, toifalar manfaatlarini qaysidir bir usulda muvofiqlashtirib turish extiyoji mavjud. Ushbu extiyoj siyosatni paydo qiladi.

Ma'naviyat esa o'z manbasiga ko'ra xam, maqsadiga ko'ra xam bu foniy dunyodan tashqariga - bakoga yunalgan. Ma'naviyat asli bakoning fanoda zuxur etishidir. Ma'naviyat inson uchun moddiy extiyoj xam, siyosiy zarurat xam emas. Ma'naviyat insonning o'z mohiyati oldidagi mas'ulligidir. Uning mohiyati esa Borlik abadiyatiga daxldor. «Ma'naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi», - deb yozgan edi Prezident mustaqillikning dastlabki yillaridayoq. Keyinchalik «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida bu g'oya yanada muayyanlik kasb etib, ma'naviyat «insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch» sifatida ta'riflandi. Xo'sh, bu sehrli qudrat, bu botiniy kuch qanday bunyodga keladiq Man'aviyat tushunchasining ta'rifi, biz ba'zan osongina xal qilib qo'ya qolmoqchi bo'lganimizdek, oddiy lisoniy jumboq emas,»ma'no»,”ma'ni» so'zlarining bugungi biz tushungan mazmuni bilan yechilmaydi. Jaloliddin Rumiyning buyuk irfoniy asarida bexudaga «Masnaviyi ma'naviy» nomi bilan shuxrat taratgan emas. Bu yerdagi «ma'no» tushunchasi oliy bir mazmunni anglatmoqda, ulug' allomalarimiz uni «Xaq asrori» deb ataganlar, zoxiriy nazarlar uchun u «g'ayb», agar bugungi ilmiy ifodalarga ko'chirsak, biz zoxir ko'zimiz bilan ko'rib turgan cheksiz zamon va makonda cheksiz va xududsiz shakllar majmuini to'zg'itib yubormay, g'oyat bir murakkab tizimda ushlab turgan ichki uyg'unlik, inson ongi hech qachon to'liq anglab yeta olmaguvchi yaxlit mohiyatdir. Shaxs ma'naviyati Ayni shu behudud manbaidan quvvat oladi.

O’zbekistonda barpo etilayotgan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning ma’naviy yangilanish bilan bog’liqligi. Prezidentimizning ta'riflari shu yaxlit mohiyatga tutash botiniy qudratga aloqadordir, uni boshqa, ikkilamchi hodisalardan, voqelik unsunlaridan keltirib chiqarishga urinish muammoni teran ilgamaslikni bildiradi. Butun mustaqil va farovon O'zbekistion atalmish buyuk voqeilikni vujudga keltirish uchun har bir insondan, millatning har bir vakilidan alohida ichki quvvat, cheksizlikka tutashtiruvchi botiniy kuch talab etilmokda. Ana shu kuch har bir inson ruhida yashirin, - deydi Prezident. O'zini mustaqil shaxs deb bilgan har bir inson uni o'zi uchun kashf etishi kerak. Buning uchun, avvalo, ruhimizdagi xudbin mayllarni, yolg'on xoyu-xavaslarni, ruyolarni yengib o'tib, cheksiz qudrat manbaiga qalbimizni ochishimiz lozim.

O’zbekistonda adolatli, demokratik jamiyat barpo etishda milliy qadriyatlar va umuminsoniy demokratik tamoyillar bilan uyg’unlashtirilishining ahamiyati. **Mustaqillik yillarida xalqqa uning ma’naviy va madaniy boyliklarini qaytarish borasida ko`plab ishlar qilinmoqda. Dastlabki, e’ng muhim qadam «O`zbek tili haqidagi» qonunning qabul qilinishi bo`ldi. Bu bilan o`zbek tilidagi xalqning bebaho madaniy va milliy boyligi maqomi tiklandi. Buxoro va Xiva shaharlaridagi me’morchilik yodgorliklarini ta’mirlash borasida faol ishlar olib borilib, yodgorliklar shu davrda jahon ahamiyatidagi maqomga e’ga bo`ldi. Bu shaharlarning 2500 yilligi, Toshkentning 2000 yilligi kabi sanalar katta tantana bilan nishonlandi. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga qaramasdan milliy madaniyatni asrovchi yangi muzeylar barpo e’tildi: Temuriylar davri tarixi muzeyi. Olimpiya shon-sharafi muzeyi va O`zbekiston tarixi muzeyi yangi mazmunda boyitildi. Maqomchilar muzeyi va boshqalar dunyoga mashhur bo`ldi.**

Xalqqa o`z tarixi va xotirasi qaytarilmoqda. Milliy va jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa qo`shgan vatandoshlarimizning xizmatlari haqida yubiley tantanalari o`tkazildi. Utgan yillarda Navoiy, Bobur, Qodiriy, Behzod, A. Farg’oniy yubileylari nishonlandi. Alohida tantanalar bilan xalqaro miqiyosda Ulug’bekning 600- yilligi, Amir Temurning 660- yilligi, Imom Buxoriyning 1225 yilligi o`tkazildi. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi va «Alpomish» e’posining 1000 yilligi keng nishonlandi. Ayniqsa katog’on qurbonlarining begunoh xotirasi tiklanishi katta ahamiyatga e’ga bo`ldi. Ular orasida ko`plab madaniyat arboblarining nomlari bor: jadidchilik harakatining yo`lboshchilari, shoir va yozuvchilar-Munavvarqori Abdurashidxonov, A. Fitrat, CHo`lpon, Ramziy, Botu va boshqalar.

Milliy an’analarni tiklash bo`yicha ham ko`plab ishlar qilindi. Navro`z, hayit kabi qadimgi xalq va diniy bayramlar rasman hayotga qaytdi. xayr muruvvat udumlarini davom e’ttirish va yosh avlodni barkamol o`stirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Sog’lom avlod uchun jamg’armasini tashkil qilib, dastlabki ordenini ham shunday atadi. Nogiron bolalar uchun «Mehribonlik» kabi sahovat festivali muntazam o`tkazib kelinmoqda. O`zbekistonda xalqaro kino, teatr va «SHarq taronalari» kabi musiqali festivallar o`tkazish yaxshi an’anaga aylanib qoldi. Xalq bahshichilik san’atiga e”tibor kuchayib Respublika konkurslari o`tkazildi. SHuningdek milliy kurashimiz xalqaro maqomga e’ga bo`lib, birinchi jahon CHempionati o`tkazildi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, madaniy qadriyatlardagi vorislik jarayoni nafaqat milliy madaniyatlar rivojidagi vorislik bo`lmay, balki boshqa xalqlar madaniyatidagi yutuqlarni umumlashtirishdan ham iboratdir. Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi xalqlarning madaniyati qadim zamonlarda ham garb va SHarq mamlakatlari bilan yaqin madaniy aloqalar asosida rivojlangan. Madaniy hamkorlikning keng ko`lami, e’tnik va diniy mazmundagi cheklanmaganlik Vatanimiz madaniyatining asosiy xususiyatidir. xozirgi davrda ham milliy madaniyatni tiklashga asosiy e”tiborni qaratgan holda O`zbekiston xalqi jahon madaniyati va sivilizasiyasining zamonaviy yutuqlarini e’gallashga harakat qilib, jahon madaniyati rivojiga hissa qo`shmoqda. Bu borada jadal amaliy ishlar qilinmoqda: xalqaro konkurs va festivallar o`tkazildi, chet mamlakatlar madaniyat kunlari va san’at asarlari ko`rgazmasi namoyish qilindi, hind madaniyat markazi, fransuz madaniyat uyi singari doimiy faoliyat ko`rsatuvchi madaniyat markazlari ochildi; o`z o`rnida O`zbekiston madaniyatining o`ziga xos xususiyatlarini nazariy asoslash va uning jahon madaniyatidagi o`rnini munosib baholash ishtiyoqi ham kuchli. Buning dalili sifatida «Mirzo Ulug’bek va uning jahon sivilizasiyasiga qo`shgan hissasi» (1994). «O`zbekistonning jahonda tutgan o`rni va roli. Buxoro va jahon madaniyati» (1995), «Urta Osiyo va jahon sivilizasiyasi» (1998) kabi mavzularda o`tkazilgan xalqaro konferensiya va seminarlarni ko`rsatish mumkin.

O`zbekiston o`zining boy madaniy an’analari va jahon madaniyati jarayonlaridagi faol ishtiroki tufayli uning xalqaro miqiyosidagi mavqei tobora oshmoqda. Buning yaqqol misoli 1997 yilda YuNESKO ijroiya kengashi a’zoligiga O`zbekistonning saylanishi va 1998 y. 6 noyabrda Toshkentda YuNESKO ijroya kengashining 155 sessiyasini o`tkazilishidir. Unda O`zbekistonning taklifi bilan «Jahon madaniyat va YuNESKO ning a’zo davlatlaridagi faoliyati»degan hujjat qabul qilindi. Jahon madaniyatining ajlalmas qismi hisoblangan milliy madaniy merosni asrash va o`rganish rejasi bo`yicha O`zbekiston YuNESKO bilan o`zaro munosabatlarini yanada kengaytirishi va respublikada zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirishi mo`ljallangan.

Jamiyat hayotini demokratik yangilanishda milliy xususiyatlarni hisobga olish. Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkin: demokratiya dunyo taraqqiyotida umuminsoniy qadriyat sifatida turli xalqlar, millatlar tafakkuri va turmush tarziga singgan, e’tirof etilgan va shunga mos e’tibor berilayotgan amal qilib kelinayotgan boshqaruv uslubidir. Ayni paytda, ana shu umumiy qonuniyatning ikkinchi muhim jihatini hisobga olmaslik ham mumkin emas. Bu har bir xalqning hayot tarzi, mentaliteti, demokratiyani his etish, anglash va unga amal qilish xususiyatining mavjudligi bilan bog’liq. Hamma mamlakatlarbo’ yagona demokratik davlat barpo etish andozasi yo’q. Birini ikkinchisidan ustun qo’yish mumkin emas. Umuminsoniy qadriyatga aylangan demokratiyaning hamma uchun muhim va ahamiyatli bo’lgan jihatlarini tan olib, uning har bir xalq milliy-ma’naviy ruhiyati asosida qaror to’ishi va umuminsoniy hodisaga aylanishini e’tirof etish lozim. Ya’ni demokratiya milliylikni, milliy ruhiyatni hisobga olmasa, unga tayanmasa o’z mohiyatiga zid bo’lib qoladi.

6 – Mavzu: Qonun ustuvorligi, demokratik, fuqarolik jamiyati qurishning asosi.

Reja:

1. "Qonun ustuvorligi" tushunchasi
2. O'zbekistonda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishda qonun ustuvorligi tamoyilining mustahkamlanishi.
3. Qonun ustuvorligi tamoyilining O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati qurishdagi ahamiyati.

Mustaqil O'zbekiston davlat siyosatining insoniylik va ezgulik qonunlariga asoslanishi. Qonun ustuvorligi fuqarolarning xak-huquqlarini, qadr-qimmati, erkinligini, sha'ni, g'ururini himoya qilishga, ijtimoiy adolatni qaror toptirish va mustaxkamlashga qaratilgandir. Qonunning kuch-qudrati, obro'si, ta'siri, amaliy ahamiyati hayotda uning xalol, xaqqoniy, odilona tatbiq etilishiga bog'liq. Agar qonun ijrokorlari o'z burchlari va mas'uliyatlariga xolisanillo yondoshib, to'g'ri yo'ldan toymay, el-yurt, Vatan, mustaqillik manfaati va taqdirini o'zlari uchun oliy maqsad deb xisoblab qonunlarimizni hayotga adolatli joriy etsalar, bundan jamiyatimiz xam, O'zbekiston fuqarolari xam eng ko'p naf ko'radi. Chiqariladigan har bir xukm tug'ri va adolatli bo'lmog'i lozim. Bunday qilinsa, g'irromlik, ijtimoiy adolatsizlik, poraxo'rlik, davlat mulkini talash, tanish-bilishlik, urug'-aymoqchilik qilishlar, mansab lavozimlardan shaxsiy boylik orttirish yo'lida foydalanishga urinishlarning oldi olinadi, xaq joyida qaror topadi. Bu narsa Xalqning ruhini ko'taradi, uning jamiyatimiz, davlatimiz va qonunlarimizga bo'lgan ishonchini mustaxkamlaydi, milliy istiqlolimizga mexr-muxabbatini kuchaytiradi, Prezidentimizga xurmat-extiromini yanada oshiradi va mustaxkamlaydi.

Agar qonun noxolisona qo'llanilib, qonun ijrosining oyog'i to'g'rilik yo'lidan chetga toysa, o'g'ri qolib to'g'ri, aybdor qolib ayibsiz, gunohkor qolib begunoh jazolansa, odamlarning burni noxaqdan-noxak qonasa bunday adolatsizlikdan fuqarolar behad jabr-sitam ko'radi, natijada davlatimiz obro'siga putur yeta boshlaydi, jamiyatimiz negizlari zaiflasha boradi. huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatida qonunlarni ijro etishda o'n va yuz karra xalollik va adolat asosida ish yuritish mutasaddilar uchun asosiy maqsad, jamiyat, xalq va Vatan oldidagi ularning buyuk insoniy burchi, yuksak mas'uliyati bo'lmog'i lozim.

Xazrat Alisher Navoiyning bundan qariyb 500 yil ilgari islom dini va qonunshunoslari-muftilarga qarata aytgan so'zlari xozirgi davr uchun xam ahamiyatini to'laligicha saqlab kelmokda: «Uning ko'ngli hech narsaga og'masligi, ko'nglida xiylagarlik bo'lmasligi, rivoyatlari to'g'ri yozganlari ustozlarning so'zlariga muvofiq bo'lmog'i lozim. Muftiy - ichkilikbozlardek fosiq-ahloqsiz, joxil odamlardek badkirdor va shafqatsiz bo'lmasligi, bir tanga uchun yuz xaqni noxaq va ozgina marhamat uchun ko'p «yo'qni» «bor» yeb bituvchi bo'lmasligi kerak. Bir savat uzum uchun bir bog'ning kuyib ketishidan g'am chekmaydigan va bir botmon bug'doy uchun bir xirmonning sovirilishidan tashvishlanmaydigan bo'lmasligi lozim. Muftiy xiylagarlik bilan yolgon fatvo /xukm/ yozar ekan, u qalamining uchi

bilan shariat yuzini qora qilgan bo'ladi: shu qilgan ishi uchun xak olib, o'z moliga qo'shsa - dinini o'ldirish, ikkinchisiga musulmonlarni o'ldirish nasibdir».

O’zbekistonda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishda qonun ustuvorligi tamoyilining mustahkamlanishi. O’zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin o’ziga xos taraqqiyot yo’lini tanlab ochiq demokratik jamiyat qurish va bozor iqtisodiyotiga o’tishga qaror qildi. Bu degani adolat va xaqiqat g’oyasi ijtimoiy xayotimizning barcha soxalarini qamrab olishi darkor. Bu g’oya qonunchilik faoliyatimizning asosi bo’lishi lozim.

Prezidentimiz I.A.Karimov tahkidlaganidek «Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz. Adolat va xaqiqat g’oyasi ijtimoiy xayotimizning barcha soxalarini qamrab olmog’i darkor. Adolat va xaqiqat g’oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo’nalishi bo’lmog’i shart». (Karang: Karimov I.A. O’zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi mahruzasi. 1995 yil 23 fevral. «Vatan sajdagox kabi muqaddasdir» kitobida, 3-jild. Toshkent «O’zbekiston» 1996 y 10 bet). Demak adolat tushunchasi bilan qonun ustuvorligi tushunchasi chambarchas bog’liqdir, yaoni qabul qilinayotgan qonunlarimiz zamirida adolat yotishi darkor, bunday qonunlarning xayotga tadbiq etilishi adolat tantanasiga olib keladi.

Demokratik jamiyat qurish maqsadida qabul qilinayotgan qonunlar adolatli bo’lishi o’zida xalq manfaatlarini ifoda etishi shart, ammo bunday qonunlarga og’ishmay itoat etilsagina jamiyatda demokratiya qaror topadi va mustaxkam bo’ladi. CHunki barcha demokratik institutlar inson xuquq va erkinliklari qonun vositasida joriy etiladi.

Demokratik jamiyatning eng muxim belgilaridan biri-jamiyat aozolarining qonun oldidagi tengligini, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligining ta’minlanganligidir.

"Qonun ustuvorligi” tushunchasi. Qonun ustuvorligini ta’minlash shaxs, oila, jamiyat va davlatning xuquq va manfaatlari muxofazasini kuchaytirish, axolining xuquqiy madaniyati va xuquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo’ysunish va xurmat ruxida tarbiyalash-bu rivojlangan bozor iqtisodiga asoslangan chinakam demokratik, xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muxim sharti xisoblanadi. Konun ustuvorligining moxiyati O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qator moddalarida belgilab berilgan. Masalan Konstitutsiyaning III bobi (15-16 moddlar) Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga bag’ishlangan.

Konstitutsiyaning 15 moddasiga muvofiq «O’zbekiston Respublikasida O’zbekiston respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarning ustunligi so’zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko’radilar».

O’z faoliyatini Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq amalga oshirish sanab o’tilgan cubhektlarning Konstitutsiyaviy burchi bo’lib xisoblanadi. Agarda davlat organlari, nodavlat tashkilotlar mansabdor shaxslar yoki fuqarolar o’zlarining bu burchlarini bajarmasalar ularga nisbatan tegishli javobgarlik choralari qo’llaniladi.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etmagan shaxslarning javobgarligi Konstitutsiyaning o’zida yoki tegishli qonun xujjatlarida mustaxkamlab qo’yilgan. Masalan, Konstitutsiyaning 92-moddasining 12-bandiga muvofiq Konstitutsiyani qonunlarni buzgan tuman va shaxar xokimlarini respublika Prezidenti o’z qarori bilan lavozimdan ozod etishga xaqli. Aytish lozimki, Konstitutsiya normalari boshqa qonunlarning normalariga nisbatan ustunlik xarakteriga ega. CHunki Konstitutsiya boshqa barcha qonunlar uchun poydevordir.

SHuning uchun xam Konstitutsiyaning 16-moddasida mustaxkamlangan qoidaga binoan «Birorta xam qonun yoki boshqa normativ-xuquqiy xujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelish mumkin emas » Agarda birorta normativ-xuquqiy xujjat Konstitutsiyaga zid keladigan bo’lsa, u bekor qilinishi lozim.

O’zbekistonda davlat xokimiyatining bo’linish tamoyili. Davlat xokimiyatining yana bir tamoyili-bu xokimiyatning taqsimlanishidir. Bu demokratik huquqiy davlatga xosdir. Ana shu tamoyil asosida davlat organlari tashkil qilinadi. Natijada biron-bir davlat organida xaddan tashqari vakolatlar to'planib qolishining oldi olinadi. Turli davlat organlarining vakolatlari aniq bo'lib, ular bir-birining vazifasini bajarishga, o'rnini bosishga harakat qilmaydi. Turli davlat organlari bir-birini nazorat qilib turadi. Xokimiyatning su'istemol qilinishiga yo'l qo'ymaydi.

Xokimiyatning bo'linish tamoyili Asosiy Qonunda hamda O'zbekiston Prezidenti asarlarida belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining II-moddasiga muvofiq davlat xokimiyati tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatidan iborat. O'zbekistonda uch xokimiyatdan har birining vakolatlari va vazifalarining aniq belgilab qo'yilganligi, ularning mustaqil faoliyat ko'rsatishlari jamiyatimizda ijtimoiy adolatni qaror toptirish va qonunchilikni mustaxkamlashda katta o'rin tutadi.

Konstitusiyada belgilab qo'yilganidek, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi xokimiyatni amalga oshiradi, shahar va tuman Kengashlari tomonidan bajariladi.

O'zbekistonda qonun chiqaruvchi xokimiyat organi-respublika parlamenti dastlab Oliy Kengash deb atalib 1990-1994 yillarda faoliyat ko'rsatdi. Oliy Kengash murakkab davrda-sobiq Sho'rolar tuzumining qonunlari xali kuchda bo'lgan paytda faoliyat ko'rsatgan bo'lishiga qaramay yaxshi va unumli ishladi. Yangi jamiyat qurish yo'lida sobiq Oliy kengashimiz 200ga yaqin qonunlar va 500dan ziyod qarorlar qabul qildi. O'zbekitson istiqlolini e'lon qilib, davlat mustaqilligining siyosiy-huquqiy asoslarini, ma'naviy negizlarini tayyorladi va amalga oshirdi. Mamlakatimiz tarixida birinchi bor O'zbekiston Prezidentini sayladi. Mustaqillik Deklaratsiyasini e'lon qildi. O'zbekistonning davlat mustaqilligi haqidagi tarixiy qonunlarni va uning Asosiy Qonunini qabul etdi.

Prezidentlik instituti. Respublika Oliy Kengashi o'zining 1990 yil 24 martdagi sessiyasida o'sha paytdagi SSSR respublikalari ichida birinchi bo'lib O'zbekistonda prezidentlik lavozimini ta'sis etish haqidagi qaror qilindi. O'sha sessiyada o'tkaziladigan saylovda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining birinchi kotibi Islom Abdug'aniyevich Karimov yashirin ovoz berish yo'li bilan O'zbekistonning birinchi Prezidenti etib saylandi. O'zbekistonda Prezidentlik

lavozimining ta'sis etilib Islom Karimovning Prezident etib saylanishi mamlakatimiz mustaqillik yo'lidagi yangi bir yutuq edi. Moskva o'sha paytdagi ittifoqdosh respublikalar raxbarlari orasida islom Karimovning birinchi bo'lib prezidentlikka saylanganligini juda salbiy qabul qildi. 2007 yilda O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat Prezidenti bir vaqtning o’zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig’i ekanini belgilaydigan normaning chiqarilishi ushbu davrdagi muhim siyosiy-huquqiy voqealardan biri bo’ldi. Bugungi kunda Konstitutsiyamizning 89-moddasida «O’zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig’idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi» degan qoida belgilab qo’yilgan.

Ilgari O’zbekiston Respublikasi Prezidenti egallab turgan Vazirlar Mahkamasi raisi lavozimining tugatilishi ham liberallashtirish va demokratlashtirish yo’lida muhim qadam bo’ldi. Qabul qilingan qonunlarga muvofiq endilikda Bosh vazir nafaqat Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi, balki unga rahbarlik qiladi va uning ishi samaradorligi uchun shaxsan javob beradi, Vazirlar Mahkamasi majlislariga raislik qiladi, hukumat hujjatlarini imzolaydi, davlat va xo’jalik boshqaruvi masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Hozirgi paytda mamlakatimiz aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o’sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yurtimizda ko’ppartiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishi davlat hokimiyatining uchta subekti, ya’ni davlat boshlig’i bo’lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o’rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda.

Qonun chiqaruvchi organ. Qonunchilik Palatasi va Senat. Konstitusiyada belgilab qo'yilganidek, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi xokimiyatni amalga oshiradi, shahar va tuman Kengashlari tomonidan bajariladi. O'zbekistonda qonun chiqaruvchi xokimiyat organi-respublika parlamenti dastlab Oliy Kengash deb atalib 1990-1994 yillarda faoliyat ko'rsatdi. Oliy Kengash murakkab davrda-sobiq Sho'rolar tuzumining qonunlari xali kuchda bo'lgan paytda faoliyat ko'rsatgan bo'lishiga qaramay yaxshi va unumli ishladi. Yangi jamiyat qurish yo'lida sobiq Oliy kengashimiz 200ga yaqin qonunlar va 500dan ziyod qarorlar qabul qildi. O'zbekitson istiqlolini e'lon qilib, davlat mustaqilligining siyosiy-huquqiy asoslarini, ma'naviy negizlarini tayyorladi va amalga oshirdi. Mamlakatimiz tarixida birinchi bor O'zbekiston Prezidentini sayladi. Mustaqillik Deklaratsiyasini e'lon qildi. O'zbekistonning davlat mustaqilligi haqidagi tarixiy qonunlarni va uning Asosiy Qonunini qabul etdi. Bularning barchasi tarixiy voqeadir.

2002 yilda umumxalq referednumi o'tkazildi va referendum natijasida O'zbekistoni Respublikasi qonun chiqaruvchi xokimiyati Oliy Majlis ishlash tartibi ikki palatali Parlament asosida amalga oshirila boshlagan. Mazkur yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining yangi taxriri nashr etilgan. Bu

xujjatda parlament vakolatlari tulik o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Xalqi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishni konstitusiyaviy normalar asosida bosh maqsad etib belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti shunday degan edi: «Biz uchun fuqarolik jamiyati-ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustivor bilib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik kilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklarini tila darajada riyobga chiqishiga kumaklashadi. Ayni vaqtda, boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishga yil qo'yilmaydi. Yani erkinlik va qonunga biysunish bir vaqtning o'zida amal kiladi». Buning uchun, eng avval, kishilarning siyosiy faolligini yuksak darajaga kitarishiga alohida e'tibor karatish talab etiladi. Fuqarolarning siyosiy-ijtimoiy jixatidan yetukligi uning davlat hayotida faol ishtirok etishi bilan belgilanishi shubxasiz.

Istiqlolga erishilgan kundan to shu bugunga qadar, O'zbekiston Respublikasi suveren davlat sifatida o'zining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy qudratini jadallik bilan qadam-baqadam rivojlantirib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasida kelgusida huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadida juda katta ishlar amalga oshirilib kelinmokda. Shu maqsadda oxirgi uch yil mobaynida O'zbekiston parlamentini ikki palatali qilib shakllantirish uchun bir nechta qonun xujjatlari qabul qilindi. Ular orasida mamlakatimizda ilk bor ikki palatali parlamentga saylovlar bo'lib o'tdi va bu g'oyat muhim voqea esa tariximiz saxifalariga zargal harflar bilan yozib kuyildi.

Mamlakatimizda 2002 yilning 27 yanvarida o'tkazilgan umumxalq referendumi va u asosida qabul qilingan “Referendum yakunlari hamda davlat xokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari tuurisida”gi, “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tuurisida”gi, “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi tuurisida”gi konstitusiyaviy qonunlari ikki palatali parlament tizimiga o'tish uchun zarur xuknastoy semeni lna kulturnogoukiy asosni yaratdi. Shu qonunlar asosida O'zbekiston Konstitusiyasiga tegishli o'zgartirishlar kiritildi, saylovlar tuurisida qonunlarimiz esa yanada takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov “Konstitusiyamiz, respublikamizning saylov qonunchiligi talablari hamda xalqaro me'yor va qoidalarga tiliq amal qilgan xolda, ochiqlik va siyosiy bagrikenglik sharoitida itgan saylovlar mamlakatimiz demokratik qurilish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yilidan dadil qadamlar bilan ilgari borayotganining yana bir yorqin dalili bildi” – deb ta'kidladi Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi ma'ruzasida.

Albatta, erkin demokratik jamiyat qurish istagi bilan yashayotgan har bir xalq yaratilayotgan har bir qonunning adolatli, xalqchil, sodda va tushunarli, inson xuquq va manfaatlarini yanada chuqurroq himoya qila oladigan bilishiga erishishga intiladi.

O’zbekiston Respublikasida ikki palatali parlamentning shakllantirishdan maqsad esa quyidagilardan iborat: Birinchidan–parlament iz vakolatlarini samarali amalga oshirilishi, har tomonlama asosli va puxta qarorlar qabo'l qilishi uchun zarur bilgan izaro muvozanat va cheklovlar tizimini yaratish;

Ikkinchidan–Qonunchilik palatasi iz faoliyatini doimiy professional tarzda olib

borishini nazarda to'tgan xolda, parlamentning qonun ijodkorligi borasidagi ishining sifatini keskin oshirish; Uchinchidan-Senat asosan maxalliy Kengashlar, xududlarning vakillaridan iborat bilishini hamda vakillik vazifasini bajarishini inobatga olib, umumdavlat va xududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishish;

To’rtinchidan-aholining mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtiroki kilamini yanada kengaytirish.

Vazirlar Mahkamasi. Ijro etuvchi va sud hokimiyati. O'zbekiston Respublikasining Ijro etuvchi xokimiyatini Vazitrlar Maxkamasi amalga oshiradi. Agar kuchli ijroiya xokimiyati bo'lmasa eng demokratik yo'l bilan qabul qilingan qonunlar xam bajarilmasligi aniq. Amalga oshmagan qonunning amaliy ahamiyati bo'lmaydi. Mamlakatimizda ijro xokimiyati Prezident va Vazirlar Maxkamasi tomonidan, joylarda esa tuman, shahar va viloyat xokimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sud xokimiyati O'zbekiston Respublikasi davlatchilik tarixida ilk bor faqat mustaqillik xokimiyat tarmogi sifatidagi mavqesi, vakolatlari, huquqlari ta'minlandi. Konstitusiyaning 106-moddasida «O'zbekiston Respublikasida sud xokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi xokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil xolda ish yuritadi» deb ko'rsatilgan. Sud xokimiyati Qonunning ustunligini barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini ta'minlaydi. Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga buysunadilar. Mustaqillik yillarida demokratik huquqiy davlatni barpo etish, davlat hayotining huquqiy asoslarini yaratish, xokimiyat vakolatlarini taksimlash masalasida juda katta ishlar amalga oshirildi. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Davlat xokimiyatining tashkil etilishi va faoliyat tartibi vakolatlarning taksimlanish tamoyili asosida amalga oshiriladi. qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyati-davlatning uchta asosiy tayanchidir».

Sud mustaqilligi. Davlat organlarining vakolatlari. Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo’nalishlaridan biri bu — qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so’z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo’lib qolmoqda.

Avvalo, sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta’minlash, uni sobiq tuzumda bo’lgani kabi qatag’on quroli va jazolash idorasi sifatidagi organ emas, balki inson va fuqaro huquq va erkinliklarini ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom mahnodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko’lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Hokimiyatlar bo’linishiga oid konstitutsiyaviy printsipni izchil amalga oshirish maqsadida «Sudlar to’g’risida»gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi, shuningdek,

bu davrda jinoyat-’rotsessual, fuqarolik-’rotsessual qonunchiligiga tegishli o’zgartish va qo’shimchalar kiritildi. Bu esa o’z navbatida sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va tahsiridan chiqarish imkonini berganini alohida tahkidlash lozim.

Ayni ‘aytda sudg’yalik lavozimiga nomzodlarni taqdim etish, sudg’yalarning vakolatini to’xtatish va muddatidan oldin tugatish, ularga nisbatan intizomiy ish yurituvni qo’zg’atish vazifalari Adliya vazirligi vakolatidan chiqarilgani ham bu borada muhim qadam bo’ldi.

Bundan tashqari, sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta’minlash, xususan, sud tizimi uchun kadrlar masalalari bilan shug’ullanish vazifasi maxsus organ — O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudg’yalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo’yicha oliy malaka komissiyasiga yuklatilganini qayd etish lozim.

SHular qatorida O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida maxsus vakolatli tuzilma — Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy ta’minlash de’artamenti tashkil etildi. Bu esa sudlarning ularga xos bo’lmagan vazifalardan sezilarli darajada xalos bo’lishi va butun diqqat-ehtiborini o’zlarining asosiy burchi bo’lmish odil sudlovni amalga oshirish uchun qaratish imkonini berdi. Umumiy yurisdiktsiya sudlari ixtisoslashtirilib, fuqarolik va jinoyat ishlari bo’yicha sudlar tashkil etildi. Bu o’z navbatida ularning jinoyat va fuqarolik ishlarini malakali asosda ko’rib chiqish, inson huquq va erkinliklarini to’la va har tomonlama himoya qilish bo’yicha faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Fuqarolarning sud orqali himoyalanish kafolatlari jiddiy tarzda kuchaytirildi, ushbu kafolatdan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirishni ta’minlash bo’yicha katta ko’lamdagi chora-tadbirlar amalga oshirildi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda ‘rokuror va advokatning tengligini, jinoyat va fuqarolik ishlari bo’yicha sud faoliyatining barcha bosqichlarida o’zaro tortishuv bo’lishini ta’minlashga, odil sudlovning sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan keng ko’lamli chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

O’zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi. O’zbekiston Respublikasi O’rta Osiyoning (Markaziy Osiyoning) markaziy dagi Amudaryo va Sirdaryo oraligidada joylashgan. Uning xududining kattagina qismi shimoliy-garbda Turon past tekisligini; janubiy-garbda (Amudaryoning o’ng soxilida) Qizilqum cho’llarining bir qismini egallaydi, maydoni 448.4 ming kvadrat kilometr, axolisi 29 mln kishi.
Respublika chegaralarining umumiy uzunligi 5300 kmdan ortiq bo’lib, uning ko’p qismi tekisliklardan o’tadi. SHarkiy chegaramizda tog’ vodiylari, daralar xamda qor va qisman muzliklar bilan qoplangan baland toglar bor. Qozogiston Respublikasi bilan bo’lgan chegara butun chegaramizning deyarli yarmiga teng. O’zbekistonning Turmaniston biln chegarasi deyarli Amudaryo orqali o’tadi. Bu respublikalar Amudayoda kema qatnovining yaxshilanishi va irrigatsiya

inshootlarining barpo etilishidan manfaatdordirlar. Janubda O’zbekistonning Afgoniston bilan bo’lgan qisqa masofali chegarasi xam Amudaryo orqali o’tadi. Respublika tarkibida 12 ma’muriy viloyat va Qoraqalpog’iston Respublikasi mavjud. 157 qishloq rayoni, 123 shaxar, 104 shaxar tipidagi posyolka mavjud. O’zbekiston Respublikasi – ko’p millatli davlat bulib, bu yerda 136 millat va elatlar istiqomat qiladi. SHu jumladan o’zbeklar (71.4%), ruslar(8.3%), tojiklar(4.7%), qozoqlar(4.1), tatarlar(2.4%), qoraqolpoqlar(2.1%), qirg’iz, koreys, turkman, ukrain va boshqa millatlarning vakillari yashaydilar. SHaxar axolisi 11 mln.ga yakin, qishloq axolisi 18 million kishini tashkil qiladi.

Davlat hokimiyati organlari mustaqilligining amal qilishi va mas’uliyati. Xokimiyatning bo'linish tamoyili Asosiy Qonunda hamda O'zbekiston Prezidenti asarlarida belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining II-moddasiga muvofiq davlat xokimiyati tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatidan iborat. O'zbekistonda uch xokimiyatdan har birining vakolatlari va vazifalarining aniq belgilab qo'yilganligi, ularning mustaqil faoliyat ko'rsatishlari jamiyatimizda ijtimoiy adolatni qaror toptirish va qonunchilikni mustaxkamlashda katta o'rin tutadi.

Konstitutsiya va qonunlarda adolat hamda inson manfaatlarining ustuvorligi. Huquqiy davlat o'zining bir qancha o'ziga xos xususiyatlari, asosiy belgilari, tamoyillari, farqli jixatlari va talabalariga xam ega. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatida inson, uning hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, siyosiy manfaatlari, sha'ni, qadr-qimmati, qadriyatlari, huquqlari va erkinliklari muqaddas sanaladi va ularni amalga oshirilishi kafolatlanadi.

Huquqiy davlatda shaxs eng oliy qadriyat hisoblanadi. Xalq davlat xokimiyatining birdan-bir manbaidir. Uning xoxish-irodasi davlat siyosatini belgilab beradi. Bu siyosat inson va jamiyatning farovonligini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. huquqiy davlatda xalq xam bevosita, xam o'z vakllari orqali davlat xokimiyatini amalga oshirishda to'liq imkoniyatga ega bo'ladi.

Huquqiy davlat insonning, barcha fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishini kafolatlaydi.

Kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, odamlarning munosib va erkin, farovon hayotini ta'minlash, har bir kishi huquq va imkoniyatlarida to'liq va oqilona foydalanishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni butun choralar bilan rivojlantirish, mulk egalari huquqlarining himoya qilishni ta'minlash-huquqiy davlatning g'oyat muhim vazifalaridandir.

Huquqiy davlat kuch bilan, inqilobiy o'zgarishlar asosida emas, balki tabiiy-tarixiy jarayon, tadrijiy ravishda, evolyutsiya yo'li bilan, fuqarolar madaniyati, ma'naviyati va ma'rifati o'sishi orqali shakllanadi. «Osiyo mintaqasi va musulmon Sharqidagi demokratik qadriyatlar va o'zgarishlarning rivojlanish tajribasi o'ziga xos xususiyatlar, o'ziga xos an'analarga ega. Sharqda demokratiya tushunchasi xamjixatlik g'oyasi, jamoatchilik fikrining ustivorligi zaminida shakllanadi. Bizning amamlakatimizda demokratik jarayonlar Xalqimizning qonunni xurmat qilish, qonunga itoat etish kabi fazilatlariga mos ravishda rivojlanishi zarur. Ahloqiy, ma'naviy qadriyatlar siyosiy munosabatlarda xam ustunlik kasb etishi darkor» deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlar, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga amal qilishining umumiy tamoyil ekanligi. Qonun ustuvorligini ta’minlash shaxs, oila, jamiyat va davlatning xuquq va manfaatlari muxofazasini kuchaytirish, axolining xuquqiy madaniyati va xuquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo’ysunish va xurmat ruxida tarbiyalash-bu rivojlangan bozor iqtisodiga asoslangan chinakam demokratik, xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muxim sharti xisoblanadi. Konun ustuvorligining moxiyati O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qator moddalarida belgilab berilgan. Masalan Konstitutsiyaning III bobi (15-16 moddlar) Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga bag’ishlangan.

Konstitutsiyaning 15 moddasiga muvofiq «O’zbekiston Respublikasida O’zbekiston respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarning ustunligi so’zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko’radilar».

O’z faoliyatini Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq amalga oshirish sanab o’tilgan cub’ektlarning Konstitutsiyaviy burchi bo’lib xisoblanadi. Agarda davlat organlari, nodavlat tashkilotlar mansabdor shaxslar yoki fuqarolar o’zlarining bu burchlarini bajarmasalar ularga nisbatan tegishli javobgarlik choralari qo’llaniladi.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etmagan shaxslarning javobgarligi Konstitutsiyaning o’zida yoki tegishli qonun xujjatlarida mustaxkamlab qo’yilgan. Masalan, Konstitutsiyaning 92-moddasining 12-bandiga muvofiq Konstitutsiyani qonunlarni buzgan tuman va shaxar xokimlarini respublika Prezidenti o’z qarori bilan lavozimdan ozod etishga xaqli.

Konstitutsiyaga va demokratiyaga zid bo’lgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning bekor qilinishi lozimligi tamoyili. Aytish lozimki, Konstitutsiya normalari boshqa qonunlarning normalariga nisbatan ustunlik xarakteriga ega. CHunki Konstitutsiya boshqa barcha qonunlar uchun poydevordir. SHuning uchun xam Konstitutsiyaning 16-moddasida mustaxkamlangan qoidaga binoan «Birorta xam qonun yoki boshqa normativ-xuquqiy xujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelish mumkin emas » Agarda birorta normativ-xuquqiy xujjat Konstitutsiyaga zid keladigan bo’lsa, u bekor qilinishi lozim. Qabul qilingan qonunlarning Konstitutsiyaga mosligi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan nazorat qilinadi. Ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiya va qonunlardagi qoidalarga mos kelishini O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nazorat qiladi. Xalq deputatlari, viloyat, tuman, shaxar kengashining O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid keladigan qarori O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bekor qilinadi. (O’zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida»gi Qonuni 26-modda 1-qismi). Hokimlarning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarga, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, xukumat xujjatlariga shuningdek, O’zbekiston Respublikasining davlat manfaatlariga zid keladigan xujjatlari O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan to’xtatiladi va bekor qilinadi».

(«Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida» gi Qonunning 26-modda 2-qismi).

Qonun ustuvorligi tamoyilining O’zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati qurishdagi ahamiyati. Jamiyatning demokratiya yo’lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko’p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog’liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat — demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning etuklik ko’rsatkichidir. Xulosa qilib aytganda, qonun ustuvorligi quyidagi uchta xolat bo’lgandagina o’zining to’liq ifodasini topadi: Birinchidan, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ xujjatlar adolatga, inson xuquki va manfaatlariga asoslangan bo’lishi. Ikkinchidan, Konstitutsiya, qonunlar, va boshqa normativ-xuquqiy xujjatlar barcha davlat organlari mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan aniq bajarilishi. Uchinchidan, barcha normativ-xuquqiy xujjatlar Konstitutsiya va qonunlarga mos bo’lish lozim.

O’zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini shakllantirish. Asosiy qonunda belgilab qo'yilganidek, O'zbekiston Respublikasida davlat xokimiyati uning birdan-bir manbai bo'lgan xalq manfaatlarini ko'zlab va Konstitusiyamiz hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidan amalga oshiriladi. Xalq davlatni boshqarishni bevosita yoki saylab qo'yilgan o'z vakillari orqali amalga oshiradi. Xalqning davlatni bevosita boshqarish vositalarining asosiylaridan biri-referendumdir. Referendum o'tkazish qonun yo'li bilan belgilanadi. Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muxokamasiga taqdim etiladi, ya'ni referendum o'tkaziladi. Referendumda qabul qilingan qarorlar bizda oliy yuridik kuchga ega bo'lib, uni faqat referendum o'tkazish yo'li bilan bekor qilish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 10-moddasida aytilishicha «O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin. Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga xaqli emas».

Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo’nalishlaridan biri - qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash. Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo’nalishlaridan biri bu — qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so’z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo’lib qolmoqda.

Avvalo, sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta’minlash, uni sobiq tuzumda bo’lgani kabi qatag’on quroli va jazolash idorasi sifatidagi organ emas, balki inson va fuqaro huquq va erkinliklarini ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom mahnodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko’lamli

tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish zaruriyati. Jinoiy-huquqiy sohadagi siyosatni takomillashtirishda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish eng muhim yo'nalishga aylandi.

Ushbu sohada amalga oshirilgan chora-tadbirlar, xususan, 2001 yilda «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonunning qabul qilinishi ulkan sotsial va ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etganini ishonch bilan ta'kidlash lozim.

Mazkur qonunga ko'ra, jinoyatlarning tasnifi o'zgartirildi. Buning natijasida og'ir va o'ta og'ir toifadagi jinoyatlarning qariyb 75 foizi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyat ishlari bo'yicha qamoq va ozodlikdan mahrum etish jazolari o'rniga jarima shaklidagi iqtisodiy sanktsiyani qo'llash imkoniyati ancha kengaytirildi. Jinoiy jazo tizimidan inson'arvarlik tamoyillariga mutlaqo zid bo'lgan mol-mulkni musodara qilish tarzidagi jazo turi chiqarib tashlandi.

SHuningdek, Jinoyat kodeksining 11 ta moddasiga yetkazilgan moddiy zararning o'rni qo'langan taqdirda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanmasligi haqidagi qoidalar kiritildi.

Aytish kerakki, jazo tizimini liberallashtirish bo'yicha amalga oshirilgan bunday chora-tadbirlarning naqadar to'g'ri bo'lganini hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda. Ishonchim komil, xo'jalik ishlari bilan bog'liq jinoiy ishlar bo'yicha odamlarni qamash shart emas — bu davlatga juda qimmatga tushadi, qolaversa, bunday jazo turi mahkumlarni tarbiyalash va qayta tarbiyalash vazifasini hal qilmaydi.

Jinoiy jazolarni liberallashtirish borasidagi bunday choralar natijasida O'zbekistonda hozirgi kunda qamoqdagilar soni jahon miqyosida eng 'ast ko'rsatkichni, ya'ni har 100 ming nafar aholiga 166 kishini tashkil qiladi. Qiyoslash uchun aytish mumkinki, Rossiyada bu ko'rsatkich 611 kishini, AQSHda 738 kishini tashkil etadi. Mamlakatimizda so'nggi o'n yilda ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan mahbuslar soni ikki barobardan ko'proq kamayganining o'zi ham bu sohada olib borilayotgan islohotlarimizning qanday ijobiy natijalar berayotganidan dalolatdir.

Ma'lumki, O'zbekistonda 2008 yilning yanvaridan boshlab o'lim jazosi bekor qilindi va uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo turi joriy etildi.

Mamlakatimizda o’lim jazosining bekor qilinishi xalqaro hamjamiyatning katta ehtibor va ehtirofiga sazovor bo’lgani albatta ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik o’ta muhim voqeadir. Nufuzli xorijiy ekspertlarning ta’kidlashiga ko’ra, ushbu chora va bu sohada yuqorida ko’rsatilgan boshqa bir qator ishlarning amalga oshirilishi bilan O’zbekistonda dunyodagi eng liberal jinoiy jazo tizimlaridan biri yaratildi. Xalqaro ekspertlarning bu boradagi qiyosiy tahlillari shuni ko’rsatmoqdaki, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi Germaniya va ‘olg’shada 5 ta, Belgiya va Rossiyada 6 ta, Daniyada 9 ta, SHvetsiyada 13 ta, Frantsiyada 18 ta, Gollandiyada 19 ta jinoyat turi bo’yicha tayinlanishi mumkin.

O’zbekistonda esa umrbod ozodlikdan mahrum qilish favqulodda jazo chorasi bo’lib, faqat ikki turdagi jinoyat, ya’ni javobgarlikni og’irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o’ldirish va terrorizm uchun tayinlanadi. Ushbu jazo turi bizning mamlakatimizda xotin-qizlarga, jinoyat sodir etgan paytda 18 yoshga yetmagan shaxslarga va yoshi 60 dan oshgan erkaklarga nisbatan qo’llanilishi mumkin emas.

Bu borada «Xabeas kor’us» institutining joriy etilishi, ya’ni 2008 yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanktsiya berish huquqi prokurordan sudga o’tkazilishi printsipial qadam bo’ldi. Ushbu qarorning o’z vaqtida va ‘uxta o’ylab qabul qilingani bugungi kunda ko’pgina amaliy misollarda o’z isbotini to’moqda. Mazkur institutning amaliyotga tatbiq etilishi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxlsizligini himoya qilishda muhim omil sifatida namoyon bo’lmoqda. Ushbu institut joriy etilgan 2008 yilning yanvaridan buyon sudlar tomonidan dastlabki tergov organlariga 700 martadan ortiq holatda mazkur ehtiyot chorasini qo’llash rad qilingani ham buni yaqqol tasdiqlab turibdi.

Qonun ustuvorligini ta’minlash mexanizmlarini ishlab chiqilishi. Mamlakatimizda jinoiy-huquqiy sohani liberallashtirish borasidagi islohotlar haqida ga’irganda, jinoyat-protsessual qonunchiligimizga kiritilgan o’zgartishlarga muvofiq tergov va shaxsni qamoqda saqlash muddatlari qisqartirilganini tahkidlash lozim.

SHuningdek, huquqni qo’llash va sud amaliyotiga 2001 yildan boshlab yarashuv instituti kiritildi va u samarali faoliyat ko’rsatmoqda. Yarashuv institutining talabiga ko’ra, ijtimoiy xavfi katta bo’lmagan jinoiy qilmishni sodir etgan shaxs jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni to’liq qo’lab bergan taqdirda jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Mazkur institutning samaradorligi hamda o’zbek xalqining rahmdillik va kechirimlilik kabi ko’p asrlik anhanalariga mosligi uning izchillik bilan kengayib borishiga asos bo’ldi. Hozirgi kunda 53 ta jinoyat tarkibi bo’yicha yarashuv institutini qo’llash imkoniyati nazarda tutilgan.

SHu borada yana bir misolga ehtibor beraylik. Yarashuv institutining joriy etilishi natijasida o’tgan davr mobaynida 100 ming nafarga yaqin fuqaro jinoiy

javobgarlikdan ozod etildi.

So’nggi yillarda yurtimizda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylikni ta’minlash borasida jiddiy ishlar amalga oshirildi. Birinchi navbatda, ‘rokuratura faoliyatini isloh qilish, uni sobiq tuzum davrida bo’lganidek ‘artiyaviy elita qo’lidagi jazolash quroli emas, balki qonunlarning qathiy ijro etilishini, mamlakatimizda demokratik islohotlarning izchil rivojlanishini, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta’minlaydigan organga aylantirish bo’yicha salmoqli ishlar qilindi.

Masalan, 2001 yilda yangi tahrirda qabul qilingan «prokuratura to’g’risida»gi Qonunga muvofiq fuqarolar prokuror nazorati obektlari qatoridan chiqarildi. Ayni paytda prokuraturaning inson huquq va erkinliklari, uning qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlash uchun mashuliyati oshirildi.

SHuningdek, sud qarorlari ijrosini to’xtatib turish huquqi prokuratura vakolatlari doirasidan chiqarildi. Tuman va shahar prokurorlarining esa tergov va ayblanuvchini qamoqda saqlash muddatlarini uzaytirish huquqlari bekor qilindi.

Fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg’usining yanada ortishi. adolat tushunchasi bilan qonun ustuvorligi tushunchasi chambarchas bog’liqdir, yaoni qabul qilinayotgan qonunlarimiz zamirida adolat yotishi darkor, bunday qonunlarning xayotga tadbiq etilishi adolat tantanasiga olib keladi.

Demokratik jamiyat qurish maqsadida qabul qilinayotgan qonunlar adolatli bo’lishi o’zida xalq manfaatlarini ifoda etishi shart, ammo bunday qonunlarga og’ishmay itoat etilsagina jamiyatda demokratiya qaror topadi va mustaxkam bo’ladi. CHunki barcha demokratik institutlar inson xuquq va erkinliklari qonun vositasida joriy etiladi.

Demokratik jamiyatning eng muxim belgilaridan biri-jamiyat aozolarining qonun oldidagi tengligini, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligining ta’minlanganligidir.

Demokratik talab va standartlarga to’la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasining yaratilishi. Mustaqillik tufayli insonparvarlik qoidalariga asoslangan, xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladigan demokratik huquqiy davlat paydo bo'ldi. Uning tub mohiyati, asosiy xislat va fazilatlari ustida fikr yuritib Islom Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida shunday deydi: «O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat. Bu-mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu – insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy axvoli, siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir».

Prezident Islom Karimov asarlarida O'zbekistonda barpo etilayotgan huquqiy davlat buyuk madaniyatimiz va o'tmish merosimiz yutuqlariga, Sharq falsafasiga, shuningdek, umumjahon sivilizatsiyasiga asoslanganligi, uning shakllanish va rivojlanish ildizlari nihoyatda chuqur va qadimiy ekanligi mukammal ilmiy asoslab berilgan.

Huquqiy davlatning shakllanish va rivojlanish jarayoni Prezident asarlarida belgilab berilganidek, quyidagi ma'naviy-huquqiy negizlarga asoslanadi. Birinchidan, huquqiy madaniyat va ma'naviyat bo'yicha Sharq falsafasi va islom dini ta'limotiga. Ikkinchidan, umumjahon sivilizatsiyasiga, davlat qurilishi sohasida boshqa Xalqlar erishgan tajribalarga, ijtimoiy qadriyatlarga. Milliy davlatchiligimiz salkam 3 ming yillik tarixga ega. Prezidentimiz «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» suxbat-muloqotida ana shunday nihoyatda yangi fikrni o'rtaga tashladi. Paydo bo'lganiga 3000 yil bo'layotgan eng mo'tabar, qadimiy qo'lyozmamiz «Avesto» ikki daryo oralig'ida – Movvarounnaxrda yashagan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy, huquqiy merosidir. «Avesto» ayni bu qadim o'lkada buyuk davlat, yuksak ma'naviyat, yuksak darajada rivojlangan madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi xujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi. Ana shu fikrning o'zi xam mustaqil o'zbek davlatining poydevori juda kadimiy va mustaxkam ekanligini ko'rsatib turibdi. Bizning davlatimiz o'zining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida Qoraxoniylar, Somoniylar, Gaznaviylar, Xorazmshoxlar, Temur va Temuriylar davlatlari boshqaruv tajribasini, xalqimiz butun milliy, tarixiy, huquqiy, ma'naviy amaliyotini o'zida mujassamlashtirganligi e'tiborga sazovordir.

Bozor iqtisodiyoti asoslarining qonunchilik bazasini shakllantirilishi. Mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining dastlabki bosqichida, ya’ni 1991 yildan 2000 yilgacha bo’lgan davrda ulkan o’zgarishlarni amalga oshirishda asosiy e’tiborimiz markazlashtirilgan ma’muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotining asoslarini, avvalambor, qonunchilik bazasini shakllantirish uchun sharoit yaratishga qaratildi.

SHu borada qabul qilingan o’ta muhim qonun va normativ hujjatlar qatorida Fuqarolik, Yer, Soliq va Bojxona kodekslari, «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to’g’risida», «Banklar va bank faoliyati to’g’risida», «CHet el investitsiyalari to’g’risida», «CHet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to’g’risida»gi qonunlarni qayd etish mumkin.

Islohotlarimizning keyingi bosqichida «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risida», «Xususiy korxona to’g’risida», «Valyutani tartibga solish to’g’risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to’g’risida», «Fermer xo’jaligi to’g’risida»gi qonunlar, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi va iqtisodiyotni isloh qilish bo’yicha umumiy hisobda 400 dan ziyod qonun hujjatlari ishlab chiqilib, qabul qilindi va joriy etildi. Ularning barchasi iqtisodiyotimizni yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilishda nafaqat mustahkam huquqiy asos, balki amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ortga qaytmasligining kafolati bo’lib xizmat qilmoqda.

7-mavzu: Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish

Reja:

1. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish tushunchasi, ma’no-mazmuni.
2. Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, ikki palatali milliy parlamentning vujudga kelishi.
3. Siyosiy tizimni modernizatsiya qilishni takomillashtirish jarayoni.

Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish tushunchasi, ma’no-mazmuni. Ma’lumki, o’tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o’ta muhim bir maqsadga, ya’ni hokimiyatlar bo’linishi konstitutsiyaviy printsipini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o’rtasida o’zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta’minlash bo’yicha g’oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko’rishga qaratilgan edi.

Bu jarayonda markaziy ijro etuvchi hokimiyatning boshqaruv tuzilmalari va mahmuriy organlarning vazifalarini o’zgartirishga, ularning boshqarish, tartibga solish va taqsimlash borasidagi vakolatlarini, xo’jalik tuzilmalari faoliyatiga bevosita aralashuvini keskin qisqartirishga katta e’tibor berildi. Boshqacha aytganda, ularning vakolatlarini bozor tamoyillariga muvofiqlashtirish va pirovard natijada davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini jiddiy kamaytirish ko’zda tutilgan edi.

Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini Respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o’tkazish, O’zbekistonda mahalliy o’zini o’zi boshqarishning noyob shakli bo’lgan mahalla tizimini shakllantirish masalalariga katta ahamiyat qaratildi.

Ikki Palatali milliy parlamentimizni tashkil etish masalasi bo’yicha 2002 yil 27 yanvarda o’tkazilgan referendum yakunlari va shu asosda «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to’g’risida»gi konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning asoslarini belgilab berdi.

Bundan ko’zlangan asosiy maqsadlar parlament tomonidan o’z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida o’zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini shakllantirish, qonun ijodkorligining sifatini jiddiy ravishda oshirish, umumdavlat va hududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishishdan iborat edi. Bu borada tarkib jihatidan asosan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari vakillaridan tashkil to’gan yuqori Palata — Senatning hududlar manfaatlarini ifoda etishi, quyi — Qonunchilik Palatasi esa o’z faoliyatini doimiy professional asosda amalga

oshirishi hisobga olinganini aytib o’tish lozim.

Ta’kidlash kerakki, milliy parlamentimizning rivojlanishida yangi parlament va uning har bir Palatasining maqomi, vakolatlari va faoliyat mexanizmlari aniq belgilab berilgan «O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasi to’g’risida»gi va «O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to’g’risida»gi konstitutsiyaviy qonunlarning 2003 yilda qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etdi.

Hokimiyatlar bo’linishi konstitutsiyaviy printsipi. Davlat xokimiyatining yana bir tamoyili-bu xokimiyatning taqsimlanishidir. Bu demokratik huquqiy davlatga xosdir. Ana shu tamoyil asosida davlat organlari tashkil qilinadi. Natijada biron-bir davlat organida xaddan tashqari vakolatlar to'planib qolishining oldi olinadi. Turli davlat organlarining vakolatlari aniq bo'lib, ular bir-birining vazifasini bajarishga, o'rnini bosishga harakat qilmaydi. Turli davlat organlari bir-birini nazorat qilib turadi. Xokimiyatning su'istemol qilinishiga yo'l qo'ymaydi.

Xokimiyatning bo'linish tamoyili Asosiy Qonunda hamda O'zbekiston Prezidenti asarlarida belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining II-moddasiga muvofiq davlat xokimiyati tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatidan iborat.

O'zbekistonda uch xokimiyatdan har birining vakolatlari va vazifalarining aniq belgilab qo'yilganligi, ularning mustaqil faoliyat ko'rsatishlari jamiyatimizda ijtimoiy adolatni qaror toptirish va qonunchilikni mustaxkamlashda katta o'rin tutadi.

Hokimiyatlar o’rtasida o’zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish. 2007 yilda O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat Prezidenti bir vaqtning o’zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig’i ekanini belgilaydigan normaning chiqarilishi ushbu davrdagi muhim siyosiy-huquqiy voqealardan biri bo’ldi. Bugungi kunda Konstitutsiyamizning 89-moddasida «O’zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig’idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi» degan qoida belgilab qo’yilgan.

Ilgari O’zbekiston Respublikasi Prezidenti egallab turgan Vazirlar Mahkamasi raisi lavozimining tugatilishi ham liberallashtirish va demokratlashtirish yo’lida muhim qadam bo’ldi. Qabul qilingan qonunlarga muvofiq endilikda Bosh vazir nafaqat Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi, balki unga rahbarlik qiladi va uning ishi samaradorligi uchun shaxsan javob beradi, Vazirlar Mahkamasi majlislariga raislik qiladi, hukumat hujjatlarini imzolaydi, davlat va xo’jalik boshqaruvi masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Hozirgi paytda mamlakatimiz aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o’sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yurtimizda ko’ppartiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishi davlat hokimiyatining uchta subekti, ya’ni davlat boshlig’i bo’lgan Prezident, qonun

chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o’rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda.

SHundan kelib chiqqan holda, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilinadi:

«O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O’zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o’rinbosarlari, vazirlar, davlat qo’mitalarining raislaridan iborat. Qoraqal’og’iston Respublikasi hukumatining boshlig’i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o’z lavozimi bo’yicha kiradi. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va mahnaviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O’zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlaydi. Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O’zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo’lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O’zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo’ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining to’shirig’iga binoan xalqaro munosabatlarda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko’radi, O’zbekiston Respublikasi qonunlarida, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi. Vazirlar Mahkamasi o’z faoliyatida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti va O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir. Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o’z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi. Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

Sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta’minlash. Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo’nalishlaridan biri bu — qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so’z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo’lib qolmoqda.

Avvalo, sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta’minlash, uni sobiq tuzumda bo’lgani kabi qatag’on quroli va jazolash idorasi sifatidagi organ emas, balki inson va fuqaro huquq va

erkinliklarini ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom mahnodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko’lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Hokimiyatlar bo’linishiga oid konstitutsiyaviy printsipni izchil amalga oshirish maqsadida «Sudlar to’g’risida»gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi, shuningdek, bu davrda jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual qonunchiligiga tegishli o’zgartish va qo’shimchalar kiritildi. Bu esa o’z navbatida sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va tahsiridan chiqarish imkonini berganini alohida tahkidlash lozim.

Ayni paytda sudyalik lavozimiga nomzodlarni taqdim etish, sudyalarning vakolatini to’xtatish va muddatidan oldin tugatish, ularga nisbatan intizomiy ish yurituvni qo’zg’atish vazifalari Adliya vazirligi vakolatidan chiqarilgani ham bu borada muhim qadam bo’ldi.

Bundan tashqari, sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta’minlash, xususan, sud tizimi uchun kadrlar masalalari bilan shug’ullanish vazifasi maxsus organ — O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo’yicha oliy malaka komissiyasiga yuklatilganini qayd etish lozim.

SHular qatorida O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida maxsus vakolatli tuzilma — Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy ta’minlash departamenti tashkil etildi. Bu esa sudlarning ularga xos bo’lmagan vazifalardan sezilarli darajada xalos bo’lishi va butun diqqat-e’tiborini o’zlarining asosiy burchi bo’lmish odil sudlovni amalga oshirish uchun qaratish imkonini berdi.

Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, ikki palatali milliy parlamentning vujudga kelishi. Konstitusiyada belgilab qo'yilganidek, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi xokimiyatni amalga oshiradi, shahar va tuman Kengashlari tomonidan bajariladi.

O'zbekistonda qonun chiqaruvchi xokimiyat organi-respublika parlamenti dastlab Oliy Kengash deb atalib 1990-1994 yillarda faoliyat ko'rsatdi. Oliy Kengash murakkab davrda-sobiq Sho'rolar tuzumining qonunlari xali kuchda bo'lgan paytda faoliyat ko'rsatgan bo'lishiga qaramay yaxshi va unumli ishladi. Yangi jamiyat qurish yo'lida sobiq Oliy kengashimiz 200ga yaqin qonunlar va 500dan ziyod qarorlar qabul qildi. O'zbekitson istiqlolini e'lon qilib, davlat mustaqilligining siyosiy-huquqiy asoslarini, ma'naviy negizlarini tayyorladi va amalga oshirdi. Mamlakatimiz tarixida birinchi bor O'zbekiston Prezidentini sayladi. Mustaqillik Deklaratsiyasini e'lon qildi. O'zbekistonning davlat mustaqilligi haqidagi tarixiy qonunlarni va uning Asosiy Qonunini qabul etdi. Bularning barchasi tarixiy voqeadir.

2002 yilda umumxalq referednumi o'tkazildi va referendum natijasida O'zbekistoni Respublikasi qonun chiqaruvchi xokimiyati Oliy Majlis ishlash tartibi ikki palatali Parlament asosida amalga oshirila boshlagan. Mazkur yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining yangi taxriri nashr etilgan. Bu xujjatda parlament vakolatlari tulik o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Xalqi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishni konstitusiyaviy normalar asosida bosh maqsad etib belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti shunday degan edi: «Biz uchun fuqarolik jamiyati-ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustivor bilib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik kilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklarini tila darajada riyobga chiqishiga kumaklashadi. Ayni vaqtda, boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishga yil qo'yilmaydi. Yani erkinlik va qonunga biysunish bir vaqtning o'zida amal kiladi». Buning uchun, eng avval, kishilarning siyosiy faolligini yuksak darajaga kitarishiga alohida e'tibor karatish talab etiladi. Fuqarolarning siyosiy-ijtimoiy jixatidan yetukligi uning davlat hayotida faol ishtirok etishi bilan belgilanishi shubxasiz.

Istiqlolga erishilgan kundan to shu bugunga qadar, O'zbekiston Respublikasi suveren davlat sifatida o'zining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy qudratini jadallik bilan qadam-baqadam rivojlantirib kelmokda.

O'zbekiston Respublikasida kelgusida huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadida juda katta ishlar amalga oshirilib kelinmokda. Shu maqsadda oxirgi uch yil mobaynida O'zbekiston parlamentini ikki palatali qilib shakllantirish uchun bir nechta qonun xujjatlari qabul qilindi. Ular orasida mamlakatimizda ilk bor ikki palatali parlamentga saylovlar bo'lib o'tdi va bu g'oyat muhim voqea esa tariximiz saxifalariga zargal harflar bilan yozib kuyildi.

Mamlakatimizda 2002 yilning 27 yanvarida o'tkazilgan umumxalq referendumi va u asosida qabul qilingan “Referendum yakunlari hamda davlat xokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari tuurisida”gi, “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tuurisida”gi, “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi tuurisida”gi konstitusiyaviy qonunlari ikki palatali parlament tizimiga o'tish uchun zarur asosni yaratdi. Shu qonunlar asosida O'zbekiston Konstitusiyasiga tegishli o'zgartirishlar kiritildi, saylovlar tuurisida qonunlarimiz esa yanada takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov “Konstitusiyamiz, respublikamizning saylov qonunchiligi talablari hamda xalqaro me'yor va qoidalarga tiliq amal qilgan xolda, ochiqlik va siyosiy bagrikenglik sharoitida itgan saylovlar mamlakatimiz demokratik qurilish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yilidan dadil qadamlar bilan ilgari borayotganining yana bir yorqin dalili bildi”1 – deb ta'kidladi Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qishma majlisidagi ma'ruzasida.

«Referendum yakunlari ham da davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to’g’risida», «O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasi to’g’risida»gi va «O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to’grisida»gi konstitutsiyaviy qonunlarning mazmun-

mohiyati. Ikki Palatali milliy parlamentimizni tashkil etish masalasi bo'yicha 2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan referendum yakunlari va shu asosda «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning asoslarini belgilab berdi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsadlar parlament tomonidan o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini shakllantirish, qonun ijodkorligining sifatini jiddiy ravishda oshirish, umumdavlat va hududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishishdan iborat edi. Bu borada tarkib jihatidan asosan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari vakillaridan tashkil to'gan yuqori Palata — Senatning hududlar manfaatlarini ifoda etishi, quyi — Qonunchilik Palatasi esa o'z faoliyatini doimiy professional asosda amalga oshirishi hisobga olinganini aytib o'tish lozim.

Tahkidlash kerakki, milliy parlamentimizning rivojlanishida yangi parlament va uning har bir Palatasining maqomi, vakolatlari va faoliyat mexanizmlari aniq belgilab berilgan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasi to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunlarning 2003 yilda qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etdi.

Ko'ppartiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishi. Mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonda ham ko'ppartiyaviylik tizimi qaror topdi, turli ijtimoiy tashkilotlar faoliyatiga ruxsat etildi. Bu xususda bir qonunlar qabul qilindi: "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" (1991 y. 14 iYun. Unga 1996 yilda tuzatish kiritildi); "Jamoat tashkilotlari to'g'risida" (1991 y. 15 fevr.), "Kasaba uYushmalar to'g'risida" (1992 y. 2 iYul); "Siyosiy partiyalar to'g'risida" (1996 y. dekabr).
Hozirgi paytda O'zbekistonda 5 ta siyosiy partiyalar (5 – sxema), 300 ga yaqin jamoat tashkilotlari hamda "Halq birligi" ijtimoiy harakati (1995), "Kamolat" yoshlar ijtimoiy harakati (2001 y. aprel) faoliyat ko'rsatmoqda.
O'zbekiston halq demokratik partiyasi (XDP).
Bu partiya 1991 yil 1-noyabrda tashkil etildi. Dasturi va Nizomiga ega. Asosiy maqsadi: Respublikada adolatli demokratik huquqiy davlat barpo etish, uni mustahkamlash, tinchlik, asoyishtalik, totuvlik va faravon hayotni ta'minlash, aholining konstitutsion huquqlarini himoya qilishdan iborat. Rahbar organi Qurultoy, har besh yildan saylanadi. A'zolari 450 mingga yaqin. Parlament partiyasi maqomiga ega. Markaziy organi "O'zbekiston ovozi" gazetasi va "Muloqot" jurnali.
O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi.
Bu partiya 1995 yil 18 fevlarda tashkil topdi. Dasturi va Nizomi qabul qilindi. Maqsadi: Respublikadagi millatlar va elatlar manfaatiga mos keladigan, Yuksak rivojlangan adolatli fuqarolik jamiyati qurish. A'zolari 30 ming kishidan ziyod. Parlament tipidagi partiya. Siyosiy organi "Adolat" gazetasi.

O’zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi.
(MTDP). 1995 yil 3-iYunda tashkil etildi. Birinchi qurultoyda Dasturi va Nizomi qabul qilindi.
Bosh maqsadi: Respublikada milliy yakdillikni ta’minlash, O’zbekistonni jahonning etakchi ilg’or davlatlari safiga olib chiqish, huquqiy demokratik davlatni barpo etish, fuqarolarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarni tiklash, mamlakatning ilmiy-texnika salohiyatini Yuksaltirish. Partiya a’zolari soni 10 ming kishiga yaqinlashdi. Parlament partiyasi. Siyosiy organi "Milliy tiklanish" gazetasi.
Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O’zbekiston Liberal- Demokratik partiyasi 2003 yil 15-noyabrda tashkil topgan bo’lib, 150 mingdan ziyod a’zosi bor. Bu partiyaning siyosiy organi «XXI asr» gazetasi. Uning asosiy maqsadi tadbirkorlar va ishbilarmonlarning yanada kengroq ish Yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar ochish, ularning istiqbolini xam nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning ushbu tabaqasi manfaatlarini himoyalash, uning barobarida ularning ertangi kunini ta’minlash, davlat boshqaruvi, jamiyatda shakllanayotgan qarashlarga ta’sir o’tkazish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi ishtirokini ta’minlash, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti bilan bog’liq muammolarni hal qilish, O’zbekistonning xalqaro obro’yini oshirishda, Yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlashda, millatlararo va fuqarolararo ahillik va totuvlikni mustaxkamlash ishida faol qatnashish, yoshlarimizni vatanga muxabbat va sadoqat, o’z elim, o’z Yurtim, jon O’zbekistonim deb g’ururlanib yashash ruhida, tarbiyalashga o’zining munosib hissasini qo’shish, xar qanday sharoitda ham mustaqillik yo’limizni, qadriyatlarimiz, milliy va diniy an’analarimiz, urf-odatlarimizni qadrlash, aholini ish bilan ta’minlash va ijtimoiy himoya qilishdir.

Davlat hokimiyatining uchta subekti, ya’ni davlat boshlig’i - Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o’rtasidagi vakolatlarning mutanosib taqsimlanishining ta’minlashi. Ma’lumki, o’tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o’ta muhim bir maqsadga, ya’ni hokimiyatlar bo’linishi konstitutsiyaviy printsipini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o’rtasida o’zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta’minlash bo’yicha g’oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko’rishga qaratilgan edi.

Bu jarayonda markaziy ijro etuvchi hokimiyatning boshqaruv tuzilmalari va mahmuriy organlarning vazifalarini o’zgartirishga, ularning boshqarish, tartibga solish va taqsimlash borasidagi vakolatlarini, xo’jalik tuzilmalari faoliyatiga bevosita aralashuvini keskin qisqartirishga katta ehtibor berildi. Boshqacha aytganda, ularning vakolatlarini bozor tamoyillariga muvofiqlashtirish va pirovard natijada davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini jiddiy kamaytirish ko’zda

tutilgan edi.

Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini Respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o'tkazish, O'zbekistonda mahalliy o'zini o'zi boshqarishning noyob shakli bo'lgan mahalla tizimini shakllantirish masalalariga katta ahamiyat qaratildi.

Ikki Palatali milliy parlamentimizni tashkil etish masalasi bo'yicha 2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan referendum yakunlari va shu asosda «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning asoslarini belgilab berdi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsadlar parlament tomonidan o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini shakllantirish, qonun ijodkorligining sifatini jiddiy ravishda oshirish, umumdavlat va hududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishishdan iborat edi. Bu borada tarkib jihatidan asosan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari vakillaridan tashkil to'gan yuqori Palata — Senatning hududlar manfaatlarini ifoda etishi, quyi — Qonunchilik Palatasi esa o'z faoliyatini doimiy professional asosda amalga oshirishi hisobga olinganini aytib o'tish lozim.

Tahkidlash kerakki, milliy parlamentimizning rivojlanishida yangi parlament va uning har bir Palatasining maqomi, vakolatlari va faoliyat mexanizmlari aniq belgilab berilgan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasi to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunlarning 2003 yilda qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etdi.

2007 yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat Prezidenti bir vaqtning o'zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i ekanini belgilaydigan normaning chiqarilishi ushbu davrdagi muhim siyosiy-huquqiy voqealardan biri bo'ldi. Bugungi kunda Konstitutsiyamizning 89-moddasida «O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi» degan qoida belgilab qo'yilgan.

Ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti egallab turgan Vazirlar Mahkamasi raisi lavozimining tugatilishi ham liberallashtirish va demokratlashtirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Qabul qilingan qonunlarga muvofiq endilikda Bosh vazir nafaqat Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi, balki unga rahbarlik qiladi va uning ishi samaradorligi uchun shaxsan javob beradi, Vazirlar Mahkamasi majlislariga raislik qiladi, hukumat hujjatlarini imzolaydi, davlat va xo'jalik boshqaruvi masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Hozirgi 'aytda mamlakatimiz aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy

ong darajasining o’sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yurtimizda ko’ppartiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishi davlat hokimiyatining uchta subekti, ya’ni davlat boshlig’i bo’lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o’rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda.

Saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiyaning Bosh vazir nomzodining ko’rsatishi va uning parlament tomonidan ko’rib chiqilishi va tasdiqlanishi. SHundan kelib chiqqan holda, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilinadi:

«O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O’zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o’rinbosarlari, vazirlar, davlat qo’mitalarining raislaridan iborat. Qoraqal’og’iston Respublikasi hukumatining boshlig’i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o’z lavozimi bo’yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va mahnaviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O’zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O’zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo’lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O’zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo’ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining to’shirig’iga binoan xalqaro munosabatlarda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko’radi, O’zbekiston Respublikasi qonunlarida, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

Vazirlar Mahkamasi o’z faoliyatida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti va O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o’z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi.

Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

O’zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasiga saylovlarda eng ko’p deputatlik o’rnini olgan siyosiy ‘artiya yoki teng miqdordagi deputatlik o’rinlarini qo’lga kiritgan bir necha siyosiy ‘artiyalar tomonidan taklif etiladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko’rib chiqqanidan keyin o’n kun muddat ichida uni O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatalarining ko’rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishlicha O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi deputatlari va Senati ahzolari umumiy sonining yarmidan ko’pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ahzolari Bosh vazir taqdimiga binoan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O’zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi o’rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik Palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatalarining qo’shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishlicha O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi deputatlari va Senati ahzolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi.

Bunday holatda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti O’zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish bo’yicha qaror qabul qiladi. Bunda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga istehfoga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasidagi barcha siyosiy ‘artiyalar fraktsiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o’tkazilganidan so’ng O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Palatalariga ko’rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi».

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga kiritilayotgan ushbu o’zgartishlarning mazmun-mohiyati shundan iboratki, ularga ko’ra, Bosh vazir

lavozimiga nomzod ko’rsatish va uni tasdiqlashning yanada demokratik printsiplarini ifodalaydigan yangi tartibi o’rnatilmoqda. SHuningdek, Konstitutsiyaga kiritilayotgan bu o’zgartishlarga binoan O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumini bildirish huquqi berilmoqda. Ayni vaqtda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari doirasidan chiqarilmoqda.

Siyosiy tizimni modernizatsiya qilishni takomillashtirish jarayoni. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish borasida o'zoqni kizlaydigan “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” degan tamoyil asosida amalga oishirilishi kerak, albatta. Iylaymizki, ikki palatali parlamentning afzalliklari juda kip. Bunday parlament faoliyatida jamiyatning turli qatlamlari doirasi kengroq qamrab olinadi, xududlar manfaati esa tiliq aks etadi. Albatta yuqori palata deputatlariga quyi palata deputatlariga nisbatan yanada kiproq talab qiyiladi.

Shuning uchun yuqori palata tarkibida malakasi yuqori, tajribasi kip, yoshi va xurmati uluu bilgan kishilar biladi. Bu palata iz faoliyati orqali quyi palatani muvozanatga solib turadi, u qabo'l qilgan qonun va qarorlarni takomillashtiradi, baxs-munozaralarda esa bexuda extiroslarga berilmaydi, kirilayotgan masalalarni davlat manfaatlari foydasiga xal qilishga intiladi.

Bundan tashqari, ikki palatali parlament quyi palatani professional asosda shakllantirishga imkon yaratadi. Shu asosda deputatlarning maxsus bilim va malakaga ega bilishi, siyosiy-ijtimoiy jarayonlardan yaxshi xabardorligi, shu bilan birga maxoratti ular tayyorlayotgan qonun loyixalari sifatiga xam ijobiy ta'sir etadi. O'zbekiston Respublikasining Ijro etuvchi xokimiyatini Vazitrlar Maxkamasi amalga oshiradi. Agar kuchli ijroiya xokimiyati bo'lmasa eng demokratik yo'l bilan qabul qilingan qonunlar xam bajarilmasligi aniq. Amalga oshmagan qonunning amaliy ahamiyati bo'lmaydi. Mamlakatimizda ijro xokimiyati Prezident va Vazirlar Maxkamasi tomonidan, joylarda esa tuman, shahar va viloyat xokimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sud xokimiyati O'zbekiston Respublikasi davlatchilik tarixida ilk bor faqat mustaqillik xokimiyat tarmogi sifatidagi mavqesi, vakolatlari, huquqlari ta'minlandi. Konstitusiyaning 106-moddasida «O'zbekiston Respublikasida sud xokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi xokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil xolda ish yuritadi» deb ko'rsatilgan. Sud xokimiyati Qonunning ustunligini barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini ta'minlaydi. Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga buysunadilar. Mustaqillik yillarida demokratik huquqiy davlatni barpo etish, davlat hayotining huquqiy asoslarini yaratish, xokimiyat vakolatlarini taksimlash masalasida juda katta ishlar amalga oshirildi. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Davlat xokimiyatining tashkil etilishi va faoliyat tartibi vakolatlarning taksimlanish tamoyili asosida amalga oshiriladi. qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyati-davlatning uchta asosiy tayanchidir».

Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan konstitutsiyaviy o'zgarishlar va uning ahamiyati. Taklif etilayotgan yana bir muhim o'zgartish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 96-moddasiga taalluqlidir.

Mamlakat Prezidenti turli sabablarga ko'ra o'z vazifasini bajara olmaydigan vaziyat yuzaga kelgan taqdirda noaniqlikka, ushbu moddani turlicha talqin etishga yo'l qo'ymaslik maqsadida uning yangi tahririni quyidagi mazmunda bayon etish taklif qilinadi:

«Mamlakatning amaldagi Prezidenti o'z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda uch oy muddat ichida, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunga to'liq muvofiq holda mamlakat Prezidenti saylovi o'tkaziladi».

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga zikr etilgan tuzatishlarni kiritish taklif etilayotgani munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78- va 93-moddalariga ham tegishli o'zgartishlar kiritish zarurati tug'iladi.

Jumladan, Konstitutsiyaning 78-moddasi 15-bandini «… shuningdek, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish» degan so'zlar bilan to'ldirish kerak.

93-moddaning 15-bandiga «viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi» degan so'zlardan oldin «O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan …» degan so'zlarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

93-moddaning 8-bandidan «ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi» degan so'zlarni chiqarish tavsiya etiladi.

93-moddaning 16-bandini «…O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli» degan so'zlar bilan to'ldirish lozim.

SHuningdek, 93-moddaning 12-bandidan «O'zbekiston Respublikasi Bosh 'rokurori» degan so'zlardan keyin «uning o'rinbosarlari» degan so'zlarni chiqarish va ularning o'rniga «Hisob Palatasi raisini» degan so'zlarni kiritish va undan so'ng matn bo'yicha «tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi» degan tarzda bayon etish kerak.

8-mavzu: Fuqaro erkinligi va faolligini ta'minlash-demokratik jamiyat qurish omili.

Reja:

1. “Fuqaro erkinligi va faolligi” tushunchasi.
2. Inson faolligining asosiy mezonlari.
3. O’zbekistonda inson faolligini oshirish demokratik jamiyat qurishning asosiy omili ekanligi.

“Fuqaro erkinligi va faolligi” tushunchasi, uning ijtimoiy-siyosiy tafakkur tarixidagi talqinlari. Fuqaro – muayyan davlatning qonunlari doirasida faoliyatini amalga oshiruvchi va ushbu davlat muhofazasidagi individ.

«Fuqarolik» tushunchasi frantsuzcha «situayyan», inglizcha «sitizen», ruscha «gorojanin-grajdanin» ma’nolarini anglatib, mamlakat hududida tug’ilgan yoki doimiy yashash uchun ko’chib kelgan shaxslarga beriladigan huquqiy maqom hisoblanadi.

Fuqaro erkinligi – inson tug’ilishi bilan mavjud bo’ladigan va konstitutsiyaviy kafolatga ega, so’z, matbuot va e’tiqod erkinligidir.

So’z erkinligi – qonun hujjatlarning ko’rib chiqilishida, referendum o’tkazilayotganda,saylovlarda, o’z-o’zini boshqarish organlarida va kundalik hayotda o’z fikrini bildirish va ishtirok etish imkoniyatidir.

Matbuot erkinligi – bu o’z fikrini oshkora etish imkoniyati bo’lib asosan OAV da chiqish orqali amalga oshiriladi.

E’tiqod erkinligi – insonning dinga bo’lgan munosabatini ifodaladi.

XX asrning ikkinchi yarmida fuqarolik jamiyati tushunchasi yer yuzi bo’ylab keng tarqaldi. Bugungi kunda xam bu tushuncha ko’plab munozalarga mavzu bo’lmoqda. Evropada XVI asrda nashr etilgan Aristotelning «Siyosat» asari uchun nashr etilgan sharxlarda bu tushuncha ilk marotaba, eolon qilinganidan keyin uning dastlab frantsuz tilida qo’llanilishi odatdagi xol bo’lib qoldi.

Fuqarolik jamiyati jamiyatning eng yuqori shakli bo’lib, u o’z ichiga turli «Uyushmalar»ning tarkibiy qismlarini (oila, korporatsiya va boshqalarni) qamrab oladi. Ular o’z moxiyatiga ko’ra jamiyatdagi adolatlilik tamoyiliga asoslangan xamjamiyat bo’lishi ifoda etiladi. Bu jamiyatda xar bir kishi o’zi uchun oliy farovonlik topishi mumkin. Fuqarolik jamiyati g’oyasi oliy maqsad sifatida bir necha asrlardan beri yashab kelmoqda. Fuqarolik jamiyati shunday jamiyatki, unda axolining biron-bir guruxni o’ziga bo’ysundirolmaydi, shuningdek erkaklar bilan ayollarni bir-biri bilan bog’lab turuvchi ko’plab ijtimoiy, fuqaroviy, diniy, iqtisodiy, madaniy aloqa va munosabatlar yanada rivojlanadi. Bu g’oya 80-yillarda avj olgan demokratiyalashtirish jarayoni natijasida aloxida mazmun kasb eta boshlaydi va u totalitar davlatlarga qarama-qarshi bo’lgan ijtimoiy andoza sifatida talqin qilina boshlandi. Fuqarolik jamiyati shaxs uchun keng imkoniyatlar yaratib, unda xar bir shaxs boshqalar bilan birlashishi yoki boshqalar bilan xamkorlikda faoliyat ko’rsata olish mumkin. Fuqarolik jamiyati shu tarzda inson ustuvorligini yuksaklikka ko’taradi.

Mashxur jamiyatshunos olim Filipp SHmitter fuqarolik jamiyatining quyidagi muxim sifatlarini ajratib ko’rsatgan edi:

-shaxsning axolinin aloxida guruxlari va davlatdan mustaqilligi;

- tashkiliy yaxlitlik, bir butunlik;

-davlat tomonidan ximoya qilinadigan xuquqlarga asoslangan «korporativlik»,
-liberallashish bilan bog’liq jarayon yoki xodisa;
-avtokratiyaning despotik kuch sifatida (demokratik natijalari asosida) zaiflashuvi.

Abu Nasr Forobiy komil inson va fozil jamoa to’g’risida. Forobiyning inson va jamiyat, ularning o’zaro tahsiri, davlat, siyosat, urush va tinchlik, adolat kabi masalalarga bag’ishlangan asarlari sirasiga «Fozil odamlar shahri», «SHaharni o’rganish haqida», «Urush va tinch turmush haqida», «Baxt-saodatga erishish haqida risola», «Davlat arboblari haqida hikmatlar» nomli asarlarida inson, jamiyat, siyosat, adolat, odob-axloq, ta’lim-tarbiya to’g’risidagi fikrlari bayon etilgan.

Forobiy barcha shaharlarni, davlatlarni fozil va johilga ajratadi. «Fozil shahar shunday shaharki, - deb tahkidlaydi u,- unda odamlar, ularni baxt-saodatga eltuvchi ishlarda bir-birlariga yordam berishni maqsad qilib qo’yadilar. Haqiqiy baxtga erishish niyatida bir-birlariga yordam berish uchun birlashgan jamoa fozil jamoa hisoblanadi. Barcha shaharlari baxt-saodatga erishish maqsadida bir-birlariga yordam beruvchi xalq fozil xalqdir. SHunday qilib, barcha xalqlar haqiqiy baxt saodatga erishish yo’lida bir-birlariga yordam bersalar, yer yuzi fozillikka erishadi, baxt-saodatga olib boradi. Baxt-saodat ilmda, hunarda yetuk va erkin bo’lish moddiy va mahnaviy boyliklarga ega bo’lish orqali qo’lga kiritiladi.

Fozil davlatlarning aksi johil shahardir. Unda yashovchilar bir-birlari bilan doim nizoda bo’lib, yaxshi axloqiy xislatlardan mahrumdirlar.

Forobiyning fikricha, fozil davlat o’z maqsadiga erishmoq uchun qator vazifalarni amalga oshirmog’i joiz:

Birinchidan, u o’z aholisini moddiy jihatdan ta’minlashi lozim.

Ikkinchidan, aholiga ta’lim-tarbiya berish mahnaviy jihatdan yuksaklikka yetishishi uchun tinmay ish olib borishi zarur.

Uchinchidan, davlatni idora etib turish, u o’z yo’lidan adashib ketmasligi uchun qonunchilik faoliyatini yaxshi yo’lga qo’yish, zarur hollarda kerakli qonunlar qabul qilib tartibni saqlab turish kerak.

To’rtinchidan, o’z aholisini tashqi dushmanlardan, johil shaharlar xujum va tahsiridan saqlay olishi, buning uchun kerakli choralarni amalga oshirishi zarur.

Forobiy davlat va jamiyatni boshqarishda shoh o’n ikki xislatga (Yusuf Xos Hojib ham shuncha xislatni ko’rsatgan) ega bo’lishi lozimligini ta’kidlaydi.Bunday boshliq sog’-salomat, farosatli, tezda masalani aniqlab oluvchi, xotirasi, zehni o’tkir, notiq, ilm olishga qiziqqan va o’z bilimini doimo oshirib boradigan, turli hayot lazzatlaridan o’zini tiya oladigan, adolatparvar, haqgo’y, yolg’on va xushomadni yomon ko’radigan, nomusli, oriyatli, bu dunyo boyliklariga qiziqmagan, qat’iyatli, sabotli, eng muhimi donishmand inson bo’lishi lozim.

Inson faolligining asosiy mezonlari, inson salohiyati demokratik o’zgarishlarning eng faol va bunyodkor omili ekanligi. Erkin fuqarolik jamiyatini ma'naviy barkamol, ezgu g'oyalar hayotiy e'tiqodi bo'lgan insonlargina bunyod eta oladi. Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy – ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetgazishga muhim e'tibor berilmokda. Mamlakatimizda Sog'lom avlod harakatining keng tus olgani,

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta'lib-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani xam ana shu ulug'vor maqsadni amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamlardir. Inson faolligining asosiy mezonlari ham fuqarolarning siyosiy hayotdagi ishtiroki, qonunlarni bilishi, hurmat qilishi, erkinlik va burchlarini to'la anglashida ko'rinadi.

Inson va jamiyat. Insoniyat XX asrda amalga oshirayotgan eng muhim g'oyalardan biri - jamiyatdagi turli toifalar, siyosiy kuchlar va partiyalar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikdir. Ijtimoiy hamkorlik – murosa valvasasi bo'lib, xilma – xil fikr va qarashlarga ega bo'lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarning umumiy maqsad yo'lidagi xamjihatligini ta'minlaydi. Natijada jamiyatda tinchlik va totuvlikning, barqaror taraqqiyotining mustaxkam kafolati vujudga keladi. Jamiyatni sun'iy ravishda bo'lib, turli qarama – qarshiliklarni mutlaqlashtiradigan ta'limotlardan farqli o'lorok, ijtimoiy xamkorlik g'oyasi bu tabiiy rang-baranglikni milliy taraqqiyot manfaatlariga bo'ysindiradi.

Bu qanday shakllarga amallarda amalga oshiriladiq

Birinchidan, jamiyatning eng ustuvor maqsad va manfaatlarini o'zida mujassam etadigan ilg'or g'oyalar milliy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuchga aylanadi.

Ikkinchidan, jamiyatdagi har bir ijtimoiy toifa yoki guruh o'zining dasturiy maqsadlari va Amaliy faoliyatini ana shu g'oyalar bilan uyg'unlashtirishi milliy taraqqiyotning zaruratiga aylanadi. Uchinchidan, har bir shaxs, ijtimoiy mavqei, dunyoqarashi va e'tiqodidan qat'i nazar, jamiyatning ustuvor maqsad va manfaatlarini aks ettiradigan milliy g'oyalarning amalga oshishi uchun o'zini mas'ul deb bilishi bu jarayonning asosiy tamoyili hisoblanadi.

Ijtimoiy xamkorlik masalasini atroficha o'rgangan aksariyat ?arb mamlakatlarida uning tamoyillari jamiyat hayotiga oqilona targ'ib etilib, taraqqiyotning barcha sohalarida salmoqli natijalar bermokda. Aholining turli qatlamlari orasidagi munosabatlar va o'zaro xamkorlikni yaxshilash jamiyatdagi barqarorlikni mustaxkamlashga zamin yaratadi. Aksincha, ana shu xamkorlikning izdan chiqishi yoki munosabatlarning yomonlashuvi bu barqarorlikning buzilishiga olib keladi, ijtimoiy beqarorlik, siyosiy boshboshdoqlik va milliy parokandalikni keltirib chiqaradi.

Binibarin, ijtimoiy xamkorlikni yo'lga qo'yishi va rivojlantirish xammaning, birinchi galda, davlat va jamoat tashkilotlari, jamiyatning ilg'or vakillari bo'lgan ziyolilir zimmasiga kata mas'uliyat yuklaydi.

Hozirgi davr demokratik qadriyatlar tizimida inson, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlari. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Har bir millat – Yaratganning mu'jizasidir. Bu – olamdagi tabiiy rang-baranglik bilan jamiyatdagi milliy o'ziga xoslik dialektikasini ifodalaydi.

Millatlararo totuvlik g'oyasi – umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik vabarqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Bu g'oya – bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat kilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro xurmat, do'stlik va xamjixatlikning ma'naviy asosidir. Bu g'oya – har bir millat vakilining iste'dodi

va maloxiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq faravonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

Muayyan mamlakatga nom bergan (titul) millat bilan unda yashaydigan boshqa xalqlar o'rtasidagi xamjixatlik ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Aksincha, bu g'oyaning ahamiyatini tushunib yetmaslik jamiyat hayotini, tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin. Millatlararo xamjixatlikka raxna soluvchi illat, bu – tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday zararli g'oyalar ta'siriga tushgan jamiyat xalokatga yuz tutishi muqarrar. XX asrda Yevropa xalqlarini asoratga solgan va ayrim davlatlarining tanazzuliga sabab bo'lgan fashizm g'oyasi bunga yaqqol misol bo'ladi. O'zbekiston xududida qadim-qadimdan ko'plab millat va elat vakillari baxamjixat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi. Shu bois, bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro xamjixatlik ruhida tarbiyalash istiqlol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir. U xalqimizga xos bo'lgan olijanoblik va insonparvarlik fazilatlariga asoslanadi.

Prezident Islom Karimov demokratik jamiyat qurishda inson va shaxs erkinligi, faolligini yuksaltirish kontseptsiyasi. Ma’lumki, fuqarolik jamiyatining asosi – jamoat tashkilotlari. Va shu bilan bir qatorda, fuqarolik jamiyatining o’ziga xos xususiyatlaridan biri-bu nodavlat tuzimdagi barcha jamoat tashkilotlariga a’zolikning ixtiyoriy shaklda bo’lishidir.

Bu qoida: Birinchidan, shu jamiyatda demokratiyaning yuqori darajasini namoyon qilsa, Ikkinchidan, jamiyat aozolarining ijtimoiy ongi va faolliklari yuksakligini bildiradi. Qolaversa xar bir fuqaro o’zi kirmoqchi bo’lgan tashkilot faoliyatida o’zining manfaatlari va extiyojlariga mos maqsadlarga erishishiga ishonch xosil qilganidan so’nggina shu tashkilotga ixtiyoriy ravishda aozo bo’lishlari, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Oliy Majlis tomonidan barcha qabul qilingan qonunlar majmuasi ruxi va g’oyasi mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini qurishga qaratilgandir. Ayniqsa, ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning VIII sessiyasidagi Prezident I.A. Karimovning ma’ruzasida fuqarolik jamiyati qurishning xozirgi bosqichlari va tamoyillari ko’rsatib berildi. Bizning oldimizda turgan yana bir muxim va dolzarb vazifa-u xam bo’lsa «Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o’tish» degan shiorni amalda ro’yobga chiqarishdir. Bu maqsadga erishish uchun, birinchidan, davlatimizning markaziy va yuqori boshqaruv organlari vakolatlarini bosqichma-bosqich quyi tuzimga, shu jumladan o’zini-o’zi boshqarish tuzilmalariga o’tkazish talab qilinadi. Bular qatorida biz, birinchi navbatda o’zini xar tomonlama oqlagan maxalla tuzilmasini ko’zda tutamiz. Ikkinchidan, jamiyatimizda nodavlat tashkilotlarning, avvalo fuqarolik institutlarining rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berish va ularni faolligini oshirishga ko’mak va yordam ko’rsatish darkor.

O’zbekistonda inson faolligini oshirish demokratik jamiyat qurishning asosiy omili ekanligi. Referendum yakunlari xamda davlat xokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to’g’risida»gi Konstitutsiyaviy qonun Prezident I.A. Karimovning ta’kidlashicha «o’z moxiyatiga ko’ra, kelgusida qabul qilinishi zarur bo’lgan, o’zgarishlar jarayonini o’zida mujassam etadigan yangi qonunlar oldiga printsipial talablar qo’yadi». Mazkur Konstitutsiyaviy qonunning 2-moddasiga binoan

demokratik isloxotlarni chuqurlashtirish xamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishga doir qonun xujjatlarini takomillashtirishning asosiy printsiplarini quyidagicha ifodalaydi:

Qonun ustuvorligini, xokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud tarmoqlari o'rtasida muvozanatni, ulardan xar birining xaqiqiy mustaqilligini tahminlash; xalqaro xuquqning umum e'tirof etilgan printsiplari va normalari asosida inson xuquqlari va erkinliklari kafolatlarini ta'minlash;

Siyosiy xayotning, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabxalarini izchil erkinlashtirish;

Nodavlat, notijorat, jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa demokratik institutlari yanada mustaxkamlanishi xamda rivojlantirilishi uchun kafolat va shartlarni ta'minlash;

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini xar tomonlama mustaxkamlash va davlat xokimiyati markaziy organlarining vakolatlarini joylardagi boshqaruv organlariga bosqichma-bosqich o'tkazish, ijro etuvchi xokimiyat organlari, shu jumladan, mudofa va xavfsizlikni tahminlash tuzilmalar faoliyati ustidan jamoat nazorati mexanizmini shakllantirish va kuchaytirish.

Fuqarolar faolligi va masg'uliyatini oshirishning barqaror jamiyat va farovon hayot barpo etishdagi o'rni. O'zbekistonda amalga oshirilgan isloxotlar natijasida fuqarolik jamiyati va xuquqiy davlat barpo etishning poydevoriga asos solindi. Mavjud Konstitutsiya va qonunlar mazmuni va xarakteri demokratik jamiyat va davlat qurishga nafaqat imkon beradi, balki isloxotlarning yanada chuqurlashuvini, o'tish jarayonlarini tezlashtirishni tahminlaydi. Anashu maqsadlardan kelib chiqib Prezident Islom Karimov boshchiligida davlatning «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyat sari» kontseptual siyosiy dastur qabul qilindi. Jamiyat siyosiy tizimini yanada erkinlashtirish masalalari mazkur siyosiy dastur qabul qilingandan keyin yanada dolzarb axamiyat kasb etmoqda. Jaxon jamoatchiligi tomonidan tan olingan «o'zbek modeli» asosida jamiyatni xar tomonlama islox etishning asosiy yo'nalishi fuqarolik jamiyati va xuquqiy davlat qurishga qaratildi. Ma'lumki, jamiyat siyosiy tizimi, jamiyatdagi siyosiy institutlar davlat xokimiyati, davlat boshqaruvini shakllantirish va amalda ro'yobga chiqarish bilan bog'liq munosabatlar, xarakatlar, tashkilotlar va ular xarakat qiladigan xamda faoliyat ko'rsatadigan ijtimoiy-siyosiy kengliklardir. Tarixdan ma'lumki, xar bir jamiyatning siyosiy tizimi o'ziga xos va o'ziga mos tashkiliy tuzilmalardan iborat bo'ladi. Mazkur tuzilmalar vositasida ijtimoiy ixtiloflar va ziddiyatlar bir-biri bilan kelishtiriladi, turli ijtimoiy tabaqalar, guruxlar, birliklar va xarakatlarning faoliyati o'zaro muvofiqlashtiriladi, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar bir-birlari bilan uyg'unlashadilar.

Yoshlarning demokratik jamiyat qurishda ishtiroki, ularning faolligini oshirish yo'llari va omillari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan mamlakatda demokratik jamiyatni qurishning xuquqiy asosi yaratildi. Konstitutsiyaning g'oyalari, maqsadlari, ruxi uning xar bir qoidasi BMT ning «Inson xuquqlari umumjaxon Deklaratsiyasi» asrlar mobaynida ilg'or va etakchi mamlakatlarda shakllangan demokratik qadriyatlar, milliy davlatchilik, shuningdek bir necha ming yillardan buyon avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan milliy va sharqona davlatni adolatli idora etish, mamlakatni boshqarishda xalqning xam

bevosita ishtirok etishi anhanalarini o’zida mujassamlashtirdi.
Milliy mustaqillikning dastlabki davridayoq mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishning xuquqiy asoslari yaratildi. Konstitutsiyaning 29-moddasidagi «Xar kim fikrlash, so’z va ehtiqod erkinligi xuquqiga ega..», 32-moddasidagi «O’zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita xamda o’z vakillari orqali ishtirok etish xuquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o’z-o’zini boshqarish, referendumlar o’tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo’li bilan amalga oshiriladi», 34-moddasidagi «O’zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish ommaviy xarakatlarda ishtirok etish xuquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy xarakatlarda, shuningdek xokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning xuquqlari, erkinliklari va qadr qimmatini xech kim kamsitishi mumkin emas», 43-moddasidagi «Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustaxkamlangan xuquqlari va erkinliklarini tahminlaydi», kabi fuqarolik jamiyati qurishning demokratik qadriyatlari va tamoyillari shakllanishini tahminlaydigan qonun va qoidalarning kiritilishi O’zbekiston jamiyatining kelajak maqsadlarini belgilab berdi.
Demokratiya - fuqarolar ijtimoiy faolligini oshirish, erkin va farovon hayotni barpo etishning zaruriy sharti. Insoniyat taraqqiyotining xozirgi bosqichida davlat qurilishining oliy, madaniy shakli demokratiyaning umumjaxon tan olgan tamoyillarida xam yaqqol ko’zga tashlanadi, ular:
-Xalqning erkin xoxish-irodasi;
-Fuqarolarning teng xuquqliligi;
-Inson xuquqlarining ustuvorligi;
-Xokimiyat organlarining saylab quyilishi;
-Ularning saylovchilarga bo’ysunishi;
-Tayinlash yo’li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylab qo’yiladigan organlar oldida xisob berishga burchliligi;
-Xokimiyat tarmoqlarining taqsimlanganligi.

Insonning siyosiy ijtimoiylashuvi va faollashuv jarayonlari. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy isloxotlar jamiyat hayotining barcha sohalarini chuqur qamrab olib, davlatimizni rivojlangan mamlakatlar safidan tezroq o’z munosib o’rnini egallashiga xizmat qilmoqda. Albatta, ushbu ijtimoiy jarayonning bir tekisda kechishi muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqda.Mazkur qiyinchiliklar ijtimoiy munosabatlarning alohida turi bo’lgan milliy mafkurani yaratish harakatlarida ko’proq namoyon bo’layotgani biz jamiyatshunoslarni ko’proq tashvishga solmoqda. CHunki, milliy mafkura mustaqil davlatning asosiy mahnaviy poydevorlaridan hisoblanadi.Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek – mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo’lmasa odam, jamiyat, davlat o’z yo’lini yo’qotishi muqarrar. Milliy mafkuramiz esa biror bir siyosiy partiya yoki ijtimoiy harakatlarning emas, balki umumxalq manfaatlarini ifodalashi juda muhimdir. Ushbu mafkuraning mazmuni va mohiyati millatimizning o’ziga xos bo’lgan tafakkur tarziga mos kelishi uni real hayotdan ajralmasligini tahminlaydi.

Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir ђoyani jamiyat mafkurasi deb bilish mumkin. Respublika Prezidenti tomonidan ilgari surilayotgan fikrlardan mahlumki, milliy mafkuraning shakllanishiga millatning o'ziga xos xususiyatlari: milliy urf-odatlar, qadriyatlar, anhanalar va udumlar negizida shakllanadigan hamda rivojlanadigan tafakkur tarzi bevosita asos bo'ladi.

O'zbekistonda demokratik jamiyatni shakllantirishda fuqarolarning qonun va qarorlar qabul qilishdagi faol ishtiroki. Erkin saylov va o'z xohish-irodasini erkin bildirish printsiplari, birinchi navbatda har bir shaxsning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqi milliy davlatchiligimiz modelining asosini tashkil etadi. Saylovlar – bu mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy normalarning nechog'liq demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, xalqning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo'lib, o'ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masaladir.

SHu munosabat bilan o'tgan davr mobaynida yurtimizda samarali, demokratik saylov tizimini shakllantirish va rivojlantirish sohasida g'oyat chuqur o'zgarishlar amalga oshirilganini tahkidlash o'rinlidir.

Ma'lumki, Konstitutsiyamizga, shuningdek, «Saylovchilar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi hamda yangi tahrirdagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida», «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi qonunlarga 2003 va 2008 yillarda tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

SHu bilan birga, ushbu davrda mazkur sohaga oid ko'plab qonun hujjatlari qabul qilindi. Bularning barchasi milliy saylov tizimining izchil va bosqichma-bosqich liberallashuvini, ikki Palatali parlament saylovlarining qonun talablari va umumehtirof etilgan xalqaro printsip va normalarga to'la mos holda o'tkazilishini ta'minlaydigan mukammal qonunchilik bazasining shakllanishiga olib keldi.

Ushbu qonunlarda davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlarning faqat ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishi qathiy belgilab qo'yildi. Mamlakat Prezidenti lavozimiga, Qonunchilik Palatasi deputatligiga nomzodlarni siyosiy 'artiyalar tomonidan, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlarni esa — siyosiy 'artiyalarning joylardagi tegishli organlari tomonidan ko'rsatilishi to'g'risidagi printsipial qoida mustahkamlandi. Deputatlikka nomzodlarning davlat hokimiyati ijro organlari tomonidan ko'rsatilish amaliyoti bekor qilindi va bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish yo'lidagi

printsipial qadam bo’ldi.

Xalq fikri - oliy mezon ekanligi. Erkin saylov va o’z xohish-irodasini erkin bildirish printsiplari, birinchi navbatda har bir shaxsning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish bo’yicha konstitutsiyaviy huquqi milliy davlatchiligimiz modelining asosini tashkil etadi. Saylovlar – bu mamlakatimizda amalda bo’lgan huquqiy normalarning nechog’liq demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, xalqning o’z xohish-irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo’lib, o’ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masaladir.

SHu munosabat bilan o’tgan davr mobaynida yurtimizda samarali, demokratik saylov tizimini shakllantirish va rivojlantirish sohasida g’oyat chuqur o’zgarishlar amalga oshirilganini tahkidlash o’rinlidir.

Ma’lumki, Konstitutsiyamizga, shuningdek, «Saylovchilar huquqlarining kafolatlari to’g’risida»gi hamda yangi tahrirdagi «O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to’g’risida», «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to’g’risida», «O’zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to’g’risida»gi qonunlarga 2003 va 2008 yillarda tegishli o’zgartish va qo’shimchalar kiritildi.

O’zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin o’ziga xos taraqqiyot yo’lini tanlab ochiq demokratik jamiyat qurish va bozor iqtisodiyotiga o’tishga qaror qildi. Bu degani adolat va xaqiqat g’oyasi ijtimoiy xayotimizning barcha soxalarini qamrab olishi darkor. Bu g’oya qonunchilik faoliyatimizning asosi bo’lishi lozim.

Ma’lumki, o’tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o’ta muhim bir maqsadga, ya’ni hokimiyatlar bo’linishi konstitutsiyaviy printsipini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o’rtasida o’zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta’minlash bo’yicha g’oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko’rishga qaratilgan edi.

Bu jarayonda markaziy ijro etuvchi hokimiyatning boshqaruv tuzilmalari va mahmuriy organlarning vazifalarini o’zgartirishga, ularning boshqarish, tartibga solish va taqsimlash borasidagi vakolatlarini, xo’jalik tuzilmalari faoliyatiga bevosita aralashuvini keskin qisqartirishga katta ehtibor berildi. Boshqacha aytganda, ularning vakolatlarini bozor tamoyillariga muvofiqlashtirish va pirovard natijada davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini jiddiy kamaytirish ko’zda tutilgan edi. Demokratik jamiyat qurish maqsadida qabul qilinayotgan qonunlar adolatli bo’lishi o’zida xalq manfaatlarini ifoda etishi shart, ammo bunday

qonunlarga og’ishmay itoat etilsagina jamiyatda demokratiya qaror to’adi va mustaxkam bo’ladi. CHunki barcha demokratik institutlar inson xuquq va erkinliklari qonun vositasida joriy etiladi.

Demokratik jamiyatning eng muxim belgilaridan biri-jamiyat aozolarining qonun oldidagi tengligini, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligining ta’minlanganligidir.

Ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida. O’zbekiston bosib o’tgan keyingi o’n yillik davr aholining keng qatlamlari qo’llab-quvvatlaydigan turli xil fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarning jadal shakllanishi va rivojlanishi davri bo’ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Konstitutsiyamizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy printsiplarning mustahkamlab qo’yilgani barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida 5100 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda va bu ko’rsatkich 2000 yilga qaraganda 2,5 barobar ko’pdir. Fuqarolar yig’inlari va o’zini o’zi boshqarish organlari – mahallalar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi. Bular qatorida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, O’zbekiston xotin-qizlar qo’mitasi, «Sog’lom avlod uchun», «Nuroniy» jamg’armalari, «Ijod» fondi, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi va boshqa jamoat tashkilotlarini sanab o’tish mumkin.

Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o’z salohiyatlarini ro’yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta’minlashga ko’maklashmoqda.

Sud-huquq tizimini liberallashtirish, inson huquqlari himoyasini ta’minlash. Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo’nalishlaridan biri bu — qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so’z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo’lib qolmoqda.

Avvalo, sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta’minlash, uni sobiq tuzumda bo’lgani kabi qatag’on quroli va

jazolash idorasi sifatidagi organ emas, balki inson va fuqaro huquq va erkinliklarini ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom mahnodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko’lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Hokimiyatlar bo’linishiga oid konstitutsiyaviy printsipni izchil amalga oshirish maqsadida «Sudlar to’g’risida»gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi, shuningdek, bu davrda jinoyat-’rotsessual, fuqarolik-protsessual qonunchiligiga tegishli o’zgartish va qo’shimchalar kiritildi. Bu esa o’z navbatida sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va tahsiridan chiqarish imkonini berganini alohida tahkidlash lozim.

Ayni paytda sudg’yalik lavozimiga nomzodlarni taqdim etish, sudg’yalarning vakolatini to’xtatish va muddatidan oldin tugatish, ularga nisbatan intizomiy ish yurituvni qo’zg’atish vazifalari Adliya vazirligi vakolatidan chiqarilgani ham bu borada muhim qadam bo’ldi.

Ombudsman, Inson huquqlari bo’yicha milliy markaz, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutlarining inson huquq va erkinliklarini ta’minlashdagi o’rni va ahamiyati. Parlament xo'zuridagi Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) instituti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Oliy Majlisning birinchi sessiyasida tashkil etildi va 1995 yil 6 mayda Oliy Majlis qaroriga binoan uning xo'zurida Vakilning inson huquqlari borasidagi vazifalarni namunali amalga oshirishiga kumaklashish uchun fuqarolarning konstitusiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya qilish Komissiyasi tashkil etildi. Vakil va Komissiya faoliyati Oliy Majlisning 1995 yil 29 avgust Qarori bilan tasdiqlangan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) tug'risidagi Nizom bilan tartibga solingan.

Inson huquqlari bo'yicha vakil haqidagi qonun loyixasi umumxalq muxokamasi uchun «Xalq so'zi», «Narodnoye slovo» gazetalarida 1997 yil 14 fevralda e'lon qilindi. 1997 yilning 24 aprelida esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining sakkizinchi sessiyasida «Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) tug'risida» Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun inson huquqlari bo'yicha Vakilning huquqiy xolatini, faoliyat sohasi va tamoyillarini, shuningdek, lavozimga saylanish va ishdan bo'shatilish tartibini, fuqarolarning shikoyat va arizalarini kurib chiqishdagi vakolatlari hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoyalashdagi huquqlari va majburiyatlarini belgilab beradi. Bu institut 1809 yil Shvesiyada ilk konstitusion normalar yuzaga kelishi va xokimiyat, boshqaruv va sud organlarining ularga rioya qilishlari ustidan parlament nazorati urnatish zaruriyati paydo bo'lganligi tufayli yuzaga kelgan. Belgilangan lavozimning shu vaqtga qadar dunyoda uxshashi bo'lmagan, zero «ombudsman» avvalboshda fuqarolarni ma'muriyat jabr-zulmidan himoya qilish funksiyasini utagan. «Ombudsman» o'rta asrlardagi shved tilida «ombud» so'zini, ya'ni kuch-qudrat, obro'-e'tibor degan ma'noni anglatib, shu ish bilan shug'ullanuvchi shaxs, vositachi yoxud boshqa odamlar vakili hisoblanadi. huquqiy ma'noda ombudsman

ishonchga loyik betaraf shaxsni bildiradi. U fuqarolar huquqini hamda barcha davlat organlari va ularning vakillari ustidan keng nazorat olib borish shaklidagi bevosita parlament nazorati olib borishga vakolatlangan. 1919 yildan boshlab bunday organlar asta-sekin boshqa mamlakatlarda ta'sis etildi va huquqiy nazorat tizimiga kiritildi. Ular parlament va sud nazorati tarzida, shuningdek ma'muriy organlar tomonidan amalga oshirila bordi. Bunday institutga extiyoj mavjud bo'lgan, boshqa institutlar davlat boshqaruviga nisbatan yetarli nazorat vazifasini bajara olmagan va demokratik davlatda ma'muriy o'zboshimchalikdan fuqarolarni kushimcha himoya qilish zarurati yuzaga kelgan paytda paydo bo'ldi. Ombudsman parlamentning barcha ijroiya organlari ustidan an'anaviy nazorat olib borishiga yordamlashadi, ularni to'ldiradi va kengaytiradi. Shu sababdan jahonning aksar mamlakatlari o'zlaridagi mavjud nazorat shakllarini yana bir shakl – «ombudsman» modeli bilan boyitmokdalar. Xozirgi vaqtda dunyoda yuzga yaqin «ombudsman» mavjud bo'lib, mazkur lavozimdagi shaxslar ba'zi mamlakatlarda «ombudsman», ba'zilarida vositachi (mediator), uchinchi bir xillarida esa parlament vakili va turtinchilarida, xuddi bizning O'zbekistonimizda bo'lganidek, Inson huquqlari bo'yicha vakil deb yuritiladi. Xorijiy mamlakatlar tarixi va amaliyoti bu institutning ikki xil turi: parlament ombudsmani (Shvesiya, Buyuk Britaniya va boshqalar) hamda ijroiya xokimiti ombudsmani (AQSh, Fransiya, Kanada) borligidan guvoxlik beradi. Ombudsman institutining vakolatli yoki ijroiya xokimiyati organi ekanligi uning huquqiy bazasiga, lavozimiga tayinlanish va ishdan bo'shatilishiga, uning funksiyasi taxliliga karab aniqlanadi.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'z faoliyatini olib borishda uning faoliyatini tartibga soluvchi Qonungagina emas, balki boshqa normativ huquqiy xujjatlarga xam asoslanadi. Bunday xujjatlar katoriga kotibiyat faoliyati tug'risidagi Nizom, Vakil koshidagi Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish Komissiyasi Reglamenti, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) tug'risidagi Nizom kabilar kirib, bo'lar Vakil faoliyatining barcha yo'nalishlarini batafsil belgilab beradi.

Vakil o'z vazifalarini bajarishda 1994 yil 6 maydagi «Fuqarolar murojaatlari tug'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 1995 yil 30 avgustdagi «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini bo'zadigan harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish tug'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun xujjatlari hamda inson huquqlari bo'yicha Xalqaro konvensiyalarga amal kiladi.

O'zbekistondagi Vakil keng huquqiy vakolatlarga ega bo'lib, uning faoliyati davlat va fuqaro, jamiyat va shaxsga oid ijtimoiy munosabatlarning muhim sohasini o'z ichiga oladi. Xozirgi zamon jamiyati hayoti va faoliyatining Vakilga taallukli bo'lmagan birorta sohasi yo'q, chunki inson va uning xak-huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari Vakilning asosiy dikkat ob'ekti hisoblanadi. Vakil quyidagi huquqlarga ega:
shikoyatni ko'rib chiqish;arizachi o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan vositalar va shakllarni ko'rsatish;shikoyatni uning mohiyatiga kura xal qilishga vakolatli bo'lgan tashkilot yoki mansabdor shaxsga yuborish;arizachini uning huquqlari va

qonuniy manfaatlaria daxldor xujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishtirish;shikoyatni ko'rib chiqishni sababini albatta ko'rsatgan xolda rad etish;qonun xujjatlariga zid bo'lmagan boshqa chora-tadbirlarni qurish.

9-mavzu: Demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallarlashtirish

Reja:

1. “Iqtisodiy hayotni erkinlashtirish” tushunchasi va mazmuni.
2. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat boshqaruv vakolatlarini cheklash va nomarkazlashtirish.
3. Bozor iqtisodiyoti sohasidagi o’zgarishlarning qonunchilik bazasini shakllantirish.

Demokratik jamiyatda “iqtisodiy hayotni erkinlashtirish” tushunchasi va mazmuni. Iqtisodiy hayot kishilik jamiyati hayotining muhim sohalaridan biri bo’lib, uning asosini, rivojlanish manbaini tashkil etadi. Unda insonlar o’zlarining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tirikchilik ne’matlarini va vositalarini ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste’mol qilishga qaratilgan faoliyat ko’rsatadilar va o’zaro iqtisodiy munosabatlrga kirishadilar.

Iqtisodiy hayot kishilarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy hayot sohalarining moddiy asosini tashkil etadi va ularning rivojlanishiga ta’sir ko’rsatadi. SHuningdek, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va davlat tizimi iqtisodiyotga jiddiy ta’sir ko’rsatadi.

Sobiq totalitar ma’muriy buyruqbozlik tizimi sharoitida iqtisodiy hayot soxta siyosat, mafkuraviy maqsadlarga bo’ysundirilgan edi. Siyosat va mafkura iqtisodiyotdan ustun bo’lib, uning rivojlanish yo’nalishlarini belgilab berardi. Bu tuzumning iqtisodiy negizini davlat va kolxoz-kooperativ mulk shakllaridan iborat umumxalq mulki deb atalgan egasiz mulk tashkil etardi. Davlat asosiy ishlab chiqarish fondlarining 90% dan ortig’iga ega bo’lib, iqtisodiyotda yakka hokimlikni o’rnatgan edi. Buning oqibatida iqtisodiy hayotni, iqtisodiyotni bir markazdan ma’muriy-buyruqbozlik asosida boshqarib, ishlab chiqarish turlari va hajmini, taqsimotni rejalashtirib, belgilab berar edi.

Jamiyat a’zolari, ijtimoiy mulkka egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqidan, mulkdorlik hissidan mahrum edilar. Tadbirkorlik , biznes bilan shug’ullanish xuquqidan ham mahrum edilar. Bunday faoliyat bilan shug’ullanganlar chayqovchi, yot unsur sifatida jinoiy javobgarlikka tortilar edilar.

Kishilarning mulkdan, uning natijalarini tasarruf etishdan begonalashganliklari tufayli, mehnat motivatsiyasi va ijtimoiy adolat tamoyillari buzilgan. Pirovard natijada sobiq ittifoq chuqur tanazzulga uchrab tarqab ketdi.

Mustaqillikka erishgan O’zbekiston xalq turmush farovonligini, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik erkinliklarini, eng muhimi mulkdor bo’lish imkoniyatlarini ta’minlaydigan ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan insonparvar

demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida tub islohotlarni amalga oshirmoqda.

O’zbekiston iqtisodiy xayotni erkinlashtirish tushunchasi xususiy mulkning miqyoslarini kengaytirish va uning daxlsizligini tahminlash tadbirkorlik faoliyati va tanlash erkinligiga, raqobatga asoslangan bozor munosabatlarini rivojlantirish xamda davlatning iqtisodiy funktsiyalari va faoliyat doiralarini cheklash bilan chambarchas bog’liqdir.

Erkin ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotining eng muhim belgisi iqtisodiy plyuralizm bo’lib, demokratiyaning tamoyili ham hisoblanadi. Iqtisodiy plyuralizm tushunchasi mulk shakllari va xo’jalik yuritish usullarining xilma-xil bo’lishida o’z ifodasini topadi. Bunda turli mulk shakllarining teng huquqliligi, muvozanatda bo’lishi ta’minlanib, ulardan ayrimlarining yakka hukmronligiga yo’l qo’yilmaydi.

SHuning uchun ham O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O’zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste’molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi» deb belgilab qo’yilgan.

Demokratik jamiyatga monand iqtisodiyotning erkinligi uchun quyidagi tub belgilarida o’z ifodasini topadi. 1.Xususiy mulk, 2.Tadbirkorlik va tanlov erkinligi, 3.SHaxsiy manfaatning inson hatti-harakatining bosh motivi ekanligi; 4.Raqobat; 5.Erkin narx tuzimi; 6. Xukumat davlatning iqtisodiyotga aralashuvining cheklanganligi.

Totalitar, ma’muriy-buyruqbozlik tizimi iqtisodiyotidan ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o’tish - demokratik jamiyat qurishning asosiy sharti ekanligi. Totalitar, ma’muriy-buyruqbozlik tizimi iqtisodiyotidan ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o’tishda tadbirkorlik va tanlash erkinligi muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlik erkinligi ayrim shaxslar va ularning uyushmalari, guruhlarining foyda, daromad olish maqsadida mahlum sohada xo’jalik, iqtisodiy faoliyat yuritish erkinligini bildiradi. Bu shuningdek, tadbirkorlikning o’z xoxishlariga ko’ra u yoki bu tarmoqda kirishini va chiqishini ham anglatadi.

Tanlash erkinligi iste’molchilar huquqlari va manfaatlarining ustunligini, ularning o’z xoxishi, istaklari, didi, daromadiga mos tovar va xizmatlarni tanlash erkinligiga ega ekanliklarini ifodalaydi.Buning uchun, birinchidan, tovar xizmatlar hamda resurs bozorlari ham qimmat ham arzon, bir-birlarining o’rnini bosuvchi va to’ldiruvchi tovarlar bilan to’lgan bo’lishi. Ikkinchidan, davlat iste’molchilarni ularning hayoti va salomatligiga ziyon va zarar yetkazuvchi tovarlardan himoya qiladi.

SHu maqsadlarda O’zbekiston Respublikasining «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to’g’risida»gi qonun amalga oshirilmoqda. SHuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2002 yilda qabul qilingan muhim qarorlariga muvofiq respublikaga iste’mol tavarlarining noqonuniy olib kelinishi va sotilishining oldini olish chora tadbirlari ko’rilmoqda.Kishilar naf, foyda va daromad olish uchun

intilib o’zlarida bor bo’lgan qobiliyatlari va imkoniyatlarini ishga soladilar. Raqobat iqtisodiyot sub’ektlari shaxsiy manfaatlarini ro’yobga chiqarishning chegarasini belgilaydi. Hech kimning iqtisodiy yakka hokimlik qilishiga yo’l qo’yilmaydi. SHuningdek, raqobat ishlab chiqaruvchi va sotuvchilarning iste’molchi, haridorlar manfaati, didi, xoxishini inobatga olib bir-biridan arzonroq va sifatliroq tovarlar ishlab chiqarish maqsadida yangi texnika va texnologiyadan foydalanishga undaydi.

Erkin tadbirkorlik, raqobat va narx tizimiga asoslangan bozor iqtisodiyotida xukumat va davlatning roli cheklangan bo’ladi. Davlat bozor mexanizmining amal qilishiga ko’maklashadi. Buning uchun davlat iqtisodiyot sub’ektlari faoliyatining qonuniy bazasini yaratib, ularning faoliyat, «o’yin» qoidalarini belgilaydi. Aholining turmush darajasini barqaror o’sib borishini, kam ta’minlangan axoli qatlamlarini ijtimoiy ximoyalash, boy-kambag’allar o’rtasidagi farqlarning keskinlashib ketishiga yo’l qo’ymaslik maqsadida soliq, byudjet va pul kredit vositalari orqali iqtisodiyotni tartiblaydi. Davlat bozor mexanizmi to’la to’kis bajara olmagan vazifalarni o’z zimmasiga olib, raqobat muxitini saqlaydi, iqtisodiyot sub’ektlarining erkin faoliyatini ta’minlaydi. Hamda jamiyat uchun kerak bo’lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni o’z zimmasiga oladi.

Demak, O’zbekiston iqtisodiy hayotni erkinlashtirish tushunchasi xususiy mulkning miqyoslarini kengaytirish va uning daxlsizligini ta’minlash tadbirkorlik faoliyati va tanlash erkinligiga, raqobatga asoslangan bozor munosabatlarini rivojlantirish hamda davlatning iqtisodiy funktsiyalari va faoliyat doiralarini cheklash bilan chambarchas bog’liqdir.

Erkin bozor iqtisodiyoti va demokratik jamiyat tamoyillarining o’zaro bog’liqligi. Vatanimiz mustaqilikni qo'lga kiritgach, taraqqiyotning qaysi yo'lidan borish, milliy iqtisodiyotni rivolantirishda qaydan tamoyillarga tayanish kabi bir qarashda jun ko'rinadigan, lekin xiyla murakkab va ziddiyatli, mamlaktning taqdiri bilan bog'liq o'ta muhim muammolarga duch keldi.

Mamlakat Prezidenti Islom Karimov bu iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy muammolarni xal etishga qaratilgan davlat qurilishi va iqtisodiyotni tubdan isoh qilishning besh asosiy tamoyili (qoidasi) ni ilgari surdi. Yurtboshimiz O'zbekistonning iqtisodiy siyosati, yangilanish va ijtimoiy taraqqiyot yo'lining umumiy prinsplari va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida dastlab 1992 yilda «O'zbekistoning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» deb nomlangan risolasida fikr yuritgan edi. So'ngra 1993 yilda e'lon qilingan «O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» asarida tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning beshta prinsipi (tamoyili) ni chuqur va atroflicha ilmiy asoslanadi.

Iqtisodiyotni mafkura aqidalaridan xoli qilish, davlat boshi isloxotchi ekani, bozor munosabatlariga bosqichma – bosqich o'tish zarurligi, hayotning barcha sohalarida qonun ustivorligini ta'minlash lozimlgi, kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish ana shu beshta asosiy tamoyillarni tashkil etadi. Bozor munosabatlariga o'tish bo'yicha qabul qilingan xujjatlarning aksariyati ushbu tamoyillarga asoslangan yoki ularni rivojlantrishga, yoxud ularni hayota tatbiq etishga bag'ishlangan. Bu

qoidalarning naqadar to'g'ri ekanini hayot to'la tasdiqlanadi, shu bois, ular xozir xam, bundan keyin xam o'z axamiyatini yo'qotmaydi. Zotan, besh tamoyil bozor munosabatlariga tayangan mustaqil, milliy iqtisodiyotning asosiy shakl va tamoyillarini tarkib toptirish va uni iqtisodiy yuksalish sari izchil harakatlantarish imkonini berdi. Chunki ular mamlakatimizda yangi, oldingisidan tubdan farq qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy tizimni qaror toptirishning o'ziga xos dasturi edi. Bu qoidalar istiqlol va taraqqiyot yo'lni tanlagan jamiyatimizning bu yo'ldan og'ishmay ilgarilab borishi uchun asos etib qabul qilindi. Bu qoidalarning rivojlantirilishi va hayotga tobora dadilroq joriy etilishi ijtimoiy – siyosiy barqarorlikni yanada mustaxkamladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat boshqaruv vakolatlarini cheklash va nomarkazlashtirish. Barchamizga ayonki, mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining dastlabki bosqichida, ya’ni 1991 yildan 2000 yilgacha bo’lgan davrda ulkan o’zgarishlarni amalga oshirishda asosiy e’tiborimiz markazlashtirilgan mahmuriy-buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotining asoslarini, avvalambor, qonunchilik bazasini shakllantirish uchun sharoit yaratishga qaratildi.

SHu borada qabul qilingan o’ta muhim qonun va normativ hujjatlar qatorida Fuqarolik, Yer, Soliq va Bojxona kodekslari, «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to’g’risida», «Banklar va bank faoliyati to’g’risida», «CHet el investitsiyalari to’g’risida», «CHet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to’g’risida»gi qonunlarni qayd etish mumkin.

Islohotlarimizning keyingi bosqichida «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risida», «Xususiy korxona to’g’risida», «Valyutani tartibga solish to’g’risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to’g’risida», «Fermer xo’jaligi to’g’risida»gi qonunlar, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi va iqtisodiyotni isloh qilish bo’yicha umumiy hisobda 400 dan ziyod qonun hujjatlari ishlab chiqilib, qabul qilindi va joriy etildi. Ularning barchasi iqtisodiyotimizni yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilishda nafaqat mustahkam huquqiy asos, balki amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ortga qaytmasligining kafolati bo’lib xizmat qilmoqda.

Siyosiy islohotlarni takomillashtirish va iqtisodiy taraqqiyot. Davlat boshqaruvi organlarining vazifalari tubdan qayta ko’rib chiqildi, eski ma’muriy-buyruqbozlik tuzimiga xos, o’z umrini yashab bo’lgan ortiqcha bo’g’in va vazifalar, birinchi galda, taqsimlash funktsiyalari keskin tarzda qisqartirildi. Davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari o’rtasidagi vakolatlar aniq chegaralib qo’yildi.

Ma’muriy islohot jarayonida 20 ga yaqin davlat boshqaruvi organi qayta tashkil etildi va 40 mingdan ortiq shtat birligi tugatildi yoki boshqaruv xodimlari soni 22 foizga qisqartirildi.

Moddiy resurslarni turli kvatolar, limitlar va raznaryadkalar asosida taqsimlashning eski tizimdan meros bo’lib qolgan markazlashtirilgan tizimiga

barham berildi. Tovar-xomashyo birjalari faoliyati tubdan o’zgartirildi.

Islom Karimovning ma’naviy va moddiy hayot uyg’unligi to’g’risidagi kontseptsiyasi. O`zbekiston o`z mustaqilligini mustahkamlash, jahon hamjamiyatida o`zining munosib o`rinni e’gallash jarayonida siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda kishilar tafakkurida tubga o`zgarish,- milliy g’oya– milliy- mafkurani shakllanish jarayoni kechmoqda. Bu jarayon uchinchi ming yillik arafasida amalga oshmoqda. SHu munosabat bilan Prezident I. Karimovning quyidagi so`zlari o`ta ibratlidir: «Biz kelgusi asrga o`zimiz bilan nimani olib o`tishimiz mumkin? Va nimalardan voz kechishimiz darkor?. YAngi ming yillikda qanday muammoalrning echimi bizning diqqat e’’tiborimiz markazida turmog’i lozim?[109] «Bu fikr madaniy va ma’naviy merosimiz muammolarini hal qilishda asosiy dasturiy amaldir.

I.A. Karimov «O’zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish vazifasini qo’ydi. CHunki bu masala mamlakat siyosiy hayotini davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish jarayonlari bilan bog’liqdir. Bu borada Prezident I.A. Karimov shunday degan edi. «O’zbkistondagi islohotlar va yangilanish jarayonlariga baho berar ekanmiz, shuni tahkidlashni istardimki, hayotimizning barcha sohalarida erkinlashtirish o’z mohiyat e’tiboriga ko’ra mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha o’zgarishlarning asosiy bog’lovchi bo’g’iniga aylandi».

Iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish esa demokratik jamiyat qurilishining asosi sifatida uning iqtisodiy negizlarini mustahkamlashni ta’minlaydi. Natijada jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni kafolatlovchi, iqtisodiy rivojlanishni ta’minlovchi amalda o’rta mulkdorlar sinfi shakllandi.

Prezident I.A. Karimov iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish yuzasidan quyidagi vazifalarni belgilab berdi: *Birinchidan*, mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini tubdan hal qilish. Buning uchun xususiy mulkchilik yetakchi o’rinda turadigan ko’p ukladli iqtisodiyotni barpo etish.*Ikkinchidan*, haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish; *Uchinchidan*, bozor infratuzilmasini rivojlantirish; *To’rtinchidan*, tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tizimini tubdan qayta ko’rib chiqish; *Beshinchidan*, valyuta tizimi va bozorni erkinlashtirish. *Oltinchidan*, davlat va turli tekshiruvchi, nazorat qiluvchi organlar tomonidan korxonalarning xo’jalik faoliyatiga noo’rin aralashishni cheklab qo’yish.

O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishning ijtimoiy-iqtisodiy negizi. “Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O’zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etadi. Davlat iste’molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin” (O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XII-bob 53-moddasi).

Mulkchilikning xilma-xil shakllari. Bozor munosabatlarining qaror topishi va mulkdorlar sinfining shakllanishi davlat mulkini xususiylashtirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, erkin sohibkorlik va raqobatni rivojlantirish kabi muammolarga bog'liq. Bu muammolarni xal etmasdan turib bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlash mumkin emas. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida xususiylashtirishni amalga oshirish raqobat va tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy va iqtisodiy negizlari yaratildi. Bu o'rinda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida» (13.10.1990), «O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida» (15.02.1991), «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida» (19.11.1991), «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida» (21.12.1995), «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida» (27.12.1996), «Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» (25.04.1996) kabi boshqa o'nlab qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, xukumat qarorlari hamda farmoyishlarini eslab o'tishning o'zi kifoya.

Amalga oshirilgan tadbirlarning natijasi o'laroq mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni ancha chuqurlashib bormoqda. Mulkchilikning turli shakllari paydo bo'lib, ko'p ukladli iqtisodiyot asoslari yaratilmokda, nodavlat sektori rivojlanib, iqtisodiyotning barcha asosiy tarmoqlarida uning xissasi ortib bormoqda.

Nodavlat sektorida 1998 yilda yalpi ichki mahsulotning 64,5 foizi, sanoat mahsulotining 64,1 yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining 98,7, qurilish-montaj ishlarining 77,1, chakana tovar oborotining 95,3 aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatning 51,6 foizi yaratildi. Mulkchilikning nodavlat sektoriga oid korxonalarda mehnat qilayotganlarning umumiy xissasi 74,2 foizni tashkil etmokda.

Xozir nodavlat sektoriga qarashli korxonalarning ulushi 90 foizga yaqinlashib qoldi. Mayda va o'rta biznes sub'ektlarining xissasi 88 foizga yetdi. Shundan 8,6 foizi o'rta korxonalar, 20,2 foizi kichik korxonalar va 71,2 foizi mikrofirmalarni tashkil etadi. Xususiy mulk shakliga oid korxonalar soni 1999 yilning boshida 85 mingni tashkil etdi. Bu barcha mavjud korxonalarning 45,1 foizi demakdir. Ularning eng ko'pi savdo va umumiy ovqatlanish sohalarida joylashgan – 53,2 ming (62,6 foiz).

Xususiy mulk va mulkdor. O’zbekistonda shakllanayotgan xususiy mulk ikki turdan iborat:

- Birinchi, yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning, dehqon va fermerlarning xususiy mulki,
- Ikkinchisi, ularning shirkat xo’jaliklardagi paylari, aktsiyadorlik jamiyatlaridagi aktsiyalari, uyushmalardagi ulushlaridan iborat korporativ mulk.

Iste’molchilar huquqlari va tanlash erkinligining ustunligi. O’zbekiston Respublikasining «Isteomolchilarning xuquqlarini ximoya qilish to’g’risida»gi qonun

amalga oshirilmoqda. SHuningdek, Vazirlar Maxkamasining 2002 yilda qabul qilingan muxim qarorlariga muvofiq respublikaga isteomol tavarlarining noqonuniy olib kelinishi va sotilishining oldini olish chora tadbirlari ko'rilmoqda.Kishilar naf, foyda va daromad olish uchun intilib o'zlarida bor bo'lgan qobiliyatlari va imkoniyatlarini ishga soladilar. Raqobat iqtisodiyot cubhektlari shaxsiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishning chegarasini belgilaydi. Xech kimning iqtisodiy yakka xokimlik qilishiga yo'l qo'yilmaydi. SHuningdek, raqobat ishlab chiqaruvchi va sotuvchilarning isteomolchi, xaridorlar manfaati, didi, xoxishini inobatga olib bir-biridan arzonroq va sifatliroq tovarlar ishlab chiqarish maqsadida yangi texnika va texnologiyadan foydalanishga undaydi.

Erkin tadbirkorlik, raqobat va narx tizimiga asoslangan bozor iqtisodiyotida xukumat va davlatning roli cheklangan bo'ladi. Davlat bozor mexanizmining amal qilishiga ko'maklashadi. Buning uchun davlat iqtisodiyot cubhektlari faoliyatining qonuniy bazasini yaratib, ularning faoliyat, «o'yin» qoidalarini belgilaydi. Axolining turmush darajasini barqaror o'sib borishini, kam tahminlangan axoli qatlamlarini ijtimoiy ximoyalash, boy-kambag'allar o'rtasidagi farqlarning keskinlashib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida soliq, budjet va pul kredit vositalari orqali iqtisodiyotni tartiblaydi. Davlat bozor mexanizmi to'la to'kis bajara olmagan vazifalarni o'z zimmasiga olib, raqobat muxitini saqlaydi, iqtisodiyot cub'ektlarining erkin faoliyatini tahminlaydi. Xamda jamiyat uchun kerak bo'lgan maxsulotlarni ishlab chiqarishni o'z zimmasiga oladi.

Tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi. O'zbekistonda shakllanayotgan xususiy mulk ikki turdan iborat bo'ladi: Birinchi, yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning, dehqon va fermerlarning xususiy mulki, ikkinchisi, ularning shirkat xo'jaliklardagi paylari, aktsiyadorlik jamiyatlaridagi aktsiyalari, uyushmalardagi ulushlaridan iborat korporativ mulk. Yakka va korporativ (ulushli) xususiy mulk egalari mulkdor hisoblanib, ularning mulkka bo'lgan huquqlari, daxlsizligi davlat tomonidan himoyalanadi. Mulkdor mulkiga o'z xoxishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Xususiy mulk miqyoslarining kengayib borishi iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va tanlash erkinliklarining kengayib borishiga olib keladi.

Tadbirkorlik erkinligi ayrim shaxslar va ularning uyushmalari, guruhlarining foyda, daromad olish maqsadida mahlum sohada xo'jalik, iqtisodiy faoliyat yuritish erkinligini bildiradi. Bu shuningdek, tadbirkorlikning o'z xoxishlariga ko'ra u yoki bu tarmoqda kirishini va chiqishini ham anglatadi.

Tanlash erkinligi iste'molchilar huquqlari va manfaatlarining ustunligini, ularning o'z xoxishi, istaklari, didi, daromadiga mos tovar va xizmatlarni tanlash erkinligiga ega ekanliklarini ifodalaydi.Buning uchun, birinchidan, tovar xizmatlar hamda resurs bozorlari ham qimmat ham arzon, bir-birlarining o'rnini bosuvchi va to'ldiruvchi tovarlar bilan to'lgan bo'lishi. Ikkinchidan, davlat iste'molchilarni ularning hayoti va salomatligiga ziyon va zarar yetkazuvchi tovarlardan himoya qiladi.

Raqobatning demokratik jamiyat barpo etishdagi o'rni. Raqobat bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xo'jaligining eng muiim belgisi, uni rivojlantirish vositasi iisoblanadi.

Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish unga turli tomondan yondashishini talab qiladi. Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar) o'rtasidagi raqobat tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o'z mavqeini mustaikamlash uchun kurashdan iborat. Bunda ular kerakli ishlab chiqarish vositalari, xom ashyo va materiallar sotib olish, ishchi kuchini yollash uchun iam kurashadi. Ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat pirovardida iste'molchilarni o'ziga jalb etish uchun kurashni iam anglatadi.

Resurslarni yetkazib beruvchilar o'zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, tabiiy resurslar, ishchi kuchi) yuqori narxlarda sotish uchun raqobatlashadilar. Ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobat bozor munosabatlari rivojlangan, iqtisodiyot to'liq erkinlashgan sharoitda yorqin namoyon bo'ladi.

Raqobat iste'molchilar o'rtasida iam yuz beradi: ular tovarlarni qulay va arzon narxlarda sotib olishga iarakat qiladilar, yahni xaridor iar bir sarflangan pul birligi evaziga ko'proq naflilikka ega bo'lishga iarakat qiladilar. Arzon va sifatli tovarni sotib olish uchun kurashadilar.

SHunday qilib, raqobat ko'p qirrali iqtisodiy iodisa bo'lib, u bozorning barcha subhektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Raqobat – bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi.

Ishlab chiqaruvchilar sarflangan xarajatlarning iar bir birligi evaziga ko'proq foyda olish maqsadida raqobatlashadilar. Mana shu foyda orqasidan quvish natijasida ular orasida tovarlarni sotish doiralarini kengaytirish, qulay bozorlar, arzon xom ashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbalariga erishish uchun kurash boradi.

O'z navbatida xaridorlar, yahni iste'molchilar sarflagan iar bir so'm xarajati evaziga ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashadilar, ularning iar biri arzon, sifatli tovar va xizmatlarga ega bo'lishga iarakat qiladi.

Ishlab chiqaruvchilarning faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor va mulk egasi sifatida erkin va mustaqil bo'lishi raqobatning iqtisodiy asosini tashkil etadi. CHunki iar bir mulk egasining o'z manfaati bo'lib, ular shu manfaatga erishish uchun intiladi. Mulk egasining tovar ishlab chiqarish va barcha boshqa soialardagi faoliyati shu manfaatga bo'ysundirilgan bo'ladi. Bu jiiatdan qaraganda raqobat erkin iqtisodiy faoliyat qiluvchi subhektlar manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lishini aniq tavsiflaydi. Raqobat mavjud bo'lishining boshqa sharti tovar-pul munosabatlarining mahlum darajada rivojlangan bozor tizimida amal qilishidir.

Raqobatning mazmuni uning vazifalarini ko'rib chiqish orqali yanada kengroq namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxotlar, iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarish, unda demokratik tamoyillari bo'lgan iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va tanlash erkinligini, erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali iqtisodiy xayotni erkinlashtirishga yo'naltirilgandir.

Bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy isloxotlarning birinchi bosqichida (1991-1994 y) maomuriy buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini yangisi, tanglikka barxam berish va iqtisodiyotni barqarorlashtirish xamda respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini xisobga olgan xolda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish vazifalarini xal qilishga kirishildi. Buning uchun quyidagilar amalga oshirildi:

1.Isloxotlarning qonuniy-xuquqiy bazasini shakllantirish va rivojlantirish. Bu davrda mulkchilik, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, tadbirkorlik to'g'risidagi va boshqa ko'plab bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan qonunlar qabul qilindi;

2.Kichik xususiylashtirishni amalga oshirish xisobiga ko'p ukladli iqtisodiyot negizlarini yaratishga kirishildi.

Bu davrda (1992-1994) asosan savdo, axoliga maishiy xizmat ko'rsatish, maxalliy sanoat korxonalarini, uy-joylarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlari amalga oshirildi. Buning natijasida 69 mingdan ortiq obhektlar xususiylashtirildi, ulardan 18,4 mingtasi xususiy mulkka o'tdi. 3569 ta aksiyadorlik jamiyatlari tuzildi kichik va o'rta tadbirkorlik cubhektlarining soni 80 mingga etdi (2-ilovaga qarang).

Iqtisodiy isloxotlarning ikkinchi bosqichida (1995-1999) davlat mulkini dastlabki, kichik xususiylashtirishni tugallash, mulkni xaqiqiy egalari qo'liga topshirish, tadbirkorlik faoliyati uchun keng imkoniyatlar berish vazifalari belgilandi. Bu bosqichda sanoat, qurilish va transport soxasidagi agrosanoat kompleksining go'sht-sut, oziq-ovqat va paxta sanoat tarmoqlaridagi o'rta va yirik korxonalar, shuningdek, Toshkent, Buxoro, Samarqand va Xiva shaxarlaridagi sayyoxlik komplekslari xususiylashtirilishi boshlandi. Bu bosqichda ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari yaratildi, ularning aksiyalarini erkin sotishga chiqarildi xamda keng ko'lamdagi ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar bozori vujudga keldi. Davlatning aksiyalardagi ulushi 26 foizdan oshmaydigan qilib qo'yildi. Aksiyalarning 50 foizdan ko'prog'i axoliga, milliy va xorijiy investorlarga erkin sotiladigan bo'ldi.

Ammo shu davrlarda kichik va o'rta tadbirkorlik cubhektlari faoliyatiga davlat va turli nazorat organlarining noo'rin noqonuniy aralashuvi xolatlari ko'paydi.

Iqtisodiyotning nodavlat sektorida monopolistik birlashmalar, korxonalar vujudga keldiki, ular ichki isteomol va ishlab chiqarish vositalari bozorlarida o'z xokimliklarini o'rnatib, narx-navoning ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Ushbu sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining ustav fondidagi aksiyalarida davlat ulushi katta miqdorda saqlanganligi oqibat davlat ishonchli vakillarining ularning faoliyatiga noo'rin aralashishiga imkon yaratar edi.

Valuta tizimi va bozorining davlat tomonidan qattiq nazorat qilinishi esa

korxonalar va tadbirkorlarning tashqi bozorga erkin chiqish imkoniyatini kamaytirardi. Bozor va ishlab chiqarish infratuzilmalarining rivojlanmaganligi tufayli tadbirkorlar moddiy-texnika resurslari, moliyaviy mablag'lar, kreditlar olishda qiyinchilikka uchrar edilar. Ushbu noxush xolatlar iqtisodiy xayotni yanada erkinlashtirish, tadbirkorlik va iqtisodiy faoliyat erkinliklarini kengaytirish, xususiy mulkdorlar mavqeini yanada ko'tarishni taqozo etdi.

Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish. SHu bilan birga, xolisona tahlil, islohotlarimizning mantiqi va izchilligi, ularning eng zamonaviy bozor normalariga muvofiqligini baholash iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada chuqurlashtirish, takomillashtirish va liberallashtirish bo'yicha jiddiy ehtiyoj mavjudligini ko'rsatmoqda.

Birinchi navbatda, xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo'l bilan qo'lga kiritgan yoki yaratgan o'z mulkining daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta'minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratishimiz zarur. Har bir tadbirkor avvalo shuni aniq-ravshan bilib olishi kerakki, davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisidir. SHuning uchun ham tadbirkorlar o'z biznesiga bexavotir investitsiya kiritishi, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishi, mahsulot hajmi va olayotgan daromadini ko'paytirishi, o'z mulkiga o'zi egalik qilishi, foydalanishi, tasarruf etishi lozim. Ayni shu maqsadda bozor iqtisodiyotining negizi hisoblangan xususiy mulkka nisbatan davlat tomonidan berilayotgan asosiy kafolatlarni mustahkamlashga qaratilgan «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish zarur.

SHuningdek, boshqaruv tizimini takomillashtirish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida «Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to'g'risida»gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan ruxsat berish tartib-qoidalarining qathiy cheklangan ro'yxati va turlarini aniq belgilab qo'yish, qonunda nazarda tutilmagan ortiqcha ruxsatnoma va ruxsat berish tartib-qoidalarining yangi turlari kiritilishini qonun bilan keskin taqiqlash zarur.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish. Iqtisodiy xayotni yanada erkinlashtirish esa demokratik jamiyat qurilishining asosi sifatida uning iqtisodiy negizlarini mustaxkamlashni tahminlaydi. Natijada jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni kafolatlovchi, iqtisodiy rivojlanishni tahminlovchi amalda o'rta mulkdorlar sinfi shakllandi.

Prezident I.A. Karimov iqtisodiy xayotni yanada erkinlashtirish yuzasidan quyidagi vazifalarni belgilab berdi:

Birinchidan, mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini tubdan xal qilish. Buning uchun xususiy mulkchilik etakchi o'rinda turadigan ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etish.

Ikkinchidan, xaqiqiy raqobat muxitini shakllantirish;

Uchinchidan, bozor infratuzilmasini rivojlantirish;

To'rtinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish;

Beshinchidan, valuta tizimi va bozorni erkinlashtirish.

Oltinchidan, davlat va turli tekshiruvchi, nazorat qiluvchi organlar tomonidan korxonalarning xo'jalik faoliyatiga noo'rin aralashishni cheklab qo'yish.

Ushbu vazifalarni xal qilish uchun O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishni yanada chuqurlashtirish tadbirlari olib borildi. 2000-2002 yillarda 3117 ta tarmoq tarkibini belgilab beruvchi yirik korxonalar, ijtimoiy-madaniy obhektlar davlat tasarrufidan chiqarildi. SHu davr oxiriga kelib, aksiyadorlik jamiyatlari soni 6000 dan oshib ketdi.

Xususiy sektor miqyoslarini kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish. Bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlikni kengaytirish uchun biznesning yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy biznesni qonuniy belgilab qo'yish vaqti keldi. Mamlakatimizda biznesni tashkil qilishning ushbu shakli biznesni yuritishda yuzaga kelgan milliy anhanalarimizga, xo'jalik yuritish faoliyatining mavjud holatiga to'la mos keladi. Ishonchim komilki, bunday biznesni tashkil qilishning qonunchilik bazasi yaratilsa, oilaviy biznesning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish, iqtisodiyotning turli sohalarida uning jadal va keng rivojlanishi va yangi ish o'rinlarining ochilishiga sharoit tug'iladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida mamlakatimiz moliya-bank tizimi o'zining barqaror va ishonchli ekanini isbotladi. SHu bilan birga, bu tizimning yanada mustahkamlanishi xususiy banklar va xususiy mulkka asoslangan lizing, sug'urta kom'aniyalari, kredit uyushmalari, mikromoliyaviy tashkilotlar kabi moliyaviy institutlarni tashkil etishning qonunchilik asoslarini shakllantirish hisobidan bank-moliya sohasiga xususiy ka'italni jalb qilish bilan ham bog'liq. Bu esa bank va boshqa moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatning kengayishi hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatining oshishiga imkon beradi va eng yuksak xalqaro standartlar talabiga mos zamonaviy bozor infratuzilmasining rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Yurtimizda o'tgan yillar davomida bozor iqtisodiyoti sohasidagi o'zgarishlarning ishonchli qonunchilik bazasini shakllantirish borasida amalga oshirilgan ulkan ishlar hech kimga sir emas, albatta. Bularning barchasini ehtirof etgan holda, mavjud qonunlarimizning ko'pchiligini ularni qo'llash amaliyoti va mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi davrdagi yangi real holatidan kelib chiqib, jiddiy qayta ko'rib chiqish zarur.

Tadbirkorlik tizimida oilaviy biznesning o'rni. Malumki, bozor iqtisodiyotining uchta tayanch nuqtasi bor. Ular xususiy mulk, erkin tadbirkorlik (sohibkorlik) va raqobatdir. Bizningcha, qishloq xo'jaligida xususiylashtirish, ayniqsa yerni sotish

va sotib olish ob'ektiga aylantirish masalasi ancha murakkab, bizning sharoitimida dexqonchilik asosan suqorishga asoslangan, ekinga yaroqli yer maydonlari ko'p jihatdan cheklangan, katta miqdorda ekiladigan texnika ekinlari, shu jumladan, paxta jamoa bo'lib mehnat qilishni taqozo etadi. Bundan tashqari, mamlakat miqiyosida yer kadastirining ishlab chiqilishi, yerlar baxolanishi kerak. Bu ma'lum vaqt talab qilinadigan katta yumushlardir. O'tish davri xali to'la tugalanmagan, boxolar turli ichki va tashqi omillar ta'sirida tebranib turgan paytda bugungi mezonlar ertangi vaziyatni to'la ifodalay olmasligi xam mumkin.

Va nihoyat, bu yerda qaror topgan an'analarni xam nazardan soqit qilolmaymiz. Extimol yerni xususiy mulk obektiga aylantirish borasida istagancha gapirish va tortishish mumkindir. Lekin bizning o'lkada xamisha dexqon yer egasimas, yerning o'ziga biriktirilgan, Rossiyada esa krepostnoy dexqon pomeshchikniki bo'lib kelgan. Birgina shu fenomenning o'zi xam xususiy mulkchilik yerga egalik qilishning egona shakli bo'la olmasligini ko'rsatadi.

Dexqonchilikda oilaviy qudrat shaklini qo'llash, yerga egalik qilishda, daromadni taqsimlashda esa paychilik usulidan foydalanish, pay orqali mulkka ega bo'lish, daromad olish, shartnoma asosida ishlash bugun maqsadga muvofiq deb xisoblanmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda aholining 3 – 5 foizini tashkil etadigan fermerlar oziq ovqat mahsulotlari bilan o'z xalqini to'la ta'minlabgina qolmay, ayni paytda ularni boshqa davlatlarga xam eksport qiladi. Shundaylikka shunday, lekin xuddi shu Gollandiyada yoki Amerikada fermerlarga servis xizmat ko'rsatish bo'yicha qanchadan - qancha aholi band ekanligini e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. Fermer o'z uyida yoki fermasida turib, kerakli urug'lik, ma'danli o'g'it yoki texnika xizmati uchun, arzon va ishonchli ta'minotchi xamkorligiga buyurtma berish va uni o'z vaqtida olishi mumkin. U extiyot qismlar, yoqilg'ini xaftalab kutib o'tirmaydi. Toki dexqon (fermer) o'zining asosiy ishi – xosil to'plash va yig'ish bilan shug'ullanmas ekan, uning ishida unum, samara xam bo'lmaydi.

Prezidentimizning qishloqda xizmat ko'rsatish sohasini yetarlicha tashkil qilish zarurligini, dexqonlarga davlat yordamida ayamaslik kerakligini qayta - qayta ta'kidlayotganini boisi shunda. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 1996 yilda yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarining 53,1 foizni aholi shaxsiy yordamchi xujatlarida yetishtiriladi. Ijara korxonalari, shirkatlar va fermerlar xo'jaliklarining xam xissasi ortdi. Agar ularga o'z vaqtida kerakli miqdorda yordam ko'rsatiladigan bo'lsa, qabul punktlari va qayta ishlash korxonalari quvvati yetarli bo'lsa, ular bundan xam ko'proq mahsulot ishlab chiqarishi va iste'molchi bozorini boyitishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va valyuta bozori. Moliyaviy munosabatlar va ularga xizmat kiluvchi maxsus muassasalar mamlakatning moliya tizimini tashkil qiladi. Davlat pul mablag'larining asosiy bo'g'ini xizmat qiladi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi ijtimoiy vazifalarni xal qilish uchun sharoit yaratishdir. Moliya-kredit siyosati, narxlarni, umuman iqtisodiyotni erkinlashtirish hamda bozor infrastrukturasini shakllantirish muammolari Islom Karimovning qator asarlarida o'z ifodasini topgan. Mamlakat Markaziy banki pul-kredit tizimini markazlashgan

tartibda boshqaradi va davlatning yagona kredit siyosatini amalga oshiradi. U barcha banklarning faoliyatini o'zaro muvofiqlashtiradi, jumladan ular o'rtasidagi xisob-kitoblarni tashkil etadi, qimmatli qog'ozlarni chiqaradi, pul muomalasini tartibga soladi, davlat byudjetining kassa ijrosini nazorat etadi.

Mamlakatning pul-kredit siyosatini olib borish yuzasidan ulkan me'yoriy-huquqiy negiz tayyorlandi. Respublikamizda iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi milliy valyutaning harid quvvatini oshirish, inflyatsiyani kamaytirishga, ishlab chiqarishni barqarorlashtirish uchun zamin tayyorlashga qaratilgan harakatlar orqali iqtisodiy tanglikni yengib o'tish, bozor iqtisodiyotining zarur shart-sharoitlarini yaratish, jahon moliya-kredit tizimi bilan aloqalarni uzviy olib borishni yanada rivojlantirishga qaratilgan. Amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati natijasida respublikada moliyaviy va iqtisodiy barqarorlik ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 16 iyulda e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq 1994 yil 1 iyuldan boshlab O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'm muomalaga kiritildi. So'm O'zbekiston Respublikasining valyuta birligi hisoblanadi.

Respublikada byudjet munosabatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va respublikaning boshqa qonun xujjatlari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining xozirgi byudjet tizimi davlat byudjeti, Qorakalpog'iston Respublikasi byudjeti, shuningdek, viloyat, tuman, shahar, byudjetlarini o'z ichiga oladigan maxalliy byudjetlarning majmuidan iborat. O'zbekiston Respublikasi byudjeti Oliy Majlisi tomonidan, Korakalogiston Respublikasi byudjeti Juqorg'i Kengesi tomonidan, qonun tarzida tasdiqlanadi, maxalliy byudjetlar xalq deputatlari maxalliy Kengashlari qarori bilan tasdiqlanadi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha byudjet daromadlari qismining ijrosini nazorat qilishni davlat soliq organlari ta'minlaydilar. Byudjetni bajarish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi, Qorakalpogiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, xokimliklar o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida respublika va tegishli maxalliy byudjetlarning daromadlar va harajatlar qismlariga o'zgartirishlar kiritishlari mumkin. Barcha darajadagi byudjetlarning muvozanatlangan bo'lishi byudjet-moliya siyosatining zarur sharti hisoblanadi. Mamlakatda xamma darajadagi byudjetlarning kassa ijrosini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'z muassasalari va tijorat banklari orqali amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1994 yil 13 dekabrdagi qaroriga ko'ra 1995 yildan respublikaning umumiy (to'planma) byudjetiga amaldagi qonunlarga muvofiq tashkil etiladigan byudjetdan tashqari jamg'armalar: ijtimoiy sug'urta jamgarmasi, bandlikka yordam jamgarmasi, kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi jamgarmasi, mineral-xom ashyo resurslarini takror ishlab chiqarish jamg'armasi, yo'l jamg'armasi, O'zbekiston Davlat jamgarmasi, maxalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining maxsus jamgarmalari xam qo'shiladi.

1998 yilda Davlat byudjetining daromadlari 438,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Byudjet harajatlari 467 mlrd. so'm bo'ldi. Byudjet takchilligi yalpi ichki mahsulot

(YaIM)ning 2,1%ga teng. Bu iqtisodiyot uchun me'yor darajadagi xolat hisoblanadi. Davlat byudjeti harajatlari tarkibida xalq xujaligini rivojlantirish, ijtimoiy-madaniy tadbirlar, davlat boshqaruvi va ma'muriyati apparati 211,9 mlrd. sum, ya'ni 66,7 foizni (yalpi ichki mahsulotning 21,5%) tashkil etmoqda. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida sug'urta ishi muhim ahamiyat kasb etdi. 1993 yil 6 mayda O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta to'g'risida» Qonuni qabul qilindi. Sug'urta ishini monopoliyadan chiqarish bo'yicha faol ishlar boshlandi. 1992 yildan boshlab Respublikada sug'urta kompaniyalari, firmalari, aksiyadorlik jamiyatlari, qo'shma korxonalari taklif etadigan sug'urta xizmati bozori shakllandi va rivojlanmokda. Bu bozorda ixtisoslashgan davlat-aksiyadorlik kompaniyalari yetakchi mavqeni egallaydi.

Xozir sug'urta tashkilotlari aholiga, korxonalar va tashkilotlarga 40 dan ortiq turdagi sug'urta xizmati ko'rsatadi.

Mamlakatimizda sug'urtaning majburiy va ixtiyoriy turlari bor. Respublikada majburiy sug'urta bilan faqat davlat-aksiyadorlik sug'urta tashkilotlari shug'ullanadi va ular majburiy sug'urtaning qishloq xujaligi korxonalari mol-mulki; fuqarolarning mol-mulki; yo'lovchilar; harbiy xizmatchilar; soliq xizmati xizmatchilari; uchuvchilar tarkibi; xavfli kasblar; fuqarolik mas'uliyati sug'urtasi turlarini amalga oshiradi.

Eng yirik sug'urta kompaniyalari: «U z a g r o s u g' u r t a» davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi, «U z b ye k i n v ye s t» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi, «K a f o l o t» davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi 1997 yil tashkil etilgan. Bulardan tashqari «Banksug'urta», «Birjasavdosug'urta», «Madad», shuningdek 80 dan ortiq nodavlat sug'urta kompaniyalari bor. **O’rta mulkdorlar qatlamini rivojlantirish, tadbirkorlik va iqtisodiy faoliyat erkinligini ta’minlash - demokratik jamiyat barqaror rivojining zaruriy sharti.** Bozor munosabatlariga o'tish shuning uchun xam zarurki, u insonlarning mehnat va ijodiy imkoniyatlarini, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga, boqimandalik kayfiyatiga barxam berishga, egalik xissini tiklash va rivojlantirishga olib keladi. insoniyat bozor munosabatlaridan takomillashganroq boshqa mexanizmni xali yaratgan emas. Sotsializm insonlarda joylashgan cheksiz imkoniyatlarni ochishga qodir emas edi. Ishlab chiqarishda, taqsimotda tekischilik xukm surgan joyda taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. To'g'ri, ekstensiv omillar, xalqni qullarcha ezib ishlatish, ularga kam xaq to'lash xisobiga ma'lum natijalarga erishish mumkin. Ammo u qisqa muddatli, vaqtinchalik samara beradi, xolos.

Mamlakatda chinikam o'rta mulkdorlar sinfi shakllangan takdirdagina islohotlar sezilarli samara beradi, mulkchilik masalalari xal bo'ladi – deb xisoblaydi mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida (196 bet).

Iqtisodiy jihatdan sobitqadam va barqaror jamiyatni shakllantirish, eng avvalo tadbirkorlik va mulkdorlar sinfi davlat va jamoat qurilishida, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab turish va mustaxkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ayni o'rta mulkdorlar sinfi shakllantirilayotgan fuqarolik jamiyatining tayanchidir. Agar mulk shakllari xilma-xilligi va birinchi navbatda xususiy mulk har qanday

davlatning demokratik negizlari barqarorligining iqtisodiy asosi xisoblansa, real ishlab chiqarish vasitalarining o'rta mulkdorlaridan iborat kuchli qatlamning mavjud bo'lishi uning siyosiy asosi ekanligini bildiradi. Aholi orasida xaqiqiy mulkdorlar o'rta qatlamining ko'pchilikni tashkil etishi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni orqaga qaytarish imkoniyatlarini bartaraf etishning kafoloti hisoblanadi, deb yozadi Prezidentimiz.

Shu sababli iqtisodiy o'zgarishlar jarayonini mamlakatda o'rta mulkdorlarning chinakam sinfini shakllantirishdek dolzarb vazifani xal qilish bilan bog'liq. Odam o'zini chinakamiga mulkdor deb xis etmas ekan, o'z huquqlari uchun, pirovard natijalar va ishlab chiqarish samaradorligi uchun kurashmaydi. Jamiyatda barqarorlikni saqlab qolish va himoya qilishga intilmaydi. Chinakam mulkdorlar sinfi xam mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni izchil amalga oshirish xisobiga, xam kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish, qimmatli qog'ozlar bozorini yaratish xisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish yo'li bilan shakllantiriladi.

Bizning mamlakatimizda ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish vazifasi qo'yilgan. Bunda ustuvorlik xususiy mulkka, kichik va o'rta biznesga berilmokda. O'lkamizning o'ziga xosligi, ishchi kuchining xaddan tashqari ko'pligi, rivojlangan qishloq xo'jalik va xom ashyo bazasi, aholining an'analari, ruhiyati kichik va oilaviy biznesni, xususiy tadbirkorlikni faol rivojlantirishni ob'ektiv zarurat qilib qo'yadi. Bu o'rinda 1999 yilning boshida mamlakatimizda 99,8 mingga kichik va o'rta biznes korxonalarining faoliyat ko'rsatilganligini qayd etishning o'zi kifoya. Shundan 85,7 minggi kichik va 14,1 minggi o'rta biznesga tegishlidir. O'rta va kichik biznes ayniqsa Toshkent, Samarqand shaharlarida, Toshkent, Samarqand, Andijon va Farg'ona viloyatlarida rivojlangan.

Kichik biznes – jamiyatda xam iqtisodiy, xam siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishga yordam beradigan o'rta tadbirkorlar sinfining paydo bo'lishi demakdir. Bu – respublika bozorini zarur iste'mol tovarlari va xizmatlar bilan boyitishdir. Bu – yangi ish o'rinlaridir. Faqat kichik va xususiy tadbirkorlikni keng, xamma joyda rivojlantirishgina g'oyat keskin muammoni – aholining (ayniqsa ortiqcha mehnat zaxiralari mavjud bo'lgan qishloq joylar va mintaqalarda) ish bilan bandligini ta'minlash vazifasini xal qilishga qodir.

Iqtisodiyotni yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilish. Islohotlarimizning keyingi bosqichida «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risida», «Xususiy korxona to’g’risida», «Valyutani tartibga solish to’g’risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to’g’risida», «Fermer xo’jaligi to’g’risida»gi qonunlar, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi va iqtisodiyotni isloh qilish bo’yicha umumiy hisobda 400 dan ziyod qonun hujjatlari ishlab chiqilib, qabul qilindi va joriy etildi. Ularning barchasi iqtisodiyotimizni yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilishda nafaqat mustahkam huquqiy asos, balki amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ortga qaytmasligining kafolati bo’lib xizmat qilmoqda.

SHu bilan birga, xolisona tahlil, islohotlarimizning mantiqi va izchilligi, ularning eng zamonaviy bozor normalariga muvofiqligini baholash iqtisodiyotni boshqarish

tizimini yanada chuqurlashtirish, takomillashtirish va liberallashtirish bo'yicha jiddiy ehtiyoj mavjudligini ko'rsatmoqda.

Birinchi navbatda, xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo'l bilan qo'lga kiritgan yoki yaratgan o'z mulkining daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta'minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratishimiz zarur. Har bir tadbirkor avvalo shuni aniq-ravshan bilib olishi kerakki, davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisidir. SHuning uchun ham tadbirkorlar o'z biznesiga bexavotir investitsiya kiritishi, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishi, mahsulot hajmi va olayotgan daromadini ko'paytirishi, o'z mulkiga o'zi egalik qilishi, foydalanishi, tasarruf etishi lozim. Ayni shu maqsadda bozor iqtisodiyotining negizi hisoblangan xususiy mulkka nisbatan davlat tomonidan berilayotgan asosiy kafolatlarni mustahkamlashga qaratilgan «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish zarur.

SHuningdek, boshqaruv tizimini takomillashtirish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida «Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to'g'risida»gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan ruxsat berish tartib-qoidalarining qathiy cheklangan ro'yxati va turlarini aniq belgilab qo'yish, qonunda nazarda tutilmagan ortiqcha ruxsatnoma va ruxsat berish tartib-qoidalarining yangi turlari kiritilishini qonun bilan keskin taqiqlash zarur.

Bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlikni kengaytirish uchun biznesning yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy biznesni qonuniy belgilab qo'yish vaqti keldi. Mamlakatimizda biznesni tashkil qilishning ushbu shakli biznesni yuritishda yuzaga kelgan milliy anhanalarimizga, xo'jalik yuritish faoliyatining mavjud holatiga to'la mos keladi. Ishonchim komilki, bunday biznesni tashkil qilishning qonunchilik bazasi yaratilsa, oilaviy biznesning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish, iqtisodiyotning turli sohalarida uning jadal va keng rivojlanishi va yangi ish o'rinlarining ochilishiga sharoit tug'iladi.

Xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlash, mulkdorlar huquqlarining kafolatlari ta'minlanlashni takomilashtirish. Hozirgi vaqtda yana bir muhim masala — mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes, birinchi navbatda xususiy tadbirkorlikning roli va ulushini yanada kengaytirishni ta'minlay oladigan qonunlarni qabul qilish masalasi biz uchun dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonning bu yilgi yal'i ichki mahsulotida kichik biznesning ulushi 50 foizdan ortib borayotganiga qaramasdan, afsuski, bu soha real iqtisodiyotimizda, avvalambor sanoatda yetakchi o'rinni egallay olmaya'ti. Ushbu vazifani hal etish uchun «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunnin yangi tahririni tayyorlash zarur. Bu qonunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini tashkil qilish yo'llarini soddalashtirish, ularning faoliyati uchun

ko’proq erkinliklar berishni ko’zda tutish lozim. Ushbu sektorni kreditlash, resurslardan foydalanish, davlat buyurtmalarini olish, tadbirkorlik subektlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni sotish uchun yangi imtiyozlar berish, xalqaro amaliyotga muvofiq daromadlarning yillik deklaratsiyasi shakliga bosqichma-bosqich o’tish, moliya va statistika hisobotlari tizimini yanada soddalashtirish, jumladan, bunday hisobotlarni vakolatli davlat organlariga elektron shaklda taqdim etish kabi mexanizmlar hisobidan qo’llab-quvvatlash masalalari ham qonunda o’z aksini to’ishi darkor.

Hammamiz yaxshi tushunamizki, bozor munosabatlarining asosi bo’lgan raqobatni rivojlantirishda mono’oliyaga qarshi qonun hujjatlari katta rol o’ynaydi. Ammo, amaldagi «Tovar bozorlarida mono’olistik faoliyatni cheklash va raqobat to’g’risida»gi Qonun bugungi kunda eskirdi va zamon talablariga javob bermay qoldi. SHuni e’tiborga olgan holda, «Raqobat to’g’risida»gi yangi qonunni ishlab chiqishimiz va qabul qilishimiz zarur. Ushbu qonunda mono’olistik faoliyatni nafaqat tovarlar bozorida, balki moliya bozorlarida ham tartibga solishni nazarda tutish lozim. SHuningdek, birja savdolarida ham mono’oliyaga qarshi mexanizmlarni, aktsiyalarni sotib olish, qo’shish va birlashtirish bitimlarini tartibga solish va nazorat qilish tartib-qoidalarini soddalashtirish bo’yicha normalarni ushbu qonunga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yal’i ichki mahsulotning 80 foizdan ortig’ini nodavlat sektor ta’minlamoqda. Tan olishimiz kerakki, 1991 yilda qabul qilingan «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to’g’risida»gi Qonun, o’tgan davr mobaynida 80 tadan ortiq qonunosti hujjati unga uyg’unlashtirilganiga qaramasdan, bugun qayta ko’rib chiqishni va yangi tahrirda qabul qilishni talab etmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kengaytirish, bozor iqtisodiyoti sohasidagi o’zgarishlarning qonunchilik bazasini shakllantirish. Bozor munosabatlarining qaror topishi va mulkdorlar sinfining shakllanishi davlat mulkini xususiylashtirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, erkin sohibkorlik va raqobatni rivojlantirish kabi muammolarga bog'liq. Bu muammolarni xal etmasdan turib bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlash mumkin emas. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida xususiylashtirishni amalga oshirish raqobat va tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy va iqtisodiy negizlari yaratildi. Bu o'rinda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida» (13.10.1990), «O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida» (15.02.1991), «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida» (19.11.1991), «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida» (21.12.1995), «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida» (27.12.1996), «Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» (25.04.1996) kabi boshqa o'nlab qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, xukumat qarorlari hamda farmoyishlarini eslab o'tishning o'zi kifoya.

Amalga oshirilgan tadbirlarning natijasi o'laroq mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni ancha chuqurlashib bormoqda. Mulkchilikning turli shakllari paydo bo'lib, ko'p ukladli iqtisodiyot asoslari yaratilmokda, nodavlat sektori rivojlanib, iqtisodiyotning barcha asosiy tarmoqlarida uning xissasi ortib bormoqda.

«Kredit byurolari faoliyati va kredit axboroti almashuvi to'g'risida», «Garov reestri to'g'risida», «Rieltorlik faoliyati to'g'risida», «Investitsiya va pay fondlari to'g'risida», «Innovatsiyalar va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish to'g'risida»gi qonunlarni qabul qilinishi. Mamlakatimizning strategik muhim tarmoqlari va korxonalarida aktsiyalarning nazorat 'aketi, tahbir joiz bo'lsa, «oltin» aktsiyalarni davlat ixtiyorida saqlab qolgan holda, iqtisodiyotning eng muhim yetakchi tarmoqlariga xususiy investorlarni jalb qilish va ularda nodavlat sektor ulushini yanada kengaytirish zarur. Bunda bo'lajak investorlarning barcha toifalariga xususiylashtirish jarayonlarida teng sharoit yaratishni ta'minlash, ularda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, xususiylashtirish bitimlarining ochiqligi va oshkoraligini ko'zda tutish lozim.

Yuqorida tahkidlab o'tilgan g'oyat muhim ahamiyatga molik qonunlarni takomillashtirish bilan birga, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining surhati va mantiqiy talablaridan kelib chiqqan holda, erkin bozor iqtisodiyoti munosabatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan bir qator qonunlar qabul qilishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. «Kredit byurolari faoliyati va kredit axboroti almashuvi to'g'risida», «Garov reestri to'g'risida», «Rieltorlik faoliyati to'g'risida», «Investitsiya va 'ay fondlari to'g'risida», «Innovatsiyalar va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish to'g'risida»gi va boshqa yangi qonunlar shular jumlasidandir.

SHundan kelib chiqqan holda, bizning yaqin istiqboldagi eng muhim vazifamiz boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish – istehmol talabini kengaytirish maqsadida sotsial sohani rivojlantirish, mehnatga haq to'lashni yanada oshirish, xizmat ko'rsatish sektorini, infratuzilma obektlarini rivojlantirishga, trans'ort va kommunikatsiya loyihalari amalga oshirilishiga alohida e'tibor berishdir.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini yumshatishga qaratilgan Inqirozga qarshi choralar dasturi mazmun-mohiyati. **Ko'plab mamlakatlarni qamrab olgan Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekistonga iam o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "... tobora chuqurlashib borayotgan Jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi" , - deb ta'kidladi. Bunga sabab O'zbekiston bugun xalqaro iamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Buning tasdijini Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda Respublikamizning tashqi dunyo bilan aloqalarining tobora kengayib borayotganida, rivojlangan mamlakatlar ko'magida**

va iamkorligida mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jiiozlash bo'yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, maisulot va tovarlar im'orti va eksportining o'sib borishida va boshqa misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

SHu boisdan iam Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi boshqa Jahon iamjamiyati mamlakatlari kabi O'zbekistonga iam ta'sir ko'rsatmoqda. Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlari mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishi va samaradorlik iolatlariga ta'sir etmoqda. Inqiroz ta'sirini Yurtboshimiz "Jahon bozorida talabning pasayib borishi oqibatida O'zbekiston eksport qiladigan qimmatbaio va rangli metallar, paxta, uran, neft maisulotlari, mineral o'g'itlar va boshqa maisulotlarning narxi tushib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va investorlarning eksportdan oladigan tushumlari kama-yishiga olib keladi. Ularning foyda ko'rishiga va ishlab chiqarish rentabelligiga, oxir-oqibatda esa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarimizning o'sish surhatlari va iqtisodiyotimizning boshqa tomonlariga salbiy ta'sir etadi", - deb izoilab berdi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekistonga ta'siri boshqa ko'pgina davlatlarga nisbatan bir muncha yumshoq bo'layotganini iayotning o'zi tasdiqlamoqda. Bunga sabab O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos isloiot va modernizatsiya modeli asosida mamlakatimizda amalga oshirilgan tub o'zgarishlar milliy iqtisodiyotimizning barqaror va mutanosib rivojlanishini tashqi salbiy iolatlarga, turli inqirozlarga bardoshli bo'lishini tahminladi.

SHu boisdan iam Prezident I.A.Karimov "Biz istiqlolning dastlabki yillarida qabul qilgan, mashiur besh tamoyilga asoslangan ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli yildan-yilga ilgarilab borganimiz sari o'zini amalda oqlab, naqadar to'g'ri va puxta ekanini isbotlamoqda, deb aytish uchun bugun barcha asoslarimiz yetarli.

Birinchi navbatda iqtisodiyotning mafkuradan xoli bo'lishi, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligida o'z ifodasini topgan pragmatik iqtisodiy siyosat, davlatning bosh isloiotchi vazifasini o'z zimmasiga olishi, qonun ustuvorligini tahminlash, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, isloiotlarni bosqichma-bosqich va vazminlik bilan amalga oshirish kabi tamoyillar – ayniqsa dunyoda avj olib borayotgan moliyaviy va iqtisodiy inqiroz sharoitida o'zining dolzarbligi va hayotiyligini yana bir bor ko'rsatmoqda" , - deb ta'kidlagan.

O'zbekistonda ushbu siyosat orqali moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror iamda uzluksiz ishlashini tahminlash uchun asos yaratilgan. Jumladan, tijorat banklarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat tufayli, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini iimoyalash kafolatlari to'jrisidagi"gi qonunga muvofiq tijorat banklarining aktivlari miqdori zaxiralarni iisobga olgan iolda, 13 trillion 360 mlrd. so'mdan oshdi. Bu aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning jalb qilingan depozitlari iajmidan taxminan 2,4 barobar ko'p demakdir.

SHuni ta'kidlash joizki, 2006 yilda tashkil etilgan "Mikrokreditbank" davlat

tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida iqtisodiyotni rivojlantirishda muiim rol o'ynamoqda. Ushbu bankning Respublika hududlarida 78 ta filial va 270 dan ziyod minibanki faoliyat yuritib, 2007-2008 yillar davomida uning aktivlari miqdori 3,5 barobarga, kichib biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash iajmi 4 barobarga oshdi va bu maqsadlarga 150 mlrd. so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi.

O'zbekiston qisqa muddatli spekulyativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatli va imtiyozli foiz stavkalari bo'yicha jalb etish tamoyiliga doimo amal qilib kelinganligi tufayli iam Respublikaning tashqi qarzi 13,3% miqdorida bo'ldi. Vaholanki, ko'plab davlatlarning tashqi qarz masalasidagi puxta o'ylanmagan siyosati ularning iqtisodiyotini zaif, tashqi omillarga qaram, xatarli vaziyatlar oldida iimoyasiz va nochor aivolga solib qo'yganini ko'rish, kuzatish qiyin emasligini Yurtboshimiz o'zining asarida asoslab berdi.

Prezident I.A.Karimov O'zbekiston o'zining ishonchli va to'lov qobiliyatiga ega hamkor ekanini, mamlakatimizda chet el sarmoyasini jalb etish bo'yicha iar tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratilganligi tufayli faqatgina 2007-2008 yillar davomida o'zlashtirilgan chet el investitsiyalari hajmi 2,5 barobardan ko'proq oshganini qayd etgan. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining Jahon iamjamiyatiga integratsiyalashuvi jarayonining chuqurlashib borayotganligini ko'rsatadi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatga investitsiyalarni yanada ko'proq jalb etish orqali, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jiiozlashni yanada jadallashtirish imkoniyatiga egadir.

O'zbekistonda Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlarini oldini olish va yumshatish imkonini beradigan omillar quyidagilardan iborat:

— Tijorat banklarining likvidliligi va kapitallashash darajasini oshirishga qaratilgan siyosatning 2005 yildan boshlab izchillik bilan amalga oshirilganligi.

— puxta o'ylangan pul-kredit siyosatining amalga oshirilishi natijasida inflyatsiyaning prognoz ko'rsatkichlari chegarasida saqlab qolinayotganligi.

— Oqilona byudjet-soliq siyosatining olib borilganligi natijasida Davlat byudjeti profitsit bilan bajarilmoqda, soliq yukining pasayib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

— Tashqi savdo tarkibida chuqur ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'linganligi.

— Mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar miqdorining barqaror o'sish surhatiga ega bo'layotganligi.

— Mamlakat tashqi qarzining mo'tadil darajasini ta'minlashga muvaffaq bo'linganligi.

— Fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan katta miqdorda moddiy va moliyaviy resurslar ajratilayotganligi.

Mamlakatimizda Jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi O'zbekistonni 2009 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.

Inqirozga qarshi dasturining eng muiim yo'nalishlari quyidagilardan iborat.

Birinchidan – **korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta**

jiiozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish.

Ikkinchidan – **joriy konhyunktura keskin yomonlashib borayotgan iozirgi sharoitda eksportga maisulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rajbatlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish:**

- aylanma mablajlarini to'ldirish uchun korxonalarga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 70 foizidan ortiq bo'lmagan stavkalarda 12 oygacha bo'lgan muddatga imtiyozli kreditlar berish;

- tayyor maisulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarni byudjetga barcha turdagi soliq va to'lovlardan – qo'shimcha qiymat soliji bundan mustasno – ozod qilish muddatini 2012 yilgacha uzaytirish;

- banklar kreditlari bo'yicha to'lov muddati o'tgan va joriy qarzlar miqdorini qayta ko'rib chiqish, byudjetga to'lanadigan to'lovlarning penyasidan kechish va boshqa muiim imtiyoz va preferentsiyalar berish.

Uchinchidan – qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va maisulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish iisobidan korxonalarning raqobatdoshligini oshirish.

Iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan muammolarning oldini olish demokratik jamiyat qurishning sharti ekanligi. **Mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishning "O'zbek modeli" jaion moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida o'zini amalda oqlab, naqadar to'g'ri va puxta ekanini isbotlamoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, iar tomonlama asosli va chuqur o'ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'siridan iimoya qiladigan kuchli to'siq, aytish mumkinki, mustaikam va ishonchli iimoya vositasini yaratdi" , – deb ta'kidladi.**

Endilikda mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish, boshlangan tarkibiy o'zgarishlar va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlarini davom ettirish, qishloqlarimiz qiyofasini, ishlab chiqarish munosabatlarining mazmun-moiiyatini o'zgartirish, xizmat ko'rsatish va kichik biznes sohasini, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlantirish, bank ishini yanada takomillashtirish, aioli bandligini ta'minlash va hayot darajasini oshirishga qaratilgan ishlarni izchil amalga oshirish vazifalari qo'yilgan. Yurtboshimiz "Ayni paytda bu dastur inqirozdan so'ng O'zbekiston iqtisodiyotining yanada kuchli, barqaror va mutanosib rivojlangan holda maydonga chiqishi, jaion bozorlarida o'zimizning mustaikam o'rnimizni egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish bo'yicha oldimizda turgan ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun ishonchli zamin yaratadi" , – deb ta'kidlagan.

10-mavzu: Demokratik jamiyat qurishda kuchli ijtimoiy himoya va adolat tamoyillari

Reja:

1. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishda “kuchli ijtimoiy himoya” va “ijtimoiy adolat tamoyillari” tushunchalari.
2. O’zbekiston ijtimoiy hayotidagi o’zgarishlar.
3. Demokratik jamiyatda oila institutining o’ziga xosligi.

“O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishda “kuchli ijtimoiy himoya” va “ijtimoiy adolat tamoyillari” tushunchalari. O’zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim natijalaridan biri ijtimoiy ximoya siyosatining demokratik jamiyatni barpo etishdagi o’rnini va ahamiyatining ortib borishi bilan belgilanmoqda. «Bugungi kunda ijtimoiy hayot soxasidagi salbiy holatlarni bartaraf etib, odamlar turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo’l qo’ymasdan, aholining himoyaga muhtoj qatlam va ijtimoiy muhofazasini ta’minlagan holda, O’zbekistonda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni va fuqarolar totuvligini saqlab qolishga muvaffaq bo’ldik”. Darxaqiqat, bozor munosabatlariga o’tish davrida mamlakatimizda kuchli ijtimoiy himoya tizimi shakllantirildi va hozirda uni takomillashtirish muhim masala bo’lib qolmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sifat jihatdan yangi bosqichga o’tish ehtiyoji paydo bo’ldi. SHu munosabat bilan, aholini ijtimoiy qo’llab-quvvatlashning zamonaviy tizimi shakllantirilmoqda.

«Adolat» tushunchasining qolib chiqishi (sotsiogenezi) to’g’risidagi ta’limotni buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy ham yaratishga uringan. Buyuk mutafakkir adolat g’oyasini jamiyatning asosiy davrlariga tatbiqan qarab chiqqan. Bunda u insoniyat jamiyatining kelib chiqishida tabiiy ehtiyojlar yotishini, bu ehtiyojlarni uyg’unlashtirish esa adolat tuyg’usini shakllantirishini ta’kidlagan edi. SHarq mutafakkiri Konfutsiyning g’oyalarini davom ettirgan holda Forobiy «adolat» tushunchasi insoniyatning ma’rifiy davriga to’g’ri kelganligini ta’kidlaydi. Bu davrda xususiy mulk o’rnatiladi va u kishilarning o’zaro tengsizligini keltirib chiqaradi. SHunisi muhimki, teng taqsimlashni ifodalagan adolat tushunchasi endi mulk ta’sirida tengsizlikni ifoda eta boshladi. Bu tushunchaning o’zi xysysiy mulkni o’rnatishda ishtirok etadi.

Demak, adolat to’g’risidagi tasavvurlar insoniyatning oddiy egalitarizm, ya’ni barcha baravar bo’lgan holdagi darajasidan yuqori ko’tarila borishi natijasida yanada to’laroq shakllana borgan. Tenglashtiruvchi qoida bo’lgan, zo’rlikni aks zo’rlik bilai muvofiqlashtiruvchi vosita sifatida da’volar tengligini o’rnatib kelgan «adolat» tushunchasi xysysiy mulkka asoslangan jamiyatda yangicha mazmun kasb eta boshlagan. Endi jamiyat ijtimoiy munosabatlarni muvozanatga keltirishning yangi tizimiga muhtojlik seza boshladi. Yuz bergan ulkan ijtimoiy

o’zgarishlar kishilar ongida, dunyoqarashida, siyosiy huquqiy fikrda, axloqiy normalarda ijtimoiy adolat g’oyasining uzil-kesil shakllanishiga olib kelgan. Bu haqda SHarqning boshqa bir mutafakkiri — Abu Ali ibn Sino qiziqarli fikrlarni bayon qilgan. Uning fikricha, o’zaro bog’liqlik va almashuv jarayonida insonlar bir-birlarini qandaydir muhtojlikdan holi etadilar. Buning uchun insonlar o’rtasida o’zaro kelishuv zarur bo’lib, bu kelishuv tufayli adolat qoidalari va qonunlari o’rnatiladi.

“Adolat” va “tenglik”ning umuminsoniy demokratik qadriyatlar ekanligi. Ijtimoiy hayotda adolatparvarlikni qathiy turib himoya qilgan ta’limotlardan biri tasavvuf falsafasidir. Tasavvuf namoyondalari boshqa SHarq mutafakkirlari singari o’z umidlarini ma’rifatli va odil shohga bog’laydilar, u orqali barcha ijtimoiy illatlarni bartaraf etish mumkin, deb hisoblaydilar.

Tasavvuf namoyondalari hokim va xalq, shoh va saltanat munosabatlarida donolik bilan adolatli ish tutish, davlatni adolatli qonunlar orqali boshqarish, qabul qilinayotgan tadbirlarning xalq tomonidan qo’llanishi kabi ijtimoiy muammolarni ko’taradi, bu xalqparvar tuzum ideallarini ulug’lashtirdi.

Tasavvufning ko’pgina namoyondalari shohlar, hokimlar, amaldorlardan adolatni kutib o’tirmay, o’z amaliy faoliyatlarida unga amal qilish bilan o’rnak bo’lganlar. Xasan Basriy, Abdulla Ansoriy, Abdulxasan Haraqoniy, Baxouddin Naqshband, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xo’ja Axror Valiy, Maxdumi A’zam Kosoniy ko’pincha shoh va hokimlar adolatsizliklariga qarshi chiqib, mazlumlarni dadil himoya qilganlar, xaqiqat uchun kurashganlar.

SHarq mutafakkirlari adolatni asoslashda lirik-ruhiy, mag’naviy-axloqny jihatdan yondashganlar. Zero, sharqona jamiyatlarda azaldan adolat tushunchasiga hamohang tarzda «haq», “me’yor”, “haqiqat”, «burch» tushunchalari ham qadrlanib kelingan. SHuningdek, jamoa manfaati, oiladan tartib-intizom, e’tiqod va ma’naviylik yuqori baholangan.

SHarq mutafakkirlarining ijtimoiy adolat va himoya haqidagi g’oyalari va qarashlari. «Adolat» tushunchasining qolib chiqishi (sotsiogenezi) to’g’risidagi ta’limotni buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy ham yaratishga uringan. Buyuk mutafakkir adolat g’oyasini jamiyatning asosiy davrlariga tatbiqan qarab chiqqan. Bunda u insoniyat jamiyatining kelib chiqishida tabiiy ehtiyojlar yotishini, bu ehtiyojlarni uyg’unlashtirish esa adolat tuyg’usini shakllantirishini ta’kidlagan edi. SHarq mutafakkiri Konfutsiyning g’oyalarini davom ettirgan holda Forobiy «adolat» tushunchasi insoniyatning ma’rifiy davriga to’g’ri kelganligini ta’kidlaydi. Bu davrda xususiy mulk o’rnatiladi va u kishilarning o’zaro tengsizligini keltirib chiqaradi. SHunisi muhimki, teng taqsimlashni ifodalagan adolat tushunchasi endi mulk ta’sirida tengsizlikni ifoda eta boshladi. Bu tushunchaning o’zi xysysiy mulkni o’rnatishda ishtirok etadi.

«Ijtimoiy himoya», «ijtimoiy adolat» tushunchalarining shakllanib borishi insoniyatning demokratik tafakkuri bilan bog’liqdir. Xususan, Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida ifodalangan fozil jamiyat g’oyasi bugungi kundagi demokratik jamiyat kontseptsiyasiga hamohangdir.

Forobiyning fozil jamiyat kontseptsiyasiga ko’ra, baxt-saodatga intiluvchi jamiyatda qonun ustuvor bo’lib, butun ijtimoiy hayot ana shu ustuvor tamoyil asosida

tuziladi. SHu ma’noda, fozil jamiyatda, avvalo, erkinlik mavjud bo’ladi. Unda adolat, erkinlik va tenglik tushunchalari kun tartibida bo’lib, bu me’yorlar fozil jamiyatning asosi bo’ladi. SHu bilan birga, Forobiy fikricha, jamiyat davlat bilan kuchlidir. U yetuklashgani sayin o’z ahzolarini himoyaga ola boradi. SHuni ham alohida aytish kerakki, agar o’tmish mutafakkirlari ijtimoiy kafolatlanish uchun inson faolligi masalasini ilgari surgan bo’lsalar, Forobiy qarashlarida insonni ijtimoiy kafolatlashda jamiyatning roli alohida uqtirila boshlandi. Demak, jamiyat ham himoya vositasi bo’lishiga mashul, degan g’oya ilgari surilgan.

Demak, adolat to’g’risidagi tasavvurlar insoniyatning oddiy egalitarizm, ya’ni barcha baravar bo’lgan holdagi darajasidan yuqori ko’tarila borishi natijasida yanada to’laroq shakllana borgan. Tenglashtiruvchi qoida bo’lgan, zo’rlikni aks zo’rlik bilai muvofiqlashtiruvchi vosita sifatida da’volar tengligini o’rnatib kelgan «adolat» tushunchasi xysysiy mulkka asoslangan jamiyatda yangicha mazmun kasb eta boshlagan. Endi jamiyat ijtimoiy munosabatlarni muvozanatga keltirishning yangi tizimiga muhtojlik seza boshladi. Yuz bergan ulkan ijtimoiy o’zgarishlar kishilar ongida, dunyoqarashida, siyosiy huquqiy fikrda, axloqiy normalarda ijtimoiy adolat g’oyasining uzil-kesil shakllanishiga olib kelgan. Bu haqda SHarqning boshqa bir mutafakkiri — Abu Ali ibn Sino qiziqarli fikrlarni bayon qilgan. Uning fikricha, o’zaro bog’liqlik va almashuv jarayonida insonlar bir-birlarini qandaydir muhtojlikdan holi etadilar. Buning uchun insonlar o’rtasida o’zaro kelishuv zarur bo’lib, bu kelishuv tufayli adolat qoidalari va qonunlari o’rnatiladi.

O’zbekiston ijtimoiy hayotidagi o’zgarishlar. Prezident I.A.Karimov tag’kidlaganidek, biz shunchaki demokratik davlat emas, balki adolatli demokratik davlat qurishga intilyapmiz. Adolatga intilish — xalqimiz ma’naviy-ruhiy dunyosiga xos eng muhim xususiyat. Adolatparvarlik g’oyasi butun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib ketishi, ijtimoiy ko’maklashuv mexanizmida o’z aksini topishi kerak. Darhakikat, O’zbekistonda huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishda adolat omili muhim o’rin tutadi. SHy ma’noda, adolat tushunchasi, uning erkinlik, demokratiya va barqaror taraqqiyot g’oyalari bilan mushtarak jihatlari bugungi kunda ham zamonaviy mazmun kasb etmoqda.

Lekin tarixan oladigan bo’lsak, ijtimoiy adolat g’oyasi insoniyatning butun tarixi orqali o’tib kelgan. SHu bilan birga, jamiyatni adolatli tashkil etish o’zusi va uning hayotdagi xaqqoniy mavjudligi o’rtasida doimo ziddiyat bo’lib kelgan. SHunga qaramay uni “naqd qilib qo’yishga” y’inish to’xtamagan. SHu nuqtai nazardan, insoniyat tsivilizatsiyasining butun tarixi ijtimoiy adolatni kengaytirish tarixi hamdir. Albatta, SHarq va G’arb jamiyatlaridagi bu kabi qadriyatlar bir-biriga zid emas, ular o’zaro uyg’unlikda umuminsoniy qadriyat darajasida jamiyat hayotida ijtimoiy adolat qoidalarining barqaror bo’lishiga xizmat qiladi. SHarq va G’arb anhanalarida asrlar davomida shakllanib kelgan bu kabi tushunchalar hamda qadriyatlarning mustaqqillik davrida jamiyatimizda umuminsoniy g’oyalar sifatida qayta shakllanishi shu jihatdan katta ahamiyatga ega. Zero, bu jamiyatimizda insonparvarlik, birdamlik, inson erki hamda

mas’uliyatini manfaatlar uyg’unligi, qonun ruhi va demokratiya qadriyatlari asosida amalga oshirishga, shu tariqa ijtimoiy adolatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Umuman, mustaqillik davrida odamlarining ongida ijtimoiy adolatning yangicha tushunchasi shakllanishi mamlakatimiz kelajagi va islohotlar muvaffaqiyat garoviga aylanmoqda. Adolatli jamiyat qurish haqidagi umuminsoniy orzular va qarashlarni yangi jamiyat barpo etish manfaatlariga bo’ysundirish muhim amaliy masala bo’lib turibdi. Biz barpo etayotgan jamiyat insonparvar bo’lmog’i zarur. Bunda demokratik modellarni ko’r-ko’rona ko’chirib olmasdan, balki ilg’or demokratik jamiyatlar tajribasini tanqidiy o’rganish asosida fuqarolik jamiyatini qurish ehtiyojlariga xizmat qildirish talab etiladi.

O’zbekistonda kuchli ijtimoiy himoyani jamiyatda tartib, uyg’unlik va barqaror taraqqiyotini ta’minlash omili sifatida qaralishining asoslari. Aholining yordamga eng muhtoj qatlami — bolalar, yolg’iz qariyalar, nogironlarga ijtimoiy yordam ko’rsatish va ularni qo’llab-quvvatlash ishlarini aniq mo’ljalli tarzda amalga oshirish zarur. SHu bois, islohotlarning hozirgi bosqichida ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish, aholini ijtimoiy himoyalashning ta’sirchan mexanizmini shakllantirish davom ettirilmoqda. Muayyan moddiy yordam aniq oilalarga yetib borishi, jamiyatning ijtimoiy zaif qatlamlariga mo’ljallangan tabaqalashtirilgan yordam bo’lishi va haqiqatan ham bunday yordamsiz kun kechirolmaydiganlarga borib tegishi lozimligini hayotning o’zi ko’rsatmoqda.

Hozirgi paytda aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga davlat tomonidan shunchaki moddiy yordam ko’rsatishgina emas, balki jamiyat ahzolarining aksariyat qismini ehtiyoj va manfaatlarini qondirish, ro’yobga chiqarishda avvalo, ularning o’z tashabbusi, intilishi va mahsuliyatini kuchaytirish asosidagi ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish vaqti yetdi. Aynan shu ma’noda ijtimoiy sohada amal qilib qolayottan ustuvor tamoyillar, xususan, qonun ustuvorligi, islohotlarni bosqichma-bosqich joriy etish, kuchli ijtimoiy siyosat kabi tamoyillar ijtimoiy himoya tiziminn rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Prezident Islom Karimovning mamlakatimizda huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati barpo etish to’g’risidagi kontseptsiyasi. O’zbekistonda islohotlar boshlangan dastlabki yillardayoq, kuchli ijtimoiy himoya tizimini yaratishdan maqsad, insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat, deb belgilangan edi. Mamlakat prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek «O’zbekistonning o’z yangilanish va taraqqiyot yo’liga asos bo’lgan eng muhim qoidalardan biri bozor iqtisodiyotiga o’tishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosatni o’tkazishdir».

Albatta, ijimoiy himoya tizimining rivoji mamlakat iqtisodiyotining ahvoliga to’g’ridan-to’g’ri bog’liqdir. Avvalo, nodavlat sektorining muayyan darajada tarqqiy etishi, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar mavqeining mustahkamlanishi iqtisodiy rivojlanish uchun tayanch va asosiy manba bo’lib xizmat qiladi. Bu esa, o’z navbatida, ijtimoiy siyosatni real amalga oshirish uchun zamin yaratadi, ijtimoiy himoya tizimining yanada takomillashib, zamon talabiga mos bo’lib borishiga olib keladi. Bu hol O’zbekiston ijtimoiy siyosatini tadrijiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Gap shundaki, ijtimoiy himoyaning davlat siyosatidagi o’rni g’oyat muhimdir. Buning bir qancha sabablari bor.

Birinchidan, O’zbekiston agrar mamlakat bo’lib, uning ko’pgina hududlarida ishlab chiqarishning texnologiyalashuvi endigina oyoqqa turmoqda.

Ikkinchidan, mamlakat aholisinnng 65 foizi qishloqda yashaydi. Agrar sohaning yaxshi rivojlanmaganligi aholining bu qismi orasida himoyaga muhtoj oilalarning ko’pligiga sabab bo’ladi. Bu esa o’z navbatida ularni ijtimoiy himoyalash vazifasini qo’yadi.

Uchinchidan, mamlakat aholisi orasida yoshlar katta salmoqqa ega, bu esa yoshlarni ijtimoiy himoya tizimi orqali muhofazaza qilishni talab etadi.

Ijtimoiy adolatning mohiyati har bir shaxs o’z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon qila olishi uchun to’liq imkoniyatlar yaratish, bunda ular farovon turmush kechirishlariga erishish jarayonida to’liq namoyon bo’ladi. Kishilarning jamiyatdan olayotgan ulushlari (ish haqi, daromadlari, mukofotlari, unvonu mansablari) ularning jamiyat rivojiga qo’shayotgan hissalariga (mehnati, qobiliyati, zakovati, alohida xizmatlari, sarmoyasi va h.k.) mos kelishi shu ma’noda inson rivoji imkoniyatlariga bog’liq.

Ijtimoiy himoya g’oyasining adolat va liberal demokratiya g’oyalari bilan bog’liqligi. Demokratik jamiyatning asosiy boyligi—inson bo’lib hisoblanadi. O’tkazilayotgan islohotlarning mazmuni ham shu bilan bog’liq. Bu haqda Prezident I.A.Karimov shunday ta’kidlaydi: “Bizning asosiy boyligimiz, rivojlangan davlat tuzishga olib boradigan yo’ldagi asosiy tayanchimiz insondir. Yuksak malakali va yuksak ma’naviyatli insondir”. Lekin shunisi ham borki, islohotlar davrida ijtimoiy guruhlarning ham o’rni muhim ahamiyat kasb etadi. Demokratik jamiyat qurish sharoitida o’rta mulkdorlar qatlami katta salmoqqa ega bo’ladi. O’rta sinf demokratik jamiyatni rivojlantirishda va uning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta’minlashda asosiy kuchga aylanadi. Zero, davlat bunday sharoitda kuchli muvofiqlashtiruvchi kuchga ega bo’ladi, o’rta sinf esa jamiyat taraqqiyotini texnologik, texnik, ilmiy va ma’naviy ta’minlovchi omil sifatida namoyon bo’ladi.

SHuni alohida ta’kidlash o’rinliki, O’zbekistonda islohotlar muqarrarligining g’oyat muhim sharti bo’lmish aholini ijtimoiy himoya qilish uzluksiz ustuvor yo’nalish hisoblanadi. Bu holat, o’z navbatida, quyidagi omillarni belgilab beradi:

— kuchli ijtimoiy himoya siyosati istiqlol va taraqqiyot yo’liga ishonchni mustahkamlaydi, bu ishonch esa aniq moddiy zamin asosida hosil bo’ladi;

— kuchli ijtimoiy himoya siyosati eng avvalo inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarnni yaratadi. XXI asr boshida dunyo taraqqiyotida munosib turmush darajasi inson omilining yetuk sharti bo’lib qolayotganligi e’tiborga olinsa, mamlakatimizda bu masalani hal etishda ijtimoiy himoyalashdan unumli foydalanish masalasi nechog’li ahamiyatli ekani ayon bo’ladi;

— kuchli ijtimoiy himoya siyosati fuqarolarning islohotlarning izchil kechishidan manfaatdorligini oshib borishini ta’minlaydi va bu yangilanish jarayonining orqaga qaytishiga imkon bermaydigan ijtimoiy tayanch bo’lib xizmat qiladi.

Himoyaga muhtoj sotsial guruhlarning ijtimoiy holati. O’zbekistonda aholining kam ta’minlangan tabaqalariga, bolalar, qariyalar, nogironlarni,

shuningdek, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat va sanhat sohalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kuchli ijtimoiy himoya siyosati o'zining muayyan tajribalariga ega bo'ldi. Ma'naviy, tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining axloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash vazifalari dolzarb bo'lgan O'zbeknston uchun bu holat katta ahamiyatga ega. Bu tajriba fuqarolarning siyosiy faolligini yanada oshirish, mehnat resurslarini ijtimoiylashtirish, mintaqaviy rivojlanishni avj oldirish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni barqarorlashtirish imkonini beradi.

Kuchli ijtimoiy himoyalash siyosati jamiyatda yangicha fikrlash asoslarini yaratishga qodirligidan ham demokratik jamiyat barpo etishga ko'maklashadi. Zero, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik yuzaga kelgach, fuqarolar fikrlashga, yangi zamon tartiblarini tuzishga ishtiyoq bilan intiladilar. CHunki fikrlovchi odam fuqarolik jamiyatiga ta'sir o'tkazish qobiliyatini mumkin qadar ko'proq ro'yobga chiqara olgan taqdirdagina, kuchli bo'la oladi.

O'z navbatida, ijtimoiy sohaning ahvoli to'g'risida umumiy jahon standartlari nimadan iborat, degan savol tug'iladi. Mutaxassislar fikricha, bu sohada ham bir necha modellar amal qiladi. Ularni umumiy tarzda kuchli ijtimoiy himoya tizimining ayrim elementlarini o'zida ifoda etuvchi skandinavcha model. Nazarimizda, ushbu modellarning har biri o'z yutuq va kamchiliklariga ega. Ularni respublikamizda shunchaki tatbiq qilib bo'lmasligi aniq. O'zbekiston ijtimoiy ta'minot sohasida o'z modeliga ega hamda u ijtimoiy kafolat tizimining o'zgaruvchan xususiyatiga mos tarzda takomillashib boradi.

O'tish davrida ijtimoiy muammolarning yuki ortadi. Yo'lga tushgan karvon kabi bu sohaning muammolari ham borgan sari ortib boradi. SHuning uchun mazkur sohada yuzaga keluvchi muammolarning yechimini modellashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Bunda eng muhim muammolar rivojlanishi tendentsiyalari o'z vaqtida aniqlanishi katta ahamiyatga ega. Xususan, O'zbekistoning ijtimoiy xayotida yuz berayotgan yirik o'zgarishlar asosidagi muammolarni hal etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish muhim. Misol tariqasida yon tomonda keltirilgan jadvaldan ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy adolat va bozor munosabatlari. Aholining yordamga eng muhtoj qatlami — bolalar, yolg'iz qariyalar, nogironlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish va ularni qo'llab-quvvatlash ishlarini aniq mo'ljalli tarzda amalga oshirish zarur. SHu bois, islohotlarning hozirgi bosqichida ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish, aholini ijtimoiy himoyalashning ta'sirchan mexanizmini shakllantirish davom ettirilmoqda. Muayyan moddiy yordam aniq oilalarga yetib borishi, jamiyatning ijtimoiy zaif qatlamlariga mo'ljallangan tabaqalashtirilgan yordam bo'lishi va haqiqatan ham bunday yordamsiz kun kechirolmaydiganlarga borib tegishi lozimligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Hozirgi paytda aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga davlat tomonidan shunchaki moddiy yordam ko'rsatishgina emas, balki jamiyat ahzolarining aksariyat qismini ehtiyoj va manfaatlarini qondirish, ro'yobga chiqarishda avvalo, ularning o'z tashabbusi, intilishi va mahsuliyatini kuchaytirish asosidagi ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish vaqti yetdi. Aynan shu ma'noda ijtimoiy sohada amal qilib qolayottan ustuvor tamoyillar, xususan, qonun ustuvorligi, islohotlarni bosqichma-

bosqich joriy etish, kuchli ijtimoiy siyosat kabi tamoyillar ijtimoiy himoya tiziminn rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Har qanday demokratpk jamiyat ma'lum ma'noda ijtimoiy asoslarni birlamchi manba sifatida qabul qiladi. Ijtimoiy asoslari bo'lmagan jamiyat o'z taraqqiyotida sobit bo'la olmaydi. SHu ma'noda, demokratik jamiyat taraqqiyoti uchun kuchli ijtimoiy himoya va adolat tamoyillari muhimdir.

Umumiy ma'noda ijtimoiy himoya demokratik huquqiy davlat tomonidan fuqarolar, turli jamoalarning huquqlarini ta'minlash bilan chetlanib qolmay, ulardan amalda foydalanishni kafolatlash, amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishni anglatadi. Ya'ni, insonlar davlat uchun emas, davlat xalq uchun xizmat qiladi, bu inson va uning qadr-qimmatiga hurmat deb baholanadi.

Demokratik jamiyatda adolat va ijtimoiy himoyaning mushtarakligi. O'zbekistonda kuchli ijtimony himoya muammolari siyosat darajasiga ko'tarildi. Buning uchun esa dastavval qonunlar tizimi yaratildi, keskin tabaqalanishdan holi bo'lgan mulkdorlar sinfi shakllantirila boshlandi, shu asosda iqtisodiy taraqqiyot inson manfaatlariga yo'naltirilayapti. Bir so'z bilan aytganda, «davlatning ijtimoiy tizimi bilan xalq ehtiyojlari o'rtasidagi jarlik» bartaraf etildi. SHu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizda insonning jamiyatdagi o'rnini anglashi, o'zini-o'zi tarbiyalay olishi va o'zini-o'zi taraqqiy ettira olishiga mas'uliyatning kuchayib borishi ijtimoiy himoya tizimini amaliy jihatdan mustahkamlashga ko'maklashishi zarur.

Demokratik jamiyatning mohiyati shundaki, adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi. Jamiyatda mulkiy jarayonlarning obhektiv o'zgarishi yuz berayotgan bir paytda jamiyatning keskin tabaqalashishiga, ya'ni oshib-toshib ketgan boyvachchayu kambag'al qashshoqlarga bo'linib ketishiga yo'l qo'yilmaydi. SHu ma\noda, ijtimoiy himoya, muhofazaga muhtojlarni davlat himoyasiga olishdir. SHu bilan birga, ijtimoiy himoya insonning jamiyatdagi munosib o'rnini belgilovchi va faolligining yuksalishini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkichdan biriga aylanadi.

XXI asr boshlarida demokratik tamoyillarning ustuvor kelishi ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy himoya tizimi ham hozirgi zamon davlachiligining o'ziga xos demokratlashuvidagi asosiy ommillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Jamiyatning kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoya qilish tamoyili hozirgi zamon taraqqiyot kontseptsiyasida yangicha yo'nalishdir. Ma'lumki, hatto barqaror demokratik taraqqiyotga erishgan bugungi Yevropa mamlakatlari ham o'z vaqtida bunday amaliyotni chetlab o'tgan edilar. O'zbekistonda ana ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun hukumat dasturlari ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Bu islohotlarni yanada kengaytirish uchun zarur edi. Hozirda, aytish mumkinki, O'zbekiston ijtimoiy siyosatida ana shu aniq natijaga erishildi. Bu real yo'nalishga ega bo'lgan amaliy bosqichdir. Ijtimoiy islohotlar kontseptsiyasi jamiyatda barqarorlik va xavfsizlik tizimining mustahkamlanishiga qaratildi. Natijada, O'zbekiston ijtimoiy siyosatida barqaror o'zgarishlarga erishildi. Jahon ekspertlarining xulosalariga ko'ra, aynan ushbu kontseptsiya O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyot bosqichiga kirishiga asos bo'ldi. Xususan, yaqinda BMTning YuNISEF tashkiloti tomonidan turli davlatlarning ijtimoiy rivojlanish bo'yicha ehlon qilgan qiyosiy tadqiqot natijalari ham fikrimizni tasdiqlaydi.

O’zbekistonda kuchli ijtimoiy himoya siyosati: uning maqsadi, bosqichlari, xususiyatlari, rivojlanishi. O’zbekistonda islohotlar boshlangan dastlabki yillardayoq, kuchli ijtimoiy himoya tizimini yaratishdan maqsad, insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat, deb belgilangan edi. Mamlakat prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek «O’zbekistonning o’z yangilanish va taraqqiyot yo’liga asos bo’ltan eng muhim qoidalardan biri bozor iqtisodiyotiga o’tishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosatni o’tkazishdir».

Albatta, ijimoiy himoya tizimining rivoji mamlakat iqtisodiyotining ahvoliga to’g’ridan-to’g’ri bog’liqdir. Avvalo, nodavlat sektorining muayyan darajada tarqqiy etishi, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar mavqeining mustahkamlanishi iqtisodiy rivojlanish uchun tayanch va asosiy manba bo’lib xizmat qiladi. Bu esa, o’z navbatida, ijtimoiy siyosatni real amalga oshirish uchun zamin yaratadi, ijtimoiy himoya tizimining yanada takomillashib, zamon talabiga mos bo’lib borishiga olib keladi. Bu hol O’zbekiston ijtimoiy siyosatini tadrijiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Gap shundaki, ijtimoiy himoyaning davlat siyosatidagi o’rni g’oyat muhimdir. Buning bir qancha sabablari bor.

Birinchidan**,** O’zbekiston agrar mamlakat bo’lib, uning ko’pgina hududlarida ishlab chiqarishning texnologiyalashuvi endigina oyoqqa turmoqda.

Ikkinchidan**,** mamlakat aholisinnng 65 foizi qishloqda yashaydi. Agrar sohaning yaxshi rivojlanmaganligi aholining bu qismi orasida himoyaga muhtoj oilalarning ko’pligiga sabab bo’ladi. Bu esa o’z navbatida ularni ijtimoiy himoyalash vazifasini qo’yadi.

Uchinchidan**,** mamlakat aholisi orasida yoshlar katta salmoqqa ega, bu esa yoshlarni ijtimoiy himoya tizimi orqali muhofazaza qilishni talab etadi.

Ijtimoiy adolatning mohiyati har bir shaxs o’z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon qila olishi uchun to’liq imkoniyatlar yaratish, bunda ular farovon turmush kechirishlariga erishish jarayonida to’liq namoyon bo’ladi. Kishilarning jamiyatdan olayotgan ulushlari (ish haqi, daromadlari, mukofotlari, unvonu mansablari) ularning jamiyat rivojiga qo’shayotgan hissalariga (mehnati, qobiliyati, zakovati, alohida xizmatlari, sarmoyasi va h.k.) mos kelishi shu ma’noda inson rivoji imkoniyatlariga bog’liq.

Demokratik jamiyatda turli qatlamlar, guruhlar manfaatlarini uyg’unlashtirishda ijtimoiy adolat mezonlari va ijtimoiy himoyani amalga oshirishning barqaror taraqqiyotni ta’minlashdagi ahamiyati. Albatta inson faqat non bilan tirik emas. Inson taraqqiyotini hayot darajasigina emas, hayot sifati ham belgilaydi. Hayot sifati esa inson yashaydigan, mehnat qiladigan va bo’sh vaqtini o’tkazadigan sohalarda shakllanadi. Ijtimoiy infrastruktura inson hayotida kuchli ta’sirga ega. Sog’liqni saqlash shunday sohalardan biridir. Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab Prezidentimiz tashabbusi bilan «Sog’lom avlod uchun» umumxalq harakati boshlangan edi. Sog’lom va barkamol avlod uchun kurash mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko’tarildi va o’zining natijalarini bera boshladi.

2003 yilda kadrlar tayyorlash Milliy dasturining bajarilishi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlar moddiy texnika bazasini mablag’ bilan ta’minlash

va rivojlantirish Dasturi doirasida 133,9 mlrd. so'm mablag' sarflanib. 5,2 ming o'quvchiga mo'ljallangan o'nlab akademik litseylar, o'quvchilarga mo'ljallangan yotoqxonalar, 86,6 ming o'quvchiga mo'ljallangan 114 ta kasb-hunar kollejlari qurildi. Butungi kunda ularda yoshlar ta'lim va tarbiya olishmoqda.

Insonning jamiyatga foyda keltirishi ko'p jihatdan uning hayoti qanday ta'minlanganligiga bog'lik. Dastavval, har bir oila o'z turar joyiga ega bo'lishi kerak. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, qishloq joylarni gazlashtirish kabi murakkab muammolarning hal qilib borilishi ham insonga munosib hayotni ta'minlashga qaratilgandir.

Narxlarni erkinlashtirish, savdo tizimi va maishiy xizmat sohasining bir maromda xususiylashtirib borilishi ham inson manfaatlariga zid kelmaydigan tarzda amalga oshirilishi lozim. Isteg'mol mollarining ko'pini o'zimizda yetishtirishni ta'minlash uchun mahalliy ishbilarmonlarga har tomonlama yordam ko'rsatish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, qishloq joylarda savdo shahobchalari va maishiy xizmat muassasalarini ko'plab barpo etish ana shu maqsadlarga olib boradigan yo'ldir. O'zbekistonda xususiylashtirish jarayonlarining borishi va xo'jalik yurituvchi subhektlarining mulkchilik shakllari bo'yicha tarkibi, iste'mol mollarini ishlab chiqarish sohasidagi o'zgarishlar ana shunday yo'nalishga ega.

Demokratik jamiyatda oila institutining o'ziga xosligi. Istiqlol sharofati bilan mamlakatimizda oila institutiga katta ijtimoiy axamiyat berib kelinmoqda. Buning isboti sifatida asosiy komusimiz bo'lgan Konstitutsiyada (XIV bob, 63-66 moddalari) oilaning xuquqiy asoslari belgilab berilganligini tahkidlab o'tishimiz lozim. Bundan tashqari, mamlakatimizda anhanaga aylangan xar bir yilga asosiy diqqat-eotibor qaratilayotganligi katta axamiyatga ega bo'lgan. Xususan 1998 yilni «Oila yili» deb eolon qilinishi mazkur masalaga bevosita aloqador. «Sog'lom avlod», «Onalar va bolalar», «Obod maxalla», «Sixat-salomatlik» yillari mabaynida esa bilvosita tarzda doimiy ehtibor qaratib kelinmoqda. Ayniqsa 2003 yilda mamlakatimiz maxallalarini iqtisodiy tashkiliy xamda mahnaviy obod etish munosabati bilan oilalarni ijtimoiy ximoya qilish tizimi yanada takomillashib, inson shaoni va g'ururiga muvofiqlashtirildi, o'sib kelayotgan avlod mahnaviyati xamda mahrifiy intellektual kamolatini taminlashning xuquqiy, tashkiliy-pedagogik xamda ijtimoiy jixatlari mustaxkamlandi.

Zero, inson xaq-xuquqlarini xurmat qilish fuqarolik jamiyatining ustuvor tamoyili xisoblanadi. SHu boisdan xam bosh Qomusimizning «Fuqarolik burchlari» bobidagi 48-moddada «Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning xuquqlari, erkinliklari, shaoni va qadr-qimmatini xurmat qilishga majburdirlar» deb yozib qo'yilgan.

SHuningdek, 2004 yilning «Mexr muruvvat» yili deb eolon qilinishi oilaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnining ortib borayotganligining yana bir isbotidir.

Oilada demokratik ong, tafakkur va hayotning dastlabki shakllarining qaror to'ishi. Dunyodagi umumbashariy o'zgarishlar xususan siyosiy ehtiqodlarning ko'p qutbli moxiyat kasb etayotganligi, iqtisodiyotda globallashuv jarayonlarining faollashuvi, mahnaviyat va axloqiy tarbiyada individualizmning kuchayishi

xayotimizning barcha jabxalarida va ayniqsa oila muxitida yaqqol namoyan bo'layotir. Darxaqiqat, oila barcha isloxotlar, o'zgarishlar, tanazzul va taraqqiyotlarning ibtidosi va intixosi xisoblanadi.

SHuning uchun xam Prezident I.A. Karimov O'zbekiston Konstitutsiyasining besh yilligiga bag'ishlangan tantanali majlisda so'zlagan nutqida «Oilaga ehtiborimizni tubdan o'zgartirish, oilalarni avvalo ijtimoiy jixatdan ximoyalash eozozlash, qo'llab quvvatlash bugungi kunimiz uchun va ertangi istiqbolimiz uchun naqadar muxim va dolzarb ekanligini yaxshi tushunishimiz va anglashimiz darkor» deb aloxida qayd etganliklari bejiz emas. (qarang: 1998 yil –oila yili T. «O'zbekiston» 10-bet).

Oila omilining mustaxkamlanishi bir tomondan, oilaga davlat va jamiyat ehtiborining kuchayishiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi jixatdan, oilaning cubhektiv, yaoni, ichki imkoniyatlarini to'laroq yuzaga chiqarish bilan bog'liqdir. Oilaning ichki imkoniyatlari deganda oila tarkibi, oila aozolarining ijtimoiy mo'ljallari, o'z oldilariga qo'yayotgan maqsadlari, farzandlar tarbiyasi, tahlim shaxsning individual taraqqiyoti, axloqiy tarbiya, mexr, sadoqat, sabr, muxabbat omillarining oila muxitida amal qilish tushuniladi.

Dastavval, oila tarkibi va farovonlik masalasiga to'xtalsak. BMTning YuNISEF tashkiloti tomonidan o'rganilgan xolatlar natijasiga ko'ra, O'zbekiston axolisining yarmidan ko'prog'i, yaoni 11mln, 18 yoshgacha bo'lganlarni tashkil etib, xar bir oila boquvchisi o'zi bilan o'rtacha 5,2 kishini boqish maosuliyatini zimmasiga olib yashaydi. Taqqoslash uchun mamlakatimizga axoli nufuzi bo'yicha birmuncha yaqinroq bo'lgan Ruminiya yoki Polshani misol qilib olsak, bu davlatlarda xar bir boquvchi zimmasiga 0,5 bolani boqib, o'stirish to'g'ri kelmoqda. Polshaning 35 mln. axolisining 22 mln.i Ruminiyaning 23 mln. axolisining 16 mln.i moddiy yoki nomoddiy ishlab chiqarish soxalarida band bo'lsalar, O'zbekistonning 25 mln. axolisidan 5 mln.ga yaqinigina ishlab chiqarish, boshqaruv, tijorat maorif, tibbiyot kabi soxalarda faoliyat ko'rsatmoqdalar. Tabiiyki, bunday xolat vaqtincha muayyan iqtisodiy qiyinchiliklar tug'dirsada xar o'tgan yil moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishga millionlab yangi ishchi qo'shilib umumiy saloxiyati darajasini uzluksiz ravishda oshuviga olib keladi.

Oilaning huquqiy demokratik asoslari. Boy tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, oilada ota-onaning farzandlar bilan qancha ko'p vaqt birga bo'lishi, o'zaro muloqotlar, o'rnatilgan bilim va kasb –korlar mexr tuyg'usining shuncha mustaxkamlanishiga olib keladi.

Sotsialogik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, respublikamiz turli xududlarida istiqomad qiluvchi ziyolilarning o'z farzandlari bilan bir kundagi muloqotlari xajmi o'rtacha 10-15 minut atrofidagi ko'rsatkichni ifodalayotganligi tashvishlanarli xoldir. Ma'lumki xayotga endigina kirib kelayotgan o'smirlar atrof-muxit, odamlarda yuz berayotgan o'zgarishlar borasida xar kunda o'nlab savollar, jumboqli xolatlar yuzaga keladi. O'smir bunday savollarni vaqt etishmaganligi sababli ota-onaga beraolmaganligi va malakali javobga ega bo'lmaganligidan jumboqlarning echimini tasodifiy shaxslardan, aksariyat xollarda o'z tengdoshlaridan izlashga majbur bo'ladilar. Natijada, kichik yoshdagi bolalar, o'smirlar xartomonlama to'g'ri, jamiyat va shaxs uchun ijtimoiy foydali bo'lgan malakali javoblarga ega bo'laolmaydilar. Buning oqibatida esa yoshlar tarbiyasi, muayyan tarzda izdan chiqib, umumiy axloq,

milliy anhanalar ruxiga zid bo'lgan xolatlar yuzaga keladi.
Tarbiya tizimida oila tarkibi, tug'ilajak farzandlarning yosh farqlari xam muxim axamiyatga egadir. Ko'p yillik kuzatishlar, xuquqiy idoralar xujjatlari, voyaga etmagan yoshlar tomonidan qilingan jinoiy xatti – xarakatlar tartibbuzarlik xolatlarining asl sabablarini o'rganish shundan dalolat beradiki, oila muxitida tinchlik, totuvlik, o'zaro mexr oqibat, etishmaganligi ota-onalarning o'zaro adovati, aka-ukalar o'rtasidagi mexrsizlik tufayli aksariyat yoshlarning jinoyat ko'chasiga kirib qolishlari Ma'lum bo'ldi. Aka-ukalar o'rtasidagi mexrsizlik, dastavval ota-onalarning o'z farzandalariga ehtibor bermasliklari, bu ishga juda kam vaqt ajratishlari bilan izoxlansa ikkinchi tomondan esa farzandlar tug'ilishida biri va ikkinchisi o'rtasidagi yosh farqi masalasiga xalqimizda umuman axamiyat bermasligi xam jiddiy masaladir. Ruxiyatshunoslik ilmi nuqtai nazaridan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra agar bola 1 dan 3 yoshgacha bo'lgan vaqtda ikkinchi farzand tug'ilsa, bolalar o'rtasida ota va onaga egalik qilish borasida bir qarashda kichik fakt tuyulsa-da, ammo bu fakt oxir-oqibatda jiddiy xodisa – o'zaro raqobat xolatiga olib keladi. Agar tug'iladigan bolalar o'rtasidagi farq 4-5 yosh bo'lsa, katta farzand tomonidan o'z ukasini ximoya qilish ruxi shakllanib o'z ota-onasidan ukasini qizg'anmaslik xolati tarkib topadi. Bu bilan esa, aka-ukalar o'rtasida juda nozik bo'lgan mexrning biologik omillar orqali raxna topishining oldi olinadi.
Aka-uka o'rtasidagi baxslar agar verbal darajada yaoni faqat so'z talashlari, fikr - qarashlar tortishuvi tarzida yuz berish bilan cheklanilsa mexr tuyg'usiga jiddiy zarar etmaydi. Agar baxs mushtlashuvga etgudek bo'lsa, kichiklarning kattalarga bo'lgan ukalik mexri ildiziga jiddiy zarba uriladi. Urush janjalning nechog'li zararli ekanligi, muqaddas kitobimiz Qurooni-Karimda xam qayd etilib, zo'ravonlik qilmaslik, insonni o'z yaqinlariga, ayniqsa xotinlarga zinxor, bazinxor qo'l ko'tarmaslik zarurligi to'g'risida aloxida qayd qilinadi. (Qurooni-Karim oshiya surasi, 22-oyat).
O'zbekiston Konstitutsiyasida bu masala yana xam oydinroq tarzda o'z ifodasini topgandir. Xususan Qomusimizning «SHaxsiy xuquq va erkinliklar» bobining 26-moddasida «xech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlika, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas», deb maxsus qayd etilgan.
Xalqimiz tarixidan ulug' va qudratli saltanatlarning asosan ichki omillarga ko'ra, oilaviy tarbiya muammolari, otalar va bolalar, akalar va ukalar, opa-singillar o'rtasidagi mexrsizlik o'zaro nifoqlar, yakdillik ruxining sustligi sababli zavol topganligini bilamiz. Aynan shu sabablarga ko'ra Qoraxoniylar, Xorazmshoxlar, Temuriylar va boshqa davlatlar inqirozga yuz tutgan edi. SHu boisdan xam, yurtboshimiz mamlakatdagi umumiy barqarorlik bir-biriga bog'liq va tuzimiy xususiyatga ega jamligini tahkidlab, «agar oila sog'lom va mustaxkam bo'lsa davlat osoyishta va barqaror bo'ladi»[1] deb tahkidlagan edilar.
Prezident I.A. Karimov tahkidlaganidek, Oila jamiyatning negizi. Bizning davlatimizni xam katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o'zaro xurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha aozolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mexr-oqibat ko'rsatmasa yaxshi va munosib tarzda

[1] Қаранг: И.А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг беш йиллигига бағишланган мажлисдаги табрик сўзидан. 1997 йил 5 декабр.

yashash mmkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustaxkam va mahnaviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab extiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi.Bu esa eng oliy darajada mahnaviy qadriyat inson qalbining gavxaridir. (Qarang: I.A. Karimov O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li Toshkent «O'zbekiston» 1992. 22-23 betlar).

Aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo'naltirilgan davlat xarajatlarining o'sib borishi. Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab Prezidentimiz tashabbusi bilan «Sog'lom avlod uchun» umumxalq harakati boshlangan edi. Sog'lom va barkamol avlod uchun kurash mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va o'zining natijalarini bera boshladi.

2003 yilda kadrlar tayyorlash Milliy dasturining bajarilishi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlar moddiy texnika bazasini mablag' bilan ta'minlash va rivojlantirish Dasturi doirasida 133,9 mlrd. so'm mablag' sarflanib. 5,2 ming o'quvchiga mo'ljallangan o'nlab akademik litseylar, o'quvchilarga mo'ljallangan yotoqxonalar, 86,6 ming o'quvchiga mo'ljallangan 114 ta kasb-hunar kollejlari qurildi. Butungi kunda ularda yoshlar ta'lim va tarbiya olishmoqda.

Insonning jamiyatga foyda keltirishi ko'p jihatdan uning hayoti qanday ta'minlanganligiga bog'lik. Dastavval, har bir oila o'z turar joyiga ega bo'lishi kerak. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, qishloq joylarni gazlashtirish kabi murakkab muammolarning hal qilib borilishi ham insonga munosib hayotni ta'minlashga qaratilgandir.

Narxlarni erkinlashtirish, savdo tizimi va maishiy xizmat sohasining bir maromda xususiylashtirib borilishi ham inson manfaatlariga zid kelmaydigan tarzda amalga oshirilishi lozim. Isteg'mol mollarining ko'pini o'zimizda yetishtirishni ta'minlash uchun mahalliy ishbilarmonlarga har tomonlama yordam ko'rsatish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, qishloq joylarda savdo shahobchalari va maishiy xizmat muassasalarini ko'plab barpo etish ana shu maqsadlarga olib boradigan yo'ldir. O'zbekistonda xususiylashtirish jarayonlarining borishi va xo'jalik yurituvchi subhektlarining mulkchilik shakllari bo'yicha tarkibi, iste'mol mollarini ishlab chiqarish sohasidagi o'zgarishlar ana shunday yo'nalishga ega.

Hozirgi zamonda aholini ijtimoiy himoya qilishning qator modellari mavjud. Ulardan biri Skandinaviya mamlakatlarida (Finlyandiya, SHvetsiya) qo'llanilayotgan sotsial-demokratik modelg' bo'lib, bunday modelga ko'ra davlat ijtimoiy himoyaning barcha mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

Neoliberal modelga ko'ra esa (AQSH) ijtimoiy himoyaning aksariyat qismnni tadbirkorlar va kasaba uyushmalari bajaradilar. Neokonservativ modelga ko'ra (Germaniya) ijtimoiy himoya davlat kafolatlari javobgarligida xususiy tadbirkorlar va davlat federal byudjeti asosida olib boriladi.

O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot, asosan, davlat byudjeti hisobidan tashkil

etilgan bo’lib, bu tizim qator rivojlangan chet el davlatlarining ijtimoiy tizimidan qolishmaydi.
Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy yordamdan tashqari respublikamizda norasmiy ijtimoiy yordam ko’rsatishning anhanaviy qadriyat turlari ham mavjudki, ularning negizini qarindoshchilik, qo’shnichilik, mahallachilik, yoru birodarchilik yordamlari, ya’ni xalqimizning milliy urf-odatlari tashkil etadi. Mahalliy idoralar, korxonalar, jamoa va xo’jaliklar hamda boshqa tadbirkorlik tashkilotlaridan fuqarolar pensiyasiga qo’shib berilayotgan qo’shimchalar, muhtojlarga ko’rsatilayottan otaliq yordamlari, bayram va hayit kunlari bemorlarni ziyorat qilish, turli hayr-ehsonlar ham milliy urf-odatlarimizning zamonaviy ko’rinishlaridir. Bulardan tashqari, ijtimoiy yordam ko’rsatishda nodavlat jamoat birlashmalari va xayriya tashkilotlari ham ishtirok etmoqda.

Sog’liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini, yoshlarni ish bilan ta’minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo’llab-quvvatlash bo’yicha davlat dasturlarini amalga oshirilishi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati.

Bozor munosabatlarini shakllantirishning turli bosqichlarida O'zbekiston ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlari:
Fuqarolarning mehnat qilish borasidagi konstitusiyaviy huquqlarini ta'minlash.
Ijtimoiy himoyalashning maqsadli va aniq yo'naltirilganligi.
Aholining ijtimoiy jihatdan eng muxtoj tabaqalarini qo'llab-quvvatlash.
Iqtisodiy jihatdan faol aholi mehnatini rag'batlantirish.
Real mehnat bozorini shakllantirish.
Ijtimoiy soha, sog'likni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at, ilm-fanning mushkul ahvolga tushib qolishiga yo'l qo’ymaslik.
Xal etilishi muhim bo'lgan vazifalar:
Ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va muttasil rivojlantirish. Pulning qadrsizlanishiga qarshi samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, aholi turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l kuymaslik, ish bilan bandlik muammolarini xal qilish.
Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishga davlat mablag'lari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamiyat va xayriya tashkilotlari va jamg'armalarining mablag'larini keng jalb etish.
Odamlar kuch va qobiliyatlarining to'la-to'kis faollashuvini ta'minlashga qodir bo'lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish. O'z qobiliyat va mehnatiga tayanib ish tutish – farovonlikning birdan-bir va eng barqaror manbai bo'lib qoladigan munosabatini vujudga keltirish.
Aholi daromadlarida va turmush darajasida asossiz va katta farqlarga yo'l qo'ymaslik. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan qatlamlarni vujudga keltirish.
Qashshoqlikka qarshi kurash. Aholi eng muxtoj qatlamining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirish.
Aholini ijtimoiy jixatldan qo'llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan huquqiy xujjatlar:

OITS bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida 14 iyun 1991 yil.
Davlat sanitariya nazorati to'g'risida 3 iyul 1992 yil.
Fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risida 29 avgust 1996 yil.
Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida 25 aprel 1997 yil.
Odamning immunitet tanqisligi virusi to'g'risida 19 avgust 1999 yil.
1994 yil 24 avgust Prezident "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida" farmon. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1995 yil 20 dekabrda "Aholining kuyilmalardagi va davlat sug'urtasi bo'yicha pul mablag'larini indeksatsiya qilish to'g'risida"gi farmonga imzo chekdi. Bu farmon 1996 yildan boshlab bosqichma-bosqich to'lash bilan quyidagi mablag'larning indeksatsiyasini amalga oshirishni ko'zda tutadi:
- 1992 yil 1 yanvar xolati bo'yicha va 1996 yil 1 yanvargacha harakatda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi bank muassasalaridai aholi pul mablag'lari;
- 1992 yil 1 yanvar xolati bo'yicha va 1996 yil 1 yanvargacha harakatda bo'lgan davlat sug'urta Bosh boshqarmasi muassasalaridagi hayotni, nikoh kunida bolalarni uzoq muddatli sug'urtalash shartnomalari bo'yicha aholi to'lovlari;
- respublika banklari har yili tiklangan aholi pul mablag'lariga, pul kuyilmalariga "talab qilingunga qadar" qo'yilmalari bo'yicha o'rnatilgan harakatdagi foiz stavkasidan kelib chiqqan xolda foizlar ajratishlari lozim. Inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan xolda foiz stavkasi miqdori har yili qayta ko'rib chiqilishi ta'minlanadi;
- aholi pul mablag'larini indeksatsiya qilish ularni 4000 barobar oshirish yo'li bilan amalga oshiriladi.
Shunday qilib, respublika aholisini xalq xo'jaligida shakllanayotgan va rivojlanayotgan bozor munosabatlarining salbiy oqibatlaridan himoya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining yuqorida sanalgan tadbirlari respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni o'rnatishni kafolatlaydi, daromadlar darajasi bo'yicha aholi qatlamlari o'rtasidagi ijtimoiy tabaqalashuvning chuqurlashuvini oldini olishga imkon yaratadi, qashshoqlikning kuchayishiga yo'l qo'ymaydi, aholining tobora o'sib borayotgan faolligi va barqaror iqtisodiy o'sish esa respublika aholisi barcha qatlamlarining turmush darajasini yaxshilanishiga olib keladi.

11-mavzu: Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish institutlarining demokratiyalashuvi

Reja:

1. O’zbekistonda mahalliy davlat hokimiyatining asoslari.
2. Mustaqillik yillarida O’zbekistonda demokratik tamoyillar asosidagi o’zini-o’zi boshqarish tizimining tiklanishi va rivojlanishi.
3. Fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish.

O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishda mahalliy xokimiyat va fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlarining o’rni. O’zbekistonda xam

mustaqillik davrida maxallalar o’zini-o’zi boshqarish organi sifatida fuqarolik jamiyati institutiga aylanib bormoqda. «Maxalla» arabcha so’zdan kelib chiqib, «shaxar» mahnosini anglatadi. Tarixchi olim Narshaxiy, «Buxoro tarixi» asarida bundan 1100 yil ilgari birqancha maxalla bo’lganligini yozgan edi. Alisher Navoiyning «Xayratul-abror» (Yaxshi kishilarning xayratlanishi) asarida qo’yidagi bandlarni uchratamiz:

SHaxarlar toini maxolat etib,

Bo’ldi chu yuz shaxar Xiriot etib.

Ko’rinib turibdiki, o’rta asrlarda Xiri deb atalgan Xirot shaxri yuz «shaxarcha» - maxallalardan tashkil topgan edi.

Demak, qadim zamonlardayoq, bugun biz taorif berayotganimiz fuqarolik jamiyatining, kishilarning o’zini-o’zi boshqarish organlarining ilk kurtaklari namoyon bo’la boshlagan. SHarqda bu jarayon ming yillik tarixga ega bo’lgan maxalla shaklida bo’lsa G’arbda xar xil uyushmalar, partiyalar jamiyatlar, xarakatlar va boshqa tuzilmalar sifatida paydo bo’lio’iga asos solindi.

Uzoq yillar maxalla tarixi va sotsiologiyasini tadqiq etgan. D. Karlayl shunday yozadi: «Oila va do’st-yoronlar maxalla turmushining bosh asosi bo’lib kelgan va shundayligicha qoladi. Ular «sulola» deb ataluvchi, kishilarni birlashtiruvchi va ajratuvchi o’ta muxim tarmoq tuzilmasini yaratdi. Yaqinlik munosabatlariga asoslangan va nasl-nasab printsiplari bilan yangilashgan o’zbeklar dunyoga keladigan, tarbiyalanadigan va odatda o’zining butun xayotini o’tkazadigan joy xisoblanadi. Do’stlik barqaror tushuncha bo’lgan maxallada moyillik singdirilgan bo’ladi. Xamma maxalla tevaragida parvona bo’lar, shaxsiy sadoqat butun shaxar bo’ylab, tarqalar, baozan esa butun boshli mintaqani qamrab olar edi. Bunday anhanaparastlik sharoitida kimningdir tajribasi shaxsiy muloqotlar doirasi tasarrufidan tashqariga xam zudlik bilan tarqalib ketadi. SHaxs xar qanday masofadan turib sulola aozolarining nikox tantanalarida, marosimlarda qatnashishi mumkin. Rang-barang oilaviy qarindoshchilik aloqalarining maxalladan tashqarida xam kundalik turmushda toshi bor,

Sobiq ittifoq davrida maxallaning mazmuni va vazifalari butunlay izdan chiqqan bo’lsa, Mustaqillik yillarida maxallaning ijtimoiy-siyosiy mahnaviy mavqei butunlay boshqacha tus oldi. O’zbekiston Konstitutsiyasi maxalla maqomini fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organi sifatida mustaxkamladi. Mamlakatda shaxarcha, posyolka, qishloq, ovul va maxalla fuqarolar yig’inlari o’zini-o’zi boshqarish organlari sifatida mustaxkamlandi va shu maqomni oldilar. Jumladan, mustaqillik davrida 8142 ta maxallalar mustaqil tashkilot sifatida qaytadan mustaxkamlandi va ularning aksariyati o’zining qadimgi nomlarini va xalq o’rtasidagi obro’- ehtiborlarini qaytadan tiklab oldilar. SHu yillarda maxalla ijtimoiy-demografik, madaniy-mahnaviy va xududiy-maomuriy birlik sifatida maqomga erishib, u o’z xududidagi fuqarolar o’rtasida anhana va urf-odatlar birligi, insoniy, xo’jalik xuquqiy munosabatlar birligini tashkil etgani xolda o’zaro ijtimoiy munosabatlarni bog’lab turish vositasiga aylandi.

Mamlakat prezidenti I. A. Karimov maxallalarni fuqarolik jamiyatining asosi deb bildi va uni xar tomonlama rivojlantirish chora-tadbirlarini ko’rib kelmoqda. Prezident I.A. Karimov 1995 yildayoq shunday fikrni bildirgan edi:

«Ma’lumki, asrlar mobaynida maxallalarda ko’pdan-ko’p xayotiy muammolar o’z echimini topib keladi. To’y-marakalar xam, xayitu xasharlar xam maxalla axlisiz o’tmaydi. Maxallalarda siyosiy iqtisodiy va boshqa masalalarga doir jamoatchilik fikri shakllanadi. Bu esa xalqimizning turmush tarzi, ota-bobolarimizdan bizga meros bo’lib kelayotgan tafakkur tarzidir. Binobarin, xayotning o’zi maxallalarni rivojlantirish, va ularni qo’llab-quvvatlashni taqozo etadi. Mamlakatimizda ko’p qirrali isloxotlar amalga oshayotgan bir paytda maxalla jamiyat uchun ishonchli tayanch va tahsirchan kuch bo’lib xizmat qilishi lozim.

Mahalliy davlat hokimiyatining asoslari. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 101- moddasida shunday deyiladi, «Mahalliy hokimiyat organlari, O’zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezident farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar, xalq deputatlari quyi kengashlariga raxbarlik qiladilar. Respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarini muhokama qilishda qatnashadilar». O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida o’zini-o’zi boshqarish organlariga quyidagi xuquqiy ta’rif berildi:

«SHaxarcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi maxallalarda fuqarolarning yig’inlari o’zini-o’zi boshqarish organlari bo’lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslaxatchilarini saylaydi. O’zini-o’zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish xamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi». Konstitutsiyaviy asosdan kelib chiqib, 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan «Fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari to’grisida (yangi taxriri)»gi Qonunning 1-moddasida fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarishning xuquqiy tushunchasi quyidagicha taoriflanadi: «Fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish–fuqarolarning O’zbekiston Respublikasi Konstituiyasi va qonunlari bilan kafolatlana digan, ularning o’z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va mahnaviy qadriyatlaridan, maxalliy urf-odatlar va anhanalardan kelib chiqqan xolda maxalliy axamiyatga molik masalalarni xal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir».

Xozirgi davrda maxalla yo’nalishida olib borilayotgan ishlar ikkita yo’nalishni ko’zda tutadi. Birinchi mahnaviy vazifa bo’lib, u xalqimizning ming yillik tarixidagi noyob eng aziz anhanalarni, qadriyatlarni qaytadan tiklash va rivojlantirishdan iborat. Ikkinchi siyosiy vazifa bo’lib, Prezident I.A. Karimovning maxalla institutini bugungi zamon talablariga muvofiq tarzda tiklash barobarida viloyat shaxar, tuman xokimliklari zimmasiga yuklangan ko’pchilik vazifa va xuquqlarni fuqarolar o’zini-o’zi boshqarish organlariga, yaoni maxallalarga berib, ular maqomini joy-joyiga qo’yib, shu tariqa jamiyatimiz xayotini demokratiyalashda yangi va juda muxim imkoniyatlarga erishish.

Mamlakatimizda mahalliy o’zini-o’zi boshqarishning shakllari, ularning fuqarolik jamiyati qurishdagi roli. O’zbekiston bosib o’tgan keyingi o’n yillik davr aholining keng qatlamlari qo’llab-quvvatlaydigan turli xil fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarning jadal shakllanishi va rivojlanishi davri bo’ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Konstitutsiyamizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy printsiplarning mustahkamlab qo'yilgani barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida 5100 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda va bu ko'rsatkich 2000 yilga qaraganda 2,5 barobar ko'pdir. Fuqarolar yig'inlari va o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi. Bular qatorida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi, «Sog'lom avlod uchun», «Nuroniy» jamg'armalari, «Ijod» fondi, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi va boshqa jamoat tashkilotlarini sanab o'tish mumkin.

Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda.

Mamlakatimizda Ombudsman, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va boshqa bir qator tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.
O'tgan davr mobaynida mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani ham bu soha rivojiga bo'lgan katta ehtiborni ko'rsatadi.

Mahalla - fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish negizi sifatida. Respublikamiz mustaqillikka erishgach jamiyat ichida kichik jamiyat deb nom olgan mahalla tizimini ravnaq toptirish o'ziga xos milliy boshqaruv shaklini ishlab chiqarish, O'zbekiston xalqining ijtimoiy muammolarini o'rganib unga amaliy yordam beruvchi jamiyatning ijtimoiy bir bo'lagi hisoblanmish ushbu tizimning maxsus xayriya jamg'armasini tuzish to'g'risida farmon qabul qildi. Mahallaning mag'naviy holati to'g'risida fikr yuritilar ekan, albatta uning boshqaruv tizimida muhim ahamiyat kasb etgan subg'ekt tushunchasiga eg'tibor qaratishlik ilmiy mazmun kasb etadi. Mahalla subg'ektining o'ziga xos xususiyatini undagi boshqaruv funktsiyasi bajaradi. CHunki aynan shu funktsiya orqali mahallaning samarali ish faoliyati namoyon bo'ladi .
Har bir mahalla o'ziga xos geografik joylashuviga, o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lganligidan kelib chiqib bu muhim makonda istiqomat qilayotgan aholining turli millatga yoki bir millatga mansubligiga asoslanib har bir mahallaning o'z ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish dasturini yaratish maqsadga muvofiq. Mahalla bugun

fuqarolarning mustaqil faoliyatini, ularning jamiyatini turli doiralardagi ijtimoiy munosabatlarini davlat va jamiyat boshqaruv strukturasini tashkil etishidagi hamda ijtimoiy jamoatlarining hayot faoliyatini tahminlovchi va shu bilan birgalikda o'z ahzolarini ijtimoiy hayot oldiga qo'ygan savollarga javob berishdagi ishtirokini belgilaydi.

O'zbekiston hududida mahallalarini quyidagi to'rtta asosiy turini ajratish mumkin:

1.SHaharlardagi ang'anaviy mahallalar.

2.SHaharlardagi kvartal mahallalar.

3.SHaharchalardagi mahallalar.

4.Qishloq mahallalari.

Mahallaning bugungi kundagi ijtimoiy holatiga eg'tibor qaratiladigan bo'lsa unda quyidagilarni kuzatish mumkin:

a) oila muhofazasi,

b) obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va tozalik.

v) ijtimoiy himoyada faol ishtirok etish,

g) mag'naviyat va ijtimoiy huquqni shakllantirish;

d) siyosiy faollikni oshirish va hokazo.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda demokratik tamoyillar asosidagi o'zini-o'zi boshqarish tizimining tiklanishi va rivojlanishi. Odamlarning hatti-harakati voqelikka va har qanday yangilikka nisbatan munosabati eng avvalo yuksak axloq odob, sharqona vazminlik, ota–bobolarimizga xos mulohazamandlik, qiyin va murakkab vaziyatlarda shaxsiy manfaatdan umumdavlat va umumxalq manfaatlarini ustun qo'yish, jamoa uchun yashash kabi insoniy fazilatlarga qaratilgan.

Bu va shunga o'xshagan milliy qadriyatlar jamiyatdagi oqilona siyosat tufayli umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonunining 6-moddasida aytilganidek "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy printsiplari demokratik, oshkoralik ijtimoiy adolat , insonparvarlik, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni yechishda mustaqillik, jamoatchilik asosida o'zaro yordam"deb belgilangan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan mahalla demokratiyasi, uning xalq hayotiga yaqinligi, aholi turmush tarzi va kundalik hayoti bilan uyg'unligi sababli kundalik hayot tarzimizda qaytadan qaror topayotgan boshqaruv tizimi sifatida o'z ifodasini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi asosiy kuch-qudrati manbai – bu xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiq qolganligidir. O'zbekistondagi yana shunday umuminsoniy qadriyatlar sarchashmasidan biri mahalla ekanligi to'g'risida yuqorida tahkidlagan edik. Uning nufuzini oshirish ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy ulkan mag'naviy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov "Turkiston" gazetasi muxbirining bergan savollariga «Mahalla, tadbir joiz bo'lsa kishilik jamiyatidagi alohida tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan o'ziga xos maskandir deyish mumkin. Bu tajriba, aholining noyob yashash tarzi jahonning boshqa mamlakatlarida kam uchraydi. SHuning uchun ham insonni jamiyat bilan birga yashashga o'rgatadigan shu ruhda tarbiyalaydigan birlamchi va beqiyos

makon–bu mahalladir» –deb javob qaytarishda ushbu tizimni ommabop jamoaga aylantirish ayni muddao ekanligi to'g'risidagi g'oya deb ifodalasa bo'ladi.

Boshqaruvni nomarkazlashtirishni takomillashuvi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti — mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu vazifani hal qilishda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunda mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishga jiddiy ehtibor qaratish lozim.

SHu bilan birga, «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini, fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning ahamiyati va roli oshirilishini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni nazarda tutadigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklif qilinadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan «O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi Qonunni qabul qilish fursati yetdi. Qonunda jamoatchilik nazoratining turlari, shakllari va subektlarini, nazorat predmetini, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini, shuningdek, mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro etmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartlarini belgilab qo'yish zarur.

Prezident Islom Karimov O'zbekistonda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va ularni isloh qilishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida. Jaxondagi ilg'or tajribalardan foydalangan xolda va «kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyiliga asoslanib ularning faoliyatlarini quyidagi yo'nalishlarda islox etish davom etmoqda:

- xuquqiy meoyorlar qabul qilish masalalaridagi mustaqillik – o'z xududi doirasida xamma bajarish majburiy bo'lgan qoidalar nizomlar, qarorlar, o'z xududi doirasidagi aktlar qabul qilish erkinligi;

- kadrlar masalasidagi mustaqillik-boshqaruv organlari shtatlarini shakllantirish fuqarolar yig'ini raislari va oqsoqollarining yig'inini o'zi tanlashi va saylashi qoidalarini yanada demokratlashtirish;

- boshqaruv masalalaridagi mustaqillik, yaoni mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish va ularning ijrosini tahminlash imkoniyatlarining yaratilishi;

- moliyaviy masalalardagi mustaqillik-o'z vakolatlarini amalga oshira olish uchun ularning moliyaviy asoslarini yaratish, mavjud soliqlardan tushadigan mablag'larni Ma'lum qismini maxallalarning

obodligi va o'zini-o'zi boshqarishni rivojlanishi uchun ajratish.

Mamlakat Prezidenti I.A. Karimov o'zining ikkichi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasidagi mahruzasida o'zini-o'zi boshqarish organlarini jamiyat va davlat boshqaruvidagi o'rnini ko'tarishning muxim bosqichini boshlash uchun asos bo'lgan quyidagi fikrini bildirdi: « Xayotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining yana bir muxim yo'li – markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini-davlat xokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni tahminlashdir». Albatta, davlat tomonidan maxallalarga katta boshqaruv vakolatlarini berishda ularning axoli faolligini oshirishdagi o'rnini yuksaltirish ko'zda tutildi. CHunki, maxalla fuqarolar yig'inlarida etarlicha xuquq bo'lmasa, ular o'zini-o'zi boshqarish funktsiyalarini boshqara olmas edilar. SHuningdek, maxallalarning axoli va davlat oldida maosuliyat sezishlari uchun xam avvalo xuquqqa ega bo'lishlari lozim edi. Xozirgi davrga kelib, jamiyatning siyosiy soxani erkinlashtirish maqsadlaridan kelib chiqib, maxalla fuqarolar yig'inlariga boshqaruvning turli yo'nalishlariga etakchilik qilish vakolatlari berildi. Maxalla, o'z xududida yashayotgan fuqarolar turli ijtimoiy muammolarni xal qilib berishda bevosita ishtirok etadilar: qariyalar, faxriylar, etimlar, baynalminal-xarbiylar, kam tahminlangan va ko'p bolali oilalar manfaatlari ximoya qilinadi, maxalla faollarini mazkur faoliyatda ishtirok etishga boshchilik qiladi. SHu bilan birgalikda insonning mahnaviy yuksalish va amaliy tashabbuslarining namoyon bo'lishi uchun shart-sharoit yaratiladi, moddiy va mahnaviy qo'llab-quvvatlanadi. Maxalla fuqarolar yig'ini ijtimoiy tahminot organlari va boshqa xomiy tashkilotlar bilan birgalikda ijtimoiy yordam, kam tahminlangan oilalar va yolg'iz kishilarga beg'araz moddiy yordam ajratish ishining barcha tashkiliy jixatlarini o'z zimmalariga olganlar. SHu bilan birga, maxallalar o'z xududlarida ekologik muammolarni echish va axoli moddiy axvolini yaxshilash, xashar yo'li bilan ko'kalamzorlashtirish, tozalash ishlariga jalb qilish, maxalliy axoli o'rtasida atrof-muxitni asrash yuzasidan tushuntirish va tarbiyaviy ishlar olib borishga bosh va qosh bo'lmoqda. Ko'plab qonunlar loyixalari Konstitutsiyaga kiritiladigan o'zgarishlarni o'zida ifodalagan umumxalq referendumlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish avvalo maxalla axli va faollari tomonidan muxokama qilinmoqda va qo'llab- quvvatlanmoqda. Boshqacha aytganda, maxallalar siyosiy qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini faollashtirishning muxim vositasi ekanligini xayotning o'zi isbotlamoqda. Mamlakat siyosiy xayotida fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini tahminlab beruvchi asosiy bo'g'in-bu maxalla fuqarolar yig'inlaridir. SHuningdek fuqarolarning ijtimoiy xayotdagi faolligini oshirish qobiliyatiga ega bo'lgan birdan-bir boshqaruv tizimi xam maxalla fuqarolar yig'inidir. Respublika «Maxalla» xayriya jamg'armasi, uning viloyat, shaxar, tuman bo'limlari bilan xokimliklar xamkorligida xar yili «Eng yaxshi maxalla», «Eng ibratli oqsoqol»,

«Maxalla jonkuyari», «Eng tadbirkor maxalla oqsoqoli» shiori ostida mutassil ko'rik-tanlovlar o'tkazib kelinadi. Ko'rik tanlovlari g'oliblari xar yili obro'li komissiyalar tomonidan maxsus nishonlar, qimmatli esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar. Mustaqillik davrida maxallalar fuqarolar yig'inlari oqsoqollari, «Maxalla» jamg'armasi va uning maxalliy tashkilotlari raxbarlarining sifat tarkibi yaxshilanib bordi. 2001 yil may-iyun oylarida o'tkazilgan saylovlarda ana shunday o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining 2001 yil 12 apreldagi «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylov o'tkazishni tashkil etish to'g'risida»gi qarorida tashkilotchilik qobiliyatiga xamda axoli o'rtasida yuqori obro'- ehtibor va xurmatga sazovor bo'lgan, davlat xokimiyati organlari vakolatlarining bir qismi bosqichma-bosqich fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga berilishi munosabati bilan, ushbu organlar oldida turgan vazifalarni xal etishga qodir bo'lgan shaxslar orasida fuqarolar yig'inlari rais va oqsoqollari va ularning maslaxatchilari lavozimlariga nomzodlar tanlash maqsadi qo'yildi. Saylovlarda 12 mln.ga yaqin fuqarolar ishtirok etdilar (katta yoshli axolining 90 foizi). Fuqarolarning 9627 yig'inida, shu jumladan 1556 shaxarcha, qishloq va ovul yig'inlarida, qishloqlardagi 4151 maxallalar va shaxarlardagi 2138 maxallalar yig'inlarida shuningdek jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan 1782 maxalla fuqarolar yig'inlarida saylovlar bo'lib o'tdi. Ularning faoliyati atroflicha chuqur taxlil etildi. Xisobot saylovlarda jami 120 mingdan ortiq faollar so'zga chiqib ko'tarilgan masalalar bo'yicha o'z fikr muloxazalarini bildirdilar. O'zini-o'zi boshqarish organlarining 9627 ta yig'inlari oqsoqoli va raisligiga jamoatchi ishchi guruxlari tomonidan tavsiya etilgan 22 ming nafardan ortiq nomzodlar orasidan tanlab olinishi saylovlarni muqobillik asosida o'tishiga va munosib nomzodlarning saylanishiga imkon yaratdi. Bu saylovlar o'ziga xos demokratiya maktabi vazifasini xam o'tadi. 2003 yil noyabr, dekabr oylarida o'tkazilgan saylovlarda bu anhana davom etdi. Maxalla, shuningdek oilalarning ichki muammolari, qo'ni-qo'shnichilik masalalarini ijobiy xal qilishda xam muxim rol o'ynaydi.

Mahallaning fuqarolarni demokratik qarorlar qabul qilishda ishtirokini ta'minlash va aholini ijtimoiy himoya qilishdagi o'rni. Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'hminlashga ko'maklashmoqda. Bunday tashkilotlarning obro'si oshib, mustahkamlanib borgani sari fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan tahsirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli jamiyatimizda tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda jamoatchilik va fuqarolik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini tahminlash, odamlarning kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda. Mamlakatimizda Ombudsman, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va

boshqa bir qator tashkilotlar faoliyat ko’rsatmoqda. O’tgan davr mobaynida mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani ham bu soha rivojiga bo’lgan katta ehtiborni ko’rsatadi. Aytish kerakki, fuqarolik jamiyati institutlari tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarini tobora rivojlantirish, ularning mustaqil ish yuritishi va chinakam mustaqilligini tahminlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy jihatdan qo’llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to’g’risida»gi Qonunnin qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. So’nggi yillarda «Jamoat fondlari to’g’risida»gi, «Homiylik to’g’risida»gi qonunlar, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «O’zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko’maklashish chora-tadbirlari to’g’risida»gi qarori va boshqa qator hujjatlar qabul qilindi va ular fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim omil vazifasini bajarmoqda.

SHuningdek, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining «Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo’llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi qo’shma qarori ham alohida ahamiyatga ega bo’ldi. O’z navbatida, Oliy Majlis huzurida Jamoat fondi hamda tarkibiga nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat tashkilotlarining vakolatli vakillari bilan birga deputatlar, moliyaviy tuzilmalarning mashul xodimlari kirgan Parlament komissiyasining tashkil qilinishi ham ehtiborga sazovordir. Mazkur komissiyaning faoliyati «uchinchi sektor» deb nom olgan fuqarolik jamiyati institutlarini qo’llab-quvvatlashga davlat budjetidan ajratilgan moliyaviy mablag’larni yanada ochiq, oshkora, aniq yo’naltirilgan va eng muhimi, demokratik asosda taqsimlashni tahminlash imkonini bermoqda. Bu esa nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-texnikaviy va iqtisodiy negizini mustahkamlashga samarali tahsir ko’rsatmoqda. Faqat keyingi uch yilning o’zida fuqarolik jamiyati institutlari taqdim etgan turli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan 11 milliard so’mdan ortiq mablag’ ajratildi. Fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini tahminlashda, ularning rolini kuchaytirishda «Ijtimoiy sheriklik to’g’risida»gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o’zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo’yicha huquqiy normalar ko’zda tutilishi darkor.

Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish instituti — mahalla faoliyatining

tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini tahminlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu vazifani hal qilishda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunda mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishga jiddiy ehtibor qaratish lozim. SHu bilan birga, «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini, fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning ahamiyati va roli oshirilishini tahminlaydigan chora-tadbirlarni nazarda tutadigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklif qilinadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan «O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi Qonunni qabul qilish fursati etdi. Qonunda jamoatchilik nazoratining turlari, shakllari va subektlarini, nazorat predmetini, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini, shuningdek, mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro etmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartlarini belgilab qo'yish zarur. SHu nuqtai nazardan qaraganda, Inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu dastur eng avvalo huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishini tahminlash, jamiyatda inson huquqlari bo'yicha madaniyatni shakllantirish va shu kabi boshqa sohalarga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik monitoringini olib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'zida mujassam etishi kerak. SHuningdek, O'zbekiston Respublikasining Mahmuriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga jamiyat va davlat qurilishi, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli sohalarida nodavlat notijorat tashkilotlari huquqlarini belgilab bergan qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirishni nazarda tutadigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish lozim.

Mahalliy davlat hokimiyati ayrim vakolatlarini o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tib borish jarayoni. **«Maxalla» jamg'armasi, uning joylardagi tarkibiy tuzilmalariga tegishlicha Respublika kengashi xamda Qaraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaxar va tumanlar fuqarolarining o'zini-o'zi boshqarish ishlari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi**

kengashlarning ishchi organi vazifasini funktsiyasini bajarish vakolati berilmoqda va ularning vazifalari quyidagi yo'nalishlarda bo'lishi belgilandi:

-fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

- fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari xuquq va manfaatlarini ximoya qilish;

- maxallalarda madaniy, mahnaviy-mahrifiy targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yish, yosh avlodni milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik ruxida tarbiyalashda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga ko'maklashish;

- fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining davlat organlari va nodavlat tashkilotlar bilan bo'lgan munosabatlarini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

- fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'zaro tajriba almashishida ko'maklashish;

- shu organlarga o'zlarining vakolatlari doirasida barcha masalalarni xal etish, moliyaviy xo'jalik faoliyatini yuritish, ish uslublarini takomillashtirishda amaliy yordam ko'rsatish;

- maxalla xududida to'y xashamlar, oilaviy tantanalar, maraka va marosimlarni, marxumlar xotiralariga bag'ishlangan tadbirlarni zamon talablariga javob beradigan tarzda ixcham va tejamkorlik bilan o'tkazishni tahminlash;

- kengashlar yig'ilishlarida qabul qilingan qarorlar bo'yicha xamda fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarini manfaatlarini ko'zlab davlat organlari va nodavlat tashkilotlarga murojaat qilish;

- shu organlarning xuquqlarini ximoya qilish, ularning xuquqiy va iqtisodiy bazasini rivojlantirish va takomillashtirish masalalari bo'yicha davlat organlariga murojaat qilish;

- shu organlarda o'tkaziladigan saylovlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishni tashkiliy jixatdan tahminlash;

- ularning moddiy va moliyaviy asoslarini mustaxkamlashga xar tomonlama ko'maklashish;

- ularning faoliyatini muvofiqlashtirish respublika kengashining, joylardagi muvofiqlashtirish kengashlarining qarorlarini amalga oshirilishini tahminlash;

- maxalla axlining tashabbuskorligini oshirish, yoshlarni kasb xunarga yo'naltirish xamda maxalla xududida kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur shart sharoitlar yaratishda ko'maklashish;

- kam tahminlangan oilalarga moddiy yordam berish xamda nogironlar, keksalar, etim va nogiron bolalarning xuquqlarini xar tomonlama ijtimoiy ximoya qilish;

- shu organlar tizimida kadrlarni tanlash va joy joyiga qo'yishda uslubiy ko'maklashish kadrlar malakasini oshirish ishlarini bajarish.

Davlatimiz raxbari I.A.Karimov 2010 il 12 noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik isloxotlarni

yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi to’g’risidagi» mahruzasida O’zbekistonda fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari va ularni islox qilishning asosiy yo’nalishlari to’g’risida muxim fikrlarni ta’kidlab o’tdi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish. O’zbekiston bosib o’tgan keyingi o’n yillik davr aholining keng qatlamlari qo’llab-quvvatlaydigan turli xil fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarning jadal shakllanishi va rivojlanishi davri bo’ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Konstitutsiyamizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy printsiplarning mustahkamlab qo’yilgani barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida 5100 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda va bu ko’rsatkich 2000 yilga qaraganda 2,5 barobar ko’pdir. Fuqarolar yig’inlari va o’zini o’zi boshqarish organlari – mahallalar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi. Bular qatorida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, O’zbekiston xotin-qizlar qo’mitasi, «Sog’lom avlod uchun», «Nuroniy» jamg’armalari, «Ijod» fondi, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi va boshqa jamoat tashkilotlarini sanab o’tish mumkin.

Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o’z salohiyatlarini ro’yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta’minlashga ko’maklashmoqda.

«Ijtimoiy sheriklik to’g’risida»gi Qonunning qabul qilinishining ahamiyati. Fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini ta’minlashda, ularning rolini kuchaytirishda «Ijtimoiy sheriklik to’g’risida»gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o’zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo’yicha huquqiy normalar ko’zda tutilishi darkor.

Mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko’lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari

bilan o’zaro yaqin munosabatlarini ta’minlash. Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish instituti — mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko’lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o’zaro yaqin munosabatlarini ta’minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu vazifani hal qilishda «Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o’zgartish va qo’shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunda mahallani aniq yo’naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishga jiddiy ehtibor qaratish lozim.

SHu bilan birga, «Fuqarolar yig’ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini, fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning ahamiyati va roli oshirilishini ta’minlaydigan chora-tadbirlarni nazarda tutadigan o’zgartish va qo’shimchalar kiritish taklif qilinadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan «O’zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to’g’risida»gi Qonunni qabul qilish fursati yetdi. Qonunda jamoatchilik nazoratining turlari, shakllari va subektlarini, nazorat ‘redmetini, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini, shuningdek, mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro etmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartlarini belgilab qo’yish zarur.

SHu nuqtai nazardan qaraganda, Inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu dastur eng avvalo huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishini ta’minlash, jamiyatda inson huquqlari bo’yicha madaniyatni shakllantirish va shu kabi boshqa sohalarga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik monitoringini olib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni o’zida mujassam etishi kerak.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratish demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati. mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va

Senati Kengashlarining «Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qo'shma qarori ham alohida ahamiyatga ega bo'ldi. O'z navbatida, Oliy Majlis huzurida Jamoat fondi hamda tarkibiga nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat tashkilotlarining vakolatli vakillari bilan birga deputatlar, moliyaviy tuzilmalarning mashul xodimlari kirgan parlament komissiyasining tashkil qilinishi ham ehtiborga sazovordir.

Mazkur komissiyaning faoliyati «uchinchi sektor» deb nom olgan fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashga davlat budjetidan ajratilgan moliyaviy mablag'larni yanada ochiq, oshkora, aniq yo'naltirilgan va eng muhimi, demokratik asosda taqsimlashni ta'minlash imkonini bermoqda. Bu esa nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-texnikaviy va iqtisodiy negizini mustahkamlashga samarali tahsir ko'rsatmoqda.

Faqat keyingi uch yilning o'zida fuqarolik jamiyati institutlari taqdim etgan turli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan 11 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini ta'minlashda, ularning rolini kuchaytirishda «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo'yicha huquqiy normalar ko'zda tutilishi darkor.

12-mavzu: Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish

Reja:

1. Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi, uning tuzilishi va tarkibi.
2. Ko'ppartiyaviylik - demokratik jamiyat barpo etishning muhim sharti.
3. Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazorati rolini oshib borishi.

Fuqarolik jamiyatini qurish O'zbekistonning pirovard strategik maqsadi. O'zbekistonda davlat mustaqilligi ehlon qilingan dastlabki yillardan boshlab mamlakat Prezidenti I.A.Karimov boshchiligidagi hukumat fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish maqsadlaridan kelib chiqib, nodavlat notijorat tashkilotlarini demokratik tamoyillar asosida isloh etishga muhim ehtibor berib kelmoqda. Mamlakat Prezidenti I.A.Karimov mamlakat

taraqqiyoti to’g’risida so’zlar ekan, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning strategik maqsadlarini quyidagicha ifodalaydi: «Pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo’naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo’lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etidan iboratdir».

Mustaqillik davridagi demokratik islohotlar natijasi o’laroq, 1992 yilda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan barcha qonunlar majmuasi mamlakatimizda demokratik o’zgarishlarni chuqurlashtirish orqali fuqarolik jamiyatni qurishga qaratilgandir. Ayniqsa, Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning VIII sessiyasida qabul qilingan «Referendium yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to’g’risida»gi Konstitutsiyaviy Qonunning 2-moddasiga binoan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishiga doir qonun hujjatlarini takomillashtirishning asosiy printsiplari quyidagicha ifodalandi:

— qonun ustuvorligini, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud tarmoqlari o’rtasida muvozanatni, ulardan har birining haqiqiy mustaqilligini tahminlash;

— xalqaro huquqning umumehtirof etilgan printsiplari va normalari asosida inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini tahminlash;

— siyosiy hayotning, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabhalarini izchil erkinlashtirish;

— nodavlat notijorat, jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa demokratik institutlari yanada mustahkamlanishi hamda rivojlantirilishi uchun kafolat va sharoitlarni tahminlash;

— fukarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlarini har tomonlama mustahkamlash va davlat hokimiyati markaziy organlarining vakolatlarini joylardagi boshqaruv organlariga bosqichma-bosqich o’tkazish, ijro etuvchi hokimiyat organlari, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlikni tahminlovchi tuzilmalar faoliyati ustidan jamoat nazorati mexanizmini shakllantirish va kuchaytirish.

Mustaqillik davrida mamlakatda demokratik jamiyat qurishning huquqiy asoslari yaratildi. Konstitutsiyaning g’oyalari, maqsadlari, ruhi, uning har bir qoidasi BMT ning «Inson huquklari umumjahon Deklaratsiyasi», asrlar mobaynida ilg’or va yetakchi mamlakatlarda shakllangan demokratik qadriyatlar, milliy davlatchilik, shuningdek, bir necha ming yillardan buyon avdoddan-avlodga meros bo’lib kelayotgan milliy va sharqona davlat hamda jamiyatni adolatli idora etish, mamlakatni boshqarishda xalqning ham bevosita ishtirok etishi anhanalarini o’zida mujassaml ashti rdi.

Milliy mustaqillikning dastlabki davridayoq mamlakatda fuqarolik jamiyatini qurish yo’lida uning muhim institutlaridan biri bo’lgan nodavlat notijorat tashkilotlarning erkin va mustaqil faoliyat yuritishlari uchun huquqiy asoslar yaratildi. Konstitutsiyaning alohida «Jamoat birlashmalari» deb nomlangan bobi respublikada fuqarolik jamiyati va ko’ppariyaviylik tizimini qaror toptirish uchun ham huquqiy, ham amaliy jihatlardan shart-sharoitlar yaratadi.

Unga binoan jamoat birlashmasi, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar kabi tushunchalarga huquqiy aniqliklar kiritildi. Endi ular demokratik talqinlar asosida tahriflana boshlandi. Ayniqsa, Konstitutsiyaning 58-moddasidagi «Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishni tahminlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etishi uchun teng ho'quqli imkoniyatlar yaratib boradi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarini jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi», 34-moddadagi «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muholifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas», degan fuqarolik jamiyat mustaqilligini tahminlashga doir huquqiy printsipning ehtirof etilishi respublikadagi jamiyat taraqqiyoti insoniyat hayotining bir necha asrlar mobaynida tajribalaridan va sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan fuqarolik jamiyati sari intilayotganligini bildiradi. O'zbekistonda saylov tizimi uchun Konstitutsiyaning «Saylov tizimi» deb nomlangan bobidagi 117-moddasiga binoan, respublika «fuqarolari erkin ravishda vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar».

Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi, uning tuzilishi va tarkibi.

XX asrning ikkinchi yarmida fuqarolik jamiyati tushunchasi er yuzi bo'ylab keng tarqaldi. Bugungi kunda xam bu tushuncha ko'plab munozalarga mavzu bo'lmoqda. Evropada XVI asrda nashr etilgan Aristotelning «Siyosat» asari uchun nashr etilgan sharxlarda bu tushuncha ilk marotaba, eolon qilinganidan keyin uning dastlab frantsuz tilida qo'llanilishi odatdagi xol bo'lib qoldi.

Fuqarolik jamiyati jamiyatning eng yuqori shakli bo'lib, u o'z ichiga turli «Uyushmalar»ning tarkibiy qismlarini (oila, korporatsiya va boshqalarni) qamrab oladi. Ular o'z moxiyatiga ko'ra jamiyatdagi adolatlilik tamoyiliga asoslangan xamjamiyat bo'lishi ifoda etiladi. Bu jamiyatda xar bir kishi o'zi uchun oliy farovonlik topishi mumkin. Fuqarolik jamiyati g'oyasi oliy maqsad sifatida bir necha asrlardan beri yashab kelmoqda. Fuqarolik jamiyati shunday jamiyatki, unda axolining biron-bir guruxni o'ziga bo'ysundirolmaydi, shuningdek erkaklar bilan ayollarni bir-biri bilan bog'lab turuvchi ko'plab ijtimoiy, fuqaroviy, diniy, iqtisodiy, madaniy aloqa va munosabatlar yanada rivojlanadi. Bu g'oya 80-yillarda avj olgan demokratiyalashtirish jarayoni natijasida aloxida mazmun kasb eta boshlaydi va u totalitar davlatlarga qarama-qarshi bo'lgan ijtimoiy andoza sifatida talqin qilina boshlandi. Fuqarolik jamiyati shaxs uchun keng imkoniyatlar yaratib, unda xar bir shaxs boshqalar bilan birlashishi yoki boshqalar bilan xamkorlikda faoliyat ko'rsata olish mumkin. Fuqarolik jamiyati shu tarzda inson ustuvorligini yuksaklikka ko'taradi.

Mashxur jamiyatshunos olim Filipp SHmitter fuqarolik jamiyatining quyidagi muxim

sifatlarini ajratib ko’rsatgan edi:
-shaxsning axolinin aloxida guruxlari va davlatdan mustaqilligi;
- tashkiliy yaxlitlik, bir butunlik;
-davlat tomonidan ximoya qilinadigan xuquqlarga asoslangan «korporativlik»,
-liberallashish bilan bog’liq jarayon yoki xodisa;
-avtokratiyaning despotik kuch sifatida (demokratik natijalari asosida) zaiflashuvi.

Fuqarolik jamiyati g’oyasida, kapitalizm va demokratlashtirish jarayoni o’rtasidagi o’ziga xos aloqadorlikning mavjudligi seziladi. Bu aloqadorlik milliy boylikni yaratish va uni taqsimlashda o’z ifodasini topadi. Boshqacha aytganda iqtisodning rivojlanishi demokratiyaning yashashi uchun ijtimoiy kengliklarni yaratadi. Xozirgi davrda SHimoliy Amerika, Evropa, Osiyoning Yaponiya, Janubiy Koreya, Xindiston mamlakatlari, shuningdek, Avstraliyada barpo etilgan fuqarolik jamiyati to’g’risidagi tasavvurlardan kelib chiqadigan bo’lsak, u xolda fuqarolik jamiyati bu:
- Avvalo, jamiyat xayoti faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va mahnaviy soxalarida ixtiyoriy ravishda shakllangan, boshlang’ich nodavlat tuzilmalarini o’z ichiga qamrab olgan insoniy birlikdir.
Ikkinchidan jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, mahnaviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasidir;
Uchinchidan, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli organlar tazyiqlari, aralishishlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida ximoyalangan jamiyat bo’lib, unda ular o’zligini namoyon qila olishlari uchun doimiy imkoniyatlariga ega bo’ladilar.
SHu bilan bir qatorda, xozirgi davrda fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari shakllandi. Bular asosan quyidagilardan iborat:
Iqtisodiy soxada: nodavlat tashkilotlar, kooperativ-shirkatlar, ijara jamoalari, aksiyadorlik jamiyatlari, uyushmalar, koorporatsiyalarning mavjudligi.
Ijtimoiy soxada: oila, partiyalar, jamoat tashkilotlari va xarakatlar, ish va yashash joylaridagi o’z-o’zini boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik fikrini aniqlash, shakllantirish va ifoda etishning madaniylashgan tartibotlari, ijtimoiy ixtiloflarni kuch ishlatmasdan, tazyiqsiz, qonunlar doirasida xal qilish amaliyotining mavjudligidir.
Mahnaviy soxada: so’z, fikrlar va vijdon erkinligi; o’z fikrini ochiq bildira olishning real imkoniyatlari; ijodiy ilmiy va boshqa uyushmalari mustaqilligining xam qonuniy, xam amaliy jixatdan tahminlanganligi.
SHuningdek, fuqarolik jamiyatining barqarorligini tahminlovchi shart-sharoitlar xam borki ularsiz bu jamiyatning institutlari rivojlanmaydi. Bular jumlasiga jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning turlicha manfaatlarini ifoda etuvchi rivojlangan ijtimoiy stukturalar mavjud bo’lishi lozimligi kiradi. Qolaversa, jamiyat aozolarining to’la mustaqillik bilan faoliyat ko’rsata olish qobiliyati, ularning eng rivojlangan darajadagi ijtimoiy, intellektual, ruxiy jixatlardan yuksalish sodir bo’lish xam taqoza qilinadi. So’ngi shart-sharoit esa xar bir fuqaroning o’z mulkiga ega bo’lishi, bu mulkni o’zi istagan tarzda tasarruf qila olish uchun shaxsiy yoki jamoaviy xuquqi tahminlangan bo’lishi lozimligidir.
Fuqarolik jamiyatining belgilari mezonlari va institutlarini tasavvur qila olgan xar bir

kishiga ko’rinib turibdiki, bunday demokratik jamiyatning asosini o’z-o’zini boshqarish va jamoat tashkilotlari o’zaro munosabatlarning majmuasi tashkil qilar ekan.
Fuqorolik jamiyatida davlat va xukumatning aloxida o’z funktsiyalari nodavlat va jamoat tashkilotlarining esa aloxida o’z funktsiyalari bo’ladiki, ular bir-birini to’ldirib, yuksak rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligini tahminlaydi. Davlatning xam, nodavlat tashkilotlarning xam o’z xarakat doirasini o’zlari uchun belgilangan faoliyati u yoki bu tomonga ozgina o’zgarganda xam bunday ijtimoiy-siyosiy muvozanatlar buzilib demokratik meoyordan chekinish yaxud chetga chiqib ketish ro’y berishi mumkinligini asrimizning so’nggi davrdagi rivojlanish amaliyoti ko’rsatdi.
Fuqarolik jamiyat insonlardagi o’z-o’zini anglash ularning obhektiv ravishdagi maosuliyat xissini sezish qobiliyatini yuksalishiga xamoxang ravishda shakllangan mamlakatlar fuqarolari siyosiy, axloqiy va xuquqiy madaniyatlari darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi.
Ma’lumki, fuqarolik jamiyatining asosi –jamoat tashkilotlari. Va shu bilan bir qatorda, fuqarolik jamiyatining o’ziga xos xususiyatlaridan biri –bu nodavlat tuzimdagi barcha jamoat tashkilotlariga aozolikning ixtiyoriy shaklda bo’lishidir.
Bu qoida:
Birinchidan, shu jamiyatda demokratiyaning yuqori darajasini namoyon qilsa,
Ikkinchidan, jamiyat aozolarining ijtimoiy ongi va faolliklari yuksakligini bildiradi.
Qolaversa xar bir fuqaro o’zi kirmoqchi bo’lgan tashkilot faoliyatida o’zining manfaatlari va extiyojlariga mos maqsadlarga erishishiga ishonch xosil qilganidan so’nggina shu tashkilotga ixtiyoriy ravishda aozo bo’lishlari, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Oliy Majlis tomonidan barcha qabul qilingan qonunlar majmuasi ruxi va g’oyasi mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini qurishga qaratilgandir. Ayniqsa, ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning VIII sessiyasidagi Prezident I.A. Karimovning mahruzasida fuqarolik jamiyati qurishning xozirgi bosqichlari va tamoyillari ko’rsatib berildi. Bizning oldimizda turgan yana bir muxim va dolzarb vazifa-u xam bo’lsa «Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o’tish» degan shiorni amalda ro’yobga chiqarishdir. Bu maqsadga erishish uchun, birinchidan, davlatimizning markaziy va yuqori boshqaruv organlari vakolatlarini bosqichma-bosqich quyi tuzimga, shu jumladan o’zini-o’zi boshqarish tuzilmalariga o’tkazish talab qilinadi. Bular qatorida biz, birinchi navbatda o’zini xar tomonlama oqlagan maxalla tuzilmasini ko’zda tutamiz. Ikkinchidan, jamiyatimizda nodavlat tashkilotlarning, avvalo fuqarolik institutlarining rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berish va ularni faolligini oshirishga ko’mak va yordam ko’rsatish darkor.

“Nodavlat notijorat” va “jamoat birlashmalari” tushunchalari, ularning ma’no va mazmuni. Oliy Majlis tomonidan 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan «Nodavlat notijorat tashkilotlar to’g’risida»gi Qonunga binoan «Nodavlat notijorat tashkiloti — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o’z faoliyatning asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o’z qatnashchilari (a’zolari) o’rtasida taqsimlamaydigan o’zini-o’zi boshqarish tashkilotidir.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari

hamda qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy, shuningdek, mahrifiy maqsadlarga erishish, mahnaviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi».

O’zbekistonda amaldagi qonunchilikka binoan nodavlat notijorat tashkilotlariga quyidagi huquqlar berilgan:

—o’z a’zolari va qatnashchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

—ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish;

—davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini ishlab chiqishda, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish;

—o’z faoliyati to’g’risida axborot tarqatish;

—ommaviy axborot vositalarini tahsis etish hamda belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirish;

—ustavda belgilangan vazifalarni bajarish uchun tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil etish;

—o’z ramziy belgilarini tahsis etish;

—o’z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan yig’ilishlar, konferentsiyalar o’tkazish;

—qonun hujjatlariga muvofiq vakolatxonalar ochish va filiallar tashkil etish.

O’zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlarning o’rni. Nodavlat notijorat tashkilotlar to’g’risida tasavvurga ega bo’lish uchun avvalo manfaatlar va ijtimoiy manfaatlar tushunchasini o’rganish talab etiladi. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda ijtimoiy manfaatlarni hisobga olish, turli qatlamlar va guruhlarning siyosiy ehtiyojlari hamda manfaatlarini uyg’unlashtirish, ularni qondirishning ahamiyati demokratik fuqarolik jamiyati takomillashib borgani sayin yanada kuchaydi.

Ma’lumki, manfaatlar — individlar va guruhlarning ijtimoiy xatti-harakatlarini belgilovchi sabablardir. O’z vaqtida Tomas Gobbs «Hokimiyatga intilish inson xulqini harakatga keltiruvchi kuchlarning dushmanligi—shaxsiy manfaatlarning mantiqiy natijasidir», deb ko’rsatgan edi. Gegel esa: «Inson o’z ozodligini hayotga tatbiq qilishi lozim, bu uning bosh manfaatini tashkil qiladi, uning faoliyati shundan tashkil topadi... Manfaat — men faqat harakatlanuvchi, mening harakatlanishimning subhektiv irodasidir, shuningdek, manfaatli bo’lish shunga tengki, men harakat qilayotganimda men ishtirok etishim lozim», deb ko’rsatgan edi.

Fuqarolarning ma’lum ijtimoiy guruhga mansubligidan kelib chiqib nodavlat va notijorat tashkilotlarga uyushishi natijasida manfaatlar uyg’unlashuvi ro’y beradi. SHaxsning qanday ijtimoiy guruhga a’zoligi uning manfaatlaridan qay biri ustuvor va barqaror ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqadi, u o’zi uchun muhimroq bo’lgan ijtimoiy guruhga a’zo bo’ladi. Ana shunday ahamiyatli guruhlar tahsiri ijtimoiy tuzilmalar irodasini ifodalaydi. Bunday guruhlar manfaatlarini hukumat doimo eg’tiborga olishi lozim.

Institutlashgan ijtimoiy guruhlar shaklini olgan manfaatlar guruhlari turli mamlakatlarda ularning tarixiy tajriba va anhanalaridan kelib chiqib, turlicha nomlanadi. Masalan, AQSHda manfaatlar guruhlari fuqarolik institutlari, volontyorlar tashkilotlari, umumiy manfaatlar guruhlari, bosim o'tkazish guruhlari deb atalsa, G'arbda nodavlat notijorat tashkilotlari, xayriya tashkilotlari, jamg'armalar kabi nomlar bilan ataladi. G'arb sotsiologiyasida esa, bu tashkilotlar manfaatlar guruhlari nomi bilan keng tarqaldi. O'zbekistonda esa mustaqillikning ilk davridan boshlab bu tashkilotlar jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ijtimoiy tashkilotlar nomi bilan keng ommalashdi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar jamiyatda mavjud bo'lgan barcha manfaatlarni qamrab olib, ularni ifodalagandagina, ular o'z maqsadlarini samarali bajaradilar. Jamiyatda turlicha, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, mahnaviy, milliy, mafkuraviy, madaniy, ekologik, hududiy, mintaqaviy, diniy, shuningdek, yana o'nlab alohida sohalarga doir manfaatlar mavjuddir. Manfaatlar guruhlari ana shu manfaatlarning ifodachisi sifatida paydo bo'ladi va faoliyat yuritadi. Manfaatlarning guruhlar vositasida ifoda etilishi siyosiy qarorlar qabul qilish uchun yordam berishidan tashqari, ular davlat va hukumat organlari ehtiyoj sezayotgan axborotlar va boshqa ma'lumotlarni yetkazib berib turishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlar fuqarolarning ixiyoriy birlashmalaridir. Ular siyosiy partiyalardan farq qilib, hokimiyatni egallash, lavozimlarga nomzodlar ko'rsatish bilan shug'ullanmaydilar. Lekin ular hukumat va boshqa siyosiy tashkilotlarga tahsir qilish uchun harakat qiladilar. Bu sohadagi faoliyat siyosiy tashkilotlar vositasisiz bo'lishi lozim. Manfaatlar guruhlarining harakat usullari siyosiy organlarni ishontirish, maslahat berish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, siyosiy arboblarga ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlarini yetkazish, o'z manfaatlarini qondirish uchun tashkiliy tadbirlar o'tkazish bilan chegaralanadi.

SHuningdek, siyosiy partiyalar faoliyatining muhim xususiyatlarini tahlil qilish nodavlat notijorat tashkilotlar, guruhlar, turli birlashmalar, tashkilotlarning faoliyati va harakat doirasini o'rganmay turib, amalga oshmaydi. Lekin klassik demokratik nazariyalarda siyosiy guruhlarning maqsadlari ma'lum bir siyosiy yo'lni amalga oshirish uchun hokimiyatni egallash hisoblangan bo'lsa, manfaatlar guruhlarining maqsadi siyosatga tahsir ko'rsatishdan iboratdir, deb ifodalangan. Siyosiy partiya asosan turlicha siyosiy manfaatlar, ko'rsatmalar va yo'nalishlarga ega bo'lgan kishilarni birlashtirsa, manfaatlar guruhlari ko'proq o'z a'zolari uchun xos bo'lgan manfaatlar, asosan bir yoki bir necha muammolarni hal qilishga o'z diqqat-ehtiborini qaratadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar samarali raqobat yo'llarini va siyosiy jarayonda ommaviy tarzda qatnashish usullarini shakllantiradi. Ular o'z manfaatlarini himoya qilgan holda davlatning u yoki bu sohadagi siyosati harakatlarini muvozanatda saqlab turish imkoniyatlariga ega bo'ladi. SHuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar har bir alohida fuqaro (shaxs)ga, siyosiy yetakchiga tahsir o'tkaza olish va unga siyosatda ishtirok etish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat birlashmalari va siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari. O'zbekiston bosib o'tgan

keyingi o’n yillik davr aholining keng qatlamlari qo’llab-quvvatlaydigan turli xil fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarning jadal shakllanishi va rivojlanishi davri bo’ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Konstitutsiyamizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy printsiplarning mustahkamlab qo’yilgani barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida 5100 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda va bu ko’rsatkich 2000 yilga qaraganda 2,5 barobar ko’pdir. Fuqarolar yig’inlari va o’zini o’zi boshqarish organlari – mahallalar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi. Bular qatorida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, O’zbekiston xotin-qizlar qo’mitasi, «Sog’lom avlod uchun», «Nuroniy» jamg’armalari, «Ijod» fondi, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi va boshqa jamoat tashkilotlarini sanab o’tish mumkin.

Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o’z salohiyatlarini ro’yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta’minlashga ko’maklashmoqda.

Mamlakatimizda Ombudsman, Inson huquqlari bo’yicha milliy markaz, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi inson huquqlari bo’yicha milliy institutlar va boshqa bir qator tashkilotlar faoliyat ko’rsatmoqda.
O’tgan davr mobaynida mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani ham bu soha rivojiga bo’lgan katta ehtiborni ko’rsatadi.

Aytish kerakki, fuqarolik jamiyati institutlari tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarini tobora rivojlantirish, ularning mustaqil ish yuritishi va chinakam mustaqilligini ta’minlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy jihatdan qo’llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to’g’risida»gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

So’nggi yillarda «Jamoat fondlari to’g’risida»gi, «Homiylik to’g’risida»gi qonunlar, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «O’zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko’maklashish chora-tadbirlari to’g’risida»gi qarori va boshqa qator hujjatlar qabul qilindi va ular fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy

faolligini kuchaytirishda muhim omil vazifasini bajarmoqda. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan mamlakatda demokratik jamiyatni qurishning xuquqiy asosi yaratildi. Konstitutsiyaning g’oyalari, maqsadlari, ruxi uning xar bir qoidasi BMT ning «Inson xuquqlari umumjaxon Deklaratsiyasi» asrlar mobaynida ilg’or va etakchi mamlakatlarda shakllangan demokratik qadriyatlar, milliy davlatchilik, shuningdek bir necha ming yillardan buyon avloddan avlodga meros bo’lib kelayotgan milliy va sharqona davlatni adolatli idora etish, mamlakatni boshqarishda xalqning xam bevosita ishtirok etishi anhanalarini o’zida mujassamlashtirdi.

Milliy mustaqillikning dastlabki davridayoq mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishning xuquqiy asoslari yaratildi. Konstitutsiyaning 29-moddasidagi «Xar kim fikrlash, so’z va ehtiqod erkinligi xuquqiga ega..», 32-moddasidagi «O’zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita xamda o’z vakillari orqali ishtirok etish xuquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o’z-o’zini boshqarish, referendumlar o’tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo’li bilan amalga oshiriladi», 34-moddasidagi «O’zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish ommaviy xarakatlarda ishtirok etish xuquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy xarakatlarda, shuningdek xokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning xuquqlari, erkinliklari va qadr qimmatini xech kim kamsitishi mumkin emas», 43-moddasidagi «Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustaxkamlangan xuquqlari va erkinliklarini tahminlaydi», kabi fuqarolik jamiyati qurishning demokratik qadriyatlari va tamoyillari shakllanishini tahminlaydigan qonun va qoidalarning kiritilishi O’zbekiston jamiyatining kelajak maqsadlarini belgilab berdi.

Konstitutsiyaning aloxida «jamoat birlashmalari» bobi respublikada fuqarolik jamiyati va ko’ppartiyaviylik tizimini qaror toptirish uchun xam xuquqiy, xam amaliy jixatlardan shart-sharoitlar yaratdi.

Unga binoan jamoat birlashmasi, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar kabi tushunchalarga xuquqiy aniqliklar kiritiladi. Endi ular demokratik talqinlar asosida taoriflana boshlandi. Ayniqsa Konstitutsiyaning 58-moddasidagi «Davlat jamoat birlashmalarining xuquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini tahminlaydi, ularga ijtimoiy xayotda ishtirok etish uchun teng xuquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo’l qo’yilmaydi, degan jamiyat mustaqilligini tahminlashga doir xuquqiy printsipning ehtirof etilishi respublikadagi jamiyat taraqqiyoti insoniyat xayotining bir necha asrlar maboynida tajribalaridan va sinovlaridan muvaffaqiyatli o’tgan fuqarolik jamiyati sari intilayotganligini bildirar edi. O’zbekistonda saylov tizimi uchun Konstitutsiyaning «Saylov tizimi» bobiga binoan respublika fuqarolari erkin ravishda vakillik organlariga saylash va saylanish xuquqiga egadirlar.

Mustaqillik sharofati bilan O’zbekistonda ham ko’ppartiyaviylik tizimi qaror topdi, turli ijtimoiy tashkilotlar faoliyatiga ruxsat etildi. Bu xususda bir qonunlar qabul

qilindi: "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" (1991 y. 14 iYun. Unga 1996 yilda tuzatish kiritildi); "Jamoat tashkilotlari to'g'risida" (1991 y. 15 fevr.), "Kasaba uYushmalar to'g'risida" (1992 y. 2 iYul); "Siyosiy partiyalar to'g'risida" (1996 y. dekabr).

O'zbekistonda mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatining muxim instituti bo'lgan siyosiy partiyalarning demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan barcha xuquqiy asoslar Konstitutsiya va qonunlarda o'z ifodasini topdi. Jumladan, qonunda siyosiy partiyalarn tuzish, ularning faoliyat ko'rsatish printsiplari, partiyaga aozolik, siyosiy partiya faoliyatining kafolatlari,ustavi, ro'yxatga olish, partiyalarning mulkiy munosabatlariga doir barcha xuquqiy maqomlarining mujassamlashgani O'zbekistonda ko'p partiyaviylik tizimini qaror toptirishning kafolatlaridan biriga aylandi. Mazkur qonunga binoan siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy qarashlari, irodalari shakllanishini tahminlash uchun erkinlik xuquqiga ega bo'ldilar, partiyalarning o'zaro xuquqiy tengligi, shuningdek, ularning jamiyat oldidagi maosuliyati qonunlashtirildi. Saylovlarni ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazish oddiy bir demokratik qadriyatga aylandi. Davlat xokimiyatni shakllantirishda siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining taklif va istaklarini inobatga olish xam siyosiy xayot tarziga aylanib bormoqda. Ayniqsa, siyosiy partiyalarning fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroklarini tahminlash va avj oldirish uchun xam barcha imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Ko'ppartiyaviylik - demokratik jamiyat barpo etishning muhim sharti. Demokratik jamiyat qurishga doir islohotlar siyosiy partiyalarning mustaqil tashkilot sifatidagi maqomini oshirishga yo'naltirilgan. 2004 yil dekabrda bo'lgan saylovlarda siyosiy partiyalarga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko'rsatishning to'la huquqlari berilishi, xalq deputatlari kengashlari — vakillik organlaridan esa bu kabi huquqning olib qo'yilishi partiyalarning jamiyatda tutgan o'rnini yanada yuksak ko'tarishga qaratilgandir.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish omillaridan biri siyosiy maydonda demokratik mamlakatlarga xos bo'lgan partiyaviylik tizimini qaror toptirishdir. Faqat ko'ppartiyaviylikka asoslangan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar majmuasigina fuqarolik jamiyatini qurish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Har bir mamlakatdagi davlat, hukumat va parlamentni shakllantirishda siyosiy partiyalarning qanday mavqega egaligi, bu jarayonlardagi ishtirokining qanday kechishi xalqning partiyaviylik tizimi asosida kechgan saylovlardagi faollik darajasi hozirgi davrga kelib demokratiya mehyorlarini belgilab bormoqda.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatining muhim instituti bo'lgan siyosiy partiyalarning demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan barcha huquqiy asoslar Konstitutsiya va qonunlarda o'z ifodasini topdi. Jumladan, «Siyosiy partiyalar to'g'risda»gi Qonunda siyosiy partiyalar tuzish, ularning faoliyat ko'rsatish printsiplari, partiyaga a'zolik, siyosiy partiya faoliyatining kafolatlari, ustavi, ro'yxatga olish, partiyalarning mulkiy munosabatlariga doir barcha huquqiy maqomlarning mujassamlashgani O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tiziminn qaror toptirishning kafolatlaridan biriga aylandi. Mazkur qonunlarga binoan siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy irodalari shakllanishini tahminlash uchun erkinlik hukuqiga ega bo'ldilar, partiyalarning o'zaro huquqiy

tengligi, shuningdek, ularning jamiyat oldidagi mashuliyati qonunlashtirildi.

SHuningdek, respublikada ko'p partiyaviylik tizimi qaror topib, saylovlarni ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazish oddiy bir demokratik qadriyatga aylandi. Davlat hokimiyatini shakllantirishda siyosiy partiyalar hamda jamoat birlashmalarining taklif va istaklarini inobatga olish ham siyosiy hayot tarziga aylanib bormoqda. Siyosiy partiyalar va fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroklarini tahminlash, avj oldirish uchun ham barcha imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilmokda.

Mamlakatda fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan demokratik siyosiy tizimning o'ziga xos xususiyatlari, uning demokratik printsiplari, siyosiy tizimni rivojlantirish masalalari Prezident I.A.Karimovning asarlarida nazariy va kontseptual jihatlardan asoslab berilgan.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, O'zbekiston Milliy Tiklanish demokratik partiyasi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi. Hozirgi paytda O'zbekistonda 4 ta siyosiy partiyalar faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston halq demokratik partiyasi (XDP).

Bu partiya 1991 yil 1-noyabrda tashkil etildi. Dasturi va Nizomiga ega. Asosiy maqsadi: Respublikada adolatli demokratik huquqiy davlat barpo etish, uni mustahkamlash, tinchlik, asoyishtalik, totuvlik va faravon hayotni ta'minlash, aholining konstitutsion huquqlarini himoya qilishdan iborat. Rahbar organi Qurultoy, har besh yildan saylanadi. A'zolari 450 mingga yaqin. Parlament partiyasi maqomiga ega. Markaziy organi "O'zbekiston ovozi" gazetasi va "Muloqot" jurnali.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi.

Bu partiya 1995 yil 18 fevlarda tashkil topdi. Dasturi va Nizomi qabul qilindi. Maqsadi: Respublikadagi millatlar va elatlar manfaatiga mos keladigan, Yuksak rivojlangan adolatli fuqarolik jamiyati qurish. A'zolari 30 ming kishidan ziyod. Parlament tipidagi partiya. Siyosiy organi "Adolat" gazetasi.

O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi.

(MTDP). 1995 yil 3-iYunda tashkil etildi. Birinchi qurultoyda Dasturi va Nizomi qabul qilindi.

Bosh maqsadi: Respublikada milliy yakdillikni ta'minlash, O'zbekistonni jahonning etakchi ilg'or davlatlari safiga olib chiqish, huquqiy demokratik davlatni barpo etish, fuqarolarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarni tiklash, mamlakatning ilmiy-texnika salohiyatini Yuksaltirish. Partiya a'zolari soni 10 ming kishiga yaqinlashdi. Parlament partiyasi. Siyosiy organi "Milliy tiklanish" gazetasi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston Liberal- Demokratik partiyasi 2003 yil 15-noyabrda tashkil topgan bo'lib, 150 mingdan ziyod a'zosi bor. Bu partiyaning siyosiy organi «XXI asr» gazetasi. Uning asosiy maqsadi tadbirkorlar va ishbilarmonlarning yanada kengroq ish Yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar ochish, ularning istiqbolini xam nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning ushbu tabaqasi manfaatlarini himoyalash, uning barobarida ularning ertangi kunini ta'minlash, davlat boshqaruvi, jamiyatda shakllanayotgan

qarashlarga ta’sir o’tkazish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi ishtirokini ta’minlash, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti bilan bog’liq muammolarni hal qilish, O’zbekistonning xalqaro obro’yini oshirishda, Yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlashda, millatlararo va fuqarolararo ahillik va totuvlikni mustaxkamlash ishida faol qatnashish, yoshlarimizni vatanga muxabbat va sadoqat, o’z elim, o’z Yurtim, jon O’zbekistonim deb g’ururlanib yashash ruhida, tarbiyalashga o’zining munosib hissasini qo’shish, xar qanday sharoitda ham mustaqillik yo’limizni, qadriyatlarimiz, milliy va diniy an’analarimiz, urf-odatlarimizni qadrlash, aholini ish bilan ta’minlash va ijtimoiy himoya qilishdir. 2005 yil 15 fevralda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida siyosiy partiyalar: Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O’zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O’zLiDeP), “Fidokorlar” Milliy-demokratik partiyasi, “Adolat” ijtimoiy-demokratik partiyasi fraktsiyalarining parlamentdagi Qonunchilik palatasida “Demokratik blok”ka birlashishi haqidagi kelishuv imzolandi.

O’zbekistonda “Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” kontseptsiyasining amalga oshirilishi fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim sharti. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasi (2002 yil 29-30 avgust) mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishni avj oldirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Sessiyada mamlakat Prezidenti I.A.Karimov «O’zbekistonda demokratik o’zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo’nalishlari»ga doir mahruzasi bilan so’zga chiqdi. O’z nutqi bilan Prezidentimiz adolatli demokratik jamiyat qurishning kontseptual nazariy asoslarini yanada boyitdi. Xususan, Prezident I.A. Karimovning ushbu mahruzasida mamlakatda fuqarolik jamiyati barpo etishning asosiy yo’nalishlari va maqsadlarini belgilab berildi: «Beshinchi ustuvor yo’nalish fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti bo’lib, bu jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o’rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. Yoki boshqacha qilib aytganda, bu — «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish demakdir. Hammamizga ayonki, bu yo’nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog’liq ko’p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o’tkaza borishni taqozo etadi. Buning uchun, avvalambor, davlatning iqtisodiy sohaga, xo’jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash lozim».

Mamlakatda XXI asr boshlarida «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» kontseptual siyosiy dasturni amalga oshirish maqsadlaridan kelib chiqib, markaziy davlat organlarining ayrim vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati, o’zini-o’zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich berib borish asosida jamiyat qurilishini erkinlashtirish jarayonlari boshlandi. Bu sohada quyidagi yo’nalishlarda islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda:

– birinchidan, jamiyat a’zolarining ongi, irodasi, madaniyati, mahnaviyati va bilimi yuksak darajada bo’lishiga erishish, ularning huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyatiga alohida ehtibor berish;

– ikkinchidan, jamiyat a’zolarining manfaatlari uyg’unlashuvi

jarayonlarini shakllantirish, jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlar bilan mushtarakligiga erishish;

– uchinchidan, jamiyatning takomillashuvi, yangilanishi uchun kuchli va real siyosiy, iqtisodiy, madaniy imkoniyatlarni shakllantirish;

– to'rtinchidan, jamiyat a'zolari va tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlik asosida jamiyatning umumiy manfaatlarini uyg'unlashtirish;

– beshinchidan, jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy qoidalar tahsirini kuchaytirish, ularga ongli ravishda bo'ysunish amaliyotini vujudga keltirish;

– oltinchidan, siyosiy hokimiyatning o'z vazifalarini to'liq bajarishiga kengroq va qulayroq imkoniyatlar yaratish, siyosiy hokimiyatga nisbatan jamiyat a'zolari ishonchini kuchaytirish, uning aholi tomonidan keng va faol qo'llab-quvvatlanishiga erishish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatda kuchli demokratik jamiyat barpo etish maqsadlarida davlat hokimiyati vakolatlarini kamaytirish, yahni davlat hokimiyati tasarrufida, asosan konstitutsion tuzumni, mamlakatning mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish, huquq-tartibot, mudofaa qobiliyatini tahminlash inson huquqlari va erkinliklarini, mulk egalarining huquqlarini, iqtisodiy faoliyat ekinligini himoya qilish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, samarali tashqi siyosat olib borish kabi vazifalarni qondirish ko'zda tutilmoqda.

SHuningdek, strategik ahamiyatga molik masalalar, muhim iqtisodiy va xo'jalik masalalari, pul va valyuta muomala bo'yicha qarorlar qabul qilish, xo'jalik yurituvchi subhektlar faoliyatining huquqiy shart-sharoitlarini yaratish, ekologiya masalalari, umumrespublika transport va muhandislik kommunikatsiyalarini rivojlantirish, yangi tarmoqlarni vujudga keltiradigan ishlab chiqarishni barpo etish masalalari davlat miqyosida hal etilishi, davlatning boshqa barcha vazifalarni bajarishga doir vakolatlari esa mahalliy davlat hokimiyati, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat va jamoat tashkilotlariga berib borish jarayonlari boshlandi. SHuningdek, davlat organlari faoliyatini nazorat qilish vakolatlarini ham, asosan, o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlariga berish belgilandi.

Mamlakatimizda xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati. O'zbekistonda BMT Rivojlanish Dasturlari asosida o'nlab xorijiy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. SHuningdek, «Britaniya Kengashi», Konrad Adenauer jamg'armasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha vakolatxonasi, Fridrix Ebert jamg'armasi vakolatxonasi. Ta'lim va tillar o'rganishda hamkorlik qilish bo'yicha Amerika Kengashi (AKSELS), YuNESKO vakolatxonasi Germaniyaning «Gyote instituti» Frantsiyaning «Alg'yans Franse» kabi yana o'nlab xorijiy mamlakatlar nodavlat tashkilotlari vakolatxonalari va filiallari O'zbekistonning turli sohalarida keng faoliyat yuritmoqda.

«Ayni vaqtda, imkoniyatdan foydalanib, nohukumat, jamoat tuzilmalarini shakllantirish jarayoniga xos bahzi masalalar xususida to'xtalib o'tmoqchiman, — deb tahkidladi Prezident I.A.Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisida qilgan mahruzasida. — SHuni ham tahkidlashga to'g'ri keladiki,

ularning ayrimlarining, avvalo, turli xomiylik ko'magida tuzilgan nodavlat notijorat tashkilotlarini tekshirish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, bunday tashkilotlar faoliyati ular ro'yxatdan o'tish chog'ida taqdim etilgan nizom va dasturlari doirasidan anchagina chetga chiqib ketmokda va muayyan buyurtmaga asoslangan maqsadlarni ko'zlamoqda.

Tabiiyki, biz bunday holatlar bilan murosa qila olmaymiz. Qonunchiligimizga zid bo'lgan bu kabi loyihalarning O'zbekistonda kelajagi yo'q ekanini aytishga hojat bo'lmasa kerak, deb o'ylayman. Darhaqiqat, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish jarayoni har qanday inqilobiy o'zgarishlari kelmaydi».

Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan tahsirchan jamoatchilik nazorati rolini oshib borishi. Davlatimiz raxbari I.A.Karimov 2010 yil 12 noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi to'g'risidagi» ma'ruzasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan «O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi Qonunni qabul qilish fursati yetganligini ta'kidlab o'tdi. Qonunda jamoatchilik nazoratining turlari, shakllari va subektlarini, nazorat 'redmetini, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini, shuningdek, mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro etmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartlarini belgilab qo'yish zarur.

SHu nuqtai nazardan qaraganda, Inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu dastur eng avvalo huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishini ta'minlash, jamiyatda inson huquqlari bo'yicha madaniyatni shakllantirish va shu kabi boshqa sohalarga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik monitoringini olib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'zida mujassam etishi kerak.

Mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirilishi. Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'hminlashga ko'maklashmoqda. Bunday tashkilotlarning obro'si oshib, mustahkamlanib borgani sari fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan tahsirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli jamiyatimizda tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda jamoatchilik va fuqarolik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini tahminlash, odamlarning kayfiyatini,

mamlakatda kechayotgan o’zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda. Mamlakatimizda Ombudsman, Inson huquqlari bo’yicha milliy markaz, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi inson huquqlari bo’yicha milliy institutlar va boshqa bir qator tashkilotlar faoliyat ko’rsatmoqda.

O’tgan davr mobaynida mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani ham bu soha rivojiga bo’lgan katta ehtiborni ko’rsatadi. Aytish kerakki, fuqarolik jamiyati institutlari tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarini tobora rivojlantirish, ularning mustaqil ish yuritishi va chinakam mustaqilligini tahminlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy jihatdan qo’llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to’g’risida»gi Qonunnin qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. So’nggi yillarda «Jamoat fondlari to’g’risida»gi, «Homiylik to’g’risida»gi qonunlar, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «O’zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko’maklashish chora-tadbirlari to’g’risida»gi qarori va boshqa qator hujjatlar qabul qilindi va ular fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim omil vazifasini bajarmoqda.

SHuningdek, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining «Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo’llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi qo’shma qarori ham alohida ahamiyatga ega bo’ldi. O’z navbatida, Oliy Majlis huzurida Jamoat fondi hamda tarkibiga nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat tashkilotlarining vakolatli vakillari bilan birga deputatlar, moliyaviy tuzilmalarning mashul xodimlari kirgan Parlament komissiyasining tashkil qilinishi ham ehtiborga sazovordir. Mazkur komissiyaning faoliyati «uchinchi sektor» deb nom olgan fuqarolik jamiyati institutlarini qo’llab-quvvatlashga davlat budjetidan ajratilgan moliyaviy mablag’larni yanada ochiq, oshkora, aniq yo’naltirilgan va eng muhimi, demokratik asosda taqsimlashni tahminlash imkonini bermoqda. Bu esa nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-texnikaviy va iqtisodiy negizini mustahkamlashga samarali tahsir ko’rsatmoqda. Faqat keyingi uch yilning o’zida fuqarolik jamiyati institutlari taqdim etgan turli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan 11 milliard so’mdan ortiq mablag’ ajratildi. Fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini tahminlashda, ularning rolini kuchaytirishda «Ijtimoiy sheriklik to’g’risida»gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o’zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va

tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo'yicha huquqiy normalar ko'zda tutilishi darkor.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishni takomillashtirishning fuqarolik jamiyati qurishdagi ahamiyati. Mamlakatda kuchli demokratik jamiyat barpo etish maqsadlarida davlat hokimiyati vakolatlarini kamaytirish, yahni davlat hokimiyati tasarrufida, asosan konstitutsion tuzumni, mamlakatning mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish, huquq-tartibot, mudofaa qobiliyatini tahminlash inson huquqlari va erkinliklarini, mulk egalarining huquqlarini, iqtisodiy faoliyat ekinligini himoya qilish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, samarali tashqi siyosat olib borish kabi vazifalarni qondirish ko'zda tutilmoqda.

SHuningdek, strategik ahamiyatga molik masalalar, muhim iqtisodiy va xo'jalik masalalari, pul va valyuta muomala bo'yicha qarorlar qabul qilish, xo'jalik yurituvchi subhektlar faoliyatining huquqiy shart-sharoitlarini yaratish, ekologiya masalalari, umumrespublika transport va muhandislik kommunikatsiyalarini rivojlantirish, yangi tarmoqlarni vujudga keltiradigan ishlab chiqarishni barpo etish masalalari davlat miqyosida hal etilishi, davlatning boshqa barcha vazifalarni bajarishga doir vakolatlari esa mahalliy davlat hokimiyati, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat va jamoat tashkilotlariga berib borish jarayonlari boshlandi. SHuningdek, davlat organlari faoliyatini nazorat qilish vakolatlarini ham, asosan, o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlariga berish belgilandi.

Jamiyat siyosiy tizimini yanada erkinlashtirish masalalari mazkur siyosiy dastur qabul qilinganidan keyin yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon jomoatchiligi tomonidan tan olingan «O'zbek modeli» asosida jamiyatni har tomonlama isloh etishning asosiy yo'nalishi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishga qaratildi. Jamiyagning siyosiy tizimi ijtimoiy guruhlarning xilma-xil ehtiyojlari va manfaatlarini o'zida ifodalashga, ularni hayotga tatbiq etishga qaratilgandir. O'z o'rnida, nodavlat notijorat tashkilotlar va siyosiy institutlar bevosita yoki bilvosita siyosiy hokimiyatning amal qilishiga hissa qo'shadi yoki bu jarayonlarda ishtirok etadi. SHuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati natijasida jamiyat siyosiy tizimi kengliklarida jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va mahnaviy hayotiga mansub bo'lgan turli-tuman ijtimoiy tabaqalar manfaatlari o'zaro ziddiyatlashuvi natijasida rivojlanish ro'y beradi. SHuningdek, bu jarayonlar turli ijtimoiy qatlam va gurhlarning taqazo kelishuvi, hamkorligiga imkoniyatlar yaratadi.

Hozirgi o'tish davri va demokratik mezonlar har bir siyosiy partiyani mustaqil institug sifatida o'z ijtimoiy bazasi bo'lgan ijtimoiy tabaqalar manfaatlari va dunyoqarashiga mos harakat dasturlariga ega bo'lishi, siyosiy plyuralizmni shakllantirib, turlicha qarashlar raqobati va musobaqasi asosida fuqarolik jamiyati shakllanishi uchun zamin tayyorlashini talab etmoqda.

13-mavzu: Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so’z erkinligini ta’minlash

Reja:

1. Axborot erkinligini ta’minlash tushunchasi, mazmun-mohiyati.
2. Axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta’minlash.
3. Axborot kommunikatsiyalari sohasini rivojlantirish.

Axborot erkinligini ta’minlash tushunchasi, mazmun-mohiyati. Bugun biz demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so’z yuritar ekanmiz, albatta, axborot erkinligini ta’minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o’z fikr va g’oyalarini, sodir bo’layotgan voqealarga o’z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo’lmasligini o’zimizga yaxshi tasavvur etamiz.

O’zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda qabul qilingan «Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to’g’risida»gi qonunining 4-moddasiga ko’ra, O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har kim axborotni moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqiga ega. Axborot olish faqat qonunga muvofiq hamda inson huquq va erkinliklari, konstitutsiyaviy tuzum asoslari, jamiyatning axloqiy qadriyatlari, mamlakatning mahnaviy, madaniy va ilmiy salohiyatini muhofaza qilish, xavfsizligini ta’minlash maqsadida cheklanishi mumkin.

Ochiqlik va oshkoralik, hamma erkin foydalanishi mumkinligi va haqqoniylik axborot erkinligining asosiy printsiplaridir.

Ma’lumki, fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta’minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o’z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o’zida mujassam etgan bo’lib, bu O’zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta’bir joiz bo’lsa, tamal toshi hisoblanadi.

Mamlakatimizda o’tgan yillar davomida, ayniqsa oxirgi 10 yilda ommaviy axborot vositalarini yanada liberallashtirish, so’z erkinligini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Yurtimizda avvalo ommaviy axborot vositalari rivojini ta’minlaydigan, demokratik talab va standartlarga to’la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Ushbu davrda ommaviy axborot vositalarini erkin va jadal rivojlantirishga, axborot sohasining samarali faoliyat ko’rsatishini ta’minlashga qaratilgan 10 ga yaqin

qonun hujjatlari qabul qilindi.

Ommaviy axborot vositalarining to’rtinchi hokimiyat sifatida davlat hokimiyatidagi o’rni. Ommaviy axborot vositalari - jamoatchilik ongini shakllantiruvchi, demokratik rivojlanishning asosiy printsiplari, madaniy va axborot berish vazifalarini amalga oishruvchi hamda millatning inson xukuq va erkinliklarini ta’minlovchi tizim. Ommaviy axborot vositalari (OAV) mustaqil kuchga, «to’rtinchi hokimiyat»ga aylanmoqda. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va «Ommaviy axborot vositalari to’g’risida»gi (1997 yil 26 dekabr) qonunga muvofiq har bir fuqaroga so’z erkinligi: radio orqali, matbuot, televidenie va boshqa OAVlarda chiqish, o’z fikri va e’tiqodini bayon etish huquqi havola etiladi. Demokratik huquqiy davlat barpo etishning asosiy shartlaridan biri - matbuot va axborot erkinligidir. Ammo so’z va matbuot erkinligi mutlaq bo’la olmaydi. CHunki televizor ekranidan yangragan, gazetada e’lon qilingan axborotni millionlab odamlar eshitadilar, o’qiydilar. Agar qandaydir bir odam, korxona, ishlab chiqarish tarmog’i haqida yanglish ma’lumotlar aytsa, bu bilan ularning nufuziga putur yetkaziladi, huquqlari buziladi. Konstitutsiyaning 67-moddasida qayd etilganidek, ular «axborotning to’g’riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar». Demak, OAV ning ijtimoiy hayotdagi o’rni va roli oshib bormoqda. «Axborotlashgan jamiyat» to’g’risidagi qarashlar negizi ham dunyoda axborot ko’lamining ortib borastgani bilan bogliq. XXI asr «axborot asri»ga aylanmoqda. OAV jamiyatni mahnaviy yangilashdan ko’zlangan bosh maksad-yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalk erkinligi va farovonligiga erishish, komil inson tarbiyasi, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bagrikenglik kabi milliy g’oya va mafkura bilan sug’orilgan g’oya va maqsadlarni xalk e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchini shakllantirishda hamda xalqning, millatning o’tda yonmaydigan, suvda cho’kmaydigan o’lmas e’tiqodini (I.A.Karimov) uyg’otishda va qaror toptirishda muhim rol o’ynaydi. OAV insonlarni mamlakat ijtimoiy-siyosiy xayoti bilan uzviy bog’laydi. SHunda axborot “holis», «ishonchli», «aniq» bo’lishi mumkin, OAVlarni «to’rtinchi hokimiyat»ga aylantirish jarayoni kechmoqda, lekin bu jarayon murakkab hollarda kechmoqda. Xususan, axborot taxdilida eskicha fikr yuritish o’z ta’sirini saklab turibdi. Hozirgi vaqtda axborot «chegara» bilmaydigan omilga aylanib qoldi.

Fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta’minlash. «Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to’g’risida»gi qonunining 8-moddasiga ko’ra, davlat har kimning axborotni izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqini himoya qiladi. Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiga qarab axborot olish huquqi cheklanishiga yo’l qo’yilmaydi.
Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har kimga o’zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo’lgan axborot bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta’minlab berishga, maqbul axborot resurslari

yaratishga, foydalanuvchilarni fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlariga, ularning xavfsizligiga doir hamda jamiyat manfaatlariga taalluqli boshqa masalalar yuzasidan axborot bilan ommaviy tarzda ta'minlashga majburdirlar. O'zbekiston Respublikasida tsenzuraga va axborotni monopollashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Ommaviy axborot vositalari rivojini ta'minlaydigan, demokratik talab va standartlarga to'la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasini takomillashtirish zaruriyati. Axborot olish, taxlil kilish, ishlash va yetkazishningzamonaviy usullari va vositalarini o'zlashtirishda ularga yordam berish OAV faolligi va ularning samarali ishlashiga yordam beradigan mexanizmlarni tartibga soluvchi Qonunchilik bazasini takomillashtirishga alohida ahamiyat berilmokda. Matbuot to'g'risida, jurnalistlar faoliyati, axborot olish bilan bog'lik mehyoriy hujjatlar qabul qilindi.

Bugungacha mazkur soxani muvaffaqiyatli rivojlantirish maqsadida tegishli qonunchilik bazasi yaratildi:

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLARI

№ 512-XII 13.01.1 992 y. «Aloqa to`g`risida»gi Qonun
№ 725-I 25.12.1998 y. «Radiochastota s'ektri to`g`risida» gi Qonun
№ 822- I 20.08.1999 y. «Telekommunikatsiyalar to`g`risida» gi Qonun
№ 439-II 12.12.2002 y. «Axborot erkinligi 'rintsi'lari va kafolatlari to`g`risida» gi Qonun
№ 560-II 11.12.2003 y «Axborotlashtirish to`g`risida»gi Qonun
№ 562-II 11.12.2003 y. «Elektron raqamli imzo to`g`risida» gi Qonun
№ 611-II 29.04.2004 y. «Elektron xujjat aylanishi to`g`risida» gi Qonun
№ 613-II 29.04.2004 y. «Elektron tijorat to`g`risida»gi Qonun
№ O`RQ-30 04.04.2006 y. «Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to`g`risida»gi Qonun
№ O`RQ-13725.12.2007 y. «Axborotlashtirish va ma'lumotlar uzatish sohasida qonunga xilof harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilganligi munosabati bilan O`zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida» gi Qonun

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI 'REZIDENTINING FARMONLARI

№'F-1823 23.07.1997 y . «Axborot tizimlari sohasini qayta tashkil etish va boshqarishni takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to`g`risida»gi Farmon
№ 'F-3080 30.05.2002 y. «Kom'yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to`g`risida»gi Farmon

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI 'REZIDENTINING QARORLARI

№ 'Q-91 2.06.2005 y. «O`zbekiston Respublikasi telekommunikatsiyalar tarmoqlarini boshqarish tizimini takomillashtirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi Qaror

№ ‘Q-117 08.07.2005 y. «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi Qaror
№ ‘Q-149 08.08.2005 y. «O`zbektelekom" aktsiyadorlik kom’aniyasining ma’lumotlar uzatish xizmatlarini rivojlantirish va uni xususiylashtirishga tayyorlash chora-tadbirlari to`g`risida» gi Qaror
№ ‘Q-381 20.06.2006 y. «Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta’minlashni tashkil etish to`g`risida»gi Qaror
№ ‘Q-19128.09.2005 y. «O`zbekiston Respublikasining jamoat ta’lim axborot tarmog`ini tashkil etish to`g`risida»gi Qaror
№ ‘Q-614 03.04.2007 y. «O`zbekiston Respublikasida axborotni kri’tografik muhofaza qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Qaror
№ ‘Q-589 20.02.2007 y. «O`zbekiston Respublikasi telekommunikatsiyalar tarmoqlarini boshqarish tizimini takomillashtirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi Qaror

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORLARI

№ 293 10.07.1998 y. «Chastota s’ektridan foydalanish, teleradiodasturlarni shakllantirish va tarqatish hamda ma’lumotlar uzatish samaradorligini oshirish yuzasidan qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi Qaror
№ 458 22.11.2000 y. «Telekommunikatsiyalar va ‘ochta aloqasi sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Qaror
№ 453 29.09.2004 y. «"O`zbektelekom" aktsiyadorlik kom’aniyasini xususiylashtirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi Qaror
№ 421 24.10.2001 y. «Telekommunikatsiyalar sohasida faoliyat ko`rsatish huquqi uchun davlat boji miqdorlarini tasdiqlash to`g`risida»gi Qaror
№ 429 26.10.2001 y. «O`zbekiston Respublikasida radiochastota s’ektridan foydalanganlik uchun haq to`lash tartibi to`g`risidagi nizomni tasdiqlash haqida» gi Qaror
№ 200 06.06.2002 y. «Kom’yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Qaror
№ 328 23.09. 2002 y. «Aloqa va axborotlashtirish sohasida boshqaruvni tashkil etishni takomillashtirish to`g`risida» gi Qaror
№ 336 27.09.2002 y. «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi faoliyatni yanada takomillashtirish to`g`risida»gi Qaror
№ 352 10.10.2002 y. «Xalqaro kom’yuter tarmoqlaridan foydalanishni markazlashtirishdan chiqarish to`g`risida»gi Qaror
№ 385 7.11.2002 y. «Toshkent axborot texnologiyalari universiteti faoliyatini tashkil etish to`g`risida»gi Qaror
№ 367 25.08.2003 y. «Vazirlar Mahkamasining "Kom’yuterlashtirishni yanadarivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to`g`risida" 2002 yil 6 iyundagi 200-son qaroriga qisman o`zgartirishlar kiritish haqida»gi Qaror
№ 413 27. 09.2003 y. «Telekommunikatsiyalar sohasidagi faoliyatni litsenziyalash to`g`risidagi nizomga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish haqida»gi Qaror
№ 215 07.05.2004 y. «O`zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi faoliyatini

takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» gi Qaror№ 215 07.05.2004 y. «O`zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» gi Qaror
№ 555 24.11.2004 y. «Ommaviy kommunikatsiyalar sohasida boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Qaror
№ 592 20 dekabr 2004 y. «Teleradioeshittirish sohasida radiochastota s'ektridan samarali foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlari to`g`risida» gi Qaror
№ 598 22 dekabr 2004 y. «Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 50 yilligi yubileyini nishonlash to`g`risida»gi Qaror
№ 200 16.08.2005 y. «Matbuot, axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar sohasida boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish to`g`risida» gi Qaror
№ 215 26.09.2005y. «Elektron raqamli imzodan foydalanish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to`g`risida» gi Qaror
№ 256 22.11.2005 y. «Axborotlashtirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to`g`risida»gi Qaror
№ 282 28.12.2005 y. «"Ziyonet" axborot tarmog`ini yanada rivojlantirish to`g`risida»gi Qaror
№ 27 20.02.2006 y. «Davlat axborot resurslari hamda ularni shakllantirish, ulardan foydalanish va ularni qo`llab-quvvatlash uchun mas'ul bo`lgan davlat organlari ro`yxatini tasdiqlash to`g`risida»gi Qaror
№ 29 22.02.2006 y. «Telekommunikatsiyalar sohasida faoliyat ko`rsatish huquqi uchun davlat bojii miqdorlarini tasdiqlash to`g`risida»gi Qaror
№181 23.08.2007 y. «Davlat va xo`jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o`zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Qaror
№204 26.09.2007 y. «O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar masalalari axborot-tahlil de'artamenti to`g`risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi Qaror
№242 21.11.2007y. «Axborotning kri'tografik himoya vositalarini loyihalashtirish, tayyorlash, ishlab chiqarish, realizatsiya qilish, ta'mirlash va ulardan foydalanish faoliyatini litsenziyalash to`g`risidagi nizomni tasdiqlash haqida» gi Qaror
№ 259 17.12.2007 y. «Internet tarmog`ida O`zbekiston Respublikasining hukumat 'ortalini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Qaror
№ 339 19.07.2004 y. «'ochta aloqasi sohasidagi faoliyatni takomillashtirish to`g`risida»gi Qaror

Axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlash. «Axborot erkinligi 'rintsi'lari va kafolatlari to'g'risida»gi qonunining 11-moddasida axborotni muhofaza etish borasidagi qoidalar keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, har qanday axborot, agar u bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo'lish axborot mulkdori, egasi, axborotdan foydalanuvchi va boshqa shaxsga zarar yetkazishi mumkin bo'lsa, muhofaza etilmog'i kerak.

Axborotni muhofaza etish: shaxs, jamiyat va davlatning axborot sohasidagi xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish; axborotning maxfiyligini ta'minlash,

tarqalishi, o’g’irlanishi, yo’qotilishining oldini olish; axborotning buzib talqin etilishi va soxtalashtirilishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi.
Mazkur qonunning 12-moddasiga ko’ra, axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat siyosati axborot sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo’ladi hamda shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hamda faoliyat yo’nalishlarini, shuningdek fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolarning o’rni va ahamiyatini belgilaydi.
SHaxsning axborot borasidagi xavfsizligi uning axborotdan erkin foydalanishi zarur sharoitlari va kafolatlarini yaratish, shaxsiy hayotiga taalluqli sirlarini saqlash, axborot vositasida qonunga xilof ravishda ruhiy ta’sir ko’rsatilishidan himoya qilish yo’li bilan ta’minlanadi.
Jismoniy shaxslarga taalluqli shaxsiy Ma’lumotlar maxfiy axborot toifasiga kiradi. Jismoniy shaxsning roziligisiz uning shaxsiy hayotiga taalluqli axborotni, xuddi shuningdek shaxsiy hayotiga taalluqli sirini, yozishmalar, telefondagi so’zlashuvlar, ‘ochta, telegraf va boshqa muloqot sirlarini buzuvchi axborotni to’’lashga, saqlashga, qayta ishlashga, tarqatishga va undan foydalanishga yo’l qo’yilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.
Jismoniy shaxslar to’g’risidagi axborotdan ularga moddiy zarar va mahnaviy ziyon yetkazish, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro’yobga chiqarilishiga to’sqinlik qilish maqsadida foydalanish taqiqlanadi.
Fuqarolar to’g’risida axborot oluvchi, bunday axborotga egalik qiluvchi hamda undan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar bu axborotdan foydalanish tartibini buzganlik uchun qonunda nazarda tutilgan tarzda javobgar bo’ladilar.
Ommaviy axborot vositalari axborot manbaini yoki taxallusini qo’ygan muallifni ularning roziligisiz oshkor etishga haqli emas. Axborot manbai yoki muallif nomi faqat sud qarori bilan oshkor etilishi mumkin.
Jamiyatning axborot borasidagi xavfsizligiga quyidagi yo’llar bilan erishiladi: demokratik fuqarolik jamiyati asoslari rivojlantirilishini, ommaviy axborot erkinligini ta’minlash; qonunga xilof ravishda ijtimoiy ongga axborot vositasida ruhiy ta’sir ko’rsatishga, uni chalg’itishga yo’l qo’ymaslik; jamiyatning mahnaviy, madaniy va tarixiy boyliklarini, mamlakatning ilmiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatini asrash hamda rivojlantirish; milliy o’zlikni anglashni izdan chiqarishga, jamiyatni tarixiy va milliy anhanalar hamda urf-odatlardan uzoqlashtirishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni buzishga qaratilgan axborot eks’ansiyasiga qarshi harakat tizimini bar’o etish.
Davlatning axborot borasidagi xavfsizligi quyidagi yo’llar bilan ta’minlanadi: axborot sohasidagi xavfsizlikka tahdidlarga qarshi harakatlar yuzasidan iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va boshqa tusdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish; davlat sirlarini saqlash va davlat axborot resurslarini ulardan ruxsatsiz tarzda foydalanilishidan muhofaza qilish; O’zbekiston Respublikasining jahon axborot makoniga va zamonaviy telekommunikatsiyalar tizimlariga integratsiyalashuvi; O’zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo’rlik bilan

o’zgartirishga, hududiy yaxlitligini, suverenitetini buzishga, hokimiyatni bosib olishga yoki qonuniy ravishda saylab qo’yilgan yoxud tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga va davlat tuzumiga qarshi boshqacha tajovuz qilishga ochiqdan-ochiq dahvat etishni o’z ichiga olgan axborot tarqatilishidan himoya qilish;
urushni va zo’ravonlikni, shafqatsizlikni targ’ib qilishni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovat uyg’otishga qaratilgan, terrorizm va diniy ekstremizm g’oyalarini yoyishni o’z ichiga olgan axborot tarqatilishiga qarshi harakatlar qilish.

Ommaviy axborot vositalari sohasidagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish. Mamlakatimizda o’tgan yillar davomida, ayniqsa oxirgi 10 yilda ommaviy axborot vositalarini yanada liberallashtirish, so’z erkinligini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Yurtimizda avvalo ommaviy axborot vositalari rivojini ta’minlaydigan, demokratik talab va standartlarga to’la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Ushbu davrda ommaviy axborot vositalarini erkin va jadal rivojlantirishga, axborot sohasining samarali faoliyat ko’rsatishini ta’minlashga qaratilgan 10 ga yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi.

«Axborot erkinligi ‘rintsi’lari va kafolatlari to’g’risida»gi Qonunning qabul qilinishi har kimning axborotni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalga oshirishda, shuningdek, axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

So’nggi yillarda yangi tahrirdagi «Ommaviy axborot vositalari to’g’risida»gi Qonunga, shuningdek, «Telekommunikatsiyalar to’g’risida», «Reklama to’g’risida», «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to’g’risida»gi va boshqa bir qator qonunchilik hujjatlariga tegishli o’zgartish va qo’shimchalar kiritildi. Bu esa yangi siyosiy shart-sharoitlarda ommaviy axborot vositalari sohasidagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ta’minladi. SHu bilan birga, nodavlat ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, ularning axborot sohasini demokratlashtirishda faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli institutsional islohotlar amalga oshirildi.

Nodavlat ommaviy axborot vositalarini qo’llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida bir qancha jamoat tashkilotlari tashkil qilindi. O’z tarkibida 100 dan ortiq elektron ommaviy axborot vositasini birlashtirgan Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O’zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi shular jumlasidandir.

Yuridik va jismoniy shaxslarning, axborot texnologiyalari va tizimlarini qo’llagan holda, axborot resurslaridan foydalanish mexanizmlarini belgilab bergan yangi tahrirdagi «Axborotlashtirish to’g’risida»gi Qonunning qabul qilinishi ommaviy axborot vositalarini modernizatsiya qilishni jadal rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O’zbekistonda keyingi yillarda sunhiy yo’ldosh aloqa tarmog’i orqali

teleradiodasturlarni tarqatish yo’lga qo’yildi. Bugungi kunda mamlakatimiz telekommunikatsiyalar tizimi dunyoning 180 ta mamlakatiga 28 ta yo’nalish bo’yicha to’g’ridan-to’g’ri chiqadigan xalqaro kanallarga ega. Yurtimizdagi teleradiokanallar tomonidan tayyorlanayotgan ko’rsatuv va eshittirishlar Internet global tarmog’i orqali real vaqt rejimida jahonga uzatilmoqda.

Dunyodagi yetakchi mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash milliy tizimining takomillashtirilishi axborot sohasidagi faoliyatning sifati va saviyasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimida ko’’ jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’ldi.

Bunday keng miqyosdagi ishlar natijasida faqat keyingi 10 yilning o’zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko’’ayib, bugungi kunda ularning umumiy soni qariyb 1200 taga yetdi. Mavjud barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari O’zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tilida faoliyat olib boradi, shuningdek, bosma materiallar va teleko’rsatuvlar ingliz tilida ham tarqatilmoqda.

Yana bir muhim yangilik efir orqali uzatiladigan materiallarni tayyorlash jarayoniga zamonaviy raqamli va multimedia texnologiyalari joriy qilinayotganida namoyon bo’lmoqda. Yurtimizda Internet tizimidan foydalanuvchilar safi jadal surhatlar bilan kengayib bormoqda. Bugungi kunda ularning soni 6 milliondan ortib ketgani ham buni tasdiqlab turibdi.

Mamlakatimizda fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta’minlash borasida amalga oshirilgan keng ko’lamli ishlarni tanqidiy baholar ekanmiz, muhim bir masalaga alohida ehtibor qaratishimiz zarur. Yahni, bu o’rinda ga’ ommaviy axborot vositalari va davlat hokimiyati organlari o’rtasidagi munosabatlarning ustuvor jihatlarini to’g’ri belgilash, jumladan, ommaviy axborot vositalari faoliyati ustidan nazorat qilishning iqtisodiy mexanizmlarini, axborot manbalarining yo’iqligini, shuningdek, tahririyatlarga hokimiyat organlari va mahmuriy tuzilmalar tomonidan bo’layotgan ma’lum darajadagi bosimlarni bartaraf qilish bilan bog’liq muammoli masalalarni hal etish haqida bormoqda.

Nodavlat ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, ularning axborot sohasini demokratlashtirishda faol ishtirokini ta’minlashning zaruriyati. Nodavlat ommaviy axborot vositalarini qo’llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida bir qancha jamoat tashkilotlari tashkil qilindi. O’z tarkibida 100 dan ortiq elektron ommaviy axborot vositasini birlashtirgan Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O’zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi shular jumlasidandir. Bu esa yangi siyosiy shart-sharoitlarda ommaviy axborot vositalari sohasidagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ta’minladi. SHu bilan birga, nodavlat ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, ularning axborot sohasini demokratlashtirishda faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli institutsional islohotlar amalga oshirildi.

Axborot resurslaridan foydalanish mexanizmlarini rivojlantirish. Axborot resurslari ulardan erkin foydalanish toifalari bo'yicha hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resurslariga va erkin foydalanilishi cheklab qo'yilgan axborot resurslariga bo'linadi.
CHeklanmagan doiradagi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan axborot resurslari hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resurslaridir.
Davlat sirlari to'g'risidagi axborotni va maxfiy axborotni yoki erkin foydalanilishi axborot resurslarining mulkdorlari tomonidan cheklab qo'iilgan axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari erkin foydalanilishi cheklab qo'yilgan axborot resurslariga kiradi.
Axborot resurslarining mulkdorlari va egalari hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resurslaridan yuridik hamda jismoniy shaxslarning teng huquq asosida erkin tarzda foydalanishini ta'minlashi kerak.
Axborot resurslarini erkin foydalanish toifalariga kiritish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda axborot resurslarining mulkdori tomonidan aniqlanadi.
Axborot resurslaridan foydalanuvchilar axborot resurslaridan erkin foydalanishda teng huquqlarga ega, erkin foydalanilishi cheklab qo'yilgan axborot resurslari bundan mustasno. Axborot resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan tartibda haq olinishi mumkin. Axborot bilan ta'minlashga doir axborot va xizmatlar ro'yxatlarini, axborot resurslaridan erkin foydalanish tartibi hamda shartlari haqidagi Ma'lumotlarni axborot resurslarining mulkdorlari va egalari foydalanuvchilarga be'ul taqdim etadi.
Yuridik va jismoniy shaxslar qonuniy asoslarda axborot resurslaridan o'zlari olgan axborotdan axborot manbaini albatta havola etgan holda hosila axborot yaratish uchun foydalanishlari mumkin. Axborot resurslaridan axborot olish tartibini axborot resurslarining mulkdori yoki egasi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etgan holda aniqlaydi.
Fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlashni takomillashtirish. Axborot ochiq va oshkora bo'lishi kerak, maxfiy axborot bundan mustasno. Maxfiy axborotga quyidagilar kirmaydi: fuqarolarning huquq va erkinliklari, ularni ro'yobga chiqarish tartibi to'g'risidagi, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomini belgilovchi qonun hujjatlari; ekologik, meteorologik, demografik, sanitariya-e'idemiologik, favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar hamda aholining, aholi punktlarining, ishlab chiqarish obhektlari va kommunikatsiyalarning xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa axborotlar; kutubxonalarning, arxivlarning va O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarga tegishli axborot tizimlarining ochiq fondlaridagi mavjud ma'lumotlar. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari jamiyat manfaatlariga taalluqli voqealar, faktlar, hodisalar va jarayonlar to'g'risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga xabar berishi shart.
Axborot undan hamma erkin foydalanishi mumkinligi ta'minlangan va haqqoniy

bo’lishi kerak.Axborotni buzib talqin etish va soxtalashtirish taqiqlanadi. Ommaviy axborot vositalari o’zlari tarqatayotgan axborotning haqqoniyligi uchun axborot manbai va muallifi bilan birgalikda qonunda belgilangan tartibda javobgar bo’ladilar.Axborot mulkdori, egasi axborot berishni rad etganligi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.
Davlat har kimning axborotni izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqini himoya qiladi. Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiga qarab axborot olish huquqi cheklanishiga yo’l qo’yilmaydi.
Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har kimga o’zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo’lgan axborot bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta’minlab berishga, maqbul axborot resurslari yaratishga, foydalanuvchilarni fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlariga, ularning xavfsizligiga doir hamda jamiyat manfaatlariga taalluqli boshqa masalalar yuzasidan axborot bilan ommaviy tarzda ta’minlashga majburdirlar.

Axborot kommunikatsiyalari sohasini rivojlantirish. Yuridik va jismoniy shaxslarning, axborot texnologiyalari va tizimlarini qo’llagan holda, axborot resurslaridan foydalanish mexanizmlarini belgilab bergan yangi tahrirdagi «Axborotlashtirish to’g’risida»gi Qonunning qabul qilinishi ommaviy axborot vositalarini modernizatsiya qilishni jadal rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O’zbekistonda keyingi yillarda sunhiy yo’ldosh aloqa tarmog’i orqali teleradiodasturlarni tarqatish yo’lga qo’yildi. Bugungi kunda mamlakatimiz telekommunikatsiyalar tizimi dunyoning 180 ta mamlakatiga 28 ta yo’nalish bo’yicha to’g’ridan-to’g’ri chiqadigan xalqaro kanallarga ega. Yurtimizdagi teleradiokanallar tomonidan tayyorlanayotgan ko’rsatuv va eshittirishlar Internet global tarmog’i orqali real vaqt rejimida jahonga uzatilmoqda.

Dunyodagi yetakchi mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash milliy tizimining takomillashtirilishi axborot sohasidagi faoliyatning sifati va saviyasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimida ko’’ jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’ldi.

Bunday keng miqyosdagi ishlar natijasida faqat keyingi 10 yilning o’zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko’payib, bugungi kunda ularning umumiy soni qariyb 1200 taga yetdi. Mavjud barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari O’zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tilida faoliyat olib boradi, shuningdek, bosma materiallar va teleko’rsatuvlar ingliz

tilida ham tarqatilmoqda.

Yana bir muhim yangilik efir orqali uzatiladigan materiallarni tayyorlash jarayoniga zamonaviy raqamli va multimedia texnologiyalari joriy qilinayotganida namoyon bo'lmoqda. Yurtimizda Internet tizimidan foydalanuvchilar safi jadal surhatlar bilan kengayib bormoqda. Bugungi kunda ularning soni 6 milliondan ortib ketgani ham buni tasdiqlab turibdi.

Ommaviy axborot vositalari erkinligi va mustaqilligini yanada mustahkamlashda mualliflik huquqlari va intellektual mulkni ishonchli himoya qilishning huquqiy kafolatlari va mexanizmlarini kuchaytirish, axborot sohasiga bozor mexanizmlarini joriy qilish. Axborot resurslaridan foydalanuvchilar axborot resurslaridan erkin foydalanishda teng huquqlarga ega, erkin foydalanilishi cheklab qo'yilgan axborot resurslari bundan mustasno. Axborot resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan tartibda haq olinishi mumkin. Axborot bilan ta'minlashga doir axborot va xizmatlar ro'yxatlarini, axborot resurslaridan erkin foydalanish tartibi hamda shartlari haqidagi Ma'lumotlarni axborot resurslarining mulkdorlari va egalari foydalanuvchilarga be'ul taqdim etadi. Yuridik va jismoniy shaxslar qonuniy asoslarda axborot resurslaridan o'zlari olgan axborotdan axborot manbaini albatta havola etgan holda hosila axborot yaratish uchun foydalanishlari mumkin.
Axborot resurslaridan axborot olish tartibini axborot resurslarining mulkdori yoki egasi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etgan holda aniqlaydi.
Jismoniy shaxslarning shaxsiga taalluqli Ma'lumotlar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.
Jismoniy shaxslarning shaxsiga taalluqli Ma'lumotlar to'g'risidagi axborot maxfiy axborot toifasiga kiradi.
Yuridik va jismoniy shaxslar o'zlari to'g'risidagi Ma'lumotlarni ichiga olgan axborot resurslaridan erkin foydalanish, mazkur Ma'lumotlarning to'liqligi hamda to'g'riligini ta'minlash maqsadida ularga aniqliklar kiritish huquqiga ega.
O'zlari to'g'risidagi Ma'lumotlarni ichiga olgan axborot resurslaridan yuridik va jismoniy shaxslarning erkin foydalanishi qonun bilan cheklanishi mumkin.
Yuridik va jismoniy shaxslarga o'zlari to'g'risidagi Ma'lumotlarni ichiga olgan axborot resurslaridan erkin foydalanishni axborot resurslarining mulkdori yoki egasi rad etganligi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.
Milliy axborot tizimiga davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari kiradi. Milliy axborot tizimi davlat byudjeti mablag'lari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning o'z mablag'lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan yaratiladi.
Milliy axborot tizimi uning tarkibiga kiruvchi axborot tizimlarining xalqaro axborot tizimlari bilan bir-biriga mosligini hisobga olgan holda yaratiladi.
Milliy axborot tizimidan foydalangan holda axborot almashish shartnoma asosida amalga oshiriladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Yuridik va jismoniy shaxslar o’rtasida bitimlar tuzishda axborot tizimlaridan foydalanish qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Axborot tizimlarini tashkil qiluvchi texnika vositalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sertifikatlashtirilishi kerak. Davlat organlari axborot tizimlarining, tarmoq va hududiy axborot tizimlarining, yuridik hamda jismoniy shaxslar axborot tizimlarining davlat sirlari yoki maxfiy axborotni o’z ichiga olgan axborotni ishlovdan o’tkazish uchun mo’ljallangan texnika vositalari, shuningdek mazkur tizimlarni muhofaza qilish vositalari majburiy sertifikatlashtirilishi lozim.

Axborot tizimlarining tarmoqlararo bog’lanishi turli axborot tizimlari o’rtasida axborot almashish uchun amalga oshiriladi.

Belgilangan normalar va qoidalarga muvofiq o’zaro tarmoqlararo bog’lanish imkoniyatini axborot tizimlarining mulkdorlari, egalari ta’minlaydi.

Turli axborot tizimlarining tarmoqlararo bog’lanishi axborot tizimlarining mulkdorlari, egalari o’rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Tarmoqlararo bog’lanishni amalga oshirish hamda turli axborot tizimlarining o’zaro aloqada bo’lish tartibi va shartlari maxsus vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

Axborot resurslari va axborot tizimlarini muhofaza qilish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi: shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta’minlash; axborot resurslarining tarqalib ketishi, o’g’irlanishi, yo’qotilishi, buzib talqin etilishi, to’sib qo’yilishi, qalbakilashtirilishi va ulardan boshqacha tarzda ruxsatsiz erkin foydalanilishining oldini olish;

axborotni yo’q qilish, to’sib qo’yish, undan nusxa olish, uni buzib talqin etishga doir ruxsatsiz harakatlarning hamda axborot resurslari va axborot tizimlariga boshqa shakldagi aralashishlarning oldini olish;

axborot resurslaridagi mavjud davlat sirlari va maxfiy axborotni saqlash.

Ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini ta’minlash, hokimiyat va jamoatchilik o’rtasida mustahkam aloqa o’rnatish borasidagi rolini kuchaytirish. Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo’lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan (bundan buyon matnda chiqariladigan deb yuritiladi) shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir.

O’zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari o’z faoliyatini "Davlat tili haqida"gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq amalga oshiradi.

O’zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari erkin bo’lib, o’z faoliyatini ushbu Qonunga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Har kim, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo’lsa, ommaviy axborot vositalarida chiqish, o’z fikri va e’tiqodini oshkora bayon etish huquqiga egadir.

Ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlariga binoan axborotni izlash, olish,

tarqatish huquqiga ega hamda tarqatilayotgan axborotning xolisligi va ishonchliligi uchun belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Ommaviy axborot vositalaridan:
O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga dahvat qilish;
urush, zo'ravonlik va terrorizmni, shuningdek diniy ekstremizm, se'aratizm va aqida'arastlik g'oyalarini targ'ib qilish;
davlat siri bo'lgan ma'lumotlarni yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni oshkor etish;
milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atuvchi axborot tarqatish;
agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni targ'ib qilish;
pornografiyani targ'ib etish;
qonunga muvofiq jinoiy va o'zga javobgarlikka sabab bo'ladigan boshqa harakatlarni sodir etish maqsadida foydalanilishiga yo'l qo'yilmaydi.
Ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarning shahni va qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'sini tahqirlash, shaxsiy hayotiga aralashish taqiqlanadi.
prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchining yozma ruxsatisiz surishtiruv yoki dastlabki tergov materiallarini e'lon qilish, muayyan ish bo'yicha sud qarori chiqmasdan turib yoki sudning qarori qonuniy kuchga kirmay turib, uning natijalarini taxmin qilish yoxud sudga boshqacha yo'l bilan ta'sir ko'rsatish taqiqlanadi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan davlat va jamiyat qurilishi tizimida keng foydalanish. O'zbekiston Respublikasi informatika va hisoblash texnikasi yo'nalishida jahon darajasidagi ilmiy maktablar yaratgani, ularda tadqiqotlar muvaffaqiyatli olib borilayotganligi bilan shartli ravishda faxrlana oladi.

1994 yil dekabrida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish kontse'tsiyasini qabul qildi.

Ushbu Kontse'tsiyaning asosiy maqsadi va unda qo'yilgan masalalar quyidagilardan iboratdir:

- ✓ milliy axborot-hisoblash to'rini yaratish;
- ✓ axborotlarga tovar sifatida yondashishning iqtisodiy, huquqiy va mehyoriy hujjatlarini yuritish;
- ✓ axborotlarni qayta ishlashning reglamentlashtiruvchi jahon standartlariga rioya qilish;
- ✓ informatika industriyasini mujassamlashtirish va rivojlantirish;
- ✓ axborotlar texnologiyasi sohasidagi fundamental tadqiqotlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash;
- ✓ informatika vositalari foydalanuvchilarini tayyorlash tizimini muvofiqlashtirish.

Ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi

o’rni va rolini yanada mustahkamlash. Davlatimiz raxbari I.A.Karimov 2010 yil 12 noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senati qo’shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi to’g’risidagi» ma’ruzasida ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi o’rni va rolini yanada mustahkamlash borasida qilinishi lozim bo’lgan ishlar to’g’risida so’z yuritdi. Mamlakatimizda fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta’minlash borasida amalga oshirilgan keng ko’lamli ishlarni tanqidiy baholar ekanmiz, muhim bir masalaga alohida ehtibor qaratish zarur. Yahni, bu o’rinda gap ommaviy axborot vositalari va davlat hokimiyati organlari o’rtasidagi munosabatlarning ustuvor jihatlarini to’g’ri belgilash, jumladan, ommaviy axborot vositalari faoliyati ustidan nazorat qilishning iqtisodiy mexanizmlarini, axborot manbalarining yo’iqligini, shuningdek, tahririyatlarga hokimiyat organlari va mahmuriy tuzilmalar tomonidan bo’layotgan Ma’lum darajadagi bosimlarni bartaraf qilish bilan bog’liq muammoli masalalarni hal etish haqida bormoqda.

SHu boisdan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish o’ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda:

Birinchi. «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to’g’risida» Qonun qabul qilish zarur. Bu o’z navbatida fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqini yanada kengroq amalga oshirish imkoniyatini yaratib berish bilan birga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qabul qilinayotgan qarorlar sifatini oshirish borasidagi mashuliyatini ham ko’p jihatdan kuchaytirgan bo’lur edi.

Ushbu qonun davlat hokimiyati organlari faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilib borish tartiblarini aniq belgilab berishi, aholining, jamoat birlashmalarining davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, avvalambor fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari bilan bog’liq qarorlar haqidagi axborotlardan keng xabardor bo’lib borishini ta’minlashi lozim.

Mazkur qonunning joriy etilishi ijro hokimiyati organlari faoliyatining, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning, davlatning ichki hamda tashqi siyosatining ochiqligi va oshkoraligini, mamlakatimiz va xorijda kechayotgan voqea-hodisalar xususida fikrlar xilma-xilligi va siyosiy plyuralizmni hisobga olgan holda, ta’minlashi zarur.

Ikkinchi. Demokratlashtirish jarayonlarida ahamiyati tobora ortib borayotgan axborot kommunikatsiyalari sohasining eng muhim tarmoqlaridan biri bo’lgan teleradio tizimini rivojlantirishga qaratilgan «Teleradioeshittirishlar to’g’risida» Qonun qabul qilish haqida taklif kiritilmoqda.

Ma’lumki, hozirgi vaqtda ushbu sohadagi faoliyat ommaviy axborot vositalari, radiochastota spektri, telekommunikatsiyalar, axborotlashtirish to’g’risidagi

qonunlarning muayyan moddalari bilan tartibga solib kelinmoqda.

SHu bilan birga, teleradioeshittirishlar sohasini mustaqil qudratli industriya sifatida qayta tashkil etish, teleradioeshittirishlarning yangi shakl va turlarining ‘aydo bo’lishi teleradiodasturlarni tayyorlash va uzatish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tizimli va keng ko’lamli ravishda tartibga soladigan yaxlit qonunni kuchga kiritish zaruratini tug’dirmoqda.

Ushbu qonunning qabul qilinishi teleradiodasturlarni tayyorlash va tarqatish sohasida raqobatni yanada kuchaytirish, teleradiodasturlarni uzatish borasida mobil va raqamli televidenie kabi ilg’or zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, teleindustriyaning istiqbolli yangi tarmoqlarini tashkil qilish uchun zarur sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

Bu qonun milliy teleradioeshittirishlar tizimi faoliyatini huquqiy tartibga solish mexanizmlarini va moliyalashtirish manbalarining erkinligi va mustaqilligi kabi ‘rintsi’larini belgilab berishga, radiochastotalarni olish uchun o’tkaziladigan tanlovlarning demokratik va oshkoraligini ta’minlash, teng raqobat va elektron media-bozor tarmoqlarining mono’ollashuviga yo’l qo’ymaslik uchun sharoit yaratish va boshqa bir qator muammolarni yechishni nazarda tutadi.

Uchinchi. Ommaviy axborot vositalari erkinligi va mustaqilligini yanada mustahkamlash mualliflik huquqlari va intellektual mulkni ishonchli himoya qilishning huquqiy kafolatlari va mexanizmlarini kuchaytirish, axborot sohasiga bozor mexanizmlarini joriy qilish bilan bevosita bog’liqdir.

Ushbu vazifani amalga oshirish uchun «Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to’g’risida», «Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash kafolatlari to’g’risida»*gi qonunlarni qabul qilish taklif etiladi. Bu qonunlar axborot bozori ishtirokchilari faoliyati samaradorligini kuchaytirish va ularning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, qo’shimcha iqtisodiy ‘referentsiyalar yaratish va milliy axborot makonini izchil rivojlantirishni ta’minlashga qaratilgan boshqa tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

To’rtinchi. Ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini ta’minlash, hokimiyat va jamoatchilik o’rtasida mustahkam aloqa o’rnatish borasidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish maqsadida «Ommaviy axborot vositalari to’g’risida», «Axborot erkinligi ‘rintsi’lari va kafolatlari to’g’risida»gi va boshqa bir qator qonun hujjatlariga tegishli o’zgartish va qo’shimchalar kiritish taklif etiladi.

Bunda, xususan, davlat va jamoat birlashmalari axborot xizmatlari, media-tuzilmalar ishini faollashtirish bo’yicha keng ko’lamli chora-tadbirlarni ko’zda tutish lozim. Ommaviy axborot vositalarining axborot olish yuzasidan

murojaatlarini ko’rib chiqish muddatlarini qisqartirish, axborot olish sohasidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun yuridik va mansabdor shaxslarning mahmuriy javobgarligini kuchaytirish va boshqa chora-tadbirlarni ta’minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar ustida ish olib borish zarur.

«Telekommunikatsiyalar to’g’risida»gi Qonun normalarini yanada takomillashtirish, raqamli teleradioeshittirish tizimiga o’tish bo’yicha tadbirlar davlat dasturining ishlab chiqilishi ham ushbu vazifani hal etishga xizmat qiladi. Mazkur dastur raqamli teleradioeshittirishlar infratuzilmasini shakllantirish, bu boradagi faoliyatni huquqiy jihatdan tartibga soladigan samarali tizimni yaratishga qaratilishi darkor.

14-mavzu: O’zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishi

Reja:

1. Jahon hamjamiyati va demokratik jarayonlar.
2. O’zbekiston va jahon hamjamiyati munosabatlarining huquqiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy asoslari.
3. Jahon hamjamiyati bilan hamkorligi tizimida milliy manfaatlarning ustuvorligi.

O’zbekiston va jahon hamjamiyati. O’zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab jaxon xamjamiyatiga qo’shilish, xalqaro tashkilotlar bilan xamkorlikni o’rnatish yo’lidan bordi. CHunki, milliy manfaatlarga mos keladigan tashqi siyosat yuritish, davlatimiz mustaqilligini mustaxkamlash, qiyinchiliklarni bartaraf etish, isloxotlarni amalga oshirish va xalq farovonligini yaxshilashning muxim shartidir.

Prezidentimiz I.A.Karimov o’zining «O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li», «O’zbekiston XXI asrga intilmoqda» shuningdek 2005 yil 28 yanvarda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati qo’shma majlisida «Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashti -rish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir» mavzuidagi ma’naviyatsi va boshqa asarlarida xamda O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy tamoyillari nazariy va amaliy jixatdan asoslab berildi. Tashqi siyosatda tinchlik, barqarorlik va o’zaro manfaatli xamkorlik yo’li asos qilib olindi. O’zbekistoning tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini tartibga soladigan qator qonunlar qabul qilindi. «Tashqi siyosiy faoliyatning asosiy printsiplari to’g’risida», «CHet el investorlari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlari to’g’risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to’g’risida»gi qonunlar shular jumlasidandir.

O’zbekistonning jaxon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos tushadigin tinchliksevarlik siyosati barcha nufuzli davlatlar tomonidan tan olindi. O’zbekistonda tashqi aloqalarni ta’minlash bilan shug’ullanuvchi vazirlik, idora va korporatsiyalar faoliyat ko’rsatmoqda. Tashqi ishlar vazirligi, tashqi iqtisodiy

aloqalar vazirligi, bojxonalar xizmati, tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki va boshqalar samarali faoliyat ko’rsatmoqda.

O’zbekistonning davlat mustaqilligini 170 dan ortiq davlat tan oldi. 120 dan ortiq davlat bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar o’rnatildi. Toshkentda 40 dan ortiq davlatlarning elchixonalari, 88 ta xorijiy mamlakat vakolatxonalari, 24 xukumatlararo va 13 xukumat tashkilotlari faoliyat ko’rsatmoqda. O’zbekiston o’zining xoxish irodasiga ko’ra eng nufuzli xalqaro va regional tashkilotlarga qabul qilindi: BMT (1992), Evropa xavfsizlik tashkiloti (EXXT) 1992y. Fevral), 105 davlatni birlashtirgan Qo’shilmaslik xarakati, Parlamentlararo Ittifoq (1992 oktabr) BMT ning YuNESKO tashkiloti (1993 oktabr), Jaxon pochta ittifoqi, Jaxon sog’liqni saqlash tashkiloti, Atom energiyasini nazorat qilish xalqaro tashkiloti (MAGATE), Evropa Ittifoqi, SHanxay xamkorlik tashkiloti (SHXT-2001), MDX aozosi, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar bilan aloqa o’rnatdi. Jaxon banki, Xalqaro valuta fondi, Evropa qayta tiklash va tarakqiyot banki, Xalqaro tashkiloti Osiyo taraqqiyoti banki,Islom taraqqiyot banki, kabilar bilan xamkorlik xalqaro tashkilotlar-davlatlarning xalqaro shartnomalari asosida siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy, xuquqiy va boshqa soxalarda xamkorlik qilish maqsadida tashkil etilgan birlashmalardir. Xalqaro tashkilotlar xalqaro munosabatlarni yo’lga qo’yishning eng muxim omilidir.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning O’zbekistonning Xalqaro hamjamiyatga qo’shilishidagi demokratik tamoyillari kontseptsiyasi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, jamiyatimiz Xalqaro nufuzini kelajakda nafaqat saqlab qolish, balki uni yanada yuksaltirish uchun xali ko'p ishlarni kelishimiz kerak. ular Prezidentimizning asarlari, ma'ruza va nutqlarida, shuningdek Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, xukumatimiz farmonlari va boshqa rasmiy xujjatlarda aniq ko'rsatib qo'yilgan. Shularni sinchiklab o'rganib chiqib hayotga izchillik bilan tatbiq etish jamiyatimizda yashovchi har bir fuqaroning sharafli burchidir. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, yangi buyuk ishlar oldida turibdi. "Siz bilan bizning vazifamiz, - deydi I.A.Karimov, - davr oldimizga kuyayotgan barcha talablarga munosib javob qaytarishdir. Istiqbolimizni aniq va ravshan tasavvur etib, Xalqimizga tinch va farovon turmushni ta'minlashdir, jahon maydonida o'zimizga munosib o'rin egallay olishdir". Jamiyatning diniy-ruhiy asoslarini, Xalqimizning ming yillik ma'naviy-ahloqiy yuksalish tajribasini o'zida jamlagan Islom madaniyatini tiklash o'z taqdirini o'zi belgilash, tarixiy xotiraga, madaniy-tarixiy birlikka ega bo'lish yo'lidagi g'oyat muhim qadam bo'ldi. /144/ Faqat bilimli, ma'rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay olishni va aksincha, bilimli kam omi odamlar avtoritarizmni va totalitar tuzumni ma'qul qurishni hayotning o'zi ishonarli trazda isbotlamoqda - "/150/ O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". T. O'zbekiston, 1997y. Madaniyat sohasiga o'rta va kichik biznesning kirib kelishida iqtisodiy, siyosiy, huquqiy asoslar yuzaga kelganligini alohida qayd etish zarur. Ijtimoiy-madaniy sohada tadbirkorlik rivoj topib bormoqda. 1995 yildan boshlab madaniyatning turli sohalarida xissadorlik jamiyatlari tashkil topib, davlat ro'yxatidan o'tgan edi. Masalan, Sog'likni saqlash vazirligida 246 ta, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasida 28 ta, Xalq ta'limi

vazirligi tizimida 7 ta ana shunday jamiyat ro'yxatga olinib, ish boshlagan edi. O'z oldiga o'zbek milliy madaniyati yutuqlarini targ'ib qilishni maqsad qilib qo'ygan "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi, tarkibida kichik tadbirkorlik keng quloch ochdi, o'tgan 1996 yil o'rtalariga kelib, bu sohada 150 dan ortiq xususiy firma va agentliklar ishladi. Sayyoxlik sohasidagi tadbirkorlikka chet el investitsiyalarini jalb etishga xam alohida e'tibor berilmoqda. Respublika xukumatining qo'llab-quvvatlashi natijasida bu sohaga 80 million AQSH dollari miqdorida mablag' ajratildi /Karalsin:Xadjimuratov A.A. Stanovleniye predprinimatelstva v O'zbekistane, 1996, str.229-231/ Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy anglashning o'sishidan, Xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb xisoblaymiz. /str.137/ Tarix xotirasi, Xalqning, jonajon ulkaning, davlatimiz xududining xolis va xaqkoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va ustirish jarayonida muhim o'rin tutadi /140/. O'zbek Xalqi Ruhining tiklanishi, millat ma'naviy-ahloqiy ideallarining shakllanishi chuqur milliylik bilan umminsoniylik chambarchas bog'liq bo'lgan hodisadir. O'zbekistonda yashayotgan Xalqlar, o'ziga xoslikni yo'qotmagan xolda, umumiy ruhiyatga, xulq-atvor falsafasiga ega bo'lmoqdalar. Bu esa mustaqillik yillari mobaynida millatlararo totuvlik manbai bo'lib kelgan yagona ma'naviy-ruhiy negizni vujudga keltirdi /143/. Bevosita muloqot o'rnatishga muvofiq bo'ldilar. Bunday muloqot orqali jahon Xalqlariga Markaziy Osiyo Xalqlarining milliy madaniyati, ma'naviyati tanishtirilmoqda. Bunga YUNESKO bilan o'rnatilgan va mustaxkamlanib boradigan munosabatlar erkin misol bo'la oladi. Bu nufuzli tashkilot xomiyligida Markaziy Osiyo Xalqlarining buyuk siymolari, alloma, faylasuflar Muxammad Muso al-Xorazmiy tavalludining 1200 yilligi, Abu Rayxon Beruniy tavalludining 1000 yilligi, Muxammad Taragay Ulug'bekning 600 yilligi, Axmad al-Fargoniyning 1200 yilligi keng nishonlandi. 1998 yillarda Toshkentda bo'lib o'tgan YuNESKO 55 sessiyasining yakuniy majlisida Federiko Mayor quyidagi fikrni bildirdi: Darxaqiqat Xalqlarning milliy ma'naviyati, madaniyati umuminsoniy madaniyat, ma'naviyat va qadriyatlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Markaziy Osiyo Xalqlarining madaniyati jahon madaniyatidan chetda yuzaga kelgan va rivojlangan emas. Madaniyatimiz faqat milliy asosla emas, shu bilan birga umuminsoniy madaniyatlar ta'siri ostida xam o'sgan, xam rivojlangan edi. Kadimgi Yunoniston, Xitoy, Rim davlatlarining ta'siri ostida madaniyatimiz yanada rivojlanib, boyib bordi. O'z navbatida Markaziy Osiyo Xalqlari xam boshqa millatlar, Xalqlar madaniyatining yuksalishiga, umumjahon madaniyat xazinasini to'ldirishga, ilm-fan taraqqiyotiga o'zining ahamiyatli xissasini qo'shgan edilar. Milliy madaniyatlarning o'zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitish harakatlarining natijasida mintaqamiz davlatlari madaniy hayotiga opera, balet, simfonik musiqa kirib keldi, shakllandi, rivoj topdi, jahonda tan olindi va teatrlarda milliy musiqa, maqom, laparlar, milliy ashula va raqslar bilan bir qatorda qo'yildi. Bularning xammasi chet el mamlakatlari madaniyatining Markaziy Osiyo davlatlari madaniyatiga bo'lgan ijobiy ta'sirlaridir. O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik konsepsiyasi ishlab chiqildi va unga quyidagi aniq kafolatlar qilib solindi.

O'zbekiston jahon xamjamiyati va davlatlararo xavfsizlik tizimida o'z o'rnini topishi lozim. Bu faqat Xalqaro tashkilotlar faoliyatida, birinchi galda BMT va Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti ishlarida faol ishtirok etish orqali ta'minlanishi mumkin.
Respublikada boshqa davlatlar bilan mustaxkam davlatlararo bitimlar tizimini yaratish kerakki, bu tizim samarali siyosiy kenglikni shakllantirish kerak. bunday sharoitda O'zbekiston qanchalik ko'p mamlakatlar bilan do'stona, amaliy muloqot va hamkorlik munosabatlarini o'rnatsa, uning xavfsizlik kafolati darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.
O'zbekiston Respublikasining jami imzolangan davlatlararo bitimlarga so'zsiz amal qilishi xavfsizlikning muhim kafolati va shartidir. Inson huquqlariga, kam sonli millatlar huquqlariga rioya etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, tinch-totuv yashash kabi tamoyillar amal qilayotgan xozirgi paytda bu qoida ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.
Milliy xavfsizlik o'tkazilayotgan tashqi siyosatni mafkuradan to'la xoli etish shartiga asoslanadi. O'zbekiston o'z munosabatlarini butun dunyo mamlakatlari bilan ularning mafkurasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, faqat Xalqaro huquqning barcha tan olgan qoida va mezonlari asosida qurib keldi va bundan keyin xam shu yo'ldan boradi. Yagona g'oya tinch hayot kechirish va suverenitetni xurmat qilish qoidalarini o'zida aks ettirgan qonun ustuvorligi g'oyasidir.
O'zbekiston uchun Milliy xavfsizlikning muhim kafolati uchun qo'shilmaslik harakatida ishtirok etishdir. Respublikamiz shu bilan birga hech bir harbiy blokda qatnashmaydi, uning siyosati kollektiv xavfsizlik tizimi yaratishga yo'naltirilgan jumladan, respublikamiz 1994 yilda iyulda NATOning kollektiv xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan "Tinchlik yo'lida hamkorlik", loyixasidagi ishtiroki buning ifodasidir.
O’zbekiston va jahon hamjamiyati munosabatlarining huquqiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy asoslari. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish-davlatimizning mustaqilligini mustaxkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va Xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir. Shuni e'tiborga olgan xolda respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin quyidagi asosiy tamoyillar O'zbekistonning tashqi siyosatiga, uni amalga oshirish yo'llarini belgilashga negiz qilib olindi.
O'zaro munosabatlarni har tamonlama xisobga olgan xolda davlat milliy manfaatlarining ustunligi;
Teng huquqlik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
Mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
Xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustivorligi;
Tashqi aloqalarni xam ichki tamonlama, xam ko'p tamonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.
O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida yozib qo'yilganidek, "O'zbekiston

Respublikasi Xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan xal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, qoidalariga va Xalqaro huquqning boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi". (17-modda) Mamlakatimizning jahon Xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo'lib tutgan tinchliksevar tashi siyosati uning ilg'or miqyosidagi nufuzi, obro'- e'tiborini ko'tarib O'zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun qulay bo'lgan imkoniyatlarni yaratib bermoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Bizni sotsialistik tuzumdan keyingi bir qator mamlakatlardan farqlab turgan, yuksak darajada rivojlangan yuksak madaniy demokratik davlatlari bilan yaqinlashtirib turgan, jahon xamjamiyatiga har tamonlama qo'shilib ketish uchun yo'l ochib berayotgan narsa fuqarolar tinchligi, millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlikdir". Fuqarolar o'rtasidagi tinchlik, millatlararo totuvlik va do'stlik, ularni avaylab saqlash va mustaxkamlashga intilish azaldan Xalqimizning o'ziga xosfazilati bo'lib kelgan va xozirgi vaqtda xam shunday bo'lib kelmoqda. Xalqlar o'rtasida tinchlik-totuvlik, do'stlik va o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'rnatish millatimizning ongiga, koniga chuqur singib ketgan. O'zbekiston jahonda tinchlik va xavfsizlikni saqlash, tinchliksevar mamlakatlar bilan har tamonlama hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish hamda taraqqiyotga erishishning o'ziga xos yo'lini tanlagan. Shuning uchun xam uning jahon xamamiyatidagi obro' va e'tibori tobora ortib bormoqda. Davlatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, tinchlikni mustaxkamlash va xavfsizlikni ta'minlashda Birlashgan Millatlar Tashkiloti katta rol o'ynaydi. O'zbekiston 1992 yilning 2 martidan boshlab BMTning teng huquqli a'zosidir. Mazkur Xalqaro tashkilot bilan hamkorlikda mintaqamizda tinchlik, barqarorlik, millatlararo totuvlikni ta'minlashga qaratigan ko'pgina savodli ishlar qilinmoqda.

Jahon hamjamiyati va demokratik jarayonlar. Xalqaro munosabat bu ikki yoki undan ortiq davlatlar, turli xil siyosiy va nodavlat tashkilotlari o’rtasidagi xalqlarning talab va extiyoji, davlat manfatlari va xalqaro normalar bilan aloqador aloqalarini o’zida aks ettiradi. Hozirgi vaqtda davlatlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish hayot zaruriyatiga aylandi. Buning sababi:

o’zaro munosabatlar ularning manfatiga mos tushadigan tamoyillarga asoslanishi kerak.

YAlpi qirg’in qurollari ishlab chiqarish va tarqatishni oldini olish munosabatlarni tartibga solishni taqazo etadi.

Hozirgi dunyoda davlatlar o’zaro manfaatli aloqalarsiz rivojlana olmaydi.

Umumbashariy muammolarni hal qilish, ayniqsa xalqaro terrorizmga qarshi birgalashib kurash zaruryati munosabatlarni tartibga solishni talab etadi.

Davlatlar o’rtasidagi munosabatlarda kuchga tayanish qanchalik og’ir oqibatlarga olib kelgani ma’lum. Masalan, insoniyat tarixining 5 yarim ming yildan atigi 300 yil tinch – osoyishta o’tgan. Q’olgan vaqtlarida 15 mingdan ko’p urushlar bo’lgan. Shu urushlar birgina Evropada XVII asrda 3 mln, XVIII asrda 5 mln – dan ortiq, XIX asrda 6 mln, XX asrda 70 mln – dan ortiq kishini xalok bo’lishiga sabab bo’lgan. Эndilikda, XXI asr arafasida xalqaro munosabatlarda muxim o’zgarishlar

sodir bo’ldi. Jaxon sivilizatsiyasining rivojlanishi xalqaro munosabatlar muammosini insonparvarlik tamoyillari talablari asosida qayta ko’rib chiqishni talab etmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida – YUgaslavyada, CHechenistonda, Afg’onistonda, Iroqda, Falastin – Izrail, Xindiston – Pokiston va boshqa xududlarda turli xil ixtiloflar, kelishmovchiliklar mavjud. Agar shu ixtiloflar bartaraf etilmas ekan insoniyat boshiga og’ir kulfatlar solishi mumkin. Ayniqsa yalpi qurollarini yangi, yanada daxshatli turlarini ishlab chiqarishni hisobga olsak, bu daxshat oqibatlarini tushinish qiyin emas. Unchalik katta bo’lmagan atom bombasi YAponyanining Xirosima shaxrini tamom vayron qildi, Yuz minglab odamlar qirilib ketdi. Эndilikda yanada daxshatli netron, vodorod bombalari, ximyaviy va baktrelogik qurollar ixtiro qilindi. Bu esa xalqaro munosabatlarni izga solishni, kelishmovchiliklarni qurol kuchi bilan emas, tinch yo’llar bilan hal etishni insoniyat oldiga kechiktirmas vazifa qilib qo’ymoqda.

Tashqi siyosat – bu davlatlarning o’zaro munosabatlarida o’zlarining milliy manfatlarini himoya qilish, o’zaro xafsizlikni ta’minlashga qaratilgan faoliyatidir.

Xalqaro siyosat esa yanada kengroq ma’noni anglatadi. Bu xalqaro munosabatda ishtirok etayotgan turli davlatlar, sub’ektlar, siyosiy partiyalar va xarakatlar, siyosiy va nosiyosiy tashkilotlar, ijtimoiy guruxlar va shaxslarning xalqaro Me’yorlar, normalar va qadriyatlar asosida o’zaro munosabatlarini saqlab qolishga qaratilgan foliyatidir.

BMT va O’zbekiston Respublikasi. O’zbekiston 1992 yil 2 martda BMTga qabul qilindi va Ng’yu-Yorkdagi Bosh Assambleya bosh qarorgohida mamlakatimizning davlat bayrog’i hilpiradi. Ushbu kundan e’tiboran Vatanimiz global va mintaqaviy muammolarning muhokamasida hamda muhim xalqaro qarorlar qabul qilish jarayonida bevosita qatnashish imkoniyatiga ega bo’ldi. 1993 yil 24 avgustda Toshkentda BMT vakolatxonasi ish boshladi. O’zbekiston o’sha kundan boshlab BMT bilan hamkorlik qilishning ustuvor yo’nalishlarini belgilab oldi. Bular, jumladan, bugungi kundagi xavfsizlik va barqarorlikka nisbatan tahdidlarga qarshi kurashish, shuningdek, Afg’onistonni qayta tiklash, mintaqada ommaviy qirg’in qurollarining tarqalishiga yo’l qo’ymaslik, ekologik muammolarni hal etish, Orol dengizi fojiasining og’ir oqibatlarini yumshatish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, inson huquqlarini himoya qilish kabi masalalardir.

BMT bilan O’zbekiston hamkorligining asosiy yo’nalishi o’zaro faol siyosiy muloqotni yo’lga qo’yish hisoblanadi. O’zbekiston o’z ovozi va mavqeiga ega bo’lgan ahzo davlat sifatida BMT oldiga muhim va dolzarb masalalarni qo’yib kelmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida (1993 yil 28 sentyabrg’) ishtirok etib, uning yuksak minbaridan turib nutq so’zladi va Vatanimiz tarixida ilk bor O’zbekistonning mustaqil davlat sifatidagi ulkan salohiyati va imkoniyatlari haqida xalqaro hamjamiyatni atroflicha xabardor qildi. BMT Bosh Assambleyasining tashkil etilganligining 50 yilligiga bag’ishlangan sessiyasida (1995 yil 24 oktyabrg’) so’zlagan nutqida esa Yurtboshimiz o’tgan davr mobaynida BMT faoliyatida muhim o’zgarishlar yuz berganini tahkidlab, uning ishini takomillashtirish yuzasidan amaliy takliflar bildirdi. Ma’lumki, o’tgan asrning 90-

yillari boshida sobiq SSSR davlati parchalanib, uning o'rnida yangi mustaqil davlatlar tashkil topdi va ular BMTning to'laqonli ahzolariga aylandi. O'tgan asrning 50-60-yillarida esa Yaponiya, Germaniya, Italiya kabi ilgari tajovuzkor rejalar ostida bo'lgan davlatlar demokratik rivojlanish yo'lidan borib, jahon mamlakatlari o'rtasida katta mavqega ega bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, BMTning Xavfsizlik kengashi hamda uning tarkibidagi ixtisoslashgan muassasalar faoliyatini tubdan qayta qurish zaruratini keltirib chiqarganini Prezidentimiz BMTning 50-sessiyasida qilgan ma'naviyatsida bayon etib, Xavfsizlik kengashi faoliyatini kengaytirishni, buning uchun uning ahzolari safiga Germaniya va Yaponiyani kiritishni, BMT Bosh kotibi vakolatlarini kengaytirishni taklif qilgan edi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik sammiti (2000 yil sentyabrg')dagi nutqi ham dunyo jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otdi. Davlatimiz rahbari xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va narkobiznesga qarshi bir yoqadan bosh chiqarib, samarali kurash olib borish, mintaqaviy xavfsizlik, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, jahon xavfsizligi tizimini takomillashtirish, BMT faoliyati va tarkibiy tuzilishini isloh qilishga oid takliflar bilan chiqdi. Narkobiznes va ekstremizmning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashda barcha BMTga ahzo davlatlar xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish, Markaziy Osiyoda ekologik vaziyatni (ayniqsa Orol muammosini hal qilish) sog'lomlashtirish maqsadlarini ilgari surdi.

Mazkur anjumanda umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, ekologiya va xavfsizlika doir muammolar muhokama qilinib, yangi yuz yillikning dastlabki yillarida amalga oshrilishi mo'ljallanayotgan tadbirlar belgilandi. Sammit ishtirokchilari yakdillik bilan qabul qilgan deklaratsiyada 2015 yilgacha o'ta qashshoqlikda yashayotgan odamlar sonini yarmiga kamaytirish, orttirilgan immunitet taqchilligi sindromi – OITS (SPID) kasalligining tarqalishini to'xtatish, barcha bolalar uchun boshlang'ich tahlimni ta'minlash majburiyatini o'z zimmalariga olishdi.

BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha konventsiyasida va BMT tomonidan 2000 yilning 15 dekabrida qabul qilingan "Odamlar, ayniqsa ayollar va bolalar savdosini to'xtatish, oldini olish va uning uchun jazo to'g'risida"gi bayonnomada odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashishning samarali choralarini ko'rish belgilab berilgan edi. Bunday jinoyatning oldini olish, bu faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslarni jazolash va odam savdosi qurbonlarining xalqaro ehtirof etilgan huquqlarini himoya qilishga qaratilgan choralarni o'z ichiga olgan keng qamrovli xalqaro yondashuv zarurligi ushbu hujjatda mustahkamlab qo'yildi.

Odam savdosiga qarshi kurashni kuchaytirish hamda mazkur bayonnoma qoidalarini milliy qonunchilikka singdirish maqsadida 2008 yil 17 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurashash to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Bu qonunda "odam savdosi" va "odamlardan foydalanish" tushunchalariga aniq tahrif berilgan, odam savdosiga qarshi kurashish tizimining tashkil etilish tartibi, bu sohadagi vakolatli organlar va ularning vazifalari, shuningdek, odam savdosi qurbonlarining himoyasi va ijtimoiy-huquqiy

reabilitatsiyasi masalalari yoritilgan.

Yurtboshimiz BMT minbaridan butun Afg'onistonda, Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, Markaziy Osiyoda yadroviy quroldan xoli hududni tashkil etish tashabbusini ilgari surganidan so'ng bu haqda shartnoma 2006 yil sentyabrg' oyida Semipalatinsk shahrida imzolandi. BMT Bosh Assambleyasining 61 va 63-sessiyalarida ushbu tashkilotga ahzo davlatlarning ko'pchilik ovozi bilan "Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud" rezolyutsiyasi qabul qilindi, 2009 yilning mart oyidan boshlab esa, bu haqdagi shartnoma kuchga kirdi.

O'zbekiston - AQSH strategik hamkorligi. O'zbekiston AQSH davlati bilan xam strategik xamkorlikni yo'lga qo'ygan. Manfaatli aloqalar 1991 yildanoq boshlandi. 2001 yil 11 sentabrdagi AQSH dangi fojeali voqealar davrida O'zbekiston AQSHning xalqaro terorizmga qarshi kurash pozitsiyasini qo'llab-quvvatladi.

2002 yil 11-14 martda I.A. Karimov Prezident Jorj Bush taklifiga binoan AQSHda bo'ldi. Tomonlar xalqaro axvol, Markaziy Osiyodagi vaziyat, xalqaro terrorizmga qarshi kurash, xarbiy-texnikaviy va iqtisodiy xamkorlik asoslari to'g'risida Deklaratsiya, xamda moliya, ilmiy-texnika va qishloq xo'jaligiga doir xujjatlar qabul qilindi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning Evropa, MDX va SHarq davlatlari bilan xamkorligi kuchayib bormoqda. O'zbekistonga kiritilgan chet el investitsiyalari xajmi 15 mlrd dollardan oshib ketdi. Xorijiy sarmoyalar ishtirokida O'zbekistonda qurilgan korxonalar soni 4 mingdan oshdi. «Zarafshon-Noyumont», UzDEU avto», «UzDEU eletronika», «SHo'rton gaz» majmuasi ana shular jumlasidandir.

O'zbekistonning Yevropa, Osiyo davlatlari bilan hamkorligi. ***O'zbekiston – Rossiya xamkorligi***

1992 yil 30 mayda- O'zbekiston bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida do'stlik va xamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Bu shartnoma ikki davlat o'rtasidagi xamkorlikni rivojlantirishning xuquqiy asosi bo'ldi.

1998 yil 12 oktabrda O'zbekiston va Rossiya o'rtasida 1998-2007 yillarda iqtisodiy xamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risida shartnoma imzolandi.

Rossiya Prezidenti V.Putinning 1999 yil 10-11 dekabr va 2000 yil 18-19 maydagi O'zbekistonga safari ikkala davlat o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tardi. Savdo- iqtisodiy, xarbiy va xarbiy-texnikaviy, xavfsizlik, Afg'onistondagi vaziyat, xalqaro terrorizmga qarshi kurash masalalari muxokama etilib zarur xujjatlar imzolandi va amalga oshirilmoqda.

2004 yil 16 iyunda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya federatsiyasi o'rtasida strategik sheriklik to'g'risida bitim imzolandi. SHunga muvofiq Rossiya – O'zbekiston yoqilg'i-energetika soxasiga 1 mlrd AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritadi.

O'zbeksiton Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Rossiya Prezidenti V.V.Putin taklifiga binoan 2005 yil 28-29 iyun kunlari Rossiyaga qilgan rasmiy safari chog'ida xamkorlikning yangi qirralarini ochish ishga solinayotgan imkoniyatlarni ko'rib chiqish, dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolar yuzasidan ochiq fikr almashish uchun qulay imkoniyat yaratdi.

Tashrif chog'ida savdo-iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy- madaniy, xarbiy va xarbiy texnikaviy aloqalarni kengaytirish va rivojlantirish masalalari muxokama qilindi.

Uchrashuvda ikkala tomon xam xamkorlikning kengayib borayotganligini savdo-iqtisodiy aloqolarga doir ko'rsatgichlar oshib borayotganini qayd qildilar.

2004 yilda O'zbekiston va Rossiya o'zaro savdo xajmi 2003 yildagiga nisbatan 38 foiz oshib 1 mlrd. 641,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi. 2005 yilning dastlabki to'rt oyiga doir ko'rsatgich 2004 yilning shu davriga nisbatan 42 foiz o'sgan.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida yoqilg'i-energetika majmuidagi sarmoyaviy xamkorlik diqqatga sazovardir. «O'zbekneftegaz» milliy xolding kompaniyasi bilan «Lukoyl» va «Gazprom» ochiq aksiyadorlik jamiyatlari o'rtasida imzolangan xujjatlar O'zbekiston neft-gaz sanoatiga 2,5 mlrd AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritilishini ko'zda tutadi.

SHuningdek bu uchrashuvda, boshqa ko'plab yo'nalishlar bo'yicha o'zaro manfaatli yirik loyixalar rejalashtirilayotgani qayd etildi.

Madaniyat va sanoat, tahlim, ekologiya va umuman ijtimoiy xayotning barcha soxalarida izchil muloqotlar, xamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Islom Karimov va Vladimir Putin xalqaro tashkilotlar, jumladan SHXT doirasidagi aloqalar yuzasidan xam fikr almashdilar.

Ikki davlat raxbarlari xavfsizlik va barqarorlikni mustaxkamlash, xarbiy va xarbiy-texnikaviy xamkorlik masalalariga aloxida to'xtaldilar. Yurtboshimiz 2005 yilning 13 may kuni Andijonda ro'y bergan fojeali voqealar xorijdagi ekstremistik markazlar tomonidan tayyorlangan operatsiya ekanligini, unga MDX shu jumladan Markaziy Osiyo mamlakatlarida sodir bo'layotgan jarayonlardan ayri xodisa sifatida qarash mumkin emasligini tahkidladi va bu fikrni isbotlaydigan muxim va aniq dalillar keltirdi.

«Andijon voqealari»-dedi Prezidentimiz, MDX mamlakatlarida uyushtirilayotgan turli «rangli inqiloblar» dan farqli o'laroq mutlaqo yangi shakl va qiyofada amalga oshirilgan mudxish fitnadir. Bu gal «stsenariy mualliflari» va «rejissorlar» «demokratiya parast olomonni» ko'chaga olib chiqmadi. O'zbekistonning mustaqil siyosatini ko'raolmaydigan, Markaziy Osiyoda vaziyatni izdan chiqarish niyatida bo'lgan bu «raxnomalar» olomon o'rniga, ko'poruvchilik bo'yicha yaxshi tayyorgarlik ko'rgan terrorchi va ekstremistlarni ishga soldi». (qarang «Xalq so'zi» 2005 yil 30 iyun)

V.Putin xam I.Karimovning fikrini tasdiqladi va shu kunlari Afg'onistonda jangarilarning xarakatga tushib qolgani va ayrim mamlakatlar chegaralari yaqinida qo'poruvchilar guruxlari to'plangani kuzatilgani, Rossiya maxsus xizmatlari bu xaqdagi Ma'lumotlarga ega ekanini tahkidladi.

Tashrif chog'ida Prezident I.A.Karimov Rossiya mudofaa vaziri Sergey Ivanov bilan xam uchrashib, xarbiy va xarbiy-texnikaviy soxadagi xamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari borasida fikr almashildi. Yaoni xarbiy maxsulotlar etkazib berish, xarbiy texnikani yangilash, kadrlar tayyorlash, birgalikda mashqlar o'tkazish, koinotni tadqiq etish bo'yicha davlatlararo dasturlar tuzish kabi tadbirlar kelishib olindi. SHu jumladan, O'zbekistonda xarbiy maxsulotlar ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar ochish masalasi ko'rib chiqildi.

2005 yil O'zbekiston va Rossiya Qurolli Kuchlari birgalikda xarbiy mashq

o’tkazish rejalashtirildi.

O’zbekiston–Rossiya xamkorlikning kelajagi istiqbolli va ishonchlidir. Xozir O’zbekistonda 400 dan ortiq O’zbekiston-Rossiya qo’shma korxonasi faoliyat ko’rsatmoqda. 2005 yil oxiriga borib ikkala davlat o’rtasidagi savdo xajmi 2 mlrd. AQSH dollari miqdoridan oshishi kutilmoqda.2005 yil 14-15 noyabrda Prezident I.A.Karimovning Moskavaga safari chog’ida ittifoqchilik munosabatlari to’g’risidagi shartnomaning imzolanishi ikkala davlat o’rtasidagi munosabatlarni yangi pog’onaga ko’tardi.

O’zbekiston – Xitoy xamkorligi

O’zbekiston tashqi siyosatida Xitoy bilan munosabatlar aloxida o’rin tutadi. BMT Xavfsizlik kengashining doimiy aozosi, iqtisodi jadal rivojlanayotgan bu davlat bilan xamkorlik qilish iqtisodiy rivojlanishida, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni mustaxkamlashda, globallashuv jarayoni chuqurlashayotgan va turli siyosiy o’zgarishlar davri bo’lgan xozirgi sharoitda xalqaro siyosat maydonidan munosib o’rin egallashda katta axamiyat kasb etadi. Xalqaro muammolarni echishda tobora faol qatnashayotgan, dunyoda ehtirof etilgan «Xitoy modeli» tufayli yalpi ichki maxsulot bir necha yildan buyon 7-8 foiz miqdorda barqaror o’sib kelayotgan bu davlat dunyoning etakchi mamlakatlari qatoridan joy olgan.

O’zbekiston o’z mustaqilligining dastlabki davrlaridayoq bu davlat bilan tarixiy aloqalarini qayta tiklash va rivojlantirishga katta axamiyat berdi.

1992 yil 7 yanvarda O’zbekiston bilan Xitoy o’rtasida savdo-iqtisodiy kelishuv imzolandi. Xuddi shu kuni elchilar darajasida diplomatik aloqalar o’rnatishga kelishib olindi.

1992 yil 12-14 martda Prezident I.A.Karimov boshchiligidagi O’zbekiston davlat delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan Xitoyda bo’ldi. Ana shu tashrif chog’ida O’zbekiston – Xitoy munosabatlariga doir 15 ta muxim xujjatlar imzolandi.

1992 yil 20 martda tashqi ishlar vazirliklari o’rtasida o’zaro maslaxatlashuv temir yo’llari va xavo yo’llari masalalarida xamkorlik qilish borasida Protokol imzolandi.

1992 yil 11 mayda XXR favqulodda va muxtor elchisi Guan Xenguan o’zining ishonch yorlig’ini Prezident I.A.Karimovga topshirdi.

1992 yil 30 iyulda Toshkentda Xitoy isteomol mollari ko’rgazmasi ochildi, unda Xitoyning 15 viloyatidan 60 dan ortiq firma va kompaniyalar qatnashib, 10 mingdan ortiq nomdagi tovarlar ko’rgazmaga qo’yildi.

SHu yili avgust, sentabr oylarida Urumchi-Toshkent xavo yo’li va temir yo’l aloqasi o’rnatildi.

1992 yil oktabr oyida Toshkent traktor zavodi bazasida O’zbekiston-Xitoy birinchi qo’shma korxonasi tashkil qilinib, unda «Fansu» firmasi bilan xamkorlikda mini traktor ishlab chiqarish yo’lga qo’yildi.

1992 yil noyabr va 1993 yil iyun oylarida Xitoy davlat kengashi aozosi, Xitoy tashqi ishlar vaziri TSyan TSignyan boshchiligidagi xamda umumxitoy majlisi raisi muovini Temur Davomat boshchiligida davlat delegatsiyalari O’zbekistonda bo’lib ikki tomonlama manfaatli xamkorlikka doir masalalarni muxokama qildilar.

1994 yil 24 oktabrda Pekinda ikkala davlat o’rtasidagi munosabatlarning asosiy tamoyillari to’g’risidagi Deklaratsiyaga I.A.Karimov va TSyamin imzo chekdilar.

Xozirgi kunda ikki tomonlama xamkorlikning barcha qirralarini qamrab olgan 120 dan ortiq davlatlararo va boshqa xujjatlar o'zaro munosabatlarimizni boshqarib turibdi.

Ikki davlat o'rtasidagi raxbarlar tashrif almashuvlari va uchrashuvlar doimiy tus olgan. Prezident Islom Karimov Xitoyga besh marotaba tashrif buyurdi. O'z navbatida 1996 yilda Xitoyning o'sha davrdagi raxbari TSzyan Xu TSzinitao O'zbekistonga tashrif buyurgan.

Davlatlarimiz SHanxay Xamkorlik tashkiloti doirasida xam yaqin xamkorlik qiladi. 2004 yilda SHXTning Toshkent sammiti doirasida O'zbekiston o'z tashabbuslarini ilgari surishda Xitoyning katta qo'llab-quvvatlashini sezib turdi. Bu esa respublikamiz poytaxtida bo'lib o'tgan olti mamlakat etakchilarining uchrashuvlari samarali o'tishida salmoqli axamiyat kasb etdi.

Savdo-iqtisodiy soxadagi o'zaro xamkorlik tobora o'sib bormoqda. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi 1992 yilgi savdo-iqtisodiy bitimga muvofiq, juda qulay muxim tartiboti o'rnatilgan. 2004 yil natijalari ikki tomonlama tovar aylanish xajmi 367 mln AQSH dollaridan oshib ketganligidan dalolat beradi. Umuman olganda, keyingi uch yil ichida Xitoy bilan tovar aylanish xajmi to'rt marotaba oshdi.

Neftni qvayta ishlash maxsulotlari, paxta tolasi, plastmassa va undan tayyorlanadigan buyumlar, ipak, o'g'it, xizmat ko'rsatish va boshqalar O'zbekistondan Xitoyga eksport qilinadigan asosiy maxsulotlar sirasiga kiradi. O'z navbatida O'zbekiston Xitoydan mexanik va elektr uskunalari, transport vositalari, optik uskuna va jixozlar, oziq-ovqat maxsulotlarini import qiladi.

Xozir O'zbekistonda Xitoy sarmoyasi ishtirokida 83 ta korxona, ular orasida 19 tasi esa 100% Xitoy sarmoyasi bilan faoliyat ko'rsatmoqda. CHakana va ko'tara savdo, vositachilik xizmatlari ko'rsatish engil sanoat, qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlash singari soxalar mazkur korxonalar faoliyatining asosiy qirralarini tashkil etadi. 26 ta Xitoy kompaniyasi vakolatxonalari respublika tashqi iqtisodiy aloqalar agentligida ro'yxatdan o'tgan. Ayni paytda, mashinasozlik kimyo, elektronika, maishiy texnika ishlab chiqarish soxalrdagi o'nlab yangi qo'shni loyixalar ustida ish olib borilmoqda.

Madaniyat, fan va tahlim soxalari xam ikki tomonlama xamkorlikda asosiy o'rin tutadi. 2002 yili Toshkentda o'tkazilgan

XXR fani va texnika kunlari doirasida xitoylik olimlarning yuqori texnologiyalar soxasida erishgan yutuqlari va amalga oshirayotgan tadqiqotlari ko'rgazmasi xam o'tkazildi. 2004 yilda 100 nafarga yaqin o'zbek o'qituvchilari axborot texnologiyalari bo'yicha SHanxayda malaka oshirib qaytishdi. 2004 yil yanvarida Pekinda Xitoylik etakchi ekspertlar tomonidan yozilgan O'zbekiston to'g'risidagi yangi kitobning taqdimoti o'tkazildi.

Davlat yo'nalishi bo'yicha o'zaro talabalar va malaka oshiruvchilar almashuvi doirasi xam kengayib bormoqda. Xar yili 20 nafar o'zbek talabasi Xitoyda o'z bilimini oshiradi, bizning oliy o'quv yurtlarimio'zda esa 17 nafar Xitoylik talaba taxsil olmoqda. 1957 yildan beri Toshkentda Xitoy tiliga ixtisoslashgan maktab faoliyat ko'rsatib kelmoqda.Tahkidlash joizki, shu kunlarda mamlakatimiz poytaxtida Konfutsiy nomidagi institutning ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

1998 yili tashkil etilgan O’zbekiston-Respublikasi Prezidentning 2005 yil iyun oyida Xitoyga qilgan tashrifi va unda imzolangan xujjatlar o’zaro manfaatli xamkorlik tarixida yangi saxifani ochib berdi.

Xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarda demokratik institutlarni rivojlanishi. O’zbekiston va BMT. 1992 yil 2 martda O’zbekiston BMT ga aozo bo’ldi. 1993 yilda Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi. SHu yili BMT ning Nyu-Yorkdagi shtab kvartirasida O’zbekiston vakili ish boshladi. Xozirgi kunda O’zzbekistonda BMT ning bir qancha tashkilotlari va ixtisoslashgan idoralari ishlamoqda. Ular isloxotlarni amalga oshirishda. O’zbekiston xukumatiga yordam ko’rsatmoqda. O’zbekiston BMT aozosi sifatida uning faoliyatida muxim rol o’ynamoqda. Jumladan, O’zbekiston Prezidenti I.A. Karimov BMT ning 48-sessiyasida (1993 sentabr), 50 sessiyasida (1995 oktabr) va 55 sessiyasida (2000 sentabr) qatnashib nutq so’zladi. Global va regional axamiyatga ega bo’lgan masalalarga, ayniqsa Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash va xalqaro terorizmga qarshi kurashga e’tiborni qaratadi. U masalalarda prezidentimiz aniq takliflarni kun tartibiga qo’ydi va ular inobatga olinib amalga oshirildi.

BMT xavfsizlik Kengashi Markaziy Osiyoga qurol-aslaxa kiritishni taoqiqlash to’g’risida qaror qabul qildi. SHuningdek O’zbekiston, Qozog’iston, Qirg’iziston respublikalari bosh Assambleyaga Markaziy Osiyoni yadroviy qurollardan xoli bo’lgan zonaga aylantirish to’g’risidagi taklifni inobatga olib, BMT Bosh sekretari Kofe Annan bu taklifni yadroviy qurollarni tarqatmaslik borasidagi tashabbus deb baxoladi.

Biroq BMT xozirgi Markaziy Osiyoni yadroviy qurollardan xoli zona deb eolon qilmadi. O’zbekiston BMT ning ixtisoslashgan tashkilotlari va komitetlarida xam faol ishtirok etmoqda. Bular ekologiya inson xuquqlarini ximoya qilish, atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish, YuNESKO, YuNISEF, kabi tashkilotlardir. YuNESKO 1946 yilda tuzilgan. Markazi Parij shaxrida, unga 180 davlat aozo. Uning tashabbusi bilan O’zbekistonda ko’p tarixiy sanalar nishonlandi: Ulug’bek (600 yilligi), Amir Temur (660yilligi) J. Manguberdi (800 yilligi), Buxoro, Xiva shaxarlarining 2500 yilligi, Termiz shaxrining 2700 yilligi, «Avesto» kitobining 2700 yilligi nishonlandi. 2006 yilda Xorazm Maomun akademiyasining 1000 yilligini nishonlandi. O’zbekiston BMT ni islox qilish g’oyasini qo’llab-quvvatlamoqda. BMT Xavfsizlik Kengashi aozolari sonini o’rtacha oshirish uning maosuliyati va rolini oshirish. BMT Bosh sektori vakolatini kengaytirish kabi g’oyalarni qo’llamoqda.

O’zbekiston va Evropa Ittifoqi.

Evropa Ittifoqi 1949 yilda tuzilgan. 21 ta davlat aozo. SHtab kvartirasi Bryusselda. Unda ishtirok etish ko’p tomonlama aloqa o’rnatish uchun zarur. Unga aozo bo’lish uchun uzoq muzokoralar olib borildi. Nixoyat 1996 yil iyun oyida Florensiya Sammitida EI davlatlari O’zbekiston Respublikasi Prezidenti o’rtasida partnyorlik va xamkorlik kelishuvi imzolandi. 1999 yilda ushbu kelishuv kuchga kirdi. SHungacha bu xujjat EI davlatlari parlamentlarida va Evropa Parlamentida ko’rib chiqilib, mahqullandi. EI bilan O’zbekiston xamkorligi tubandagi yo’nalishlarda olib borildi:

1. Iqtisodni modernizatsiya (yangilash) qilishni chuqurlashtirish;
2. Mamlakat mustaqilligi, suvereniteti va territorial butunligini qo'llab-quvvatlash;
3. Mamlakatni demokartiyalashni rivojlantirish.

O'zbekiston EI bilan xamkorlikda TASIS programmasini amalga oshirishga katta e'tibor beradi. 2002 yilda O'zbekiston va EI Memorandumi imzolangach bu dastur kuchga kirdi. SHunga muvofiq O'zbekistonda yangi qurilishlar, kichik biznesni rivojlantirish loyixalari tuzishga va shunga pul ajratishga yordam berilmoqda. O'zbekistonda TASIS dasturiga kirgan 80 loyixa qurilib tugallanmoqda.Qiymati 79 mln AQSH dollariga teng EI aozosi davlatlari sarmoyasi ishtirokida O'zbekistonda 491 korxona qurilib ishlayapti. EI davlatlari bilan maxsulot ayirboshlash xajmi 1,2 mlrd. dollardan oshib ketdi. Bundan tashqari TRASEKA loyixasi asosida Evropa-Osiyo transport aloqasini tiklash va rivojlantirish rejalashtirilgan. Buyuk Ipak yo'li qayta tiklandi. SHu loyixaga muvofiq Markaziy Osiyoning besh respublikasi Zakavkaziya orqali Evropa bilan bog'lanadi.

O'zbekiston va EXXT. Evropa xavfsizlik va xamkorlik tashkiloti 1975 yil tuzilib, Xelsinki shartnomasi deb atalgan. EXXT ga 35 davlat aozo (33 ta Evropadan, AQSH va Kanada). O'zbekiston 1992 yildan (fevral) bu tashkilotga aozo. 1995 yil oktabrda Toshkentda EXXT (OBSE)ning Markaziy Osiyo bo'yicha ish yuritadigan Byurosi ochildi. Vena shaxrida O'zbekistonning OBSE dagi vakolatxonasi bor. O'zbekiston-EXXT xamkorligining asosiy masalasi Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlashdir. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov EXXTning qator sammitlarida qatnashdi: 1994 y. Budapeshtda, 1996 y Lissabonda, 1999 y Istambuldagi sammitlarida qatnashib jaxon jamoatchiligi e'tiborini Markaziy Osiyo regionidagi mavjud muammolarga, xususan xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, xalqaro xavfsizlikni mustaxkamlashda EXXT rolini oshirish masalalariga qaratdi.

SHuning bilan birga, tahkidlash joizki EXXTning xozirgi Markaziy Osiyo regioni bo'yicha faoliyatining aniq strategiyasi ishlab chiqilmagan. SHu masalada xavfsizlikni ta'minlashning xamma soxasini o'z ichiga olgan aniq dastur ishlab chiqish va uning bajarilishini ta'minlash lozim. Bu Evropa xavfsizligini ta'minlash uchun xam zarurdir.

O'zbekiston va NATO. NATO 1949 yilda tuzilgan. Unga 17 davlat aozo edi. Xozir 26 ta davlat aozo. 2004 yilda unga CHexiya, Polsha, Ruminiya va Boltiqbo'yi respublikalari qo'shildi. O'zbekiston xam NATO bilan aloqa o'rnatdi: maqsad mamlakat mudofa qobiliyatini mustaxkamlash, Markaziy Osiyoda va jaxonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash. 1994 yildan boshlab O'zbekiston «NATO»ning tinchlik yo'lida xamkorlik dasturiga aozo. Bu dastur jaxonda, shu jumladan Markaziy Osiyoda kollektiv xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston "NATO"ning boshqa qator ilmiy va ekologik dasturlarida xam faol qatnashmoqda.

MDH davlatlaridagi demokratik islohotlarning rivojlanish jarayoni. Mustaqil davlatlar xamdo'stligi (MDX) 1991 yilda 21 dekabrda tashkil etildi. Sobiq Ittifoqdan ajralib mustaqil bo'lgan 12 ta davlat unga aozo. Bu xamdo'stlik

unga aozo bo’lgan davlatlarda eng muxim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, xarbiy va madaniy masalalarni kompleks tarzda xal etish maqsadida tuzilgan.

O’tgan davr ichida juda ko’p uchrashuv va sammitlar bo’lib o’tdi, yuzlagan xujjatlar imzolandi. Lekin ularning ko’plari bajarilmasdan qog’ozda qolib ketmoqda, jumladan, erkin savdo zonasi yaratish xaqidagi xujjat bajarilmadi.

O’zbekiston MDX ning samarali faoliyat ko’rsatish uchun uzoqqa mo’ljallangan tadbirlar ishlab chiqishini talab qilmoqda. O’zbekiston MDX ni siyosatlashtirishga, davlatlar ustida xukmron tashkilotga aylantirishiga qarshi.

Umuman, MDX davlatlar orasida ijodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni saqlash va rivojlantirishda qabul qilingan xujjatlarning bajarilishini ta’minlash, MDX faoliyatini jonlantirish, uning ish samaradorligini oshirish muxim vazifa bo’lib turibdi.

O’zbekiston-Rossiya munosabatlari. 1992 yil 30 mayda- O’zbekiston bilan Rossiya Federatsiyasi o’rtasida do’stlik va xamkorlik to’g’risida shartnoma imzolandi. Bu shartnoma ikki davlat o’rtasidagi xamkorlikni rivojlantirishning xuquqiy asosi bo’ldi.

1998 yil 12 oktabrda O’zbekiston va Rossiya o’rtasida 1998-2007 yillarda iqtisodiy xamkorlikni chuqurlashtirish to’g’risida shartnoma imzolandi.

Rossiya Prezidenti V.Putinning 1999 yil 10-11 dekabr va 2000 yil 18-19 maydagi O’zbekistonga safari ikkala davlat o’rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko’tardi. Savdo- iqtisodiy, xarbiy va xarbiy-texnikaviy, xavfsizlik, Afg’onistondagi vaziyat, xalqaro terrorizmga qarshi kurash masalalari muxokama etilib zarur xujjatlar imzolandi va amalga oshirilmoqda.

2004 yil 16 iyunda O’zbekiston Respublikasi va Rossiya federatsiyasi o’rtasida strategik sheriklik to’g’risida bitim imzolandi. SHunga muvofiq Rossiya – O’zbekiston yoqilg’i-energetika soxasiga 1 mlrd AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritadi.

O’zbeksiton Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Rossiya Prezidenti V.V.Putin taklifiga binoan 2005 yil 28-29 iyun kunlari Rossiyaga qilgan rasmiy safari chog’ida xamkorlikning yangi qirralarini ochish ishga solinayotgan imkoniyatlarni ko’rib chiqish, dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolar yuzasidan ochiq fikr almashish uchun qulay imkoniyat yaratdi.

Tashrif chog’ida savdo-iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy- madaniy, xarbiy va xarbiy texnikaviy aloqalarni kengaytirish va rivojlantirish masalalari muxokama qilindi.

Uchrashuvda ikkala tomon xam xamkorlikning kengayib borayotganligini savdo-iqtisodiy aloqolarga doir ko’rsatgichlar oshib borayotganini qayd qildilar.

2004 yilda O’zbekiston va Rossiya o’zaro savdo xajmi 2003 yildagiga nisbatan 38 foiz oshib 1 mlrd. 641,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi. 2005 yilning dastlabki to’rt oyiga doir ko’rsatgich 2004 yilning shu davriga nisbatan 42 foiz o’sgan.

O’zbekiston bilan Rossiya o’rtasida yoqilg’i-energetika majmuidagi sarmoyaviy xamkorlik diqqatga sazovardir. «O’zbekneftegaz» milliy xolding kompaniyasi bilan «Lukoyl» va «Gazprom» ochiq aksiyadorlik jamiyatlari o’rtasida imzolangan xujjatlar O’zbekiston neft-gaz sanoatiga 2,5 mlrd AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritilishini ko’zda tutadi.

SHuningdek bu uchrashuvda, boshqa ko’plab yo’nalishlar bo’yicha o’zaro

manfaatli yirik loyixalar rejalashtirilayotgani qayd etildi.

Madaniyat va sanoat, tahlim, ekologiya va umuman ijtimoiy xayotning barcha soxalarida izchil muloqotlar, xamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Islom Karimov va Vladimir Putin xalqaro tashkilotlar, jumladan SHXT doirasidagi aloqalar yuzasidan xam fikr almashdilar.

Ikki davlat raxbarlari xavfsizlik va barqarorlikni mustaxkamlash, xarbiy va xarbiy-texnikaviy xamkorlik masalalariga aloxida to'xtaldilar. Yurtboshimiz 2005 yilning 13 may kuni Andijonda ro'y bergan fojeali voqealar xorijdagi ekstremistik markazlar tomonidan tayyorlangan operatsiya ekanligini, unga MDX shu jumladan Markaziy Osiyo mamlakatlarida sodir bo'layotgan jarayonlardan ayri xodisa sifatida qarash mumkin emasligini tahkidladi va bu fikrni isbotlaydigan muxim va aniq dalillar keltirdi.

«Andijon voqealari»-dedi Prezidentimiz, MDX mamlakatlarida uyushtirilayotgan turli «rangli inqiloblar» dan farqli o'laroq mutlaqo yangi shakl va qiyofada amalga oshirilgan mudxish fitnadir. Bu gal «stsenariy mualliflari» va «rejissorlar» «demokratiya parast olomonni» ko'chaga olib chiqmadi. O'zbekistonning mustaqil siyosatini ko'raolmaydigan, Markaziy Osiyoda vaziyatni izdan chiqarish niyatida bo'lgan bu «raxnomalar» olomon o'rniga, ko'poruvchilik bo'yicha yaxshi tayyorgarlik ko'rgan terrorchi va ekstremistlarni ishga soldi». (qarang «Xalq so'zi» 2005 yil 30 iyun)

V.Putin xam I.Karimovning fikrini tasdiqladi va shu kunlari Afg'onistonda jangarilarning xarakatga tushib qolgani va ayrim mamlakatlar chegaralari yaqinida qo'poruvchilar guruxlari to'plangani kuzatilgani, Rossiya maxsus xizmatlari bu xaqdagi Ma'lumotlarga ega ekanini tahkidladi.

Tashrif chog'ida Prezident I.A.Karimov Rossiya mudofaa vaziri Sergey Ivanov bilan xam uchrashib, xarbiy va xarbiy-texnikaviy soxadagi xamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari borasida fikr almashildi. Yaoni xarbiy maxsulotlar etkazib berish, xarbiy texnikani yangilash, kadrlar tayyorlash, birgalikda mashqlar o'tkazish, koinotni tadqiq etish bo'yicha davlatlararo dasturlar tuzish kabi tadbirlar kelishib olindi. SHu jumladan, O'zbekistonda xarbiy maxsulotlar ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar ochish masalasi ko'rib chiqildi.

2005 yil O'zbekiston va Rossiya Qurolli Kuchlari birgalikda xarbiy mashq o'tkazish rejalashtirildi.

O'zbekiston–Rossiya xamkorlikning kelajagi istiqbolli va ishonchlidir. Xozir O'zbekistonda 400 dan ortiq O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. 2005 yil oxiriga borib ikkala davlat o'rtasidagi savdo xajmi 2 mlrd. AQSH dollari miqdoridan oshishi kutilmoqda.2005 yil 14-15 noyabrda Prezident I.A.Karimovning Moskavaga safari chog'ida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi ikkala davlat o'rtasidagi munosabatlarni yangi pog'onaga ko'tardi.

O'zbekiston Respublikasining SHanxay hamkorlik tashkilotidagi o'rni.

SHXT 1996 yilda tuzildi. Unga Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari aozo. «SHanxay beshligi» deb xam ataladi. Maksadi-xarbiy jixatdan o'zaro ishonch xosil qilish, davlat chegaralarida (SHXTda) xarbiy kuchlarni kamaytirish choralarini amalga oshirish.

2001 yil Dushanba uchrashuvida «SHanxay beshligi» «SHanxay forumi» tashkilotiga aylandi. Unda O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov xam kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi. Evroaziyada xavfsizlik va xamkorlikni ta'minlash masalasini xisobga olib, O'zbekiston xam bu tashkilotga aozo bo'lishga xarakat qildi.

2001 yil iyun oyida O'zbekiston xam SHXT ga aozo bo'ldi. SHu uchrashuvda «SHanxay forumi» «SHanxay Xamkorlik Tashkiloti» deb nomlandi va deklaratsiya qabul qilindi. SHu yig'ilishda SHXTning terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida qonventsiya tasdiqlandi. Bu xujjat BMT ning maxsus xujjati sifatida tarqatildi.

2002 yil iyunda Sankt-Peterburgda tashkilotning asosiy xujjati –xartiyasi (ustavi) imzolandi va Sankt-Peterburg deklaratsiyasi qabul qilindi.

2003 yilda SHXTning Sankt-Peterburg Sammitida SHXT Xalqaro tashkilot sifatida shakllanish jarayoni nixoyasiga etdi.

Unda qabul qilingan shartnomaga muvofiq kotibiyat Pekinda, antiterroristik mintaqaviy shtab markazini Toshkentda ish boshlashi xal etildi.

Bu O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurashdagi faol amaliy xarakati, uning shu masaladagi xalqaro tashabbusining tan olinishi edi.

SHXTning rivojlanishida davlat boshliqlarining 2004 yil iyunda bo'lib o'tgan Toshkent sammiti aloxida bosqich bo'ldi. Ushbu uchrashuvda SHXTaozolari o'rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirishga doir 10 ta xujjat qabul qilindi. Bu sammit ishini Rossiya prezidenti V. Putin yuqori baxoladi. Xindiston, Pokiston, Afg'oniston kabi davlatlar SHXT ga aozo bo'lish istagini bildirdilar. Bu esa SHXTning kelgusida yirik xalqaro siyosatda muxim rol o'ynashi mumkinligidan darak beradi.

SHunday qilib O'zbekiston faqat mustaqillik tufayli jaxon xamjamiyatida teng xuquqli davlat sifatida munosib o'rini egalladi.

O'zbekiston jaxondagi yirik, etakchi davlatlar –Rossiya, AQSH, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Frantsiya, Italiya kabi davlatlar bilan, shuningdek, Janubiy Koreya, Xindiston, Janubiy va Janubiy- SHarqiy Osiyo, Yaqin SHarq va Arab SHarqining ko'plab malakatlari bilan xamkorlik qilmoqda. Bugungi kunda iqtisodiy madaniy, siyosiy soxalarda xamkorlik qilish, shuningdek jaxonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, xalqaro terrorizm va narkobiznesga qarshi birgalikda kurash olib borish dunyo davlatlarini birlashtiradigan asosiy omil xisoblanadi.

Xalqaro terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashida o'zaro hamkorlikning ahamiyati. Markaziy Osiyo mintaqasida va butun jaxonda osoyishtalik va demokratik taraqqiyotni ta'minlashda O'zbekiston tashabbuslari va saio-xarakatlarining axamiyati juda sezilarlidir.

Bugungi kunda O'zbekistonda demokratik jarayonlarni shunchaki ehtirof etish emas, balki uni xar tomonlama rivojlantirishga e'tibor berilmoqda. CHunki demokratik qadriyatlarning qanchalik rivojlanish, davlatni, xalqni shunchalik taraqqiyotiga olib keladi. Demokratik qadriyatlarni ximoyalash esa muxim axamiyatga ega. SHuning uchun O'zbekiston tashqi siyosatining eng muxim yo'nalishlaridan biri-mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, xalqlar tinchligiga raxna soluvchi terrorizmning xarqanday ko'rinishiga qarshi qatoiy kurash olib borishdan iborat. Davlatimiz ana shu maqsad yo'lida BMT, EXXT, bir

qator davlatlararo va noxukumat xalqaro tashkilotlar bilan keng qamrovli aloqalarni izchil rivojlantirib bormoqda, ayni vaqtda bu tashkilotlar ishida faol ishtirok etmoqda. Jaxon xamjamiyati O'zbekistonning mintaqa xavfsizligini ta'minlash, nizolarni siyosiy choralar bilan bartaraf etish, Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan xoli xudud deb eolon qilish, narkobiznesga qarshi kurashda saoyi xarakatlarni muvofiqlashtirish, Afg'onistondagi mojoralarni tinch yo'l bilan xal etish borasidagi konstruktiv tashabbuslarini qo'llab-quvvatlamoqda.

1997 yil 19-20 iyul kunlari «6+2» guruxining Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuvi bunga misol bo'laoladi. Unda birinchi bor muxolif tomonlarning yuzma-yuz muzokara olib borishlari uchun imkon yaratilganligini anjuman yakunida «Afg'oniston mojarosini tinch yo'l bilan xal etishning asosiy prentsiplari» xaqida Deklaratsiyaning qabul qilinishini xalqaro jamoatchilik afg'on zaminida tinchlik o'rnatish borasida tashlangan jiddiy qadam sifatida baxoladi.

Keyinchalik Afg'onistondagi ekstremistik kuchlarning yo'qolishiga, Afg'onistondagi bunyodkorlik ishlariga O'zbekistonning salmog'i sezilarli bo'ldi va bu jarayon davom etmoqda.

BMT xavfsizlik Kengashi raisi Bosh assableyada «Afg'onistondagi vaziyat» masalasi ko'rib chiqilishi munosabati bilan, 1999 yil 22 oktabrda Kengash aozolari nomidan Bayonot eolon qildi. Unda afg'on majarosini tinch yo'l bilan xal etish yo'llari ko'rsatib berilgan Toshkent Dekloratsiyasi qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48- sessiyasida so'zlangan nutqida Markaziy Osiyoning yadrosiz zona, deb eolon qilish tashabbusini ilgari surdi. «Xozirgi zamon voqeligi shundayki, bir mamlakatning xavfsizligi boshqa davlat xisobidan ta'minlanishi mumkin emas.-deda yurtboshimiz o'z nutqida mintaqa xavfsizligini butun jaxon xavfsizligi muammolaridan ajratgan xolda ko'rib bo'lmaydi. SHunga asoslanib, O'zbekiston yadro qurolining batamom tugatilishi uchun, yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomaning samarali xarakat qilishi va uning xech bir muddatsiz uzaytirilishi uchun xarakat qiladi. O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining yadrosiz zona, deb eolon qilinishining qatoiy tarafdoridir.

Mazkur tashabbus Prezidentimizning 1996 yil dekabrda bo'lib o'tgan EXXT Lissabon uchrashuvida so'zlagan nutqida yana bir bor yig'ilganlar e'tiboriga xavola etildi.Anjuman qatnashchilari Markaziy Osiyoni yadrosiz zona deb eolon qilish xaqidagi fikrini katta qoniqish bilan kutib oldilar.

1997 yil aprelo oyida Jeneva shaxrida Markaziy Osiyodagi besh davlat ekspertlari mintaqaviy guruxining birinchi yig'ilish bo'lib o'tdi. O'sha yili iyuno oyida O'zbekiston xayoati birinchi bor atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE) boshqaruvchilari Kengashining Vena shaxrida bo'lib o'tgan navbatdagi sessiyasida ishtirok etdi. O'zbekiston xayoati raxbarining rasmiy bayonotida O'zbekiston Respublikasi va mintaqadagi boshqa davlatlarning yadrosiz zona tashkil etish borasidagi qarashlari bayon etildi.

Markaziy Osiyodagi demokratik jarayonlar va davlatlararo hamkorlik. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish-davlatimizning mustaqilligini mustaxkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va Xalq turmushini

yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir. Shuni e'tiborga olgan xolda respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin quyidagi asosiy tamoyillar O'zbekistonning tashqi siyosatiga, uni amalga oshirish yo'llarini belgilashga negiz qilib olindi.

O'zaro munosabatlarni har tamonlama xisobga olgan xolda davlat milliy manfaatlarining ustunligi;

Teng huquqlik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

Mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

Xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustivorligi;

Tashqi aloqalarni xam ichki tamonlama, xam ko'p tamonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida yozib qo'yilganidek, "O'zbekiston Respublikasi Xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan xal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, qoidalariga va Xalqaro huquqning boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi". (17-modda) Mamlakatimizning jahon Xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo'lib tutgan tinchliksevar tashi siyosati uning ilg'or miqyosidagi nufuzi, obro'- e'tiborini ko'tarib O'zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun qulay bo'lgan imkoniyatlarni yaratib bermoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Bizni sotsialistik tuzumdan keyingi bir qator mamlakatlardan farqlab turgan, yuksak darajada rivojlangan yuksak madaniy demokratik davlatlari bilan yaqinlashtirib turgan, jahon xamjamiyatiga har tamonlama qo'shilib ketish uchun yo'l ochib berayotgan narsa fuqarolar tinchligi, millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlikdir". Fuqarolar o'rtasidagi tinchlik, millatlararo totuvlik va do'stlik, ularni avaylab saqlash va mustaxkamlashga intilish azaldan Xalqimizning o'ziga xosfazilati bo'lib kelgan va xozirgi vaqtda xam shunday bo'lib kelmoqda. Xalqlar o'rtasida tinchlik-totuvlik, do'stlik va o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'rnatish millatimizning ongiga, koniga chuqur singib ketgan. O'zbekiston jahonda tinchlik va xavfsizlikni saqlash, tinchliksevar mamlakatlar bilan har tamonlama hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish hamda taraqqiyotga erishishning o'ziga xos yo'lini tanlagan. Shuning uchun xam uning jahon xamamiyatidagi obro' va e'tibori tobora ortib bormoqda. Davlatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, tinchlikni mustaxkamlash va xavfsizlikni ta'minlashda Birlashgan Millatlar Tashkiloti katta rol o'ynaydi. O'zbekiston 1992 yilning 2 martidan boshlab BMTning teng huquqli a'zosidir. Mazkur Xalqaro tashkilot bilan hamkorlikda mintaqamizda tinchlik, barqarorlik, millatlararo totuvlikni ta'minlashga qaratigan ko'pgina savodli ishlar qilinmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1993 yii BMT Bosh Ansambleyasining 48 sessiyasida so'zlagan nutqida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik sohasida BMTning doimiy seminarini tashkil qilish to'g'risida taklif kiritgan edi. 1995 yil 15-16 sentyabrda mazkur seminar-kengashining O'zbekiston poytaxti Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va

hamkorlik masalalariga bag'ishlangan majlisi bo'lib o'tdi. Seminar-kengashda BMT, YeXXK, Islom Konferensiyasi tashkiloti delegatsiyalari, BMT xavfsizligi kengashiga a'zo mamlakatlar, Mustaqillik Davlatlar Xamdo'stligi, Markaziy Osiyo mamlakatlari vaillari, shuningdek mintaqaga tutash davlatlar delegatsiyalari – jami 31 davlat, 6 Xalqaro tashkilot ishtirok etdi. BMT Bosh kotibining maxsus vakili Maxmud Mistirni seminarni ochar ekan, O'zbekiston tashabbusi bilan o'tkazilayotgan ushbu anjuman 50 milliondan ortiq aholi istiqomat qilayotgan Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va hamkorlikni ta'minlash yo'lida muhim ahamiyatga egaligini ta'kidladi. Prezidentimiz I.A.Karimov seminar-kengashda so'zlagan nutqida shunday dedi: "Biz mazkur seminarni mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik tizimini o'rnatish va uni amalga siljitish yo'lida, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari va Xalqlari uchungina emas, balki bu mintaqaga chegaradosh ulkan xudud uchun xam juda zarur bo'lgan hamkorlikni rivolantirish uchun mustaxkam asosni shakllantirishda turli fikr va yondashuvlarni yuzaga chiqarish va ularni bir-biriga yaqinlashtirishdan manfaatdor bo'lgan anjuman deb baxolaymiz". Anjuman qatnashchilari "Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalari bo'yicha Toshkent seminar-kengashi ishtirokchilarining bayonoti"ni qabul qildilar.

Mazkur Bayonotda Markaziy Osiyo davlatlari mintaada vujudga kelayotgan vaziyat uchun o'zlarining mas'uliyatini to'la xis qilib, mintaqaviy xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlikni taminlash jahon xamjamiyatining muttasil rivojlanishiga o'zlarining kollektiv ravishda ko'shadigan muhim xissasi ekanligidan kelib chiqib harakat qilishlarini e'tirof etib, shunday deyilgan: "Boy ijtimoiy-siyosiy, etnik va madaniy rang-barangligi bilan ajralib turgan Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizlik, barqarorlik va izchil taraqqiyot mintaqasi bo'lib qolishi, insoniyat taraqqiyotiga o'zining munosib xissasini qo'shishi mumkin va lozim. Bu maqsadga faqatgina kollektiv sa'y-harakatlar va jahon xamjamiyatining har tamonlama qo'llab-quvvatlashi orqaligina erishish mumkin".

Shuningdek, Bayonotda Markaziy Osiyo davlatlari Afg'onistonda davom etayotgan mojaro va Tojikiston-Afg'oniston chegarasidagi vaziyatdan chuqur tashvishda ekanliklarini izxor qilgan xolda, mintaqaviy xavfsizikning yaxlitligi hamda uni ta'minlashdagi kollektiv mas'uliyatini qat'iy e'tirof etadilar, deb yozilgan. Bayonotda elatlararo ziddiyatlar, narko-biznes, terrorchilik, qurollarning qonunga xilof ravishda joydan joyga ko'chirilishi, insonlarning ko'chishga majbur bo'lishi singari xavf va tazyiqlarga alohida e'tibor berish zarurligi, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, yangi kommunikatsiyaviy tartibni barpo etish, xukumat va xukumatga daxldor bo'lmagan turli organlar ishtirok etishi lozim bo'lgan ekologiya tizimini barpo etish, Orol muammosiga e'tiborni yanada kuchaytirish, Markaziy Osiyo davlatlarining ilmiy-texnik saloxiyatidan foydalanishda hamkorlikni ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlarni tashkil qilish kabi muhim masalalar o'z aksini topgan. Seminar-kengash ishtirokchilari yakdillik bilan Markaziy Osiyo davlatlari o'zlarining BMT va YeXXT ning inson huquqlari bo'yicha talabalarga sodikligini tasdiklaydilar, mintaqada demokratiyalashtirish jarayoni va kamsonli millatlar vakillarini xisobga olgan xolda inson huquqlari muxofazasini ta'minlashni chuqurlashtirishga harakat qiladilar, deb e'lon qiladilar.

Turli davlatlar va Xalqaro tashkilotlar delegatsiyalari a'zolari O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tashabbusi va BMT ning to'la xayrixoxligi bilan o'tgan mazkur seminar-kengash mintaqa xavfsizligini mustaxkamlash yo'lida muhim qadam bo'lishini ta'kidladilar. "O'zbekiston, - deydi Xindiston Respublikasi Tashqi ishlar davlat vaziri Salmon Xurshid, - xamisha tinchlik va hamkorlik tarafdori bo'lib kelgan. Biz 1966 yilning boshida Xindiston va Pokiston rahbarlarining Toshkentda uchrashganliklarini yaxshi bilamiz. O'shanda poytaxtingizda imzolangan tarixiy Toshkent Deklaratsiyasi Xindiston yarim oroliga tinchlik olib kelgandi. Shuning uchun xam O'zbekistonning tinchlik va hamkorlik borasida olib borayotgan faoliyatini munosib baxolash joiz. xozirda O'zbekiston o'z tashqi siyosatini tinch-totuv yashash, barqarorlik va hamkorlik tamoyillari asosida amalga oshirib, jahon xamjamiyatida obro' va e'tibor topmoqda". Toshkent seminar-kengashi dunyo xavfsizligi yo'li mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash orqali o'tishi, boshqacha aytganda, mintaqalar xavfsizligini ta'minlash yo'li bilan jahon xavfsizligini ta'minlash mumkin ekanligini yaqqol ko'rsatib berdi. Mintaqamizda barqarorlik, tinchlikni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar ichida 1995 yili sentyabr oyida BMT tomonidan Nukus shaxrida o'tkazilgan Orol xavzasi mintaqasining barqaror rivojlanishiga bagishlangan konferensiya va unda qabul qilingan deklaratsiya xam muhim o'rin tutishini aytib o'tish joizdir.

BMTning O'zbekistondagi Sobiq doimiy vakili Xolid Malik aytganidek Markaziy Osiyoda "Xavfsizlik va hamkorlikning ishonchli tizimini yaratishda O'zbekiston alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu mintaqa aholisining qariyib teng yarmini tashkil qilgan mamlakatingiz Markaziy Osiyo Xalqlari o'rtasida azaliy hamkorlik aloqalarini yanada mustaxkamlashda, ularning xamjixat bo'lib yashashida, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda hamda iqtisodiy hamkorlik aloqalarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Sirasini aytganda, O'zbekistonning bunday keyin xam keng ko'lamli tinchlik va hamkorlikka oid ana shunday qudratli ovozi doimo yangrab turishiga aminmiz". 1995 yilning oktyabr oyida Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining elliginchi yubiley sessiyasida so'zlagan nutqida I.A.Karimov jahon davlatlari rahbarlari keng jamoatchilik e'tiborini yana bir bor Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan muammolarga qaratib, yalpi xavfsizlikka mintaqalarda xavfsizlikni ta'minlash orqaligina erishish mumkin ekanligini o'qtirib o'tdi. Shuningdek, BMT ning mintaqaviy Xalqaro tashkilotlar munosabatlarini faollashtirish, tangliklarning oldini olish yo'lida uning mintaqaviy tizimlarini yanada rivojlantirish lozimligi to'g'risidagi takliflarni ilgari surdi. Mazkur anjumanning tinchlik va barqarorlikka erishish borasida barcha siyosiy partiyalar, jamiyatdagi sog'lom kuchlar uchun muhim manbalar bo'lishi ishonch xosil bo'lmoqda.

Hayot shunday dalolat beradiki: bugungi kunda notinch va fojiali mintaqalarda joylashgan davlatlarning bir-birini o'zaro anglash va birgalashib harakat qilishini ta'minlabgina butun dunyoda tinchlik va barqarorlikka erishish yo'llarini belgilab olish mumkin. Shuning uchun xam biz uchun barcha tinchliksevar mamlakatlar bilan o'zaro foydali teng huquqli munosabatlarni yo'lga qo'yib, jahon xamjamiyatiga qo'shilishi o'ta dolzarb vazifadir. "Biz uchun yagona to'g'ri yo'l xaloqatli ravishda o'z qobig'iga o'ralib qolish emas, balki bu jarayonda ma'lum

qiyinchilik va nomukammalliklar mavjudligiga qaramasdan, jahon xamjamiyatiga qo'shilish yo'lidir". Barqarorlik, tinchlik, totuvlik bular davlatimizning yangi binosini barpo qiladigan poydevordir. Bu bizning ertangi porloq kunimizga olib boradigan yo'ldir.

"Tinchlik va barqarorlik bular Xalqaro xamjamiyat bilan birlashtiruvchi vositadir. Insonparvarlik, yaxshilik, sofdillik singari umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilgan va birgalikda baxam ko'rgan mamlakatgina xalqigina butun dunyo Xalqlariga yaqin va tushunarli bo'lishi, jahon xamjamiyatiga qabul qilinishi mumkin. Faqat ular bilan teng huquqli, o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatilishi mumkin". Umumjahon xavfsizligi mintaqaviy xavfsizlikka erishishdan, muayyan mintaqadagi konkret davlatlarning xamjixatligi va birgalikdagi harakatidan boshlanadigan jarayondir. Markaziy Osiyoda demokratiya va islohotlarni rivojlantirishga diniy ekstremizm, islom fundamentalizmi salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun xam mojaro avj olgan joyga bevosita yaqin bo'lgan boshqa davlatlar kabi O'zbekiston xam o'z xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga majburdir. Ma'lumki, Markaziy Osiyo mintaqasida xozirgi vaqtda turli siyosiy, iqtisodiy, harbiy, transportga va ekologiyaga old muammolar to'planib qolgan. Mintaqaviy mojarolar, diniy ekstremizm va fundamentalizm, buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik etnik va millatlararo ziddiyatlar, korrupsiya va jinoyatchilik, maxalliychilik va urug'-aymoqchilik munosabatlari, ekologik muammolar mintaqamizdan xavfsizlikka tahdid ko'rsatib turibdi. Bunga 1999 yil fevral voqealari, 2003 yil mart, 12-13 may 2005 yil konli voqealar misol bo'la oladi. Mazkur muammolarni xal qilishda mintaqada Jug'rofiy – siyosat muvozanatni va barqarorlikni saqlab qolish xal kiluvchi ahamiyatni kasb etadi. bu esa, o'z navbatida, yalpi xavfsizlikni ta'minlash muammolarini xal qilishga qo'shilgan sanoqli xissa bo'ladi. Yangi ming yillikka yo'l ochib borar ekanmiz – deydi I.Karimov, xammaga do'stlik va hamkorlik qo'lini cho'zamiz. Xavfsizlik, barqarorlik va sobitqadam rivojlanish degan so'zlar buning ramzidir. Chunki, aynan ana shu tushunchalar har bir mamlakatning har bir Xalqning tinchligi, farovonligi, ravnaqi uchun mustaxkam poydevor yaratadi. Sayyoramizda jug'rofiy-siyosiy muvozanatning ajralmas sharti bo'lib qoladi. Bu har bir insonga kelajakka dadil va ishonch bilan qarash huquqini beradi".

O'zbekiston dunyo uchun ochiq. Biz xam dunyoning O'zbekistonga juda katta qiziqish bilan qarayotganligini xis etmoqdamiz. Bu esa O'zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun eng yaxshi kafolatdir.

O'zbekiston Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan harbiy doktrinaga asos bo'lgan asosiy qoidalar

Xalqaro huquq qoidalari va normalariga og'ishmay rioya etish majburiyatlarini qabul qilish.

Xalqaro bitimlar bo'yicha o'z zimmamizga olgan majburiyatlarni bajarish.

Kuch ishlatishdan yoki kuch ishlatish bilan taxdid qilishdan voz kechish.

Mudofaa qobiliyatini oqilona darajada saqlab turish.

O'zbekistonning harbiy qurilish sohasidagi maqsadlari

O'z tarkibida yaxshi tayyorlangan va ta'lim olgan, professional armiyani

shakllantirish.
O'z xalqiga, ona zaminiga sadoqatli bo'lgan, o'z Vatanining sha'ni va qadr-qimmatini oxirigacha himoya qila oladigan jangchilarga ega bo'lgan armiyani bosqichma-bosqich vujudga keltirish.
Miqdor jixatidan uncha katta bo'lmagan, lekin yaxshi shaylangan, zamonaviy qurollar va harbiy texnika bilan bekamu-ko'st qurollangan armiyani qaror toptirish.
O'zbekistonning xavfsizligini mustaqil ravishda va puxta ta'minlashga qodir bo'lgan qurolli kuchlarni shakllantirish.
Qurolli Kuchlarni jangovar xolatda saqlashni samarali boshqarish
Qurolli Kuchlarimiz miqdori, malakasi ahloqiy, ruhiy qat'iyati, jismoniy tayyorgarligi va intizomi.
Vatan fidoyilarini tayyorlash, o'qitish, milliy qadrlar tayyorlash.
Qurolli Kuchlarni qurol-yarog'lar va harbiy texnikaning eng so'nggi namunalari bilan qurollantirish.
Qurolli Kuchlar jangovar qobiliyatini oshirish omillari.
Sanoatni tezda harbiy maqsadga safarbar qilish, uni keng ko'lamdagi bosqinchilik yuz bergan taqdirda jangovar vazifani bajarishga tayyor bo'lishini ta'minlash.
O'zbekistonning mudofaa qobiliyatiga ta'sir etuvchi omillar
Davlatning iqtisodiy imkoniyati, sanoat imkoniyatlari, uning safarbarlik tayyorgarligi.
Tashqi iqtisodiy va tashqi siyosiy sohalardagi hamkorlik darajasi.
NATO bilan hamkorlik qilish
Harbiy-siyosiy voqealardan xabardor bo'lib turishga.
Bu uyushma doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va ishlanmalardan baxramand bo'lishga.
NATO mamlakatlarining tadbirlarida, jumladan harbiy bo'linmalarning birgalikdagi mashqlarida qatnashishga imkoniyat yaratadi.

14-Mavzu: Markaziy Osiyo xalqlari integratsiyasi
Reja:
Mustaqillik davrida Markaziy Osiyo Xalqlari integratsiyalashuvchi
Markaziy Osiyo umumiy bozorini tashkil etish istiqbollari.
Ajdodlarimiz hayoti, tirikchilik faoliyati uchun Markaziy Osiyo xududi azal-azaldan yaxlit bir makon bo'lib kelgani barchaga ma'lum. Ular bu zaminda chegara nimayu bojxona nima ekanini bilmay ot so'rganlar, karvon yetaklaganlar. Ularni yagona din, uxshash til va urf-odatlar, mushtarak tarix va yashash tarzi kabi omillar birlashtirib turgan. Oktyabr to'ntarishidan keyin, Stalincha milliy chegaralanish natijasida bu xududda "suveren" deb atalgan beshta ittifoqdosh respublika vujudga keldi. Shunday qilib, azaliy qon-qardosh va qo'shni xalqlar-o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar va tojiklar o'rtasida ilk bor sun'iy devor tiklandi. Sobiq SSSR tarqab ketishi arafasida bu respublikalar davlat mustaqilligini e'lon qildi va shu tariqa Markaziy Osiyo mamlakatlarining jahon taraqqiyoti jarayonida munosib o'rin egallab, Xalqaro xo'jalik tizimi bilan integratsiyalashuvi uchun tarixiy imkoniyat tug'ildi. Ammo azaliy qon-qardosh Xalqlar o'rtasida sovet

davrida tiklangan sun'iy devor mustaqillikdan sarmastlik zamonidagi pasport, chegara, bojxona rismiyachiliklari tufayli yanada mustaxkamlandi. Bu endi avvalgisidan xam battarroq g'ov edi. Yangi qiyinchiliklarni yengish, tarixiy ildizlarni, kelgusi taraqqiyot istiqbollarini xis etish. Bunday jasoratli rahbar topildi. "Donishmand ota-bobolarimiz bugun biz "yagona iqtisodiy makon" deb atayotgan iqtisodiy tizimni o'sha paytdayoq shakllantirib ulgurganlar. Bizning bugungi vazifamiz tarix sinovidan o'tgan shu qardoshlik rishtalarini yanada takomillashtirish, unga yangicha mohiyat bag'ishlashdan iboratdir", deb ta'kidladi, O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov mintaqadagi yangi muammolarni xal etish xususida gapirar ekan.

Istiqbolga, taraqqiyotga eltuvchi yo'llar, usullar har xil bo'lishi mumkin, lekin bir narsa xamma uchun bab-baravar: bozor munosabatlari tufayli jadallashayotgan iqtisodiy o'sish mintaqaviy xo'jalik birlashuvini taqozo etmoqda. Bir mintaqada istiqomat qiluvchi talay mamlakatlar imkoniyatlarini birlashtirish va ularni dolzarb umumiy xo'jalik muammolarini yechishga jalb etishning ijobiy samara berishi – tajribada sinalgan qonuniyatdir. Yagona bozor xududi qancha keng bo'lsa, shuncha yaxshi. Tovar, xizmat, sarmoya va mehnatning erkin harakati uchun yagona makon lozim. Ular qanchalik erkin va tez harkat qilsa, milliy bozorlar shuncha tez rang-barang iste'mol mollari bilan boyiydi. Chegara, pasport va bojxona rasmiyatchiliklari bu yo'ldagi sun'iy g'ovdan boshqa narsa emas.

To'g'ri, biz imkoniyatlarimizni faqat mintaqaviy bozorga moslashtirish bilangina kifoyalanmasdan Ovrupo, Amerika, Tinch okeanining Osiyo qismidagi davlatlar bozorlari sari xam harakat qilamiz. Jahon andozalariga mos tovarlar ishlab chiqarishga erishish - O'zbekiston iqtisodiy strategiyasining bosh yo'nalishlaridan biridir. Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiyotining zaif jixati – uning uzoq vaqt mobaynida sobiq Ittifoq sanoat rayonlariga qaram bo'lib kelganidadir. Bu yerdagi ishlab chiqarish va savdo-aloqa tizimi sobiq SSSR yagona Xalq xo'jalik majmui manfaatlariga bo'ysundirilgan xolda qaror topgan edi. Bozor munosabatlariga o'tish, eski kooperatsiya aloqalarining o'zilishi tufayli yoqilgi-energiya vositalari, o'rmon-yog'och, metall, g'alla va boshqa mahsulotlar narxining keskin oshib ketishi mintaqa iqtisodiyotiga, uning moliyaviy ahvoliga jiddiy salbiy ta'sir o'tkazmasdan qolmadi. Birgina energiya vositalari narxining qimmatlashuvi bu yerdagi barcha asosiy tarmoqlarda harajatlarning birdaniga oshib ketishiga sabab bo'ldi. Bunday sharoitda Markaziy Osiyo davlatlari xam qarshi choralar qurishga majbur bo'lmoqda, albatta. Pirovard mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni, shuningdek, yoqilg'i-energetika, yengil sanoat, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatini, qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida xalq xo'jaligida keskin struturaviy qayta qurishlarning jadallashayotgani ana shunday chora-tadbirlardir.

Yana bir misol. Urushga qadar Markaziy Osiyo respublikalarida spirt ishlab chiqaradigan korxonalar mavjud edi. Keyinchalik bu korxonalar yopilib, spirt ishlab chiqarish monopoliyasi boshqa xududlarga berildi. Mana endi, iqtisodiy va moliyaviy qiyinchaliklarga qaramay, O'zbekiston xukumati katta mablag' ajratib Yangiyo'l, Andijon va Qo'qonda yangi spirt zavodini ishga tushirishga muvaffaq bo'ldi. Umumiy bozor yoxud yagona iqtisodiy xudud tashkil etish – ob'ektiv iqtisodiy jarayon. U ixtiyoriylik, o'zaro manfaatdorlik asosida kechadi va bir talay

milliy xo'jaliklarda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan o'zaro ishlab chiqarish, savdo-sotiq va madaniy aloqalarni muntazam rivojlantirish negizida yangi sifat o'zgarishiga sabab bo'ladi. Umumiy bozor-xo'jalik aloqalarini takomillashtirish yo'lidagi iqtisodiyotning asosiy unsurlari hisoblanadigan tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va mehnat zaxiralarining erkin harakatini ta'minlaydigan yaxlit bir makondir. Bu makonda erkin harakat kiluvchi davlatlar, korxonalar, firma va kompaniyalar uchun bir xil raqobat sharoiti yaratiladi.

Yagona bozor shakllanishi uchun shart-sharoitlar shakllanmog'i zarur: ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, mamlakatlar rivojlanish darajasining bir-biriga yaqinligi, davlatlar o'rtasida yagona iqtisodiy xudud tashkil etish. Ma'lumki, bunday shart-sharoit mintaqamizda mavjud. Bundan tashqari, bu yerda demografik vaziyatning uxshashligi (tabiiy o'sish sur'atlari yuqori); xududning mineral xomashyo, xususan, yokilgi-energetika vositalariga boyligi; yagona transport va energetika tizimini yaratish imkoniyatlarining mavjudligi; ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan aholining nisbatan ko'pligi; milliy, madaniy, diniy, tarixiy umumiylik va shu kabi boshqa omillarni xam sanab o'tish maqsadga muvofiqdir. Bularning barchasi umumiy bozorni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Markaziy Osiyo umumiy bozorini tashkil etishdan maqsad-mintaqadagi zaxiralardan samarali foydalanish, milliy iqtisodiyotlarning rivojlanishi bilan bog'liq bir talay muammolarni xal qilishdir. Yagona Markaziy Osiyo bozori zarurati ko'p jixatlardan bir xildagi tovarlarni katta miqdorda ishlab chiqarish imkoniyatlardan tug'ilmoqda. Paxta, meva, sabzavot, ko'mir, gaz, neft, oltin mintaqadagi davlatlarning deyarli xammasida mavjud. Ana shu tarmoqlarda mahsulot miqdori va sifatini belgilash bo'yicha kelishuvlarga erishish, bu ishlarni muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega. ?arbdagi "Umumiy bozor"ga kiradigan Ovrupo davlatlari, neft ishlab chiqaradigan arab mamlakatlari uyushmasi, Afrika va Lotin Amerikasi mintaqasida tashkil topgan iqtisodiy xamjamiyatlar xuddi ana shunday vazifalarni birgalikda amalga oshirishni ko'zda tutadi. Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy hamkorligi inflyatsiya jarayonini chegaralashga xam xizmat qilishi mumkin. Masalan, bir mamlakat miqyosida raqobat ancha zaif kechadi. Agar yagona mintaqaviy bozor vujudga kelib, unda turli mamlakatlar bir xil turdagi tovarlar bilan ishtirok etadigan bo'lsa, raqobat uchun yanada kengrok imkoniyat ochiladi. Natijada tovarlarning sifati yaxshilanadi, narxi pasayadi. Iste'molchining kerakli mollarni tanlash imkoniyati ko'payadi. Ichki bozorda esa u chegaralangan bo'ladi. Aholi o'ziga kerakli molni ichki bozordan topa olmasa, qo'shni bozordan tanlaydi. Umumiy bozorda har bir fuqaro, mamlakati va millatidan qat'i nazar, bir xilda tanlash huquqiga ega bo'ladi. Birov birovga tazyiq o'tkaza olmaydi. Ayirboshlash teng huquqli iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida kechadi.

Markaziy Osiyo davlatlari hamjihatligini rivojlantirish zaruriyatini ko’chayishi.

Yurtboshimiz BMT minbaridan butun Afg’onistonda, Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, Markaziy Osiyoda yadroviy quroldan xoli hududni tashkil etish tashabbusini ilgari surganidan so’ng bu haqda shartnoma 2006 yil sentyabrg’ oyida Semipalatinsk shahrida imzolandi. BMT

Bosh Assambleyasining 61 va 63-sessiyalarida ushbu tashkilotga ahzo davlatlarning ko'pchilik ovozi bilan "Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud" rezolyutsiyasi qabul qilindi, 2009 yilning mart oyidan boshlab esa, bu haqdagi shartnoma kuchga kirdi.

Bugungi kunda yadrodan xoli hududlar butun er sharining 70 foizini tashkil etadi. Dunyoning ko'pgina davlatlari yadrodan xoli hududlar haqidagi 6 ta shartnomani qo'llab-quvvatlamoqda.

1. Antarktida shartnomasi 1959 yil 1 dekabrda qabul qilindi va 1961 yil 3 iyunda kuchga kirgan.

2. Lotin Amerikasi va Karib havzasida yadro qurolini taqiqlash haqidagi Tlatelolko shartnomasi 1967 yil 14 fevralda qabul qilindi va 1969 yil 25 aprelda kuchga kirdi.

3. Tinch okeanining janubiy qismini yadrodan xoli hududga aylantirish haqidagi Raroton shartnomasi 1985 yil 6 avgustda qabul qilindi va 1986 yil 11 dekabrda kuchga kirgan.

4. Janubi-SHarqiy Osiyoni yadro qurolidan xoli hududga aylantirish haqidagi Bankok shartnomasi 1995 yil 15 dekabrda qabul qilindi.

5. Afrikani yadro qurolidan xoli hududga aylantirish haqidagi Pelindab shartnomasi 1999 yil 11 aprelda qabul qilindi.

6. Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud tashkil etish to'g'risidagi Semipalatinsk (Qozog'iston) shartnomasi 2006 yil 8 sntyabrda qabul qilindi va Markaziy Osiyodagi 5 ta davlat rahbarlari tomonidan imzolandi.

Demak, dunyoning 110 mamlakati, yahni jahon hamjamiyatining yarmidan ko'pi yadro qurolidan butunlay voz kechish tarafdoridiri[110]. Bundan ko'zlangan maqsad yadro quroli mavjud bo'lgan hududlarni cheklash, yadro urushi xavfini kamaytirishdir.

Afg'oniston misolida 30 yildan buyon davom etayotgan fuqarolar urushining ayanchli oqibatlarini ko'rish mumkin. Bugungi kunda afg'on muammosini harbiy yo'l bilan hal etib bo'lmasligi yanada ayon bo'lmoqda. Xalqaro terroristlar tomonidan 2001 yil 11 sentyabrda AQSH hududida sodir etilgan jinoiy harakatlar munosabati bilan xalqaro koalitsiya (NATO) kuchlarining Afg'onistonga kiritilishi va u erda tinchlik o'rnatish bo'yicha tanlangan strategiya kutilgan natijalarni bermayapti. Yillar davomida cho'zilib borayotgan urush Afg'oniston xalqining ahvolini tabora og'irlashtirmoqda. Bu mamlakatning shahar va qishloqlarida tor-mor etilgan tolibon qo'shinlarining jangarilari yana qaytadan bosh ko'tarib, Hamid Karzay hokimiyatiga, tinch aholiga nisbatan terrorchilik harakatlarini sodir etmoqda.

Ma'lumki, 1997-2001 yillar davomida faoliyat olib borgan "6+2" guruhi 1997 yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan BMT kotibiyatida tashkil topgan edi. Bu guruh Afg'onistonda o'sha paytda huqmron bo'lgan ikki asosiy harbiy kuch - Ahmadshoh Mahsud boshchiligidagi shimoliy kuchlar qo'shinlari va Mulla Umar boshchiligidagi Tolibon harakati qo'shinlari o'rtasidagi qurolli to'qnashuv va mojarolarni siyosiy yo'l bilan hal etish

[110] Собирова Ш. Ядро қуролидан холи зона // Маърифат, 2006 йил 12 июль.

va bu mamlakatda tinchlik o'rnatishga qaratilgan edi. Mazkur muloqot guruhiga: Afg'onistonga chegaradosh 6 ta mamlakat: Eron Islom Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston bilan birga AQSH va Rossiya davlatlari kiritilgan edi. Muloqot guruhining birinchi uchrashuvi 1997 yil 16 oktyabrda Ng'yu-Yorkda bo'ldi. Mazkur anjuman O'zbekiston rahbariyatining ko'p yillik sahy-harakatlari natijasi edi. Afg'onistondagi urushning o'z vaqtida tinch yo'l bilan hal etilmasligi mintaqaviy va global xavfsizlikka tahdid solishi mumkinligini oldindan ko'ra bilgan O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambliyasining 1993 va 1995 yillardagi sessiyalarida, EXHT (1999) Istanbul sammiti hamda boshqa bir qator nufuzli anjumanlarda xalqaro hamjamiyatning diqqat-e'tiborini afg'on xalqini o'zaro birodarkushlik urushidan xalos etish, mavjud mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish masalalariga jalb etgan edi.

1999 yil 19-20 iyulda "6+2" muloqot guruhining navbatdagi Toshkent anjumanida "Afg'onistondagi mojaroni tinch yo'l bilan bartaraf etish tamoyillari to'g'risida"gi Toshkent deklaratsiyasi imzolandi. Bu hujjatda Afg'onistonda yangi hukumat tuzish, mojaroni tinch yo'l bilan hal etish, qochoqlarni o'z yashash joylariga qaytarish, mamlakat hududini minalardan tozalash, umumiy bitim imzolash, moliyaviy yordam kabi mintaqaviy dolzarb masala ko'tarilgan edi. Lekin 2001 yil 11 sentyabrdagi AQSHga terroristik hujumdan so'ng NATO blokiga ahzo davlatlarning harbiy kuchlari Afg'onistonga kiritilib, Tolibon qo'shinlari tor-mor etilgach, "6+2" guruhi faoliyati o'z-o'zidan to'xtab qoldi. Lekin 2005 yildan keyingi davrda Tolibon harakati yashirin faoliyat yuritib, yana jonlana boshladi. Afg'oniston yana harbiy to'qnashuvlar girdobida qoldi. SHu boisdan ham O'zbekiston Prezidenti 2008 yil 3 aprelda Buxarestda NATO/SEAP (Evroatlantika hamkorlik kengashi) sammitida ishtirok etib, 30 yildan buyon hozirgacha davom etib kelayotgan Afg'oniston mojarosini hal etish yuzasidan bir qator amaliy takliflarni ilgari surdi. Yurtboshimizning 2008 yil avgustida SHHT sammiti doirasidagi ma'naviyatsida esa bu masala yana bir bor tahkidlab o'tildi. SHuningdek, "6+3" guruhini tuzish g'oyasi Prezidentimiz tomonidan 2009 yil 15-16 iyunda Rossiya Federatsiyasining Ekaterenburg shahrida bo'lib o'tgan SHHT anjumanida ham ilgari surildi. Davlatimiz rahbari ushbu guruh eng avvalo Afg'onistonda o'z echimini kutib turgan quyidagi ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etishda muhim rolg' o'ynashiga e'tibor qaratdi:

- oddiy xalqning ehtiyojini qondirish;
- aholi bandligi (ish bilan ta'minlash);
- hokimiyatning vertikal boshqaruv idoralari nufuzini mustahkamlash;
- afg'on xalqining xalqaro koalitsiya kuchlariga nisbatan ishonchini qozonish;
- xalqaro hamjamiyat imkoniyatlari hisobidan Afg'onistonga moddiy yordam va ko'mak ajratish;
- afg'on xalqining diniy, milliy, madaniy qadriyatlari va urf-odatlarini hurmat qilish;
- "6+2" muloqot guruhini "6+3" muloqot guruhiga aylantirish, yahni unda NATO vakolatxonasining ishtirokini ta'min etish lozim. Prezidentimiz Islom Karimov "6+3" guruhi g'oyasiga 2010 yil 27 yanvarda Oliy Majlis qonunchilik

palatasi va Senatining qo’shma majlisida so’zlagan “Mamalakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish – ustuvor vazifamizdir” mavzusidagi ma’naviyatsida ham alohida to’xtalib o’tgan edi. “6+3” muloqot guruhining eng muhim maqsadi – Afg’onistonda bir-biriga qarshi kurashayotgan kuchlarga harbiy harakatlarni to’xtatish dasturini taklif etish, mamlakatni parokanda qilayotgan asosiy muammo va ziddiyatlar bo’yicha o’zaro murosa asosidagi yechimlarni topish, xavfsizlikni ta’minlash hamda barcha tomonlarning manfaatlarini hisobga olgan holda zarur kafolatlarni berish lozimligi qayd etildi.

XORIJIY MANBALAR:

1. Чучин-Русов А.Е. Новый культурный ландшафт: постмодернизм или неоархаика? // Вопросы философии. 1999. №4.
2.. Актуальные вопросы глобализации. Круглый стол // Мировая экономика и международные отношения. 1999. № 4. С. 43.
3. Буркхардт Я. Культура Италии в эпоху Возрождения. Опыт. М., 1996.
4. Иосиф Бродский: творчество, личность, судьба. Итоги трех конференций. СПб., 1998.
5. Киселев Г.С. "Кризис нашего времени" как проблема человека // Вопросы философии. 1999. №1.
6. Гайденко П.П. Прорыв к трансцендентному. Новая онтология XX века. М., 1997.
7. Брок Д. Экономика и государство в эпоху глобализации. От национальных экономик к глобализированному мировому хозяйству // Polilekonom. 1997. № 3, 4.
8. Неклесса А. Конец цивилизации, или Конфликт истории? // Мировая экономика и международные отношения. 1999. № 3. С. 35.
9. Хиллебранд Р.. Вельфенс П.И.И. Глобализация экономики: последствия международной конкуренции территориальных условий хозяйствования для экономической политики // Polilekonom. 1997. № 3, 4. С. 52.
10. Шаститко А. Фридрих Хайек и неоинституционализм // Вопросы экономики. 1999. №6.
11. Евстигнеева Л., Евстигнеев Р. Проблемы синтеза общеэкономической и институционально-эволюционной теорий // Вопросы экономики. 1998. № 8.
12. Фонд "Бюро экономического анализа". Обзор экономической политики в России за 1998 год. М., 1999.
13. Российский статистический ежегодник. Статистический сборник. М., 1998.
14. Евстигнеева Л., Евстигнеев Р. Второе дыхание теории конвергенции // Вопросы экономики. 1999. № 4.
15. История экономических учений (современный этап). М., 1998. С. 516-532.